

A.H. Ayubjonov,  
B.Sh. Akbarova

# XALQARO STATISTIKA



"IQTISODIYOT"

31(02)

A fl

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI




**A.H. Ayubjonov, B.Sh. Akbarova**

# XALQARO STATISTIKA

*O'quv qo'llanma*

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan iqtisodiyot mutaxassisligida tahlil  
olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan



**TOSHKENT - "IQTISODIYOT" - 2019**

UO'K: 311(075.8)

KBK: 60.053.01

**A.H. Ayubjonov, B.Sh. Akbarova.** “Xalqaro statistika”: O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 272 bet.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro statistika sohasida xalqaro me’yorlarga standartlarga, o‘tishini umumlashtiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish statistikaning metodologik tamoyillarini o‘rganishni taqozo etadi.

Ushbu “Xalqaro statistika” o‘quv qo‘llanmasi tashqi savdo, eksport, import, ishsizlik, ishlab chiqarish omillari, aholining tabiiy harakati va migratsiyasi, tashqi savdo narxlari, investitsiya va boshqa bir qancha savollarga javob beradi.

O‘quv qo‘llanmadan oliy o‘quv yurtlarining talabalari, magistrлari, doktorantлari, statistika va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi amaliyot xodimлari ham foydalanishlari mumkin.

*Mas’ul muharrir: TDIU rektori i.f.d., prof. Xodiyev B.Yu.*

*Tarizchilar: TDIU “Statistika” kafedrasi dotsenti, i.f.n., Akbarova Z.;  
O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika  
qo‘mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik  
tadqiqotlar Markazi direktori, i.f.d., prof.  
G‘oyibnazarov B. K.*

**ISBN 978-9943-6002-9-4**

UO'K: 311(075.8)

KBK: 60.053.01

© «IQTISODIYOT», 2019.  
© A.H. Ayubjonov, B.Sh. Akbarova, 2019.

# MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>6</b>
<b>I BOB. XALQARO STATISTIKANING PREDMETI VA METODI .....</b>	<b>9</b>
1.1. Xalqaro statistikaning predmeti.....	9
1.2. Xalqaro statistika metodologiyasi .....	11
1.3. Xalqaro statistikaning vazifalari.....	14
<b>II BOB. XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR VA CHET EL MAMLAKATLARIDA STATISTIKANING TASHKIL ETILISHI .....</b>	<b>19</b>
2.1. BMTning statistik tashkilotlari.....	19
2.2. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatni tashkil etilishining asosiy tamoyillari .....	27
2.3. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi.....	35
2.4. Rasmiy statistik faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikning ahamiyati va dolzarbligi .....	37
<b>III BOB. XALQARO STATISTIKADA QO'LLANILADIGAN ASOSIY GURUHLASHLAR VA TASNIFLAR .....</b>	<b>52</b>
3.1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi .....	52
3.2. Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi .....	53
3.3. Xalqaro savdo tasnifi .....	55
<b>IV BOB. XALQARO AHOLI STATISTIKASI .....</b>	<b>57</b>
4.1.Chet el mamlakatlarda aholi statistikasining tashkil etilishi .....	57
4.2. Aholi harakati ko'rsatkichlari .....	61
4.3. Chet el mamlakatlarda aholi tarkibini o'rghanish .....	64
4.4. Aholining kelajakdag'i sonini aniqlash usullari .....	69
<b>V BOB. XALQARO MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI .....</b>	<b>72</b>
5.1. Xalqaro mehnat resurslari haqidagi tushuncha, ularning tarkibi va taqsimlanishi .....	72
5.2. Xalqaro mehnat bozorida migratsiyani statistik o'rghanish .....	74
5.3. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar statistik tahlili .....	75
5.4. Mehnat resurslarini mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishini statistik o'rghanish .....	76
5.5. Zamonaviy jahon mehnat bozorining statistik tahlili .....	80
5.6. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va uning statistik faoliyi .....	82

<b>VI BOB. XALQARO AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI</b>	<b>87</b>
6.1. Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari	87
6.2. Aholi turmush darajasini umumlashtirib ifodalovchi ko'rsatkichlar .....	89
6.3. Aholining moddiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar .....	90
6.4. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlari qondirilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar .....	91
6.5. Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi o'rsatkichlar .....	92
<b>VII BOB. TASHQI SAVDO STATISTIKASI</b>	<b>93</b>
7.1. Tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari .....	93
7.2. Tashqi savdoda tovarlar importi va eksporti, uni statistik o'rganish .....	94
7.3. Tashqi savdoda baholarning shakllanish xususiyatlari .....	96
7.4. Tashqi savdoni o'rganishning statistik usullari .....	98
7.5. Tovar aylanmasi dinamikasi va savdo tuzilmasini statistik o'rganish....	99
<b>VIII BOB. MILLIY HISOB-KITOBLAR TIZIMIDA TASHQI DUNYO SEKTORI</b>	<b>109</b>
8.1.«Tashqi dunyo» sektori tushunchasi, vazifasi va asosiy hisoblari .....	109
8.2. Joriy operatsiyalar hisobi .....	113
8.3. Kapital harajatlar hisobi .....	114
8.4. Moliyaviy hisob va uning asosiy ko'rsatkichlari .....	115
<b>IX BOB. XALQARO VALYUTA BOZORINI STATISTIK O'RGANISH</b>	<b>118</b>
9.1. O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish sohasidagi islohotlarning tashkiliy-huquqiy asoslari .....	118
9.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda Xalqaro Valyuta Fondining roli va ahamiyati .....	135
9.3. O'zbekistonda valyuta siyosatini erkinlashtirish bosqichlari .....	140
9.4. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari .....	147
9.5. Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi .....	151
9.6. Valyuta kurslari mohiyati va ularni hisoblash usullari. Kotirovkalash. Kross kurs. Spot va forward kurslar. Sotib olish va sotish kurslari, marja .....	152
9.7. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari .....	153
9.8. Valyutaning real va nominal kursi .....	156

9.9. Valyuta kurslarini statistik prognozlash .....	157
9.10. Valyutaning xarid qobiliyati pariteti .....	162
9.11. Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar, ularning tasnifi va statistik tahlili .....	168
<b>X BOB. O'ZBEKISTONGA CHET EL INVESTITSIYALARINI JALB ETISHNI STATISTIK O'RGANISH.....</b>	<b>173</b>
10.1. Iqtisodiyoti o'tish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda qo'shma tadbirdorlikni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari .....	173
10.2. O'zbekistonda qo'shma tadbirdorlik va chet el investitsiyalarini tartibga solish amaliyoti .....	182
10.3. Qo'shma tadbirdorlik va chet el investitsiyalarini jalg etishning ahamiyati .....	191
10.4. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalg etishni statistik o'rghanish.....	199
<b>XI BOB. BMTning XALQARO TURIZM STATISTIKASI BO'YICHA TAVSIYALARI.....</b>	<b>221</b>
11.1. Xalqaro turizmni statistik o'rghanishning iqtisodiy mohiyati va mazmuni .....	221
11.2. Turistik eksport, import va turistik bozor tushunchasi va mazmuni.....	226
11.3. Turizmning shakllari va turlarini statistik o'rghanish .....	228
11.4. Turizm rivojlanishini ifodalaovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi .....	231
11.5. O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining statistik taxlili .....	233
<b>XII BOB. TO'LOV BALANSI STATISTIKASI.....</b>	<b>240</b>
12.1. Mamlakat to'lov balansining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati .....	240
12.2. To'lov balansini shakllantirish tamoyillari .....	244
12.3. To'lov balansini tasniflash va uning MHT ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi .....	251
<b>«Xalqaro statistikasi» fani bo'yicha testlar.....</b>	<b>262</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>271</b>

## KIRISH

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan olyi ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilindi: "Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lami ishlar amala oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Avvalgi uchrashuvlarda talim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, talimning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi"<sup>1</sup>.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarini jaib etgan holda, oquv reja va dasturlarini tubdan qayta qurib chiqish zarur. Oldinizda yoshlarga tarbiya berish, psihologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash boyicha murakkab vazifalari turibti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ta'kidlaganlaridek: "Ishonchim komil, mehnatsevar, tadbirkor va uddaburon xalqimiz erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali mehnat qilishga va munosib hayot kechirishga albatta qodir. Xabaringiz bor, bu yil mamlakatimiz aholisi 33 million kishidan oshdi. Bu, albatta kichkina raqam emas.

Yurtimizda amalga oshirilgan keng qo'llamli islohotlar natijasida fuqarolarimizning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1990-yildagi 67 yoshdan 2017-yilda 74 yoshni tashkil etdi. Bolalar o'limi 3 barobar kamayishiga erishildi. Biz bu boradagi natijalarimizni yanada mustahkamlashimiz zarur. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birga iqtisodiyotning real sektoridagi talabni kamida 10-15 yil oldin prognoz qilib, shunga qarab mutaxassis tayyorlash choralarini ko'rishi zarur".

- Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

- O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududlarda yangi, shu jumladan, yyetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab Yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorish yo'lga qo'yildi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018- yil 5- iyundagi №PQ-3775 qarori.

- Shu bilan birga, mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa soqalardagi isloqotlar Vatanimiz istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lган, yurt ravnaqi yo'lida munosib qissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri etib belgilamoqda.

- Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatlari faoliyat yuritishini ta'minlash orqali Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish hozirgi kunda asosiy maqsad hisoblanadi.

- Ushbu maqsadga erishish uchun mos ravishda, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan holda bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Jumladan:

- Ilg'or xalqaro tajribalar asosida ta'lim tizimini takolmillashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, hamkorlikdagi qo'shma oliy ta'lim sohasida erishilgan yutuqlami xalqaro miqiyosida keng yoritish;

- Zamoniaviy o'quv adabiyotlarini yaratish orqali ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda o'qitishning ilg'or shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- Ish beruvchilarining ehtiyojlari va takliflaridan qamda xorijiy tajribadan kelib chiqib mehnat bozoridan talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejalarini va dasturlar ishlab chiqishni tashkil etish.<sup>2</sup>

Yaqinda Mustaqillikning 28 yilligini nishonlash arafasida turgan O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich, oldindan puxta ishlangan model asosida qurayotganligi natijasida, mustahkam moliyaviy, iqtisodiy, byudjet, bank kredit tizimi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan resurslar zaxirasi yaratildi. Bugungi kunda respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida taraqqiy etgan yuetakchi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgani, yurtimizga investisiyalar orqali yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Shunga qaramasdan, O'zbekiston ham inqirozni bartaraf etishning zaruriy chora tadbirlarini ishlab chiqishi zarur.

Yurtimizda 2017-2021- yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq oliy ta'lim tizimida ham bir qator ijobiylar ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yaxshilash va kengaytirish bilan bir vaqtida oliy ta'lim tizimini isloq qilishni talab qiladi. Buning

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Олий ва ўрта маҳсус таълим соҳасида бошқарувни ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Халқ сўзи газетаси, 12.07.2019 №142

uchun, birinchi navbatda, oliv ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha Davlat standartlarida ko'zlangan fanlarning mazmuni va o'quv dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirib takomillashtirish zarur.

Ushbu o'quv qo'llanma oliv ta'limning "Statistika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahlil oluvchi talabalar uchun Davlat ta'lim standartlari talabalarida ko'zlangan "Xalqaro statistika" fanining O'zbekiston Respublikasi Olyi va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy Dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur o'quv qo'llanma xalqaro statistikaning muhim masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Unda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan va interaktiv ta'lim usullaridan foydalilanigan. Har bir mavzu masalalarini bayon etishda dasturlangan o'quv texnologiyasi tamoyillari qo'llanilgan. Jumladan, asosiy ilmiy tushuncha va kategoriyalar hamda nazariy masalalar mazmunini oydinlashtirish uchun dastlab ular muhim mantiqiy tuzilmaviy elementlar va xarekterli jihatlariga ajratilib, sxema - tarhlar, chizma va boshqa ko'rgazmali shakllar orqali tasvirlangan. So'ngra ular har taraflama izohlanib, hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Mamlakatimizdagi ko'plab korxona va tashkilotlarning tashqi bozorga chiqishi, hamda ularda faoliyat ko'rsata oladigan tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha mutaxassislarining zarurligi iqtisodiy yo'nalishdagi olyi o'quv yurtlarida «Xalqaro statistika» fanini o'qitishini zaruriyat qilib qo'ydi.

Korxona va tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyati ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga egadir.

«Xalqaro statistika» fanini o'rganish, talabardan o'qish jarayonida statistika nazariyasi, makroiqtisodiy statistika, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy nazariya va boshqa fanlarni chuqur va mukammal bilishlarini taqozo etadi.

Har bir bob qo'shimcha adabiy otlar ro'yxati, qisqacha xulosalar, asosiy atama va tushunchalar, mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar bilan yakunlangan. Shu sababli ushbu o'quv qo'llanma talabalar statistik bilimlarni mustaqil o'rganishi uchun ko'maklashadi degan umiddamiz.

O'quv qo'llanmada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ko'p yillar davomida fanni o'qitish jarayonida to'plangan tajribalar umumlashtirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma kamchiliklardan xoli emasligini mualliflar oldindan e'tirof etib, uning mazmuni bo'yicha qilingan holisona taklif va maslaxatlarini bajonidil qabul qilishini bildiradi va sezgir kitobxonlar o'z fikrlarini quyidagi manzilgohga yozib yuboradilar deb umid qiladi: Toshkent - 700063, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, TDIU, Statistika kafedrasи.

# I BOB. XALQARO STATISTIKANING PREDMETI VA METODI

## 1.1. Xalqaro statistikaning predmeti

Xalqaro statistika tushunchasi bir necha jihatlarga ega. Birinchidan, bu mamlakatning ko'plab davlatlari va turli xalqaro tashkilotlarning milliy statistika organlari tomonidan chop etilgan mamlakatga o'xshash ma'lumotlarni jamlamasi. Masalan, Rossiya Federal Davlat statistika xizmati Rossiya va dunyoning boshqa mamlakatlari iqtisodiyotini qiyosiy tahlil qilish uchun ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga olgan "Rossiya va dunyoning Yevropa mamlakatlari" statistik to'plamini va "Rossiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari" to'plamini vaqtiga vaqtiga bilan nashr etadi. MDH Statistika qo'mitasi MDH davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha keng qamrovli ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirma ma'lumotlarga ega bo'lgan kompilyasiya e'lon qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kotibiyati BMTga a'zo davlatlarning statistik ma'lumotlarini tartibga soluvchi turli to'plamlar nashr etadi. Yevropa Ittifoqining Statistika boshqarmasi (Eurostat) muntazam ravishda ushbu mintaqaviy davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqidagi statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi.

Xalqaro statistika ayrim mamlakatlar yoki mintaqaviy guruhlar, shuningdek, mintaqaviy va jahon iqtisodiyotida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning turli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagi eng muhim ko'rsatkichlarini qamrab oladi: aholining soni, mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, YAIMning hajmi va dinamikasi, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muhim turlarini ishlab chiqarish, tashqi savdoning miqdori va tuzilishi, inflasiya darajasi, ijtimoiy - demografik rivojlanish, turmush darajasi va soha boshqalar.

Ikkinchidan, bu statistika nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqish, statistika sohasida xalqaro hamkorlik, metodologik va amaliy masalalarni hal qilishda ilg'or tajriba almashish va axborot almashishning rivojlanishiga yordam berish uchun mo'ljallangan xalqaro tashkilotlarning (BMT ichida va undan tashqarida) statistik ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslanishini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy statistika turli bo'limlari uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqish, manfaatdor davlatlarga zamonaviy statistika usullarni yaratish bo'yicha yordam berish, xalqaro munosabatlarda taqqoslanadigan statistik taqsimotdir.

Uchinchidan, ijtimoiy-demografik va iqtisodiy statistikaning turli yo'nalishlari bo'yicha yagona xalqaro tushunchalar, ta'riflar, tasniflar va ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan xalqaro sandartlar tizimidir. Ushbu standartlar xalqaro tashkilotlar (BMT, XVJ, Jahon banki, OECD, YUNESKO, Yevropa Ittifoqining Statistika boshqarmasi – Eurostat va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan va statistika sohasida Yuqorida qay'd etilgan xalqaro tashkilotlarning muammolarini hal qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu soha mamlakatlarning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati haqida zaruriy ma'lumotlarni bir-biriga solishtirish imkonini beradi. Misol uchun, XVIII asrda taniqli ingliz "siyosiy arifmetikasi"ning nomoyondalari Ulyam

Pette va Gregore King Angliya va Fransiyaning milliy daromadlarini hisobladilar, ushbu ikki mamlakat iqtisodiy salohiyatining nisbiy darajasini qiyosiy tahlil qilish uchun baho bergenlar (bular milliy daromadning dunyodagi birinchi hisoboti va birinchi xalqaro taqqoslar edi). Bunday axborot Angliyaning hukmronligi doirasida Fransiya bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan urushga nisbatan katta qiziqish uyg'otgan.

Biroq, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, integratsiya jarayonlari, mamlakatlarning bir-birining iqtisodiyotiga va global miqyosda o'zaro shov-shuvga, jadallik va tezlikka ega bo'lgan hozirgi bosqichda, xalqaro statistikalar hukumat uchun qaror qabul qilish uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatning mehnat va jahon savdosini xalqaro taqsimlashda ishtirot etishi: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq ko'plab masalalar yuzasidan fikr almashishiga, valyuta kursini tartibga solishga, xorijiy qarzlar, xalqaro miqyos va hokazolarga yordam beradi. Xalqaro statistika biznes, korxonalar va qo'shimchalar, korporativ rahbarlar tomonidan muayyan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun (masalan, investitsion qarorlar uchun) ko'proq qo'llaniladi. Ushbu itse'molchilar guruhi uchun alohida e'tibor fond bozorlaridagi tendensiyalar haqidagi jahon iqtisodiyotini o'rganish bilan shug'ullanadigan tadqiqot tashkilotlari va alohida olimlar shug'ullanadilar.

Xalqaro statistikaning asoschisi deb haqli ravishda belgiyalik olim Adolf Ketleni (1796-1874) hisoblash mumkin. Chunki u birinchilardan bo'lib to'plangan statistik ma'lumotlarga statistik usullar yordamida ishlov berishni qo'lladi. U shuningdek ilk bor Belgiyada Markaziy statistik komissiyani tashkil qilishda taniqli matematik olimlar bilan jonbozlik qildi. A. Kettle matematik bo'lgani uchun u o'z tahlillarida matematik tamoyillariga suyanadi. Ushbu holat statistikani vujudga kelishida boshqa mamlakatlarda statistik tashkilotlarning shakllanishida ham o'z ifodasini topdi. Chet el mamlakatlarda xozirgi kunda xalqaro statistikasi matematikaning alohida qismi sifatida tashkil topdi.

XX asr boshiga qadar chet el mamlakatlarda statistik tashkilotlarning yagona va shakllangan muassasa shakli mavjud emas edi. Statistika aksariyat hollarda sug'urta tashkilotlarda nisbatan rivoj topgan edi. Ular o'z ish faoliyatlarida mijozlarning sug'urta stavkalarini aniqlashda, asosan vafot etish jadvallaridan keng foydalanishgan. Turli davlat va xususiy tashkilotlar iqtisodiy, hududiy, demografik, boshqaruv, tijorat to'g'risida ma'lumotlar to'plash uchun statistik kuzatishlar o'tkazib turganlar. Bunday ishlarni amalga oshirish markazlashtirilmagan edi. Statistik tahlillar olib boriluvchi obyektlar, ko'rsatkichlar, to'plash usullari va ma'lumotlarga ishlov berish ham bir yagona reja asosida amalga oshirilmas edi. Shu sababli, muayyan vaziyatda qulay va oson bo'lgan statistika usullaridan foydalanish keng quloch yozgan edi. Buning natijasida to'plangan ma'lumotlarga ishlov berish, ulardan o'zaro taqqoslashda bir qancha muammolar paydo bo'lar edi.

Xalqaro statistika sohasida ayrim olimlar olib borgan ishlari tafsinga va e'tiborga loyiqdirlar. Masalan, Buyuk Britaniyalik Florens Nayfingeyl (1820-1910), o'zining tibbiyot sohasidagi ishlari statistika usullaridan keng ko'lamda foydalandi va ulardan foydalanishi siyosatchilar, huquqshunoslar va ishbilarmonlar o'rtaida targ'ib qilishga e'tibor berdi.

Statistika rivojiga ingliz olimi Karl Pirson (1857-1936) ham ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi. Uni biz «Pirson mezoni» bo'yicha yaxshi bilamiz.

Statistikada korrelyasion usulning ravnaqida ingliz Frencis Galtonning (1822-1911) xizmatlari kattadir.

Keyinchalik statistika rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olimlardan biri Ronald Fisher (1890-1962) bo'ladi.

## 1.2. Xalqaro statistika metodologiyasi

Har qanday fan o'z o'rganish obyektini ma'lum usullar yordamida o'rganadi.

Xalqaro statistika ham o'z obyektini xususiy metodlari yordamida o'rganadi.

Ular quy'idagilardan iborat:

1. Ommaviy statistik kuzatish metodi;
2. Kuzatish ma'lumotlarini jamlash va guruhash;
3. Turli umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni (masalan, mutloq va nisbiy miqdor, o'rtacha miqdor, indeks va hokazo) hisoblash;
4. Tanlanma kuzatish usuli, statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklar ko'rinishida ifodalash.

Ushbu metodlardan foydalanish ushbu qo'llanmaning tegishli mavzularida keng yoriltiladi.

Ommaviy hodisa va jarayonlar har xil sohalarda kuzatiladi va turli tumandir, ularning kechish sharoitlari ham, tuzilishi ham turlichadir. Demak, bunday hodisa va jarayonlar ko'pdan ko'p shakkarga va turlarga ega. Ayniqsa, ijtimoiy hay otdagi hodisa va jarayonlar o'zining murakkabligi va ko'p o'zaro bog'lanishlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli statistik qonuniyatlар ham ularda har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi va turli jihatlarini ta'riflaydi. O'z-o'zidan ravshanki, ularni qandaydir yagona bir usul yordamida o'rganib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus usullar, yo'llar majmuasi, bilim vositalari zarur.

Umuman olganda, uslubiyat so'zi quyidagi lug'aviy ma'nolarga ega: 1) bilimning ilmiy metodlari haqidagi ta'limot; 2) biror narsani nazariy tekshirish va amaliy bajarish usuli, vositasi; 3) ayrim fan tarmoqlarida qo'llanadigan usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi; 4) ishlash va boshqarishdagi o'ziga xos uslub, ya'ni maxsus yo'llar, usullar majmuasi.

Statistika uslubiyati deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni o'rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy nisbatlarini aniqlash, ularda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni oydinlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar bir necha bosqichlarga, ular esa fazalarga bo'linadi. Bosqich va fazalar o'zining maqsadi, vazifalari va xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi. Shuning uchun har bir faza va bosqichda o'ziga xos tekshirish usullari, yo'llari, vositalari qo'llanadi. Shu bilan birga o'rganilayotgan soha va masalaning xarakteriga qarab, unga mos keladigan u yoki bu usul (yoki usullar

to‘dasi) aniq tekshirishda, uning muayyan fazasi va bosqichida asosiy, yetakechi quroq sifatida ishlataladi.

Keng va to‘la ma‘noda statistik tadqiqot ikkita bosqichdan tashkil topadi:

- 1) Tasviriy statistika bosqichi
- 2) Analitik statistika bosqichi.

Birinchi bosqichda quyidagi asosiy maqsad va vazifalar ko‘zlanadi: o‘rganilayotgan obyektlarni spetsifikatsiyalash, ular haqida ma‘lumotlar to‘plash va qayta ishlash, ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy me‘yorlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni ko‘rkam va ixcham shaklda va zarur xollarda so‘z bilan tavsiflash. Ikkinci bosqichda esa ko‘rsatkichlarni statistik tahlil qilish, ular orasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarni aniqlash va baholash, o‘rganilayotgan obyektlar taqsimotlaridagi qonuniyatlarini oydinlashtirish, ilmiy gipotezalarni ishonchilik jihatdan baholash va statistik xulosalarini chiqarish va hokazolar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi.

Har bir bosqichni, o‘z naybatida, fazalarga bo‘lish mumkin. Masalan, tasviriy statistika bosqichida quyidagi fazalar ajralib turadi: o‘rganilayotgan obyektlar to‘plamini, ommaviy hodisa va jarayonni spetsifikatsiyalash; ular ustida statistik kuzatish o‘tkazish; to‘plangan boshlang‘ich ma‘lumotlarni ma‘lum tartibga solish, umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni ko‘rkam va ixcham shakkarda tasvirlash. Analitik statistika bosqichida esa quyidagi fazalar odatda ko‘zga tashlanadi: o‘rganilayotgan obyektlarning turli belgilari asosida taqsimotlarini tuzib, ulardagi qonuniyatlarini o‘rganish, hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni miqdoriy ifodalash, ularni zamonda rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish, ilmiy gipotezalarni baholash va statistik xulosalar yasash, murakkab jarayon tomonlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni integral tizim shaklida bir butunlikda tahlil qilish.

U yoki bu bosqichning har bir fazasida ommaviy hodisa va jarayonlarni tekshirishning turli usullari, vositalari, yo‘llari qo‘llanadi. Masalan, obyektlarni spetsifikatsiyalash fazasida ularni oddiy yoki murakkab tasmiflash, elementar yoki iyerarxik birlashmalarini tuzib guruhlashlar, ikqilamchi (qayta) guruhlashning turli yo‘llari, klaster tahlil yo‘llari va hokazolar ishlataladi. Statistik kuzatish jarayonida ishlab chiqarish yoki laboratoriya sharoitida tajriba sinovlar o‘tkazish, hisobot yoki maxsus tekshirishlar va ro‘yxatlar amalga oshirish, anketa yoki tanlama usullarda kuzatish va boshqalar qo‘llaniladi. Hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganishda analitik guruhlash, parallel qatorlarni tuzish, ularning egri chiziqlarini diagrammalarda tasvirlash, balans usuli, korrelyasion va regression tahlil usullari, dispersion tahlil usullari, ko‘p o‘lchovli tahlil usullari (omilli tahlil, bosh komponent usuli va h.k.) va boshqa usullardan foydalilanadi. Bundan buyon so‘z asosiy usullar ustida boradi.

Statistika nazariyasi statistik tadqiqotning ikkala bosqichi va ularning barcha fazalariga tegishli umumiy nazariyadir. U mazkur tekshirishning umumiy qoidalarni, uslubiyatini, ya‘ni unda qo‘llanadigan usullarni o‘rganayotgan ommaviy hodisalarning mohiyati bilan bir butunlikda yoritadi.

Ommaviy hodisa va jarayonlarni miqdoriy jihatdan statistika o‘rganayotganda matematika usullaridan ham foydalananadi. Jumladan bir qator statistika metodlari

algebra va sonlar nazariyasiga - to'plamlar nazariyasi, algebraik sistemalar, chiziqli tenglamalar va tengsizliklar sistemalari hamda matriksalar, vektor va Evklid fazolari, determinantlar va hokazolarga tayanadi.<sup>3</sup> Odatda statistika nazariyasi va matematik statistika ikkita mustaqil fan sohalari sifatida qaraladi. Bunday zid qo'yish ularning matematik apparatidagi farqlarga asoslanadi. Statistika nazariyasi elementar, matematik statistika esa murakkabroq matematik yo'llardan foydalananadi.

Ammo mazkur xususiyat ularni alohida fanlar sifatida qarash uchun asos bo'la olmaydi, chunki statistika nazariyasi va matematik statistika yagona fandir. Birinchidan statistikada sodda usullar o'miga murakkab, takomillashgan matematika vositalarini qo'llanilishi umuman ilm-fan taraqqiyotidan kelib chiqadi va uning oqibati hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat statistika taraqqiyotini, balki matematika taraqqiyotini ham aks ettradi.

Ikkinchidan, statistikada qo'llaniladigan barcha matematik vositalar, ular qanday ko'rinishda bo'lmasin, ya'ni arifmetik, algebraik yoki biror oliv matematik analiz bo'lishidan qat'iy nazar, o'z mazmunini matematikaning tarkibiy qismi bo'lmish ehtimollar nazariyasidan oladi va u tomonidan ochiladigan qonuniyatlarga asoslanadi.

Ehtimollar nazariyasi ommaviy hodisalarini sifat mohiyatidan ajralgan holda, umumnazarij jihatdan butunlay musaffo tasodifiy sonlar qatori sifatida qarab muhim xossalarni o'rganadi. Statistika esa Hatto ommaviy hodisalarining umumiyligini qonun va qoidalarini tadqiq qilayotganda ham ularning birgina miqdoriy xususiyatlariiga tayanmasdan, balki vujudga kelish mexanizmiga asoslanadi, yuzaga chiqish sabablarini hisobga oladi. Statistika kursidan matematika usullarini chiqarib tashlashha urinish, ulardan sun'iy ravishda yangi o'quv predmeti sifatida - matematik statistikani shakllantirishga harakat qilish statistika nazariyasining asosiy boyligini hech qanday assosiz musodara qilish bilan barobardir.

Bitoq ushbu ma'ruza matni umumiqtisodiy yo'naliш bo'yicha bakalavr darajasida mutaxassislar tayyorlash dasturiga binoan va talabalarning oliv matematik analiz bo'yicha bilim darajalarini hisobga olib yaratilgani uchun unda matematik apparatni juda soddalashtirishga harakat qilindi. Shu bois nozik matematik yo'llarga tayangan usullar umumiyligini tarzda bayon etildi. Ularni chuqur egallashni xohlovchi o'quvchilar kitob ilovasida tavsiya etilgan maxsus adabiyotlarga murojaat qilishlari mumkin.

<sup>3</sup> Р.Н.Назаров., Б.Т.Тошибутов, А.Д.Дусумбетов. Алгебра ва сонлар назаријаси. I қисм, Т.: Ўқитувчи, 1993й.

### **1.3. Xalqaro statistikaning vazifalari**

Xalqaro statistika faqat fan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga amaliy faoliyatning muhim sohasi hamdir.

Xalqaro statistika doim ommaviy mashg'ulotlarga asoslanadi. Kerakli paytda u o'zining boshlang'ich kuzatishini ham tashkil etadi. Ommaviy boshlang'ich ma'lumotlarni umumlashtirayotganda statistika maxsus usullardan foydalanadi va pirovard natijada umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlab, hodisa va voqealar to'plamiga umumiy baho beradi. Statistika har xil o'lchov birliklaridan foydalanadi. Jumladan, ko'rsatkichlarni pulda, naturada, shartli natura va mehnat birliklarida ifodalaydi.

Xalqaro statistika iqtisodiy hodisalarining vaqt va fazoda taqqoslasmasligini ta'minlash uchun ularni joriy baholardan tashqari o'zgarmas (taqqoslama) baholarda ham ifodalaydi. Shunday qilib xalqaro statistikasining vazifalari va mazmuni jihatdan buxgalteriya va operativ uchyotdan hamda boshqa tarmoq statistikalaridan farq qiladi. Uning qo'llanish joyi keng va murakkabdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro statistika oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, boshqarishni va keng jamoatchilikni haqqoniy statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash.
2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama keng qamrovli ifodalovchi yangi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.
3. Mamlakatimiz turli tarmoqlari iqtisodiy faoliyatini chet el mamlakatlari iqtisodiyoti bilan muvofiqlashtirish yordamida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish.
4. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish manbalarini va omillarini aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 31- iyuldaggi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3165-son qaroriga muvofiq har bir viloyat va shahar statistika boshqarmalarida tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi tashkil etilgan. Ushbu bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjalariiga amal qiladi.

Bo'lim tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha axborotlarni shakllantirish va tahlil qilish sohasi bo'yicha statistika ishlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatini Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatining tarkibiy boshqarmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

1. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) *tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida yagona siyosatni*

*ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash, shuningdek faoliyatni muvoftislashtirish va funksional tartibga solish sohasida:*

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning talablarini o'rganishni hisobga olgan holda istiqbolli maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Davlat statistika ishlari dasturining Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha tahliliy salohiyatni mustahkamlash, Davlat statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uring mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy va bozor islohotlari, iqtisodiyoti tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiflovchi tegishli maqsadli ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini oshirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish;

davlat statistikasi tamoyillariga rioya etilishini va tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlash;

ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarga tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.

b) *xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan tashqi iqtisodii faoliyat va savdo statistikasi metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:*

makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini umum qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida holis, sifatli va dolzarb hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish va idoraviy kuzatuvlar shakllarini kelishishda ishtirok etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha jamiyat ehtiyojlarga muvofiq xalqaro me'yorlar va qoidalar hamda ilmiy ishlanmalarga asoslangan holda axborotlarni tayyorlash metodologiyasini, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash, saqlash, tahlil qilish va etkazib berish tizimini takomillashtirish;

jamiyat ehtiyojlarga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtirish, xalqaro tavsiyalar asosida ko'rsatkichlarni hisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

v) *ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, toplash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:*

Davlat statistika ishlari dasturining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo

statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash;

viyoyatni, uning hududlarini, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan davlat statistika kuzatuvlarini tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi vakolati doirasida tashkil etish va amalga oshirish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshirish hamda dastlabki statistik tahlilini olib borish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistik hisobot ko'rsatkichlarning va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va holisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha statistik ishlarni tashkil etishning statistik axborotlarini yig'ish, qayta ishslash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy ijro hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

xo'jalik yurituvchi sybyektlarga tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid davlat statistika hisoboti ko'rsatkichlarni ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha axborot-statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borishni amalga oshirish, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar berish;

oligan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarni yoki miqdor ko'rsatkichlarni rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi ish faoliyati jarayonida vujudga kelgan arxiv hujjatlarini saralash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlash.

*g) belgilangan tartibda davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlari ijrosi yuzasidan Bo'lim vakolati doirasida yillik va choraklik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtiroy etish;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha ochiq statistik

ma'lumotlarni davlat statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirot etish.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat statistikasi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning viloyatda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasini to'liq oshib beruvchi ko'rsatkichlardan erkin foydalanishlarini ta'minlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi amaliyotiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini joriy etishni amalga oshiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasi bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlarning takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha axborotlardan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida ko'rsatkichlardan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda va yuritishda ishtirot etadi;

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo sohasi bo'yicha davlat statistika kuzatuvi shakllarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limining ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlariiga o'z vaqtida munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsiy mas'uliyatlarini oshirish sohasida:

tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasi metodologiyasi, statistik ishlarni tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha boshqarmanan bo'linmalariga, hududiy statistika organlariga amaliy yordam ko'rsatadi;

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, Boshqarma rahbariyati topshirigiga asosan tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limining uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantriradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan iqtisodiyotning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, iqtisodiy islohotlarni yanada

115461

chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalarni hamda viloyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning tendensiyasini (holatini) hisobga olgan holda ta'minlaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro statistika chet el mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi korxonalar va tashkilotlar hamda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chet el korxonalar, firmalari hamda davlatlari O'zbekiston Respublikasi bilan olib boriladigan iqtisodiy aloqalarining miqdoriy tomonini ularning sifatlari ajralmagan holda muayyan makonda va zamonda o'rganadi.

### **Nazorat va muhokarna uchun savollar**

1. Xalqaro statistika o'rGANISH obyekti haqida nima bilasizq
2. Xalqaro statistikaning predmeti.
3. Xalqaro statistika metodologiyasi haqida nimani bilasizq
4. Xalqaro statistika asosiy vazifalari nimalardan iboratq

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Sidenko A. V. , Matveeva V. M. Mejdunarodnaya statistika. Uchebnik izdatelstvo «Delo i Servis». M; 2012.
2. G.Yu.Dubyanskaya. Ekonomika – statisticheskiy analiz zarabotnoy platyi v Rossii. 1991-2000 g.g. – M., 2013 g.
3. V.E.Adamov. i dr. Ekonomika i statistika firm. Uchebnik. 2013 g.
4. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/gcomm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/gcomm/relays/index_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)
11. [www.europarl.org.uk](http://www.europarl.org.uk)

## **II BOB. XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR VA CHET EL MAMLAKATLARIDA STATISTIKANING TASHKIL ETILISHI**

### **2.1. BMTning statistik tashkilotlari**

Ayrim mamlakatlar bo'yicha statistika sohasida olib borilgan va ayrim mamlakatlarning statistik ma'lumotlar to'plash, ularga ishlov berish, tahsil qilish sohasidagi ishlari xalqaro miqyosda maxsus ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanuvchi xizmatlarni vujudga kelishini taqozo etdi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) Milliy statistik xizmatlar tashkiloti
- 2) Baynalminal va mamlakatlararo hamda nodavlat xizmatlar olib boruvchi tashkilotlar.

Xalqaro statistika 1842- yili xalqaro statistiklar anjumani ko'rinishida yuzaga kelgan bo'sada, Ikkinci Jahon urushidan keyin xalqaro statistikaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Uning asosiy sababi statistik ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash ishlari xalqaro miqyosda keng quloch yozdi. 1946- yili BMT qoshida statistika komissiyasi faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu komissiyaga quyidagi ishlarni amalga oshirish yuklatildi:

- 1) xalqaro statistikaning rivojlanishiga va uni taqqoslash ishlarini olib borishlariga ko'maklashish;
- 2) ixtisoslashgan tashkilotlarning statistik ishlarini muvofiqlashdirishda ko'maklashish;
- 3) BMTning turli tashkilotlari statistik ma'lumotlarni to'plash va tarqatish bo'yicha ko'maklashish;
- 4) xalqaro miqyosda statistika ishining hamda statistik metodlarning yaxshilanishiga ko'maklashish.

BMTning statistika komissiyasi o'zining asosiy ish faoliyati shaklida har 2 yilda bir marotaba yig'ilishib turadigan sessiyalarini hisoblaydi. Uning tarkibi doimo yangilanib turadi.

AQSH, Angliya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Rossiya vaqillari, doimiy a'zo hisoblanadi. Jami 24 ta mamlakat vaqili komissiya tarkibiga kiritiladi. Bu komissiya tarkibida, shuningdek statistika byurosi ham faoliyat ko'rsatadi. Uning zimmasiga xalqaro savdo statistikasi, demografik va sotsial statistika, milliy hisoblar tizimi, xalqaro aloqalar va boshqa statistika tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularga ishlov berish vazifalari yuklangan.

O'tgan asrning o'rtalarida jahon bozorining vujudga kelishi sayyoramizdag'i ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar haqidagi ma'lumotlarning muntazam ravishda kuzatishni talab qildi. Jahon xo'jaligida milliy iqtisodning o'mini aniqlash uchun, uning rivojlanishini taqqoslash uchun xalqaro statistikaga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Ko'rsatkichlarni hisoblash bir hil usullarni ishlab chiqish va ularning yagona toifalarini ishlab chiqish yanada zarur bo'ldi.

Aynan qadimgi davrlardan boshlab mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarga ehtiyoj mavjud edi. Bu ehtiyojlarni har qanday raqamli ma'lumotlar qondirar edi. Bunday ma'lumot buyuk kashfiyotlar davrida va xalqaro savdoning kengayishida, asosan bozor munosabatlarining vujudga kelishi davrida jahon bozorining shakllanishida muhim rivojanish tusini oldi.

XVII-XVIII asrlarda bir qator mamlakatlarda milliy daromad va boylikni baholashga urinishlar bo'ldi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy qudratini o'zar o'Ichashga, boshqa mamlakatlar haqidagi ma'lumotlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi; mohiyatan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ma'lumotlarga ehtiyojlar o'sib bordi. Milliy davlat statistik tizimlari tuzila boshlandi. Yevropa universitetlarida nafaqat yozma statistik va siyosiy arifmetika kurslarini balki, xalqaro taqqoslash kurslari ham o'tila boshlandi.

Xalqaro statistikaning rivojanishiga bir qancha sabablar turtki bo'ldi.

Birinchi navbatda tizimlashtirilgan ko'rsatkichlarni yo'qligi va ko'pincha ularni har xil usullarda hisoblashning muntazam bo'lmasligi, milliy statistik xizmatlarning rivojanmagani va mamlakatlar statistik xizmatlari faoliyatini umumlashtiruvchi xalqaro organlarning yo'qligi shular jurnasidandir.

Yevropalik ko'zga ko'rigan iqtisodchilar A. Ketele va E. Engellarning tashabbusi asosida 1853 yildan boshlab jahondagi yetakchi mamlakatlar statistik ilmiy jamoalari va statistik xizmatlari vaqillarining qatnashuvi bilan xalqaro statistik kengashlarni muntazam o'tkazish masalasi echilgan edi. 1875 yilgacha ushbu kengash sessiyalarida muhim xo'jalik tarmoqlari ko'rsatkichlarining tartiblangan tasniflarni ishlab chiqish takliflari, muhim statistik tadqiqotlar bo'yicha birgalikda ishlar olib borish dasturlari, milliy statistik xizmatlarni yaratish muammolari muhokama qilingan.

Ushbu kengashlar ishida nafaqat statistikaning yondosh sohalaridan statistik olimlar, balki davlat statistika organlarining namoyondalari ham qatnashgan.

Millatlar ligasi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida 30-yillardan qator hodisalarining yakunlarini biliib olish bilan, mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xalqaro statistik yilnomasi va qisqacha rasmiy ma'lumotlarni bosmdan chiqara boshlashdi. Haqiqiy xalqaro statistika asosi shu tarzda tartibga solingan edi. Uni jahon ho'jaligi va boshqa mamlakatlararo aloqalarni tartibga solish uchun, nafaqat chet eldag'i ishbilarmon sheriklar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun, balki iqtisodiy, savdo, madaniy va boshqa aloqalarning rivojanishi bilan mamlakatlarning o'zi haqida ham ma'lumotlarni olish uchun zarur edi.

1946- yil fevralda BMTning iqtisodiy va sotsial kengashi 1-sessiyasida (EKOSOS)- statistika sohasida hamma xalqaro tavsiyalarni tayyorlaydigan organ sifatida-statistika komissiyasi tashkil etildi (SKBMT).

SKBMTning tashkil etilishi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda xalqaro statistikani amaliy qo'llanilishi va sifatini mohiyatan oshirdi. BMT SKNing yaratilishi alohida mamlakatlarda bo'lgani kabi xalqaro tashkilotlarda ham umumjahon statistik ishlarini aynan aniqlab beruvchi markazga aylandi. BMTning statistik standartlari xalqaro tashkilotlar uchun majburiy bo'ladi va ularning ichki faoliyatlaridagi milliy statistik xizmatlar uchun tavsiya qilinadi. Shu bilan birga ular BMTga, xalqaro standartlarga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim qilishi tartibini sharxlaydi. Hozirda

BMT SK to'la muvaffaqiyatli ravishda o'zining asosiy masalalarini echadi va quyidagilarni bajaradi:

- ❖ O'z majlisida bo'lgani kabi EKOSOS va BMT General assambleyasi uchun ham xujjatlarni tayyorlash;
- ❖ BMTning statistika sohalarida boshqaruvlarning metodologik xujjatlari loyihibarini ishlab chiqish;
- ❖ BMTning statistika sohasidagi tavsiyalarni loyiha bo'yicha milliy statistika xizmatlarining mulohazalarini toplash va tavsiya qilish;
- ❖ BMTning statistik ma'lumotlarni bosmadan chiqarish uchun mamlakatlardan va xalqaro tashkilotlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va toplash;
- ❖ Taqqoslash asosida hududiy va umumjahon natijalarini bilib olish va ularning BMTni maxsus muassasalarini ma'lumotlari bilan chalkashliklarini bilish;
- ❖ Milliy statistik xizmatni rivojlantirish uchun BMTning texnik yordamiga muhtojoj bo'lgan mamlakatlar va yo'naliqlarni aniqlash;
- ❖ Umumjahon statistikasini mukammallashtirishga va uning usullarini rivojlanishiga ko'maklashish;
- ❖ Muhim statistik tadqiqotlar rejasini ishlab chiqish;
- ❖ Xalqaro statistika ma'lumotlarini toplash va qayta ishlashning integratsiyalantirilgan tizimini yaratish va rivojlanish;
- ❖ Imkoniyatlarni o'rganib chiqish va BMT statistikasi uchun xalqaro markaz va banklarning aniqlangan ma'lumotlarni yaratishda EHMLarni qo'llash, zamонавија ма'lumot tashuvchilarini va statistik ma'lumotlarning elektron turlarini joriy qilish;

1993 yilda BMT o'zining kotibiyatida iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar va o'tkazilgan siyosat tahlili bo'lishini tashkil qildi. Bu yangi organ, g'oyalarni tahlil qilishiga va BMTning xalqaro tashkilotlar tizimida o'tkazilgan siyosat natijalarini tahlil qilishga yordamlashish uchun ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni ishlab chiquvchi maxsus markazga aylandi. Shu bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik atrof muhitning holati haqidagi ma'lumotlarini toplash asosida, shuningdek mamlakat aholisiga va statistika sohasida texnik yordam ko'rsatish bo'yicha jahon rivojini tahlil qiluvchi hamma vazifalarni birlashtiruvchi muhim mexanizm yaratildi.

Har yili bu xalqaro axborotlar asosida BMTning umumjahon iqtisodiy-ijtimoiy tafsilotlari tayyorlanadi.

Yagona xalqaro statistika tizimi miqiyosida BMT SKning roli oshib bormoqda.

1993 yilda BMT SK milliy hisob-kitob ko'rsatkichlarining xalqaro standart tizimini yangi variantini ishlab chiqdi(CNC-93).Bu standart butun milliy statistika ma'lumotlari tizimi uchun asos hisoblanadi va yagona metodologik axborotli asosda BMTda muhokama qilinadigan hududiy va ko'plab zamонавија global muammolarni hal qilish natijalarini miqdoriy o'lchash imkoniyatlarini yaratadi. BMT SK yaratilishi bilan bir qatorda BMTning hududiy taftishlari vujudga keltirildi.Ular qatorida esa quyidagi hududiy statistiklar kengashi tashkil ettilgan. Yevropa uchun-Yevropa iqtisodiy komissiyasi-EIT; Osiyo va Uzoq Sharq uchun-OUSHIT (hozir bu taftish Osiyo va Okeaniya mamlakatlari uchun-OSKATO); Lotin Amerikasi uchun-LAIK; Afrika

uchun-AIT; G'arbiy Afrika mamlakatlarining guruhini ajratgan holda-GAIK. Ushbu hududiy komissiyalar kotibligida statistik bo'limlar tashkil qilingan. Bu bo'limlar mamlakatlar va hududlar haqida ma'lumotlar to'plash va hududlar sharoitida qo'llanadigan xalqaro statistika standartlarini joriy qilishga yordamlashish uchun hududiy statistika kengashlarining ijro etuvchi organi sifatida tashkil topgan.

BMT tizimini quyidagi maxsus muassasalar faoliyat yuritadi. Xalqaro mehnat tashkiloti-XMT; BMTning savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi tashkiloti-FAO; Xalqaro ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti-YUNESKO; Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti-IKAO; Xalqaro sog'liqi saqlash tashkiloti-XSST; Xalqaro valyuta fondi-XVF; Xalqaro bank-XB; Xalqaro pochta ittifoqi-XPI; Umumjahon shaxsiy aqliy mehnat tashkiloti-USHAMT; Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik-MAGATE; Xalqaro savdo tashkiloti va boshqalar. Bu maxsus muassasalarda o'zlarining mutaxasislik sohalaridagi xalqaro standart loyihalarni tayyorlaydigan statistik xizmatlari mavjud. Bu xujjatlar BMT SK va EKOSOS da muhokama qilib va ma'qullangach, xalqaro statistik standartlarga aylanadi va o'z sohasi bo'yicha mamlakatlardan olingan ma'lumotlar to'plash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular BMT SK va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan mamlakatlar ma'lumotlariga bo'lgan bir hil talabning ko'payishining oldini olish uchun ma'lumotlar almashadilar.

BMT tizimiga kirmaydigan va xalqaro ma'lumotlarni umumllashtirish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar orasidan quyidagilarni aytish mumkin: Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT), Yevropa ittifoqi (EI), Afrika yagonaligi tashkiloti (AYAT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va boshqa qator tashkilotlar. Ularning barchasi ma'lum dastur asosida o'z a'zo mamlakatlarining statistik ma'lumotlarini va o'z tavsiyalariga mos kelgan holda ko'rsatkichlarni bir xil hisoblashni umumlashtiradi, yig'adi va nashr qiladi. Ularning tavsiyalari BMTning xalqaro statistik standartlariga asoslangan, mamlakatlardagi ko'rsatkichlar tizimi tarkibining taqqoslanishini ta'minlaydi.

Bir qator xalqaro tashkilotlar a'zo mamlakatlarning tor soha faoliyatlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradilar. Bunday tashkilotlar safiga kit ovlovchi korxonalar kengashi kiradi (KOKK). Bu kengash hozirda mamlakalarni dengizchilikka rivo'a qilishini nazorat qiladi. Shuningdek yo'qolish xavfi bo'Imagan alohida sut emizuvchilar turini ovalashga kvotalar beradi. Hamma xalqaro tashkilotlarda, ularning statistik xizmatlarida bitta maqsad va vazifa bor – bu ular tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi tarkibini taqqoslanishini ko'rsatishdir.

Xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarning alohida statistik xizmatlari amaliyotida bunday statistik ko'rsatkichlarning standartlashtirilgan tizimini va ularning yagona hisoblash usullarini joriy qilish, xalqaro statistikani mustaqil statistika bo'limida amalga oshiriladi.

Shunisi ravshanki, BMT tizimining Yuqorida keltirilgan (va keltirilmagan) xalqaro tashkilotlarida, shu bilan birga BMTga kirmaydigan tashkilotlarda doimo xalqaro statistikaning katta hajmli ma'lumotlari ayriboshlanadi. Xalqaro tashkilotlar va alohida mamlakatlarning ma'lumotlari oqimini tartibga solish uchun BMTda bunday ma'lumotlarni jahonda munosabatning aniq chizmasi ishlab chiqilgan.

Shunday qilib BMT jahonning asosiy xalqaro statistik ma'lumotlar oqimlarini yo'nalishlarining maksimum darajada bir xillatishini bartaraf qilib, uni to'plash, qayta ishlash, tarqatish xarajatlarini kamaytirib tartibga solib turdi.

Bundan tashqari BMT o'tgan yarim asr ichida har xil mamlakatlarning ko'rsatkichlari taqqosligini, ularning natijalarini ta'minlab, xalqaro statistik ma'lumotlar tarkibining muhim unifikatsiyasini qo'lga kiritdi. Bunga BMTning xalqaro statistik tavsiyalarini ishlab chiqarish bosqichlarining ishlab chiqilgan tartiblari yordam berdi. Bu tavsiyalarini BMT SK talabnomalari asosida tajribalarda tayyorlanadi, keyin BMT SKda va mamlakatlarda muhokama qilinadi va EKOSOSga yakuniy muhokama va tasdiqlashga beriladi. Bundan keyin ushu tavsiyalar BMTning rasmiy xujjaligiga aylanadi. Bunday tartib hamma xalqaro statistik standartlar uchun majburiydir. Bu BMTning nashr qilinadigan statistik ma'lumotlarini maksimal darajada taqqoslanishini ta'minlaydi. 2.1 rasmda xalqaro statistik standartlarning ishlab chiqarish bosqichlari ko'rsatilgan. 2.1 rasmda ko'rsatilgan BMTning xalqaro statistik standartlarining ishlab chiqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Birinchi bosqichda, yangi yoki harakatda bo'lgan xalqaro tavsiyalarning mukammalligini ishlab chiqish, masalan: nomoddiy faoliyatlar ko'rsatkichlarini hisoblashda yangi standartlarni ishlab chiqish uchun talablar aniqlanadi.

Bunday vaqtida BMT SK majlisida yangi standartni tayyorlash masalasi echiladi va BMT SKga, BMTning o'sha xujjati bo'yicha taklifini tayyorlash uchun ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruhini yaratish vazifasi yuklatiladi. Statistikaning umumiyligi muammolari bo'yicha ishchi ekspertlar guruhi mamlakatlar mutaxasislaridan vujudga keltiriladi. Statistikaning alohida maxsus muammolarining loyihasi BMT tizimidagi maxsus muassasalar ekspertlari tomonidan tayyorlanadi. Ikkinci bosqichda, BMT SK ekspertlar taklifini to'playdi va umumlashtirib loyihami milliy statistika organlariga baho va mulohaza qilishga yuboradi. Uchinchi bosqichda, BMT SK ushu tavsiya loyihasi bo'yicha aniq mulohazalarni olgandan keyin, u ushu fikr, mulohaza va tuzatishlarni umumlashtirib BMT xujjatining yagona loyihasi shakliga keltiradi.

To'rtinchi bosqichda, BMT SK bu fikr – mulohaza va tuzatishlarni BMT xujjatinining loyihasiga kiritadi, shu bilan birga uni BMT SKga taqdim etadi.

Beshinchi bosqichda, BMT SKga taqdim etilgan BMT xujjatinining loyihasini har tomonlama muhokama qiladi va zaruriyat paytida tuzatishlar yoki anqliklar kiritadi. Bundan keyin xujjat loyihasi EKOSOSga topshiriladi.

Oltinchi bosqichda, BMTning statistik standart tavsiyasi EKOSOSning majlislaridan birida ko'rib chiqib tasdiqlanadi va keyin xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarning statistik organlari qo'llaydigan BMTning rasmiy xujjati bo'ladi.

BMTning uslubiy xujjati 6ta rasmiy tilda nashr qilinadi, shu jumladan rus tilida, birinchidan – bu BMTning M seriyali xujjati(metodologik), ya'ni BMTning standartlari va tavsiyalar; Ikkinchidan – BMTning G<sup>+</sup> seriyali-alohida statistika bo'limlari bo'yicha metodologik tadqiqot xujjatidir.


BMTning katta nashrlaridan tashqari BMT tizimiga kirmaydigan boshqa xalqaro tashkilotlarni hilma-xil statistik nashrlari ham mavjud, lekin bular ma'lum darajada BMTning statistik standartlariga asoslanadi.

Butun xalqaro statistik ma'lumotlar nashri, taqqoslash asosida butunlay har xil mamlakatlarning rivojlanishga intilish haqidagi haddan tashqari muhim ma'lumotlari manbaidan tashkil topgan.

### **Hisobot va statistikaning xalqaro standartlari**

Xalqaro standartlar, har xil davlatlarda hisoblangan ko'rsatkichlarning taqqoslanishi uchun o'rnatiladi, ularning yordami bilan dunyodagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bir xil ta'rif-tavsiy qilinadi va butun dunyo, hududlar, mamlakatlar bo'yicha natijalar chiqariladi.

BMTning bunday xujjalariiga avvalo, **milliy hisob-kitobchilik tizimi** kirdi. U 1951-yilda BMT ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va 1953-yil EKOSOSda tasdiqlangan. Hozirda amaliyotda bo'lgan xalqaro MXT varianti bir necha yil davomida tayyorlandi, 1993-yilda u EKOSOSda tasdiqlandi va xalqaro tashkilotlar va davlatlarda amaliy qo'llash uchun tavsiya qilindi. Ushbu xalqaro standart, to'lov balansi bilan o'zaro bog'liqlik bo'lgan tarmoqlararo aloqalar jadvaliga va ishlab chiqarish omillarining nazariyasiga asoslangan bir xil ko'rsatkichlarini qo'llashni tartibga soladi.



**2.1-rasm. Xalqaro statistika bo'yicha BMTning tavsiyalarini ishlab chiqish chizmasi.**

Rasmdagi sonlar ma'nosi: 1 – boshlang'ich so'rov; 2 – taklif loyihasi; 3 – davlatlar mulohazasi; 4 – ilk loyiha; 5 – komissiya loyihasi; 6 – BMT tavsiyasi.

Bunday ko'rsatkichlar tizimi yordamida mamlakatdagi qayta ishlab chiqarish jarayonlari va xo'jalik sektorlaridagi qayta ishlab chiqishda taklif-tavsiya qilinadi.

BMTning umum uslubiy xujjalari qatoriga XVF mutaxassislari tomonidan tayyorlangan to'lov balansini tuzishni ko'rsatish mumkin. Uning 1993 yildagi beshinchisi nashri uslubiy jihatdan MXT – 93 bilan o'zaro bog'langan. U mamlakatdagi har bir xo'jalik sektorida egalik qilay otgan sybyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatlar natijalarining ko'rsatkichlarini bir xil hisoblashga yordam berish uchun taklif qilingan.

Bunday muhim xujjat bo'lib, 1979 yilda milliy statistika fondlarining tamoyillarini boshqarish xujjatlari hisoblanadi. Ularda 1993 yilda aniqlik kiritilgan va MXT – 93ning tarkibiy qismi bo'lgan iqtisodiy xarajatlar ko'rsatkichlarini hisoblash usullarining asoslari bayon qilingan.

1) Har qanday faoliyatning xalqaro standart tasnifi – MSOK.

U xo'jalik tarmoqlarining statistik ko'rsatkichlarini guruhashni tartibga soladi. O'zbekistonda unga o'xshash – OKONX, har bir holatda kirim kalitlari bilan MSOKga indekslar, mos keladi. U 1949yilda bиринчи bo'lib BMTda ishlab chiqildi va 1958, 1968 va 1990 yillarda aniqliklar kiritildi.

2) Xalqaro standart savdo tasnifi – XSST. U bиринчи марта 1951- yilda ishlab chiqilgan va 1961-, 1968-, 1975- va 1990- yillarda aniqliklar kiritilgan. 1953-, 1961-, 1987- yillarda indekslar bilan to'ldirilgan.

3) 1987- yilda BMTda yirik iqtisodiy guruhlarda tovarlar tasnifi ishlab chiqildi(YIGTT). Unda ishlab chiqarish vositalarini eksport-import uchun tovarlar, oraliq va iste'mol tovarlari aniqlanadi.

4) YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan, xalqaro standart ta'lif tasnifi 1974 yildan boshlab, uch asosiy ta'lifning bosqichida o'qiyotgan yagona guruhlar uchun foydalani moqda.

5) 1958- yildan boshlab, MOTda ishlab chiqilgan xalqaro standart maslaklar tasnifi faoliyat yuritmoqda, unga bir necha marta aniqlik kiritilgan.

6) Xalqaro standart bandlilik tasnifi. U ham MOTda ishlab chiqilgan aholi bandlilik turlarini ta'rif-tasnif qilish uchun foydalaniladi.

7) Xalqaro standart kasalliklar, o'limlar va nogironlik tasnifi. U 1948- yilda VOZ tomonidan ishlab chiqilgan va sog'liqni saqlash organlarining joriy amaliyotini aks ettirish uchun bir necha marta aniqlik kiritilgan.

Odamlarning turli hil faoliyat yuritish sohalari bo'yicha yana o'nlab boshqa xalqaro tasniflar mavjud. Oxirgi vaqtda maxsus xalqaro turizm ko'rsatkichlarini tasnifi ishlab chiqilgan.

Ko'rsatkichlami hisoblab chiqishni boshqarish xalqaro standartlari nihoyatda ko'r ko'rsatib o'tilgan. Bu guruhda ko'proq amaliy e'tibor BMTning statistik yilnomasiga uslubiy izohlar va uni to'ldiruvchi BMTning yillik statistik ma'lumotlari molik. Xalqaro mehnat statistikasi va boshqa qator nashrlarga bir xil uslubiy izohlar beriladi. Umumjahon tadqiqotlari aholini va turar joylarni ro'yxatga olish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo va hokazolarni tartibga solish haqida uslubiy ko'rsatmalar asosiy rol o'ynaydi. Statistika uchun BMT ST tavsiyalari va boshqarishlarida mos keladigan ko'rsatkichlar hisobining usuli va tartibi kelajakdag'i kashfiyotlar va aniqlashlarni qo'lga kiritdi. Qisman aholining tabiy harakati; aholini ro'yxatga olish tartibining tamoyil va tavsiyalari; uy-joylarda iste'molni baholash usuli; transport ishlarini baholash usullari va aniqlanishi, ko'rsatkichlarini hisoblash tamoyillari mufassal ravishda ishlab chiqilgan. O'xshash tavsiyalar BMT tizimining maxsus muassasalarida ham tayyorlandi. Shunday qilib MOT bandlik va ishsizlik, ish haqi, ish vaqt, iste'mol baholarining indeksi, ishlab chiqarish falajligi, mehnat unumdarligi va boshqa tarmoqlar statistikasi bo'yicha tavsiyalarni nashr qiladi. FAO – qishloq xo'jalik hisob-kitob balansini olib borish, alohida mahsulotlarning

ko'rsatkichlarini, qihloq xo'jalik maydonlarining, hosildorlikni, alohida savdo-sotiq turlari oborotining balansini olib borish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqaradi va mukammallashiradi. YUNESKO – maktab muassasalaridagi iste'mol ko'rsatkichlarini; ta'lif xarajatlarini, o'quvchilarning o'qishni tashlash sabablarini; ta'lifni to'xtatishdan qilingan yo'qotishlarni; kitob chiqarishni va davriy nashriyot, fan-texnika rivojining ta'rif-tavsiyalarini hisoblab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqdi. Oilalar byudjetlarini tanlanma tadqiqot qilish, uy xo'jaligini tanlanma tadqiqot qilish, turli xil statistik kuzatish obyektlarini ro'yxatga olib borish, «ishlab chiqarish xarajatlari» jadvallarini tuzish va ulami tahsil qilish muammolari va hokazolar bo'yicha boshqarishda muhim rol o'yndi.

Ma'lumot guruhlarida BMTning o'nlab xalqaro standartlari bor. Ularga quyidagi muntazam aniqlaydigan va yangilaydiganlarni belgilaymiz.

- ❖ Xalqaro o'chamlar va vaznlar.
- ❖ Statistika uchun geografik hududlarning nomenklaturasi.
- ❖ Jahon mamlakatlari va millatlarning nomlari.
- ❖ Xalqaro standartlar ko'rsatkichlari.
- ❖ Jahonning bojxonalarini zonalari.
- ❖ Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan statistik ko'rsatkichlarning ro'yxati.
- ❖ Koeffitsientlarning milliy o'chov birligidan metr o'chov birligida qayta hisoblash.
- ❖ Aholining tabiiy harakatini ro'yxatga olish usullarining ma'lumotnomasi.
- ❖ Jahon statistik tashkilotlarining ma'lumotnomasi.
- ❖ Jahon maorif tashkilotlarining ma'lumotnomalari.

Hozirda statistika sohasi bo'yicha 150dan ortiq xalqaro standartlar qo'llanilmoqda. Ulardan 60tasi BMT SKda qolganlari esa BMT tizimining maxsus muassasalarida ishlab chiqilgan. Bunday standartlar asosida mamlakatlar uchun BMTda maxsus so'rovnomalari tuziladi. Bu so'rovnomalarda xalqaro tashkilotlarni qiziqtiradigan tegishli ko'rsatikchlar bor va bular bo'yicha mamlakatlar tomonidan ma'lumotlar so'raladi.

Ushbu so'rovnomalarda xalqaro standartlarga mos ravishda bunday ko'rsatkichlarni qanday hisoblashning qisqa uslubiy tushuntirilishi mavjud. Bunday so'rovnomalalar yordamida BMTning statistik xizmatlari xalqaro statistik ko'rsatkichlar tizimida ishlab chiqilgan muhim ma'lumotlar yig'iladi. Uning xalqaro tashkilotlar tarmoqlari orqali o'tish yo'llari 4.1 rasmida ko'rskatilgan.

Statistika o'z ko'rsatkichlarini ma'lum darajada buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslanadir. Shuning uchun 1968-yilda BMT SK MXT tamoyillari bilan buxgalteriya hisoboti tamoyillarini o'zarbo'g'lashga harakat qiladi. Xalqaro buxgalteriyalar uyushmasi: standart buxgalteriya qo'mitasi bilan (1973-yildan), buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi (1977-yildan), Yevropa buxgalter-ekspertlari federatsiyasi va boshqalar bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mana shu maqsadlar uchun 1982 yilda mamlakatlarning davriy aniqlanadigan xalqaro standartlar buxgalteriya hisobotini amaliyotda joriy qilishda yordamlashadigan xalqaro standart hisob-kitob bo'yicha BMTning hukumatlararo ekspert guruhi tuzildi. Hozirda MXT – 93

tamoyillariga asoslangan 30 tadan ortiq bunday standartlar kamchilik bilan faoliyat yuritmoqda. Bunday standartlar yanada to'liq va muntazam ravishda Fransiyada, umummilliyl hisob rejasи orqali joriy qilingan.

Buxgalteriya hisobotining xalqaro standartlarida uning muhim hisob bo'limlari va ularning taqqosligi bo'yicha mos ko'rsatkichlarning tarkibini bir xil tushunishni ta'minlaydigan muhim holati tartibga solinadi. Bu hisobotlarda hisobni shakllantirishning qattiq majburiyatlarisiz ishlab chiqish imkonini beradi. Hamma buxgalteriya hisoboti standartlarini quyidagi bo'limlar bo'yicha guruhlash mumkin:

- ❖ Umumuslubiy
- ❖ Tashkilot faoliyatining umumiyo yo'nalishini ta'rif-tavsif qiladigan.
- ❖ Ularning alohida faoliyat turini ta'rif-tavsif qiladigan.
- ❖ Mol-mulk va aktivlarning alohida turlarini hisobga oladigan.
- ❖ Davlat subsidiyalari va ijtimoiy chegaralarini hisobga oladigan.

## **2.2. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatni tashkil etilishining asosiy tamoyillari**

Chet el mamlakatlarida statistik ma'lumotlarni jamlash, ularga ishlov berish, hamda tahlil qilish ishlari il qilish ishlari xizmatlar zimmasiga yuklangan. Tuzilish nuqtai-nazaridan ushbu statistik xizmatlar butunlay davlat tomonidan nazorat qilinadi yoki bo'limsa, ayrim vazirliklar, qo'mitalar zimmasiga yuklangan.

Statistik xizmatlar markazlashgan yoki markazlashmagan bo'lishi mumkin. Statistik ishlarni markazlashgan holda olib borish G'arbiy Yevropa davlatlarida va Kanadada keng tarqalgan. Markazlashmagan statistik xizmatlar tizimi AQSH, Yaponiya, Fransiyada tashkil etilgan. Buyuk Britaniyada esa aralash tizim mavjud. Har bir statistik tizimning o'zining ijobjiy va salbiy tomonlari mavjud.

Markazlashgan holda olib boriladigan statistik ishlarni yagona dastur asosida olib borish imkoniyati paydo bo'ladi.

Markazlashmagan holda olib borilayotganda esa, har bir vazirlik, qo'mita zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zining ichki imkoniyatlaridan, talablaridan kelib chiqqan holda to'playdilar.

O'zbekistonning zamonaviy statistikasi – bu shunchaki tashkilotlardan olingen davlat statistika hisoboti ma'lumotlarini oddiy jamlash uchun "mashina" emas, balki xalqaro metodologiya asosida katta miqdordagi statistik va tahliliy hisob-kitoblar va baholashlardir.

Statistik jadvallar va tahliliy materiallarni tayyorlash uchun, hozirgi vaqtida turli manbalardan olinadigan milliondan ortiq har xil turdag'i ko'rsatkichlardan, shu jumladan yuridik shaxslarning hisobotlari, tahliliy materiallar va davlat organlarining ma'muriy ma'lumotlar bazalari, maxsus o'qitilgan intervuyerlar tomonidan o'tkaziluvchi so'rovlar va bevosita kuzatuvlardan foydalilanadi.

Ular asosida makroiqtisodiy indikatorlarni baholash, respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar va omillarni tahlil qilish, shuningdek O'zbekistonning ko'rsatkichlarini boshqa mamlakatlarning tegishli

ma'lumotlari bilan taqqoslash imkonini beruvchi statistik ma'lumotlar to'plamlari shakllantiriladi va tarqatiladi.

Bunda, davlat statistika organlari tomonidan Davlat statistika ishlari dasturi doirasida har yili shakllantiriluvchi 10 milliondan ortiq jamlanma yoki hisoblab chiqarilgan ko'rsatkichlardan 22,9 foizi – makroiqtisodiy statistikaga, 51,8 foizi – real sektor statistikasiga, 25,3 foizi – ijtimoiy statistikaga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, jamiyat va iqtisodiyot o'zining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun statistik axborotlarning faqat turli-tuman bo'lishiga emas, balki ularning sifatiga ham Yuqori talab qo'ymoqda, chunki yetarlicha aniq va ishonchli bo'limgan ma'lumotlar asoslanmagan yoki xato xo'jalik qarorlari yoki ijtimoiy choralar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Bunday sifatni ta'minlash uchun faqat statistik hisob-kitoblarda xalqaro miqyosda uyg'unlashtirilgan ilmiy statistik metodologiyani qo'llash yetarli emas, balki tizimli asosda sifatni boshqarishning innovatsion usullari va texnologiyalarini joriy etish zarur.

Ko'pchilik davlatlarning milliy statistika tashkilotlari xalqaro darajada kelishilgan yagona metodologiya asosida statistik jarayonlar va statistik natijalarning sifatini muntazam ravishda baholaydilar va uni yanada yaxshilash choralarini ko'radilar.

Xalqaro statistika amaliyotida "sifat" atamasi keng ma'noda talqin qilinadi hamda statistik jarayonlar va statistik natijalar foydalanuvchilar va manfaatdor tomonlarning talablariga qanchalik yaxshi javob berishining barcha aspektlarini qamrab oladi.

Yaxshi sifat foydalanuvchilarning ma'lumotlar to'plamiga bo'lgan ehtiyojini qondirishnigina emas, balki respondentlarning hisobot maxfiyligi va hisobot yuklamasiga oid bezovtaligini bartaraf etish, statistik hisob-kitoblarning ishonchli metodologiyasini ta'minlash, ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish xarakatlarini maqbullashtirish, axborotlarning xolisligi va beg'arazligini kafolatlovchi qonunchilik bazasining mavjudligini bildiradi.

90-yillarning o'rtalaridan boshlab, bir qator mamlakatlardan xalqaro tashkilotlar sifatni boshqarish vositalarini, konsepsiyanidan boshlab to'sifatning tartib-tamoyillari va ko'rsatkichlarining bataysil to'plamlarigacha ishlab chiqishmoqda. Lekin, bugungi kunda milliy statistika organlari foydalanishi uchun xalqaro darajada kelishilgan yagona qo'llanma mavjud emas.

Dunyoda eng keng foydalaniluvchi sifat standarti ISO 9001 sifatni boshqarish tizimlari seriyasi hisoblanadi, shu bilan birga ba'zi xalqaro ekspertlarning fikricha statistika organlari foydalanishi uchun ISO "ISO 20252:2006 market, opinion, social research, vocabulary and service requirements" (bozor, fikr, ijtimoiy tadqiqotlar, lug'atlar va xizmat ko'rsatish bo'yicha talablar) seriyasi yoki Yevropa sifat menejmenti fondining "EFQMni takomillashtirish modeli", Umumiy sifatni boshqarish bo'yicha standartlar (TQM). Ko'rsatkichlarning muvozanatlashtirilgan tizimi (SSP), Boshqarish vositasi (BSC) kabi maxsus sifat vositalari ko'proq mos keladi.

1994-yilda BMTning Statistika komissiyasi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy statistikasining asosiy tamoyillari"ni nashr qildi. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan

10 ta tamoyillar BMT tomonidan statistikada sifatni boshqarish tizimiga nisbatan eng asosiy deb tan olingen. Bundan tashqari, Statistika faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha qo'mita tomonidan 2005-yilda "Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro statistika faoliyatini tartibga solish tamoyillari" e'lon qilindi.

Yevropa statistika tizimi doirasida, shuningdek "Yevropa statistika tizimining sifat bo'yicha deklaratsiyasi" ("ESS Quality Declaration") ishlab chiqilgan va 2001 yilda Statistika dasturi bo'yicha qo'mita tomonidan qabul qilingan, uning asosida Yevropa statistika amaliyoti kodeksi qabul qilindi va 2005 yilda nashr qilindi.

Kodeks Yevrostat va Yevropa Hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarning milliy statistika boshqarmalariga Yuqori sifatli statistikani ishlab chiqarishda umumiyligi va keng qamrovli yondashuvga rioya qilish majburiyatini yuklaydi. U "statistikaning sifati" tushunchasining ta'rifini va 15 ta asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Kodeks har bir tamoyil uchun ilg'or amaliyotni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning to'plamini belgilaydi.

Kelishilgan yondashuvni qo'llash maqsadida, Yevrostat tomonidan "Sifatni ta'minlashning bazaviy tamoyillari" ("Quality Assurance Framework") ishlab chiqilgan bo'lib, ular sifatni baholashning murakkablik darajasi o'sib borishi bo'yicha to'rtta turini: o'zini-o'zi baholash, qo'llab-quvvatlangan o'zini-o'zi baholash, kollegial sharh, o'zgaruvchan sharhni, shuningdek sifatni ta'minlashning beshta asosiy elementini: hujjalashtirish, jarayonlarni va statistik metodlarni standartlashtirish, sifat xarakteristikalarini o'lhash, strategik rejalashtirish va nazorat, takomillashtirish bo'yicha choralarни o'z ichiga oladi. Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarning Hukumatlari, odatda, statistika sifatini baholash jarayoniga aralashmaydi, chunki bu jamoatchilik tomonidan professional mustaqillikning buzilishi yoki ma'lumotlarni to'g'rilash maqsadida aralashuv deb baholanishi mumkin.

Yevropa statistikasi sifati sohasidagi yana bir muhim hujjat 2009 yilda qabul qilingan, unda sifatning sakkizta mezoni belgilangan (dolzarblik, aniqlik, o'z vaqtidalik, puxtalik, qulaylik, ochiq-oydinlik, qiyosiylik, kelishilganlik).

Mamlakatning statistika organlari, milliy foydalanuvchilar va xalqaro jamoatchilikni tayyorlanayotgan statistik axborotlarga bo'lgan ishonchini oshirish hamda Internet tarmog'ida turli-tuman raqamli va tahiliy ma'lumotlar juda ko'p bo'lgan sharoitda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun, konseptual xalqaro sifat standartlari asosida o'z konsepsiyalarini, standartlarini va instrumentariyni ishlab chiqadilar va qo'llaydilar

Rasmiy statistikaning Yuqori sifatiga erishishning konseptual asoslarini belgilovchi hujjalarga qo'shimcha ravishda, sifatni tizimli va keng qamrovli baholashni amalga oshirish, sifat va sifat instrumentlari to'g'risida hisobotlar tayyorlash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan qator amaliy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Ular orasida, statistika amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan va ko'pchilikka tanish hisoblanganlardan biri Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) Ma'lumotlar sifatini baholash asoslari (MSBA (DQRS))dir. MSBA XVJning Statistika departamenti tomonidan ishlab chiqilgan va XVJning Ma'lumotlarni tarqatishning umumiyligi tizimi va Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus standartida belgilangan sifat aspektini to'ldiradi.

MSBA ma'lumotlar sifatining quyidagi beshta o'chovi asosida mamlakatlar tomonidan foydalaniladigan ko'rsatkichlarni shakllantirish usullarini ilg'or usullar bilan taqqoslash imkonini beradi: yaxlitlik, uslubiy asoslanganlik, aniqlik va ishonchlilik, foydalanish uchun yaroqlilik, qulaylik. Har bir o'chov uchun uchtadan beshtagacha ilg'or amaliyot elementi va asosiy masalalar va muhim indikatorlar yordamida ma'lumotlar to'plamlarini baholash uchun har bir element bo'yicha bir nechta ko'rsatkichlar belgilanadi. Bunda, birinchi uchta daraja ma'lumotlar to'plamlarining barchasi uchun umumiylis hisoblanadi, keyingi darajalar ma'lumotlar to'plamlarining har biri uchun aniq hisoblanadi.

MSBA makroiqtisodiy va moliyaviy statistikaning faqat bir qismini qamrab olishi hamda Ma'lumotlarni tarqatishning umumiylis tizimi doirasida tarqatiluvchi ko'rsatkichlar to'plami uchun sifat o'chovlarini belgilashi tufayli, uning qo'llanilishi cheklangan.

Davlat statistika qo'mitasi, o'zining sifatni yaxshilash bo'yicha faoliyatida BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi va BMTning Statistika komissiyasi (asosiy xalqaro statistika tashkilotlari) bilan yaqindan hamkorlik qiladi hamda ma'lumotlar sifatining umumeytirof etilgan asosiy jihatlarini va statistik sifat sohasidagi boshqa tavsiya etilgan standartlarni qo'llaydi.

Xususan, BMT tomonidan tavsiya qilingan Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida belgilangan davlat statistikasining asosiy prinsiplari, ya'ni ishonchlilik, xolislik, beg' arazlik, dolzarblik, qiyosiylik va barqarorlik, qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikka mos keladi.

Davlat statistika qo'mitasi mutaxassislari, milliy statistika tizimini xalqaro statistika tizimiga yanada uyg'unlashtirish bo'yicha choralarni amalga oshirgan holda, maxsus nashrlar va omnaviy axborot vositalaridagi maqolalarni kuzatib borish yo'li bilan statistika usullari sohasida innovatsiyalarni va statistik kuzatuvlarning eng yaxshi amaliyotini doimiy ravishda o'rganib boradilar. Shuningdek, xalqaro va xorijiy statistika tashkilotlarining seminar va treninglarida ishtirok etadilar hamda metodologiyani uyg'unlashtirish masalalari yuzasidan xalqaro ekspertlar bilan doimiy muloqotda bo'ladilar.

Masalan, 2018 yilning aprel oyida Davlat statistika qo'mitasining va XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiylis tizimi (k-MTUT) standarti bo'yicha O'zbekistonning jamlanma ma'lumotlari milliy sahifasini tayyorlash uchun mas'ul boshqa idoralar mutaxassislari XVJning texnik ko'maklashish bo'yicha maslaxatchilar bilan uchrashdilar, unda tarqatilayotgan iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar ta'rifining MSBA standartlariga mos kelishi masalasi, shuningdek ma'lumotlarni yaxshilash bo'yicha rejalar ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, 2018 yilning oktyabr-noyabr oylarida, O'zbekistonda xalqaro statistika standartlari va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish bo'yicha qo'shma sharh o'tkazish maqsadida, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Statistika bo'limi missiyasining tashrifi kutilmoqda.

Qo'shma sharh o'tkazish jarayonida, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi ekspertlari tomonidan milliy statistika rivojlanishining tashkiliy darajasi, uning

BMTning Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga muvofiqligining ekspert tahlili amalga oshiriladi, ishlatalayotgan atamalar, tushunchalar va asosiy indikatorlar, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy va demografik statistika sohasida tavsija etilgan ilg'or statistika usullari va standartlarini joriy etish darajasi ko'rib chiqiladi. Ularning asosida statistika kuzatuvlarini o'tkazish uslubiyatini yanada takomillashtirish va davlat statistika ishlaringin turli bosqichlarini bajarish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarни о'з ichiga olgan sharh tayyorlanadi. Hozirgi vaqtida Davlat statistika qo'mitasining sifatni boshqarish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari quyidagi asosiy yo'nalishlarga qaratilgan:

sifatlari statistikaga erishish uchun metodologik asosni takomillashtirish;

statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayonlari sifatini tizimli nazorat qilish;

statistikani takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini belgilashda respondentlar va statistik axborotlardan foydalanuvchilar bilan o'zaro hamkorlik qilish.

Shuni qayd etish lozimki, statistik ma'lumotlarni elektron almashish mamlakatlar va xalqaro statistika tashkilotlari uchun oddiy amaliyot bo'lib qolgan hozirgi vaqtida, mazkur jarayon qatnashchilari o'rtaida ma'lumotlarning kelishilishiga bo'lgan talab o'sib bormoqda, bunga mos ravishda yangi va eng yaxshi statistik usullar va jarayonlarni doimiy ravishda joriy etib borish zarurdir.

Statistika uslubiyatida tizimli innovatsiyalar, statistik ko'rsatkichlarning sifati va xalqaro taqqoslanishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, shuningdek ular statistik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj o'sib borayotgan sharoitda ma'lumotlarni yanada ko'proq moslanuvchan va minimal sarf-xarajatlar bilan tayyorlash va tarqatish imkonini beradi.

Oxirgi 10 yil davomida davlat statistikasi tizimida 100dan ortiq milliy sharoitlarga moslashtirilgan uslubiy hujjatlar joriy etildi, xususan oxirgi 3 yilda 41 ta yangi uslubiy hujjat ishlab chiqildi va amaldagi 13 ta metodika takomillashtirildi.

Mazkur uslubiy hujjatlar Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytida maxsus elektron kutubxonaga joylashtirilgan. Ular bilan nafaqat statistika tizimi xodimlari, balki aniq ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llanayotgan uslubiyatni yaxshiroq tushunishni yoki mustaqil ravishda baholashni yoki uni xalqaro va xorijiy uslubiyat bilan solishtirishni istagan har qanday shaxs tanishishi va foydalanishi mumkin.

Qayd etish lozimki, zamonaviy statistika amaliyotida mamlakatlarga faqat uyg'unlashtirilgan uslubiyatdan foydalanibgina qolmasdan, balki "metama'lumotlarni", ya'ni milliy va xalqaro darajada uyg'unlashtirilgan hujjatlashtirish tizimini shakllantirish tavsiya qilinmoqda.

Statistik metama'lumotlar "o'zi tavsiflayotgan statistik ma'lumotlarni to'g'ri olinishi va foydalilishi uchun zarur ma'lumotlar" deb ta'riflanadi. Metama'lumotlar ma'lumotlarni izlash va taqdim etish uchun zarur tushunchalarining tizimlashtirilgan ta'rifini (masalan, Toshkent viloyati; 2014- yil), shuningdek ma'lumotnomasi ko'rinishidagi axborotlarni (ko'rsatkichning tushunchasi, uning amaliyotda qo'llanishi, kuzatish va hisoblash usullarining qisqacha ta'rifi, tarqatish kalendari) o'z ichiga oladi. Metama'lumotlar tarkibida shuningdek ma'lumotlarning sifati ta'riflanadi

(masalan, tanlanma usullar bilan kuzatuvlar o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolar manbalari, kamchiliklar va ishonch oralig'i to'g'risidagi tushuntirishlar kiritiladi).

Shunday qilib, metama'lumotlarning yaxlit va aniq ishlovchi tizimini yaratish hamda statistik atamalarni bir xillashtirish, zamonaviy bosqichda statistiklar, metodologlar, respondentlar va statistik axborot tizimidan foydalanuvchilar o'rtaSIDagi aloqa va hamfikrlikni yaxshilashning innovatsion vositasi hisoblanadi.

Metama'lumotlar tizimining muhim afzalligi, foydalanuvchilarga "onlayn" rejimida Internet tarmog'ida zarur statistikani so'rov asosida yoki qidirish tizimi orqali tez izlab topish hamda interaktiv statistika xizmatlari ko'rsatishni yangi sifat bosqichiga o'tkazish imkonini beruvchi tuzilmalashgan katalogning mavjudligidadir.

Juda qulay sharoitda, markaziy saqlash joylarida saqlanayotgan metama'lumotlar statistika tashkilotining veb-saytidagi onlayn ma'lumotlar bazasi bilan avtomatik tarzda bog'lanadi. Bu foydalanuvchilarga statistik ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasidan foydalanishda darhol ularning qisqa va ixcham shakldagi bir xillashtirilgan tafsifini olish imkonini beradi. Bunda, Hatto yetarli tayyorlarlikka ega bo'lmagan foydalanuvchi ham ko'rsatkichni shakllantirish uslubiyatini oson tushunishi va olingan ma'lumot sifati uni qoniqtirishi bo'yicha mustaqil ravishda xulosa chiqarishi mumkin.

Davlat statistika qo'mitasining metama'lumotlarni shakllantirish sohasidagi tajribasi hozircha uncha ko'p emas. Birinchi bosqichda, 2018-yildan boshlab Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytda XVJning k-MTUTiga qo'shilish bo'yicha ishlar doirasida tarqatiladigan iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha metama'lumotlar joylashtirilgan va doimiy ravishda yangilanib borilmoqda. Barcha muhim ko'rsatkichlar bo'yicha metama'lumotlarni 2021-yilgacha maksimal kengaytirish va rasmiy saytda joylashtirish rejalashtirilmoqda.

Metama'lumotlarning innovatsion yagona tizimini joriy etish va undan foydalanish, turli axborot resurslarini integratsiyalashda, turli vaqtida har xil manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda statistik hisob-kitoblarni amalga oshirishda, shuningdek dinamik qatorlarni tuzishda asossiz xarajatlarning oldini olish imkonini beradi.

Uzoq muddatli istiqbolda, rivojlangan davlatlar tomonidan davlat, xalqaro tuzilmalar va xususiy sektorlarning veb-saytlari uchun bir xil qidiruv lug'atidan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bunda, foydalanuvchi bitta so'rovni bir vaqtning o'zida turli manzillarga yuborishi mumkin va bu unga turli manbalardan (milliy, xorijiy, xalqaro) olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, shuningdek ular asosida "onlayn" rejimida shaxsiy tahliliy materiallarini shakllantirish imkonini beradi.

Bunday lug'atni yaratish uchun BMTning Statistika komissiyasi 2008 yilning fevralida SDMX (Statistical Data and Metadata Exchange) standartini eng afzal standart sifatida tan oldi. Mazkur standart Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS), Yevropa Markaziy banki, Yevropa hamjamiyatining statistika byurosi (Yevrostat), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), BMTning Statistika departamenti va Jahon banki hamkorligida ishlab chiqilgan. U

statistik ma'lumotlarni, shuningdek mazkur ma'lumotlar qanday tizimlashtirilganini tushunish uchun zarur metama'lumotlarni almashish uchun formatlarni belgilaydi.

BMTning tashabbusidan so'ng SDMX standarti tobora ko'proq statistika tashkilotlari tomonidan tan olinmoqda va foydalanilmoxda. Hozirgi kunda undan XVJ, Yevrostat, Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarining milliy statistika xizmatlari va MDHning alohida davlatlari foydalanmoqda.

2018 yildan boshlab Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ham keyinchalik rasmiy saytda foydalanish uchun SDMX statistik ma'lumotlar va metama'lumotlar almashish xalqaro standartini joriy etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari boshlandi. Bu O'zbekistonning statistik imkoniyatlari mamlakat reytingini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or statistika tashkilotlari qatoriga kirish imkonini beradi.

Sifatni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning boshqa zarur sharti ichki nazoratning samarali tizimini tashkil etishdir. Hozirgi vaqtida mazkur funksiya Davlat statistika qo'mitasi tizimidagi maxsus bo'linma tomonidan amalga oshirilmoqda, bo'linma doimiy asosda respublika va hududiy darajada ishlarni bajarish muddatiga rioya qilinishi monitoringini amalga oshiradi va davlat statistika organlari rahbarlariga hamda kollegial organlar majlislarida ko'rib chiqish uchun tegishli axborotlarni tayyorlaydi.

Bundan tashqari, statistika kuzatuvlari sifatini ta'minlashda barcha statistika bo'lmalarining o'zaro hamkorligini muvofiglashtiruvchi quyidagi hujjatlar amaliyotga kiritilgan: "Davlat statistika organlari tomonidan tashkilotlarning hisobot ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish, xato va nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish tartibi", "Davlat statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi sybyektlarning to'liq qamrovini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilish reglamenti", "Xo'jalik yurituvchi sybyektlarning iqtisodiy faoliyatini kompleks tanlanma statistik kuzatuvlarini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiglashtirish va monitoringini amalga oshirish reglamenti".

2018-yildan boshlab, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan quyidagi 6 ta mezon asosida hududiy statistika organlarining statistika faoliyati samaradorligini baholash joriy etildi:

ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliliqi – birlamchi ma'lumotlarning to'liq yig'ilishi, xolisligi va haqqoniyligi, tanlab olishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni minimallashtirish;

o'z vaqtidalik va puxtalik – statistik ma'lumotlarni Davlat statistika ishlari dasturi, xalqaro tavsiyalar va foydalanuvchilarining ehtiyoji bilan belgilangan muddatlarga qat'iy amal qilgan holda chiqarish;

o'zaro bog'liqlik va qiyosiylik – yagona metodologiya, statistik ko'rsatkichlarning talab qilingan ma'lum vaqt davomida, hududlar kesimida va xalqaro miqyosda qiyosiyligi;

qulaylik va ochiq-oydinlik – Internet tarmog'ida va ommaviy axborot vositalarida statistika yo'naliishlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar to'plamidan, tegishli tahliliy va vizual materiallardan, ma'lumotlar tavsifi, usullar va uslubiyatdan erkin foydalanish imkoniyati;

hisobot taqdim etuvchi sybyektlarga hisobot yuklamasining mo‘tadilligi – ma‘lumot yig‘ish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, sybyektlarning davlat statistika kuzatuvlari shakllarini to‘ldirish vaqtini minimallashtirish, boshqa davlat boshqaruvi organlari bilan idoralararo axborot almashish;

statistik instrumentariydan puxta foydalana olish – xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini doimiy oshirib borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, kasbiy odob-ahloq tamoyillariga rioya qilish.

Mazkur mezonlarning har biri uchun tegishli indikatorlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosida har chorak natijalari bo‘yicha bajarilgan davlat statistika ishlari majmui bo‘yicha statistika bo‘lmalmali faoliyatni samaradorligini yaxlit baholash amalga oshiriladi. Baholash natijalari rahbarlar va mutaxassislar faoliyatini ko‘rib chiqish va rag‘batlantirishda hisobga olinadi.

Statistika ishlarining va umuman statistika faoliyatining sifat darajasini oshirishni ta‘minlovchi boshlangan innovatsiyalarning davomi sifatida, 2021 yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli istiqbolda, statistik jarayonlarga DatQAM sifat menejmenti tizimi bazaviy paketini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bazaviy paketning tadbirlari, joriy etilgan takomillashtirishlar bilan bir qatorda, statistikadan foydalanuvchilarning fikrlarini o‘rganish va hisobga olish, natijasini keyinchalik rasmiy sayt orqali tarqatish uchun o‘z-o‘zini baholash yoki tashqi (ya‘ni xalqaro, xorijiy va milliy ekspertlar tomonidan) baholashni o‘tkazishni, metana‘lumotlar tarkibiga sifat to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritishni o‘z ichiga oladi.

Qayd etish lozimki, hisobot taqdim etuvchi respondentlar bilan faol hamkorlik qilmasdan turib, Yuqori sifatlari statistikani ta‘minlash mumkin emas.

Shu sababli, statistika faoliyatining yana bir yangi yo‘nalishi, zamonaviy Internet texnologiyalaridan foydalanib respondentlar bilan qayta aloqa tizimini o‘matishdir.

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yangi davlat statistika kuzatuvlri shakllari loyihibarini Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy saytida va Hukumat portalida joylashtirish yo‘li bilan test sinovidan o‘tkazish amaliyoti joriy etilgan. Kelib tushgan barcha taklif va mulohazalar chuqur o‘rganib chiqiladi hamda hisobot shakllarining yakuniy maketlarini tayyorlashda va ularni tasdiqlashda hisobga olinadi. Mazkur faoliyatda statistika organlariga O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi katta yordam ko‘rsatadi, u o‘z a zolari o‘rtasida statistik hisobot shakllarini o‘rganish va muhokama qilishni tashkil qiladi hamda Davlat statistika qo‘mitasiga umumlashtirilgan takliflar va mulohazalarni yuboradi.

Shuningdek, 2015 yildan boshlab hisobotlarni qabul qilishda elektron xabar almashish va ko‘p yuzaga keladigan savollar bo‘yicha tushuntirishlarni elektron hisobot shaklida joylashtirish amaliyoti qo‘llanmoqda, 2018 yildan boshlab esa statistik hisobotlarni yig‘ish jarayoniga Mibew Messenger 2.2.0. mustaqil dasturiy ta‘minot asosidagi “Onlayn-maslaxatchi” tizimi joriy etildi.

Respondentlarning statistik kuzatuvlarda faol ishtirot etishlari va sifatlari ma‘lumotlar taqdim etishlarini ta‘minlash uchun, hisobot yuklamasini nazorat qilish va uni qisqartirish bo‘yicha doimiy choralar ko‘rish katta ahamiyatga ega. Shu maqsadlarda, Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan davlat statistika kuzatuvlari

shakllarini to'ldirish uchun sarflangan vaqt, shuningdek ularni to'ldirishning qulayligi va tushunariligi to'g'risida respondentlar o'tasida so'rovlar o'tkazilmoqda.

Bunday so'rovlar, xalqaro statistika tashkilotlari tomonidan tavsya etilgan sifatni boshqarish tizimi bazaviy paketining bir qismi hisoblanadi.

Respondentlarning navbatdagi kuzatuvi, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2018 yilning aprel oyida, respublikaning barcha hududlarida o'tkazildi. So'rov bilan 5,5 ming hisobot topshiruvchi tashkilotlar, shu jumladan kichik biznes sybyektlari, fermer xo'jaliklari va nodavlat notijorat tashkilotlari qamrab olindi.

Olingan natijalar Davlat statistika qo'mitasining mutaxassis metodologlari tomonidan o'rGANIB chiqilmoqda va ulardan 2019 yil uchun davlat statistika hisobotlari shakllarini takomillashtirish uchun foydalaniлади.

Shuningdek olingan natijalar, hududiy statistika organlarining yangi tashkil topgan tashkilotlarning rahbarlari va hisobchilariga hisobotlarni to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish bo'yicha ishlarni yanada samarali tashkil etish hamda hisobot to'ldirishga ko'p vaqt sarflayotgan tashkilotlarga amaliy yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Albatta, statistika faoliyatini tashkil etishda echilmagan muammolar hali ko'p va jamiyat tomonidan statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonch hozircha yetarli darajada emas. Shuning uchun, barcha statistik mutaxassislar doimiy oldinga intilishni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 2017-2021 yillarda statistika faoliyatini tashkil etish samaradorligini tubdan oshirish, statistika axborotlari sifatini va ularni tarqatish tizimini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishga qaratilgan tizimli o'zgartirishlarni o'zlarining bosh vazifalari deb biladilar.

### **2.3. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi**

Statistika bo'yicha zarur bo'lgan ma'lumotlarni jamlash ishi BMTdan tashqari boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar tomonidan ham olib boriladi. Shularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

#### **1. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti.**

Bu tashkilotning statistik faoliyati iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy siyosatni pul oboroti, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari, soliqqa tortish, moliyaviy masalalar, ishchi kuchidan foydalanish, shuningdek, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar bo'yicha ma'lumot to'plashni qamrab oladi. Hozirgi vaqtida ushbu tashkilot 3ta asosiy iqtisodiy muammo bilan shug'ullanadi:

- 1) milliy hisoblar tizimini o'zarot taqqoslash;
- 2) ish haqi masalalari;
- 3) mehnat resurslari.

2. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (EES) iqtisodiy statistika faoliyati ushbu tashkilotning faoliyati o'zgarib borgani sayin takomillashib va rivojlanib bordi. Hozirgi vaqtida ushbu tashkilotning faoliyati barcha iqtisodiy tarmoqlarni qamrab olgan.

3.Xalqaro statistika instituti – bu nodavlat tashkiloti bo‘lib, statistik metod va usullarning rivojlanishi va takomillashishi bo‘yicha olib boriladigan ishlami muvofiglashtiradi. Ushbu institut 1885- yili statistik olimlarning xalqaro asotsiatsiyasi ko‘rinishida yuzaga kelgan.

Xalqaro statistika va statistika fanlarining rivojlanishida muhim rolni xalqaro statistika instituti (XSI) o‘ynagan va hozir ham o‘ynab kelmoqda. U 1885- yilda 50 ta mamlakat statistik organlarining amaliyotidagi xodimlari va fan namoyondalarini jipslashtiruvchi sof ilmiy tashkilot sifatida yaratilgan edi. XSI nizomiga binoan, bu tashkilotning asosiy vazifasi bo‘lib, turli mamlakatlarning statistik ko‘rsatkichlarini taqqoslash uchun, tavsiyalarни tayyorlash yo‘li bilan jahon mamlakatlarida statistik usullarini rivojlantirish va mukammallashtirish hisoblanadi. Shuningdek XSI mamlakatlar bo‘yicha umumlashtirilgan materiallarni to‘plash va nashr qilish bilan ham shug‘ullangan. XSIning keyingi faoliyatida matematik usullarni to‘plash va nashr qilish bilan ham shug‘ullangan.

Keyingi yillarda xalqapro statistikaning rivojlanishi Millatlar Ligasi statistika organlari chegaralarini iqtisodiyot va moliya bo‘limida vujudga keldi. Bu bo‘lim XSI yordami bilan xalqaro statistika ko‘rsatkichlari tizimining amaliy asoslarini ishlab chiqdi, bunday ko‘rsatkichlarning milliy statistika organlari tomonidan bir xil hisoblanishi uchun tamoyil va tavsiyalarini ta’riflab berdi. Milliy ittifoqi bilan bir qatorda boshqa xalqaro tashkilotlar: Rim agrar instituti, xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta va telegraf ittifoqi kabilar va o‘zining statistik xizmatlari bo‘lgan qator boshqa tashkilotlar ham ishtroq etgan edi.

Statistika bo‘limi bilan birga BMT SK, o‘zining statistik xizmatlariga bo‘lgan 230tadan ortiq mamlakatlar va hududlarni birlashtirib butun dunyoning statistik ishlarini tashkil qilmoqda. Shuningdek ikki mingga yaqin turli xil xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlarini ham tashkil qilmoqda. Bu vaqtida XSI faoliyati statistik ko‘rsatkichlarni bir xil hisoblash usullarini va umum yaroqli tasniflar; turli xil mamlakatlar statistika xizmatlarining o‘zaro amaliy va ilmiy malakalar almashishini ishlab chiqishda ko‘maklashishiga qaratilgan bo‘ladi. XSI faoliyatining markazida muntazam sessiyalar turadi. Bu sessiyalarda butunlay boshqa ijtimoiy va iqtisodiy statistika muammolari, matematik statistikani qo‘llash va boshqalar bo‘yicha ma’ruzalar tinglanadi va muhokama qilinadi. Oxirgi yillarda XSIda xalqaro statistika muammolari bo‘yicha statistika xizmatlari boshqarmalari uchun amaliyotlar olib borildi. 1996- yilda Yevropalik statistiklar uchun seminar olib borildi. Bu seminarda Niderlandiya statistika byurosining faoliyati, tajribasi, shuningdek ma’lumotlarining mukammallashtiruvida xalqaro statistik xizmatlarning roli haqida fikr almashishlari joy olgan edi. XSI prezidenti va Yevrostat direktorlarri ma’ruzalari ko‘rib chiqildi. Kalkutta, Bombey, Beyrut, Qohirada XSI byudjetining uchdan ikki qismi sarflanadigan XSIning o‘quv markazlari mayjud. Bu markazlarda statistikaning turli xil soha mutaxasislari, Afrika va Osiyo mamlakatlarining statistiklari qayta tayyorlanadi.

O‘tgan asming 90- yillarda XSI, xalqaro statistikani uning aniqligi, o‘z vaqtida taqdim etgan va qulayolik, maxfiylikni ta’minalsh kabi turli xxil muammolar bo‘yicha maxsus kengashlar o‘tkaza boshladi. Uning faoliyati deyarli milliy va xalqaro

tashkilotlar bilan bog'liq. XSIning BMTga kirmaydigan ixtisoslashgan muassasalari EKOSOS va YUNESKOda maslaxatchilik mavqeiga ega. XSI muntazam ravishda BMTning SK faoliyatida qatnashadi. XSI muntazam ravishda xalqaro statistika ma'lumotlarini nashri qiladi, o'zining majlislari materiallarini bosmadan chiqaradi, ma'lum ko'sratkichlar dasturi bo'yicha jahoning yirik shahar yilnomalarini muntazam ravishda bosmadan chiqaradi, XSIning ustaviga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarga statistika metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan, turli statistik ishlar borasida kadrlar tayyorlash sohasida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishslash, ularni to'plam ko'rinishida chop etishga yordam beradi. Bulardan tashqari statistika ishini olib borish quyidagi xalqaro tashkilotlarda ham yo'lga qo'yilgan:

- ❖ xalqaro ekonometrika jamiyatida;
- ❖ xalqaro siyosiy fanlar asotsiatsiyasida;
- ❖ aholi nufuzini o'rganish xalqaro ittifoqi;
- ❖ xalqaro Afrika institutida;
- ❖ amerikaaro statistik institutda va boshqa joylarda olib boriladi.

#### **2.4. Rasmiy statistik faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikning ahamiyati va dolzarbliги**

XXI asrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi mamlakatlarda statistik ma'lumotlardan optimal foydalanishni rag'batlantiradi va milliy statistika tizimlarini takomillashtirishga undaydi.

Milliy statistika idoralarining o'zaro hamkorligi statistik ma'lumotlar va uslubiyotlar bilan hamda statistik kuzatuvlar o'tkazish borasida o'zaro tajriba almashuv, rasmiy statistikaning infratuzilmasini tashkil etish, foydalanuvchilar va respondentlar bilan o'zaro samarali aloqalarni o'matish masalalariga qaratilgan. Bu ishlar, o'z navbatida, milliy amalyotni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Biroq, milliy statistika idoralarining xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan hamkorlik doirasida amalga oshiradigan faoliyat ko'lami yanada ahamiyatlidir. Ushbu hamkorlik doirasi juda keng bo'lib, xalqaro ishchi guruhlar doirasidagi aloqalarni, uchrashuvlarda ishtirok etishni, shuningdek, statistikani takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga oladi.

#### **Халқаро ҳамкорликнинг асосий йўналишлари**

Халқаро ташкilotlar  
дастурлари асосида  
миллий statistika  
идораларидан  
маълумотлар йиғиш


Халқаро statistik stanchaotlar,  
kўllanma va tazsияlarни ishlab  
chiqish ҳамда milliy  
statistika idoralarini  
tomoniidan tadbirlik etilishiga  
kўmаклашади.

Мамлакатlar  
yescimiida,  
takкорслами statistik  
maъlumotlarni  
tarqatish

Statistika sohasida xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari – xalqaro tashkilotlar dasturlari asosida milliy statistika idoralaridan ma‘lumotlarni yig‘ish, mamlakatlar kesimida solishtirma statistik ma‘lumotlarni tarqatish, xalqaro statistik standartlar, qo‘llanma va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda milliy statistika idoralari tomonidan joriy etishga qo‘mashlash hisoblanadi.

Statistika sohasida rasmiy statistika tizimlarining tuzilishi yoki takomillashtirilishi lozim bo‘lgan mamlakatlarga texnik ko‘mak va resurslarni yo‘naltiruvchi mamlakat va tashkilotlar aniqlanadi.

Hamkorlik mamlakatlarning mintaqaviy guruhlari extiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi, bu esa sezilarli ta’sirga ega bo‘ladi, chunki mazkur mamlakatlarda statistika sohasida o‘xshash ustuvorliklar mavjud bo‘ladi. Mintaqaviy hamkorlik dasturlari mintaqaviy guruhlar va ushbu guruhlar tarkibidagi mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.



Quyidagilar mintaqaviy komissiya va konferensiyalarning funksiyalari hisoblanadi:

- mintaqaga mamlakatlari tomonidan xalqaro standartlarni tadbiq etilishini kuzatib borish va qo‘llab-quvvatlash;
- texnik hamkorlikni tashkil etish;
- xalqaro statistik standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- mintaqaga bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish va tarqatish;
- mintaqada statistik faoliyatni umumiyligi muvofiqlashtirib borish.

Mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan siyosatni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishda asos sifatida, foydalilanligidan statistik ma‘lumotlarni yig‘ish tizimini yaratish va ishlab chiqish statistika sohasidagi hamkorlikning muhim maqsadi hisoblanadi.

“Statistika dunyosi”da eng Yuqori organ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika Komissiyasi (BMT SK) hisoblanadi va u milliy statistika tizimlarini

rivojlantirish strategiyasi va statistika sohasidagi nazariya va amaliyot bo'yicha tavsialarni ishlab chiqish yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Yevropa mintaqasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT EIK) rahbarligida Yevropa Statistiklar Konferensiyasi faoliyat yuritadi.

Xalqaro hamkorlik sohasida faollik Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalarining (Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va boshqalar) statistika bo'limlari tomonidan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- resurslardan oqilonqa foydalanish maqsadida mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro aloqa qilish;
- vakolati doirasida, aniq sohalarda, statistik standartlarni ishlab chiqishda ko'maklashish (asosiy yoki yordamchi tashkilot sifatida);
- standartlarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash.

### **Халқаро қамкорлик масалаларида БМТ махсус бўлинмаларининг фаолияти**

Ресурслардан  
оқиғона осидапани  
Ман, эдидэ  
мичтавий  
ташкистлаб билан  
ЎзбСО агода ёниш

Ваколати доирасида,  
важнук соҳаларда статистик  
стандартларни ишлаб  
чикишда кўмаклашиш  
(асосий ёки ёрдамчи  
ташкилот сифагида)

Сўндарларни  
жойий этишни  
куйлаб-куеватлаш

Statistik tizimlarning milliy hisoblari ko'rsatkichlarining uslubiy jihatdan bixilligi xalqaro integratsiya uchun eng muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Milliy hisoblar tizimi (MHT)ni statistika idoralari amaliyotiga joriy etilishi BMT SK tomonidan dunyoning istalgan mamlakatida rasmiy statistikani rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida qaraladi, bu esa o'z navbatida statistik kuzatishlar va hisob-kitob natijalarining xalqaro taqqoslanishiga yordam beradi.

Milliy statistika amaliyotiga MHTni joriy etish darajasi, BMT Kotibiyatining Statistika bo'limining milliy hisoblar bo'yicha har yili tarqatiladigan savolnomalari yordamida, milliy statistika idoralari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar hamda milliy statistika idoralariga kerakli ma'lumotlarni taqdim etilishining to'liqligi, mamlakatda tegishli statistik kuzatuvlar va hisob-kitoblarni o'tkazishga oid qo'llanma va uslublarining mavjudligi asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, BMT tizimiga kirmagan, masalan MDH Statistika qo'mitasи, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Yevrostat va boshqa xalqaro va milliy tashkilotlar ham xalqaro miqyosda statistikani takomillashtirish jarayonida ishtiroy etadilar. Ularning roli quyidagilardan iborat:

– xalqaro statistik standartlarni ishlab chiqishda ko‘maklashish (asosiy yoki yordamchi tashkilot sifatida);

– dunyo standartlari bilan maksimal darajada mumkin bo‘lgan bixillilikni ta’minlash;


– a‘zo mamlakatlarda xalqaro standartlarni joriy etilishini kuzatib borish;

– ma’lum bir mintaqaga, kelishilgan tematik mavzularda, texnik hamkorlikka ko‘maklashish.

Ta’kidlash joizki, BMT tizimiga kiruvchi hamda mutlaqo mustaqil bo‘lgan barcha xalqaro tashkilotlar, o‘zlarining strategik ehtiyojlarini hisobga olgan holda statistik standartlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashishda o‘z faoliyatini BMT Statistika Komissiyasining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshiradilar.

### **БМТ ТИЗИМИГА КИРМАГАН ХАЛҚАРО ВА МИЛЛИЙ**

#### **ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ РОЛИ**



Statistika sohasidagi nazariy va amaliy masalalarни dastlabki muhokama qilish uchun BMT Kotibiyati “shahar” ekspert guruuhlarini tuzadi va ularning har biri tashkiliy seminarlar o‘tkaziladigan joy nomi bilan ataladi. Ushbu guruuhlar milliy statistika idoralari va xalqaro tashkilotlar vaqillari uchun ochiq bo‘lgan, o‘tkaziladigan seminar va konferensiyalarda o‘z qarorlarini shakllantiradigan birlashmalar hisoblanadi. Ularning roli quyidagilardir:

– xalqaro ishlar dasturiga muvofiq, statistikaning muayyan yo‘nalishlarida xalqaro standartlarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash;

– ilg‘or tajribalar bo‘yicha ma’lumot almashish;

– BMT SK ko‘rsatmalari asosida qo‘llanmalar tayyorlash, klassifikatsiyalar ishlab chiqish, konsultatsiyalar berish.

## **БМТ СК томонидан расман эътироф этилган «шахар» гурӯҳлари**



**BMT SK tomonidan rasman e'tirof etilgan "shahar" guruhlari quyidagilar:**

– Vorburg guruhi. Faoliyat yo'nalishi: xizmatlar statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Kanada statistika boshqarmasi;

– Ottava guruhi. Faoliyat yo'nalishi: narxlar statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Kanada statistika boshqarmasi;

– London guruhi. Faoliyat yo'nalishi: ekologiya hisob-kitobi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Yevrostat;

– Parij guruhi. Faoliyat yo'nalishi: mehnat va ish haqi statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Fransiya statistika va iqtisodiy tadqiqotlar milliy instituti;

– Dehli guruhi. Faoliyat yo'nalishi: norasmiy sektor statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Hindiston statistika Departamenti;

– Kanberra guruhi. Faoliyat yo'nalishi: uy xo'jaliklari daromadlari statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Avstraliya statistika byurosi;

– Sien guruhi. Faoliyat yo'nalishi: ijtimoiy statistika. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi, Yevrostat;

– Rio guruhi. Faoliyat yo'nalishi: qashshoqlik statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi;

– «Давра столи». Faoliyat yo'nalishi: tashkilotlar reestri va biznes kuzatuvlari. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi.

Shu kabi funksiyalar BMT SK qarorlari asosida yaratilgan ekspertlarning maqsadli guruhlari tomonidan ham amalga oshiriladi.


Ayni paytda, xalqaro savdo, milliy hisoblar, qishloq xo'jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar, nomoddiy aktivlar, migratsiya statistikasi bo'yicha maqsadli guruhlar faoliyat olib bormoqda.

Statistika nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish borasida o'z ish faoliyatini quyidagi seksiyalar bo'yicha tashkil etib boradigan Xalqaro statistika instituti (XSI) muhim o'rinn tutadi:

- Matematik va ehtimollar statistikasi bo'yicha Bernulli jamiyati;
- Rasmiy statistika xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistik kuzatuvlari xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistikada kompyuterlashtirish xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistik ta'lim xalqaro assotsiatsiyasi.

Har ikki yilda bir marotaba XSI sessiyalar tashkil etadi va unda turli mamlakat olimlari va amaliyotchilarining hisobotlari eshitiladi.

**Статистик назария ва амалиётни тақомиллаштириш бўйича  
Халқаро Статистика Институтлари секциялари**



BMT Statistika komissiyasi va uning hududiy bo'linmalari, xususan Yevropa Statistiklar Konferensiysi o'z yig'ilishlari va tegishli kotibiyatlari ishlarida doimiy ravishda milliy statistika idoralari tomonidan statistik ma'lumotlarni yig'ish ishlarini optimallashtirish masalalariga doimiy e'tibor qaratadi.

Axborotlarni to'plash ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan turli mavzular bo'yicha so'rovnomalari orqali amalga oshiriladi, shu o'rinda BMT Statistika Komissiyasi va Kotibiyatining Statistika bo'limi bu jarayonning koordinatori bo'lib xizmat qiladi.

Milliy statistika idoralariaga mamlakatlarning xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlariga muvofiq, muntazam ravishda statistik ma'lumotlar, so'rovnoma va ankatalar bo'yicha javoblar yo'llashni tashkil etishni bosh tashkilot sifatida muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan.

BMTning boshqa tashkilot va idoralari tomonidan ham turli yo'nalishlarda statistik ma'lumotlar yig'ib boriladi. Jumladan, salomatlik va sog'lioni saqlash tizimi,

fupro aviatsiyasi, transport, aloqa va kommunikatsiya, inson huquqlari, narkotik moddalarni iste'mol qilish, jinoyatchilik, ayollarning o'mi, ilm-fan, texnika va hokazo.

Xalqaro darajada mexnat munosabatlari sohasida umume'tirof etilgan standartlarni, uslubiyot va ta'riflarni ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq faoliyatni muvofiglashtirib borish Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan amalgamoshiriladi. Mehnat statistikasining turli sohalaridagi xalqaro standartlar Mehnat statistiklari xalqaro konferensiyalari (MSXK) qarorlari bilan mustahkamlangan. MSXKnинг qarorlari statistik dasturlarning maqsadlari va qo'larnini, asosiy tushunchalar va tasniflarni, aniq ko'rsatkichlarru, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish usullari va nashr etish bo'yicha umumiy tavsiyalarini belgilab beradi

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), o'zining hukumatlararo xalqaro tashkiloti maqomiga muvofig, oziq-ovqat resurslari va turli mamlakatlarning qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanadi hamda qishloq xo'jaligi statistikasini rivojlantirish bo'yicha BMTning asosiy markazi hisoblanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) makroiqtisodiy statistikani rivojlantirishda yetakchi rol o'yndaydi. XVJ Statistika departamenti (XVJ SD) ekspertlari mamlakatlarning MHT, narxlar statistikasi, to'lov balansi, davlat moliya statistikasining qabul qilingan standartlariga muvofigligi yuzasidan baholashlar o'tkazib boradilar.

Milliy statistika idoralari XVJning maxsus savolnomasi (hisoboti)ni to'ldirib boradilar. Savolnomasi, ishlab chiqarish va yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari, davlat boshqaruvi xarajatlari, notijorat tashkilotlari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish, asosiy kapitalning jamg'arilishi (moddiy boyliklar sof xaridi qo'shilgan holda), moddiy aylanma resurslar zaxiralarining o'zgarishi, import-eksport, xorijdan sof ishlab chiqarish daromadlari, yalpi jamg'armalar, shuningdek, YAIMni baholashdagi statistik tafovutlar kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur ma'lumotlar yig'ilib, har chorakda e'lon qilib boriladi.

BMT Kotibiysi Statistika bo'limi mamlakatlardan yig'ilgan maxsus so'rovnomalari asosida milliy hisoblar bo'yicha ma'lumotlarni quyidagi: Milliy hisoblar statistikasi, Asosiy aggregatlar va jadvallar, Statistik yilnomasi, Yevropa va Shimoliy Amerika trendlari kabi axborotnomalarda nashr etib boradi. XVJ esa shu kabi ma'lumotlarni Xalqaro moliya statistikasi axborotnomasida e'lon qilib boradi.

Xalqaro axborot almashinuvining muhim ishtirokchilaridan biri bo'lib Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisoblanadi. Mazkur tashkilot turli mamlakatlarda tadbiq etiladigan rasmiy statistika uslubiyatlarini taqqoslanishiga, statistikaning turli yo'nalishlarida, eng avvalo MHTni joriy etish va xalqaro taqqoslash dasturlarida kelishilgan pozitsiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xalqaro energetika agentligi (XEA) neft, gaz, ko'mir, elektr, issiqlik energiyasi va boshqalarni ishlab chiqarish va foydalanish bo'yicha mamlakatlar tomonidan taqdim etiladigan so'rovnomalari ma'lumotlari asosida hosil bo'ladigan statistik ma'lumotlar bankini yuritadi.

XEA xalqaro energetika bozorini axborot bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash, energiya ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali xalqaro savdoning barqarorligini ta'minlash, dunyodagi mamlakatlar va mintaqalarda energetika dasturlarini muvofiqlashtirib borish maqsadida tashkil etilgan mustaqil organ hisoblanadi.

Milliy darajadagi statistik tashkilotlarning misoli sifatida, Yevropa ittifoqi foydalanuvchilarini mamlakatlar haqida ishonchli, to'liq va taqqoslama statistik ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida tuzilgan "Yevrostat"ni keltirib o'tish mumkin.

Shu maqsadda, Yevrostat, iqtisodiy va statistik tasniflar, ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar va statistik kuzatuvlar uslubiyotlarini amalda qo'llash bo'yicha Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlardan statistik ma'lumotlarni yig'ish borasida yagona qoidalarni qo'llaydi.

Xalqaro axborot almashinuvi, barcha ishtirokchilarni yagona "statistika" tilida gapirishini yoki hech bo'limganda, uslub va uslubiyotlari hamda nashrlarini o'z ichiga olgan milliy statistika tizimi ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati ta'minlanishini nazarda tutadi.

Ma'lumotlarni tarqatish standartlari rasmiy statistika faoliyatini tashkil etish, uni qo'llab-quvvatlash, milliy va xorijiy foydalanuvchilarni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ko'rsatkichlarning xalqaro taqqoslanishini ta'minlash, ularni hisoblash va statistik ma'lumotlarni to'plash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan. Standartlarni joriy etish, mamlakat ichidagi axborotni yaratadigan tashkilotlarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Bu borada, rasmiy statistika rivojanishining turli darajalariga ega bo'lgan mamlakatlar uchun quyidagi uch tizimni joriy etgan XVJ alohida o'r'in egallaydi:

- kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatish umumiyligi tizimi;
- Ma'lumotlarni tarqatish maxsus standarti;
- Ma'lumotlarni tarqatish maxsus standarti plus (+).

Standartlarni joriy etish tarixi, 1990 yillarda yuzaga kelgan moliyaviy inqirozlar davrida, axborotlarning etishmasligi, iqtisodiy oqibatlarni yumsxatish borasida qaror qabul qilish va choralar ko'rishning kechiqishiga olib kelganligi natijasida vujudga kelgan. Bunga javoban XVJ. a'zo mamlakatlar ma'lumotlarining shaffofligini oshirish va ishonchli statistika tizimlarining rivojanishiga hissa qo'shish maqsadida, ma'lumotlar standartlari bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirishga kirishdi. Natijada, XVJ, 1996 yilning mart oyida Ma'lumotlarni tarqatish maxsus standarti (SDDS) va 1997 yil dekabrda Ma'lumotlarni tarqatish umumiyligi tizimini (GDDS) joriy etdi.

SDDS ma'lumotlar standarti bo'yicha dastlabki tashabbusda ko'zda tutilgan ikki darajadan birinchisi sifatida qabul qilindi. XVJ direktorlar kengashi, a'zo mamlakatlar uchun iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlarni jamoatchilikka etkazib berishda yo'nalish sifatida SDDSnini tashkil etdi. Ko'zlangan maqsad, dolzarb va to'laqonli statistik ma'lumotlarni olish imkoniyatini oshirish, shu asosda, mamlakatlarda puxta o'ylangan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va moliyaviy bozorlar faoliyatini yaxshilashga qo'maklashish hisoblangan.

O‘z navbatida, GDDS, a’zo mamlakatlar makroiqtisodiy tahlil extiyojlarini qondirish borasida, statistika tizimlari tomonidan tuzilayotgan va tarqatilayotgan ma’lumotlarining sifatini yaxshilab borishga qaratilgan uzoq muddatli majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladigan tizimli jarayon hisoblanadi.

GDDSnинг мақсади а’зо мamlakatlarning statistika tizimlarini rivojlantirish hisoblanadi va SDDSga o’tishga tayyorgarlik ko’rishda rivojlanish vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mamlakatlar faqatgina GDDS yoki SDDS tizimlaridan birida ishtirok etishi mumkin. A’zo mamlakatlarning GDDS yoki SDDSga qo’shilishi ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur standartlarga qo’shilish orqali a’zo mamlakatlar hukumatlari ma’lumotlar standartlari bo’yicha shaffoflik tamoyillariga qat’iy rivoja etishlarini tasdiqlaydilar.

Umuman olganda, ushbu har ikkala tashabbuslar o’zining muvaffaqiyatiligini ko’rsatdi, chunki ular mamlakatlar bo’yicha jamoatchilik uchun ochiq bo’lgan ma’lumotlarning dolzarbligi va sifatini oshirdi, moliya sektori va xalqaro moliyaviy munosabatlardagi xatarlarni, shuningdek, ushbu mamlakatlarning iqtisodiy zarbalarga qarshi zaif taraflarini yaxshiroq tushunishga yordam berdi.

Bu esa, xalqaro moliya bozorlari operatsiyalarida ham, iqtisodiy siyosatni baholashda ham foydalananish uchun Yuqori sifatli ma’lumot olish imkonini yaratdi va shu bilan davlat va xususiy sektorda qarorlar qabul qilish jarayonlariга yordam berdi.

Shu bilan birga, bir qator mamlakatlar (asosan rivojlangan mamlakatlar) tashabbuslari asosida uchinchi standart, ya’ni SDDSnинг eng ilg’or ko’rinishi bo’lgan SDDS+ yaratildi, shuningdek 2015 yil 1 iyuldan XVJ Direktorlar Kengashi, amalda 1997 yildan buyon foydalaniб kelingayotgan GDDS tizimi o’miga, takomillashtirilgan, kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatish umumiy tizimi (e-GDDS)ni joriy etdi.

GDDSGa nisbatan e-GDDSDa quyidagi asosiy o’zgartirishlar kiritilgan:

(a) jamg’arma tomonidan monitoring olib boriladigan umumiyo ko’rsatkichlar bilan ma’lumotlar toifalarini optimallashtirish;

(b) ma’lumotlami olishda qulaylik yaratish uchun Yig’ma ma’lumotlar milliy sahifasini ishga tushirish (NSDP);

(v) ma’lumot tarqatish chegaralarini aniqlash orqali, yanada Yuqori tarqatish standartlariga erishish yo’llarini joriy etish.

Barcha standartlar, statistik ma’lumotlarni shakllantiruvchi milliy statistika, bank va boshqa idoralarning internet tarmog’idagi veb-saytlari orqali muayyan statistik ma’lumotlar to’plamlarini e’lon qilib borishni nazarda tutadi.

Eng muhimmi, foydaluvchilarga milliy statistika va boshqa statistik ma’lumotlar ishlab chiqaruvchi idoralardan ma’lumotlar sifatini baholash imkonini beradigan ma’lumotlarni taqdim etilishini talab qilinishidir. Bunga, axborot to’plashning manba va usullarini, ularni olish tartibini, qo’llaniladigan usul va uslubiyotlarning xalqaro statistik qo’llanmalarga muvofiqligini tasniflovchi ommaviy nashrlarni e’lon qilish orqali erishiladi.

Bugungi kunda, mamlakatlarning 111 tasi XVJning e-GDDS, 61 tasi SDDS va 14 tasi SDDS+ tizimlariga a’zo bo’lganlar.

Xalqaro taqqoslash dasturlarida milliy statistika idoralari ishtirokini tashkil etish BMT SKning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu dasturlar doirasida yalpi ichki mahsulotning (YAIM) fizik hajmlari mamlakatlar bo'yicha taqqoslanadi. Chunki, aynan YAIM mamlakat iqtisodiy faoliyatining ko'lamini va uning iqtisodiy farovonligi darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Xalqaro taqqoslashlar, barcha mamlakatlarda YAIMni aniqlash tartiblari bir xil bo'lishini talab qiladi, ya'ni ushbu ko'rsatkich mamlakatlar ichki bozorlardagi baholar darajasidagi farqlarni bartaraf etishni hisobga olgan holda bir xil pul birligida ifodalanishi lozim bo'ladi.

Xalqaro taqqoslash dasturini milliy hisoblarni rivojlantirish va davlatlararo iqtisodiy hisoblar majmuini tuzish sifatida qaratishi lozim. Eng muhimi, milliy statistika idoralari, narx ma'lumotlarini yig'ish jarayonlarida umumiyligi standartlarga riyoja etish masalalarida boshqa mamlakatlar bilan o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishi lozim bo'ladi. Standartlarning bir qismi asosiy hisoblanadi (dasturning barcha a'zo mamlakatlari uchun majburiy). Ular mintaqaviy yoki guruh taqqoslashlarida narx kuzatishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatlarning mintaqaviy guruhida tovarlar majmuasi, ushbu guruh tarkibidagi aksariyat mamlakatlar tomonidan taklif etilgan tovarlar va asosiy tovarlarning aksariyatini o'z ichiga qamrab oladi.

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatida xalqaro hamkorlik**


Statistika sohasida xalqaro normalar va standartlarga muvofiq, xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, shuningdek, xalqaro tashkilotlarni zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar bilan ta'minlab borish 2002- yil 12- dekabrdagi qabul qilingan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining xalqaro tashkilotlar va statistika idoralari bilan xalqaro hamkorlik va axborot almashinuviga borasidagi faoliyatini yanada jadallashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3165-son qarori muhim o'rinn tutadi.

Qaror bilan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini 2017-2021 yillar uchun ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi besh yillik kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish borasida aniq maqsad va vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlar, statistika va moliya institutlari hamda boshqa mamlakatlar statistika idoralari bilan yaqindan aloqalarni o'matish va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha samarali faoliyat olib borilmoqda.

**2017-2021 йилларда статистикка фаволитини ташкил этиш  
самарадориятни тубдии ошириш, статистика ахборотлари сифатини  
ва уларни тарқатни тизимини яхшилаш бўйича  
ЧОРА-ТАДБИРЛАР ДАСТУРИ**



Xususan, xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishi sifatida, xalqaro tashkilotlar nashrlari va ma’lumotlar banklarida O‘zbekiston Respublikasiga oid ma’lumotlarning xolis va to‘laqonli aks ettirilishini ta’minlashga xizmat qiluvchi xalqaro darajada statistik ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi asosiy e’tiborni xalqaro tashkilotlarning so‘rovlari asosida ularning maxsus savlonomalarini to‘ldirish va taqdim etish ishlariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Jumladan, 2018- yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlarning 23 ta savlonomasi bo‘yicha so‘ralgan ma’lumotlami taqdim etib borish rejalashtirilgan. Bularning asosiyлари quyidagilar:

**1. BMT Kotibiysi Statistika bo‘limi:**

- sanoat ishlab chiqarish statistikasi bo‘yicha yilnomaga oid savlonoma;
- sanoat ishlab chiqarish indekslari bo‘yicha so‘rovnoma;
- xizmatlar xalqaro savdosi bo‘yicha so‘rovnoma;

– Demografiya yilnomasi bo‘yicha savlonomalar (aholi sonini baholash; xalqaro migratsiya va sayohatlar; aholining tabiiy harakati).

**2. BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi:**

– alohida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha savlonoma (narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish indeksi, ish haqi, bandlik, ishsizlik, ichki va tashqi savdo);  
– BMTning milliy hisoblar bo‘yicha savlonomasi.

**3. BMT Osiyo va Tinch okeani mintaqasi iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi  
(ESKATO):**

– “Osiyo va Tinch okeani mintaqasi raqamlarda” nashrini chop etish bo‘yicha savlonoma (aholi statistikasi, ijtimoiy statistika, bandlik, energetika, milliy hisoblar,

tashqi savdo, moliyaviy statistika, narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish, erlardan foydalanish, transport, turizm);

– ESKATO yilnomasi bo'yicha savolnoma (aholi statistikasi, bandlik, ishsizlik, ish haqi, energetika, tashqi savdo, moliyaviy statistika, narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, erlardan foydalanish, o'g'itlar, baliqchilik, sanoat ishlab chiqarish, transport, yo'l-transport hodisalari).

#### 4. **BMT Ta'lim, ilm-fan va madaniyat masailari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO):**

- tadqiqot va ekperimental ishlanmalar bo'yicha savolnoma;
- film va kinoteatrlar yuzasidan statistik ma'lumotlar savolnomasi;
- savodxonlik statistikasi bo'yicha savolnoma;
- innovatsiyalar statistikasi bo'yicha savolnoma;
- ta'lim bo'yicha savolnoma;
- ta'lim bo'yicha savolnoma (milliy ta'lim tizimi);
- ta'lim bo'yicha savolnoma (TQST 0-4);
- ta'lim bo'yicha savolnoma (TQST 5-8).

#### 5. **BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO):**

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish statistikasi bo'yicha savolnoma.

#### 6. **BMT Xalqaro bolalar favqulodda jamg'armasi (UNISEF):**

- CRING ma'lumotlar banki bo'yicha axborotlar;
- TransMonEE ma'lumotlar banki bo'yicha axborotlar.

#### 7. **Yevrostat, Xalqaro Transport Jamg'armasi (XTF), BMT EIK:**

- transport statistikasi bo'yicha umumiy savolnoma.

#### 8. **Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI):**

- uy xo'jaliklarida AKTlardan foydalanish holati bo'yicha savolnoma.

#### 9. **MDH Statistika qo'mitasi:**

– MDH mamlakatlarida davlatlararo statistik ma'lumot almashish yuzasidan savolnoma.

#### 10. **Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB):**

– Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqaror rivojlanish maqsadlari va gender tenglik masalalari bo'yicha savolnoma.


#### 11. **Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ):**

– XVJning k-MTUT (e-GDDS) doirasida Yig'ma ma'mulotlar milliy sahifasida ma'lumotlarni e'lon qilib borish.

Shu bilan birga. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan boshqa xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy va moliyaviy institutlar va boshqa tashkilotlarning ham so'rovleri asosida zarur ma'lumotlar taqdim etib boriladi.

BMT tuzilmalari, Yevrostat, BMT EIK, MDH Statistika qo'mitasi, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Statistika qo'mitasi, XVJ, OTB va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan statistik ma'lumotlar va tajriba almashish borasida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan seminarlar, o'quv kurslari, treninglar va muayyan masalalarda tashkil etiladigan tajriba almashish bo'yicha xizmat safarlarida Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlarining ishtiroki orqali malaka oshirish ishlardida yaqindan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilib, rivojlantirib borilmoqda.

## **Халқаро ташкilotларга ахборот тарқатиш**



Шу bilan birga, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan boshqa xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy va moliyaviy institutlar va boshqa tashkilotlarning ham so'rovları asosida zarur ma'lumotlar taqdim etib boriladi.

BMT tuzilmalari, Yevrostat, BMT EIK, MDH Statistika qo'mitasi, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Statistika qo'mitasi, XVJ, OTB va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan statistik ma'lumotlar va tajriba almashish borasida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan seminarlar, o'quv kurslari, treninglar va muayyan masalalarda tashkil etiladigan tajriba almashish bo'yicha xizmat safarlarida Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlarining ishtiroti orqali malaka oshirish ishlari yaqindan o'zaro hamkorlik aloqalari o'matilib, rivojlantirib borilmoqda.

Shuningdek, boshqa mamlakatlardagi statistika idoralari, xususan Rossiya Federal Davlat statistika xizmati, Ukraina Davlat statistika xizmati, Ozarbayjon Davlat statistika qo'mitasi, Gruziyaning milliy statistika xizmati, Qиргизiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Koreya Respublikasi «Statistics Korea» tashkiloti va boshqalar bilan yaqindan o'zaro hamkorlik aloqalari o'matilgan.

Шу bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda seminarlar, o'quv kurslari, treninglar va muayyan masalalarda tajriba almashish bo'yicha xizmat safarlarini tashkil etish, qo'shma o'rganishlar o'tkazish, ekspert va konsultantlarni jaib etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2017- yilda BMT EIK bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida seminar tashkil etildi. Unda statistik biznes-jarayonlarning umumiyligi modeli (GSBPM) va uni amaliyotga joriy etish hamda barqaror rivojlantirish maqsadlariga doir statistikani yuritish masalalari muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlari mutnazam ravishda xalqaro konferensiyalar, seminarlar, treninglar va o'quv kurslarida ishtirot etib kelmoqdalar. Jumladan, 2017 yilda qo'mita tizimining 53 nafar xodimlari Avstriya, SHveysariya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Venegriya, Gretsiya, Serbiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tailand, Turkiya, Belarus, Litva, Gruziya, Qozog'iston va

Ozarbayjon mamlakatlarida BMT EIK, YUNISEF, FAO, Yevrostat, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha statistika instituti, XVJ, Jahon banki, Yevropa erkin savdo jamiyatni kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan 40 dan ortiq konferensiya, seminar, trening va o'quv kurslarida ishtirok etdilar.

O'z navbatida, 2018- yilning noyabr oyida BMT EIK bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatining xalqaro prinsiplar va standartlarga muvofiqligi yuzasidan "Umumiy sharh" o'tkazildi.

Ushbu tadbir, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimi faoliyatining mavjud darajasini baholash, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan kelgusidagi rejalarни belgilash orqali tizim faoliyatini yanada takomillashtirish imkonini berdi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Rossiya Federal Davlat statistika xizmati bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mutaxassislari guruhini 2018 yilning sentyabr oyida Rossiya Federatsiyasiga qishloq xo'jaligi xatlovini o'tkazish yuzasidan tajriba o'rganish bo'yicha tashrifi uyuştirildi.

Shu kabi, BMT Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) va Rossiya Rossiya Federal Davlat statistika xizmati bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mutaxassislari guruhini 2018- yilning oktyabr oyida Rossiya Federatsiyasida sinov tariqasida bo'lib o'tgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida ham ishtirok etishdi.

Shu o'rinda, XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatish umumiy tizimi (e-GDDS)ni O'zbekiston Respublikasida joriy etish yuzasidan qaror qabul qilinishi alohida e'tiborga loyiq bo'lganini ta'kidlab o'tish lozim. 2017 yilda bu borada ishlarni tashkil etish yuzasidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va XVJning tavsiyalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "milliy muvofiqlashtiruvchi" sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida k-MTUTni joriy etish borasida XVJ bilan yaqindan hamkorlik o'rnatildi. Bu borada, ko'rsatkichlarni takomillashtirish va xalqaro andozalarga moslashtirishda ko'maklashish maqsadida, XVJ tomonidan texnik ko'mak missiyalari tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sahifasida "XVJning k-MTUT" bo'linmasi tashkil etilib, Davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, "Toshkent" Respublika fond birjasi tomonidan zarur ma'lumotlar bilan to'ldirib borilmoqda. Shuningdek, tizim talablari asosida, 2018 yilning may oyidan boshlab "Yig'ma ma'lumotlar milliy sahifasi" ishga tushirildi.

Albatta, O'zbekiston Respublikasini XVJning ma'lumotlarni tarqatish standartlari bo'yicha tashabbusiga qo'shilishi va k-MTUTni joriy etishi, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagи obro'sini oshirishga yordam beradi va xalqaro hamjamiyatga uning real iqtisodiy kuch-qudratini namoyish etadi.

Umuman olganda, rasmiy statistika faoliyati sohasida xalqaro hamkorlik, jamiyatni to'liq, sifatli, ishonchli, taqqoslash imkonini beruvchi, ochiq va dolzarb bo'lgan axborot bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi

## **ХВЖ к-МТУТ ни Ўзбекистон Республикасида жорий этиши тадбирлари**



### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro miqiyosda statistik ma'lumotlar to'plash ishi:

- 1) Xalqaro tashkilotlar qoshidagi statistik bo'limlar;
- 2) Milliy statistik xizmatlar tashkilotlari zimmasiga yuklangandir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari.
2. BMT qoshidagi Statistika Komissiyasi faoliyati haqida nimalarni bilasizq
3. Xalqaro statistika instituti faoliyati.
4. Yevrostat faoliyati to'g'risida nimalarni bilasizq
5. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatning tashkil etilishi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Doklad o mirovom razvitiu 2000/2001. Borba s bednostyu. Vsemirnyy bank. Washington, okrug Kolumbiya. 2000.
2. Pod red. V.N.Salina. Sotsialno – ekonomicheskaya statistika: Praktikum. Ucheb. posobie. – M., 2004 g.
3. Doklad o razvitiu chelovecheskogo potenciala v stranakh Yevropa i SNG – M, PROON, 2002 g.
4. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent: 2004.
5. Mamadaliev O.T. "Zamonaviy "statistika dunyosi"da xalqaro hamkorlikning o'mi" nomli ma'ruzasi [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
6. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
7. [europa.eu.int/gcmrelaysgindex\\_en.htm](http://europa.eu.int/gcmrelaysgindex_en.htm)
8. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
9. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
10. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)

### **III BOB. XALQARO STATISTIKADA QO'LLANILADIGAN ASOSIY GURUHLASHLAR VA TASNIFLAR**

#### **3.1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi**

Ilk bor statistik ma'lumotlarni yagona tasnifini tuzish bo'yicha harakatlar XVIII asr o'rtalarida amalga oshirilgan edi. Avstriya olimlari 1857- yili ishlab chiqarish tarmoqlarini nazaryi jihatdan 8 guruhga va 34 sinfga bo'lishni taklif qildilar. Afsuski ularning bu nazaryi fikrlari amaliyotda o'z tadbiqini topmadi. 1895- yili ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat shakllarini tayyor mahsulot olish uchun hom ashyoga tehnologik ishlov berish usullarini bog'lash imkoniyatlari topildi. Ushbu bog'lanish quyidagi shemaga asoslangan edi.

A guruhi. Hom ashyo ishlab chiqarish.

- I. Er ustidan foydalanish.
1. Qishloq ho'jaligi
2. Baliqchilik va ovchilik
3. Ko'chmanchilik
- II. Minerallar qazib olish.

B guruhi. Hom ashyoga ishlov berish va undan foydalanish.

I. Sanoat

II. Transport

III. Savdo, banklar, sug'urta tashkilotlari

V. guruhi. Ijtimoiy tashkilotlar va erkin mutahassisliklar.

I. Harbiy kuchlar

II. Boshqarish

III. Erkin mutaxassisliklar

IV. Daromadlar hisobiga yashovchi shahslar

V. Xizmatkorlar

Xalqaro statistik tasniflarni tuzishga Millatlar Ligasi tomonidan tuzilib 1925- va 1938- yillarda taqdim etilgan tasnif shemalari ham katta hissa qo'shdi.

1948- yili BMT Statistika komissiyasining yangi tasnifinpi ishlab chiqdi. Ushbu tasnif Xalqaro standart tasnif asosini tashkil etib hozirgi kunga qadar foydalanib kelinayotgan jahon kodirovkalariga asos solgan.

Iqtisodiy faoliyat tarmoqlari tasnfi masalasi chet el iqtisodchilarini yaqin 10-15 yil ichida, ayniqsa kattiq qiziqtiqa boshladi. Hozirgi vaqtida BMT ning statistika byurosi tomonidan taqdim etilgan tasnif qo'llanib kelinmoqda. Ushbu tasnif ungacha qo'llanilgan tasniflardan juda katta farq qilmay, asosan chet el mamlakatlarda qo'llanib kelinayotgan tasniflarni uzaro muvofiqlashdirish, bir asosga keltirish natijasida yuzaga kelgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarining va tarmoqchalarining tasnifi bir turdag'i korhonalar o'rta sidagi aloqalarni analitik o'rganishni, hamda ishlab chiqarishning bevosita iqtisodiy, tehnologik va boshqa jarayonlarni chuqurroq o'rganishga qaratilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini o'rganish tasnif asosiga nima qo'yilishi asosiy masala

hisoblanadi. **Masalan:** sanoatning tarmoqqa ajralishiga asos qilib nimani olish kerak. Qanday belgi tasnif asosini tashkil qilishi kerak. Unda quyidagi 3 holatni keltirish mumkin:

1. Hom ashoning boshlang'ich shakli. **Masalan:** barcha metallga ishlov beruvchi korhonalar metallurgiya tarmog'iga va shu kabi ko'nchilik sanoati, tamaki sanoati, oziq-ovqat sanoati va boshqalarni tashkil etadi;

2. Mahsulotning iste'mol qiymati bo'yicha tasniflash. **Masalan:** qishloq ho'jaligi, transport mashinasozligi, quro'l-aslaha ishlab chiqarish.

3. Tehnologik ishlov berish jarayonlari.

Bu belgiga asosan sanoat tarmog'i, qazib chiqarish va ishlov berish tarmoqiga bo'linishi mumkin. Shuningdek, to'qimachilik, himiya, metallurgiya sanoati ham shu belgi asosida yuzaga keladi. BMT ning 1993-yili qabul qilingan ohirgi tahriridagi tasnifiga ko'ra xalqaro tarmoqlar tasnifi 9 ta yirik bo'limdan iboratdir.

- 1) Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, ovchilik va baliqchilik
- 2) Tog'-kon sanoati
- 3) Ishlov berish sanoati
- 4) Elektroenergiya ishlab chiqarish, gaz ishlab chiqarish, suv ta'minoati va sanitariya hizmati
- 5) Qurilish
- 6) Transport, aloqa va omborhona ho'jaligi
- 7) Moliya, sug'urta
- 8) Davlat kommunal va shahsiy hizmatlar ko'rsatish.

### **3.2. Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi**

Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi BMT ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan olib borilgan ko'p yillik izlanishlar natijasi bo'lib, 1993-yili to'ldirilgan yangi taxririyatda e'lon qilindi. Xalqaro faoliyatlar standart tasniflari asosiga «Faoliyat turi belgisi» asos qilib olindi. Faoliyatlar xalqaro standart tasnifning asosiy amal qiluvchi guruhlari quyidagilardir:

1. Boshqaruva va ma'muriy xodimlar;
2. Intellektual va ilmiy xodimlar
3. Oraliq kasblar (texniklar, operatorlar, kichik tibbiyot xodimlari, diniy muassasalar xodimlari);
4. Ma'muriy personal (Sekretarlar, g'aznachilar, devonxona xodimlari, hizmat ko'rsatuvchi xodimlar);
5. Savdo xodimlari;
6. Qishloq ho'jaligi xodimlari, baliqchilar, o'rmonchilar;
7. Hunardmandlar va yordamchi xodimlar (quruvchilar, shahtyorlar va hokazolar);
8. Mashina va uskunalar operatorlari;
9. Malakasiz xodimlar (qarovullar, yuk tashuvchilar, ko'chada savdo qiluvchilar va x.k.);
10. Harbiylar.

Yuqoridagi yiriklashtirilgan guruhlardan 2-darajali 84 ta guruh, 3-darajali 384 ta kichik guruhchalar va 1506 ta mayda guruhchalar 5500 ta faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu guruhlarni tuzishda avrim noaniqliklar mavjud. Masalan: buhgalterlar 1-guruhga, hisobchilar 4-guruhga kiritilgan va shunga o'hshash noaniqliklar uchrab turadi. Shu sababli ushbu tasnif ham bir qancha o'zgartirishlar kiritishga muhtoj. Ushbu tasnifni amalga oshirishda aqliy va jismoniy kasb vaqillarini ajratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qishloq ho'jaligi bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhida fermerlar va qishloq ho'jaligi korhonalarini boshqaruvchilar bir guruhga birlashtirilganlar. Bu ham bizning fikrimizga to'g'ri emas. Shunga o'xshash avrim noaniqliklar boshqa guruhlarda ham mavjud.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistik Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Iqtisodiy Hamkorlikning Xalqaro tarmoqlar tasnifi (ISIC) birinchi nashri 1948- yil, ikkinchi nashri esa 1958- va 1968- yillarda nashr etilgan. Ushbu tasnifning uchinchi nashri BMTning Statistika Komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va 1990-yilda chop etilgan.

ISICning uchinchi nashri iyerarxik tuzilishga ega bo'lgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari tasnifi. Ushbu tasnif ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Unda, eng Yuqori iyerarxik daraja harflar bilan kodlangan. Klassifikatorda bo'limlar, bo'limlar, guruhlar va sinflar mavjud. Bo'limlar iqtisodiyotning kengaytirilgan tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi, ovchilik va o'rmon xo'jaligi). Bo'limlar ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar, foydalanish yo'nalishlari, qayta ishlangan xom ashyolarning o'zgaruvchanligi, texnologik qayta ishslash metodlari (masalan, o'rmon xo'jaligi, qurilish materiallari va shunga o'xshash xizmatlar) asosida tuziladi. Bir guruh bir hil turdag'i tadbirlarning kombinatsiyasi sifatida iqtisodiyotning filiali hisoblanadi. Va ommaga ushbu toifadagi tovar va xizmatlarning asosiy qismini (masalan, donni yetishtirish) ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish birliklari kiradi.

1999- yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika Komissiyasi doirasida boshlangan va nashri qayta ko'rib chiqish va uning to'rtinchchi nashrini tuzish maqsadlari ushbu tasniflashning mustahkamligi va yaxshilanishini jahonning ko'plab davlatlari iqtisodiyotining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar bilan, bir vaqtning o'zida uzluksizligini ta'minlash. Amalga oshirilgan o'zgarishlarga rioya etishni ta'minlash uchun iqtisodiy ishlab chiqarishning yangi tarkibi va yo'nalishlarini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, ma'lumotlarning taqqoslanishi va muvofiqligini yaxshilash vazifasi sanoatning tasnifi va jahonda qo'llaniladigan boshqa faoliyat turlari tasnifini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari, uzluksizlik ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, o'zgarishlarga rioya qilishni ta'minlash va boshqa tasniflashlarga muvofiqligi xarajatlardan ortiq bo'lgan hollarda faqat o'zgarishlarni kiritish zarur deb hisoblandi. Ko'pgina mamlakatlar uchun uzluksizlikni hisobga olish juda muhimdir.

ISICning to'rtinchchi nashri uchinchi nashrga nisbatan sezilarli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, bu esa dunyoning ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarga mos kelishining oshishi bilan izohlanadi. ISICning qayta ko'rib chiqilgan tuzilmasi batafsilroq o'rganilib, ko'plab yangi tarmoqlarni joylashtirishning umumiy ehtiyojlarini qondirishga imkon berdi. Bundan

tashqari, Yuqori darajadagi tasnifi (masalan, "Axborot va aloqa" bo'limi) bir qator yangi kontseptsiyalar kiritilgan, shunga qaramasdan, JDEga kiritilgan boshqa sohalar ham batafsil ishlab chiqilgan va ayrim toifalar (masalan, chiqindilarni utilizatsiya qilish, ko'chmas mulk operatsiyalari) yangilandi.

ISICni tasniflashning asosiy bo'limi muassasa hisoblanadi, ya'ni, bir joyda ishlab chiqarishning bir turi yoki ishlab chiqarish faoliyati qo'shilgan qiyamatning ustun qismini tashkil etadigan birlashma (bitta korxona yoki korxona bo'limi). Bir muassasa ta'rif o'z mahsulotining qiymati va ishlab chiqarish xarakatlari to'g'risida ma'lumot olish qobiliyatini nazarda tutadi. Sanoat tarmoqlari uchun hisob-kitoblar kontekstida SNAda tasniflash birligi sifatida institut ishlatiladi. Shu bilan birga, ayrim tasniflashning turdag'i turlari iqtisodiy tahlilning ayrim turlari uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, tarmoqlararo muvozanatni rivojlantirishda yanada tasniflangan klassifikatsiyasi birligi - yagona joyda ishlab chiqarish bo'linmasi deb ataladigan yagona birlik ishlab chiqarish birligi bo'lib, u bir joyda joylashganmi yoki bo'lmasisin, faqat bitta faoliyat bilan shug'ullanadigan ishlab chiqarish birligi sifatida belgilanadi.

ISICning to'rtinchisi nashrida tavsiflangan boshqa tasniflash birliklari "faoliyat turi" va "mahalliy birlik" hisoblanadi. Faoliyatning birligi muassasadan farq qiladi, chunki u o'z o'rniiga nisbatan o'z pozitsiyasiga bog'liq emas. Mahalliy bo'linma ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan va bir joyda joylashgan korxona (uning qismi) sifatida tavsiflanadi. Mahalliy birlashma ta'rifida iqtisodiy faoliyat turi haqida ma'lumot yo'q. BMTning to'rtinchisi nashrini qo'llash bo'yicha BMTning tavsivi alarida qayd etilgani kabi, mamlakatlar o'zlarini to'plamdag'i ma'lumotlarni ishlatish xususiyatlarga eng mos keladigan tasnifning turini tanlashlari kerak ma'lumotlar va boshqalar.

### 3.3. Xalqaro savdo tasnifi

Xalqaro savdo tasnifi boshqa tasniflarga qaraganda bir muncha keng va batafsil tuzilgan. Uning asosiga sababi savdo tasnifining har bir mamlakat bojhona siyosati bilan bog'liqligidir. Tashqi savdoda tovarlar assortirmenti keng bo'lib, u yerda oziq-ovqat mollari bilan ishlab chiqarish vositalari ham mavjud. Savdo tasnifini amalga oshirishda tovarlar tasnifi bilan xalq ho'jaligi tarmoqlari tasnifini muvofiqlashtirish zarurdir. Agar tovarlar tasnifi asosiga tarmoq belgisi bilan mos tushmaydigan belgi asos qilib olnisa, u holda ma'lumotlarni taqqoslashda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mahsulotlarni ilmiy nuqtai-nazardan tasniflashda ularning iste'mol qiyimatlaridan kelib chiqiladi. Ayrim hollarda ularning tarkibi ham hisobga olinadi. Ularni iqtisodiy tasniflashda mahsulotlarning kimyoiy tarkibi, moddiy tarkibi ham hisobga olinadi. Ayrim hollarda iste'mol qiymati belgisi tasnif asosini tashkil etuvchi belgi sifatida ularning tarmoqqa bo'linishini ifodalab bera olmaydi. Masalan: oziq-ovqat mahsulotlari sanoat tarmog'ida ham, qishloq ho'jaligida ham ishlab chiqarilishi mumkin. Tarmoqlar va mahsulotlar tasnifining bir biriga mos tushmasligini tashqi savdo nomenklaturasida mavjud bo'lgan pahta va pahta chiqindilari misolida ham ko'rish mumkin. Paxtani qishloq ho'jaligi yoki sanoat mahsulotiga kiritish mumkin. Tashqi savdo oborotiga pahta chigitdan tozalangan holda kiritiladi. Bunday tozalash

avallari qishloq ho'jaligida amalga oshirilgan bo'lsada, keyinchalik pahta tozalash korxonalarida amalga oshirila boshlandi. Birinchi holda pahta qishloq ho'jaligi mahsuloti, ikkinchi holda esa sanoat mahsuloti deb hisoblanadi. Bunga o'hshash muammolar haligacha uchrab turadi. 1993 yili BMT ning statistika qo'mitasi tomoidan xalqaro standart savdo tasnifining uchinchini tasdiqlaydi. Ushbu tasnifga ko'ra quyidagi yirik bo'limlar mavjud:

1. Oziq-ovqatlar (10 ta guruhga bo'linadi);
2. Ichimliklar va tamaki mahsulotlari (2 guruhga bo'linadi);
3. Birlamchi hom ashyo (yoqilg'iidan tashqari 9 guruh);
4. YOqilg'i va moylash materiallari;
5. O'simlik va hayvon yog'lari (7 guruhga);
6. Kimyo mahsulotlari (9 guruhga bo'linadi);
7. Sanoat yarim fabrikatlari (9 guruhga bo'linadi);
8. Mashinasozlik va transport vositalari mahsulotlari (8 guruhga bo'linadi);
9. Ishlov berish sanoatining boshqa mahsulotlari (8 guruhga bo'linadi);
10. Yuqorida nomlari qayd etilmagan tovarlar.

Yuqoridagi tasniflardan tashqari xalq ho'jaligi tarmoqlarini, iqtisodiyotni o'rghanishda boshqa bir qancha bo'yicha tasniflarni va guruhlash amalga oshiriladi.

1. Mulk shakillari bo'yicha guruhlash
2. Boshqaruv darajasi bo'yicha guruhlash
3. Vazirlilik va muassasalar bo'yicha guruhlash
4. Ijtimoiy-jo'g'rofik iqtisodiy hududlar bo'yicha guruhlash

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro statistikada qo'llaniladigan eng muhim tasniflar va guruhlashlar quyidagilar:

- 1) Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi
- 2) Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi
- 3) Xalqaro savdo tasnifi

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi.
2. Iqtisodiy faoliyatlarining xalqaro tasnifi.
3. Xalqaro savdo tasnifi.
4. Xalqaro statistikada qo'llaniladigan muhim tasniflar hamda guruhlashlar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. YU.N.Ivanova. Osnovы mejdunarodnoy statistiki. Uchebnik. Moskova INFRA-M 2010
2. G.YU.Dubyanskaya. Ekonomika – statisticheskiy analiz zarabotnoy platы v Rossii. 1991-2000 g.g. – M., 2013 g.
3. Pod red. V.N.Salina. Sotsialno – ekonomicheskaya statistika: Praktikum. Ucheb. posobie. – M., 2014 g.
4. Xartli Alik. Statistika: Pervaya kniga. – M., 2014 g.
5. Ayubjonov A.H. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
6. [europa.eu.int/G'commG'relaysG'index\\_en.htm](http://europa.eu.int/G'commG'relaysG'index_en.htm)
7. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
8. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
9. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **IV BOB. XALQARO AHOLI STATISTIKASI**

### **4.1. Chet el mamlakatlarida aholi statistikasining tashkil etilishi**

Har bir jarniyatda aholi to‘g‘risida to‘la va aniq ma‘lumotlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni rejalashtirishda asos qilib olinadi. Davlat rejalashtirish organlari xalq ho‘jaligining turli tarmoqlari ishini to‘g‘ri tashkil qilish uchun jamiyat barcha a‘zolarining o‘sib borayotgan talablarini inobatga olishlari zarur.

Aholining soni, tarkibi va joylashishi to‘g‘risidagi aniq hamda mufassal ma‘lumotlarga ega bo‘lmasdan turib butun mamlakatning hamda ayrim viloyat, tuman va shaharlarning iqtisodiy hamda madaniy hayotini ilmiy jihatdan asoslangan joriy va kelgusi rejasini tuzish mumkin emas.

Statistika aholini o‘rganishni uning sonini aniqlashdan boshlaydi. Vaqtiga vaqt bilan o‘tkazilib turiladigan aholi ro‘yxati va aholining tabiiy o‘zgarishi va uning ko‘chib yurishi (migratsiyasi) aholi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar manbai hisoblanadi.

Aholining tabiiy o‘zgarishini, tug‘ilganlami va o‘lganlarni, nikohdan o‘tgan va ajralishlarni fuqarolik holatini qayt qilish (FHKK) organlari hisobga oladi.

Joriy hisob asosida aholining tarkibi to‘g‘risida to‘la va mufassal ma‘lumot olib bo‘lmaydi. Aholining tarkibi to‘g‘risidagi boshqa muhim ma‘lumotlar aholining oilaviy holati, millati, ona tili, hayot kechirish omillari, xalq ho‘jalik tarmoqlari va mashg‘ulotlari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar aholi ro‘yxati o‘tkazilgandagina olinishi mumkin.

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida 7 marta aholi ro‘yxati o‘tkazildi (1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979- va 1989- yillarda).

1989- yilgi aholi ro‘yxati ma‘lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda 19905 ming kishi yashagan bo‘lsa, 2019- yili (1.01 da) esa 33 254,1 ming kishi istiqomat qilgan.

Aholi sonini ifodalash maqsadida ro‘yxat o‘tkazish jarayonida doimiy va mavjud, vaqtincha yo‘qlar va vaqtincha yashovchilar soni aniqlanadi.

$$DA=MA+VY-VYA$$

$$MA=DA+VYA-VY$$

Bu yerda DA – doimiy aholi soni;

MA – mavjud aholi soni;

VY – vaqtinchalik yo‘qlar;

VYA – vaqtinchalik yashovchilar.

Doimiy aholi deganda ro‘yxat o‘tkazilayotgan sanada mazkur aholi punktidagi doimiy yashovchi aholini tushunamiz.

Majud aholi deganda ro‘yxatga olish vaqtida (yashash joyi doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lishidan qat’iy nazar) mazkur aholi punktidagi bor (mavjud) bo‘lgan aholi tushuniladi.

Aholining o‘rtacha yillik sonini aniqlashda turli formulalar qo‘llanishi mumkin:

1. Agar aholi soni faqatgina yilning boshi va ohiri uchun keltirilgan bo‘lsa, u holda aholining o‘rtacha soni quyidagicha hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{A_0 + A_1}{2}$$

bu yerda  $A$  – aholining o‘rtacha soni;

$A_0$  – yil boshidagi aholi soni;

$A_1$  – yil boshidagi aholi soni.

2. Agar aholi soni bir yil ichida oylar bo‘yicha teng intervallarda keltirilgan bo‘lsa, u holda aholining o‘rtacha soni hronologik formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{0.5A_1 + A_1 + A_2 + \dots + A_{n-1} + 0.5A_n}{n-1}$$

1. Agar aholi soni bir yil ichidagi oylar bo‘yicha teng bo‘lmagan intervallarda keltirilgan bo‘lsa, u holda aholining o‘rtacha soni o‘rtacha tortilgan arifmetik formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{\sum A_t}{\sum t}$$

Jadval № 1

Jahonning ayrim mamlakatlaridagi o‘rtacha yillik aholi soni

Davlatlar	1995 y.		2005 y.		2012 y.		2019 y.	
	mln. kishi	foiz	mln. kishi	foiz	mln. kishi	foiz	mln. kishi	foiz
Jahon bo‘yicha	5 900	100,0	6 345.1	100,0	7 044	100,0	7669.1	100,0
shu jumladan:								
Xitoy	1 221.4	20.7	1 315.8	20.7	1 351	19.2	1402.9	18.24
Hindiston	935.7	15.8	1 103.4	17.4	1 237	17.6	1373.97	17.87
AQSH	263.0	4.4	298.2	4.7	314	4.4	330.94	4.3
Indoneziya	193.7	3.3	222.8	3.5	247	3.5	270.1	3.51
Braziliya	155.8	2.6	186.4	2.9	199	2.8	215.04	2.8
Rossiya	148.1	2.5	143.2	2.2	144	2.0	146.5	1.91
O‘zbekiston	23.0	0.4	26.3	0.4	30	0.4	33.25	0.4

Dunyo aholisi - bu hozirgi kunda dunyodagi odamlar soni. Bugungi kunda dunyo aholisining umumiy soni 7,69 milliard kishini tashkil etadi. Birinchi milliardga 1800 atrofida erishildi va 200 yil ichida biz 7 milliardga etdik.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti Aholi bo‘limiga ko‘ra, bu asosiy yo‘nalishlar:

1 milliard - 1804

2 milliard - 1927 (123 yil ichida)

3 milliard - 1960 yil (33 yilda)

4 milliard - 1974 yil (14 yil ichida)

5 milliard 1987 yil (13 yil ichida)

6 milliard - 12 oktyabr 1999 yil (12 yil ichida)

7 milliard - 2011 yil 31 oktyabr (12 yil ichida)

Hozirgi kunda dunyo aholisining soni yiliga 90 milliondan ortib bormoqda.

Global jinsiy aloqa nisbati 1.018 ni tashkil qiladi. Demak, bizda ayollardan biroz ko'proq erkaklar bor. Dunyo aholisining o'rtacha yoshi 2018 yilda 30,4 yilni tashkil qiladi.

**Dunyodagi aholi soni eng ko'p 20 ta mamlakat<sup>4</sup> (25.03.2019)**

1	■	Xitoy	1,402,940,001	18.24foiz
2	■	Xindiston	1,373,970,896	17.87foiz
3	■	Amerika Qo'shma SHtatlari	330,943,269	4.30foiz
4	■	Indoneziya	270,132,285	3.51foiz
5	■	Braziliya	215,043,687	2.80foiz
6	■	Pokiston	204,188,710	2.66foiz
7	■	Nigeriya	201,017,194	2.61foiz
8	■	Bangladesh	168,315,760	2.19foiz
9	■	Rossiya Federatsiyasi	146,523,724	1.91foiz
10	■	Meksika	133,664,794	1.74foiz
11	●	Yaponiya	126,053,298	1.64foiz
12	■	Efiopiya	109,117,648	1.42foiz
13	■	Fillippin	106,771,847	1.39foiz
14	■	Misr	99,198,758	1.29foiz
15	■	Ve'tnam	97,416,925	1.27foiz
16	■	Kongo Demografik Respublikasi	86,786,181	1.13foiz
17	■	Turkiya	83,809,366	1.09foiz
18	■	Eron	82,922,389	1.08foiz
19	■	Germaniya	81,414,010	1.06foiz
20	■	Tailand	68,930,580	0.90foiz

Dunyo aholisining 70 foizidan ortiq'i dunyoning eng ko'p 20 mamlakatida yashaydi. Dunyo aholisining soni 1 milliarddan ortiq bo'lgan Xitoy va Hindiston mavjud. Xitoy dunyodagi eng aholisi soni ko'p mamlakat ekanligiga qaramasdan. Hindiston aholisi soni ancha tez o'sib bormoqda va 2023 yilda Hindiston dunyodagi eng aholisi ko'p mamlakatga aylanishi kutilmoqda.

<sup>4</sup> <https://countrymeters.info/en/World>

**MDH davlatlari va O'zbekiston Respublikasi aholi soni<sup>5</sup>, yil boshiga, mln. kishi.**

Mamlakatlar	1991 yil	2004 yil	2019 yil
Rossiya	148,5	145,2	146,5
Ukraina	51,9	49,3	43,79
O'zbekiston	20,7	24,9	33,25
Qozog'iston	16,8	14,8	18,59
Belorussiya	10,3	10,0	9,43
Ozarboyjon	7,1	8,1	9,92
Gruziya	5,5	5,3	3,90
Tojikiston	5,4	6,2	9,24
Qirg'iziston	4,4	4,9	6,19
Moldova	4,3	4,4	4,03
Turkmaniston	3,8	5,4	5,91
Armaniston	3,4	3,8	2,94
MDH jami	282,1	282,3	235,4

Aholining haqiqiy soni MDH davlatlarida, avniqsqa Kavkaz davlatlarida rasmiy ma'lumotlarga qaraganda past, sababi aholining ko'p qismi chet ellarga pul ishlash istagida emigratsiya qilganlar.

Demak, Yuqoridaq jadval bo'yicha 2019- yil ko'rsatkichlarini 1991- yilga nisbatan tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga ega bo'llamiz:

Rossiya aholisi 1,3 foiz kamaygan

Qozog'iston aholisi 10,65 foiz ko'paygan.

Belorussiya aholisi 8,4 foiz kamaygan

Qirg'iziston aholisi 40,68 foiz ko'paygan

Moldova aholisi 6,3 foiz kamaygan

Turkmaniston aholisi 55,5 foiz ko'paygan

Gruziya aholisi 29,1 foiz kamaygan

Ozarboyjon aholisi 39,7 foiz ko'paygan

Armaniston aholisi 13,5 foiz kamaygan

va O'zbekiston Respublikasi aholisi 60,6 foizga oshgan

MDH bo'yicha jami 100 foiz qilib olsak shundan O'zbekiston ulushi 14,12 foizga teng. O'zbekistonda aholi soni darajasini Yuqoriligi, yashash uchun shart-sharoitlar qulayligi, aholi salomatligiga e'tibor kuchliligi sabablidir.

Inson hayvonot dunyosidan taxminan bir million yil ilgari ajralib chiqqan. Hozirgi vaqtda planetamiz aholisining miloddan oldingi davrdagi o'sishini faqat taxminan belgilash mumkin.

Eramiz boshlariga kelib er kurrtasi aholisi taxminan 150-200 million kishiga, eramizning 1000 yiliga kelib qariyb 300 millionga yetdi.

Keyingi 100 yillarda ichida, ya'ni XIX asrga qadar dastlab Yevropaning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarida, so'ngra dunyoning boshqa ko'pgina mamlakatlarida aholini ro'yxatga olish (statistik hisobga olish) tartibga solingan bo'lsa-da, jahon

<sup>5</sup> <https://countryeconomy.com/countries/groups/cis>

aholisi sonining o‘zgarishi haqida oz ma‘lumotlar bor. Demograflarning taxminiy hisoblariga ko‘ra, eramizning ikkinchi ming yillari boshida jahon aholisining har yilgi o‘sish sur’ati juda oz miqdorda bo‘lgan v foizning yuzdan bir ulushimi tashkil etgan. Dunyoning turli mamlakatlarida tez-tez bo‘lib turgan urushlar, keng tarqalgan yuqumli kasalliklar va ocharchilik natijasida bu o‘sish bir me'yorda bo‘lmagan va ayrim hollarda Hatto pasayib turgan.

Tug‘ilishning Yuqori darajasini saqlab qolish faqat Yevropa mamlakatlari aholisining tez o‘sishi uchun imkon bo‘lib qolmay, balki Amerika va Avstraliya aholisining tez ko‘payishi uchun ham imkoniyat yaratdi. Chunki Yevropadan Amerika va Avstraliyaga ko‘plab ko‘chmarchilar borar edi. Shuning uchun ham Amerikada aholisining o‘sish sur’ti Yevropaga nisbatan Yuqori edi. 1750- yildan 1900- yilgacha Amerika aholisi 12 marta oshgan bo‘lsa, Yevropa aholisi taxminan 3 marta ko‘paydi.

## 4.2. Aholi harakati ko‘rsatkichlari

Aholining harakat ko‘rsatkichlari mazmunan bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki guruhdagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhga aholining tabiiy harakatini, tug‘ilish va o‘lishni, nikohdan o‘tganlar va ajralganlar sonini, ikkinchi guruhga esa aholining ko‘chib yurishini ifodalovchi ko‘rsatkichlari kiradi.

Aholining tabiiy harakati mutloq va nisbiy miqdorda aniqlanadi. Absalyut tabiiy ko‘payish quyidagicha hisoblanadi:

$$T_{ko‘p} = T_{ug'} \cdot O'$$

$T_{ug'}$  - tug‘ilganlar soni;

$O'$  - o‘lganlar soni.

Bu ko‘rsatkich aholi harakati jadalligini (intensivligi) bevosita o‘zida aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham aholining tabiiy harakatidagi jadallikni ifodalash maqsadida tug‘ilish, o‘lish, tabiiy o‘sish, xayotiylik, maxsus tug‘ilish, bolalar o‘limini xarakterlovchi koeffitsientlar hisoblanadi. (Jadval №2):

O‘lish koeffitsienti – tug‘ilganlar sonini aholi o‘rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_{tug'} = \frac{T \cdot 1000}{A}$$

O‘lish koeffitsienti – o‘lganlar sonini aholi o‘rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_{y\prime} = \frac{Y \cdot 1000}{A}$$

Tabiiy o‘sish koeffitsienti:

$$K_{tab} = \frac{(T - bI) \cdot 1000}{A} \quad \text{yoki} \quad K_{tab.o‘sish} = K_{tug'} \cdot K_{o‘l}$$

Hayotiylik koeffitsienti tug‘ilganlar sonini o‘lganlar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_u = \frac{T}{bI}$$

Maxsus tug'ilish koeffitsienti tug'ilishlar sonini biologik jihatdan surriyot ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan ayollar (bunday ayollar jumlasiga 15-49 yoshdag'i ayollar kiradi) o'rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo'li bilan aniqlanadi:

$$K_{\text{max.tug}} = \frac{T_1 \cdot 1000}{15-49 \text{ ёйдаги ёзиларнинг уртacha сони}}$$

1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\text{km}} = \frac{\bar{y}_{\text{km}} \cdot 1000}{1/3(T_0) + 2/3(T_1)}$$

bu yerda  $O_1$  – o'tgan va shu yil ichida tug'ilganlar sonida 1 yoshgacha o'lgan bolalar soni.

$T_0, T_1$  – o'lgan va shu yil ichida jami tug'ilgan bolalar soni.

Jahon aholisining soni dinamikasi, aholining tabiiy harakati bilan, ya'ni asosan tug'ilish va o'sish ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. O'limga nisbatan tug'ilishning ko'pligi aholining tabiiy o'sishini ko'rsatadi. Ba'zi bir qit'alar va ayrim mamlakatlar aholisi sonining o'sishiga aholi migratsiyasi ham jiddiy ta'sir etadi.

1960-1967- yillarda er yuzida o'rta hisobda har yili 106 million kishi tug'ilib, 47 million kishi o'lgan. Natijada aholi yiliga 59 million kishiga ko'paygan.

Aholi tabiiy harakatining xarakteri murakkab bo'lib, u juda xilma-xil sabablar bilan belgilanadi. O'sish ko'rsatkichlari dunyodagi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholining faravonligi darajasi, sog'liqni saqlash tizimining ahvoli bilan chambarchas bog'liqidir. Tug'ilish ko'rsatkichi aholining jinsi va yosh strukturasi xususiyatlari, nikohlanuvchilarning o'rtacha yoshiga, shuningdek, er-xotinining ma'lumot darajasi singari omillarga ham ma'lum darajada bog'liqidir. Shaharlarda qishloq joylarga qaraganda tug'ilish kamroq bo'ladi.

### 2019- yilda ayrim jahon mamlakatlari bo'yicha umumiy tug'ilish, o'lish va immigratsiya koeffitsientlari<sup>6</sup> (ming kishiga nisbatan foiz)

Mamlakatlar	Tug'ilish		O'lganlar		Immigratsiya	
	Jami	soatiga	Jami	soatiga	Jami	soatiga
Xitoy	47,682	1,986	26,836	1,118	1.03	-43,19
Hindiston	76,610	3,192	27,814	1,158	1.55	0,064
Yaponiya	2,864	0,119	3,461	0,144	0,190	0,008
AQSH	11,405	0,475	7,458	0,310	2,869	0,119
Meksika	7,042	0,293	1,738	0,072	-0,310	0,012
Qozog'iston	1,146	0,047	0,452	0,018	0,096	0,003
Rossiya	5,102	0,212	5,563	0,231	0,626	0,026
O'zbekiston	2,013	0,083	0,607	0,025	-0,116	-0,004

Yuqorida jadvaldan ko'rinish turpibdiki dunyo mamlakatlarida tug'ilish, o'lish va immigratsiya koeffitsientlari turli qit'alarda o'ziga xos xususiyatiga ega, masalan: Afrika va Osiyo qit'alarda ancha katta. Yevropa mamlakatlarida esa bu ko'rsatkichlar ancha past. Yangi paydo bo'lgan Belorussiya, Ukraina va boshqa hamdo'stlik

<sup>6</sup> <https://countrymeters.info>

mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan aholining tabiiy ko'payishi yo'qolib uni o'mini kamayish egallagan.

Jahonda 200 ga yaqin mamlakat bor. Shulardan o'ntasida, ya'ni aholisi eng ko'p hisoblangan Xitoy, Hindiston, AQSH, Pokiston, Indoneziya, Yaponiya, Braziliya, Germaniya Federativ Respublikasi va Buyuk Britaniyada yer yuzida istiqomat qiluvchi aholining taxminan 2/3 qismi joylashgan.

**O'rtacha umr.** Xalqaro demografik statistikasida o'rtacha umr deb, muayyan avlodga mansub tug'ilganlardan har biri o'rta hisobda necha yil yashashi mumkinligiga aytildi. Ayni shu vaqtida ana shu avlodning yashash muddati mobaynida yoshdan yoshta o'tishi, barcha aholining tegishli yosh gruppalarida o'lim hozirgi darajada bo'ladi, deb taxmin qilinadi. O'lim kam bo'lgan mamlakatlarda o'rtacha umr uzun bo'ladi. O'rtacha umr xayot tarzining ijitimoiy-iqtisodiy sharoitiga va sog'liqni saqlash ishlarining ahvoliga bog'liqidir.

Aholisi eng uzoq umr ko'ruchchi davlatlar orasida – Shvetsiya, Norvegiya va Niderlandiyadir. (85 yil). Inson eng kam umr ko'radigan joy Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlaridir (30-40yil).

Aholisining o'rtacha umri, taxminan quyidagicha: Shimoliy Amerikada – 70 yil, Yevropada – 68, Lotin Amerikasida – 50-55, Osiyoda – 40-50, Afrikada – 40 yildan kamroq, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroi, Kanada, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Fransiya, Shvetsariya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda o'rtacha umr 70-73 yilni, Belgiya, Italiya, Kipr, AQSH va Yaponiyada 65-69 yilni, Argentina, Ispaniya, Portugaliya, Singapurda 60-64 yilni, Tailandda 45-50, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Gonduras, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Nikaragua, Panama, Peruda 40-50 yilni tashkil etadi.

**Aholi migratsiyasi** Aholi migratsiyasi qit'alar va dunyo mamlakatlarini istiqomatgohga aylantirish va ularda yashovchilarini shakllantirishda katta rol o'yinaydi. Asosan Yevropadan Amerikaga, ya'ni okeanning narigi yog'iga ko'chib o'tish XIX va XX asrlarning boshlarida xarakterli voqeа edi. Yevropadan bo'lgan emigratsiya XIX asming 20-yillaridan boshlab sezilarli darajada o'sa bordi va shu asming o'rtalarida yiliga o'rta hisobda 300 ming kishini tashkil etdi. XX asming o'rtalarida 60 milliondan ko'proq kishi Yevropadan Amerikaga ko'chib ketadi. XX asrda Osiyo, Afrika, Amerika aholisining migratsiyasi o'z xajmi jihatdan Yevropaliklarning ko'chishiga nisbatan kamroq edi. YUZ minglab kishi qatnashgan eng yirik migratsiyalar qatorida xitoyliklarning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, Yaponianing Gavayia, AQSHga va ayniqsa, Shimoli-Sharqiy Xitoya, Koreyaga, hind aholisining Seylonga, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, Sharqiy va Janubiy Afrika va Okeaniyadagi Fedji orollariга ko'chirilishlarini ko'rsatib o'tish kerak.

Ikkinci jahon urushi borayotgan rayonlardan aholining qochishi va millionlab aholining evakuatsiya qilinishi tufayli yangi migratsiya ro'y bergan. Bu migratsiya asosan vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan. Osiyoda ro'y bergan eng yirik migratsiya (1956- yil) Hindiston va Pokiston bo'linib, mustaqil davlat sifatida tashkil topishi bilan bog'liq bo'lgan va asosan diniy e'tiqod belgisi ostida shakllangan migratsiya edi.

### **4.3. Chet el mamlakatlarida aholi tarkibini o'rganish**

Aholi tarkibini o'rganish ularni quyidagi guruhlarga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi:

1. Umumdemografik belgilar (jinsi, yoshi, oilaviy holati);
2. Aholining milliy tarkibini xarakterlovchi belgilar(millati, ona tili, fuqaroligi);
3. Aholining madaniy darajasini xarakterlovchi belgilar (ma'lumoti, ta'lim olishi);
4. Aholining ijtimoiy tarkibini xarakterlovchi belgilar (ijtimoiy guruhi, yashash omillari);
5. Mehnat resurslarini ifodalovchi belgilar (ishlash joyi, mashg'uloti, mutaxassisligi).

Aholining jinsiy tarkibi va yosh strukturasi eng muhim demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir, chunki tabiiy ko'payish jarayonida mayjud ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatlari hal qiluvchi omillardan hisoblansada, aholining jinsi va yoshiga oid ko'rsatkichlar inson zo'triyotini yuzaga kelishida, mehnat resurslarining shakllanish sur'ati va xarakterini belgilashda, jamiyatning extiyoy va imkoniyatlarini hisobga olishda katta ahamiyat o'ynaydi.

Aholining yoshi bo'yicha hisobga olish, uni o'rganish ko'p tadbirlarni, jumladan, iste'mol buyumlarini va ularni assortimentlari bo'yicha ishlab chiqarish, bolalar bog'chalari va muktablar qurilishini rejalashtirish, mehnat resurslari va shunga o'xshash qator ko'rsatkichlarni aniqlashda juda muhimdir.

Aholi statistikasida aholining milliy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rinn egallaydi. Ko'p millatli mamlakatimizda milliy siyosatning oqilona amalga oshirilayotganligini, hamma millatlarning ravnaq topayotganligini, milliy muktablar, o'z ona tilida dars olib borish, darslik, o'quv qo'llanmalari, gazeta va oynomalarini tegishli milliy tilida nashr qilish, milliy-madaniy muassasalarini (teatr, kutubxona va xakozolarni) ochish va rivojlantirish kabi qator vazifalarni hal qilish, ayrim millat sonini, ularni hududlar bo'ylab joylashishini aniqlashdan boshlanadi.

Respublikamiz hududida 1939- yili 97 millat va elga mansub aholi yashagan bo'lsa, 1959- yili 113 ta, 1970- yili 120 ta, 1989- yili esa 122 ta va xozirgi kunda 136 ta millat va elatga mansub aholi yashamoqda.

**Aholining joylashishi.** Yer kurrsasi bo'yicha aholining joylashishi bir xilda emas. Hali odamlar tomonidan mutloqa istiqomatgohga aylantirilmagan katta maydonlar bilan birga aholi juda zinch joylashgan dehqonchilik rayonlari va yirik shahar aglomigratsiyalari, ya'ni o'ta zinch joylashgan shaharlar va shahar atrofi rayonlari bor.

Aholining 50 foizdan ko'prog'i issiq mintaqasi mamlakatlarida yashaydi, 85 foizdan ko'prog'i G'arbiy yarim shardan oldinroq istiqomatgohga aylantirilgan Sharqiy yarim sharda joylashgan. Yevropa va Shimoliy Amerika sanoati taraqqiy etgan rayonlarda, Osiyoning Janubiy, Janubi-Sharqiy va Shimoliy Amerikaning yirik daryo vodiylarida aholining zichligi ayniqsa kattadir. Yer kurrasining aholi ayniqsa zinch joylashgan rayonlarnida planetamiz aholisining 70 foizga yaqin qismi yashaydi.

Aholini shahar va qishloq aholisiga ajratish mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshirilsada taxminiy xarakterga ega ekanligini e'tirof etish zarur, chunki shahar va qishloq aholisi tushunchasi turli mamlakatlarda har xil ma'noni bildiradi.

Aholi yashaydigan materiklarda aholining umumiy o'rtacha zichligi ( $1 \text{ km}^2$  ga to'g'ri keladigan aholi soni) 24 kishini tashkil etgan, shu jumladan Xorijiy Yevropada –189, Xorijiy Osiyoda – 101, Afrikada – 99, Avstraliya va Okeaniyada 66 kishi.

### O'zbekiston Respublikasi viloyatlarini aholi zichligi.

Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatganki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 1 kv.km.ga 74,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Andijon ( $1 \text{ kv.km.ga } 713,2$  kishi), Farg'ona (544,8 kishi), Namangan (370,0 kishi) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Navoiy viloyati (8,8 kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (11,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil 1 yanvar holatiga respublika doimiy aholi sonining 30,3 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.<sup>7</sup>

Jumladan, shahar aholisi soni 16805,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5 foiz), qishloq aholisi soni 16449,1 ming kishini (49,5 foiz) tashkil etgan.

**Shahar aholisi.** Jahan aholisining joylashishi ko'p jihatdan shaharlar geografiyasi- aholisi, asosan sanoat, savdo va qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarda shug'ullanadigan katta istiqomatgohlar bilan belgilanadi. XIX – XX asrlarda shahar aholisining soni ayniqsa tez o'sdi. Ko'pgina mamlakatlarda qishloq aholisining faqat nisbiy kamayishi hisobiga emas, balki absalyut raqamlarda ham kamayishi hisobiga shahar aholisi ko'payib bormoqda.

Shahar aholisi aholining tabiiy ko'payishi hamda qishloq aholisining ish izlab shaharga kelib qolishi, yangi shaharlar barpo etilishi va qishloqlarda aholi yashaydigan bir necha punktlarning shaharga aylanishi natijasida ko'paydi.

Hozir shahar aholisining soni er kurrasidagi aholining umumiy soniga nisbatan qariyb ikki baravar tez o'smoqda.

Chet ellik olimlarning fikriga qaraganda, 80-90- yillarda shahar aholisi qishloq aholisidan oshib ketgan edi. 2010- yildan boshlab 100 ming va undan ortiq aholini shaharlar butun insoniyatning 25 foizni, 20 ming va undan ortiq kishilik shaharlar 50foizni o'z bag'riga oladi. Shahar aholisining er kurrasidagi turli rayonlar bo'yicha taqsimlanishi kelgesida har bir rayon aholisining jahon aholisi salmog'idagi ulushiga mos ravishda ro'y berishi mumkin.

<sup>7</sup><https://kun.uz/55381466>

**O‘zbekiston shahar va qishloq aholisining salmog‘i.<sup>8</sup>  
(yil boshiga nisbatan)**

Yillar	Aholi soni (ming kishi)	Shu jumladan		Umumiy aholiga nisbatan foiz hisobida	
		Shahar aholisi	qishloq aholisi	Shahar aholisi	qishloq aholisi
1990	20322	8282	12040	40,8	59,2
1991	20708	8344	12364	40,3	59,7
1992	21207	8483	12724	40,0	60,0
1993	21703	8559	13144	39,4	60,6
1994	22192	8653	13539	39,0	61,0
1995	22562	8732	13830	38,7	61,3
1996	23007	8831	14176	38,4	61,6
1997	23444	8944	14500	38,2	61,8
1998	23867	9059	14809	38,0	62,0
1999	24231	9157	15074	37,6	62,4
2000	24488	9166	15322	38,7	62,3
2001	24908,2	9295,2	15613,0	37,1	62,9
2002	25210,8	9356,8	15854,0	36,9	63,1
2003	25523,0	9410,7	16112,3	36,6	63,4
2004	25707,4	9381,3	16326,2	36,5	63,5
2005	26021,4	9441,9	16579,4	36,3	63,7
2006	26312,7	9495,1	16817,6	36,1	63,9
2007	26663,8	9584,6	17079,2	36,0	64,0
2008	27072,2	9698,2	17374	35,8	64,2
2009	27533,4	9801,9	17731,5	35,6	64,4
2010	28001,4	14425,9	13575,5	51,5	48,5
2011	29123,4	14897,4	14226	51,2	48,8
2012	29555,4	15143,2	14412,2	51,2	48,8
2013	29993,5	15370,1	14623,4	51,2	48,8
2014	30800,6	15543,1	15257,5	50,5	49,5
15		15748	15274,5	50,7	49,3
16		15963,9	15611,4	50,5	49,5
17		16252,9	15867,5	50,6	49,4
		16533,9	16120,0	50,6	49,4
	33 254,1	16805,0	16449,1	50,5	49,5

Yuqoridagi jadavilda ko‘rinib turibdiki, 1990 yildan boshlab shahar aholisining salmog‘i umumiy aholida yildan yilga kamayib, qishloq aholisining salmog‘i oshib bormoqda. 1990 yili qishloq aholisining umumiy aholidagi salmog‘i 59,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2003 yili 63,4 foiz gacha etgan. 2010 yildan boshlab esa shahar aholisining ko‘payib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin

<sup>8</sup> Адміністративныи склад та борбор Узбекистана 2003. Ўзбекистон Нийзасетлана Сенат. Сборник Годищни - 2004- 29 сип.

Umumiy aholining yillik o'sishida yil bo'yicha kamayishini kuzatish mumkin. Masalan, 1990-yili u 1,9 foizni, 1995-yili 1,67 foizni, 2000-yili esa 1,06 foizni tashkil etgan.

**Aholining jinsiy tuzilishi** Aholining statistik hisobini olish yaxshi yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda demografik materiallardan ma'lum bo'lishicha o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq tug'iladi (O'rtacha hisobda 100 qiz bolaga 105-106 o'g'il bola to'g'ri keladi). Bu ham jahonning barcha mamlakatlariiga xos xususiyatdir. Biroq erkaklar va ayollarning umumiy soni nisbati jahonning turli qismlari va mamlakatlarda turlichaydi. Bunga erkaklar va ayollarning o'rtacha umridagi farq, migratsiyalar, urushlar va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda, ayollarning umumiy soni erkaklar sonidan ko'proqdir. Sababi bunday mamlakatlarda bolalar ichida o'g'il bolalar o'limi ko'proq uchrashidir (Masalan, AQSHda bir yoshgacha o'g'il bolalar qizlarga nisbatan 1,33 marta ko'proq bo'ladi), shu sababli taxminan 15-20 yoshga yetgach, ikkala jins o'rtasidagi nisbat son jihatdan tenglashadi. Kattaroqyoshda esa ayollar salmog'i mutazam o'sib boradi. Ayollarning mehnatga, ayniqsa og'ir va zararli ishlab chiqarishda kam band bo'lganligi sababli ayollar orasida o'lim kamroq, demak o'rtacha umr erkaklarga qaraganda ko'proq bo'ladi.

Rivojlanayotgan ko'p mamlakatorda (Osiyoda) odatda erkaklar soni ayollar sonidan ko'proq bo'ladi. Bu mamlakatlarning ko'pida diniy aqidalar (masalan, islam dini da'vatiga ko'ra, ayollar mavqeい pastroqdir. Shu sababli, go'yo qiz bola oilaga qo'shimcha tashvish keltirar emish. Shu boisdan qiz tug'ilishi oilada haqorat deb bilinadi. Shu tufayli chaqaloqlar orasida o'g'il bolalar o'limi qiz bolalar o'limiga nisbatan ko'p bo'limasa kerak.

#### **O'zbekiston va Latviya aholisining jinsiy tuzilishi (foiz hisobida)**

O'zbekiston	1990- yili			2019- yili		
	Jami aholi	erkaklar	ayollar	Jami aholi	erkaklar	Ayollar
0-14 yosh	40,71	41,74	39,7	49,80	50,76	38,70
15-49 yosh	46,62	47,3	45,95	55,20	60,20	57,30
50 dan Yuqori	12,62	10,9	24,29	16,60	12,50	17,90
Latviya						
0-14 yosh	21,29	23,57	19,31	22,13	29,40	22,18
15-49 yosh	50,56	52,78	46,53	51,05	60,3	55,61
50 dan Yuqori	29,19	23,53	34,08	32,93	20,20	40,01

Barvaqt nigohlanish (Osiovo Afrikadagi bir qancha mamlakatlarda yoshlar 15-20 yoshlarida turmshga chiqadilar) natijada onalik va ko'p bolalik davri ham erta boshlanadi. Masalan, 45 yoshdan Yuqori bir hind ayoliga o'rtacha 6-7 bola to'g'ri kelsa, Buyuk Britaniyada faqat 2-3 bola to'g'ri keladi. Bunday mamlakatlarda tug'ish vaqtida rnalakali meditsina yordami ko'rsatilmasligi tufayli ko'plab onalar nobud bo'ladi. Ayrim mamlakatlarda ayollar hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, jahon miqyosida erkaklar soni ayollar sonidan bir muncha Yuqoridir.

**Aholining yosh strukturasi.** Aholining yosh strukturasi eng muhim demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir. Aholining yoshiga qarab shakllanadigan turli gruppalar o'tasidagi nisbat ko'p jihatdan, masalan, iqtisodiy aktiv aholi salmog'ini aniqlashda yoki muayyan davlatning mehnat resurslarini belgilashda juda ham zarur ko'rsatkichdir. Aholi sonining umumiy o'sishi ko'p jihatdan 16-50 yoshlardagi ayollar soniga bog'liqdir.

Iqtisodiyotning va madaniyatning muhim ko'rsatkichlarini (bolalar, o'quv muassasalari, mehnat resurslari, kasallik va o'lim sabablarini o'rganish aholining kelgusidagi sonini hisoblash) to'g'ri rejalashtirish ham aholining yosh strukturasi haqidagi ma'lumotlar ayniqsa zarurdir.

Ko'pgina demografik ko'rsatmalar faqat muayyan yoshdagi aholiga nisbatan harakat qilishi sababli ayrim demografik qonuniyatlarini faqat ana shu yosh guruhiga kiruvchi aholiga qo'llash mumkin. Jalon aholisining turli yosh guruhi yuzasidan shakllangan nisbat orasida tabiiy ko'payishning o'ziga xos xususiyatlarini xarakterlab beruvchi ikkita asosiy holatni alohida ko'rsatish mumkin: birinchi – tug'ilish yuksak, o'lim ham shunga muvofiq bir qadar ko'p va shu sababli o'rtacha umr uncha ko'p bo'lmagan davlatlar (bunga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlar kiradi). Ikkinci guruhdagi davlatlarda buning aksicha, tug'ilish va o'lim ham kamroq bo'lib, uzoqooq umr ko'ruchilar ko'proq bo'ladi (bunga Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari kiradi); bunday davlatlar barcha aholi tarkibida bolalarning kamligi va yoshi ulg'ayganlarining ko'pligi bilan xarakterlanadi.

**Aholining oilaviy ahvoli.** Muayyan mamlakat aholisining oilaviy ahvoli eng avvalo qayd etilgan yoki etilmagan (bunga bo'ydoqlar, er yoki xotindan ajralishganlar, bevalar kiradi) nikohda turuvchilar soniga qarab belgilanadi. Nikoh ham ma'lum bir vaqtda – odatda kishi jinsiy balog'atga yetgan vaqtagina qayd qilinar ekan, oilaviy ahvol ko'rsatkichi ham odatda muayyan yoshdan boshlab ko'rsatiladi. Shu sababli "oilaviy ahvol" tushunchasi 15 va undan Yuqori yoshdagi (Rossiyada – 16 va undan Yuqori) aholiga taaluqlidir.

Demografik statistikaga asosan rasmiy ravishda qayd etilgan fuqarolik va diniy nikohlargina kiritilgan.

Jahoning deyarli barcha mamlakatlarda ayollar erkaklarga qaraganda erta turmushga chiqadilar. Shuning uchun yoshlar o'tasida erta chiqqan ayollar foizi nisbatan ko'pdir. Katta yoshdagi aholi o'tasida esa xotini bor erkaklar foizi yuksakdir.

Iqtisodiy taraqqiy etgan ko'pgina davlatlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan erkaklar va ayniqsa ayollar ancha kech turmush quradilar.

Mamalakatlar o'tasida barvaqt turmush quruvchi erkak va ayollar soni bo'yicha farq yana ham kuchlidir. Masalan, Yaponiyada 20 yoshga qadar barcha ayollarning 1,7 foizigina turmush qursa, Gvineyada esa 80 foizdan Yuqori turmush quradi Turmushdan ajralish yoki nikohni buzish darajasi nikohlanish darajasidan ancha kamdir. Bu holat ko'pincha nikoh qay darajada haqiqiy ekanligi yoki mustahkam emasligi bilan emas, balki qo'ydi-chiqli darsmiylashtirish jarayonida mavjud bo'lgan og'irlik yoki qulaylikka bog'liqdir. Masalan, musulmonlarning ko'pchiligidagi boshqa xalqlarga nisbatan qo'ydi-chiqli osonroqdir. Islom dini qonun-qoidalariga ko'ra, xotindan

ajralmoqchi bo‘lgan er “uch taloq” deyishi bilan o‘z xotinini rasman qo‘ygan hisoblanadi. aksincha, katolik dini kuchli ta’sir qiladigan ko‘pgina mamlakatlarda (Italiya, Ispaniya, Portugaliya va boshqalarda) qo‘ydi-chiqdi masalasi ancha og‘irdir, ba’zan Hatto rasman mumkin emas. Natijada, bu mamlakatlarning ko‘plab erkak va ayollarli aslida buzilgan oilani rasman qonuniy hal etmay, boshqa oila quradilar. Jahonda ko‘proqnikohni buzish Virginiyada orollarida va undan so‘ng AQSHda ro‘y berdi.

#### **4.4. Aholining kelajakdagi sonini aniqlash usullari**

Iqtisodiyotning bo‘lajak istiqbolini rejalashtirish avvalo aholining kelgusida ko‘payish istiqbolini aniqlashdan boshlanadi, chunki reja ko‘rsatkichlarining boshqa qismi jamiyat extiyojini, ya’ni aholi ehtiyojini qondirishga bo‘qsindirilishi kerak. Shuning uchum ham aholining ko‘payish istiqbolini belgilash- kelgusida shakllanadigan demografik strukturani aniqlash, hudud miqyosida tabiiy ko‘payish va ko‘chib yurish sonini ilmiy tahlil qilish, shahar va qishloq aholisi nisbatini oldindan bilish, mehnat resurslari, uning hududiy miqyosda joylashishi hamda demografik tuzilishini oldindan tahlil qilish va ana shu masalalarda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini kelgusi 20-30 yil mobaynigacha (prognoz) ko‘ra bilishdan iborat.

Aholining istiqbolda ko‘payishini belgilashning asosiy vazifalari quyidagilar:

- ◆ Kelgusida shakllanadigan demografik tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash;
  - ◆ Hududiy miqyosda aholining ko‘payishi va migratsiya ko‘lamini taxmin qilish;
  - ◆ Shahar va qishloq aholisi nisbatini oldindan bilash;
  - ◆ Mehnat resurslarini, uning hududiy miqyosdagagi joylashishi va demografik tarkibiy o‘zgarishini oldindan tahlil qilish;
  - ◆ Har bir hududning o‘ziga hos xususiyatlarini kelgusi 20-30 yil mobaynigacha oldindan tahlil qila bilishdan iboratdir.
- Aholining istiqboldagi sonini hisoblash ikki usulda , ya’ni:
- 3) Global
  - 4) Yoshini siljитish usullari yordamida hisoblash mumkin.

#### **Aholining istiqboldagi sonini global usulda hisoblash**

Globao usulda hisoblashda aholining yil boshidagi soni ( $A_0$ ), tabiiy o‘sishi ( $K_{t.o.}$ ) yoki umumiy o‘sish koefitsientlari boshlang‘ich ma’lumot vazifasini bajaradi. Hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$A_1 = A_0 \cdot \left[ 1 + \frac{K_{\text{us}}}{1 - \frac{1}{2} K_{\text{us}}} \right]; \quad A_2 = A_1 \cdot \left[ 1 + \frac{K_{\text{us}}}{1 - \frac{1}{2} K_{\text{us}}} \right] \text{ va xakozo.}$$

Bu yerda:  $A_1$  va  $A_0$  – aholining joriy yil oxiridagi va keyingi yil boshidagi soni.  $K_{t.o.}$  - tabiiy o‘sish koefitsientlari.

Bu usul aholining istiqboldagi sonini hisoblashda qo‘l kelasada, lekin ularni yosh jihatdan alohida-alohida hisoblash imkoninin bermaydi. Bundan tashqari har

keyingi yilning qo'shimcha o'sishi faqat boshlang'ich baza sifatida qabul qilib olinmaganligi sababli tabiiy yoki umumiy o'sish xarajatlari turlicha bo'lishi mumkin.

**Yoshini siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash.** Yoshini siljitish usulida aholining istiqboldagi soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$i_x \cdot p_x = i_{x+1}$$

Bu yerda:

$i_x$  - x yoshgacha yashash mumkin bo'lgan aholi soni.

$p_x$  - xQ1 yoshgacha yashash mumkin bo'lgan ehtimollik.

$i_{x+1}$  - yoshgacha yashash mumkin bo'lgan aholi soni.

Shunday qilib, har bir yoshdagagi aholi soni ( $i_x$ ) har yosh yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koeffitsienti yordamida bir yoshdan ( $i_x$ ) ikkinchi yoshga ( $i_{x+1}$ ) «siljitaladi». Buni quyidagi jadvalda bajariJigan amaldan ko'rish mumkin:

Aholining joriy yil oxiridagi soni	Kelgusi - yilning boshida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi soni	Kelgusi-2 yilning boshida mumkin bo'lgan aholi soni	Kelgusi-3 yilda bo'lishi mumkin bo'lgan aholi soni
$i_{17}$	$I_{18}q_1i_{17} \cdot p_{17}$	$i_{19}q_1i_{18} \cdot p_{18}$	$i_{20}q_1i_{19} \cdot p_{19}$
$i_{18}$	$I_{19}q_1i_{18} \cdot p_{18}$	$i_{20}q_1i_{19} \cdot p_{19}$	$i_{21}q_1i_{20} \cdot p_{20}$
$i_{19}$	$I_{20}q_1i_{19} \cdot p_{13}$	$i_{21}q_1i_{20} \cdot p_{20}$	$i_{22}q_1i_{21} \cdot p_{21}$
$I_{17}q_1i_{18}q_1i_{19}$	$I_{18}q_1i_{19}q_1i_{20}$	$i_{19}q_1i_{20}q_1i_{21}$	$I_{20}q_1i_{21}q_1i_{22}$

Bu usulni qo'llash tartibini quyidagi shartli raqamlarda ko'rib chaqamiz. Shu ma'lumotlarga ko'ra, uch avlodning istiqboldagi sonini bo'lajak 1,2 va 3 yillar, ya'ni 2020, 2021 va 2022 yillar uchun aniqlaymiz. Echish uchun jadvalning so'nggi ustunlarini to'ldiramiz.

#### **Yoshni siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash tartibi**

Yosh	Mazkur yoshdagagi aholining 2019 yil boshidagi soni	Har bir yosh yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koeffitsienti	Yil boshidagi yoshlar		
			2020	2021	2022
			$i_{x+1} = i_x \cdot p_x$		
16	4021	0,99641	-	-	-
17	4011	0,99600	$4021 \cdot 0,9964$ $1=4006$	-	-
18	4008	0,99562	$4011 \cdot 0,996=$ $3994$	$4006 \cdot 0,996$ $=3989$	-
19	-	0,99526	$4008 \cdot 0,9956$ $2=3990$	$3994 \cdot 0,9956$ $2=3976$	$3989 \cdot 0,99562=$ $3971$
20	-	0,99503	-	$3990 \cdot 0,9952$ $6=3800$	$3976 \cdot 0,99562=$ $3957$
21	-	0,99498	-		$3800 \cdot 0,99498=$ $3780$

**Masalan, 2019-yildagi 17 yoshli 4021 kishi, 2020-yilga kelib:**

$$i_{18} = i_{17} \cdot p_{17}$$

$$i_{18} = 4021 \cdot 0,99641 = 4006 \text{ kishi}$$

10. 2019 yilga kelib:

$$i_{19} = i_{18} \cdot p_{18}$$

$$i_{19} = 4006 \cdot 0,99600 = 3989 \text{ kishi.}$$

11. 2020 yilga kelib:

$$i_{20} = i_{19} \cdot p_{19}$$

$$i_{20} = 3989 \cdot 0,99562 = 3971 \text{ kishi qolar ekan.}$$

Shu tariqa boshqa yoshdagisi aholi soni ham tegishli yillar uchun hisoblangan. Hisoblashda mexanik o'zgarish koefitsienti e'tiborsiz qoldirilgan.

Chet el mamlakatlarida aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lib: ro'yxatlar, joriy hisob va istiqbolni belgilash hisoblanadi. Aholining o'rtacha yillik sonini hisoblash, uni ifodalovchi kategoriyalarni aniqlash, hamda uning tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish Xalqaro statistikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Chet ellarda aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lib: ro'yxatlar, joriy hisob va istiqbolni belgilash hisoblanadi. Aholini o'rtacha yillik sonini hisoblash, uni ifodalovchi kategoriyalarni aniqlash, hamda uning tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish xalqaro statistikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Chet ellarda aholi ro'yxatlarini o'tkazish qanday uchulda amalga oshiriladiq

5. Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari deyilganda nimani tushundingizq

6. Aholining harakat ko'satkichlari qandayq

7. Chet ellarda aholi tarkibini o'rganish usullarni aytinq

8. Aholi kategoriyalari nimalardan iboratq

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Pod red. V.N.Salina. Sotsialno – ekonomicheskaya statistika: Praktikum. Ucheb. posobie. – M., 2014 g.

2. Doklad o razvitiu chelovecheskogo potenciala v stranax Yevropa i SNG – M., PROON, 2012 g.

11. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.

12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

13. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)

14. [europa.eu.int/commG-relaysG/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/commG-relaysG/index_en.htm)

15. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)

16. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)

17. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)

18. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **V BOB. XALQARO MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI**

### **5.1. Xalqaro mehnat resurslari haqida tushuncha, ularning tarkibi va taqsimlanishi**

Ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil etadi.

Bunda ish kuchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning sybyektiv elementi bo'lib, uning ijtimoiy ishlab chiqarishda roli benihoya kattadir. Ish kuchisiz har qanday darajada taraqqiy etish hozirgi zamon texnikasi ham jonsiz metallar to'plamiga aylanishi mumkin.

Mehnat ishlab chiqarish vositalariga tegishi bilanoq bu o'lik vositalarni tirlitiradi, ularga jon kiritadi, ulami mehnat jarayoni omiliga aylantiradi va ular bilan qo'shib maxsulot shakliga kiradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning moddiy buyum qismi o'tgan zamondagi jonli mehnat natijasi bo'lib, hozir bu buyumlashgan mehnat shaklida gavdalanadi va va har qanday ishlab chiqarish jarayonida har qanday ishlab chiqarish jarayonida hal qiluvchi omil sifatida ishtiroti etadi.

Ishchi kuchi yoki mehnat qilish qobiliyati deganda, inson ega bo'lgan va biron bir iste'mol qiymatlarini ishlab chiqargan vaqtida u har safar ishga soladigan jismoni va ma'naviy qobiliyatlar tushuniladi.

Ishchi kuchi taklif va talabga ega. Ishchi kuchining o'z bozori mavjud, u mehnat bozori deb ataladi. U yerda mehnat kuchini sotish va sotib olish mumkin. Mehnat kuchi o'zining bahosiga ega, va u har yerda har xil bahoda bo'ladi.

Ishchi kuchi (ya ni ishslash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarning barchasi) mehnat resurslarini tashkil etadi. Ular xalq xo'jaligi tarmoqlarida haqiqiy band bo'lgan va shu tarmoqlarga jalb qilinishi mumkin bo'lgan shaxslardan iborat.

Mehnat resurslarining asosiy qismini aholining mehnatga yaroqli yoshdag'i qismi tashkil etadi. Mehnat yoshining quyi va Yuqori chegarasi direktiv ravishda belgilanadi. Bizning respublikamizda mehnat resurslarining mehnatga yaroqli yoshi ayollar uchun 16 yoshdan- 60 yoshgacha deb qabul qilingan. Ushbu chegaralarni belgilashda aholining turmush darajasi, sog'licni saqlash, sport va maorif tizimlari, nafaqa ta'minotining sharoitlari, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar hisobga olingan.

Jahonning ayrim mamlakatlari YUqorida qayd etilgan chegaralar quyidagicha:

AQSHda 16 yosh va Yuqori chegarasi 64 yosh ikkala jins uchun, Fransiyada 15 yoshdan 59 yoshgacha har ikkala jins vakillari uchun, Yaponiyada 15-64 yosh har ikkala jins uchun va xakozo.

O'zbekiston mehnat resurslari:

1. Yuqori darajali malakaga va intellektual rivojga ega
2. Respublika katta yoshdag'i aholisining savodxonlik darajasi dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlarga qaranganda juda Yuqori (99,1 foiz)

3. Moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan aholining 1/4 qismi oliy va o'rta ma'lumotga ega

4. Ilm-fan bilan band aholi har 10000 kishiga Gretsya va Portugaliyaga qaraganda 1,5 baravar Yuqori

5. Respublikada matematika, biologiya, fizika va shu kabi fanlar bo'yicha olimlarning izlanishlari chet el mamlakatlarda ham mashhur, shu bilan birgalikda geliomaterialshunoslik kabi sohalardagi izlanishlar butun dunyo bo'yicha eng rivojli deb tan olingan.

Bizning respublikamizda mehnat resurslarining soni quyidagiicha hisoblanadi:

1. Mehnat qilish yoshidagi aholi

2. Mehnat qilish yoshida bo'lgan, mehnatga layoqatsiz aholi (1; 2 guruh nogironlari va imtiyozli qarilik nafaqasiga chiqqan 50-59 yoshdagi erkaklar va 45-54 yoshdagi ayollar)

3. Mehnat qilish yoshida bo'lib, xalq xo'jaligida band bo'lmagan aholi (uy-ro'zg'or va yosh bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadigan ayollar va boshqalar)

4. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan nafaqaxo'rlar va o'smirlar (16 yoshdan kichik bo'lmaganlar). Bunda mehnat potensial soni 1-2+4, haqiqiy soni esa 1-2-3+4 ning algebraik yig'indisidan iboratdir. Mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan qismi iqtisodiy faol (aktiv) aholini tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. davlat, shirkat, jamoat va shaxsiy tashkilotlarning korxona va muassasalarida band bo'lgan ishchi va xizmatchilar, fermerlar;

2. qishloq xo'jaligidagi yordamchi tarmoqlarda band bo'lgan dehqon, ishchi- xizmatchilarning oila (hunurmandlar, yakkaxon dehqonlar va boshqalar) a'zolari.

Iqtisodiy faol aholi sonining umumiyligi aholi soniga nisbati aholining iqtisodiy faollik darajasini ifodalaydi, ya'ni

$$\text{Aholinaq faollik darajasi} = \frac{\text{ИКТИСОДИЙ ФАОЛЩОЛМОНИ}}{\text{АШОЛНИНИН УМУИЙСОНИ}} \cdot 100$$

**ИКТИСОДИЙ ФАОЛЩОЛМОНИ**

$$= \frac{\text{МЕШНАРСУРСЛАРИНГ ПОТЕНЦИАЛОСИ}}{\text{МЕШНАРСУРСЛАРИНГ ПОТЕНЦИАЛОСИ}} \cdot 100$$

Statistikada iqtisodiy faol aholini jinsi va yoshi tarkibi bo'yicha o'rghanish muhim ahamiyatga egadir. Chunki mehnat unumдорлиги va mehnat faolligi darajasiga xodimlarning jinsi va yosh tarkibi ham birmuncha ta'sir etadi.

Iqtisodiyotda band bo'lgan aholining jismoniy va aqliy mehnat bilan shug'ullanishi va uning ma'lumoti bo'yicha tarkibini o'rghanish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtaqidagi mavjud bo'lgan ayrim ziddiyatlarni bartaraf qilish jarayonlarini o'rghanish imkonini beradi.

**Umumiy band aholida iqtisodiyot sohasida band bo'lgan aholi salmog'i 2018 yil, (foiz)da**

Sanoat va qurilish	Qishloq xo'jaligi	Xizmat ko'rsatish
Belorussiya.....35,2	Tojikiston.....67,5	Qozog'iston.....59,9
Rossiya.....30,0	Qirg'iziston.....52,9	Rossiya.....57,0
Ukraina.....24,4	Moldova.....48,8	Ukraina.....53,1
Armaniston.....20,2	Turkmaniston.....48,0	Belorussiya.....53,0
O'zbekiston.....19,9	Ozarboyjon.....43,5	O'zbekiston.....49,7
Qozog'iston.....18,4	Armaniston.....42,5	Ozarboyjon.....46,4
Turkmaniston.....18,0	O'zbekiston.....30,4	Armaniston.....38,7
Moldova.....13,0	Ukraina.....22,5	Moldova.....38,2
Qirg'iziston.....11,4	Qozog'iston.....21,7	Turkmaniston.....36,0
Ozarboyjon.....11,2	Belorussiya.....14,1	Qirg'iziston.....35,7
Tojikiston.....9,6	Rossiya.....13,0	Tojikiston.....22,9

Milliy xo'jalikning nodavlat sektorida band bo'lgan iqtisodiy faol aholining salmog'i 2000- yilda 76 foizni tashkil qilgan. O'zbekistonda bu ko'rsatkich boshqa qo'shni davlatlarda, ya'ni MDH davlatlariga qaraganda Yuqoridir (taqqoslash uchun: MDH bo'yicha shu yili xususiy sektorlarda 55 foiz aholi band bo'lgan, shu jumladan Qozog'iston 77,1 foiz; Qirg'iziston 72,8 foiz; Armaniston 72,4 foiz; Moldova 69,6 foiz; Ukraina 65,5 foiz; Ozarboyjon 63 foiz; Tojikiston 61 foiz; Rossiya 45 foiz; Belorussiya 42,5 foiz).

MDH statistika qo'mitasi tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra kichik tadbirdorlikda band bo'lganlar Ozarboyjonda 13 foizni, Armanistonda, Belorussiya, Qozog'istonda va Ukrainada 5 foizni, Qirg'izistonda 4 foizni, O'zbekiston va Turkmanistonda taxminan 3 foizni, Tojikistonda taxminan 1 foizni tashkil etgan.

## **5.2. Xalqaro mehnat bozorida migratsiyani statistic o'rganish**

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi , ya'ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga ko'chib yurishi tashqi iqtisodiy aloqalarining muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Insoniyat tarixi odamlarning katta-katta guruhalinи u yoki bu mamlakatga ko'chirishlari bilan bog'liq voqeа-hodisalarga boy: G'arbiy Yevropa mamlakatlari tomonidan Shimoliy Amerikaning o'zlashtirilishi, Britaniya orollaridan chiqqanlarning Avstraliya qit'asini egallashlari, Xitoydan Janubiy Osyo mamlakatlariiga ommaviy ko'chirishlar, Shimoliy va Janubiy Amerikaga Afrikadan qora tangli qullarni tashib keltirilishi bir qator hozirgi rivojlangan davlatlarning vujudga kelishi va yuksalishiga sabab bo'lgan (AQSH, Kanada, Avstraliya, yangi sanoatlashgan mamlakatlar va boshqalar). Jahon iqtisodiyotining rivojlanishining barcha bosqichlarida ishchi kuchi migratsiyasi jarayoni yuz berib keldi, ayniqsa u ikkinchi jahon urushidan so'ng yanada kuchaydi.

Hozirgi paytda statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda har o'n oildan biri ko'chib yuradi, ularning to'rtdan uch qismi ishchi kuchi migratsiyasiga to'g'ri keladi. Dunyo bo'yicha bunday ishchi kuchlarining umumiy soni 25 mln. kishiga yaqin.

Ishlab chiqaruvchi kuchlapr rivojlanishining hozirgi darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida ishchi kuchining o'mi va ahamiyatini tubdan

o'zgartirib yubordi, davlatlararo aloqalar madaniyatini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tardi.

Xalqaro mehnat bozori. Xalqaro mehnat bozori bu nimaq

Xalqaro mehnat bozori – bu ishchi kuchi iste'molchilari va ularni etkazib beruvchilar o'tasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi uni jahon bozorida ham faol qatnashishini taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqil davlatlar sifatida iqtisodiyotni mustaqil ravishda isloh qilishining dastlabki yillardagi o'zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Shu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlardan Yuqori malakali ishchi kuchini jaib etish imkoniyatlari ham mayjud bo'ldi.

Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari kabi O'zbekistonda ham aholining tashqi migratsiyasi ikki oqimda ro'y bermoqda:

1. mehnat migratsiyasi, ya'ni qaytib kelishi va fuqarolikni saqlash sharti bilan

2. etnik migratsiya, ya'ni qaytib kelmaslik va fuqarolikni saqlamasligi sharti bilan.

Hozirda O'zbekistonda jahon mehnat bozorida faol qatnashishini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar shakllanmoqda va bu sohadagi davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

### **5.3. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar statistik tahlili**

Ma'lumki, jahon mehnat bozoridagi vaziyat boshqa barcha bozorlar kabi talab va taklif asosida aniqlanadi hamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillar sharli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'linib, ular o'zaro bog'langan. Bular orasida iqtisodiy omillar eng muhimini sanaladi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Chunonchi mamlakatlardagi ishchi o'rinaliga nisbatan aholining tez sur'atlar bilan o'sishi.

Iqtisodiy omillar deganda har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligini, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lamni tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi o'tasidagi yuzaga kelgan seziflar farq ishchi ukchini mamlakatlارaro ko'chib yurishiga sabab bo'lувchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSH va Meksikadagi daromadlarning taxminan 10 baravarga farq qilishi meksikalik ishchilarni AQSHga ish qidirib ko'chib o'tishlarining asosiy sababi hisoblanadi. 80-yillarning boshida Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichkimahsulot hajmi Hamjamiyatga a'zo bo'lмаган мamlakatlаридан 4,7 marta ortiq bo'lган. Shunday qilib, Yer yuzida boy va rivojlanmagan mamlakatlarningng mavjudligi xalqaro mehnat bozori amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Jahon mehnat bozorining ahvoli u yoki bu davatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bunday bog'liklik davriy pasayishlar va ko'tarishlar paytida, jahon bozorida ish chi kuchiga bo'lgan talab va taklifda bevosita aks etadi, hamda mamlakat qanchalik yirik bo'lsa, uning ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Masalan, 1991-1992- yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlarda davriy pasayish ro'y berdi. Buning natijasida, 1992- yilning o'rtalariga kelib rasmiy ro'yxatlardan o'tgan ishsizlar soni 30 mln. dan oshib ketdi, ishsizlik darajasi 1974- yildagi 5,2 foizdan 6,0 foizga ko'tarildi. Shu bilan birga bunday holat o'z navbatida rivojlangan mamlakatlarda xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan talabni pasayishiga olib keladi.

#### **MDH mamlakatlarda iqtisodi faol aholi soni**

(o'rtacha yil uchun, mln.kishi)

Mamlakatlar	2014	2015	2016	2017
O'zbekiston	13,5	13,8	14,0	14,4
Ozarbayjon	4,8	4,9	5,0	5,1
Armaniston	1,4	1,3	1,2	1,2
Belarus	4,6	4,5	4,5	4,4
Qozog'iston	9,0	9,1	9,0	9,0
Qirg'iziston	2,5	2,5	2,5	2,5
Moldova	1,2	1,3	1,3	1,3
Rossiya	75,4	76,6	76,6	76,3
Ukraina	19,9	18,1	18,0	17,9

Yuqorida keltirilgan jadval asosida tahsil qiladigan bo'lsak, MDH davlatlari doirasidaxar bir mamlakatning jami aholisiga nisbatan iqtisodiy faol aholi soni bo'yicha Rossiya 2017 yilda 76,3 foiz, Ukraina 17,9 foiz, O'zbekiston 14,4 foiz tashkil etmoqda.

#### **5.4. Mehnat resurslarini mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishini statistik o'rGANISH**

Aholining o'sish sur'ati, aholi sonining ko'payishi yoki qisqarishi bilan bog'liq omillar demografik omillar bo'lib sanaladi.

Jumladan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari aholining Yuqori darajalarda o'sishi, bu mamlakatlarning shunday ham og'ir iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirib, tashqi migratsiyaga shart-sharoit yaratadi hamda ularni jahon bozoriga asosan ishchi kuchi etkazib beruvchi davlatlarga aylantiradi. Boshqacha aytganda, bu davlatlar ishchi kuchining asosiy iste'molchisi bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atidan Yuqori bo'lgan mamlakatlar hisoblanadi. Masalan, 90-yillarning boshlarida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) mamlakatlarda iqtisodiy faol aholi yiliga o'rtacha 0,8 foiz ko'paydi, ichki milliy mahsulot hajmi 3 foizga oshdi.


MDH mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandlik darajasi 2018- yilda 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, MDH mamlakatlari orasida Moldova va Tojikistondagi 39 foiz Qozog'istonda 68 foizgacha bo'lgan. MDH Statistika qo'mitasi

tomonidan e'lon qilingan boshqa hisob-kitoblarga ko'ra, MDH mamlakatlarida 15-64 yoshdag'i aholini iqtisodiy ish bilan ta'minlash darajasi 65 foiz ni, MDH mamlakatlari orasida esa 44 foiz Qozog'iston va Tojikistonda 74 foiz ni tashkil qiladi


MDH iqtisodiy faol aholisi orasida ish bilan band bo'lganlar ulushi 2018-yilda 94,4 foiz ni tashkil etdi, MDHning aksariyat mamlakatlarida bu ko'rsatkich 92-95 foiz atrofida.

MDH mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandlik darajasi 2018-yilda 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, MDH mamlakatlari orasida Moldova va Tojikistondagi 39 foiz Qozog'istonda 68 foizgacha bo'lgan. MDH Statistika qo'mitasi tomonidan chop etilgan boshqa hisob-kitoblarga ko'ra, 15-64 yoshdag'i kishilar uchun iqtisodiy ish bilan bandlik darajasi MDH mamlakatlarida 65 foizni tashkil etadi, MDH mamlakatlari orasida esa 44 foiz Moldovada va Tojikistonda Qozog'istonda 74 foizgacha farq qiladi.


MDH mamlakatlari iqtisodiy faol aholisi orasida 2010-2018-yillarda mobaynida ish bilan bandlik darajasi Yevropa Ittifoqi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, shuningdek, 2014-2018-yillarda AQShda bo'lgan. 2013-yilgi moliya-iqtisodiy inqiroz inqirozidan keyin u pasayib, keyin 94 foiz darajaga qaytdi va 2017-2018-yillarda bu ko'rsatkichdan oshib ketdi. Tahlil qilinayotgan davrda iqtisodiy faol aholi orasida ish bilan ta'minlanganlik darajasi Yuqori bo'lgan (95 foiz yoki undan ortiq).



2018-yilda MDH mamlakatlarida iqtisodiy ahvolda ish bilan band bo'lganlar soni (million kishi) va iqtisodiy ahvolda ish bilan bandlar (mos keladigan yoshdag'i aholiningfoiz)



Iqtisodiy faol aholi va mehnatga layoqatsiz yoshdagи aholi umumiy soniga nisbati: 1.93 - 2017, 3.145 - 2009; Iqtisodiy faol aholi tarkibi: yoshga qarab (2017-yilga):



### Davlatning bandlikka ko'maklashuv markazidan ro'yxatdan o'tgan va ishsizlik maqomini olganlar (yil oxiriga, ming kishi)

No	Mamlakatlар	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
1	Ozbarbayjon	39	38	37	36	29	29	33	38	20
2	Armaniston	79	69	62	56	66	66	80	70	65
3	Belarusiya	33	28	25	21	24	24	35	23	12
4	Qozog'iston	35	37	35	30	33	35	37	70	92
5	Qırğıziston	63	61	60	58	58	56	56	58	71
6	Moldova	41	39	26	21	21	27	27	22	19
7	Rossiya	1589	1286	1065	918	883	1001	895	776	693
8	Tojikiston	48	54	52	54	56	51	53	50	48
9	O'zbekiston	16	13	6	5	3	3	5	14	....
10	Ukraina	545	483	507	488	512	491	391	354	342
11	Jami MDH	2489	2108	1875	1687	....	1813	1612	1475	....

### Iqtisodiy faol aholi foizda

Nº	Mamlakatlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
1	Ozarbayjon	0,8	0,8	0,8	0,8	0,6	0,6	0,7	0,8	0,4
2	Armaniston	6,8	5,9	....	....	....	....	....	....	....
3	Belarusiya	0,7	0,6	0,5	0,5	0,5	1,0	0,8	0,5	0,3
4	Qozog'iston	0,4	0,4	0,4	0,3	0,4	0,4	0,4	0,8	1,0
5	Qirg'iziston	2,6	2,5	2,4	2,3	2,3	2,2	2,2	2,3	2,8
6	Moldova	3,1	2,9	2,1	1,7	1,8	2,2	2,4	1,8	1,6
7	Rossiya	2,1	1,7	1,4	1,2	1,2	1,3	1,2	1,0	0,9
8	Tojikiston	2,2	2,5	2,4	2,4	2,4	2,3	2,3	2,1	2,0
9	O'zbekiston	....	....	....	....	....	....	....	....	....
10	Ukraina	2,7	2,4	2,5	2,4	2,4	2,7	2,4	2,1	....
11	Jami MDH	1,8	1,5	1,4	1,2	1,2	1,4	1,3	1,2	....

Aholishunos mutaxassislarning taxminlariga ko'ra, o'tgan asr so'nggi yillarda vujudga kelgan er yuzi aholisining o'sish tendensiyasi XXI asming boshlarida ham saqlanib qoladi. Jahon aholisi 2025- yilgacha 3,26 mlrd. kishiga ko'payishi kutilmoqda. Bu asosan «uchinchи dunyo» mamlakatlari hisobiga bo'ladi. Ya'ni «uchinchи dunyo» mamlakatlarining Yevropa mamlakatlari va AQSH ga «demografik tazyiqi» 200 yillarning o'talarigacha saqlanib qolishi mumkin.

### Jahon aholisining 2025- yilgi aholisining prognози

Butun dunyo, hududlar	Aholi soni million kishi	Butun dunyo, hududlar	Aholi soni million kishi
Butun dunyo	7825	Afrika	1300
Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlari	1215	Shimoliy Amerika	365
Rivojlanayotgan	6610	Lotin Amerikasi	695
MDH	290	Avstraliya	40
Yevropa	505		
Osiyo	4630		

Ayrim mamlakatlardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir etib, mamlakat ishchi kuchini chetga oqimini keskin kuchaytirdi. Masalan, siyosiy omil sobiq sotsialistik mamlakatlarda ro'y bergan keng ko'lamli aholi migratsiyasini aniqlovchi sabablardan biri bo'ldi. Agarda bu mamlakatlarda aholi migratsiyasi – 90-yillarning boshlarigacha ko'rilgan qattiq choratadbirlar natijasida to'xtatib turilgan bo'lsa, islohotlarning boshlanishi va barcha ma'muriy to'siqlar olib tashlanishi bilan muxojirlar oqimi keskin ortdi, oqibatda bu jarayon jahon mehnat bozoridagi vaziyatga, ayniqa uning Yevropa qismiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dastlab Yugoslaviya, so'ngra Vengriya, Polsha, yirik miqdorda ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarga aylandilar. Keyingi paytda bu mamlakatlarga

Rossiyadan 250 mingga yaqin kishi, G'arb mutaxassislarining hisoblari bo'yicha esa 500 mingga yaqin kishi Yevropa mamlakatlariiga ishlash va yashash uchun ketishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy, demografik va siyosiy omillarning umum ta'siri jahon mehnat bozoridagi ahvolni, uning miqyosini, tarkibini va rivojlanish sur'atlarini belgilab berdi.

## 5.5. Zamonaviy jahon mehnat bozorining statistik tahlili

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi so'nggi o'n yilliklarda kuchaya borib, dunyo bo'ylab keng yoyilmoqda hamda jahon xo'jaligi taraqqiyotiga, mehnat resurslari bilan ayrboshlashga faol tortilgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va madaniy-diniy vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 2003- yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlarda 15,2 mln. ga yaqin chet ellik istiqomat qilgan, shu jumladan Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarda 13,4 mln. kishi yoki tub aholining 5 foizi . Yevropaning ayrim mamlakatlarda ularning salmog'i yanada Yuqori. Xususan, Shvetsiyada – 16,5 foiz, Belgiyada – 9,1 foiz, Germaniyada – 8,4 foiz, mutaxassislar ulushi 10 foizga yetadi.

O'z navbatida Yevropa mamlakatlardan ham har yili millionlab odamlar yaxshi hayot qidirib turli davlatlarga ko'chib borishadi. Masalan, xorijiy ishchilar soni AQSHda 5,65 mln., Lotin Amerikasida 3,5-4 mln., Yaqin Sharq va Shimoliy Amerika mamlakatlarda – 2,8 mln., G'arbiy Afrikada 1,3 mln. kishini tashkil etadi.

Ishchi kuchi jahon bozorining asosiy markazlari.

Hozirgi paytda migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha ishchi kuchi jahon bozorining 4 ta yirik markazi shakllangan. Birinchi markaz 60-70- yillarda Yaqin Sharq mamlakatlarda neft qazib chiqarish sanoatining taraqqiy etishi, unga bog'liq ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlanishi bilan tarkib topgan.

Bu mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning keskin oshishi asosan chet el fuqarolarini jaib qilish hisobiga qondirilishi mumkin edi, xolos. Shu davrdan boshlab bu mintaqada jadal migratsiya jaray onlari boshlandi. Ishchi kuchlarining sonida xorijiy ishchi kuchining ulushi (Pokiston, Hindiston, Koreya, Filippin va boshqa mamlakatlardan) Birlashgan Arab Amirliklarida 90foizga yaqin, Katarda – 80 foizdan Yuqori, Saudiya Arabistonni va Baxraynda 40 foizga yaqinini tashkil etdi.

Ikkinci markaz-rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlari bo'lib, migratsiya omili bu mamlakatlarning urushdan keyingi davrda o'z iqtisodiyotlarini tiklashda asosiy rol o'yaydi. Hozirgi paytda ham xorijiy ishchi kuchi past malakali va nufuzli bo'limgan tarmoqlarda keng qo'llanadi. Bu tarmoqlarda (avtomobilarni yig'ish, konrudva va metalluriya sanoati va boshqalar) xorijiklar 70 foizni tashkil etadi.

Yevropaning 15 mamlakati doirasida yagona mehnat bozorining barpo etilishi, bu mintaqaning ahamiyatini kuchaytirdi va uni xorijiy ishchi kuchi uchun jozibali qilib qo'ydi.

Jahon mehnat bozorining uchinchi yirik markazi AQSH va Kanada. Bu yerga nafaqat Lotin Amerikasidan past malakaga ega bo'lgan ishchilar, balki Yuqori malakali mutaxassislar ham intiladilar. Shu sababli, AQSH o'zining zamonaviy fan-texnikaga

asoslangan tarmoqlarini, Yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan extiyojini kadrlar tayyorlashga katta xarajatlar qilmasdan ta'minladi.

Xalqaro mehnat bozorining to'rtinchı markazi Argentina bo'lib, hozirda bu yerda yuzaga kelgan qulay iqtisodiy vaziyat qo'shni mamlakatlardan arzon ishchi kuchini o'ziga jaib qilmoqda.

Jahon mehnat bozoridagi sifat o'zgarishlari.

Keyingi yillarda jahon mehnat bozori geografik shakllanishi bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi strukturaviy siljishlar, sobiq sotsialistik mamlakatlardagi tub islohotlar, boshqacha aytganda, jahon bo'yab o'matilayotgan yangi iqtisodiy-siyosiy tartiblar bilan bog'liq bo'lgan chuqur sifat o'zgarishlarga ham ega bo'lmoqda.

Bunday o'zgarishlar asosan quyidagilardan iborat bo'lib, birinchidan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarini jahon xo'jaligi aloqalarga faol jaib qilish jarayoni boshlandi, shu jumladan ishchi kuchini ayrboshlash sohasida ham; ikkinchidan, bir qator Janubiy Osiyo va arab mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilanishi, milliy iqtisodiyotni Yuqori sur'atlar bilan o'sishi natijasida shu mamlakatlar aholisi hisobiga bo'ladigan migratsiya oqimi qisqarmoqda; uchinchidan, yangi migratsiya oqimida Yuqori malakali ishchi kuchining va tadbirkorlarning ulushi oshib bormoqda.

Jahon mehnat bozoridagi vaziyatni istiqbolga tahlili shundan dalolat bermoqdaki, demografik, iqtisodiy sabablarga ko'ra ishchi kuchigni import qiluvchi asosiy mamlakatlarning talabi Yuqori darajada saqlanib qoladi.

Masalan, Yevropa Hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda 25 yoshgacha bo'lgan aholi soni 2003-yilda 1990-yildagi 27,8 mln. kishidan 22,1 mln. kishigacha qisqardi.

AQSH va Kanadada ham Yuqoridagidek «aholining qarishi» jarayoni kechmoqda. Shunday murakkab demografik vaziyatga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni Yuqori sur'atlarda o'sishi va ishsizlik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Bunday holat horijdan yosh mutaxasislami jaib qilish ushbu davlatlar ilmiy, iqtisodiy va demografik siyosatining muhim qismi bo'lib qolishidan darak beradi.

### **Tashqi mehnat migratsiyasini tartiblash**

Mehnat bozori ham har qanday boshqa bozorlar kabi ayrboshlashni ma'lum tartib-qoidalarni o'matishga, unga amal qilishga va nazoratga ehtiyoj sezadi yoki boshqarilib turishni taqozo qiladi. Bu odatda davlat zimmasiga yuklatiladi. Davlatning migratsiya jarayonlarida ishtroki tarixdan ma'lum: chunonchi XIII – XIX asrlarday oq ishchi kuchini erkin ko'chib yurishini chegaralaydigan to'siqlar majud bo'lgan. Hozirda ishchi kuchining erkin harakati qator huquqiy, ma'muriy, madaniy, til, ijtimoiy va boshqa yo'l vositalar bilan boshqarilib turiladi.

Shulardan faqat huquqiy va ma'muriy to'siqlarni davlatning o'zi o'matishi yoki ularni bartaraf etishi mumkin. Agarda XX asrning o'rtalarigacha ishchi kuchi harakatini mamlakatlararo tartibga solish asosan manfaatdor davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik, mehnat sohasida mamlakatlararo aloqalarning murakkablashuvi, jahon mehnat bozorida faoliyat ko'rsatishning tashkiliy – huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Jumladan, 1953-yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari,

1957- yilda esa Yevropa Hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar ham ishchi kuchining erkin ko'chib yurishini quvvatlab chiqdilar.

Tashqi mehnat migrantsiyasini tashkil etishda, tajribalar va axborotlar bilan ayirboshlashda, bu jarayonni tartibli va rejali amalga oshirishni ta'minlashda migrantsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning o'mi alohida ahamiyatga ega. Bu tashkilotga a'zo mamlakatlardagi (35 ta mamlakat a'zo) o'z bo'limlari orqali bo'lajak muhajirlar uchun til o'rghanish kurslarini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ham o'z ishini faollashtirib Xalqaro Mehnat me'yordi bo'yicha 1990 – 1993-yillarda davomida 174 ta konvensiya va 181 ta tavsiyalar qabul qildi. Ularda ishchi kuchini mamlakatlararo ko'chib yurishini huquqiy jihatdan tartibga solish ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, 1949- yilda qabul qilingan muhajir – mehnatkashlar to'g'risidagi konvensiyada XMTga a'zo bo'lgan davlatlarga muhajirlarni kamshitishlariga yo'll qo'ymaslik majburiyatlarini yuklovchi qator qoidalar o'rinni oltagan.

1. XMTning 1958- yilda qabul qilingan ijtimoiy mehnat va bandililik sohasida huquqlarini cheklashga qarshi Konvensiyasi;

2. XMTning 1962- yilda qabul qilingan ijtimoiy siyostaning asosiyo maqsadlari va me'yordi to'g'risidagi bitim. Bu bitimda XMTga a'zo bo'lgan davlatlarda muhajir – mehnatkashlar manfaatlari talab qilinadigan qoidalar qayd etilgan, ya'ni muhajirlar ham tub aholi qatori mavjud ijtimoiy muhofaza imtiyozlaridan foydalanishlari, ularning o'ilalari esa ish haqidan pul jo'natmalarini olish huquqiga ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan.

3. XMTning 1975- yilda qabul qilingan muhajir – mehnatkashlar to'g'risidagi Konvensiyasi. Bu xujjat migrantsiya sohasida suiste'molliklarni, muhajirlarni yashirin yo'llar bilan olib kelish va qonunsiz ishga yollashni bartaraf qilishga qaratilgan chora – tadbirlarni belgilab beradi hamda muhajirlarni mehnat, bandililik ijtimoiy ta'minot, kasaba uyushmalariga birlashish va madaniy huquqlari sohasida himoya qilishning ba'zi choralarini ko'zda tutadi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotiga a'zo bo'lgan va uning asosiy xujjatlari imzo chekkan mamlakatlar, qayd etilgan xujjatlarda qabul qilingan tartib qoidalarga amal qilishlari va o'zlarining mehnat qonunchiliklarini ularga muvofiq o'zgartirishlari lozim.

## **5.6. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va uning statistik faoliyati**

Xalqaro Mehnat Tashkiloti Xalqaro mehnat statistikasining qaror topishi va rivojlanishida muhim rol o'yndaydi. U (XMT, International Labour Organization) 1919-yilda Millatlar ligasi huzurida mehnat tashkiloti sifatida tashkil etilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti BMT 18 ta agentligining biri bo'lib XMT hisoblanadi. Birinchi jahon urushidan keyin 1919- yili Versal tinchlik konferensiyasida iqtisodichilar va sotsiologlar ishchi mehnat sharoitlari yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish xalqaro kelishuvlari zaruriyatini taqazo eta boshlashdi. 1990-yilda keyin shu masala bo'yicha uchta xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan. Tinchlik Versal konferensiyasi xalqaro mehnat qonuniyati bo'yicha komissiya tashkil etgan. Komissiya tomonidan, ishchilarni muhofaza etish xalqaro organi takliflari XIII Versal kelishuv qismi bo'lib,

bugungi kunga kadrlar ustavi bo'yicha XMT konstitutsiyasi shiori jahonda tinchlik, haqqoniylik va gummanizm hisoblanadi.

Tashkilotning asosiy masalasi, bu insонning ish joyidagi huquqlarini himoya qilish, bandlik bilan ta'minlash ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish kabilar hisoblanadi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti 1946-yildan boshlab, BMT ning ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi, dunyoning 171 davlati XMT a'zosi hisoblanadi. XMTda fransuz va ingлиз tillarida ish yuritiladi, uning qarorgohi Jeneva shahridadir. XMTning vakolatxonalarini yirik davlatlar poytaxtlarida faoliyat ko'rsatmoqda. XMT tashkil etilganda 42 davlat a'zo bo'lgan bo'lsa, 2000-yilda esa 174 ta davlat a'zo bo'ldi.

XMT to'rt strategik maqsad doirasida faoliyat yuritadi:

- Mehnat huquqi doirasidagi asosiy prinsip normalarini rivojlantirish va tadbiq etish;
- Bandlik va daromad keng imkoniyatlarni erkaklar va ayollar uchun yaratish;
- Barcha uchun sotsial muhofaza samaradorligini oshirish va kengroq qamrab olish;
- Uch tomonlama sotsial muloqotni qo'llab quvvatlash.

Birinchi xalqaro Mehnat konferensiyasi Vashingtonda 1919- yil oktyabrdan bo'lgan. XMT ijtimoiy adolat, xalqaro miqyosida qabul qilingan inson huquqlari, mehnat huquqlarini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi mehnat va bandlik sohasidagi tinchlikga erishish hisoblanadi.

XMT uch tomonlama tarkibiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlar davlat vaqillari bilan bir xil ovozga egadir. XMT a'zosi, har bir davlat konferensiyaga 4 ta vaqil: ikki ta davlat vaqili, ish beruvchi va mehnatkashlardan bittadan vaqil yuborishi mumkin. Har biri o'z fikrini bayon etish va ovoz berish huquqiga ega.

Yillik konferensiya yaralishida XMT faoliyatini Administrativ maslaxat boshqarib, uning tarkibida 28 ta davlat vaqillari, 14 ta mehnatkashlar vaqillari va 14 ish beruvchilar vaqillari mavjud. XMT a'zolari o'z zimmalariga quyidagi majburiyatni olishgan:

- turli xil majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik
- bolalar mehnatidan foydalanishi ta qiqlash
- mehnat va bilim sohasida "diskriminatsiyaga" yo'l qo'ymaslik

1919- yildan 1995- yilga qadar Xalqaro mehnat konferensiyasi 176 konvensiyani va 183 taklifi ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi XMT ga 1992 yilda a'zo bo'lib, bugungi kungachi ushbu Tashkilotning 14 konvensiyasini ratifikatsiya qilgan:

- Majburiy mehnat to'g'risida Konvensiya (S29)-13.07.1992- y.;
- Qirq soatlik ish haftasi haqida Konvensiya (S47)-13.07.1992- y.;
- Bayram kunlariga haq to'lash haqida konvensiya(S52)-13.07.1992- y.;
- Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risida Konvensiya (98)-17.06.1948- y.;

- Bajarilgan Mehnat uchun bir xil maosh to'lovi haqida Konvensiya (S100)-13.07.1992-y.;
- Onalikni himoya qilish haqida Konvensiya(S103)-13.07.1992- y.;
- Majbuliy mehnatni yo'qotish to'g'risida Konvensiya (S105)-15.12.1997y.;
- Diskriminatsiya haqida Konvensiya(S111)-13.07.1992- y.;
- Bandlik siyosani haqida Konvensiya (S122)-13.07.1992- y.;
- Mehnatkashlarning vaqillari haqida Konvensiya (S135)-12.12.1997- y.;
- Kollektiv shartnomalar haqida Konvensiya(S111)-15.12.1997- y.;
- Ishga olishda minimal haqida Konvensiya(S138)-03.12.2008- y.;
- Bolalar mehnatini eng yomon formalarini ta'qilash va zudlik bilan choralar ko'rish haqida Konvensiya (S182)-03.12.2008- y.;

Ohirgi yillarda, O'zbekistonning Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan birlgiligidagi aloqlari kuchayib bormoqda.

Sobiq Ittifoq davrining birinchi besh yilligida (1929-1933) quyi chegarasi 14 yosh hisoblangan ikinchi besh yillikni ohrirda (1937) quyi chegara 15 yoshga etkazilgan. Ulug' vatan urushi yillarda quyi chegara yoshi, yana 14 yosh bo'lgan. Undan keyingi yillarda 16 yosh. Rossiya Federatsiyasida 24.11.1995 y. № 131-F3 mehnat kodeksi qonunlariga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar bo'yicha quyi chegarasi 15 yosh deb qayd etilgan. 01.03.2002 yildan o'qishda bo'sh vaqtida, mehnat shartnomasi tuzish mumkin bo'lgan xolatda, ota-onasining ruhsati bilan, engil ishlari asosiy umumiyligi ta'lif tugab yoki muktab o'qishi to'xtatilganda 15 yosh qolgan boshqa xolatlarda (st 63 t.k. RF) -16 yoshdan.

Mehnatga layoqatlilikini hisobga olgan holda mehnat yoshidagilar ikki guruhgaga bo'linadi:

- mehnat qilish qobiliyatiga egalar
- mehnat qilish qibiliyatiga ega emaslar.

Mehnat faoliyatiga nisbatan to'rt guruhgaga bo'linadi:

- mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar
- mehnat yoshida bo'lmay, mehnatga layoqatli (m-n nafaqa yoshidagi mehnat qilayotganlar)

- mehnat yoshidagi mehnatga layoqatsizlar (1 va 2- guruh nogironlari)
- mehnat yoshida bo'lmanan mehnatga layoqatsizlar.

Xalqaro mehnat statistiklari konferensiyasiga tavsiya etgan va xalqaro mehnat tashkiloti tasnif tizimiga binoan birga aholi

- iqtisodiy faol aholiga
- iqtisodiy nofaol aholiga bo'linadi.

Iqtisodiy faol aholi, ya'ni ish kuchi. Xalqaro mehnat metodologiyasiga muvofiq, aholini bir qismi bo'lib, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda o'z mehnatini taklifi bilan ta'minlovchilardir. Iqtisodiy faol bu ko'rsatgich band bo'lganlar soni bilan ishsizlar soni yig'indisidir.

Iqtisodiy nofaol aholiga quyidagilar kiritiladi:

1. Ishdan ajralgan holda tahsil olayotgan, o'quvchi, studentlar, xizmatchilar, kursantlar va h.k.

2. Yoshi bo'yicha va imtiyozli nafaqa oluvchilar;
3. Nogironlik nafaqa oluvchi shaxslar;
4. Uy xo'jaligida, bolalar parvarishi bilan yoki kasallar parvarishi bilan band bo'lganlar
5. Ish topishdan umidini uzgan va ish qidirishni to'xtatgan ishslashga qurbi etadigan va ishslashga tayyorlar;
6. Daromad manbaidan qat'iy nazar, mehnat qilishga zaruriyati bo'lmagan boshqa shaxslar.

XVIII asrdan boshlab jahon aholisining o'sish sur'atlari eng cho'qqisi 1960-yilda 2.1 foiz tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich pasaya boshlab 1980-yilda 1.7 foiz, 2000-yilda 1,4 bo'lib bunda absolyut yillik o'sish 80-87 mln.kishi. tashkil etgan. XXI asr boshida yillik aholi sonining o'sishi 1,5 foiz tashkil etib, akademik S.P.Kapitsaning ma'lumotiga ko'ra har soniyada 21 ta tug'ilish va 18 ta vafot etishi qayd etilgan. Deyarli hamma o'sish rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ri kelgan, rivojlangan davlatlarda o'sish sur'ati kamaygan. Bunday davlatlarda yoshi katta aholi salmog'i ko'payib bormoqda va millatni qarishi kuzatilmoxda.

Ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan migratsiya-mehnat migratsiyasi deyiladi.

Migratsiya: uzlukli, mavsumiy va mayatnik migratsiyalariga bo'linadi.

*Uzlukli migratsiya* bu qandaydir paydo bo'lgan vaziyatlarga bog'liq bo'lib, doimiy istiqomad qilish joyiga qaytishni inkor qilmaydi.

*Mavsumiy migratsiya* – bu boshqa hududlarga mavsum davrida ko'chishidir.

*Mayatnik migratsiya* – bu aholini bir hududdan ikkinchi hududga "chelnok" tariqasida harakatlanishi, ya'ni Chirchiqdan Toshkentga ishga, o'qishga kelib ketishi tushuniladi

Xalqaro mehnat tashkilotining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ish vaqtini regeommentlash;
- ishsizlikka qarshi kurash;
- mehnatlashlarni kasb kasalliklari va ishlab chiqarishdag'i baxtsiz hodisalardan himoya qilish;
- bolalar, o'smirlar va ayollar mehnatini muhofaza qilish;
- ish sharoiti muhitini yaxshilash;
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot masalalarini tartibga solish;
- kasbiy-texnik ta'limni tashkil etish va h.k.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining Yuqori organi - Bosh konvensiya; ijro etuvchi organi - Ma'muriy kengash, u kotibiyat - Xalqaro Mehnat Byurosi (XMB) ishiga boshchilik qiladi. XMB doimiy ishlaydi va XMTning ishchi organi hisoblanadi. XMB axborot to'playdi va tarqatadi. Hukumatlarga ularning iltimoslariga ko'ra, yordam ko'rsatadi. Xalqaro mehnat tashkilotining texnik hamkorlik dasturlarini boshqaradi, maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazadi. Bu tashkilot doirasida XMB Statistika byurosi tashkil etilgan.

XMBning Statistika byurosi Xalqaro Mehnat Tashkilotiga a'zo mamlakatlar mehnat to'g'risidagi statistik hisobotini to'plash, ishlov berish va e'lon qilishdek joriy faoliyatni amalga oshiradi. Mehnat statistikasining Xalqaro konferensiyalarida jahoning shu sohadagi yetakchi mutaxassislari nazariy masalalami muhokama etadi

va «Mehnat statistikasi»ning turli jihatlariga taalluqli rezolyusiyalarni qabul qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining har yil o'tkazadigan konferensiyalarida bo'lajak ish rejalarini va o'tgan yilgi rejaning bajarilash yakunlari muhokama qilinadi. XMBning Statistika byurosida tayyorlagan materiallar ko'rib chiqiladi, shuningdek, konvensiya va tavsiyalar qabul qilinadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro mehnat resurslarining tarkibini, dinamikasini o'rganish katta ahamiyatga ega. Mehnat resurslarining harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bayon etiladi.

### **Nazorat va muhokama savollar**

1. Chet el mamlakatlarida mehnat resurslarining tarkibi va taqsimlanishi.
2. Mehnat resurslari to'g'risida tushuncha.
3. Ish kuchi statistikasi va uning tashkil etilishi.
4. Chet elda mehnat resurslari harakati ko'rsatkichlari.
5. Mehnat resurslarining istiqbolidagi sonini aniqlash usullari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Sidenko A.V., Bashkatov B.I., Matveeva V.M. Mejdunarodnaya statistika. Uchebnik. Izdatelstvo «Delo i servis». – M., 2012.
2. Doklad o razvitiu chelovecheskogo potenciala v stranax Yevropa i SNG – M., PROON, 2012 g.
3. Pod red. I.I.Eliseevoy. Praktikum po sotsialnoy statistike. Uchebnoe posobie. – M., 2014 g.
4. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/Gcomm/Grelays/Gindex\\_en.htm](http://europa.eu.int/Gcomm/Grelays/Gindex_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **VI BOB. XALQARO AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI**

### **6.1. Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari**

Aholi turmush darajasi ijtimoiy – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilaming moddiy va madaniy – maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarini o‘z ichiga oladi.

Moddiy ehtiyojlarga kishining oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg‘i va ro‘zg‘or buyumlariga bo‘lgan talablari kiradi.

Madaniy-maishiy ehtiyojlarga kishilarning bilim, malakasi, madaniy darajasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko‘rsatishni yaxshilash kabilarga bo‘lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti – jamiatning hamma a‘zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoni va madaniy taraqqiyotini ta‘minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil qilish, kishining sog‘liq va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy ta‘minot, nafaqalar bilan ta‘minlash, nisbatan kam daromadli oilalar bolalariga nafaqalar berish yo‘li bilan amalaga oshiriladi.

Aholi turmush darajasi statistikasi oldida quyidagi vazifalar turadi:

Aholi daromadlari va xarajatlari, moddiy – madaniy, maishiy ehtiyojlari tarkibini, strukturasini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning dinamikasini va su‘ratini o‘rganish.

Aholi daromadi iste’molidagi differensiatsiyani o‘rganish, shu tafovutni qisqartirishdagi ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta’sirini o‘rganish.

Jahon mamlakatlari miqiyosida aholi turmush darajasini o‘rganish.

Aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlar tizimini uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: daromad, iste’mol va yashash sharoiti. Bu ko‘rsatkichlar umumiy va jon boshiga hisoblanadi.

Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi indikatorlari aholida yillik daromadlari bo‘yicha taqsimlanish va foydalanish asosiy yo‘nalishlari hajmini va tarkibini ta‘riflovchi statistik ma'lumotlar aholi farovonligi xaqidadir.

Ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar o‘rtacha va mediana ko‘rsatkichlari, o‘zgarish sur’atlari, koeffitsient chastotasi, konsentratsiya va differensiya hamda sotib olish qobiliyati orqali ta‘riflanadi.

Aholi turmush darajasini o‘rganishning uch ta yo‘nalishi bor:

1. Barcha aholiga nisbatan
2. Ijtimoiy guruhlarga nisbatan
3. Turli xil daromadli uy xo‘jaliklariga nisbatan.

Aholi farovonligining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa ma'lumotlarni qamrab olgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy – iqtisodiy ko‘rsatkichlari mavjud.

YAM daromadni, davlatlararo ta'riflash uchun, ko'pincha AQSH dollaridan foydalaniladi. Ko'pincha valyuta fondi ma'lumotlari ko'ra aholi jon boshiga uch ta kategoriyaga bo'linadi:

1. 12276\$ to 12275\$ -o'rtaча daromadga ega davlatlar, past daromadga ega davlatlar.

2. YAMD bo'yicha ma'lumotlar yil davomida qayd etilib moliya davning oxiri bo'lib 30.06 hisoblanadi, ma'lumotlar ishlov berilgandan so'ng, oktyabr va noyabr oyларидаги rasmiy chop etiladi.

Xalqaro Mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, mehnat resurslari deganda, foydali fondlar faoliyat etishga qurbi etgan jismoniy rivojlangan, aqliy bilimga ega bo'lgan aholini bir qismi tushuniladi.

Mehnat resursi ijtimoiy demografik tarkibi va yosh chegaralari davlatni qonuniga muvofiq belgilanadi.

Aholi turmush darajasini o'rganish va baholash oldingi asming 20 yillardan boshlanib, ular ko'proq haqqoniy bo'lgan. Ideologik sabablarga ko'ra, keyingi yillarda ochiq obyektiv ma'lumotlarni taqdirm etish qiyinlashdi. Rejali yopiq iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini taqdirm etishda, asosiy ahamiyat beriladigan ko'rsatkichlar bo'lib ishlab chiqarish hisoblanar edi, ya'ni boshqa iqtisodiy jarayonlarga qaraganda, jamiyatni ishlab chiqarish kuchlarini Jadallashishiga ayniqsa iste'mol, aholi turmush darajasi uni holati ko'rsatkichlariga deyarli yoritilmas edi. Bular albatta salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan, sovet davrining oxirgi o'n yilda bu sohada nazariy ish olib berila boshladi lekin amaliyot bilan farqi katta edi.

1992-yilda MXT o'tish, o'rtaча statistik fuqarodan, aholi turmush darajasini ifodalashda asosiy obyekt tariqasida oila, uy xo'jaligi, boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatorida to'laqonli sybyekt tariqasida ahamiyat berila boshlandi.

Pullik aholi xarajatlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Muntazamlik darajasi bo'yicha

-doimiy (oziq ovqat)

-muntazam(kiyim kechak)

-axyon-axyon (uzoq muddatli foydalanish tovarlari)

2. Zaruriyatilik darajasi bo'yicha

-zaruriy (birlamchi)- oziq-ovqat, kiyim-kechak, davolanish;

-xoxishiy( ikqilamchi)-ma'lumot alishirish

-boshqa

3. Ishlatish maqsadi bo'yicha

- iste'mol xarajatlari (xaridi, xizmatlar xaqini to'lash)

- majburiy va ixtiyoriy to'lov va badallarni to'lash.

- to'plam va jamg'armalar (qimmatli qog'ozlarda, chet el valyuta xaridi, aholi ehtiyoqidagi pul xajmini o'zgarishi).

Iste'mol xarajatlari barcha xarajatlardan 75foiz yaqinini tashkil etib, daromad hajmiga bog'liqdir.

Aholining turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial kategoriya bo'lib, u insonni moddiy, madaniy, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirilish darajasi, hamda turmush sharoitlarini yanada yaxshilash kabi tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Aholining moddiy ehtiyojlariga: oziq-ovqat, kiyim kechak, turar joy, uy-ro‘zg‘or buyumlari, birlamchi ehtiyoj predmetlari kabilalar kiritiladi.

Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlariga: bilimga, savyasi oshishiga, maishiy va kommunal xizmat sifatini oshishi kabilarga bo‘lgan ehtiyojlar kiritiladi.

Aholining turmush sharoiti ehtiyojlariga: mehnatkashni mehnat qilish, dam olish, mehnat sharoitini yaxshilash, bo‘sh vaqtini - salomatligini yaxshilashga, mehnat qilish qobiliyatini saqlashga, madaniy savyasini oshirishga qaratilishi tushuniladi. Mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotganda va boshqa sabablarga ko‘ra muhtoj bo‘lib qolgan paytda ijtimoiy himoyalash kiritiladi.

## **6.2. Aholi turmush darajasini umumlashtirib ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Aholi turmush darajasini miqdor va cihat tomonidan tahlil qilish uchun ilmiy jihatdan asoslangan ko‘rsatkichlar bo‘lishi shart. Turmush darajasi murakkab va ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lganligi sababli u bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki aholi daromadi va turmushining turli tomonlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan xarakterlanadi.

Mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo‘layotgan hodisa hamda jarayonlarni baholash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, aholi mehnatga haq to‘lash, shuningdek, turli ijtimoiy fan va dasturlarini shakllantirish imkoniyati turmush darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun turmush darajasi Yuqoriroq bo‘lgan mamlakatlar xorijiy ishchi kuchini qabul qiluvchi(importyor)lar bo‘lsa, kam rivojlangan mamlakatlar bu ishchi kuchini etkazib beruvchilar hisoblanadi. Aholining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan aniqlanadigan turmush darajasi murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uni qandaydir bir ko‘rsatkich vositasida tavsiflab bo‘lmaydi.

BMTning Statistika komissiyasi aholi turmush darajasini baholash uchun ko‘rsatkichlarning quyidagi kichik guruhlarini ajratishni tavsiya qiladi:

- aholining demografik tavsifi (tug‘ilish, o‘lim, kasallanish, uzoq yashash va boshqa ko‘rsatkichlari);
- aholi daromadlarining ko‘rsatkichlari (real va nominal);
- aholi xarajatlari va jamg‘armalari ko‘rsatkichlari;
- aholining moddiy boylik va xizmatlarni iste‘mol qilish ko‘rsatkichlari;
- aholining turar joy va uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan ashyolar bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichlari;
- bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlari;
- aholining mehnat qilish shart-sharoitlari ko‘rsatkichlari; bo‘sh vaqt ko‘rsatkichlari;
- ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, turizm va dam olish ko‘rsatkichlari.

Aholi turmush darajasini sifatini ta‘riflash uchun demografik va sotsial statistika ko‘rsatkichlaridan foydalaniлади.

- Go‘daklar vafot etishi ko‘rsatkichi;

- O‘rtacha kutilayotgan umr ko‘rish “—”;
- Oziq ovqat iste’mol mahsulotlarini tarkibi va sifati ko‘rsatkichlari;
- Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ma’naviy xizmatlar holati ko‘rsatkichlari.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad (MD) aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ammo undan xalqaro qiyoslashlarda foydalanishda ehtiyojkorroq bo‘lish kerak. Chunki u turli mamlakatlardagi narxlar ko‘lamidagi farqlarga va milliy valyuta ko‘rsatkichlarini yagona valyutada (masalan, AQSH dollarri yoki evro) qayta baholashdagi muammolar tufayli aholining turmush darajasiga to‘la berilmaydi.

### **6.3. Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirilish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Har bir davlat aholisi farovonligining oshib borishi, ularning moddiy ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirillib borilishi quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanadi:

Oziq-ovqat mahsuloti iste’moli (jon boshiga, muhim turlari bo‘yicha) tarkibi va dinamikasi.

Oziq-ovqatdan boshqa mahsulotlar iste’moli.

Aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va uning sifatini yaxshilash aholi turmush darajasining o’sishini ko‘rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini chakana tovar oborotidagi oziq-ovqat iste’moli shuni ko‘rsatadiki, turmush daroji oshgan sari non va kartoshka mahsulotlarini iste’mol qilish bir tekisda kamayib, bular o‘rnini astasekin go‘sht, sut, qand, sabzavot va meva kabi oqsil, yog’, vitamin va boshqa moddalarga boy bo‘lgan Yuqori kaloriyaligi mahsulotlar egallab boradi.

Oziq-ovqat iste’moli strukturasidagi o‘zgarishlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik oziq-ovqat mahsuloti darajasida namoyon bo‘ladi.

#### **Ayrim jahon davlatlari bo‘yicha aholi jon boshiga bir yilda ayrim oziq - ovqat mahsulotlarini iste’mol qilinishi.**

Davlat	Aholi jon boshiga									
	Go’sht(kg)		Sut(kg)		Sariyog’(kg)		Tuxum(dona)		SHakar(kg)	
	2000y	2019y	2000y	2019y	2000y	2019y	2000 y	2019y	2000y	2019y
O‘zbekiston	51	69	342	374	4,4	6,3	165	295	20	20
AQSH	117	122	259	268	2,5	2,2	334	281	23	24
Daniya	230	278	901	913	26,4	17,6	299	251	-	-
Y.Zelandiya	416	421	-	-	84,3	85,7	-	-	-	-
Braziliya	39	44	78	92	-	-	-	-	52	52
Shvetsiya	60	67	365	405	5,2	8,1	-	-	-	-
Yaponiya	-	-	46	62	0,4	0,6	296	329	6,1	6,9
Fransiya	86	112	558	519	9,5	9,2	221	277	51	67

Mahsulot turining jon boshiga qancha to‘g‘ri kelishi quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$\bar{Y}_i = \frac{Q_i}{A_i};$$

Bu yerda  $\bar{Y}_i$  – jon boshiga hisoblangan mahsulot;  $Q_i$  – bir yil davomida iste’mol qilingan mahsulot jami;  $A_i$  – aholining o‘rtacha soni.

Jadval №2

**Ayrim jahon mamlakatlari aholisining uzoq muddat foydalanadigan mollar bilan ta’minlanishi (har 1000 kishiga nisbatan, dona)**

Davlatlar	Radio		Oynai - jahon		Muzlatgichlar		Kiryuvgich mashinalar		Avtomobillar	
	2000y	2019y	2000y	2019y	2000y	2019y	2000 y	2019y	2000 y	2019y
O‘zbekiston	32	28	28	34	17	21	22	21	4,9	19
Xitoy	4	14	-	23	-	7,0	-	10	0,02	23
AOSH	66	20	40	49	26	29	21	25	-	-
Germaniya	111	78	49	61	26	42	27	37	-	-
Yaponiya	366	118	113	115	25	42	43	42	207	240

#### 6.4. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirilishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Aholining moddiy – maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ikki guruhgaga ajratish mumkin:

I. Aholining uy-joy, kommunal va maishiy xizmat bilan ta’minlanishining ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

5. Uy-joy fondi - ( $m^3$  hisobida) umumiy maydon.
6. Aholining uy-joy bilan ta’minlanishi (jon boshiga  $m^3$ )
7. Uy-joylarning markaziy istish sistemalari, vodoprovod, gaz, vanna, dush, kanalizatsiya bilan ta’minlanish darajasi.

8. Bir yilda aholi tomonidan iste’mol qilingan a) elektroenergiya (jon boshiga KVtG’soat hisobida) b) gaz (jon boshiga  $m^3$ ) v) barcha maishiy xizmatlar.

II. Aholining moddiy – ma’naviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi.

- ❖ Savodlilik darajasi.(9 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan);
- ❖ Oliy va o‘rta ma’lumotlilarr soni;
- ❖ Oliy va ilmiy pedagogik xodimlar soni;
- ❖ Maxsus o‘quv yurtlari, kollej va oliy o‘quv yurtlarida bilim olayotganlar soni;
- ❖ Boshlang‘ich va o‘rta maktablarda bilim olayotganlar soni;
- ❖ Ommalashgan kutubxonalarligi kitob fondi;
- ❖ Kitob, jurnal va gazetalarning yillik tiraji;
- ❖ Kinoseanslar va teatrлarga kiruvchilar soni.

## **6.5. Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar**

Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi.

Aholining ish bilan ta'minlanish darajasi;  
Ish haftasi va ish kunining o'rtacha uzunligi;  
Mehnat ta'minlash muddati;  
Mehnat sharoiti;  
Vrachlar soni;  
Kasalxonadagi o'rinalar soni;  
Dam olish muassasalarida, bolalar bog'chalarida o'rinalar soni;  
Ijtimoiy ta'minot;  
Aholining o'rtacha yashash muddati.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro aholi turmush darajasi statistikasi quyidagi ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga oladi:

Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.  
Aholining moddiy maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar.  
Aholining ijtimoiy shaaroitini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

Aholi turmush darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari.

Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari.

Aholining madaniy – maishiy ehtiyojlarini qondirilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Aholining ijtimoiy sharotini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Pod red. I.I.Eliseevoy. Sotsialnaya statistika. Uchebnik. – M., 2013 g.
2. Pod red. V.N.Salin. Sotsialno – ekonomicheskaya statistika: Praktikum. Ucheb. posobie. – M., 2014 g.
3. Pod red. I.I.Eliseevoy. Praktikum po sotsialnoy statistike. Uchebnoe posobie. – M., 2014 g.
4. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/GcommG'relaysG'relief\\_en.htm](http://europa.eu.int/GcommG'relaysG'relief_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## VII BOB. TASHQI SAVDO STATISTIKASI

### 7.1. Tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari

Mustaqillikni o'tgan o'n bir yili – juda qisqa tarixiy davrda O'zbekiston nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlarga erishdi. Ma'muriy – buyruqbozlik tizimiga asoslangan jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan huquqiy – demokratik davlat shakllantirish yo'lidan borilmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy sohadagi islohotlarning yo'nalishlaridan biri Tashqi iqtisodiy faoliyatadir. Tashqi iqtisodiy faoliyat O'zbekiston tarixida yangi yo'nalishlardan biridir, chunki uzoq yillik sobiq sovet tizimida tashqi iqtisodiy aloqalar faqatgina markaz orqali olib borilar edi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat bordaniga TIA ni rivojlantirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab qo'ymaydi. Bunday paytda davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqishi lozim. Xuddi ana shunday yo'lni O'zbekiston o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali olib bormoqda. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish (muqobilashtirish) hisoblanadi. Xalqaroni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlatning muhim strategivalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, mamlakatni o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy holatini o'rganish, u haqda yetarlicha ma'lumot olish, shu asosda mamlakatni jahon bozoridagi salbiy o'zgarishlardan saqlashni taqozo etadi. Uni tartibga solish, uni istiqbolini belgilashda statistikaning ahamiyati kattadir. Zero ishonchli ma'lumot va tahlil mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini asosiy strategiyasidir.

Tashqi savdo statistikasi statistikaning ajralmas qismi bo'lib, tarmoq statistikasi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida gap tovarlar importi, eksporti, xalqaro moliya munosabatlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган shartnomaviy operatsiyalar haqida boradi.

Tashqi savdo esa o'z ichiga eksport va importni oladi. Tashqi savdo mamlakatni moddiy resurslari kamayishi yoki ortishiga tegishli bo'lgan tovar massalari, xizmatlar oqimini bojxona orqali olib o'tilishini ifodalaydi. Statistika tashqi savdoni o'rganishda faqatgina bojxona orqali qonuniy ravishda olib o'tilayotgan tovarlar va xizmatlar oqimini hisobga oladi.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiyamatlari summasi;

**Tovarlar eksporti** — tovarlarni ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish;

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, joyidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar);

**Tovarlar importi** — tovarlarni ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

**Xizmatlar (ishlar) importi** — O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan rezidentlarga, joyidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Tashqi savdo statistikasi o'zida ikki xarakterni mujassamlashtiradi:

Statistika faqatgina bojxona chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlar va xizmatlarni hisobga oladi.

Statistika chegarani kesib o'tuvchi har qanday tovarni va xizmatni, u hox tijorat asosida, hox notijorat maqsadda o'tishidan qat'iy nazar qiymatini hisobga oladi, ya'ni mamlakat tomonidan olingen har qanday iqtisodiy yordam sifatida berilgan tovarlar esa eksport sifatida qayd qilinadi.

Sobiq ittifoq davrida markazlashgan holda tashqi savdoni hisobga olish 1930 yilda boshlanadi. Shu yildan boshlab, bojxona hisobi markazlashgan holda olib borilib unga barcha ittifoq mamlakatlaridan («Tashqi dunyo»dan) olib kirilayotgan va chiqarilayotgan tovarlar hisobga olinadi. O'zbekistonda esa tashqi savdoni hisobga olish maxsus davlat xodimlari tomonidan hisobga olingen bo'lib, tashqi savdo hisobini mamlakatimizda bir necha asr oldin boshlanganligidan dalolat beruvchi manbalar mavjud. Ayniqsa, yirik hududni egallagan Amir Temur davlatida savdoni hisobga olish muhim o'rinn tutgan.

1942- yildan Ittifoq hududida tashqi savdoni tashqi savdo vazirligi hisobga ola boshladi. Bu davrda tashqi savdo vazirligi faqatgina tijorat maqsadida olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarni hisobga olar edi. 1959- yilda boshlab esa tashqi savdo vazirligi bilan birga bojxona qo'mitasi parallel hisob olib borishni yo'lga qo'yildi.

1991- yildan boshlab esa mustaqillikka erishgan O'zbekiston jahon tajribasini tan olgani kabi, tovar va xizmatlar eksport – importini bojxona qo'mitasi orqali olib bora boshladi.

## **7.2. Tashqi savdoda tovarlar importi va eksporti, uni statistik o'rGANISH**

Avvalambor, eksport va import haqida va uni hisobga olish to'g'risida gap ketganda tashqi savdo hisobini olib borish haqida gapirish lozim. Bojxona xodimlari tomonidan tashqi savdoni rasmiyllashtirishda bojxona deklaratsiyalari, tovar va xizmatlarga berilgan yo'l qog'ozlari, tovarlar va xizmatlarni hisobi va ularning shartnoma pasportlari rasmiylashtirilladi. Bojxona chegaralari kesib o'tadi, ammo tashqi savdoda hisobiga olinmaydigan tovar va xizmatlar quy'idagilardan iboratdir:

1. To'g'ridan-to'g'ri tranzit (omborlarda saqlanganlardan tashqari)
2. Jismoniy va yuridik shaxslarning, horijlik fuqarolarning, hamda diplomatik missiyalarning shaxsiy yuki.
3. Bir yildan ortiq bo'lмаган muddatga joriy arendalarni maqsadga olgan shartnomadagi tovarlar.
4. Qaytayotgan taralar (konteynerlar, shisha idishlar) va namunalar.
5. Muomaladagi oltin tangalar va boshqa tangalar, muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar va banknoilar.

6. Vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki olib chiqib ketilayotgan tovarlar:

6.1.teatr bezaklari

6.2.sport inventarlari

6.3.mashinalar

6.4.auksion, yarmarka va ko'rgazmalarga olib kelingen tovarlar

6.5.kinofilmlar ijarası

7. Transport vositalari va boshqa uskunalarining remonti.

8. Tovarlarni olib kelmasdan reeksport qilish.

9. Nomoddiy xizmatlar qiymati.

10. Tovar va xizmatlarni kafolatli etkazib berish.

Statistikada tovarlar importi deganda quyidagini tushunadi:

1. Ichki iste'mol va qayta ishlash maqsadidagi tovarlar.

2. Uzoq muddatdagi reeksportni ko'zlab olib kelingen tovarlar.

3. Tegishli bojxona omborlarida qayta ishlash uchun olib kelingen tovarlar.

Birinchi kategoriyadagi tovarlar bojxona qo'mitasi tomonidan olib boriladigan ichki iste'mol uchun olib kirilayotgan mahsulotlarni mamlakat hududiga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ommaviy tadbirdir. O'zbekiston importida ushbu tovarlar ulushi o'ta Yuqoridir.

Eksport haqida gap borganda esa:

1. Mamlakat hududida ishlab chiqarilgan, qazib olingan yoki etishtirilgan mahsulotlar;

2. Bojxona nazorati ostida qayta ishlangan mahsulotlar;

3. Belgilangan bojxona omborlariga olib kelingen tovarlar;

4. Ichki iste'mol uchun import qilingan, ammo iste'mol qilinmay qolgan mahsulotlar.

Statistika tovar va xizmatlar import va eksportini o'rghanishda bir necha usullardan foydalanadi. Bunday usullar jumlasiga statistikaning umumiy usullaridan: dinamika ko'rsatkichlari, indekslar usuli, grafik va jadvallar usullari, tarkib va salmoqni ifodalovchi ko'rsatkichlar, shu bilan birga balans usuli keng foydalaniadi. Tashqi savdo balansi mamlakat uchun ma'lum muddatda tashqi savdoni holatini yaqqol ko'rsatib beradi. Shu bilan birga tashqi sado balansi mamlakat tashqi savdosini istiqbolini va tashqi savdoga tegishli chora-tadbirlar manbai ekanligini hisobga olish lozim.

Tashqi savdoga tahliliy ko'z bilan yondashishda indekslar usuli ahamiyati katta. Chunki zamon va makonda tashqi savdoni o'rghanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bahoz indeksini quyidagicha formula yordamida hisoblanadi:

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} \quad \text{Paashe formulasi.}$$

Ba'zi hollarda ayrim tovarlar uchun baho indeksini hisoblashga to'g'ri keladi.

$$i_p = \frac{\mathbf{P}_1}{\mathbf{P}_0}$$

Tashqi savdoni fizik hajmida bo‘layotgan o‘zgarishlarning umumiy tarzda quyidagi indeks orqali ifodalanadi:

$$I_t = \frac{\sum q_t p_0}{\sum q_0 p_0} \text{ (Laspeyres formulasi)}$$

ayrim tovarlar uchun esa:

$$i = \frac{q_t}{q_0}$$

Bundan tashqari tashqi savdoni shartini ifodalovchi indeks:

$$I_{CT} = \frac{I_{P_0}}{I_{P_n}} \text{ Bu yerda: } I_{P_0} - \text{eksportning o‘rtacha baho indeksi.}$$

$I_{P_0}$  – importning o‘rtacha baho indeksi.

Shu bilan birga tashqi savdoni strategiyasini ifodalab beruvchi import kvota va eksport kvotasi darajasi va indeksi hisoblanadi.

Eksport kvotasi darajasi:

$$K_{\infty} = \frac{\text{ЭК}}{\text{ЯИМ}} ; \text{ indeksi } i_{\infty} = \frac{K_{\infty}}{K_{\infty 0}}$$

Import kvotasi:

$$K_{\infty} = \frac{\text{ИК}}{\text{ЯИМ}} ; \text{ indeksi } i_{\infty} = \frac{K_{\infty}}{K_{\infty 0}}$$

Tashqi savdoni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda eksport va import elastikligi koeffitsenti hisoblanadi.

Eksport elastikligi.

$$\varepsilon_x = \frac{\Delta \varepsilon}{\varepsilon} : \frac{\Delta \text{ЯИМ}}{\text{ЯИМ}} :$$

Import elastikligi.

$$\varepsilon_x = \frac{\Delta I}{I} : \frac{\Delta \text{ЯИМ}}{\text{ЯИМ}} : \text{ Bu yerda } \Delta \text{ o‘sishning absolyut qiymatini ifoda etadi.}$$

Birinchi ko‘rsatkich YAIMning o‘sish tendensiyasiga nisbatan eksport o‘sish tendensiyasini nisbatini aniqlaydi. YA’ni, mahsulot eksportini YAIM o‘sish ta’siri va eksport hajmini real o‘sishini ifodalaydi.

Ikkinchi ko‘rsatkich esa YAIM o‘sishi bilan import hajmini o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalab, ularning o‘sish tendensiyalarini o‘zar qoqoslashga imkon beradi.

Statistika Yuqorida aylib o‘tilgan ko‘rsatkichlardan tashqari tashqi savdoni salmog‘i, uning strukturasini ham keng o‘rganadi.

### 7.3. Tashqi savdoda baholarning shakllanish xususiyatlari

Xalqaro savdo amaliyotida o‘ndan ortiq shartnoma sharoitiga bog‘liq ravishda bitta va o‘sha tovarga o‘matilishi mumkin bo‘lgan narxlanming turlari mavjud. Narxlar ro‘yxati xalqaro savdo terminlari qoidalari «INKOTERMS»da bayon etilgan. SHartnoma shartlarini shakllantirishda bazis yoki o‘tgan davr uchun preyskurator

narxlaridan foydalaniлади. У нархлар maxsus preyskuran – spravochniklarda keltiriladi. Standartga muvofiq eksport qilinuvchi tovarlar «G'OV», «G'OV – jo'natish porti», «G'OV – franko - quruqlik chegarasi» baholarida, import qilinuvchi tovarlar «CIF», «CIF – import belgilangan port», «CIF – import belgilangan mamlakat franko - quruqlik chegarasi» baholarida keltiriladi.

«G'OV» bahosi sotuvchi – mamlakat chegarasida vujudga keladi. Ammo, xalqaro kontraktlarni tuzishda shu narsani nazarda tutish lozimki, INKOTERMS sotish xarid qilish shartlari bazis hisoblanib, savdo – sotiq qiluvchi tomonlar uchun majburiy emas.

Tomonlar o'zlarini qoniqtirgan qoidalarni ishlab chiqishi mumkin. Bunda, G'OV abbrevaturasi, masalan AQSH savdo qonuniga ko'ra umuman INKOTERMSdan boshqa shartlarni anglatadi.

Shu sababli har bir muayyan sharoitda turli mamlakatlarda amal qiluvchi savdo qoidalari bilan yaqindan tanishib chiqish zarur, ya'ni milliy INKOTERMS bilan G'OV qiymati quyidagicha shakllanadi:

Tovarning kontrakt qiymati Q tovarni kema sathiga olib kelish bilan bog'liq barcha xarajatlar Q «Erkin sathga» ortish (eksport bojini hisobga olgan holda) G'OV qiymati tashqi sado pirovardida qayd etiladi va eksporty or o'z sherigidan olishi kerak bo'lgan qiymatni bildiradi.

CIF import qiymati import qiluvchi mamlakat chegarasida yuzaga keladi.

CIF sharoiti bo'yicha tovarlarni etkazib berishda sotish bahosiga quyidagilar kiradi:

Tovarning o'z bahosi Q tovarni belgilangan portgacha etkazib berish transport xarajatlari(fraxt) Q tovarni sug'urtalash xarajatlari

Agar fraxt va G'OV bahosini nazarda tutsak CIF bahosini quyidagicha ifodalash mumkin:

G'OV qiymati Q Fraxt Q Eksport qiluvchi chegarasidan import qiluvchi mamlakat chegarasigacha sug'urtalash.

CIF sharti bo'yicha mahsulot etkazib berishda sotuvchi transport vositalarini fraxt qilishi, fraxtni to'lashi, tovarni jo'natish portiga etkazish, o'z hisobiga transpotrga ortish, xaridorga to'lov xujjalarni topshirish (kinosament) kerak. Sotuvchi tovarni sug'urtalashi shart bo'lib, xaridorga sug'urta polisini topshirish zarur. Xaridor tovari tushirib olish, uni omborxonaga joylash va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Demak, tovari tushirishgacha bo'lgan xarajatlarni sotuvchi, tushirgandan keyingi xarajatlarni esa xaridor o'z zimmasiga olishi zarur.


Xalqaro amaliyotda G'OV va CIF baholarini aniqlashda asos qilib CAFACost (and freight), bahosi olinib, unga faqat tovarning bahosi va tashish(transport) xarajatlari kiradi. Nazariya bo'yicha xalqaro savdoni tahdid qilishda, jahon bo'yicha import va eksport qiymati teng bo'lishi kerak. Afsuski, amalda bunday bo'lmaydi. Sababi eksport G'OV baholarida, import esa CIF baholarida hisobga olinadi. Ushbu holatni xalqaro savdoni tahlil qilishda yodda tutish zarur.

AQSH statistikasida to'lov balansida eksport va import G'OV baholarida hisoblanadi.

## 7.4. Tashqi savdoni o'rganishning statistik usullari

O'zbekistonning 1991- yil 1- sentyabrdan Mustaqillikka hamda 1992- yil 2-martda BMTga a'zo bo'lishi Respublikamizni jahon ddavlatlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda yanada faolroq qatnashishiga olib keldi. O'tgan davr mobaynida Respublikamizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bir qancha islohotlar amalgalashirildi.

O'tgan yillardan mobaynida tashqi iqtisodiy kompleks bo'yicha olib borilayotgan ishlar, tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi tomonlar faoliyatini bozor iqtisodiyoti prinsiplari hamda ularni liberalizatsiyalashtirish asosida olib borildi. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy savdo munosabatlari, hamda xalqaro iqtisodiy va moliviyiv tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar yanada jadallashtirildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada liberalizatsiyalashtirish to'g'risida» «Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining xo'jalik hisobidagi tashkilotlami davlat aksionerlik kompaniyalariga aylantirish to'g'risida» farmonlari va «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida» qonuni qabul qilindi.

1997- yil 1- oktyabrdan import bojxona soliqlari kiritildi va import bojxona soliqlari tartibga keltirildi. Kvota va litsenziyalar zarur bo'lgan tovarlar ro'yxati 11-tadan 4-ta tovarga qisqartirildi.

Markaziy Bankning boshlang'ich bahosiga ko'ra 1997- yil O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasidagi valyuta vositalari 1293,7 mln. (AQSH) dollarini tashkil etdi. Valyuta tushumlari hajmining o'sishiga (taxminan 3,5 marta) barter

jarayonlarining qisqartirish va valyutani nazorat qilish usullarining takomillashuvi sabab bo'ldi. Valyuta tushumlarining asosiy qismini (51,3 foiz) eksport operatsiyalaridan tushgan mablag'lar tashkil qildi.

1997- yil natijalari chet el mamlakatlari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalar rang-barang bo'lib borayotganligini, savdo hamkorligi rejali va aniq yo'naltirilganligini ko'rsatadi.


Yuqoridagi rasmdan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi jami tashqi savdo oboroti 6392,8 mln. dollarni, ya'ni 2018- yilga nisbatan 25,3 foizga oshdi, eksport xajmi esa 3036,8 mln. dollardan 2523,1 mln. dollarga tushganligini, import ko'rsatkichlari esa 2018- yili 2576,4 mln dollar bo'lgan bulsa, 2019- yilda ushbu ko'rsatkich 3356,0 mln dollarni tashkil qildi.

## 7.5. Tovar aylanmasi dinamikasi va savdo tuzilmasini statistik o'rganish

Tashqi savdo tovarooborot strukturasini o'rganish bilan bir qatorda uning dinamikasini o'rganish ham qatta ahamiyaatga egadir. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlariga murojaat qilsak jami eksport 2019- yili 2018- yilga nisbatan 25,3 foizga oshgan. Import esa 9,3 foizga o'sgan.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi

(yanvar-fevral, min. AQSH dollarini)



Jadvaldan ko'rinish turibdiki, umumiy tovarooborot 25,3 foizga oshgan bo'lib, eksport va import mos ravishda 24,6 foiz va 9,3 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasining uzoq chet el mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqasi so'nggi ikki yil mobaynida yanada rivojlandi. Buni quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda ko'rish mumkin.

2 – jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasi tovarooboroti 2019- yili 2018- yilga nisbatan ulushlarini oshganligini ko'rishimiz mumkin

## Tovarlar-xizmatlar tashqi savdosi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish

1. Tovarlar tashqi savdosi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash hamda ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan bojxona deklaratsiyalarini ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega bo'lgan 20 davlat**

(2019 yil yanavr fevral)

(mln AQSH dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanniysi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish surʼati, %
Xitoy	1176,0	537,6	838,4	18,4	153,6
Rossiya	943,3	345,7	597,6	11,8	101,7
Qozog'iston	485,0	160,5	324,8	7,6	133,1
Koreya Respublikasi	401,0	14,2	466,8	7,0	2,5 b
Turkiya	330,4	151,2	179,2	5,2	146,0
Belarus	84,3	5,5	78,8	1,3	104,6
Germanya	63,7	5,8	77,9	1,3	98,9
Turkmaniston	72,6	9,9	62,7	1,1	2,8 b
Litva	59,7	4,1	65,6	1,1	189,3
Afg'oniston	68,2	67,9	0,3	1,1	59,7

2. Bojxona deklaratsiyasida va bojxona statistikasi tomonidan hisobga olinmaydigan, egalik huquqi rezidentdan norezidentga o'tgan yoki aksincha bo'lgan tovarlar eksport-importi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash Davlat statistika qo'mitasi tomonidan maxsus statistik kuzatuvlar tarmog'i orqali amalga oshiriladi.


3. Xizmatlar eksport-importini hisobga olish Davlat statistika qo'mitasi tomonidan davlat statistika hisoboti va maxsus kuzatuvlar asosida amalga oshiriladi.

4. Turizm xizmatlari eksporti va importi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar kirishga va chiqishga oid turizm bo'yicha turistlarning xarajatlari kuzatuvi natijalarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi hududida norezidentlarning o'zolarining doimiy muassasalari orqali amalga oshiradigan, tugallanishi uchun bir yildan oshiq vaqt talab qiladigan qurilish, foydali qazilmalarni izlash va qidiruv sohalaridagi xizmatlar hajmi xizmatlar importida aks etmaydi va ular ichki ishlab chiqarish sifatida qaraladi.

### Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, %

(yanvar-fevral)




5. Davlat bojxona qo'mitasi hisobot davridan keyingi har oyning 7-sanasigacha tezkor, 15-sanasida esa O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo bojxona statistikasining me'yoriy hujjatlarini hisobga olgan holda, tovarlar tashqi savdosi ma'lumotlari bazasi bo'yicha aniqlashtirilgan ma'lumotlarni (Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasining 10 ta belgisi bo'yicha) jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni ajratgan holda Davlat statistika qo'mitasiga taqdim etadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar o'sib borish tartibida shakllantiriladi.

Respublikamiz tashqi savdosining yanada ham oshirishga (asosan eksport imkoniyatiga) ko'p jihatdan qo'shma korxonalar faoliyati katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, qo'shma korxonalarning ortishi natijasida mamlakatimizga chet el sarmoyalari va ilg'or texnologiyalar kirib keladi.

#### Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa

xoniy davlatlarning hajmlari dinamikasi

(yanvar-fevral, min A\$51 dollar)




Respublika korxonalarida chet el mahsulotlari bilan raqobat qila oladigan, sifati ham Yuqori, ham arzon mahsulotlar ishlab chiqarish imkonii paydo bo'ladi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muvaffaqiyatlarga erishgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi bu yutuqlarga iqtisodiyotni erkinlashtirish tufayli erishilganini ko'rsatmoqda. Osiyoning Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan singari yangi industrial mamlakatlari eksportni rivoj-lantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishga yo'naltirilgan taraqqiyot strategiyasiga amal qilib, keyingi 30 yil ichida sezilarli iqtisodiy yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

#### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi

(mln AQSH, do'an)



Jadvaldan ko'rinish turibdiki, Respublikamiz MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo eksporti 2019-yil 2018-yilga nisbatan 12,8 mln.ga, shu jumladan mashinalar va uskunalar bo'yicha 12,8 mln.ga, energiya resurslari bo'yicha 20,3 mln.ga, oziq-ovqat bo'yicha 24,6 mln.ga, paxta tolasi 27,6 mln.ga oshibdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham jamiyat hayotining barcha sohalari, shu jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti bitta gapni qayta-qayta ta'kidlaydi: «Men oddiy bir haqiqatni barcha tushunib olishini istayman: erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — bu bizning olg'a intilishimizning kafolati va asosi, u nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir».

Istiqlol sharoitida O'zbekiston mustaqil tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshira boshladi. Mustaqil xalqaro statistika faoliyatini yuritish uchun tegishli tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi, Davlat Statistika qo'mitasida xalqaro statistika bo'limi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki ochildi. Bundan tashkari, tashqi iqtisodiy faoliyat uchun huquqiy asos yaratish maqsadida «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» va «Chet el investitsiyalari to'g'risida» Qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

tashqi iqtisodiy aloqlar sohasidagi faoliyatni tartibga solishga yo'naltirilgan bir qator farmonlari qabul qilindi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari chiqarildi.

Mamlakatimizda xalqaro statistikani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan bu choralar dunyoda iqtisodiyotning globallashuvni va yagona jahon iqtisodini yaratish jarayonlari kechayotganini hisobga olib amalga oshi-rilmoxda. O'zbekiston Umumjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni istar ekan, o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirishi va jahon iqtisodining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Ko'p mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda kuchli proteksionizm va import o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichidan o'tadilar, keyin esa asta-sekin eksportga yo'nalish tomonga siljiydlar. Qo'pincha import o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy mustaqillikka erishishning usuli bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiy o'sishning Yuqori va barqaror sur'atlari erishishni istar ekan, asta-sekin eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatga o'tish muqarrardir. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan strategiyami shakllantirish uchun obdon tayyorligi ko'rish kerakligini ta'kidlash lozim. Bozor tamoyillari bo'sh rivojlangan iqtisodiy otlarda proteksionizmnii bartaraf qilish resurslarning eksportga yo'naltirilishiga emas, ulardan to'la foydalanmaslikka olib keladi. Tuzilmani muvaffaqiyatli tartibga solish uchun investitsiyalar jalb qilinadi, biroq tadbirdorlar, shu jumladan, kichik va o'rta biznes, statistik ko'rsatkichlar zarur yo'nalishda siljish mumkinligidan dalolat bermaguncha, o'zlarini xohlagan sektorga ham mablag' yotqizishlari amri mahol.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, eksportga yunaltirilganlik mamlakat iqtisodini tashqi bozorga haddan tashqari bog'liq qilib qo'yadi. Bu fikr muayyan asosga ega: tashqi bozorda kon'yunkturaning pasayishi yoki raqobatning kuchayishi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning pasayishi byudjetdagi yo'qolishlarga, to'lov balansidagi beqarorlikka olib keladi. Shu bilan birga, zararning hajmi iqtisodiyotning qudratini va diversifikatsiyalanishiga, shuningdek, hukumatning hamda ishbilarmon doiralarning qat'iy va to'g'ri qarorlar qabul qilishi ishlab chiqarishni zamонавиylashtirish maqsadida zarur o'zgarishlarni tezlikda amalga oshirishi yoki tashqi savdodagi ustuvorliklarni tez almashtira olishiga bog'liq.

Bu esa eksportga yo'naltirish va umuman, tashqi savdoga strategik yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

An'anaviy savdo nazariyasiga ko'ra, xalqaro savdoda milliy ustunlik qiyosiy xarajatlar bilan belgilanadi, masalan, Rikardo-Torrens-Mill nazariyasiga ko'ra, tashqi savdo asosida mamlakatlarda mavjud mehnat unumdarligi o'rtasidagi tafovut yotadi. Tovarni sheriklariga nisbatan ko'proq xarajat bilan ishlab chiqarayotgan mamlakat eksport sohasidagi ixtisoslashuvni shunday tovar ishlab chiqarishdan boshlashi kerakki, bunda kam xarajat va Yuqori mehnat unumdarligiga erishish mumkin bo'lsin. Bu mamlakatning importi esa ko'p xarajat talab qiladigan tovarlardan bosh-lanishi kerak. Yana bir an'anaviy Xeksher-Olin nomi bilan ataladigan qiyosiy afzalliklar modeliga ko'ra, mamlakatning tashqi savdo sohasidagi ixtisoslashuvni undagi ishchi kuchi va kapital singari ishlab chiqarish omillarining oz yoki ko'pligiga bog'liq.

Masalan, mehnat resurslariga boy mamlakat (kapitalga nisbatan) chetga ko'proq mehnat talab qiladigan, ko'proq kapitalga (mehnat resurslariga nisbatan) ega bo'lgan mamlakat, aksincha, ixtisoslashuvni ko'p kapital talab qiladigan tovarlar ishlab chiqarishdan boshlaydi.

So'nggi o'n yilliklarda xalqaro savdoda transmilliy korporatsiyalar (TMK)ning roli keskin o'sdi. Bunday korporatsiyalar 5 mingga yaqin bo'lib, ularning 250 mingdan ortiq xorijiy filiallari mavjud. Bunday holatning vujudga kelishi xalqaro savdo to'g'risida yangi nazariya yaratish zaruratini tug'dirdi. Yangi yondashuvning mohiyati xalqaro savdoda ishtirok etuvchi iqtisodiy birlik millat emas, tijorat korxonasi ekaniga e'tiborni qaratishdadir. Tashqi savdoning yangi konsepsiyasini yaratishga amerikalik iqtisodchi M. Porter katta hissa qo'shdi. U mamlakatning qator mamlakatlar ma'lumotlarini tadqiq etish asosida xalqaro raqobatga layoqatliligi, avvalo, uning yetakchi firmalari raqobatdag'i majmui bilan belgilanishi to'g'risida qat'iy xulosa chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, ichki bozorming hajmi va ehtiyojlari, ishlab chiqarish va umumiqtisodiy infratuzilmaning darajasi va samaradorligi, raqobat muhitining rivojlanishi, firmalarning sharoitga moslashishi va qiyinchiliklarni yenga olishi kabi omillar ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan, eksport salohiyatini tez rivojlantirishga intilayotgan mamlakat erkin bozor stixiyasiga umid qilib o'tira olmaydi. Bunday sharoitda davlat taraqqiyotni himoyalovchi garant vazifasini bajarishi kerak. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash konsegaxiyalariga ko'ra, ishlab chiqarishning muayyan yo'nalishlarida davlat yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni tadqiq qilish va sanoat tomonidan o'zlashtirilishni qo'llab-quvvatlashi lozim. Chunki bunday holatlarda tavakkalchilik darajasi Yuqori bo'lib, ko'pincha yangi texnologiya va yangi bozorlarni o'zlashtirish uchun moliyaviy xarajatlar juda katta bo'ladi.

Bozor murvatlarining «ishlamay qolishi» yoki «buzilib qolishi» quyidagi holatlarda tashqi savdoga davlatning aralashuvi uchun asos bo'ladi: a) ishlab chiqarish ko'lamida katta tafovutlar tug'dirishga sabab bo'luvchi hozirgi jahon bozorining oligopolistik yoki takomilga etmagan mohiyati; b) davlat manfaatlari va xususiy manfaatlardan o'rtaida katta tafovut vujudga kelishi; v) bozorming ko'ngildagi tuzilmaviy o'zgarishlar keltirib chiqarish va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga noqobil bo'lishi; g) tashqi savdo uchun ishlab chiqarish, institutsional va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarurati tug'ilganda. Bu sabablarni batafsilroq tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

Jahon bozorlari, ko'pincha, erkin emas, oligopolistik xususiyatga ega. Bunday bozorlarda yangi ishtirokchi rivojlangan mamlakatlarning katta va kuchli ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat qila olmaydi. Bunday hol savdoda ishtirok etayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishi ko'lamidagi; texnologiya sohasidagi ilg'orlar va qololoqlar o'rtaida o'sib boruvchi farqni shakllantiradigan ilmiy-teknik infratuzilmadagi; ishlab chiqarishni ko'llab-quvvatlovchi hamda unga turdosh tizimlar va h.k.dagi tafovutlar sababli vujudga keladi. Bunday vaziyatda o'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatning hukumati o'z ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashi o'rindadir. Lekin rivojlanib kelayotgan mamlakat sanoatida kichik ichki bozor uchun haddan ziyod ko'p ishlab chiqaruvchilar

paydo bo'lsa, bu butun ishlab chiqarish miqyosida iqtisod qilish imkoniyatini va raqobatchi yirik xorijiy firmalar bilan narx-navoda raqobat qilishi imkonini bermaydi. Shunday vaziyatda, muayyan muddat ichida hukumat tomonidan sanoatning shu sohasiga yangi firmalar kirib kelishining cheklab ko'yilishi o'rinnlidir.

Ishlab chiqarish miqyosida iqtisod qilish bir necha turlardan iborat: 1. Firma ichida statik texnologiya miqyosida iqtisod qilish. 2. Ishlab chiqarish miqyosida tashqi statik iqtisod qilish. 3. Firma sektor yoki makroiqtisodiy darajadagi miqyosda dinamik iqtisod qilish.

Bir turdag'i tovarlar ishlab chiqarish ko'lamida iqtisod qilishning birinchi turi mahsulot birligi ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishni miqdorini ko'paytirish bilan bog'liq. Iqtisod qilishning ikkinchi turi ishlab chiqarishning turdosh sohalari o'rtasida o'zaro to'ldiruvchanlik, firma va sektorlar o'rtasida texnologiya va axborot almashuvi samaralari bilan bog'liq. Bunda iqtisod qilish ishlab chiqarishning tarkibi va aloqalari bilan yoki turli firmalarning hamkorlikdagi marketinga tufayli ham yuz berishi mumkin. Girshman ko'rsatishicha, miqyos bilan bog'liq iqtisod qilishning bunday turi oqibatida iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida iqtisodiyot sektorlari darajasida taraqqiyotning turli bosqichlari bilan bog'liq nomutanosibliklar kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun ham «o'zini o'zi rag'batlantiruvchi», ya'ni rivojlanishning oldingi bosqichlarda vujudga kelgan nomutanosibliklarni avtomatik tarzda korreksiya qilib, yangi investitsion qarorlarni shakllantiradigan siyosatni tanlash juda zarur. Miqyosida sezilarli tashqi iqtisod qilishning mavjudligidan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, tashqi savdoni erkinlashtirishning dastlabki bosqichidagi salbiy oqibatlar kengayishi ishlab chiqarishning. Hattoki, uzoq muddatli qiyosiy afzallikkarga ega bo'lgan sektorlarida ham keskin pasayishlarga olib kelishi mumkin. Bu hol faqatgina savdoni erkinlashtirish tufayli emas, balki milliy valyuta kursini oshirib borish yoki haddan tashqari qat'iy monetar siyosat yuritganda ham vujudga kelishi mumkin. Miqyosda iqtisod qilishning uchinchiligi turi bilimlarning to'planishi yoki ishlab chiqarish jarayonidagi ta'lim tufayli «inson kapitali»ning o'sishi bilan bog'liq. Bu esa Vernoy qonuni (keyinchalik adabiyotda esa Kaldor konuni)da baza effekta deyiladi va ishlab chiqarish hajmlari o'sishi bilan birga ishlab chiqarish unumdarligida ham o'sish tamoyili borligini ko'rsatadi, ya'ni bu yerda ikki o'zgaruvchan hodisa o'rtasida bir tomonlama emas, ikki tomonlama aloqadorlik mavjudligi ifodalanadi.

Ishlab chiqarish miqyosida iqtisod qilish mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasi zarurligini asoslashda eng muhim omil hisoblanadi. Agar milliy firma ishlab chiqarish o'sishiga bog'liq tarzda investitsiyalardan o'sib borayotgan samara olsa va ichki bozorda xorijiy raqobatdan himoyalangan bo'lsa, bu firmaning xorijiy bozorlarda ham eksportni kengaytirish yo'li bilan kattaroq fonda olish ehtimoli ko'pdir. Katta xajmli bunday ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun ichki bozorni jiddiy himoyalash ehtiyoji tug'iladi. Agar hukumat ichki bozorni tariflar, kvotalar yordamida himoya qilsa, milliy firmalar o'z mahsulotlarini ko'paytirishlari mumkin. Bunday firmalarning o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi va shuning uchun ular tashqi bozorda mahsulotlarga pastroq narx belgilashlari mumkin. Shu sababli milliy firmalarni davlat tomonidan ichki bozorda

himoya qilish ularga faqat mamlakat ichkarisida emas, xorijiy bozorlarda ham fonda keltiradi.

Shunday qilib, jahon bozorida tegishli o'rinni egallash uchun mamlakatdagi korxonalarning davlat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlanishi va marketing hamda ishlab chiqarish miyosida sezilarli iqtisod qilishni ta'minlash haqidagi ma'umotlarni statistik ko'satkichlarini to'plash zarur. Bunday hollarda eksportga ko'maklashish siyosati neytral bo'lmaydi. Hattoki, raqobat kuchli bo'lgan korxonalar ko'p sektorlarda ham infratuzilmaga davlat investitsiyalari yoki miyosda iqtisod qilish effektiga bo'yundirilgan turdosh korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi bo'lishi kerak. O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar eksportining asosiy qismini qishloq xo'jalik xomashyosi, yoqilg'i, mineral xomashyo singari narxi ularning tabiiy sifatlari, ishlab chiqarish, transport xarajatlari bilan belgilanadigan tovarlar ekanini nazzarda tutsak, ularning raqobatbardoshligi negizini ishlab chiqarish xarajatlari tashkil qilishini ko'ramiz. Chunki bunday birlamchi tovarlarning tabiiy xususiyatlari va sifati o'xshash. Demak, ularning negizida votuvchi ishchi kuchining qiymati va ko'p jihatdan ishlab chiqarishning texnik ta'minlanganligiga bog'liq bo'lgan mehnat unumдорлиги darajasi bir-biriga yaqin. Bunday holda ishlab chiqarish miyosida iqtisod qilish effekti ham sezilarli bo'lib, u eksportning raqobatbardoshligiga katta hissa qo'shami, demak, u davlat taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

Eksport salohiyatini rivojlanirishga strategik yondashuvni amalga oshirishda bozor murvatlariga, ayniqsa, Umumjahon savdo tashkiloti yangi qoidalari munosabati bilan tashqi savdoga davlatning kuchli aralashuvni maqbul yoki maqbul emasligi to'g'risidagi savol tabiiy ravishda ko'ndalang bo'ladi. Savdodagi sheriklarning davlat aralashuviga qarshi choralar, davlat boshqaruvida xatolarga yo'l qo'yilishi mumkinligi ham shunga ishora qiladi. Shu munosabat bilan Sharqiy Osie mamlakatlari taraqqiyotiga murojaat qilish o'rnlidir.

**YUNKTAD** Kotibiyatining ma'ruzasida qayd etilganidek, Sharqiy Osioy mamlakatlari savdo va investatsiyalarni erkinlashtirishga selektiv strategik yondashuv global iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatlarga kalit bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda bu mamlakatlarning iqtisodiyoti jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Umumjahon savdo tashkiloti doirasida savdo qilishning yangi tartibi tashqi savdoni boshqarish bo'yicha ba'zi choralarни qo'llash imkoniyatini cheklab qo'ydi. Shunga qaramasdan, agar turli «ruxsat berilgan» subsidiyalardan, «to'lov balansi» haqidagi xalqaro savdo qonunlarining savdo bilan bevosita bog'liq bo'lмаган bandlaridan oqilona foydalansila va xalqaro savdo qoidalari ijodiy talqin qilinsa, ma-nevr qilish uchun sezilarli imkoniyatlar tug'iladi.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan singari mamlakatlari o'z bozorlarini himoya qilish uchun juda baland tariflar va qat'iy kvotalar o'matmadilar. Ammo ko'plab «norasmiy» choralar qo'llandi. Bu mamlakatlarda davlat chet ellikkalar uchun murakkab bo'lgan savdo tizimini ko'plab cheklovchi qoidalari, andozalar, sifat tavsiyalari va hokazolar xorijiy raqobatchilarning mamlakat ichkarisidagi bozorlarga kira olmasliklarini ta'minlash uchun «g'amxo'rlik» qildi. Bu mamlakatlarda ko'pchilik kompaniyalar davlatdan yoki davlat yordamida imtiyozli kredit oldilar, kreditlar

berishda «norasmiy» tarzda firmalar chet el tovarlarini imkon boricha sotib olmasliklari ko'zda tutildi. Ular importni qiyinlashtirish uchun banklar bilan turli kelishuvlar, ruxsatnomalar va shunga o'xshash boshka «norasmiy» chekllovlardan foydalandilar. Aholi o'rtaida ham, jumladan, ommaviy axborot vositalari yordamida chet elda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib olmaslik to'g'risida keng targ'ibot ishlari olib borildi.

Shunday qilib, hozirgi zamон nazariyalarи va jahon tajribasi davlatning iqtisodiy rivojlanish va eksportga yo'naltinilganlikni ta'minlashda ko'п funksiyali va muhim rol o'yashini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishda hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasi va eksportga yo'naltirilgan taraqkiyotni tartibga solishda jahon tajribasidan keng foydalanish lozim.

### **Qisqacha xulosalar**

Tashqi savdoni o'rganishda statistik usullardan keng va o'rni foydaliladi. Bu ayniqsa tashqi savdo dinamikasini va tuzilmasini tahsil qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yerda statistik jadvallardan, grafiklardan unumli foydalilanigan.

Tashqi savdoda eng asosiy masala bu baholarning shakllanishi hisobiga o'tadi. Ularning kategoriyalari ham muhim o'rinn tutadi.

To'lov balansining ahamiyati ham kattadir. Tashqi savdo eksporti va importi kunlari ham iqtisodiy tahlilda alohida o'rin egallaydi

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tashqi savdoni o'rganishning statistik metodlari.
  2. Tashqi savdo dinarukasini o'rganish.
  3. Tashqi savdo tuzilmasini o'rganish.
  4. Baholarni bir asosga keltirish.
  5. Tovarooborot fizik hajmi indeksi.
  6. Tashqi savdoda qo'llaniladigan baholar.
  7. Tashqi savdo baholarining shakllanish xususiyatlari.
  8. To'lov balansi haqida nima bilasizq
  9. Tashqi savdoda eksport va import kunlari.
  10. Tashqi savdoning geografik tuzilmasi.
  11. O'zbekiston eksport siyosatining asosiy maqsad va vazifalarini sanab o'ting.
    3. Eksportga yo'naltirilgan va import o'rmini bosishga qaratilgan davlat siyosatining mohiyati va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday q
    4. Nima uchun eksport salohiyatini kengaytirish masalasi O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'naliishlari katoriga kiritilganq
    5. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni yaratishning nazariy asoslariga tavsif bering.
    6. Jahon amaliyotida eksportni davlat tomonvdan rag'batlanirishning qanday usullarini bilasizq O'zbekistonda eksportni rivojlantirish siyosatiga baho bering.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Zoloev V.T. Statistika vneshey torgovli. M., Finansy i statistika. 2011g.
3. V.G.Minashkin, O.L.Kozarezova. Osnovы teorii statistiki. – M., 2014 g.
4. E.V.Petrova i dr. Praktikum po statistike transporta. Ucheb. posobie. – M., 2012 g.
5. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
6. europa.eu.int
7. europa.eu.intG'commG'relaysG'index\_en.htm
8. www.euireland.ie
9. www.cec.org.uk
10. www.eurunion.org
11. www.europarl.ie

## **VIII BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA «TASHQI DUNYO» SEKTORI**

### **8.1. «Tashqi dunyo» sektori tushunchasi, vazifasi va asosiy hisoblari**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng, birinchi navbatdagi asosiy vazifalaridan biri o‘z iqtisodiyotini ma‘muriy boshqarishdan bozor munosabatlariiga asoslangan boshqarishga o‘tkazishdan iborat bo‘lib qoldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish obyektiv zaruriyat sifatida davr taqozosi bo‘lib qoldi. Faqat bozor munosabatlariagina mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlari zaminidagi ulkan imkoniyatlardan biri xalq baxt-saodati yo‘lida, uning turmush darajasini oshirish maqsadida samarali foydalanishni ta‘minlashi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mamlakat iqtisodiyotidagi nufuzini e‘tiborga olsak, uning statistikasini va hisobotini xalqaro talablar asosida tashkil qilish qanchalik dolzarb masalalardan biri ekanligini xis qilish qiyinmas. Mamlakat miqyosida Xalqaro statistikasini va hisobotini yuritish, xalqaro andozalar talabiga ko‘ra, MHT metodologiyasi va konsepsiya qoidalariga asosan amalga oshirilishi talab etiladi.

MHT schyotlari majmuasi yagona yopiq tizimni tashkil qiladi. Yopiqlikni ta‘minlash maqsadida milliy va tashqi iqtisodiyot tushunchalarini kiritilgan. Rezident birliliklari birgalikda yagona birlikni, ya‘ni milliy iqtisodiyotni tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyot 5 ta sektorga ajratilgan. Mamlakat rezident birliliklarining tashqi iqtisodiy faoliyatlarida ishtirok etuvchi norezidentlar birgalikda yagona birlik sifatida tashqi dunyo sektori sifatida qaraladi.

Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlari o‘rtasida bo‘ladigan iqtisodiy operatsiyalar milliy iqtisodiyot sektorlari va (yoki) tashqi dunyo sektori schyotlarida qayd etiladi. Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo o‘rtasida bo‘ladigan barcha operatsiyalar milliy iqtisodiyot sektorlari schyotlarida har doim ham yaqqol holda namoyon bo‘lavermaydi. Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi operatsiyalarini tashqi dunyo sektori schyotlarida yaqqol holda qayd etiladi, ichki iqtisodiyot sektori schyotlarida esa, bu operatsiyalar yaqqol holda qayd etilmaydi. Masalan, odatda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati Y AIM tarkibida hisobga olingan bo‘ladi. Import qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati esa oraliq yoki yakuniy iste’mol tarkibida hisobga olingan bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo o‘rtasidagi investitsiyalar kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan (mulk uchun daromadlar) va daromadlar ayirboshlash operatsiyalarini (ishchi kuchi eksporti va importidan olingan va berilgan daromadlar) milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlari schyotlarida yaqqol holda qayd etiladi.

Tashqi dunyo va ichki iqtisodiyot sektorlari o‘rtasidagi operatsiyalar rezident va norezident birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, tashqi iqtisodiy operatsiyalarini hisobga olishda institusion birliklarni rezident yoki norezident birlik ekanligini ajrata bilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Rezident va norezident o‘rtasidagi operatsiyalar turli xil valyuta birliklarida amalga oshirilgan bo‘ladi. Ularni yagona mezonga (yagona valyuta birligiga) keltirish uchun odatda mamlakatda amalda bo‘lgan milliy valyuta birligidan foydalaniлади.

Buning uchun, har bir operatsiya qiymati sodir bo'lgan vaqtdagi mavjud ayriboshlash kurslari orqali milliy valyutaga o'tkaziladi. Agarda operatsiyalar horijiy valyutada ma'lum davr uchun guruhlangan holda hisobga olingan bo'lsa, operatsiya qiymati milliy valyutaga shu davrdagi o'rtacha valyuta ayriboshlash kurslari orqali o'tkaziladi. Bundan tashqari, har bir operatsiya haqiqatda sodir bo'lgan davrida amalda bo'lgan bozor baholaridagi qiymatida baholanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tkazishda davlat statistikasi organlarining roli kattadir.

Bozor munosabatlari sharoitida statistika sohasidagi yangi muammolarini hal etish, uning nazarii asosini qaytadan ko'rib chiqishni, mavjud statistika amaliyotida keskin o'zgartirishlar bo'lishini taqozo etadi.

Shu maqsadda makroiqtisodiy statistik rivojlanishning asosiy yo'nalishlarida tub o'zgarishlar hosil qilish uchun xalq xo'jaligi Balansini (XXB) saqlab qolgan holda, mahalliy sharoitlariga moslashgan milliy hisoblar tizimini (MHT) xalqaro standartini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur bo'ladi.

Milliy hisoblash tizimida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha jarayonlari ikki yoqlama operatsiyalar to'plami sifatida talqin etiladi va bu operatsiyalar tomonlarning hisoblarida qiymat ko'rinishida daromad yoki xarajat sifatida ko'rsatiladi.

MHT – avvalombor makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining har tomonlama rivojlanishi natijasida yuzaga keldi.

1934- yili yetakchi iqtisodchi olim S.Kuznets mamlakat bo'yicha 1929-1934-yillar uchun milliy daromad hajmini hisoblagan. 1929-1933- yillarda g'arb davlatlari uchun o'z bashidan juda ham murakkab bo'lgan iqtisodiy inqiroz davrini kechirdilar va ularni iqtisodchilari kapitalistik jamiyat rivojlanishining «ayrim nazariyalari»ni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. Kapitalistik mamlakatlarda balans tizulmalarining zarurligi obyektiv omillar va eng avvalo davlat-monopolistik kapitalizmni rivojlanishi hamda kapitalistik davlatlar iqtisodiyotini tartibga solishning amaliy ehtiyoji bilan vujudga keldi. Ikkinci jahon urushi tugagandan so'ng kapitalistik mamlakatlar davlatni boshqarish tizimida MHTning qo'llanishning zarurligini yanada chuqurroq tushinib etdilar.

1951- yilda Parijda Yevropa Iqtisodiy hamjamiyatining milliy hisoblar bo'yicha konferensiysi bo'lib, unda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun MHTning standarti loyihasi qabul qilindi. Bu loyiha R.Stoun rahbarligidagi bir guruh iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqildi.

1952- yilda bir guruh iqtisodchi-statistiklar BMTning Statistika byurosi topshirig'iga binoan «Milliy hisoblar va o'tish jadvallari» deb nomlangan metodologiyani tayyorladilar. Bunda Angliya va AQSH ning milliy hisoblar bo'yicha asosiy ishlari asos qilib olindi.

1968- yili BMTning Statistika komissiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan halda uning a'zolari tomonidan «YAshil Kitob» nomini olgan yana bir yangi standart ishlab chiqildi. 1968- yilda tadbiq etilgan MHT 25 yil mobaynida 1993- yilning fevraliga qadar xizmat qildi.

1993- yil fevral oyida BMTning Nyu-Yorkdagi statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida MHTning yangi standarti qabul qilindi.

Ushbu yangi standartda hamda MHTning eski 1968-yildagi standartining asosiy yutuqlaridan foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Bunda eng asosiy xususiyatlaridan biri makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlaridan keng ko'lamda foydalanishdan iboratdir.

Tashqi dunyo sektori schyotlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan schyotlardan iborat bo'lib, ularda rezident va norezident institusion birliklar o'rtasida bo'layotgan iqtisodiy operatsiyalar qayd etiladi. Schyotdagi yozuvlar MHTda (va xalqaro amaliyotda) qabul qilingan va har bir mamlakatning axborotga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalda bo'lgan tasniflar bo'yicha guruholangan holda yozib qo'yiladi.

Hozirgi vaqtida xalqaro amaliyotda bo'lgan asosiy tasniflar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar va xizmatlar ro'yxati;
- investitsiyalar tarkibi (to'g'ri va portfel' investitsiyalar, kreditlar turlari);
- iqtisodiy operatsiyalar (tovar va xizmatlar ayrboshlash, moliya va taqsimot operatsiyalari va h.k.);
- mamlakatlар va ularning guruhlari (mustaqil hamdo'stlik davlatlari (MHD), Yevropa ittifoqi (EI) mamlakatlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlari, Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlari va h.k.)

Yuqorida keltirilgan va boshqa xalqaro amaliyotda bo'lgan tasniflar va talablar qatori har bir mamlakat axborotga bo'lgan o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tasnif va guruholashlardan foydalanishi mumkin. Bunga misol tariqasida O'zbekistonda amalda bo'lgan korxonalarining ma'muriy va hududiy tasnifini, chet el mamlakatlarini guruholash (uzoq va yaqin xorijiy, MDH va h.k.) amaliyotini keltirish mumkin.

Yangi MHT xalqaro iqtisodiy hamkorlikda muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni xalqaro taqqoslashni yanada yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

MHTda iqtisodiyot sektorlari orasidagi munosabatlarni o'iganish maqsadida asosiy hisoblardan keng foydalaniladi.

Bu hisoblar ikki guruhga ajratiladi:

1. Mamlakat ichki iqtisodiyotini ta'riflovchi ichki iqtisodiy hisoblar. Ichki iqtisodiy hisoblarga quyidagi hisoblarni kiritamiz:

- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hisobi;
- ishlab chiqarish hisobi;
- daromadlarni tashkil topish hisobi;
- daromadlarni ayrboshlash hisobi;
- daromadlardan foydalanish hisobi;
- kapital xarajatlar hisobi.

2. Mamlakatni boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda tashqi iqtisodiy aloqalar (tashqi dunyo) hisobidan foydalaniladi.

Bu hisob qo'yidagi 3 hisobda ifodalananadi:

- ◆ joriy operatsiyalar hisobi;
- ◆ kapital xarajatlar hisobi;
- ◆ moliya hisobi.

**MHTda tashqi dunyo sektori schyotlari tarkibi.** MHT schyotlari tuzilishiga ko'ra mantiqan yopiq yagona tizimni tashkil qiladi. Tizimdag'i yopiqlik tashqi dunyo schyotlari orqali ta'munlanadi. Tashqi dunyo schyotlarida milliy iqtisodiyot yagona birlik sifatida ifodalananadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida nafaqaqt milliy iqtisodiyot (rezident birliklar) balki tashqi dunyo sektori (norezident birliklar) aktivlarida va passivlarida ham mos o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar tashqi dunyo schyotlarida qayd etiladi.

Tashqi dunyo schyotlari orqali milliy iqtisodiyot aktivlarining va passivlarining hisobot davrida qanchaga ko'payganligini yoki kamayganligini bilish mumkin.

Tashqi dunyo sektori bo'yicha tovarlar va xizmatlar, birlamchi daromadlar taqsimoti, joriy transfertlar taqsimoti, kapital operatsiyalar va moliya schyotlari tuziladi. Bu schyotlar bir-biri bilan mantiqan bog'liq bo'lib, yagona bir zanjirni hosil qiladi.

MHT tashqi dunyo schyotlari yozilish shakli T ko'rinishida bo'lib, ikki qismdan iborat. Har bir schyotning o'ng qismida tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida resurs sifatida kirib kelgan aktivlar miqdori qayd etiladi. Schyotning chap tomonida esa mavjud resurslarning nimaga ishlatalganligini ifoda etuvchi operatsiyalar natijalari qayd etiladi.

Shuni aytish joizki, tashqi dunyo barcha schyotlari norezident nuqtai nazaridan tuziladi. Bunga ko'ra, schyotning resursida norezidentlarning resurs sifatida olgan aktivlari yoziladi. Resurs ko'rsatkichlari mos ravishda rezident mamlakat uchun ishlatalishi bo'ladi yoki aksincha. Schyotning musbat sal'dosi tashqi dunyo uchun ijobji, rezident mamlakat uchun salbiy bo'ladi. Va aksincha, sal'do manfiy bo'lsa rezident mamlakat uchun ijobji, tashqi dunyo uchun salbiy holat hisoblanadi.

«Tashqi dunyo» sektori – shu chegarada chet el iqtisodiy birliklari (uy xo'jaligi, birlashmalar, korxonalar)ni qamrab oladi va shu chegarada mamlakat rezidentlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar (transport va sug'urtalash sohasi xizmatlari, ya'ni import tovarlar bilan bo'ladigan operatsiyalar, turli xil sektorlarga tegishli bo'lgan chet el aktivlari bilan rezidentlar o'rtasida bajariladigan operatsiyalar, turli xil mintaqalarga tegishli bo'lgan davlat majburiyatları bilan rezidentlar o'rtasida bajariladigan operatsiyalar, kapital qo'yilmalar, joriy operatsiyalar, moliyaviy operatsiyalarni tasvirlaydi).

#### **Bu sektorning asosan uchta hisobi:**

- 1) Joriy operatsiyalar
- 2) Kapital xarajatlar
- 3) Moliyaviy hisoblar bo'lib, bular yordamida milliy iqtisodiyot bilan «Tashqi dunyo» o'rtasidagi munosabatlarni umumlashgan holda ko'rish mumkin.

## 8.2. Joriy operatsiyalar hisobi

Joriy operatsiyalar hisobi O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlarni tovar va xizmatlar oldi-sotdisida bo'ladigan o'zaro daromadlar harakati aloqalarini tasvirlaydi, bunda xalqaro amaliyotda qabul qilingan shartnomalarning bajarilishi, to'lovlar va taqdim qilingan yoki tovarsiz ta'minlash vositasida jalb etilgan ko'chirish foizlarini, dividentlarni va boshqa investitsiyadagi daromadlarni, nafaqalarni, mehnat haqini, aliment va boshqa shunga o'xshash operatsiyalarini qo'shgan holda kechiktirmasdan shartnomaga asosida hisoblashlar o'tkazishni ifodalaydi. Bu berilgan hisoblarda ham TMA learning barcha qolgan hisoblari kabi «Tashqi dunyo» yoki boshqa davlatlarning resurs va foydalanishlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

«Joriy operatsiyalar hisobi» resurslar hamda foydalanishi qismidan iborat bo'ladi.

Resurslar qismida – barcha turdag'i quyidagi operatsiyalar ko'rsatiladi: boshqa davlatlar bilan qilingan tovar va xizmatlar importidan olingan joriy daromadlar natijalari; rezident uy-xo'jaliklarning «Tashqi dunyo»dagi priovard iste'moli, rezident yollovchilar tomonidan norezident ishchilarining mehnatiga haq to'lashlar; ishlab-chiqarish va import bilan bog'dliq soliqlar; mulkchilikdan kelgan daromadlar; tadbirkorlik faoliyati daromadi va joriy transfertlar; bundan tashqari «Tashqi dunyo» bilan qilingan joriy operatsiyalar hisobining kirim-chiqim moddasining qoldig'i tasvirlanadi.

Foydalanish qismida esa – boshqa davlatlarning tovar va xizmatlarning eksporti natijasida olingan joriy daromadlarni O'zbekiston Respublikasiga topshirilgan qismi; norezident uy-xo'jaliklarning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidagi pirovardd iste'moli; norezident yollovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezident ishchilarining mehnatiga haq to'lashlar; boshqa davlat rezident xo'jalik birliklari tomonidan tushgan, mulkchilikdan kelgan daromadlar; tadbirkorlikdan kelgan daromadlar, hamda joriy transfertlar tasvirlanadi.

1 – jadval. «Tashqi dunyo» joriy operatsiyalarining hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobi (JOX) statistik ko'rsatkichlar yordamida umumlashtirilib quyidagi:

tovarlar;

xizmatlar;

daromadlar;

transfert operatsiyalari o'tkaziladi.

«Ko'zga ko'rinali» tovarlar – bu tovarlarni chetdan olib kirish yoki chiqarish natijasida mamlakatning moddiy resurslarining oshishish yoki kamayishini bildiradigan tovarlardir.

Bu termin tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijasida Respublika rezidentlaridan norezidentlarga va aksincha bo'ladigan mahsulotlar tarkibiga kiradi. U bojxona statistikasida eksport-import operatsiyalar hisobi sifatida qabul qilinadi. Xizmatlarni ishlab chiqarish bozor xizmatlaridek, nobozor xizmatlarini ham o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish xizmatlari bilan xalqaro savda xizmatlari bir-biridan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar orqali farq qiladi. Tovarlarning xalqaro savdosi ularni

ishlab chiqarishda alohida amalga oshiriladi. Xizmatlarni ishlab chiqarish esa mamlakat iqtisodiyotida aniq ishlab chiquvchi bilan aniq iste'molchi o'rtasidagi shartnoma vositasiga boyaliqdir. Shundayo qilib, xizmatlarning xalqaro savdosi, xalqaro xizmatlar ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqidir, chunki ishlab chiqarish jarayoni o'z jihatidan rezident va norezidentga ta'sir etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha xizmatlarni tasniflashtirish va kodlashtirish uchun.

### **8.3. Kapital xarajatlar hisobi**

«Tashqi dunyo» sektorining kapital xarajatlar hisobi.

«Tashqi dunyo» kapital xarajatlar hisobi – asosiy va oborot fondlarni sotib olish va nomoddiy aktivlarning xaridini ko'rsatuvchi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni aks ettiradi.

Bu hisobni resurslar qismiga:

- «Tashqi dunyo»ga berilgan kapital transfertlar;
- sof kreditlar(+) yoki sof qarzal(-) – kapital xarajatlar hisobini muvozanatlash moddasi kiradi.

Foydalanish qismida:

- «Tashqi dunyo» bilan joriy operatsiyalar qoldig'i;
- yer va nomoddiy aktivlarni sof xaridları;

«Tashqi dunyo»dan olingan kapital transfertlar ko'rsatiladi.

Kapital xarajatlar hisobining tuzilishini quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan.

Foydalanish	Resurslar
«Tashqi dunyo» bilan joriy operatsiyalar qoldig'i	«Tashqi dunyo»ga kapital transfertlar
Yer va nomoddiy aktivlarning sof xaridları	Sof kreditlar (+)
«Tashqi dunyo»dan kapital transfertlar	Sof qarzao (-)
JAMI	JAMI

Resurs qismida boshqa davlatlar tomonidan olinadigan daromad natijalari bo'lgan barcha operatsiyalar ko'rsatiladi.

BMT va ESIES MXT me'yordari bo'yicha kapital transfertlarga tabiiy ofat yoki harbiy harakatlardan ko'riladigan chiqimlarni davlat tomonidan to'lanishi, boshqa davlatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatishda, kapital qurilishlarga beriladigan qaytarib berilmaydigan moliyaviy yordamlar kiritiladi.

- Sarmoyalalar uchun subsidiyalar;
- Kapital uchun soliqlar;
- Boshqa kapital transfertlar.

«Tashqi dunyo» sarmovalari uchun subsidiyallar birlik norezidentlarni kapital jamg'arishini moliyalashtirish transfertlari bilan cheklangan bo'lishi kerak. Bunga ko'priklar, yo'llar, fabrikalar, kasalxonalar yoki maktablarni qurish, rivojlanayotgan mamlakatlardagi qurilishlarni uchun qaytarib berilmaydigan transfertlar kiradi. Kapital uchun soliqlar – bu muntazam bo'lmagan majburiy to'lovlar, davlat boshqaruvi

organlari tomonidan kapital yoki xo'jalik birliklari mulkidan olinadigan soliqlar. Kapital uchun soliqlarga quyidagilar kiritiladi.

- kapital va mulkdan kelgan soliqlar va to'lovlar;
  - meros uchun soliqlar, o'zbek fuqarolari tomoniddan chet el soliq Boshqa kapital transfertlar o'z ichiga:
    - boshqa davlatlarga asosiy fondlarni qaytarib berilmaydigan qilib berish;
    - «Tashqi dunyo»ga bir necha moliyaviy yilda yig'ilgan chiqimlarni qoplash uchun transfertlar hamda har yillik bir tomonlama nafaqa fondiga to'lovlar;
    - meros va voz kechishlar;
- boshqa davlatlarning asosiy fondlarini ziyonlari uchun kompensatsiya to'lovlarini kiradi.

#### 8.4. Moliyaviy hisob va uning asosiy ko'rsatkichlari

«Tashqi dunyo» sektorining moliyaviy hisobi asosan turli xil sektorllarga tegishli bo'lgan, chet el aktivlari, qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bilan rezidentlar o'rasisida bajariladigan iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshiradi.

##### Moliyaviy hisob.

Resurslar	Foydalananish
Qabul qilingan moliyaviy(vazifa)lar.	Moliyaviy aktivlarni hosil qilish
Sof kreditlar.	
Sof qarzlar.	
JAMI.	JAMI.

Moliyaviy hisobning pirovard qoldig'i bo'lib, sof kreditlar yoki qarzlar hisoblanadi. Bu qoldiq moliyaviy aktiv va passivlarning qoldig'iga teng bo'lishi kerak. Moliyaviy hisobning muvozanatlashgan ko'rsatkichi bo'lib, moliyaviy aktiv va passivlarning o'zgarishi hisoblanadi. Bu operatsiya turlarini aniqlash, davlatlar yoki milliy iqtisodiyot sektorlari o'rasisidagi, moliyaviy struktura o'zgarishlarni va holatini aniqlashga yordam beradi. «Tashqi dunyo» sektorining moliyaviy hisobining bir qancha ko'rsatkichlari bo'lib, bu ko'rsatkichlar orqali sektorlar bilan bo'ladigan operatsiyalarini aniqlash mumkin. Buning uchun asosan, davlat statistikasi hisoblarining xalqaro jahon standarti ko'rsatkichlariga moslashtirib borishimiz kerak. Bundan tashqari barcha statistik hisobot formalari va buxgalteriya hisobot xujjatlarini to'ldirishda faqatgina yoppasiga statistik kuzatishlar olib bormasdan, balki tanlama hamda asosiy massivni kuzatish va boshqa kuzatish usullaridan foydalanishimiz kerak bo'ladi.

Yangi milliy hisoblar tizimiga o'tishimizdan asosiy maqsad bu – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojini tartibga solish samaradorligini oshirish. Buning uchun yetarli shart-sharoit yaratish, uning faoliyati roli va ahamiyatini bozor iqtisodiyoti talabiga mos keladigan axborotlar tizimi orqali jahon hamjamiyati doirasida holisona tahlil etish, boshqaruvga oid echimlar natijasini to'g'ri baholash, rivojlanish istiqbolini ilmiy bashorat qilishdan iboratdir. Buning uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal etish kerak bo'ladi:

- davlat statistika va hisoboti tizimi umum uslubiy asoslarini qayta ko'rib chiqish va ularni jahon amaliyotida qabul qilingan qonun-qoidalariga moslashtirish;
- milliy makroiqfisodiy ko'rsatkichlarni xalqaro me'yorlarga moslashtirish, O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini yaratish, shu jumladan milliy iqtisodiyotning tarmoq va sektorlariga tatbiqan milliy hisoblar tizimini barpo qilish;
- XXB ko'rsatkichlarini MXT ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish, MXT tasviri bo'yicha tarmoqlararo balanslar(TAB) ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyotning ahvolini tasvirlovchi ko'rsatkichlar tizimining tarkibi, iqtisodiy mazmuni va hisoblash usulini belgilash, bu ishlarning tahvilij yo'nalishini oshirish, statistik ma'lumotlarni toplash va ularni umumlashtirishni tashkil etish;
- xalqaro qoidalar talabiga mos ravishda buxgalteriya, bank, moliya va bojxona faoliyatiga oid yangi boshlang'ich hisobot shakl formalarining yagona statistik tizimini ishlab chiqish va uyg'unlashtirishni ta'minlash;
- moliya, byudjet, va banklar faoliyati statistikasi tizimini takomillashtirish va to'lov balanslarini ishlab chiqish;
- baholar statistikasi, aholi va mehnat, tashqi savdo statistikasini xalqaro qoidalar talabi asosida qayta tashkil qilish;
- xalqaro statistika tashkilotlariga vaqt-i vaqt bilan yuboriladigan ko'rsatkichlarning tarkibi, yuborilish vaqt va tartibini belgilash;
- turli xildagi mulkchilik va xo'jalikni yuritishga mansub korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat ro'yxatini yaratish;
- xalqaro standartlarga mos tarzda yagona tasniflash va kodlashtirish tizimini tuzish va amaliyotga tatbiq etish;
- mahsulotlarning kataloglashtirish va chiziqli kodlashtirish tizimini barpo qilish;
- hisobot va statistika sohasida xodimlar tayyorlash va ulami qayta o'qitish vazifalari bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridaqgi vazifalar bajarilgandan so'ng biz yangi statistika tizimiga, ya'ni MXTga o'tishimiz mumkin bo'ladi. MXTga o'tish birlamchi statistika axborotini, buxgalteriya, moliya va bank hisobotlarini ketma-ket qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Hamda xalqaro talablar asosida statistika va buxgalteriya hisoboti tizimidagi barcha o'zgarishlar va qayta qurishni hisobga olgan holda, kengaytirilgan tarmoqlararo balans ishlab chiqiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Milliy hisoblar tizimida «Tashqi dunyo sektori» alohida o'rinn tutadi. Uning vazifalari va asosiy hisoblari batafsil yoritiladi.

«Tashqi dunyo sektori» 3ta hisobdan tashkil topgan:

- 1) Joriy operatsiyalar;
- 2) Kapital xarajatlari;
- 3) Moliyaviy hisob.

Ushbu hisoblarni o'rganish «Tashqi dunyo» sektori to'g'risida to'la va batafsil ma'lumotga ega bo'lishingizga imkon beradi.

## **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. BMTning milliy hisoblar tizimi haqida nimalarni bilasizq
2. MXT sektorlari haqida nimalarni bilasizq
3. «Tashqi dunyo» sektori haqida tushuncha, uning vazifalari va asosiy hisoblari.
4. Joriy operatsiyalar hisobi va uning asosiy ko'rsatkichlari.
5. Moliyaviy hisob to'g'risida nimalarni bilasizq
6. Kapital xarajatlar hisobi va uning ahamiyati.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. B.I.Bashkatov, B.T.Ryabushkin. Praktikum po natsionalnomu schetovodstvu. Ucheb. posobie – M., 2014 g.
2. Pod red. B.I.Bashkatova. Natsionalnoe schetovodstvo. Uchebnik. 2014 g.
3. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
5. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
6. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
7. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
8. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
9. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## IX BOB. XALQARO VALYUTA BOZORINI STATISTIK O'RGANISH

### 9.1. O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish sohasidagi islohotlarning tashkiliy-huquqiy asoslari

Bayroq, gerb, madhiya singari har qanday davlat milliy suverenitetaning o'zgarmas atributi pul birligi — milliy valyutaning mavjudligi hisoblanadi. AQSHda bu — dollar, Germaniyada — marka, Buyuk Britaniyada — funt sterling, Gretsiyada — draxma, Rossiyada — rubl, O'zbekistonda — so'm va hokazo.

Har biri o'zining milliy «kiyim»iga ega bo'lgan turli mamlakatlarning pul birliklari tovarlar, xizmatlar, sarmoya va ishchi kuchining xalqaro harakati jarayonini yo'lga soladi. Milliy iqtisodiyotlar doirasida ular bir qator ichki funksiyalarini bajaradilar: ular muomala vositasi, sanoq birligi, qiymatni saqlash vositasi bo'ladи.

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda milliy pul birliklari jahon pullari funksiyasini bajaradi. Xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan pullarni valyuta deb atash qabul qilingan. Valyuta (aynan narx, qiymat) — tovarlar qiymati miqdorini o'lchash uchun foydalaniladigan pul birligi. «Valyuta» tushunchasi uch xil ma'noda qo'llaniladi: bu, birinchidan, muayyan mamlakatning pul birligi (vapon ienasi, bolgar levi, qirg'iz somi, qozoq tengesi va xrkazo), ikkinchidan esa bu — chet el davlatlarining pul belgilari, shuningdek, chet el pul birliklarda ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov vositalari (chet el valyutasi); uchinchidan, xalqaro (mintaqaviy) pul hisob-kitobi birligi va to'lov vositasidir (yevro, SDR).

Metallar muomalasi davri uchun pul sifatida bir-ikki metalldan (oltin va kumush) foydalanish bilan monometallizm hosdir. Hozirgi bosqichda valyuta sifatida qog'oz pullar qo'llaniladi. Moddiy-ashyoviy shakl nuqtai nazaridan muayyan pul birligida ifodalangan, xalqaro hisob-kitoblarda qo'llaniladigan har qanday to'lov hujjati yoki pul majburiyati valyuta hisoblanadi. Odatda, so'z turli ko'rinishdagи bank hisob varaqlaridagi banknotalar, xazina biletlari, pul mablag'lari, shuningdek, cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqa to'lov vositalari haqida boradiki, ular jamlikda valyuta boyliklari deb ataladi.

**Valyuta operatsiyalari** deyilganda mulkchilik huquqining valyuta boyliklariga o'tishi, valyuta boyliklaridan xalqaro muomalada to'lov vositasi sifatida foydalanilishi, qarzlar va boshqa majburiyatlarning topshirilishi, valyuta boyliklarini mamlakat hududiga olib kirish, o'tkazish va jo'natish hamda ularni xorriga olib chiqish, o'tkazish va jo'natish bilan bog'liq harakatlar tushuniladi.

**Xalqaro hisob-kitoblar** — davlatlar, firmalar, kompaniyalar va turli mamlakatlar hududida bo'lgan fuqarolar o'rtasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida paydo bo'ladigan pul talablari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarini tashkil etish va tartibga solish tizimidir.

Eksportchilar, importchilar, banklar xalqaro hisob-kitoblar sybyektlari bo'lib, tovarga ilova qilinuvchi hujjalarning harakati jarayonida o'zaro hamkorlik qiladilar. Tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilari pullarining harakatini uyushtiruvchi banklar

xalqaro hisob-kitoblarda vositachi bo'lib maydonga chiqadilar. Demak, valyuta pullarning qandaydir yangi xili emas, balki ular faoliyat ko'rsatishining alohida usuli bo'lib, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Xalqaro shartnomalar va ichki milliy qonun hujjatlarining me'yorlari hisob-kitob munosabatlарining huquqiy asosidir. Xalqaro hisob-kitoblarni huquqiy jihatdan tartibga solishga tizimga solinib bir xillashtirilgan bank taomillari va xalqaro bank amaliyotining me'yorlari ta'sir ko'rsatadi. Valyuta munosabatlарini tartibga soladigan ichki huquqiy me'yorlarning jamliги valyuta **to'g'risidagi qonun hujjati** deb ataladi.

Hozirgi vaqtida banklararo valyuta bozorida banknota yoki tangalar yo'q. Valyuta operatsiyalari moddiy asosni yo'qotdi, milliy pul birliklari esa bir-biriga qarshi amalda faqat korrespondentlik hisob varaklari bo'yicha yozuvlar va banklararo elektron transaksiyalari ko'rinishida namoyon bo'ladilar.

Valyutaning aylanuvchanligi ichki va tashqi tusda bo'lishi mumkin. **Tashqi aylanuvchanlik** valyutani chet ellik sheriklar hisob varaqlariga erkin o'tkazish va mablag'larning mazkur valyutaga erkin konversiyasi mumkinlig'i ni anglatadi. Ichki aylanuvchanlik mazkur mamlakatning xo'jalik yurituvchi sybyektlari uchun chet elga to'lovlari va xorijiy valyutani sotib olishni cheklashlarsiz amalga oshirish imkoniyatini beradi. Valyutaning tashqi va ichki aylanuvchanligini birlashtirish **valyuta konvertatsiyalanishining** to'liq shakli hisoblanadi. «Konvertatsiyalanish» tushunchasi bir mamlakatning pul birligini boshqa mamlakatning pul birligiga shunchaki almashtirishdan yoki valyutalar oldi-sotdisiga qaraganda ancha kengdir. «Konvertatsiyalanish» tushunchasini milliy valyutadagi mablag'lar egalari uchun nafaqat mamlakat ichida, balki xorijda ham muayyan operatsiyalarni bajarish erkinligi ta'minlanadigan mamlakat iqtisodiy va valyuta-moliyaviy tizimining holati va xarakteri sifatida ta'riflash mumkin. Konvertatsiyalanishga faqat ochiq bozor xo'jaligi sharoitlarida erishsa bo'ladi. Mamlakatning o'z milliy valyutasi konvertatsiyalanishiga erishishi va bumi qo'llab-quvvatlashi murakkab iqtisodiy muammodir. Valyutaning konvertatsiyalanish rejimini joriy etish zarur iqtisodiy sharoitlarni barpo etishni taqozo etadi.

Xalqaro valyuta tizimi evolyusiyasi jarayonida vaqt o'tishi bilan «konvertatsiyalanish» tushunchasi ham o'zgarib boradi. 30-yillarga qadar konvertatsiya deganda, odatda belgilangan kurs bo'yicha valyutani oltinga erkin ayriboshlash huquqi tushunilgan. Valyutaga egalik qilayotgan har qanday shaxs uni bozordagi — qat'iy belgilangan yoki «suzib yuruvchi» kurs bo'yicha xalqaro zaxira valyutalaridan biri (AQSH dolları, evro va h.k.)ga konvertatsiya qilish huquqiga ega bo'lishiga valyutaning «to'liq konvertatsiyalanishi» deyiladi.

Umuman, konvertatsivaning joriy etilishi xorijiy valyutani ma'muriy usul bilan taqsimlashni kamaytiradi, deb hisoblanadi. Milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi esa mamlakat iqtisodiyoti ochiqligi va iqtisodiy erkinlik ramzlaridan bo'lib, u og'ir vazifalarning hal etilishi bilan bog'liq bo'lgan islohotlar dasturini jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishida muhim o'r'in tutishi mumkin.

Konvertatsiya qilinishi masalasining ko'rib chiqilishi quyidagi ikki turdag'i muammo tufayli murakkablashgan:

**Birinchidan**, valyutaning konvertatsiya qilinishi valyutalarni ayriboshlashga oid cheklovlarni qo'llamaslikni nazarda tutadi, ammo ayni paytda xalqaro savdo va kapitallar harakati bo'yicha cheklovlar qo'llanmasligi borasida tushunmovchiliklar ham kelib chiqadi.

**Ikkinchidan**, valyuta konvertatsiyasi bo'yicha turli xil cheklovlarining joriy etilishi borasida ham muammolar kelib chiqishi mumkin.

Valyutalarning konvertatsiyalanishiga doir cheklovlar, odatda, tashqi savdo cheklovleri va kapitallar harakatiga oid cheklovlar bir-biridan alohida tarzda o'rganilgan edi. Bu hol ushbu cheklovlarining ikki shakli bir-biridan mustaqil ravishda va turli xil sabablarga ko'ra joriy etilishi bilan bog'liq ham bo'lishi mumkin. Ayni paytda, iqtisodiy nuqtai nazardan, ushbu ikki turdag'i cheklovlardan bir xil natijani kutish mumkin.

Odatda, valyuta cheklovlar ko'pchilik mamlakatlarda tashqi hisob-kitoblarga doir operatsiyalarining keng doirasini o'z ichiga oladi va ular qatiy ravishda olib boriladi. Bu hol valyuta resurslari etishmovchiligi va ularni ishlatishni o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'naliishiga muvofiq holda tartibga solish zaruriyati bilan bog'liqdir. 80-yillar boshida XVFGa a'zo 113 mamlakatdan 95 tasida to'lov balansining joriy operatsiyalar, 91 nafarida esa kapitallar harakati bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha valyuta cheklovları mavjud edi.

1991- yilda mustaqillikka erishilguning qadar O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalar amalga oshirilmagan. Tashqi savdo faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar SSSR «Vneshekonombank» ining Moskvadagi bosh ofisida yoki uning Toshkentdag'i filialida o'z valyuta hisobvaraqlarini ochganlar. «Vneshekonombank» chet el valyutasiga doir operatsiyalarini amalga oshiruvchi yagona bank edi.

Sobiq SSSR tanazzulga uchragach, vaziyat tubdan o'zgardi. 1991- yil sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi, u o'z zimmasiga tashqi savdo oborotiga xizmat ko'rsatishga doir asosiy funksiyalarini oldi. Ayni paytda boshqa tijorat banklari chet el valyutasi bilan operatsiyalarini o'tkazishga bosh litsenziyani olib, sodir etiladigan valyuta operatsiyalarining tur va hajmlarini rivojlantira boshladilar.

O'zbekistonda hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi (O'zbekiston Respublikasi VB), banklararo bozor, ayriboshlash shoxobchalari orqali naqd chet el valyutasi bozori faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (O'zbekiston Respublikasi MB) va uning 14 ta bosh hududiy boshqarmasi, shuningdek, 33 tijorat banki, shuning ikkitasi to'liq ravishda hukumat tomonidan ta'sis etilgan — Xalq banki va Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (O'z TIF MB), chet el sarmoyasi ishtirokidagi 4 bank va xususiy 6 bankdan iborat. Aksiyador hisoblangan boshka banklarda davlat ular aksiyalarining bir qismiga egalik qiladi. Moliyaviy organlarning funksiyaları bir nechta muassasalar o'rtaida taqsimlangan. 1995 yil o'rtalarida qabul qilingan Markaziy bank to'g'risidagi qonunga ko'ra, mustaqillikning kattagana darajasiga erishgan O'zbekiston Respublikasi MB pul emissiyasi, O'zbekiston hududida chet el valyutasidan foydalanishni tartibga solish bobida muglaq huquqga egadir. O'zbekiston

Respublikasi MB pul chiqaradi, hukumat uchun depozitlar va transferlar bo'yicha xizmatlarni amalga oshiradi, shuningdek, hukumatga kreditlar beradi.

1996- yil o'rtalariga qadar tijorat banklarini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi MBning ustav sarmoyasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 1993-yil 28- martdag'i qarori bilan tasdiqlangan 5-bayonnomada keltirilgan talabiga rioya etish zarur edi, unga ko'ra tijorat banklari 2 mln. AQSH dollarri miqdoridagi ustav sarmoyasiga ega bo'lishlari kerak edi.

1996- yil 25- aprelda Oliy Majlis yangi qonunni — «Banklar va bank faoliyatini to'g'risida»gi Qonuni qabul qildi, hozirgi vaqtida u bank faoliyatini tartibga soladigan fundamental qonun hujjati hisoblanadi. Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi MB ga tijorat banklari ustav sarmoyasining eng kam hajmlarini har bir yakka tartibdag'i holda o'zining ko'rib chiqishiga qarab belgilash vakolatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi MB tomonidan tasdiqlangan (1997- yil 25- yanvardagi 22-sonli xat) «Banklarni ro'yxatga olish va litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, chet el sarmoyasi ishtirokida banklar ustav sarmoyasining eng kam xajmi 5 mln. AQSH dollariga qadar ko'paytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va vakolatli banklar haftada ikki marta o'tkaziladigan valyuta birja savdolarida ishtirok etadilar. Vakolatli banklar o'z nomlaridan va ularga buyurtmanoma beradigan o'z mijozlari topshirig'iga ko'ra ishtirok eta oladilar, transaksiyalarning ikkala turi uchun hech qanday chekllovlar mavjud emas. Savdolar AQSH dollarida o'tkaziladi, kurs talab va taklifning muvozanatiga qarab belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi VB fiksingining belgilanishiga qarab ayirboshlash kursi Markaziy bankning keyingi kalendar kunidan boshlab kuchga kiradigan yangi rasmiy kursiga aylanadi. Boshqa kunlari Markaziy bank banklararo bozordagi bitimlar natijalari bo'yicha almashtirish kursini belgilaydi. Boshqa konvertatsiyalanadigan valyutalarga kross-kurslar xalqaro bozorlarning tegishli sanaga doir ma'lumotlari asosida belgilanadi. MDH mamlakatlarning valyuta kurslari ushbu davlatlarning har bir Markaziy banki taqdim etgan axborot asosida belgilanadi.

1993- yil mayida respublika parlamenta tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi, unda valyuta bozorining faoliyat ko'rsatishi va chet el valyutasi muomalasi asoslari belgilab berildi. Keyinroq bir qator qarorlar, farmoyishlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular jamlikda respublikada valyutani tartibga solish tizimini barpo etadi.

O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarida ishtirok etadigan, mamlakat fuqarosi bo'lgan va chet elliq jismoniy va yuridik shaxslar rezident va norezidentlarga bo'linadi.

Quyidagilar rezident hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtincha turgan jismoniy shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va ro'yxatga olingen, joylashgan eri O'zbekiston Respublikasida bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokida korxonalar;

— O'zbekiston Respublikasining chet eldag'i, immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalanuvchi diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalarini shuningdek, O'zbekiston Respublikasi korxona va tashkilotlarining chet eldag'i, xo'jalik va boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan boshqa vakolatxonalarini.

Quyidagilar norezident hisoblanadi:

— chet elda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan jismoniy shaxslar;

— chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan, joylashgan eri O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi korxona va tashkilotlari ishtirokidagi yuridik shaxslar;

— O'zbekiston Respublikasida joylashgan, immunitet va diplomatik imtiyozlardan foydalanuvchi chet el diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonalarini, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, shuningdek, xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan o'zga tashkilot va firmalarning vakolatxonalarini.

Mazkur qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining pul birligi — so'm bo'lib, u 1994-yilning 1-iyulidan joriy etildi.

Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 7-oktabrda qarori bilan so'm O'zbekistonda birdan-bir qonuniy to'lov vositasi deb e'lon qilindi, O'zbekiston hududida rezident va norezidentlar o'rtasida (yoki rezidentlar o'rtasida) chet el valyutasidagi barcha o'zaro hisob-kitoblar taqiqlangan.

Quyidagilar O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini hisoblanadi:

— tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog'ida mulkchilik hukuqining valyuta boyliklariga o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, shu jumladan, to'lov vositasi sifatida chet el valyutasidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi pul birligidan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar;

— valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga xorijdan olib kirish va jo'natish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan xorija olib chiqish va jo'natish;

— xalqaro pul o'tkazuvlari amalga oshirish, Valyuta operatsiyalarini joriy operatsiyalar va sarmoyaning harakati bilan bog'liq operatsiyalarga bo'linadi.

Valyuta siyosatini belgilashda mamlakat iqtisodiyoti tuzilmasi va unda mayjud tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari katta e'tibor qaratilishi lozim. Shu tufayli jahon tajribasidan kelib chiqqan holda Markaziy banklar valyuta kurslari rejimining quyidagi turlaridan foydalanadilar:

- qat'iy belgilab qo'yilgan valyuta kursi (yagona valyuta yoki valyuta savatchasi asosida aniklanadi);
- talab va taklif ta'siri ostida sun'iy (stixiyali) ravishda vujudga keladigan erkin suzib yuruvchi valyuta kursi;
- «pog'onali» valyuta kursi;
- ko'p xilli valyuta kurslari tizimi;
- ikkiyoqlama valyuta kursi.

1993-yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi muomalaga so'm-ko'pon — o'z milliy valyutasiga o'tish davrida foydalanishga mo'ljallangan oraliq pul birligini kiritdi.

Muomalaga so'm-ko'pon kiritilishi bilan valyuta kursi siyosatini amalgalashirish zaruriyatni tug'ilди. Iqtisodiy islohotlarning boshlang'ich davrida va o'sha vaqtida mavjud bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, boshqariladigan suzib yuruvchi tartibotda boskichma-bosqich devalvatsiya qilish varianta O'zbekiston uchun eng optimal usul deb topilgan edi. Ayirboshlash kursini belgilashda muomaladagi pul massasi hajmi va boshqa makroiqtisodiy ko'satkichlar hisobga olingan edi.

1994 yil 1 iyulda milliy valyuta — so'm joriy etilganidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi boshqariladigan suzuvchi valyuta kursiga amal qila boshladi. Avval boshdan hukumat Respublika valyuta birjasida so'mning rasmiy kursini belgilash uchun har haftada banklararo valyuta savdolarini o'tkazdi. Bunday savdolarda O'zbekiston Respublikasi MB litsenziyasini olgan tijorat banklari va O'zbekiston Respublikasi MB ning o'zi ishtirok etdi.

Aukcionlarda belgilangan so'mning boshlangich rasmiy almashtirish kursi 1994 yil 1 iyulda bir AQSH dollariga 7 so'mni tashkil etdi. Boshqa 30 valyuta va SDRning rasmiy kurslari AQSH dollariga nisbatan belgilanadi va rasmiy bitimlarda, shu jumladan, eksportchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi MB ga aukcionlar orqali sotish uchun sotilgan chet el valyutasini almashtirish chog'ida foydalaniladi.

Hozirgi vaqtida haftada ikki marta O'zbekiston Respublikasi MB belgilaydigan bitta ayirboshlash kursi mavjud. Jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasining sotib olinishi va sotilishi vakolatli banklarning pul almashtirish punktlari orqali amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli rejada so'mning ayirboshlash kursi inflyasiya darajasi, muomaladagi pullar hajmi, ishlab chiqarishni o'stirish sur'atlari bilan chambarchas bog'langan, uzoq muddatli rejada esa, asosan, milliy valyuta xarid qobiliyatining pariteti bilan belgilanadi.

1997 yildan boshlab O'zbekiston valyuta tizimida so'mning to'rtta rasmiy kursi mavjud bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalarini amalga oshirishda quyidagi kurslar qo'llanilar edi:

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi.* Buxgalteriya hisobi, bojxona va boshqa to'lovlar maqsadida, shu jumladan, mahsulot eksport qiluvchi korxonalar tomonidan Markaziy bank va vakolatli banklarga chet el valyutasidagi tushumdan majburiy tarzda sotuvni amalga oshirishga doir operatsiyalarda qo'llaniladi.

*O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi savdolarida belgilanadigan birja kursi.* Ushbu kurs bo'yicha markazlashgan valyuta manbalari hisobidan hukumatning valyuta kreditlari va hukumat kafolati ostida olingan chet el valyutasidagi kreditlar to'lash, elchixonalarga sarflanadigan xarajatlar xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash, hukumat topshirkirdari bilan chet elga xizmat safari xarajatlarini uchun so'm mablag'larining erkin ayirboshlanadigan valyutaga konvertatsiya qilinishi ta'minlanadi. Shuningdek, korxonalar tomonidan investitsiya loyihibarini amalga

oshirish bilan bog'liq zamonaviy chet el texnologiyalari, asbob-uskunalar, butlovchi va ehtiyoj kismlarni sotib olish ham shunga kiradi.

*Vakolatli banklar tomonidan o'rnatiladigan ayrboshlash kursi.* Ushbu kurs bo'yicha birjadan tashqari valyuta bozorida bo'sh valyuta resurslarining sotuvi amalga oshiriladi. Markaziy bank litseziyalari egalari bo'lgan korxonalar va ayrboshlash shoxobchalari orqali jismoniy shaxslarga chet el valyutasining sotuvi ham ushbu kurs bo'yicha amalga oshiriladi.

*Parallel bozordagi — nazorat qilinmaydigan bozorda jismoniy shaxslar tomonidan valyuta ayrboshlash operatsiyalari amalga oshirilganda qo'llaniladigan norasmiy kurs.* U so'mning rasmiy ayrboshlash kursi oshirilganligi va rasmiy kurslar bo'iicha chet el valyutasini sotishda mavjud cheklashlar oqibati sifatida paydo bo'lgan. 90-yillarning oxiridan boshlab rasmiy va norasmiy ayrboshlash kurslari o'rtaсидаги farq sezilarli darajada o'sib bordi. Chunonchi, agar 1995- yidda so'mning parallel bozordagi ayrboshlash kursining rasmiy kursga nisbati 1,36 ni tashkil etgan bo'lsa, 1996 yidda 1,49, 1997- yidda 2,22, 1998- yidda 2,25 va 1999- yil oxirida 4,3 baravarni tashkil etdi.

Valyuta kurslari o'rtaсидаги farq katta bo'lsa, ko'p xilli valyuta kurslari tartiboti (rasmiy, tijorat, «parallel») valyuta daromadlarining notejis tarzda qayta taqsimlanishiga olib keladi.

Ushbu muammoning bir qator masalalar bilan bog'liqligi va hal etilishining murakkabligi shu bilan ifodalanadi, unga ko'ra rasmiy kursni devalvatsiya qilish u asosida ko'p xilli valyuta kurslarini tugatish texnik qayta qurish va qayta tashkil etish vaqtida asbob-uskuna, butlovchi qismlar va xom ashyo importiga qattiq bog'lanib qolgan korxonalarning moliyaviy ahvolini qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Ushbu hol sanoatlashtirish va qisqa hamda uzoq muddatli istiqbolda kutilayotgan iqtisodiy o'sish sur'atlarini susaytirib qo'yishi mumkin. Ayrboshlash siyosatining tutgan o'mi, shuningdek, bozor tizimlari va moliyaviy bozorlarning rivojlanganligiga bog'liqdir. Agar moliyaviy bozorlar yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, ushbu holda chet el valyutasi bozorlari hani kutilgan darajada samarali faoliyat ko'rsata olmaydi va yirik dilerlarning manipulyasiyaligiga ta'sirchan bo'ladi. Natijada Markaziy bank intervensiya siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ladi va oxir-oqibatda oltin-valyuta zaxiralari kamayishi xavfi tug'iladi. Ushbu shart-sharoitlarda tartibga solinadigan ayrboshlash kursi doirasidagi makro-siyosat yuritish, valyuta bozorini erkinlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ayni vaqtda valyuta kursining bixillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy valyuta konvertatsiyalanishini joriy etish va mamlakat eksport salohiyatini oshirish nuktai nazaridan ushbu vazifa muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001- yil 25- oktyabrdagi "Ichki valyuta bozoridagi ayrboshlash kurslarini bixillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bu boradagi amaliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan eng muhim chora-tadbirlardan hisoblanadi. Mazkur hujjat talablariga binoan, 2001 yilning 1 noyabridan boshlab Markaziy bank kursi bo'yicha o'tkaziladigan barcha operatsiyalar talab va taklif asosida shakllanadigan erkin kurs bilan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, valyuta operatsiyalari bo'yicha

buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlar birjadan tashqari valyuta bozoridagi erkin kurs, pul massasi dinamikasi va inflyasiya darajasini hisobga olgan holda shakllanadigan Markaziy bank kursi bo'yicha yuritila boshladi.

Gap shundaki, Markaziy bank tomonidan e'lon qilinadigan va birjadan tashqari valyuta bozorida talab va taklif asosida shakllanadigan kursning birkillshtirilishi xo'jalik yurituvchi sybyektlarga bir qator afzalliklar beradi. Xususan, korxona va tashkilotlar balansida moliyaviy natijalar va tashqi iqtisodiy operatsiyalarning to'g'ri aks ettirilishiga imkon yaratadi, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishni ancha engillashtiradi.

Birjadan tashqari valyuta bozorida ayrboshlash kursi Markaziy bank va vakolatli banklar ishtirokida har kuni o'tkaziladigan banklararo savdo sessiyalarida shakllanadi. Vakolatli banklar o'z mijozlari tomonidan xorijiy valyutani xarid qilish va sotish bo'yicha taqdirm etilgan buyurtmanomalarini asosida ushbu sessiyalarda qatnashadi. Ayrboshlash kursi xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklif tengligiga erishilganda belgilanadi. Agar xorijiy valyuta taklifining umumiy hajmi talab hajmidan yuqori bo'lsa, kurs tushadi, aksincha bo'lsa, kurs ko'tariladi.

Birjadan tashqari valyuta bozori faoliyatini tashkil etishda vakolatli banklar zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklatilgan. Vakolatli banklarning ekspert guruhlari korxona va tashkilotlarning buyurtmalarini bir hafta ichida ko'rib chiqib, xorijiy valyutani xarid qilish uchun xulosa tayyorlaydi. Shundan so'ng vakolatli bank shu asosda banklararo savdo sessiyalarida zarur miqdordagi xorijiy valyutani xarid qiladi va buni ularning tegishli hisob-raqamlariga o'tkazib beradi. Vakolatli banklar korxona va tashkilotlar bilan bevosita ish olib borib, ular nomidan banklararo savdo sessiyalarida ishtirok etibgina qolmasdan, balki mijozlar tomonidan konvertatsiyaga taqdirm etilgan buyurtmanomalarining to'g'riligi, xarid qilingan valyutaning o'z vaqtida va samarali ishlatalishi hamda boshqa talablarning bajarilishini ham nazorat qiladi.

Jahon amaliyotidan kelib chiqib, hozirgi vaqtida respublikada korxona va tashkilotlarning chet el valyutasidagi eksport tushumi bir qismini Markaziy bankka majburiy sotish tartibi qo'llaniladi. Tuzilgan eksport shartnomalarining turiga bog'liq holda majburiy sotishning tabaqlashtirilgan stavkalari qo'llaniladi: markazlashtirilgan eksport bo'yicha — xarajatlarni chegirgan holda kelib tushgan chet el valyutasining 100 foizi, markazlashtirilmagan eksport bo'yicha — 50 foiz (1999 yilga qadar — 30 foiz).

Majburiy sotish shartnoma valyutasida mazkur valyuta uchun rasmiy kurs bo'yicha olinganidan so'ng 10 kun mobaynida, vositachilik haqisiz, amalgalashiriladi. So'mdagi tegishli summa O'zbekiston Respublikasi MB hisobvarag'idan olinadi va eksportchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Respublikaga kelib tushadigan xorijiy valyuta mablag'laring asosiy manbalari paxta tolasini markazlashtirilgan holda eksport qilish, qimmatbaho metallarni sotish va 50 foizlik majburiy sotuv yoki markazlashtirilmagan eksportdan olinadigan valyuta tushumlaridan iborat. Ushbu valyuta mablag'lari tovarlar (ishlar, xizmatlar) import to'lovi va boshqa maqsadlar uchun ishlataladi.

Iste'mol tovarlari va xizmatlar importning 1996- yil o'rtafiga qadar tartibga solish uchun Markaziy bankning patentlar tizimi barpo etildi.

Markaziy bank patentlarni har qanday rezident — yuridik yoki jismoniy shaxsga taqdim etgan. Patent tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishini va import tovarni sotish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqdaydigan hujjat-lar taqdim etilganda berilgan.

Butlovchi qismlar, xom ashyo, ishlab chiqarish uchun usku-nalar va patent talab qilinmaydigan shu singari maqsadlar importa uchun mablag'larni konvertatsiyalash mijozlar tomo-nidan bevosita valyuta birjasida vakolati banklar orkali, hartnomalar ko'chirma nuxsalarini vakolatli banklarga taq-dim etgan holda amalga oshirilgan.

To'lov balansi anchagina yomonlashuvining oldini olish va iqtisodiyotni tarkibiy kaya qurishga yordam berish uchun import tarkibi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida 1996- yilning oxirgi choragida O'zbekiston hukumati milliy valyutani chet el valyutasiga konvertatsiyalash tartibini o'zgartirdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rezidentlarga so'mlar erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga patentlar berishning mavjud tizimi bekor qilindi va uni oqilona tashkil etish yo'li bilan chet el valyutasining bozorga kirish yo'li qattaklashtirildi. O'zlarining markazlashtirilgan valyuta resurslari hisobiga ustuvor konvertatsiyaga huquqi bo'lgan yuridik shaxslar qayta ro'yxatga olindi. Bunda import qilinadigan xalq iste'moli tovarlarini sotishdan tushgan so'mlarni erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga ustuvor almashtirishga Markaziy bankning litsenziyasini berilgan yuridik shaxslar miqtori 3 baravardan ko'proq qisqartirildi, qolgan importchilarga esa chet el valyutasini rasmiy kanallar orqali olish rad etildi. Markaziy bankning EKVga so'mlarni ustuvor konvertatsiyalash uchun litsenziyasini olish huquqi, birinchi navbatda, ilgari Markaziy bankning patentiga ega bo'lgan quyidagi korxona va tashkilotlarga berildi:

- supermarketlarga;
- tayyor xalq iste'moli tovarlarini import qiladigan, nufuzli chet el savdo va ishlab chiqarish firma va kompaniyalari bilan barqaror savdo aloqalariga ega bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotini investitsiyalaydigan yirik va o'rta chet el, sho'ba va qo'shma korxonalarga;
- tayyor xalq iste'moli tovarlarining muayyan tur va guruhi larini import qilishga ixtisoslashgan ulgurji savdo tashkilotlariga;
- aholiga sotish uchun dori-darmon vositalari, tibbiyot texnikasining importi bo'yicha xarid bilan shug'ullanadigan yirik ulgurji tashkilotlarga;
- belgilangan tartibda diplomatik korpus va diplomatik missiyalar xodimlariga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi davlat ixtisoslashtirilgan tashkilotlariga.

Keyingi yillarda respublika xukumati va Markaziy banki tomonidan ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish, shuningdek, uning birjadan tashqari bozorini rivojlantirish, milliy so'mmizning xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha erkin ayirboshlashini ta'minlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ularning asosiy maqsadi va mazmun-mohiyati ichki valyuta bozorida ishtarok etuvchi barcha xo'jalik yurituvchi sybyektlarga teng shart-sharoit yaratish, korxona va tashkilotlarning so'm mablag'larni xorijiy valyutaga ayirboshlash tartibini soddalashtirish, valyuta kurslarini bixillashtirish va naqd xorijiy valyuta bozorini erkinlashtirishdir. Bu yo'nalishda bir munkcha ishlar amalga oshirildi. Masalan, korxona va tashkilotlarga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun ular tomonidan xorijiy

valyutani xarid qilishga oid tartib soddalashtirildi. Jumladan, xo'jalik yurituvchi sybyektlarning ro'yxatdan o'tgandan 6 oydan keyin ichki valyuta bozorida ishtiroy etishi haqidagi talabi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) import rejasiga kiritilganligi va avval xarid qilingan valyuta mablag'laringin ishlataliganligi haqidagi ma'lumotlarni vakolatlari bankka taqdim etishga doir talablari bekor qilindi. Shuningdek, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida import kontraktlarini ro'yxatga olish tartibi ham soddalashtirildi. Agentlikka ariza topshirilgandan keyin summasi 50 ming AQSH dollarari miqdorigacha bo'lgan import kontraktlarini 5 ish kuni davomida va summasi 50 ming AQSH dollaridan Yuzgori bo'lgan import kontraktlarini esa 10 ish kuni mobaynida ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etildi.

Iste'mol tovarlarini import qiluvchi korxona va tashkilotlarning xorijiy valyutani xarid qilish tartibi ham ancha soddalashtirildi. Ya'ni 2001-yilning 1-avgustidan boshlab tayyor iste'mol tovarlarini import qiluvchi korxona va tashkilotlarga so'mni erkin ayriboshlanadigan valyutaga konvertatsiya qilish uchun imtiyozli huquq beruvchi litsenziyalar berish mexanizmi bekor qilindi. 2002-yilning 1-oktyabridan esa ijtimoiy ahamiyatga ega xalq iste'moli tovarlari va dori-darmonlarni import qiluvchi korxona va tashkilotlar uchun vakolati banklar tomonidan birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilishga doir choraklik limitlari ham bekor qilindi.

Respublikaga iste'mol tovarlarini import qiluvchi korxona va tashkilotlar tomonidan xorijiy valyutani xarid qilish uchun vakolati bankka taqdim etadigan hujjatlar soni sezilarli darajada qisqartirildi. Birinchisi — Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xorijiy hamkor bilan tuzilgan shartnoma (bitim, kelishuv), ikkinchisi — valyutadagi mablag'larning chet elga o'tkazilishini tasdiqdovchi hujjatlar (yukka oid bojxona hujjatlari), uchinchisi esa tovarlarni chakana sotuvchi korxonalar uchun naqd savdo tushumi inkassatsiya qilinganligini tasdiqdovchi hujjatlar va ulgurji savdo korxonalar uchun import tovarlar sotishdan tushgan naqd pullar chakana savdo tashkilotlariga tushganligi to'g'risida vakolati banklar tomonidan tasdiqdangan ma'lumotlardir.

O'zbekiston hukumati va Markaziy banki tomonidan valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi korxonalar faoliyatiga, umuman, respublika iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir qildi. Jumladan, markazlashtirilgan resurslar eksportidan tushgan valyuta tushumlarining erkin kurs asosida sotilishi korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatlarining kengayishi, shuningdek, eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchilar samaradorligining oshishi va ular moliyaviy ahvolining yaxshilanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Eksportdan keladigan valyuta tushumi bir qismining majburiy sotuvdan ozod qilinishi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sybyektlariga mablag'larni texnik qayta jihozlash va ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirish imkonini berdi. Barcha vakolatlari banklarga valyuta ayriboshlash operatsiyalarini amalga oshirish huquqining berilishi, maxsus shoxobchalar orqali naqd valyutani sotish bo'yicha limitlarning oshirilishi esa aholining naqd valyutaga bo'lgan talabi qondirilishiga imkoniyat yaratdi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, bu borada keng ko'lamda amalga oshirilgan tadbirlar va Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan qatiy pul-kredit siyosati

Markaziy bank kursi va mutanosib ravishda bozordagi kurs o'rtasidagi farqlarni qisqartirish va inflyasiya darajasining kamayishiga zamin yaratdi.

Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish, milliy valyuta - so'mning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin almashinishini ta'minlab borish, ichki bozordagi naqd va naqdsiz ayrboshlash kurslarini bixillashtirish, valyuta ayrboshlash shoxobchalar sonini ko'paytirish va ulardagi operatsiyalar hajmini yanada oshirish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash yakin kelajakda O'zbekiston valyuta siyosatini erkinlashtirishning ustuvor yo'naliishlaridir.

Valyuta cheklari turli xil shaklda bo'lishi mumkin. Odatda, tashqi savdoda mahsulot eksport qiluvchilarga valyuta tushumining barchasi yoki uning bir qismini Markaziy bank yoki vakolatli banklarga rasmiy kurs bo'yicha topshirish talabi keng qo'llaniladi. 80-yillarda ushbu talab XVFga a'zo 113 mamlakatdan 95 tasida mavjud edi.

Valyuta cheklari quyidagilarni nazarda tutadi:

- chet elga to'lovlarining o'tkazilishi, kapitalning olib chiqib ketilishi, fonda, oltin, pul belgilari va qimmatli qog'ozlarning repatriatsiya qilinishini tartibga solish;
- davlatga majburiy tarzda xorijiy valyutaning topshirilishini (rasmiy kurs bo'yicha milliy valyutaga ayrboshlash evaziga).

Quyidagilar amaliyotda qo'llaniladi:

- import qiluvchilarga xorijiy valyutaning sotilishini litsenziyalash;
- valyuta boyliklari davlat idoralarining maxsus ruxsatnomasisiz olib kirilishi va olib chiqib ketilishining man etilishi;
- jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi mablag'larga egalik qilishi va tasarruf etishini cheklash;
- chet elga shaxsiy daromadini o'tkazishni tartibga solish;
- sug'urta va boshqa to'lovlarни amalga oshirish;
- chet elga chiqishda milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirilishini limitlash.

O'z vaqtida Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari uzoq vaqt mobaynida turli xil valyuta cheklari, shakllarini joriy etishga majbur edi. Mustahkam iqtisodiy salohiy atga ega bo'lgan davlat — Xitoy ham turli xil valyuta cheklarini qo'llagan holda bozor islohotlarining o'z modelini amalga oshirib keldi va faqat 1994-yildan boshlab to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha konvertatsiyaga oid mavjud cheklarini bekor qildi.

Xususan, konvertatsiyalashga oid ba'zi bir cheklar ushbu valyutani qanday maqsadlarda konvertatsiya qilinayotganligi bilan bog'liqidir. Ushbu turdag'i cheklarda joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyaning amalga oshirilishi va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladigan konvertatsiyalardan farqlanadi. "Bretton-Vuds"dagi konferensiya qarorlariga asoslangan xalqaro valyuta tizimining urushdan keyingi tuzilmasida Xalqaro Valyuta Fondiga a'zo bo'lgan davlatlar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani asta-sekin tiklanishi nazarda tugilgan edi. Ayni paytda kapitallarning harakati bo'yicha konvertatsiyaning chekloviga yo'l qo'yilgan edi. XVFga a'zo davlatlar konvertatsiya bo'yicha o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan majburiyatlar XVF Nizoming 8-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, XVF a'zolari

uning rozilgisiz joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha to'lov va o'tkazmalar yuzasidan cheklovlanmi joriy qilishlari mumkin emas.

Bugungi kunda ichki konvertatsiya atamasi, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda nisbatan keng ma'no tarzida tushunilmoqda. Ushbu atama ba'zi hollarda joriy operatsiyalar bo'yicha qisman konvertatsiya amalga oshirilishining sinonimi sifatida ham qo'llanilmoqda.

Valyuta operatsiyalari bo'yicha ichki konvertatsiyaning joriy etilishi sabablari turli xildir.

Iqtisodchilar valyuta konvertatsiyalanishi muvaffaqiyat bilan joriy etilishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan bir qator dastlabki shart-sharoitlarni sanab o'tdilar. Ushbu sharoitlar konvertatsiya konsepsiyasi evolyusiyasi va makroiqtisodiyotga oid ustuvor tushunchalar davomida bir qator o'zgarishlarga yuz tutdi. Fikrimizga ko'ra, hozirgi vaqtda milliy valyuta konvertatsiyalanishini joriy etish uchun quyidagi asosiy masalalarni hal etish lozim:

- tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirish va mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich va uzviy islohotlar siyosatini o'tkazish;
- pul miqdori ortiqchalari va inflysiya jarayonlariga barham berish;
- iqtisodiy sybyektlar bozor narxlariga qayishqoq holda ish yuritishi uchun rag'battalniruvchi omillar va shart-sharoitlar yaratilgan muhitlarning vujudga keltirilishi;
- aholining islohotlarni qo'llab-quvvatlashi va milliy valyutaga bo'lgan ishonchi so'ndirilmasligi nafaqat konvertatsiya masalasini hal etish, shu bilan birga, umumiqtisodiy farovonlikka erishish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi;
- tegishli ayriboshlash kursining mavjudligi;
- xalqaro likvidlitikning yetarli darajasi.

Avvalambor, ushbu shartlar joriy operatsiyalar bo'yicha valyuta konvertatsiyalanishining joriy etilishi oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy nobarqarorlikning oldini olish va kutilayotgan iqtisodiy muvaffaqiyatni ta'minlash uchum zarurdir.

Joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyaning joriy etilishi erkinlashtirilgan savdo qoidalari mavjud bo'lgan holda iqtisodiyotga katta erkinlikni olib kelishi mumkin. Importga nisbatan cheklovlar olib tashlangan holda valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha ayriboshlanishi chet eldan tovar va xizmatlarni xarid qilish imkoniyatini ancha soddalashtirilgan va kengaytirgan holda, aholiga iste'mol tovarlarini keng miqyosda tanlab olish imkoniyatini beradi. Bu esa iste'molning ancha o'sishi va yaqin istiqbolda iste'mol talabini qondirish uchun shart-sharoit yaratishi mumkin. Bu, shuningdek, ishlab chiqarish resurslari va zamonaviy texnologiyalarga keng yo'l ochib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga konvertatsiyaning joriy etilishi islohotlar jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xorijiy investitsiyalarning jaib qilinishiga shart-sharoit yaratadi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyaga erishish raqobat muhitini yaratadi. Zero, u mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat kurashiga kirishishiga va turli xil tovarlar bo'yicha jahon bozorlaridagidek tovarlarga nisbiy narxlarni belgilashga yordam beradi. Raqobat darajasi nafaqat milliy valyutaning to'lov balansi joriy operatsiyalari bo'yicha konvertatsiya qilinishi, shu bilan birga tashqi savdoga oid mavjud cheklovlardan ko'lami va xarakteriga ham bog'liqdir.

Valyutalarning uchta sinfi (guruhi) mavjud.

**Birinchi guruh** — erkin konvertatsiyalanadigan (aylanadigan) valyuta (EKV).

Bu valyuta boshqa chet el valyutalariga erkin va cheklanmagan holda almashtiriladi. EKV to'liq tashqi va ichki aylanuvchanlikka, ya'ni bir xildagi almashtirish rejimlariga ega. EKVni almashtirish sohasi kundalik tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq joriy operatsiyalarga, shuningdek, tashqi kreditlar va chet el investitsiyalariga doir operatsiyalarga tatbiq etiladi. Odatda, mamlakatda XVF Nizomining 8-moddasi majburiyatlar to'liq darajada bajarilsa, ya'ni har qanday turdagidagi operatsiyalar bo'yicha valyuta bitimlarini amalgalashga qonun tomonidan cheklashlar bo'lmasa, valyuta erkin konvertatsiyalanadigan bo'lib hisoblanadi. Xususan, mamlakat xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha to'lovlar va o'tkazmalarga cheklovlardan joriy etmasligi, valyuta siyosatida kamshitshlarga yo'l ko'ymasligi, boshqa mamlakatlardan o'z valyutasining qoldig'ini sotib olmasligi kerak. XVF a'zolari bo'lgan 150 dan ziyod davlatning 60 taga yaqini o'z valyutalarining erkin konvertatsiyalanishini rasmiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtida EKVga o'n ikkitaga yaqin valyuta kiradi. Xalqaro hisob-kitoblarda EKVdan valyuta rezervlarini yaratishda keng foydalaniadi. Rezerv valyuta konvertatsiyalanadigan valyutaning alohida toifasi hisoblanadi. Hozirda AQSH dollarri, Angliya funt sterlini, nemis markasi, yapon ienasi va Shveysariya franki rezerv valyuta hisoblanadi.

**Ikkinci guruh** — kisman konvertatsiyalanadigan valyuta (QKV). Bu operatsiyalarning ayrim turlari bo'yicha yoki valyuta bitimlarining ba'zi ishtirokchilar uchun miqdoriy cheklovlardan yoki maxsus ruxsat berish rusum-qoidalar mavjud bo'lgan mamlakatlarning milliy valyutasidir. Bunday mamlakatlar hukumatlari foydalananadigan usullar: importni litsenziyalash, almashtirish kurslarining ko'pligi, import depozitlari talab qilinishi, miqdoriy nazorat. QKV faqat ba'zi chet el valyutalariga almashinadi va xalqaro tulov oborotining ba'zi turlariga amal qiladi.

**Uchinchi guruh** — maxdud (konvertatsiyalanmaydigan) valyuta. Bu faqat bitta mamlakat hududida faoliyat ko'rsatadigan va chet el valyutalariga almashtirilmaydigan (ham yuridik, ham jismoniy shaxslar uchun taqiqlangan) milliy valyutadir. Milliy va xorijiy valyutalarni olib kirish va olib chiqish, sotib olish va sotish, almashtirishga turli cheklov va taqiqlar qo'llaniladigan, shuningdek, valyuta orqali tartibga solishning turli usullaridan foydalilanadigan mamlakatlarning valyutalari maxdud valyutalarga kiradi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan ba'zi mamlakatlarning milliy valyutalari maxdud valyutalar hisoblanadi.

Mamlakatlar o'rtaqidagi hisob-kitoblarda kliring valyutalaridan foydalinish mumkin. Kliring — tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar uchun naqdsiz hisob-

kitoblar tizimi bo'lib, muqobil talablar va majburiyatlarning o'zaro hisobga olinishiga asoslangan. Ichki banklararo kliring va xalqaro kliring mavjud. Odatda, kliring valyutalari (hisob-kitob dollari, hisob-kitob rubli, hind rupiyasi) tegishli milliy valyutaga almashinmaydi. Valyutalaming Yuqorida sanab o'tilgan darajalari mavjudligi milliy pul birliklarini emissiya qiladigan mamlakatlar xo'jalik mexanizmining qanchalik «bozorbop» darajaga erishganligi, milliy valyutalarning jahon valyuta bozoridagi xalqaro bitimlarda ishtirokining miqyoslari va istiqbollari haqida dalolat beradi.

Valyuta bitimlari sybyektlari o'rtasida yuzaga keladigan barcha munosabatlarning jamliji «valyuta bozori» umumiy tushunchasi bilan qamrab olinadi. Institutsional nuqtai nazardan olganda, valyuta bozori bir-biri bilan zamonaviy kommunikatsiya vositalarining murakkab tarmog'i (telefon va telekslardan tortib elektron va yo'ldosh tizimlarga qadar) bilan bog'langan, ular yordamida valyuta savdosini amalga oshiradigan ko'plab yirik tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalardan iboratdir. Shu ma'noda olganda valyuta bozori valyuta sotuvchilar va xaridorlarining aniq to'planadigan joyi emas. Istalgan bank valyutani eng maqbul kurs bo'yicha o'z hisobidan ham, o'z mijozining topshirig'iga ko'ra ham sotib olishi yoki sotishi mumkin.

Valyuta operatsiyalarining aksariyati naqdsiz shaklda, ya'ni bank hisobvarakdari bo'yicha o'tkazishlar shaklida o'tkaziladi, bozoming arzimagan qismigina tangalar savdosi va naqd pullarni almashtirishga to'g'ri keladi.

Bir qator mamlakatlarda banklararo valyuta bozorining bir qismi tashkiliy jihaidan valyuta birjasi ko'rinishida rasmiylashtirilgan.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, dam olish kunlaridan tashqari, valyuta bilan kunu tun savdo qilishga imkon beradi. Masalan, butun dunyo bo'yicha tarmoq otgan filiallarga ega bo'lgan G'arbiy Yevropa banki operatsiyalarni bir soat mintaqasidan boshqasiga o'tkazib, dollar bilan Singapur, Frankfurt, Nyu-York va Toshkentda savdo qilishi mumkin.

Zamonaviy aloka va telekommunikatsiya vositalari jahon moliya markazlarini bog'laydi, ular orasida bir butun yaxlit bo'lgan London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt va Singapur bozorlari eng yiriklari hisoblanadi. Dunyodagi 50 dan ortiq mamlakat banklari pul mablag'larini darhol o'tkazish uchun Jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiya jamiyati (SWIFT) xizmatidan foydalanadi. Ushbu jamiyat yordamida mijozlarga pullar o'tkaziladi, valyuta bitimlari, banklararo o'tkazmalar tasdiqlanadi, o'tkazmalar hujjatlashtiriladi va hokazo. Jahon valyuta bozorida, shuningdek, cheklarni yuborishning xalqaro elektron tizimi — banklararo kliring to'lovlari tizimi (CHIPS) faoliyat ko'rsatadi. U xar kuni, ish kunining oxiriga kelib katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Valyuta bozori ishtirokchilari o'rtasidagi valyuta operatsiyalarini valyutalarni almashtirish va uning nisbatlarini belgilamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkita pul birliklarini almashtirishning nisbati yoki boshqa mamlakatning pul birligida ifodalangan bitta pul birligining narxi **valyuta kursi** deb ataladi.

Chet el pul birligining milliy pul birligida belgilanishi **valyutalar kotirovkasi** deb ataladi. Bunda chet el pul birligining kursi bevosita kotirovka shaklida ham (chet

el valyutasining 1, 10, 100 birligi — milliy valyutaning N ta birligi), tesqari kotirovka shaklida ham (milliy valyutaning 1, 10, 100 birligi = chet el valyutasining N ta birligi) belgilanishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda chet el valyutasining kursini belgilashda bevosita kotirovkadan foydalaniladi, bundan Angliya va Irlandiya mustasno. AQSHda ikkala kotirovka qo'llaniladi.

Hozir dunyoda 150 ga yakin milliy pul birligi mavjud. Binobarin, 22350 ta (150 x 149) turli almashtirish kurslari bo'lishi kerakdek tuyuladi. Biroq dunyodagi mavjud valyutalarning hammasi ham xalqaro bitimlarda faol ishtirok etavermaydi, binobarin, bir-biri bilan almashtirilmaydi. Ikki mamlakatning valyutalari bir-biriga almashtirilmasa yoki bunday almashtirish arzimas miqyoslarda bo'lsa, kross-kursdan foydalaniladi. Kross-kurs valyuta operatsiyalarida keng foydalaniladigan uchinchi mamlakat valyutasi (odatda AQSH dollarri) yordamida hisob-kitob nuli bilan chiqariladi va ikki mamlakat valyutalari o'rtaisdagi, ularning uchinchi valyutaga nisbatan kursidan kelib chiqadigan nisbatidir. Boshqacha qilib aytganda, ko'pchilik valyuta operatsiyaları AQSH dollarida ifodalanganligi sababli, odatda dollar bo'lmagan ikkita valyuta o'zaro kross-kurs yordamida munosabat o'matadi.

Xalqaro bitimlarda ko'pincha valyutalarning butun bir to'plamiga (valyutalar savatchasiga) nisbatan milliy valyutaning o'rtacha kursini belgilash zarurati paydo bo'ladi. Ana shu maqsadda valyutalar savatchasining qiymati joriy kotirovkalar bazasida biror-bir bitta valyutada hisoblanadi. Agar bunday valyutalar savatchasiga birorta nom berilsa, yangi umumiylar valyuta paydo bo'ladi.

Odatda, savatchaning kursi unga kiradigan har qanday alohida valyutaning kursiga qaraganda ancha barqaror bo'ladi. Shuning uchun bir xil umumiy valyutalar xalqaro hisob-kitoblarda keng ko'llanilmog'ida. Yevropadagi o'ndan ortiq davlat valyutalari hosil etadigan savatcha bazasida hisob-kitob qilinadigan Yevropa pul birligi — EKYU bunga misol bo'la oladi.

1976-yildan beri XVFning Yamaykadagi anjumanidan so'ng muomalaga yana bir umumiylar valyuta: SDR — o'zlashtirishning maxsus huquqlari (special drawing rights — SDR) kiritildi, u 1981-yiddan boshlab beshta valyuta — AQSH dollarri, nemis markasi, yapon ienasi, fransuz franki va ingliz funt sterlingidan tashkil topgan savatcha bazasida hisob-kitob qildi. SDRni Xalqaro Valyuta Fondi chiqaradi, ular dollar va oltinga muqobil bo'lgan eng muhim rezervuarlardan biri sanaladi. SDRni qo'llash sohasi EKYUnikidan torroq, u xususiy sektorga ta'tbiq etilmaydi.

EKYU va SDR xalqaro hisob-kitoblarda eng ma'lum va keng qo'llaniladigan umumiylar valyutalardir. Biroq ular bilan bir qatorda, ba'zi mamlakatlar milliy valyutalar kurslarini hisob-kitob qilishda va bir qator xalqaro bitimlarni amalga oshirishda maxsus nomi bo'lmagan turli valyuta savatchalaridan foydalanadilar. Avstriya, Isroiil, Finlyandiya, SHvetsiya valyutalari kurslari shu tarzda shakllantiriladi. SHved kronasi kursini, masalan, SHvetsiyaning eng muhim savdo sheriklari bo'lgan mamlakatlarining o'n beshta valyutasi belgilaydi.

1999-yil 1 yanvardan G'arbiy Yevropada davlatlari valyuta ittifoqi faoliyat ko'rsata boshlashi bilan bir vaqtida yangi Yevropa valyuta tizimi kuchga kiritildi. Shu paytdan boshlab EY mamlakatlari yangi umumiylar valyuta — euro joriy etildi.

Valyuta kursi asosan uzoq muddatli rejada savdo balansi holati bilan belgilanadigan, valyuta talab va taklifining nisbati ta'sirida shakllanadi. Talab va taklifning nisbatida foiz stavkalari juda muhim rol o'ynaydi, chunki har doim sarmoyani eng foydal tarzda qo'yishga intilishadi va uni foiz stavkalari yuqori bo'lgan joyga investitsiyalashadi. Taklifi cheklangan valyutaning kursi o'sadi, ayni vaqtida taklifiga serob valyutaning kursi tushadi.

To'lov balansining qolati va rivojlanishi kursni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. To'lov balansi asosan tovarlar eksporti va importining nisbati bilan belgilanadi, biroq sarmoyalari harakati va xizmatlar ayriboshlashning roli o'sib boradi, ular savdo balansi muvozanasiz bo'lishining muayyan tamoyillarini kuchaytiradi.

Davlatning iqtisodiy siyosati kurslarni shakllantirishga, ayniqsa qisqa muddatli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta bozorlarining professional ishtirokchilari uchun shunchaki «valyuta kursi» mavjud emas. U ikki kursga bo'linadi: xaridor kursi va sotuvchi kursi.

Xaridor kursi — rezident bank chet el valyutasini milliy valyuta uchun sotib oladigan kurs, sotuvchi kursi esa — u chet el valyutasini milliy valyuta uchun sotadigan kurs. Masalan, 1\$=1,8635/55 DM kotirovkasi Germaniyadagi tijorat banki 1 dollarni mijozdan 1,8635 markaga sotib olib, 1,8655 markaga sotishga tayyorligini anglatadi.

Bevosita kotirovkada sotuvchi kursi xaridor kursiga qaraganda ancha Yuqori bo'ladi.

Sotuvchi kursi bilan xaridor kursi o'rtaqidagi farq marja deb ataladi, u chiqimlarni qoplaydi va bankning valyuta operatsiyalari bo'yicha foydasini shakllantiradi.

Shubhasiz, har qanday bank xaridor kursining iloji boricha past va sotuvchi kursining iloji boricha Yuqori bo'lishidan manfaatdor, mijoz uchun qattiq raqobatgina banklarni boshkacha ish tutishga majbur etadi. Marjani qisqartirish va mijozlarni jalg etish foyda massasini ko'paytirishga imkon beradi.

Odatda, marja besh, o'n, yigirma punkt yoki piksdan iborat bo'ladi, verguldan keyingi uchinchi va to'rtinchiligi belgilarni shunday deb ataladi: «big figura» deb ataluvchi dastlabki uch raqam bunda odatda o'zgarmasdan qoladi.

Turli bozorlarda narxdagi farkdan tezroq foyda olish «valyuta arbitraji» deb nomlanadi. Uning mohiyati bir joyda arzonga olib, boshqa joyda qimmatga sotishdir.

Valyuta opsonlari tovar birjasidagi opsonlarga o'xshaydi. Opcion xaridorga avvaldan belgilangan vaqtida chet el valyutasining muayyan summasini oldindan belgilangan kurs bo'yicha sotib olish huquqini beradi.

Sodir etilish muddatlariga qarab valyuta kurslari quyidagilarga tabaqlananadi:

- **joriy (kassa) valyuta kursi** — hozir, ya'ni ikki bank kuni davomida amalga oshiriladigan bitimlarga doir kurs;

- **muddatli (forvard) valyuta kursi** — ma'lum muddatda (masalan, uch oy, yarim yilda) amalga oshiriladigan operatsiyalarga doir kurs.

Valyuta bozorlarda chet el valyutasining oldi-sotdisi kassa (naqd) bitimi va muddatli valyuta bitimi shaklida yuz beradi.

**Kassa bitimi** «spot» shartlarida amalga oshiriladi va asosan tashqi savdo hisob-kitoblarida chet el valyutasini darhol olish, shuningdek, kurslar o'zgarishiga doir

ehtimoliy valyuta yo'qotishlaridan qochish maqsadida qo'llaniladi. Kassa operatsiyasi uchun bitim tuzish payti amalda uni bajarish payti bilan mos tushishi xosdir. Valyuta xaridorga bitim tuzilishi bilan darhol yetkaziladi, hisobga yozish sanasi sifatida bitim tuzilgan kundan keyingi ikkinchi ish kuni olinadi. Valyutani etkazish muddati «valyutalash sanasi» deb nomlanadi.

Sotilgan valyutani sotuvchi, odatda, oluvchi bank ko'rsatgan hisobvara qqa o'tkazadi. Naqd bitimlar kurslari kotirovka jadvallari (byulletenlar)da e'lon qilinadi. Bunday operatsiyalar valyuta bozorlarida eng keng miqyosda qo'llaniladi va hozirgi vaqtida banklararo bozor umumiy hajmining taxminan 55 foizini tashkil etadi.

Muddatli valyuta bitimi tashqi savdo operatsiyalari, bevosita, xorijdagи portfel investitsiyalari bo'yicha to'lovlarni sug'urtlash uchun va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi. Bitim valyutani sotuvchi bilan uning xaridori o'tasida uni xaridorga bitim tuzilganidan keyin muayyan vaqt o'tgach va tuzish paytida belgilangan kurs bo'yicha etkazib berish to'g'risida shartnomaga tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Muddatli valyuta bitimini tuzish paytida kursning o'zgarish istiqbollarini to'g'ri baholash juda muhimdir. Muddatli bitim bo'yicha valyutalar kursi, bir tomonдан, uni tuzish paytida valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati, boshqa tomonidan, alohida valyutalar bo'yicha foiz stavkalari o'tasidagi farq bilan belgilanadi va kassa kursiga mukofotni qo'shish — ajio (report) yoki undan diskont (deport)ni chegarish yo'li bilan o'matiladi. Agar muddatli bitim bo'yicha kurs kassa operatsiyasi bo'yicha kursdan past bo'lsa, kassa kursidan diskont chegiriladi. Va aksincha, agar valyuta muddatli bitim yoki naqd operatsiya bo'yicha qimmatroq kotirovkalansa, spot bitimi bo'yicha kursga ajo qo'shiladi.

Forvard valyuta kurslari singari holatning paydo bo'lishi pirovard oqibatda valyuta arbitraji jarayonlari bilan bog'langan. Valyuta bozori ishtirokchilar bu operatsiyalarni sof chayqovchilik yoki valyuta xatarlarini sug'urtlash maqsadlarida amalga oshiradilar. Bunda xejerlar (xatarni sug'urtalovchilar)ning maqsadlari chayqovchilarnikiga tamomila qarama-qarshidir.

Valyuta almashtiriladigan asosiy qoidalar va valyuta kurslari o'zgarishini belgilaydigan omillarning tahlili valyuta munosabatlari tizimi orqali jahon xo'jalik aloqalari tizimida ichki iqtisodiyotning dinamik muvozanatiga erishilishini ko'rsatmoqda.

Mazkur muvozanatni tartibga solish vositasi sifatida davlat valyuta siyosatini shakllantirish ko'p jihatdan valyuta kurslari rejimi bilan belgilanadi.

Valyuta kursini belgilash rejimiga nisbatan davlatning ikkita muqobil pozitsiyasi (Markaziy bank va Moliya vazirligi timsolida) quyidagi holatga olib keladi:

1. Davlat milliy valyutani almashtirish kursini muayyan darajada qattiq belgilab, o'z zimmasiga uning barqarorligini qo'llab turish majburiyatini oladi. Belgilangan kurslar biznes uchun juda qulay, chunki tadbirkorlik faoliyatini prognoz qilish imkonini beradi.

2. Davlat valyuta kursiga talab va taklif ta'sirida erkin o'zgarishga imkon beradi. Bu holda moslashuvchan valyuta kursi yoki suzuvchi kurs yaqqol ko'rindan.

Muayyan mamlakatda belgilangan kurslar yoki suzuvchi kurslar rejimi o'rnatalganiga qarab, buzilgan muvozanatni tiklash uchun iqtisodiy dastaklarning turlicha to'plami qo'llaniladi.

Begilangan kursda ichki iqtisodiyotda o'zgartishlar amalga oshirilishi kerak, toki mavjud valyuta kursida tashqi disbalans barham topsin. Masalan, to'lov balansining kamomadi chog'ida milliy valyutaga talab tiklanmagunga qadar valyuta zaxiralarni sotish hisobiga kelib chiqadigan barcha deflyasiya oqibatlari bilan, pul massasini qisqartirish, pul-kredit siyosatini qattiqlashtirish lozim bo'ladi.

Suzuvchi kursda boshqacha mushkullik ehtimoli bor. Valyuta kursi qisqa muddati (chayqovchilik) omillar ta'sirida iqtisodiyotning makroiqtisodiy balanslanmaganligiga ortiqcha baho berib yuborishi, bu esa nomaqbul tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Markaziy banklarning valyuta bozorlariidagi intervensiysi va iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida turli pul-kredit dastaklarini faol qo'llash, garchi xalqaro valyuta tizimining tadrijiy rivojlanishi, umuman olganda begilangan valyuta kurslaridan suzuvchi kurslar yo'nalishi tomon borgan bo'sada, hozirgi vaqtida valyuta kurslarining na u, na bu rejimi sof ko'rimishda amalda mavjud emasligi to'g'risida so'zlash imkonini beradi.

## **9.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda Xalqaro Valyuta Fondining roli va ahamiyati**

XX asr o'rtalarida keng tarqalgan mahsulotlar va xizmatlarni, kapital va ishchi kuchini, ilmiy-texnik axborotlar va boshqarishning yangi usullarini xalqaro ayriboshlash qator davlatlarning o'zaro kelishilgan harakatlari asosida hal etilishi kerak bo'lgan bir qancha muammolarni yuzaga keltirdi.

Bunday muammolar qatoriga quyidagilar kiradi:

- bojxona tariflari va bojlari, eksport va import kvotalari, narxlar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqalar xususida kelishib olish zarurligi;
- jahon bozorida sotiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish, transportda tashish, saqlash va ulardan foydalanishning texnik-iqtisodiy, ekologik shartlariga qo'yiladigan yagona talablarni ta'minlash;
- turli mamlakatlardagi hisobot, statistika, rejalashtirishning uslubiy asoslarini, qonuniy va me'yoriy bazasini bir xil andozaga keltirish zarurligi va boshqalar.

Boshqacha qilib aytganda, turli mamlakatlar o'rtasida aloqalarni barqarorligi va o'sishini ta'minlash, ayriboshlash uchun teng huquqli sharoitlarni yaratish va uning yo'lidagi barcha to'siglarni yo'qotish, har bir mamlakat xususiyatidan kelib chiqqan holda uning tashqi iqtisodiy va moliyaviy aloqalarini har tomonlama rivojlantirish maqsadida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarga ehtiyoj yuzaga keldi.

Jahon valyuta tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, jahon moliyaviy resurslar bozorini barqarorlashtirish va kapital aylanishini rag'batlanishish maqsadida tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkilotlarining eng ahamiyatlisi Xalqaro

Valyuta Fondi hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Fondi 1945- yilning oxirlarida ish yurita boshladi, hozirda unga O'zbekiston bilan birgalikda 182 mamlakat a'zodir.

Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish va ularga to'lov balansini tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun qarz berish uning uchun fond to'lov balansida qiyinchiliklarda o'z a'zolarini moliyalashtiradi, ularning xo'jalik yuritish usullarini yaxshilashga qaratilgan texnik yordam ko'rsatadi. Oxirgi o'n yillarda XVFning moliyaviy vositachi va yirik kreditor sifatidagi roli oshdi.

Fondning moliyaviy resurslari a'zo mamlakatlar badallaridan, shuningdek, rasmiy va xususiy moliyaviy muassasalardan bozor sharoitida qarzga olingan mablag'lardan tashkil topadi. Badallarning miqdori mamlakatning fond kapitalidagi hissasiga bog'liq bo'lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) a'zolari hissasi deyarli 62 foiz, jumladan, AQSHga 20 foizga yaqin va rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 38 foiz to'g'ri keladi.

Hozirda xalqaro iqtisodiyot barqarorlikka erishishi maqsadida XVF uch asosiy vazifani bajaradi: kuzatish va nazorat, moliyalashtirish va texnik yordam ko'rsatish.

XVFning *kuzatish* va *nazorat* (*surveillance*) funksiyasi a'zo mamlakatlarning valyuta kurslarini o'matish va u bilan bog'liq bo'lgan makroiqtisodiy siyosati ustidan qattiq nazoratni amalga oshirishdan iborat.

Har bir mamlakat XVF so'rovi bilan uning iqtisodiy siyosati ustidan kuzatuv va nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishga majbur. Ushbu axborot, odatda real pul, byudjet va tashqi sohalar hamda hukumatning tarkibiy siyosati (xususiylashtirish, mehnat bozori, atrof-muhit) haqidagi har tomonlama chuqur ma'lumotlardan iborat. Kuzatuv va nazorat ishlarinint asosiy maqsadi valyuta kurslari barqarorligiga ta'sir etuvchi xavfli makroiqtisodiy nomutanosibliklarni o'z vaqtida aniqlab, eng yaxshi jahon tajribasidan foydalangan holda, ularni to'g'rinishda mamlakat hukumatlariga takliflar berishdir. Iqtisodiy siyosat ustidan nazorat XVF tomonidan uch shaklda amalga oshiriladi:

• *IV modda bo'yicha maslaxatlar berish* (*article IV consultations*), ya'ni XVF haqidagi Nizomning IV moddasi doirasida a'zo mamlakatlar bilan o'tkaziladigan ikki-yoqlama maslaxatlar iqtisodiy siyosat ustidan amalga oshiriladigan nazoratning asosiy shakli bo'lib, unga ko'ra XVF komissiyalari a'zo mamlakatlarga har yili boradilar va moliya vazirligi, markaziy bank, iqtisod vazirligi va boshqa idoralar bilan milliy iqtisodiyotning rivojlanishi haqida muzokara o'tkazadilar, Bunday maslaxatlar natijalari bo'yicha XVF missiyasi mamlakat iqtisodi haqida hukumatdan mustaqil fikr-mulohazalar ishlab chiqadi, XVF Direktorlar kengashiga ma'ruza tayyorlaydi va unga iqtisodiyotni yaxshilash uchun hukumat taddbirlari qanday bo'lishi kerakligi haqidagi tavsiyalar, albatta, kiritiladi. Direktorlar kengashi missiyaning ma'ruzasini ko'rib chiqadi, hukumat fikr-mulohazalarini o'rganadi va ko'pchilik ovoz bilan xalqaro anjuman nomidan hukumat uchun o'z tavsiyalarini taqdim etadi. Hukumat ularni inobatga olishi yoki olmasligi mumkin, lekin odatda bu tavsiyalar juda jiddiy qabul qilinadi. Bunday maslaxatlar mahfiy, konfidensial ravishda o'tkazilishi XVF va hukumat tomonidan masalalarni ochiq-oydinlik bilan muhokama qilishga imkon bersada. Direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlangan XVFning ma'ruzasi shaklidagi

maslaxatlarning natijalari hukumatga tegishli bo‘ladi. Bu natijalarni hukumat chop etishi, hukumat faoliyat dasturlariga qo‘sishi, xususiy biznes vaqillariga taqdim etishi mumkin va h.k. Ko‘pchilik mamlakatlar bilan bundam maslaxatlar yilda bir marta, ba’zi mamlakatlar bilan, ayniqsa, iqtisodiyoti barqaror bo‘lgan kichik mamlakatlar bilan 1,5-2 yilda bir marta o‘tkaziladi.

*Ko‘pyoqlama kuzatish va nazorat (multilateral surveillance)* — bu Direktorlar kengashi tomonidan bir yilda ikki marta maxsus chop etiladigan «Xalqaro iqtisodiy sharh (World Economic Outlook)» asosida amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodning tahlili. Ushbu ko‘pyoqlama kuzatuv va nazoratning asosiy vazifasi alohida mamlakatlar iqtisodlari rivojini butun jahon iqtisodidagi ahvoldan kelib chiqqan holda unga moslashtirishdir. Neft va boshqa asosiy resurslar jahon narxining o‘zgarishi, xalqaro valyuta va moliya bozorlari, qisqa muddatli kapitalning chayqovchilik maqsadlaridagi harakati, integratsiya jarayonlari va yana shunga o‘xshash ko‘pchilik jarayonlarni faqat milliy iqtisodiyotlar, ular qanchalik katta bo‘lmasin, nuktai nazaridan tushuntirib bo‘lmaydi. Ko‘pyoqlama kuzatuv va nazoratning eng muhim qismi jahon iqtisodidagi ahvolning 2-3 yilga prognozi hisoblanadi. Ushbu prognoz haqiqiy YAMM o‘sishi sur’atlari, inflyasiya, budjet tanqisliklari, to‘lov balansi joriy to‘lovlar hisobi, tashqi qarz hajmi, savdo shartlari, xalqaro zaxiralalar prognozini o‘z ichiga oladi. Bunday prognoz har bir mamlakat uchun hukumatlardan oxirgi 18 modda bo‘yicha maslaxatlar chog‘ida olingan ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadi, keyin mamlakatlar bo‘yicha guruhlanib, butun jahon uchun tuziladi.

*Chuqurlashtirilgan kuzatuv va nazorat (enhanced surveillance)* — XVF tomonidan hukumatlar so‘rovi asosida a‘zo mamlakatlar iqtisodiyoti ustidan makroiqtisodiy disbalanslarni bartaraf etish uchun barqaror iqtisodiy rivojlanishni kafolatlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat mexanizmidir. Ushbu mexanizm 1985-yilda kreditor mamlakatlar rivojlanayottan qarzdor mamlakatlardan tashqi qarzlarini to‘lashlari bo‘yicha qat‘iy choralarни ko‘rishni talab qilganlaridan keyin yaratilgan. Hukumatlar va tijorat banklari tomonidan majburiyatlар muddatlarini ko‘chirish sharti XVF tomonidan tarkibiy o‘zgartirish rejalarini bajarish ustidan chuqurlashtirilgan kuzatuvning joriy etilishi bo‘ldi. Chuqurlashtirilgan kuzatuv va nazorat XVF tomonidan mamlakat iqtisodini har chorakda tahlil qilib, uning natijalarini Direktorlar kengashida ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lib, keyinchalik bu mexanizmdan boshqa mamlakatlar ham iqtisodiy islohotlar bo‘yicha hukumat rejalarining xalqaro miqyosdagi salmog‘ini oshirish usuli sifatida foydalana boshladilar. Bunday rejalarning XVF tomonidan rasmiy ma‘qullanishi mamlakatga xorijiy kapital oqimini kuchaytiradi va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytiradi.

• *Moliyaviy yordam (financial assistance)* ~ to‘lov balanslarini moliyalash bo‘yicha qiyinchiliklarga duch kelgan va bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha islohotlar dasturini XVFga taqdim etган a‘zo mamlakatlar tomonidan XVF moliyaviy resurslaridan foydalanish mexanizmidir. XVF a‘zo mamlakatlarga moliyaviy yordamni ixtiyoridagi moliyaviy manbalar hisobiga amalga oshiradi. Bu manbalar XVFga qarashli manbalardan, ya’ni har bir a‘zo mamlakatning kvota bo‘yicha XVF ustav kapitaliga to‘lovlaridan, moliyaviy manbalardan foydalanganligi evaziga to‘lanadigan foizlar hisobiga olingan daromadlardan hamda turli jaib qilingan

manbalardan, ya'ni XVF uchun 1962- yil zayomlar haqidagi Bosh bitim va 1996-yildagi zayomlar bo'yicha yangi bitim doirasida ochilgan kredit liniyalari va hukumatlar va ularning markaziy banklari tomonidan berilgan boshka kredit liniyalaridan iborat. Moliyaviy yordam kredit shaklida berilmaydi. Mamlakat XVFdan kredit olayotganda milliy valyutaga xorijiy valyutani sotib oladi; kredit to'layotganda xorijiy valyutaga milliy valyutani sotib oladi. XVF kreditlari qisma-qism, transhlar bilan beriladi. Zaxira transhi mamlakat xalqaro zaxirasining bir qismi bo'lib hisoblanadi va uni sotib olish XVF moliyaviy manbalaridan foydalanish bo'lib hisoblanmaydi. XVF manbalaridan foydalanishning barcha boshqa hollari ulami mamlakat XVF bilan muvofiqlashtirgan iqtisodiy islohotlar dasturini bajarishi mobaynida qism-qism ajratilishini ko'zda tutadi. Mamlakat uning XVFdag'i kvotasining 25foizidan oshmaydigan hajmdagi birinchi kredit transhini olishi uchun u to'lov balansi qiyinchiliklarini bartaraf qilishga qaratilgan istaklarini aniq-ravshan ko'rsatishi zarur. Mamlakat faqat hukumat va XVF o'rtaida muvofiqlashtirilgan iqtisodiy islohotlar dasturlari doirasida o'rnatilgan mezonlarni bajarsagina, keyingi kredit transhlarini olishi mumkin. XVFning moliyaviy manbalar a'zo mamlakatlarga qarashlidir, shuning uchun bu manbalar daxlsizligi va qaytarilishini ta'minlash XVFning mas'uliyatiga kiradi.

Moliyalashtirishning shartliligi (conditionality), ya'mi a'zo mamlakat XVF tomonidan amalga oshiriladigan moliyalashtirilishga kiritilishi uchun XVF bilan muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish kerakligi. XVF moliyaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatlari a'zo mamlakatlarni tomonidan XVF ekspertlari va hukumat tomonidan to'lov balansi bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dasturi doirasida ishlab chiqilgan alohida shartlarning bajarilishiga asoslangan. Ikki tomon ham qaror qabul qilishda erkindirlar: agar hukumat XVF shartlariga qo'shilmasa, uning moliyaviy manbalaridan foydalanmasligi mumkin; agar XVF hukumat shartlariga qo'shilmasa, resurslarini hukumat ixtiyoriga bermasligi mumkin. Shuning uchun moliyalashtirishning shartliligi ekspertlarning mashaqqatli ishlari, ko'p sonli ikki oklama muzokaralar natijasidir. Moliyalashtirishning shartlilik tushunchasi quyidagi elementlarni qamrab oladi : a) dastlabki harakatlar — XVFdan moliyalashtirishni qabul qilishdan oldin iqtisodni isloh qilish bo'yicha hukumat amalga oshirish majburiyatini olgan tadbirlar; b) dasturlarni bajarish mezonlari — miqdoriy indikatorlar majmui, odatda, davlat byudjeti kamomadining hajmi, ichki kreditlar miqdori, xalqaro zaxiralar hajmi shaklida bo'lib, dasturning har bir choragi yoki yarim yilligi uchun o'matiladi va ularning bajarilishi XVF moliyaviy resurslariga davomiy kirishni ta'minlaydi; v) indikatorlar — islohotlar dasturlari bajarilishining oraliq miqdoriy ko'rsatkichlari, ular mezonlar emas, lekin ular bo'yicha mayjud yo'nalishlar haqida fikr yuritish va dasturlar bo'yicha ko'rsatkichlarni bajarish muammolarini oldindan ko'rish mumkin; g) tekshirish. XVF shtati va uning Ijrosi kengashi tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlar, ularda XVF moliyaviy manbalaridan foydalanuvchi mamlakatlarda dasturlarning bajarilishi tahlil etiladi.

XVFning moliyaviy manbalari uning a'zolariga «moliyaviy imkoniyatlar» deb nomlangan uch guruh moliyaviy oqimlar doirasida taqdim etiladi: doimiy, konsessiyali va maxsus.

Doimiy moliyalashtirish o'z ichiga XVF tomonidan 12-18 oyga qisqa muddatli makroiqtisodiy disbalanslarni bartaraf etish uchun taqdim etiladigan zaxira bitimlar doirasidagi moliyalashtirishni va 3 yilgacha muddatiga taqdim etiladigan va tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladigan Fond bilan uzaytirilgan bitimlarni oladi. Bunda kreditlar bozor foizlari sharti bilan to'rt yildan 10 yil muddatgacha beriladi. Konsessiyali moliyalashtirish aholi jon boshiga daromadi 825 dollarдан kam bo'lgan 81 eng kambag'al mamlakatlarga imtiyozli shartlar bilan (yillik stavkasi 0,5 foiz, 10 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli muddat bilan) beriladigan kreditlarni ko'zda tutadi. Maxsus moliyalashtirish XVF moliyaviy manbalarini a'zolarining alohida guruhiga yoki alohida munosabat bilan taqdim etilishini ko'zda tutadi. Masalan, 1993-1995- yillarda XVF o'tish davri mamlakatlari iqtisodining tarkibiy o'zgarishlarini moliyalash uchun maxsus moliyalashtirish oqimini tashkil etdi. 1988- yildan boshlab tabiiy ofatlar, eksport daromadlarining keskin pasayishi yoki import qilinayotgan don narxining oshib ketishi holatlarda XVF kreditlarini olish imkoniyati mavjud. XVFda kredit tushunchasi ishlatilmaydi, chunki barcha operatsiyalar xorijiy valyutani sotib olish va sotishdan iborat. Faqat konsessiyali moliyalashtirish kredit deb ataladi, chunki manbalar XVF kvotasidan emas, rivojlangan mamlakatlar badallari hisobiga maxsus tashkil etilgan maqsadli moliyaviy pul hisobidan olinadi.

Moliyaviy yordam hajmi mamlakatning XVF kapitalidagi kvotasi asosida belgilanadi. Masalan, doimiy moliyalashtirish doirasida mamlakat uz kvotasining 300 foiz igacha, konsessiyalida — 50, favqulodda moliyalashtirish doirasida esa kvotaning 30foizigacha qarz olishi mumkin.

*Texnik yordam (technical assistance)* — XVFning a'zo mamlakatlarga pul, valyuta siyosati, bank nazorati, byudjet va soliq siyosati, statistika, moliyaviy va iqtisodiy qonunchilikni ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash sohasidagi yordami.

Texnik yordam XVF missiyalarini yordam so'ragan mamlakatlar markaziy banklariga, moliya vazirligiga, statistika tashkilotlariga yo'naltirish, ekspertlarni bu organlarga 2-3 yilga yuborish, tayyorlanayotgan qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish orqali amalga oshiriladi. Venada XVFning Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan tuzilgan institutida a'zo mamlakatlar davlat tashkilotlarining o'rta va Yuqori boshqaruv organlarining xodimlari o'z malakalarini oshiradilar.

XVFning xalqaro hamjamiyat tomonidan unga yuklatilgan maxsus vazifasi bu xalqaro zaxiralarni SDR (SDR — special drawing rights; maxsus qarz olish huquqi) chiqarish orqali to'ldirib borishdir.

SDR 1969- yilda XVF tomonidan yaratilgan xalqaro zaxira aktivni bo'lib, a'zo mamlakatlar o'rtaida davriy ravishda ular kvotalariga proporsional hajmda taqsimlanadi.

Xalqaro iqtisodda jahon zaxiralarining taxminan 2foizini tashkil etgan SDR, oltin va xorijiy valyuta bilan bir qatorda xalqaro zaxira vazifasini bajaradi, XVF va

boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'Ichov birligi, ba'zi mamlakatlar valyuta kurslarini qatiy belgilash valyutasi, bir qator xususiy moliya vositalarining denominatori sifatida qo'llaniladi.

90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab SDRning dollarga nisbati 1:1,45 ni tashkil etdi. SDR har qanday boshqa valyutani sotib olish, svop bitimlarda, forward operatsiyalarida, kreditlar taqqid etish, tashqi moliyaviy majburiyatlarni to'lash, grantlar berish uchun ishlatalishi mumkin. SDR 1969- va 1981- yillarda chiqarildi va a'zo mamlakatlar o'rtasida taqsimlandi. Bu vaqt mobaynida 40 mamlakat, jumladan, Rossiya va sobiq SSSRning boshqa davlatlari a'zo bo'lgan bo'lsa, ular hali hech qachon SDR olganlari yo'q.

XVF resurslarining asosini a'zo mamlakatlarning kvotalari tashkil etadiki, ular tashkilotga a'zo bo'lish paytida uning ustav kapitaliga to'langan a'zolik badallaridan iborat. Bunda kvotaning 25 foizi erkin konvertatsiyadanadigan valyutada, qolgani esa milliy valyutada beriladi. Mamlakat kvotasi uning jahon ishlab chiqarishida xalqaro zaxiralar va hisoblardagi ulushi bilan belgilanadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(0,01Y + 0,025R + 0,05R + 0,2276VC)x(I+C/E).$$

bu yerda, U — mamlakat yalpi milliy mahsuloti; R — o'rtacha oylik zaxiralar hajmi; R — o'rtacha yillik joriy to'lovlari; S — o'rtacha yillik tushumlar; V/C — joriy tushumlarning ular o'rtacha yillik o'zgaruvchan ko'rsatkichlaridan standart farqlari.

Kvota hajmiga qarab: mamlakatning XVFdagi ovozlar soni (har bir mamlakat 250 ta bazaviy ovozlar soni qo'shuv kvotaning har bir 100 ming SDR uchun 1 ovoz huquqiga ega); XVF moliyaviy manbalariga kirish huquqi(bu mutlaq ko'rsatkichlarda emas, kvotaga nisbatan foiz miqdorida belgilanadi, masalan, kvotaning 50foizi); mamlakat olishi mumkin bo'lgan SDR miqdori belgilanadi. Eng katta kvotaga va eng ko'p ovozlar soniga AQSH (18 foiz), Yaponiya va GFR (5,7 foiz), Fransiya va Buyuk Britaniya (5,1 foiz), Saudiya Arabistoni (3,5 foiz), Italiya (3,2 foiz), Kanada (2,98 foiz), Rossiya (2,98 foiz) mamlakatlari ega. XVF ixtiyoridagi kapital summasi va kvotalar hajmi 144,9 mlrd. SDRni yoki 200 mlrd. dollarni tashkil etadi. Kvotalar hajmi har besh yilda qaytadan ko'rib chiqiladi. Bunday qilishdan maqsad XVF ixtiyorida xalqaro iqtisodiyotda inkirozli holatlar yuz berganda a'zo mamlakatlar tomonidan moliyalash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarni y yetarli xajmda ta'minlashdan iborat.

### 9.3. O'zbekistonda valyuta siyosatini erkinlashtirish bosqichlari

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 2-senabrdan "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Hujjatda O'zbekistonda valyuta bozorini erkinlashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Unga ko'ra, O'zbekistonda valyuta bozorini erkinlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilandi.

**Birinchi ustuvor yo‘nalish** sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning erkin ravishda xorijiy valyuta sotib olish va sotish hamda shaxsiy valyuta vositalarini o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etish huquqini amalga oshirish bo‘yicha choralar ni ta‘minlash belgilangan.

Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursini belgilashda bozor mexanizmlaridan foydalanish **ikkinch yo‘nalish** etib belgilangan.

Valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitini yaratish **uchinch yo‘nalish** sifatida kiritilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdan noan‘anaviy yo‘nalishlarda eksportni rivojlantirishda valyuta siyosatining rag‘batlantiruvchi rolini oshirish, hududiy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash ham o‘rin olgan.

Sifatl ishchi o‘rinlarini yaratish va mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida barcha iqtisodiyot sohalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni, bilimlarni va texnologiyalarni jalg qilishga imkon beruvchi biznes va investitsion muhitni yaxhilash to‘rtinch yo‘nalish sifatida qabul qilindi.

**Beshinch yo‘nalish** esa qat‘iy monetar siyosatni yuritishni nazarda tutadi. Unga ko‘ra, qat‘iy monetar siyosat milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashga qaratiladi. Bunda davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish va banklarga davlat qimmatli qog‘ozlari garovi asosida likvidlikni taqdim etsih operatsiyalari ko‘zda tutilgan.

**Oltinchi yo‘nalishga** asosan, monetar va fiskal siyosatni muvofiglashtirish vositasida pul massasining haddan ortiq ko‘payib ketishini to‘xtatib turish, shuningdek, Davlat budgetining balansiligini qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

Bank tizimi barqarorligini qo‘llab-quvvatlash va uning xatarlarga chidamliligini oshirish maqsadida valyuta siyosatini erkinlashtirishning banklar moliyaviy holatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini yengillashtirish uchun oldindan samarali choralar ko‘riladi. Bu yettinchi yo‘nalish etib belgilangan.

**Sakkizinch yo‘nalishga** ko‘ra, bazaviy sohalardagi korxonalarining yangi valyuta siyosatidagi samarali faoliyatini ta‘minlovchi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zaruriy choralar qabul qilinadi.

Valyuta siyosatini liberallashtirish jarayoni natijasida aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun ko‘p tomonlama yo‘naltirilgan ijtimoiy ko‘mak choralarining amalga oshirilishi to‘qqizinch yo‘nalish hisoblanadi<sup>9</sup>.

Milliy valyuta — so‘mnинг konvertatsiya qilinishining joriy etilishi respublikada amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining alohida ahamiyat kasb etuvchi jihatlaridan biridir. Konvertatsiyaning joriy etilishi deganda, odatda, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlarning xalqaro oqimlariga doir to‘lovlari bo‘yicha xorijiy valyutaning erkin xarid qilinishi va sotilishi tushumiladi. Sobiq ittifoq davrida milliy valyuta konvertatsiya qilinishining joriy etilishi hech bir ehtiyoj bo‘lmagan hol sifatida qabul qilingan edi. Bundan tashqari, ushbu masalaga sanoatlashtirish va iqtisodiy

<sup>9</sup> <https://daryo.uz/2017/09/03/ozbekistonda-valyuta-bozorini-erkinlashtirish-boyicha-ustuvor-yonalishlar-belgilandi>

o'sishni ta'minlash uchun tashkil etilgan oltin valyuta zaxiralariiga xavf soluvchi omil sifatida qaralar edi. Ammo O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishishi va mamlakat iqtisodiyoti bozor tamoyillari asosida isloh qilinishining boshlab yuborilishi bilan konvertatsiya asosiy va dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillarda milliy valyutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha ayirboshlanishini amalga oshirish uchun respublikada zarur shart-sharoitlar mavjud emas edi.

Respublika hukumati o'sha davrdayoq mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamayatiga integratsiyalashuvini ta'minlashni o'z oldiga muhim vazifalardan biri sifatida ko'ydi. Bunda asosiy e'tibor murakkab iqtisodiy vaziyat yuzaga kelgan bir sharoitda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni ko'zda tutgan holda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu harakatlar, bиринчи navbatda, iqtisodiyotning ichki imkoniyatlari va dunyo bozori kon'yunkturasini hisobga olib, yosh O'zbekistan davlatining xalqaro mehnat taqsimotida o'ziga xos mavqeni egallashiga yo'naltirildi.

Ma'lumki, O'zbekiston o'tgan asming 90-yillarida bir tomonlama rivojlangan, sobiq ittifoq respublikalarini arzon xom ashyo bilan ta'minlashga ixtisoslashgan iqtisodiyotga ega edi. Respublika sanoati esa, asosan yarim tayyor mahsulot turlarini ishlab chiqarar, korxonalardagi uskunalar batamom eskirgan yoki butkul ishdan chiqqan edi. Shu sababdan respublikada yetaricha tabiiy va mexnat resurslari bo'lishiga qaramasdan, xom ashyo, sanoat, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar chetdan katta miqdordagi valyuta hisobiga sotib olinardi.

Misol uchun, 90-yillarning boshlarida har yili salkam 1 mld. AQSH dollariga teng bo'lgan yoqilg'i-energetika mahsulotlari chetdan import qilinardi yoki birgina g'alla import uchun o'sha davrdagi o'rtacha jahon narxlari bo'yicha har yili 600 mln. AQSH dollaridan ziyod mablag' sarf bo'lardi. Holbuki, import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining deyarli barchasini, jumladan, g'allani shu erving o'zida yetishtirish uchun yetarli imkoniyatlari mavjud edi.

Ma'lumki, 1993 yilning ikkinchi yarmida O'zbekiston rubl zonasidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Bunga qator mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarining 1992 yilning oktyabr oyida Bishkekda tuzilgan yagona pul tizimi to'g'risidagi kelishuvga zid ravishda o'z milliy valyutalarini joriy etishlari hamda rublning yagona emitenti bo'lgan Rossiya Bankining naqd pullarni etkazib berishdan voz kechishi sabab bo'ldi. Natijada hali barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmasdan turib, 1993- yilda mamlakatimizda oraliq valyuta sifatida so'm-ko'pon muomalaga kiritildi.

Mana shunday og'ir sharoitda yosh davlatning valyuta siyosati iqtisodiy mustaqillikni qo'llab-quvvatlash hamda uning kelajakdag'i taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratildi. Boshqacha qilib aytganda, valyuta mablag'larining asosiy qismini milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga, eng avvalo, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni takomillashtirishga yo'naltirish bosh maqsad qilib qo'yildi.

Tabiiyki, bunday muhim vazifalarni qisqa muddatda hal qilish mumkin emasdi. Chunki bu yo'lda iqtisodiy otdagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan nomutananosibliklar jiddiy to'siq bo'lib turar edi. Milliy valyutaning to'la

konvertatsiyasini joriy etish esa xukumatdan munosib raqobatbardosh iqtisodiyot bilan jahon bozoriga kirib borishni ta'minlovchi strategiyani izchillik bilan amalgalashirishni talab etardi. Undan kutilayotgan maqsad esa faqat milliy valyutani chet el valyutalariga ayriboshlash imkoniga ega bo'lish emas, balki milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga teng huquqli integratsiyalashuvini ta'minlashdan iborat edi.

Jahon tajribasidan ham ma'lumki, ko'pgina davlatlar bozor munosabatlari ma'lum darajada shakllanib, iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan bosqichga etganidagina milliy valyuta konvertatsiyasiga erishishgan. Ushbu davlatlarda amalgalashirilgan barcha islohotlar asosida, shu jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalarda ham o'z mamlakati manfaatlari ko'zda tutilgan. Agarda ulardagi islohotlar jarayoni hamda XVF Nizomining 8-moddasini qabul qilish vaqtiga e'tibor qaratilsa, ushbu fikrning to'g'riligi yana bir bor o'z tasdig'i topadi. Hozirda Yevropa Ittifoqining to'liq a'zosi bo'lgan ayrim mamlakatlar XVF Nizomining Yuqorida qayd etilgan 8-moddasini faqat 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib qabul qilishgan. Vaholanki, ushbu mamlakatlarda bozor munosabatlari asrlar mobaynida shakllanib kelgan.

Shuningdek, bu o'rinda ayrim mamlakatlar turli inqirozlar davrida milliy valyutaning joriy konvertatsiyasi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlaridan muayyan muddatga voz kechishga majbur bo'lganligini ham e'tirof etish joiz.

Xalqaro tajriba va mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat tahlillariga suyangan holda, O'zbekiston hukumati va Markaziy banki mavjud imkoniyatlarni puxta chamlalab, milliy valyuta konvertatsiyasiga bosqichma-bosqich o'tish siyosatini olib bordi. Ma'lumki, O'zbekiston bilan bir paytda mustaqillikni qo'lga kiritgan ayrim sohib ittifoq davlatlarida valyuta tizimining muddatidan oldin erkinlashtirilishi natijasida milliardlab valyuta mablag'larining nazoratsiz ravishda xorijga chiqib ketishi kuzatilgan edi. Bundan tashqari, tegishli institutsional baza yaratilmasdan turib, to'liq konvertatsiyaga o'tilishi moliya bozorining ko'pgina segmentlarida tezkor foyda ketidan quvish jarayonlarining avj olishiga va ushbu mamlakatlarda moliyaviy inqirozning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Natijada juda katta miqdordagi valyuta mablag'larini moliyaviy inqiroz oqibatlari bartaraft etishga sarflandi.

Shuningdek, ushbu davlatlarda valyuta mablag'laridan oqilona foydalanmaslik tufayli ko'plab sanoat korxonalarining uskuna va texnologiyalari jismonan va ma'nani eskirib bormoqda. Masalan, mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, Rossiyadagi korxonalami ilgarigi holatiga qaytarish yoki ularni qaytadan jihozlash uchun o'rta hisobda 20-25 yil vaqt hamda 1,5-2 trln. dollar miqdorida qo'shimcha mablag' talab qilinlar ekan.

Agar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo ayrim mamlakatlar hamda qator Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari 1997-1998- yillarda boshdan kechirgan moliyaviy inqiroz e'tiborga olinadigan bo'lsa, barqaror iqtisodiy rivojlanish masalasini iqtisodiyotni, shu jumladan, valyuta siyosatini bir tomonlama erkinlashtirish yoki tashqaridan katta qarz olish evaziga hal qilib bo'lmasligi ayon bo'ladi. Aksincha, buning uchun sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqa ustuvor tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqaligina mustahkam asos yaratish mumkin.

O'zbekiston hukumati mamlakat uchun o'ta zarur bo'lgan valyuta mablag'larini faqat iqtisodiyotning ustuvor sohalariga, Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, import o'mini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlariga yo'naltirish yo'lini tanladi. Bunda asosiy e'tibor iqtisodiyotning ycqilg'i energetikasi, avtomobilsozlik, kimyo sanoati, transport, engil sanoat va g'allachilik kabi tarmoqlaridagi ishlab chiqarish salohiyatini tiklash va mustahkamlashga qaratildi. Misol tariqasida g'allachilik sohasini ko'rsatish mumkin. Mustaqillik davrida ushu tarmoqni rivojlantirish maqsadida har yili katta miqdordagi valyuta resurslari zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari va texnologiyalarini xarid qilish uchun yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25.02.2019 kuni mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim bo'lgan g'alla parvarishini tizimli tashkil etish va hosilga-hosil qo'shish bo'yicha amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar berdilar.

Ma'lumki, 2018- yilda ob-havo o'ta issiq va quruq kelganiga, janubiy viloyatlarda suv tanqis bo'lganiga qaramay fermerlarimizning fidokorona mehnatlari tufayli har gektardan o'rtacha 45 sentnyerdan hosil olinib, jami 5 million 200 ming tonnadan ortiq g'alla yetishtirildi.

Fermerlarni rag'batlantrish uchun 2019- yilda bug'doyning har bir tonnasi uchun 1 million 200 ming so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 1,6 barobar yuqori xarid narxi belgilandi.

Valyuta sivosatining bu tarzda yuritilishi, birinchi galda mamlakat iqtisodiyotida valyutani tejash va uning tushumini O'ko' paytirish imkonini beruvchi bir qator yangi sohalarning vujudga kelishiga olib keldi va ko'plab investitsion loyihalarning amalga oshirilishiga asos bo'ldi. Xususan, qisqa muddatlarda jahon andozalari darajasidagi ulkan majmua — Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurib bitkazildi, Farg'onadagi neftni qayta ishlash zavodi kayta ta'mirlandi, yirik Sho'rtan gaz-kimyo majmui ishga tushdi. Ayni shular tufayli 1996 yilga kelib O'zbekiston to'la neft mustaqilligiga erishdi va hatto uni eksport qilish imkoniga ham ega bo'ldi.

O'z navbatida, iste'mol bozorini to'ldirish borasida muhim qadam tashlanib, mamlakatda g'alla mustaqilligiga erishildi. Dehqon-fermer va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish maqsadida yer uchastkalarining ajratilishi natijasida ichki iste'mol bozori g'alla, kartoshka, meva, sabzavot, go'sht va sut kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'liq ta'minlandi. Bu hol, o'z navbatida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini xorij texnologayalari asosida qayta ishlash uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Pirovardida, mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida meva va sabzavotni qayta ishlash, go'sht va sut mahsulotlari, sariyog', pishloq, yogurt, qandolatchilik, non va non mahsulotlari, shuningdek, dori-darmon ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar tashkil etildi. "Namangankonserva", "Marhamat", "Konfarmsanoat" aksiyadorlik jamiyatları, "Nestle — O'zbekiston", "Samarqand — Praga" qo'shma korxonaları, "Meva", "Quva shirinliklari", "Konmit" korxonaları shular jumlasidandir.

Bundan o'n yillarcha avval respublika mahalliy sanoati paxtani qayta ishlashga ixtisoslashmagani bois etishtirilgan paxta tolasining deyarli hammasi chetga xomashyo sisatida arzon-garov eksport qilinardi. Ishlab chiqilgan davlat investitsiya dasturiga

ko'ra, yengil sanoat korxonalari, ya'ni paxtani qayta ishlash hamda to'kimachilik korxonalarini barpo etishga alohida e'tibor qaratildi. (1-ilova)

Bugun O'zbekiston jahon iqtisodiy hamjamiyatiga bazaviy tarmoqlari muayyan darajada taraqqiy etgan, import o'mnini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan sohalari rivojlangan kuchli iqtisodiyot bilan kirib bormoqda. Bunday oqilonna siyosat natijasida respublikaga yirik miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, mamlakatda mustahkam sanoat bazasi yaratildi, yonilg'i va g'alla mustaqilligiga erishildi, eksport va import tarkibining maqbullahtiriluvu asosida tashqi savdo balansining barqarorligi ta'minlandi.

Buning natijasida mamlakatda valyuta siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ya'ni milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini joriy etish imkonini beruvchi mustahkam iqtisodiy asos yaratildi. Xususan, O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari orasida birinchi bo'lib 1996- yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning real o'sishiga erishdi va so'nggi yillarda davomida uning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda respublika tashqi savdo aylanmasi ham muntazam ravishda musbat qoldiq bilan yakunlanmoqda.

Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ham ijobiyligi natijalarga erishilmoxda Jumladan, inflyasiyaning o'rtacha oylik darajasi 1994- yildagi 24 foizdan 2018- yil davomida iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi 14,3 foizni tashkil etdi.

2018- yil davomida INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,1 foizni tashkil etib, iqtisodiyotga inflyatsion bosim sentabr oyidan boshlab kuchayib borgan. Jumladan, 2018-yilning oxirgi to'rt oy davomida tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari o'sish darajasi 7,6 foizni tashkil etdi.

2018- yil dekabr oyida tovarlar narxi o'rtacha 2,3 foiz, yil boshidan esa 13,8 foizga qimmatlashgan bo'lsa-da, ushbu guruh indeksi iste'mol sektoridagi umumiyligi inflyatsiya darajasidan birmuncha pastroq darajani tashkil etdi (14,3 foiz).

Oy davomida tovarlar narxi sezilarli darajada qimmatlashishi yanvar (3,0 foiz) hamda dekabr (2,3foiz) oylarida qayd etilgan. 2018- yilning iyun va iyul oylarida (0,6 foiz va 0,5 foiz) esa aksincha, tovarlarning umumiyligi narxlari darajasining pasayishi, meva-sabzavot narxlaringin sezilarli darajada arzonlashganligi bilan bevosita bog'liq.

Respublikada islohotlarning keyingi bosqichidagi vazifalarga mos ravishda valyuta siyosati ham takomillashtirilib borilmoqda. Jumladan, birjadan tashqari va boshqa valyuta bozorlarida shakllanadigan kurslar bixillashtirildi, ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish hamda so'mning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyasini joriy etishga tayyorlarlik ishlari boshlab yuborildi.

Mazkur tadbirdarning amaliy davomi sifatida 2003- yilning 27- iyunida respublika hukumati va Markaziy banki tomonidan XVF bilan hamkorlikda milliy valyutamiz — so'mning xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini ta'minlash yuzasidan Harakat rejasи (Memorandum) tasdiqlandi. Unga ko'ra, 2003-yilning 15- oktyabridan korxona va tashkilotlar uchun so'mning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasi bilan bog'liq mavjud cheklolar bekor qilindi.

Shuningdek, aholi tomonidan valyuta almashuv shoxobchalari orqali naqt xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha mavjud cheklovlar ham olib tashlandi.

Eng muhim ushbu faoliyat rejasiga muvofiq yangi tahrirdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi va 2003- yilning 11- dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ikkinchi chaqiriq XIII sessiyasida qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Valyuta Fondi bilan tuzgan bitimda nazarda tutilgan majburiyatlar hisobga olingan holda sayqal topgan.

Qonundan o'rin olgan asosiy tushunchalar ("valyuta boyliklari", "valyuta operatsiyalar", "joriy xalqaro operatsiyalar", "kapital harakati bilan bog'liq bo'lgan valyuta operatsiyalar", "hosila moliyaviy vositalar") xalqaro amaliyotga va xalqaro shartnomalarning qoidalariga muvofiqlashtirilgan. "Valyuta boyliklari" ta'rifiga o'zgartirishlar kiritilgan.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar talab va taklifning joriy nisbati asosida shakllanadigan kurs bo'yicha amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Ushbu me'yor O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda almashuv kursi ko'p bo'lishidek nomatlub amaliyot qo'llanilmasligiga kafolat bo'ladi. Valyutani tartibga soluvchi davlat organi — Markaziy bankning vakolatlari, xo'jalik yurituvchi sybyektlarning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish chog'idagi huquqlari va majburiyatlar ham aniq belgilab berilgan.

Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Jumladan, korxonalarda moliyaviy javobgarlikni oshirish, bankrotlik mexanizmini kuchaytirish, davlat korxonalarini xususiy lashtirish jarayonini yanada jadallashtirish va iqtisodiyotning xufiya tarmog'iga barham berish borasida aniq choratadbirlar dasturi amalga oshirila boshlandi.

Shu tariqa valyuta rejimining erkinlashtirilishi milliy iqtisodiyot uchun kutilayotgan muayyan imkoniyatlardan to'laligicha foydalanish uchun zamin yaratadi. Milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini joriy etish natijasida O'zbekiston iqtisodiyotida yaqin kelajakda qanday ijobji o'zgarishlami kutish mumkin, degan savol tug'iladi. Avvalambor, respublikada investitsion muhit yaxshilanishi orqali iqtisodiyot hamda bank-moliya tizimiga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar xajmi ortadi. Pirovardida, mamlakatga zamонавиу texnologiyalar, marketing va menejmentning ilg'or usullari kirib keladi, yangi ishlab chiqarish obyektlari barpo etiladi, ish o'rnlari yaratiladi, mahalliy bozorlarda raqobat kuchayadi hamda ishlab chiqarish samaradorligi sifat jihatidan o'zgaradi.

Shu bilan birga, valyuta siyosatini erkinlashtirish iqtisodiyotning eksportga mo'ljallangan tarmoqlarini rag'batlantirishda muhim turtki bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning an'anaviy va yangi tarmoqlarida markazlashmagan eksport hajmining oshishiga, kichik va o'rta biznes korxonalarining tashqi bozordagi faoliyati jadallahuviga hamda xalqaro bozor kon'yunkturasiga moslashib borishiga va oxir-oqibat ularning mamlakat YAIMdag'i salmog'ining ortishiga olib keladi.

Shuningdek, valyuta bozorining erkinlashtirilishi banklarning moliyaviy vositachilik rolini oshirish, ularning depozit va investitsion faoliyatini jadallashtirish, korxonalar o'tasidagi to'lovlarni tezlashtirish hamda iqtisodiyotdagi o'zaro qarzdorlikni kamaytirishga ijobiylari qiladi. Bundan tashqari, so'mning almashuv kursi barqaror ravishda saqlab turilishi mamlakatning valyuta, pul va moliya bozorlarini mustahkamlaydi, inflayusion jarayonlarni hamda valyuta kursi bilan bog'liq xayf-xatarni kamaytiradi, xo'jalik yurituvchi sybyektlarning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini yuritish, soliqlar, bojxona hamda boshqa to'lovlarni amalga oshirish jarayonini ettishtiradi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, valyuta rejimining erkinlashtirilishi nafaqat xo'jalik yurituvchi sybyektlarga, balki aholi uchun ham keng imkoniyatlar ochib beradi. Masalan, fuqarolar naqd chet el valyutasini erkin sotish va sotib olish bilan birga valyuta bozorida savdo bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalar, masalan, xorijda ta'llim olish yoki davolanish uchun milliy valyutani konvertatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa aholining xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga xizmat qiladi.

Nihoyat, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xususan, xalq iste'moli mollari, oziq-ovqat va engil sanoat korxonalarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Bunday korxonalarda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan va xorijdan keltiriladigan xom ashyo hamda ehtiyoj qismlarni import qilish uchun valyuta mablag'larini erkin sotib olish imkoniyati yanada kengayadi. Bu esa ichki bozorni mamlakatda ishlab chiqariladigan sifatlari bilan to'ldirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, valyuta rejimining erkinlashtirilishi O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, mamlakatdagi investitsion muhitni yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali milliy iqtisodiyot rivojiga salmog'i ijobiylari ta'sir ko'rsatadi.

#### **9.4. O'zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari**

O'zbekistan Respublikasining xalqaro moliya tashkilotlariga kirishining, ushbu tashkilotlarga a'zoligi va respublikami rivojlantirish uchun ular imkoniyatlaridan foydalananining huquqiy asoslarini mamlakat parlamenta 1992- yil 2- iyulda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Valyuta Fondiga, Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot bankiga, Xalqaro taraqqiyot uyushmasiga, Xalqaro moliya korporatsiyasiga, Investitsiyalar kafolati ko'p tarafliligi a'zoligi to'g'risida»gi maxsus Qonun bilan belgilanadi.

O'zbekistan Respublikasi XVFga 1992- yil 21- sentyabrda a'zo bo'ldi. Keyinroq, 1993- yil sentyabrida Toshkentda XVFning mintaqaviy vakolatxonasi ochildi. XVF missiyasi hukumat va O'zbekiston Respublikasi MB ga yordam va konsalting xizmatlari ko'rsatadi. XVF sa'y-harakatlari hukumatning pul va valyuta siyosatini o'tkazishdagi imkoniyatlarini takomillashtirishga, statistika ma'lumotlarini

yig‘ish, ularni tahlil qilish, bank faoliyati ustidan nazorat qilish va iqtisodiyotning zaif sohalarini aniqlashga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston uchun kvota 1993- yil 16- apreldan boshlab 199,5 mln. SDR hajmida belgilangan.

Jahon banki, XVF va boshqa xalqaro moliya va kredit tashkilotlari bilan hamkorlikning samaradorligini kuchaytirish, shuningdek, vazirlik va idoralar ishini muvofiqlashtirish maqsadida 1994- yilda doimiy ishlaydigan Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik bo‘yicha idoralararo kengash tashkil etildi.

1995- yil uchun davlat iqtisodiy dasturi XVF tizim o‘zgartishlarini moliyalash (STF) va Jahon bankining Tiklash qarzi mexanizmi liniyasi bo‘yicha dastlabki mablag‘lar kelib tushishi bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Bu dasturni bundan keyin ro‘yobga chiqarish, inflyasiyani pasaytirish maqsadida va 1995- yil 1- oktyabridan 1996- yil 31- dekabriga qadar davrda iqtisodiy o‘sishni rivojlantirish uchun makroiqtisodiy barqarorlashtirish va islohotlar dasturi qabul qilindi. 1996- yil uchun davlat iqtisodiy dasturi STF liniyasi bo‘yicha mablag‘larning ikkinchi marta kelib tushishi va «stend-bay» doirasida moliyalash mexanizmi bilan qo‘llab-quvvatlandi. XVF xukumatning barqarorlikka erishishga doir kattagina qadamlarini yuqori baholadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 18- martdagagi 118-son qarori bilan XVF bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish maqsadida XVF bilan qo‘shma ishchi guruhi tuzildi, uning vakolatiga valyuta va tashqi savdo tizimlarini yanada erkinlashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishga keng qamrovli yondashuvni ishlab chiqish kiradi. Ishchi guruhiга Vazirlar Mahkamasи, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy bank, Davlat mulk qo‘mitasi, TIF milliy banki vaqillari, shuningdek, XVFning Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari kirgan.

Hozirgi kunda respublikamizda “KDB Bank O‘zbekiston” ETTB, OTB, KFV, AQSH «Eksimbank»i, Germaniyaning «Doyche Genosinshafte», «Ber-liner» banklari, «Hermes», «Coface» (Fransiya), «ECGO» (Britaniya), «Ducroire» (Belgiya), «IFTRIC» (Isroil), «EGAP» (CHexiya) eksport-sug‘urta agentliklari, «CHeyzn Manxetten Bank», «JP Morgan», «Sitibank», «Bank of Amerika», «Bank of Tokio Mitsubishi», «Sakurabank», «Barklaiz-bank», «Sos‘ete Jeneral bank», «Bank Pariba», SSF, YUBS, «Kredit sviss», «Jeneral Bank», «Diskont bank», Pokiston Milliy banki kabilar tomonidan ochilgan, respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan, milliy iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o‘zgarishlarni ta‘minlaydigan, investitsiya loyihalarini kreditlashga mo‘ljallangan kredit liniyalari xizmat qilmoqda.

Xorijiy banklar bilan boshlangan dastlabki hamkorlik 1991- yili ETTB hamda O‘zR Milliy banki o‘rtasidagi shartnoma bilan izohlanadi. ETTB 1991- yil 28- martda tashkil topgan. ETTB Markaziy Osiyoda katta miqyosda faoliyat ko‘rsatmoqda (1-jadval). O‘zbekiston ETTB a‘zolari orasida 69-o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonda ETTB iqtisodiyotning ko‘pgina sohalarini moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. ETTBning bosh maqsadi Markaziy va Sharqiy Yevropa, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlariiga rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiga o‘tishda, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yordam berish, soha va tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishga

ko'maklashish, monopoliya va markazlashuvga qarshi kurashishda, mamlakatlarning tezroq integratsiyalashuvida moliyaviy jihatdan ko'maklashishdan iborat.

O'zbekistonda ETTB faoliyatining yo'naliishlari quyidagilardan tashkil topgan:

- moliya sektori va bank infratuzilmasini;
- kichik va xususiy korxonalarini;
- bozor infratuzilmasini;
- yoqilg'i va energetika majmuini;
- engil sanoatni, shuningdek, paxtani qayta ishlash va boshqa tarmoqlarni;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, tabiiy resurslami o'zlashtirish.

#### **ETTB mablag'lарining 2018-yilda taqsimlanishi**

	Loyihalar soni	mln.evro	Investitsiyalardagi ulushi
Tojikiston	5	31	0,1
Kirg'iziston	13	143	0,7
Turkmaniston	5	163	0,8
O'zbekiston	18	612	2,8
Qozog'iston	25	818	3,8
Jami	66	1767	8,2

*Manba: ETTBning Markaziy Osyo bo'yicha sayti.*

OTB O'zbekiston Respublikasida quyidagi yo'naliishlarda faoliyat ko'rsatadi:

- iqtisodiy islohotlarga, shu jumladan, moliya institutlarining institutsional o'zgarishlariga yordam ko'rsatish;
- sarmoyani iqtisodga yo'naltirish;
- kambag'allikni yo'qtotish va atrof-muhitni muhofazalash.

Osyo taraqqiyot banki bilan faol rejali moliyaviy va texnik hamkorlikni tashkil etish hamda OTB liniyasi bo'yicha moliyalashtirish uchun taklif etilgan loyihamni amalga oshirish maqsadida O'zR Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-yanvar 27-fonli farmoyishiga asosan, OTB bilan hamkorlik qiladigan muassasalararo komissiya tuzilgan. Mazkur farmoyishda belgilanganidek, OTB faoliyati O'zbekistonda asosan qishloq xo'jaligi, infratuzilmani qayta qurish (temir yo'llar, avtomagistral), tog'-kon sanoati, gaz quvurlarini o'tkazish, turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash va ekologiya, iste'mol mollarini ishlab chiqarish va bank tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan. 1996-yil dekabr oyida OTB Direktorlar kengashi O'zbekistonda birinchi loyihami tasdiqladi. Mazkur loyiha qishloq xo'jaligida kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan edi. Bugungi kunda O'zR TIF milliy banki tomonidan umumiyligi qiymati 50 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan OTB kredit liniyalari mablag'lari hisobiga 30 ta loyiha moliyalashtirildi. Ushbu kredit liniyasi to'liq o'zlashtirilgandan so'ng OTBning ikkinchi kredit liniyasi jabb etildi. Hozirgi kunda respublikada OTB ishtirokida ko'plab loyihamlar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihamlar ichida texnik yordam va qishloq xo'jaligida kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir loyihamlar mavjud. OTB kreditlari hisobidan bugungi kunda respublikamizda sog'likni saqlash, ilm-fan, transport, yo'l qurilishi, temir yo'llar

qurilishi, ma'rifiy darsliklarni nashr etish, maktab va litseylarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va boshqa ishlarga kredit va grantlar ajratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida OTB faol ishtirok etmoqda. OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSh dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSh dollarini o'z ichiga olgan umumiyligi miqdori 4,1 mld. AQSh dollariga teng bo'lgan 54 zayomni ajratdi. OTB faoliyati O'zbekistonda kengayib borishini hozirda yangi yo'nalishi hisoblangan bank-moliya va shahar infratuzilmasi sohalarida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda OTB O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kredit uyushmalari tuzish, boshlang'ich ta'lum uchun kadrlar malakasini oshirish va boshqa sohalar bo'yicha loyihalarni ko'rib chiqmoqda. Shunday qilib, OTBning O'zbekistondagi faoliyati kengayib bormoqda va natijada ijtimoiy muammolarning hal etilishida, eng muhimmi, zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishida, shuningdek, moliyaviy sohaning rivojlanishida OTBning tutgan o'mi va ahamiyati oshib bormoqda. Bunga yaqqol misol tariqasida Guliston, Jizzax va Qarshi shaharlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihasini ko'rishimiz mumkin. Ushbu loyihaning umumiyligi qiymati 65,5 mln. dollarni tashkil etib, unda OTBning ulushi 36 mln. dollarni yoki 55 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, OTB loyiha texnik yordam sifatida ushbu shaharlarda suv ta'minoti sohasidagi kadrlarni o'qitish uchun 600 ming dollar grant ajratdi. Ushbu loyiha bo'yicha kredit 25 yilga, 5 yillik imtiyozli davr bilan taqdim etildi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz iqtisodiyotida, shuningdek, iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar ichida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) sarmoyalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. XTTB 1944-yili BMT konferensiym qarori bilan tashkil etilgan. U Xalqaro rivojlanish assosatsiyasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi kabilar bilan hamkorlik qiladi. O'zbekiston Jahon banki va XRAga 1992-yil sentyabrda a'zo bo'ldi. Jahon banki mamlakatimizda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni hamda boshqa moliyaviy va texnik yordamlarni qo'llab-quvvatlaydi. Jahon banki tomonidan 1993 yildan boshlab institutsional rivojlanirish va texnik yordam (21 mln. dollar), import qilish (160 mln. dollar), paxta ishlab chiqarishni takomillashtirish (66 mln. dollar), 1998-yilda suv ta'minoti, sanitariya va sog'liqni saqlash (75 mln. dollar) va boshqa hududlarda ekologik holat hamda infratuzilmani va inson yashash tarzini yaxshilash uchun jami 127 mln. AQSH dollari miqdorida qarz ajratdi. 2001 yilda XTTB tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarini rekonstruksiya qilish loyihasi (umumiyligi qiymati 31 mln. dollar), Qarshidagi «Kaskad» nasos stansiyasini qayta tiklash loyihasi (umumiyligi qiymati 35 mln. dollar), drenaj tizimini tashkil etish loyihasi (umumiyligi qiymati 40 mln. dollarga yaqin), Samarqand va Buxoroda suv ta'minoti va sanitariya loyihasi (umumiyligi qiymati 40 mln. dollar) hamda davlat moliyasi boshqarishda texnik hamkorlik loyihasi (10 mln. dollar) ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. XTTB kre-ditlarini davlat investitsiya dasturining manzilli qismida ham ko'rishimiz mumkin. Birgina 2018-yil investitsiya dasturida XTTB tomonidan Yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga, ya'ni drenaj tizimini yaratishga 0,9 mln. dollar, Qarshi «Kaskad» nasos stansiyasiga 0,9 mln. dollar, qishloq xo'jaligi korxonalarini restrukturizatsiyalash uchun 2 mln. dollar, respublikada

paxtachilikni modernizatsiyalash uchun 8,6 mln. dollar, sog'liqni saqlash islohotlariga 17,86 mln. dollar, Samarqand va Buxoro shaharlari uchun 7,2 mln. dollar, sanitariyatozalash tizimi uchun 6,26 mln. dollar va davlat moliyasini boshqarish tizimini isloq qilish uchun 1 mln. dollar qarz krediti ajratildi.

Ko'rinish turibdiki, jahonning eng nufuzli va rivojlangan moliya tashkilotlari va banklari bugungi kunda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivojlanishida alohida o'rin tutmoqda. Milliy iqtisodiyotimizning barcha soha va tarmoqlarini tubdan isloq qilish esa xorijiy banklarning kredit liniyalarini yanada kengroq va samaraliroq jalb etishni va joylashtirishni taqozo etmoqda.

## 9.5. Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi

Valyuta kurslarni hisoblash metodlari amalga oshiriladigan valyuta operatsiya va bitimlarining maqsadiga, turiga, mazmuniga, hajmiga bevosita bog'liq, ularning o'zi esa, o'z navbatida, ularni ifodalaydigan jarayon va operatsiyalarining tipi va turlari bilan to'g'ridan-to'g'ri boglangandir. Demak, bu yerdan valyuta operatsiya va bitimlarini tiplarga ajratish bilan bir qatorda, valyuta kurslarini hisoblash metodlarini ham tiplarga guruhlarga ajratish zaruriyat tug'iladi.

Valyuta operatsiya va bitimlari maqsadli ko'rsatmasi va mazmuni bo'yicha konversion, depozit-kredit va riskli operatsiyalarga bo'linadi. Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: rezidentni rezidentdan, rezidentni nerezidentdan, nerezidentni rezidentdan va nerezidentdan valyutani sotib olish yoki olib qo'yishi hamda valyuta qiymatlarni to'lov vositasi sifatida qo'llash; O'zbekiston Respublikasi bojxona territoriyasiga valyutalarni olib kirish va olib chiqish; bir shaxsga qarashli, lekin turli territoriyalarda joylashgan schetlarning biridan ikkinchisiga valyuta va valyuta qiymatlarini o'tkazish (rezidentlar va nerezidentlar bo'yicha); valyuta bajarilarida bajariladigan valyuta operatsiyalari va boshqalar.

Oldindan kelishilgan kurs bo'yicha bir valyutani ikkinchi valyutaga oddiy almashtirish konversion operatsiya deyiladi. U, o'z navbatida, joriy yoki spot operatsiyalari va forward kurslariga bo'linadi. Spot kursi bo'yicha operatsiya amalga oshirilgandan keyin valyuta ikki kun ichida o'tkaziladi, forward kurs bo'yicha operatsiyaning bajarilishi shartnomada kelishgan vaqt bo'yicha kelgusida amalga oshiriladi.

Bo'sh turgan (yoki ortiqcha) pul mablag'larining ma'lum bir foiz bilan joylashtirilishi yoki etmay turgan chet el valyutasini operatsiyaga jalb qilishga depozit-kredit valyuta operatsiyalari deyiladi. Ular vaqt bo'yicha qisqa va uzoq muddatli operatsiyalarga bo'linadi.

Amalga oshiriladigan riskli valyuta bitimlarini mazmuni shundan iboratki, har bir valyuta bitimi izmolanyotganda ular yetarli darajada kafolatlanishi shart. Shu nuqtai nazardan bu operatsiyalarga beriladigan kafolatning mustahkamligi darajasi va kafolatchilarning o'zlarini mustaqamligi bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Bu yerda, risk juda Yuqori, o'rtaча vajuda past bo'lishi mumkin. Yoki umuman bo'imasligi ham mumkin. Bu bajariladigan operatsiyaga, uning hajmiga va bitim tuzuvchilarining bir-birini qanchalik yaxshi bilishiga yoki o'rganganligiga va boshqa omillarga bog'liq.

Shuning uchun ham valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan, xalq moqoli "etti o'lchab bir kes" tamoyilida ish tutilsa yomon bo'lmaydi.

Endi valyuta kurslari to'g'risida. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotida kurs so'zi ikki xil (tor va keng) ma'noda ishlataladi. Ayrim mualliflarda bu ikkalasini chalashtirib yuborishadi. Tovarlarining bahosi kurslari, xizmat va kapital kurslari, qimmatli qog'oz kurslari, valyuta kurslari to'g'risida bir qancha qarama-qarshi va noto'g'ri fikrlar ham bor. Masalan, kurs bilan stavka va normalar aralashtiriladi. Ma'lumki stavka va normalar, amalga oshiriladigan bitimlarning samaradorligini, ularning boshqalarga nisbatan nisbiy ustunligini ifodalaydi.

## **9.6. Valyuta kurslari mohiyati va ularni hisoblash usullari.**

### **Kotirovkalash, Kross kurs. Spot va forward kurslar.**

#### **Sotib olish va sotish kurslari, marja**

Tor ma'noda kurs deganda valyutaning yoki qimmatli qog'ozlarning almashtirish kursi tushuniladi, keng ma'noda esa - bitim yoki operatsiyani amalga oshirish qiymati, bahosi tushiniladi. Bu kurs bilan bir xizmat, tovar yoki kapital ikkinchisiga almashtiriladi.

Maqsadi va vazifasi, hisoblash metodlari, qamrab olishi va boshqalariga qarab valyuta kurslari rasmiy, umumiy, real, ozod, eksport-import, birja, almashtirish, qora bozor va boshqalarga bo'linadi.

Kurslarni belgilashda eng asosiy vazifa – ularning xarid qobiliyat tengligini ta'minlanshdir. Valyutalarning tengligi almashtiruv, rasmiy va real tengliklardan iboratdir. Valyutalarning turli bozorlarda bir-biring o'mini bosadigan bir xil kurslarda ayraboshlanishi, ularni muvozanatini xarakterlovchi tenglik almashtiruv tenglik deviladi. Rasmiy tenglik (o'zaro yoki nominal tenglik ham deb yuritiladi) davlat moliya organlari tomonidan e'lon qilinadi. Real tenglik (kurs) ikki yoki undan ortiq mamlakatning tovarlariga, xizmat va kapitalga bo'lgan baholarini taqqoslash asosida hisoblanib, mamlakatning davlatmandliligi ni, boyligini va to'lov qobiliyatini ifodalaydi.

Ikki mamlakat valyutasining tengligi – ularning iqtisodiy rivojlanishi muvozanati aynan bir xilligidir, mosligidir, iqtisodiy rivojlanishning mosligi – valyuta tengligini saqlashni kafolatidir.

Valyuta hisob-kitoblarida muhim masalalardan biri – valyuta kotirovkasidir. **Kotirovka** deganda milliy valyuta kursini boshqa mamlakat valyutasida belgilash tushuniladi. Kotirovka to'g'ri va teskarai turlarga bo'linadi. Ko'p davlatlarda to'g'ri kotirovka ishlataladi. Uning mazmuni quyidagidan iborat – chet mamlakat valyutasining bir birligi milliy valyutani "X" birligiga teng. Bu paytda chet mamlakat valyutasi e'lon qilingan kurs bo'yicha sotiladi, milliy valyuta esa sotib olinadi. Teskarai kotirovka da esa milliy valyutani bir birligi chet mamlakat valyutasini "X" birligiga teng deb olinadi. Bu paytda chet mamlakat valyutasi sotib olinadi, milliy valyuta esa sotiladi.

Yevropaning bir qator mamlakatlari xalqaro hisob-kitoblarda asosan teskarai

kotirovkadan foydalanishadi, Lotin Amerikasi va Osiyo davlatlari – to‘g‘ri kotirovkadan. AQSHda kotirovkaning ikki turi ham qo‘llaniladi.

To‘g‘ri kotirovka quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K = S_0 : R \text{ bu yerdan } R = S_1 : S_0,$$

bu yerda:

$S_1$  – milliy valyutadagi summa;

$S_0$  – chet mamlakat valyutasidagi summa;

R – miliy valyutaning chet mamlakat valyutasidagi kursi.

$$\text{Teskari kotirovka } S_0 = S_1 : R, R = S_0 : S_1$$

Masalan, moliya bozorida quyidagi kurslar uchrashi mumkin: USD/UZS; GBR/INR; ITL/CAD va hokazo.

O‘zbek firmasi o‘z tovarini Gretsiyada sotib 40,0 mln draxmaga ega bo‘ldi. Lekin unga Amerika dollari kerak. Demak draxmani dollarga almashtirish kerak, o‘scha kundagi kurs USD/GBP – 1615,3 ga tengligi aniqlandi. Shu kurs bo‘yicha al mashuv operatsiyasi bajarilsa o‘zbek firmasi 24763 (40 000.000/1615,3) AQSH dollariga ega bo‘ladi.

Moliya bozorida valyutani sotib olish va sotish kurslari mavjud. Bu kurslar talab va taklif kurslari deb ham ataladi. Ma‘lumki, banklar valyutani talab kursi bo‘yicha sotib oladi, taklif kursi bilan sotadi. Valyutachilar jargonida (maxsus tilida) sotib olish kursi – “bid”, sotish kursi – “offer” deb ataladi. Ular o‘rtasidagi farq marja yoki spredni tashkil qiladi (bid – offer = spred).

Masalan, “HDH” qo‘shma korxonasi (Toshkent) ishlab chiqargan tovarini Shtutgarddaggi xaridorga sotib 30 mln. evroga ega bo‘ldi. Bu pulning yarmi AQSH ga asbob-uskuna sotib olish uchun ko‘chirilishi kerak. Kurslar USD/EUR – 1,101-1,110. Ko‘rinib turibdiki, AQSH dollari 1,110 kurs bilan sotib olinadi. Demak, AQSH ko‘chiriladigan dollari xajmi teng: (30000000:2):1,110 = 135135135 dollar.

Marja summasi bankning valyuta operatsiyasi bilan bog‘liq xarajatlarni qoplaydi, ortiqchasi esa bank foydasi bo‘ladi.

## 9.7. Valyuta operatsiyalari va ularning turlari

Konversion operatsiyalarning bajarilish turiga qarab valyuta kurslari: rasmiy, banklararo, joriy, birja va joriy almashtirish kurslariga bo‘linadi. Rasmiy kurs Markaziy bank tomonidan e‘lon qilinadi, qolgan kurslar esa valyutaga bo‘lgan talab va taklif asosida belgilanadi. Ular rasmiy kursdan butunlay farq qilishi mumkin. Bu tabiiy hol.

Valyuta bozorida Yuqoridaagi kurslardan tashqari yana kross, spot va forward kurslari ham mavjud.

Ikki va undan ortiq valyuta kursining uchinchi valyutaga nisbatli **kross kurs** deyiladi.

Kross kursni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$Kk = V_{kot} : V_{baz},$$

bu yerda:  $Kk$  – kross kurs;  $V_{kot}$  – kotirovka bo‘ladigan valyuta;  $V_{baz}$  – baza (asos) deb qabul qilingan valyuta.

**Chet el valyutalarining qisqacha belgilari (uch harfli)**

<b>№</b>	<b>Valyutani uch harfli lotincha belgilari</b>	<b>Valyutaning nomi</b>	<b>Mamlakati</b>
1.	UZS	so‘m	O‘zbekiston
2.	USD	dollar	AQSH
3.	AFA	afg‘oni	Afg‘oniston
4.	JPY	yen	Yaponiya
5.	GBP/STG	funt steriling	Angliya
6.	CHF (SFR)	frank	SHveysariya
7.	ISS	shekel	Isroil
8.	IRR	riyol	Eron
9.	KGS	som	Qirg‘iziston
10.	LAK	kip	Laos
11.	ECU(XEU)	ekyu	Yevropa
12.	EUR	evro	Yevropa
13.	AUD	dollar	Australiya
14.	NZD	dollar	Yangizelandiya
15.	CAD	dollar	Kanada
16.	SGD	dollar	Singapur
17.	CAF	frank	Kamerun
18.	ETB	bir	Etiopiya
19.	SEK	krona	Shvetsiya
20.	NOK	krona	Norvegiya
21.	DKK	krona	Danija
22.	ALL	lek	Albaniya
23.	BGL	lev	Bolgariya
24.	GRD	draxma	Gretsiya
25.	RUB	rubl	Rossiya
26.	UAN	grivna	Ukraina
27.	BYR	rubl	Belorussiya
28.	KZT	tenge	Qozog‘iston
29.	PLN	zlotsy	Polsha
30.	CZK	krona	Chexiya
31.	HUF	forint	Vengriya
32.	BRC	kruzeyro	Braziliya
33.	CNY	yuan	Xitoy
34.	HKD	dollar	Gonkong
35.	IEP	funt	Irlandiya
36.	INR	rupiya	Indiya
37.	CUP	peso	Kuba
38.	MAD	dirxem	Marokko
39.	ZAR	rend	Janubiy Afrika

Masalan, 2001- yil 8- mart kuni funt sterilingning dollarga (AQSH) nisbatan kursi 0,5477, Kuba pesosining kursi (bir dollar) yoki  $USD/CUP$  5,2337. Bu yerdan kross kurs teng:

$$CUP/GBR = 0,5477 \cdot 5,2337 = 0,1046$$

Demak, bir Kuba pesosiga deyarli 0,11 funt steriling beriladi. Vaqtin bo‘yicha valyuta kurslari sotilgan valyutani o‘tkazish (berish) spot va forvord kurslarga

bo'linadi. Sotilgan valyuta summasi o'sha kunni o'zida yoki ikki kun ichida o'tkazilsa (berilsa), bu kurs spot (kassali, joriy) kurs deb ataladi.

Forward (muddatli, oldindan kelishilgan) kurslari forward operatsiyalariga asoslanadi. **Forward operatsiyalari** deganda valyutalarni almashtirish bo'yicha oldindan kelishilgan kurs bilan bugungi tuziladigan bitimlar, lekin valyutalash (valyuta o'tkazish kuni) kelgusida amalga oshiriladigan yoki bir valyuta ikkinchisi bilan bitim tuzilgan kundagi kurs bilan sotib olishga tushuniladi. Masalan, 16- mart kuni bitim tuzildi. Bu bitim bo'yicha valyutalash muddati 2 qismdan iborat: 16- mart va 16- iyun. Demak, 16- mart kuni o'tkazilgan spot kursi deyiladi, 16 iyunda o'tkazilgan valyuta – forward kurs.

Forward operatsiyalari autrayt va svop bitimlariga bo'linadi. Valyutalash kuni aniq ko'rsatilgan yagona konversion operatsiyalar yoki bitimlar, ularning a'zolari (tomonlar) keskin kelishilgan muddatda to'lojni ko'zda tutgan forward kursi bo'yicha amalga oshiruvchi oddiy muddatli valyuta bitimiga **autrayt** deyiladi. Turli valyutalash sanalari bilan bir-biriga qarama-qarshi konversion operatsiyalari kombinatsiyasi **svop** deyiladi.

Forward kurslarini o'rganishda va aniqlashda forward muddatlari muhim rol o'yynadi. Ular standart davrlarga (1,2,3 va 6 oy) va qisqa (1,2 xaftha) hamda singan sanalarga (masalan, 40 kun) tuzilishi mumkin. Bu yerda quyidagi qoidani eslab qolish shart: bayram va dam olish kunlari hisobga olinmaydi; agarda spot oyining oxirgi kuniga to'g'ri kelsa, valyutalash kuni ham shu kuni bo'ladi. Masalan, bitim 26.02 tuzildi. Spot kurs bo'yicha valyutalash 28.02 hisoblanadi. Farvard bitim ikki oyga tuzilsa valyutalash kuni 28.04 emas, 30.04 hisoblanadi.

#### **Autraytni hisoblash**

Forward (autrayt ham deb yuritiladi) kurs bo'yicha valyuta sotilgan kuni emas, shartnomada belgilangan vaqtida o'tkaziladi va u quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$K\phi = X : V = \frac{\frac{Kc + \frac{Kc \cdot i \cdot t}{360(365) \cdot 100}}{e + \frac{e \cdot i \cdot t}{360(365) \cdot 100}}}{}$$

bu yerda: Ks - spot-kurs; i - foiz stavkasi; t - kunlar soni; e - valyuta birligi.

Forward kursni spot kursga forward ochkolarini qo'shish yo'li bilan ham aniqlash mumkin:

$$Kf = Ks + Fo, \text{ bu yerdan}$$

$$Ks \frac{t}{360 (365)} x \frac{Foiz stavkasi asosi - Valyuta foiz stavkasi}{100}$$

$$Fo = \frac{Foiz stavkasi asosi}{I + \frac{100}{360 (365)}} \frac{t}{x},$$

bu yerda: Fo - forward ochkolari; Ks - spot-kursi.  
 Agarda  $Fo=0,001$  teng bo'lsa bir ochko hisoblanadi.

**Misol.** Bank mijoji AQSH dollariga Kongo frankini sotib olmoqchi. Bitim kunidagi kurs USD/XAF 5,1330 - 5,1345. Uch oyga belgilangan foiz stavkalari:  
 talab taklif

AQSH dollari	8,43	8,55
Kongo franki	10,25	10,37

Forward kursi aniqlansin.

Forward kursni aniklashdan oldin, spot kursi (bizda berilgan 5,1330) va forward ochkolari soni hisoblanadi.

$$Cf = \frac{5,1330 \cdot \frac{92}{360} \left( \frac{8,55 - 10,25}{100} \right)}{1 + \left( \frac{8,55}{100} \times \frac{92}{360} \right)} = 0,0218$$

Endi forward kursini aniqlaymiz

$$Kf = 5,1330 + 0,0218 = 5,1548.$$

Odatda forward kursi ustama yoki mukofot (reporta) yoki chegirma (deporta) metodi bilan ham aniqlanadi. Reporta forward kursni spot kursdan kattaligini (Yuqoriligini), deporta esa forward bitimi bo'yicha kurs, spot bitimidagi kursdan pastligini ko'rsatadi. Reporta va deporta stavkalarini nisbati quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A = Kct(i_0 - i_1) / (360 \times 100),$$

bu yerda; A - deport; Ks - spot kurs;  $i_0$  - chet mamlakat valyutasini foiz stavkasi;  $i_1$  - milliy valyuta foiz stavkasi.

Forward va spot kurslari o'ttasidagi farq (forward marjasи ham deb yuritiladi) jahon kapital bozorlaridagi bank depoziti bo'yicha foiz stavkalariga bog'liq.

Qaysi mamlakatlarda depozit bo'yicha foiz stavkalar past bo'lsa, ularni valyutasi mukofot bilan kotirovka qilinadi, foiz stavkasi baland bo'lgan davlatlarda - chegirma bilan.

Yuqorida keltirilgan formula klassik formula bo'lib, u bo'yicha bid va offer e'tiboriga olinmasdan o'rtacha autrayt kursi uchun o'rtacha forward ochkolari hisoblanadi. Lekin barcha banklarda spot va forward kurslari ikki tomonlama kotirovka qilinadi. Shuning uchun ham forward ochkolarini bid va offer uchun hisoblash zarur.

## 9.8. Valyutaning real va nominal kursi

Forward kursi singan sanalar uchun ham hisoblanadi. UniYuqorida keltirilgan formulalar yoki matbuotda e'lon qilingan forward ochkolari yordamida hisoblash mumkin. Keyingisiga to'xtalamiz. Masalan, USD/LAK autrayt bitimi ikki oyu o'n kunga tuzilgan. Forward ochkolari 2 oyga 41-57, 3 oyga - 65-84ga tengligi ma'lum. Farqi bid=24 (65-41); offer=27 (84-57). Bir kun uchun: 0,8 (24:30); 0,9 (27:30) tegishli ravishda. O'n kun uchun: 8 (0,8x10); 9 (0,9x10). Bu yerdan 70 kun uchun forward ochkolari teng: 49 (41+8); 66 (57+9).

Valyuta bozorida svop kursi ham mavjud. Bu kursda spot va forward kurslari uyg‘unlashib ketadi.

Svop bitimlari uch turga bo‘linadi: 1) standart (spotdan); 2) qisqa (bir kunlik, spotgacha); 3) forward (spotdan keyin).

Agar bank birinchi bitimni spotga, unga teskarisini haftalik forward shartida bajarsa, unday svop “Svop-uk” deyiladi. Agarda birinchi bitim “ertaga” valyutalash sanasi bilan amalgalashsa, teskasiri spotga amalgalashsa bunday svop “tom-nekst” deyiladi. Agarda muddati yaqin bitim forward sharti bilan unga teskarisini kech forward sharti bilan tuzilsa, bunday svop forwardli deyiladi.

Agar valyuta spot sharti bilan sotilsa va shu paytni o‘zida u forward sharti bilan sotib olinsa bu bitim yoki operatsiya **“Report”** deb ataladi.

Agarda chet mamlakat valyutasi spot sharti bilan sotib olinsa va shu paytni o‘zida forward sharti bilan sotilsa bu bitim yoki operatsiya **“Deport”** deviladi.

Bu bitimlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularda naqd valyuta qatnashmaydi. Bu bitmlar majburiyat yoki talablarni almashtirishni ifodalaydi. Svop bitmini amalgalashuvchi tomonlar valyutani spot kurs bilan sotish (sotib olishni) va forward kurs bilan sotib olishni (yoki sotishni) muvofiglashtirib oladilar. Natijada spot kurs miqdori bitim qatnashchilarining moliyaviy natijalariga ta’sir o’tkazmaydi, chunki forward kursi o‘zgarmaydi va shu bilan bir qatorda spot kursni muvofiglashtiradi.

Yana bir qoidaga to‘xtalmoqchimiz. Valyuta sotib olishdan oldin, normativ valyuta kursini hisoblab ko‘rish maqsadga muvofiq. Agar siz sotib oladigan kurs NVKdan Yuqori bo‘lsa valyutni sotib olish tavsiya qilinmaydi va teskarisi. NVKnii hisoblash uchun ayrim birlıklar bo‘yicha emas, balki ko‘riladigan barcha moliyaviy obyektlar va aktivlar bo‘yicha valyut kurslari farqlarini hisoblash zarur.

NVK quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$AE_{A/q} = \frac{\sum_{i=1}^n P_A p_{q_i} q_{q_i}}{\sum_{i=1}^n p_{q_i} q_{q_i}}$$

bu yerda:  $R_{uz}$  - O‘zbekistondagi tovar bahosi;  $R_A$  - AQSHdagi tovar bahosi;  $q_{uz}$  - ishlab chiqarilgan tovar hajmi.

Normativ valyuta kursi moliya bozorida samarador kurs deb ham yuritiladi. Hamma kurslar shu kursga nisbatan korrektirovka qilinadi va kursni dinamikasini o‘rganish uchun samarador kurs indeksi hisoblanadi.

$$I_{samarador\ kurs} = \frac{R_A}{R_{uz}} \cdot I_{turmush\ qiyomi}$$

Bu indekslar iqtisodiy statistika fanida chuqur o‘rganilishini hisobga olgan holda, biz ularga batafsil to‘xtamadik.

## 9.9. Valyuta kurslarini statistik prognozlash

**Real kurs** deb kontragent (o‘zaro shartnomaga ega bo‘lgan) mamlakatlarda ishlab chiqariladigan (sotiladigan) bir xil tovar (xizmat) narxining nisbatiga aytildi. Bu degani bir Amerika dollarri necha so‘m turadi yoki teskarisi. Real kursni bitta tovar

misolda quyidagicha aniqlash mumkin. Masalan, non bo'yicha. Bir qillogramm non (yanvar 2009 yil) O'zbekistonda 300 so'm turadi, AQSHda esa 0,5 dollar. Bu yerdan real kurs Kr=Ru:Ra=300:0,5=600 so'm. Demak, bir dollar 600 so'm turar ekan. Bitta tovar bo'yicha real kursni hisoblash juda osor ekan. Lekin bizga ma'lumki, ishlab chiqariladigan va sotilgan tovarlar (xizmatlar) soni 100 ming atrofida. Xo'p, barcha tovarlar (xizmatlar) bo'yicha real kurs qanday aniqlanadi. Bu ishni maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar iqtisodiy-statistik metodlarini qo'llash bilan bajaradi.

Hozirgi zamон xalqaro iqtisodiy amaliyotida real kurslarni hisoblashda ikki metod qo'llaniladi: birinchi metod tanlab kuzatish ma'lumotlariga asoslansa, ikkinchisi yoppasiga kuzatish ma'lumotlariga asoslanadi. Ikkala metoddan ham ikki va undan ortiq mamlakallardagi tovarlarga, xizmatlarga va kapitalga bo'lgan baholar taqqoslanadi. Hisoblash usuli ikkala metoddan ham bir xil, faqat to'plash hajmiga qarab olingen natijalar har xil bo'lishi mumkin. Amaliyotda, real kurslar, ko'pchilik pay'tda, tanlab kuzatish ma'lumotlariga asoslanadi. Chunki ma'lumot to'plash oson, ko'p xarajat va vaqt talab qilmaydi. Bu metodni, ayrim paytlarda, tovar-vaqillari metodi deb ham atashadi. Real kurslarni hisoblash quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.

1. Birinchi bosqichda tovar vaqillari ajratib olinadi. Ularga eng tarqalgan tovarlar, xizmatlar va kapital kiritiladi. Faqat birgina davlatda ishlab chiqariladigan tovarlar bu ro'yxatga kirmasligi tabiiy.

Tanlab olingen baholar (tovarlar) asosida maxsus spetsifikatsiyalar tuziladi. Ular aynan baholarni (tovarlarni) Yuqori aniqlikdagi vaqilligni ta'minlashi kerak va tanlab olingen baho indekslarini butun (tovarlar, xizmatlar va kapital) to'plashga yoyishga imkoniyat yaratishlari kerak. Demak, tanlanma paritetlar asosida umumiyligi to'plash uchun o'rtaча tortqichli paritet hisoblanadi.

2. Ikkinci bosqichda taqqoslaniladigan umumiyligi qimmatli ko'rsatkichlar dezagregatsiya qilinadi, ya'ni tiplarga ajratiladi. Tovarlar, xizmatlar va kapitallar kattallashtirilgan guruhlari, guruhlari va boshlang'ich guruhlarga ajratiladi (ular 150 dan 300 tagacha bo'lishi mumkin) va ular asosida aniq hisoblar va taqqoslashlar olib boriladi. Bu bosqichdagi vazifa shundan iboratki, boshlang'ich guruhlarning zarur va aniq sonini aniqlab olish zarur. Chunki ular kelgusi bosqichlarda tanlanadigan tovar-vaqillar sonini qisqartirishga imkon beradi, tovar-vaqillar soni qancha kam bo'lsa ish shuncha osonlashadi.

3. Bu bosqichda har bir guruhdan bitta yoki bir nechta eng tipik, reprezentativ vaqilni ajratib olinadi. Bu tovar shu guruh tovarlari ichida eng tarqalgan yoki ekvivalent bahoni ifodalashi kerak. Shu tovar xarakteristikalarining yig'indisi qolgan guruh tovarlari uchun ham o'xshash bo'lishi tovar xarakteristikalarining o'zi miqdori o'lchamga ega bo'lishi kerak. Past va yuqori sifatlari tovarlarning bahosi o'rtaqidagi farq sifatni hisobga oluvchi korrektirovka qilish metodlari yordamida pasaytiladi yoki umuman bartaraf etiladi.

4. Har bir tovar guruhi uchun baho indekslarini hisoblash (tovar-vaqillar soni bo'yicha). Ma'lumki, ulgurji baho, iste'mol bahosi, YAIM bahosi - deflyatori, import-eksport baholari indekslarini alohida-alohida hisoblaniladi.

Umumiyligi indekslarning agregat formulasi bu indekslarni hisoblash asosini bo'lib

hisoblanadi. Bu indekslar hududiy indekslar ham deb ataladi. Bu indekslarda vazn vazifasini, taq qoslash maqsadiga muvofiq har qanday davlat o'tashi mumkin. Masalan, A davlatni vazni tarkibi bo'yicha valyuta pariteti umumiy indeksi quyidagi formula bilan hisoblaniladi (agregat formada):

$$I_p = \frac{\sum P_A q_A}{\sum P_A q_0} \text{ yoki } \frac{\sum P_A D_A}{\sum P_A D_0}$$

5. Eng kichik guruhlar uchun eng kichik o'rtacha guruh valyuta pariteti indekslarini hisoblash zarur.

6. Beshinchi bosqichda hisoblangan indekslar asosida yiriklashtirilgan paritet indekslarini alohida yiriklashtirilgan agregatlar bo'yicha hisoblash. Masalan, tovar va xizmatlarning iste'moli, investitsiyalar va h.k.

7. Oxirgi bosqichda agregatlar bo'yicha hisoblangan indekslar asosida umumiy tovar, xizmat va kapital indekslari aniqlanadi. Bu indekslar aynan bir mamlakat valyutasining ikkinchi davlat valyutasiga nisbatan xarid qobiliyatini xarakterlaydi.

Indekslarning tortqichlari (vaznlari) turli variantli bo'lishi munosabati bilan bir-biridan  $\pm 7\text{-}8$  foizga farq qiluvchi umumiy valyuta pariteti indekslariga ega bo'lamiz. Amaliyotda bu farqni yo'qotish uchun valyuta paritetini o'rtacha geometrik indeksi hisoblanadi:

$$J_{\infty} = \sqrt{\frac{\sum P_1 q_1}{\sum P_0 q_1} \times \frac{\sum P_1 q_0}{\sum P_0 q_0}}$$

BMTning xalqaro valyuta hisob-kitoblari amaliyotida valyuta pariteti indekslari, odadta, har qanday davlat bahosi bitta davlat bahosi (markaziy, asos qilib olingan baho) bilan taq qoslanadi. Shu paytning o'zida markaziy bahoga nisbatan hisoblangan indeks bilan qamrab olinmagan xohlangan ikki mamlakat paritet indeksi bilvosita hisoblanishi mumkin, ya'ni bu mamlakatlar uchun hisoblangan valyuta pariteti indekslari markaziy mamlakat bilan hisoblangan indekslarga qayta hisoblanadi.

Valyuta pariteti indekslarini hisoblashda, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan tovar, ko'satilgan xizmat va kapital qiymatini taq qoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 1000 so'mga, 1000 rupiyga, 1000 frankga necha qilogramm non, guruch yoki banan sotib olish mumkin, necha marta sartaroshga soch oldirish mumkin. Bu ko'satikchilar, albatta, o'sha davlatlar (O'zbekiston, Hindiston, Kongo) uchun va shu davlat aholisiga nisbatan hisoblanadi.

Bu paritetlar ham quyidagi bosqichlarda hisoblanadi. Birinchi bosqichda har bir tovar va xizmat bahosi nisbati aniqlanadi. Keyin tortqichli o'rtachalar guruh tovar va xizmatlarni uchun hisob-kitob qilinadi. Uchinchi bosqichda esa tegishli xissalarda umumiy juft darajalar paritetlari aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan metodika bo'yicha XVF har bir mamlakat, guruh mamlakatlar va qit'alar bo'yicha paritetlar o'matadi. Dalil sifatida XVF tomonidan taklif qilingan turmush darajasi baholovchi koefitsientlarni keltirishimiz mumkin.

G'arb industrial rivojlangan davlatlar	0,73
Oldingi Sharqiy Yevropa	1,86
Osiyodagi rivojlanayotgan davlatlar	2,42
Afrikadagi rivojlanayotgan davlatlar	2,35

Demak, o'rtacha turmush darajasini baholash uchun, masalan Hindistonni boshqa davlatlarga nisbatan, uning jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulotini 2,42 ga ko'paytirish kerak.

Valyuta hisob-kitoblarida mavjud, haqiqiy valyuta kurslaridan tashqari, kelgusida kutiladigan kurslari ham hisoblanadi. Bu ish prognozlar tuzish metodlari yordamida bajariladi. Valyuta kurslarini prognozlash metodlari quyidagilarga bo'linadi: statistik metodlar; ekspert baholash metodlari; grafik metodi.

Birinchi guruh metodlar yordamida makroiqtisodiy tahlil amalga oshirilib va shu tahlil asosida umumiy iqtisodiy barometrlar tuzilsa; ikkinchi - bozor kon'yunkturasi barometrlari; uchinchi - hozirgi zamonaliv kompyuter tahlili asosida iqtisodiy rivojlanish va bozor kon'yunkturasining alohida olingan grafiklari tuziladi. Bu metodlar o'zarbo'liq va uchala guruh birgalikda umumiy iqtisodiy kon'yunkturani kompleks baholashda umumiy baholash bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Valyuta kurslarini prognozlash asosida hamma iqtisodiy munosabatlarni bitta tizimga, hamma qadriyatlarni va ichki bozorni hamma ko'rsatkichlarini barcha iqtisodiy munosabatlar bilan, jahon bozori ko'rsatkichlarini va qadriyatlari bilan bog'lovchi valyuta xarid qobiliyatini obyektiv baholash pariteti yotadi.

Mohiyati bo'yicha valyuta xarid qilish qobiliyati iqtisodiy rivojlanishning bosh savoli, aynan shu davlatdagi bahoning o'sish darajasi, boshqa davlatlardagi o'sish bilan tenglik qanday saqlanib turadi degan savolga javob beradi. Ma'lumki, milliy bahoni o'sishi boshqa davlatlarga nisbatan Yuqori bo'lsa, milliy valyutaning kursi tushib ketadi va teskarisi.

Umumiy holda, valyut xarid qobiliyati pariteti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R=P_I:P_o,$$

bu yerda:  $P_I$  - so'm hisobida tovar (xizmat) bahosi;  $P_o$  - dollar (AQSH) hisobida tovar (xizmat) bahosi;  $R$  - so'mni dollarga nisbatan xarid qobiliyatini aks ettiruvchi paritet kursi.

Umumiy valyuta paritetini hisoblash uchun bir qancha baho nisbatlari aniqlanadi. Ularning soni bir necha ming bo'lishi mumkin.

Valyuta kursi indeksining nisbatini hisoblash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$\Delta T = (R_I - R_o) / (I_{pI} - I_{po}) / (I + I_{po})$$

Bu yerdan, ko'zda tutilgan almashtiruv kursi teng:

$$R_I = R_o (I + I_{po}) / (I + I_{pI})$$

bu yerda:  $\Delta T$  - almashev kursining o'sish (o'zgarish) sur'ati;  $I_{pI}$  - O'zbekistondagi iste'mol baholari indeksi;  $I_{po}$  - Amerikadagi iste'mol baholari indeksi;  $R_I$  - so'mning dollarga nisbatan joriy almashtiruv kursi;  $R_o$  - so'mning dollarga nisbatan bazisli almashtiruv kursi.

Umumiy holda (ko'rinishda) valyutani xarid qobiliyati pariteti quyidagicha aniqlaymiz:

$$R_{x,k} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{P_{il}Q_{il}}{P_{i0}Q_{i0}},$$

bu yerda:  $Q_i$  - tegishli tovarlar va xizmatlarni yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromaddagi xissasi;  $n$  - standart tizimga (savatga) kirgan tovarlar soni;  $R_{il}$ ,  $R_{i0}$  - tegishli ravishda ( $s/m$  va dollar hisobida) tovarlar, xizmatlar va kapitallarga bo'lgan baholar.

Bu indeksni hisoblash juda katta vaqt va mehnat talab qiladigan ish. Ma'lumki, bahoning oshishi valyutaning xarid qobiliyatini pasaytiradi va teskarisi. Bundan tashqari bahoning o'zgarishi har xil mamlakatda har xil, doimiy va turli yo'nalishda. Bu yerda joriy xarid qobiliyatini paritetini hisoblash zaruriyatni tug'iladi va bu hisoblangan ko'rsatkich valyutaning xarid qibiliyati indeksi deviladi va quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$J_{u.x.k} = \sum_{ip} \frac{p_i q_i}{\sum p_i q_i} : \sum p_i q_i \text{ yoki } \frac{1}{J_p}$$

Bu indeks valyutaning joriy kursini ifodalab, xarid qibiliyati paritetidan chetlanishi mumkin. Bunday paytda valyuta qiymatini past yoki Yuqori baholash to'g'risida gapirishadi. Shularni hisobga olgan holda valyuta real va joriy kurslari parallel aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Uning asosida valyuta konvertatsiyasi amalga oshiriladigan valyuta pariteti baho indeksi formasida ifodalanadi:

$$I_p = 1 / \sum_{ip} \frac{d}{ip},$$

bu yerda:  $d$  - tovar aylanmasidagi tovarlar xissasi;  $i_p$  - tovar bir birligi bahosi (taqqoslanadigan mamlakatlar uchun) konvertatsiya koefitsientini ifodalovchi baho guruh indeksi.

Agar  $\Sigma d=1$  (yoki 100foiz) teng bo'lsa, bu formulamiz quyidagi ko'rinishda bo'ladidi:

$$I_p = \sum d / \sum \frac{d}{ip}$$

Talab va taklif nazariyasiga muvofiq, taklif qilingan pul miqdori bilan, shu pulga bo'lgan talab miqdori teng bo'lishi kerak, buning o'zi esa yalpi ichki mahsulot qiymatiga to'g'ri proporsional. Ikki mamlakat o'rtaida quyidagi bog'liqliklarni o'matish mumkin:

$$P_1 = K_1 x R_1 x YAIM_1; P_0 = K_0 x R_0 x YAIM_0,$$

bu yerda:  $P_1$ ,  $P_0$  - ichki va tashqi bozorda taklif qilingan pul miqdori;  $K_1$ ,  $K_0$  - ichki va tashqi bozorda bahoning darajasini aniqlovchi koefitsientlar;  $YAIM$  - yalpi ichki mahsulot (masalan, O'zbekiston va Yaponiya).

Agarda  $K_1/K_0$  nisbatlari doimiy yoki birga teng bo'lsa, mamlakatlar o'rtaida baho darajasi nisbati quyidagicha ifodalanishi mumkin.

$$P_1/P_0 = (P_1/P_0) x (YAIM_1/YAIM_0)$$

Yuqoridagi formulalarni qo'llab valyuta kursining pul massasi va YAIM bog'liqligi tenglarnasini olish mumkin:

$R = [(P_1 - E_{ch1})/(P_0 - E_{ch0})] \times [(Z_{n0} + I_0 + E_{ch0})/(Z_{n1} + I_1 + E_{ch1})]$   
bu yerda; E - kapitalni soz eksporti; Z - iste'mol xarajatlari; I -investitsiyalar.

## 9.10. Valyutaning xarid qobiliyati pariteti

Valyuta bozori ma'lumotlarini ichki va tashqi bozor ma'lumotlariga bo'lish mumkin. Ichki bozor ma'lumotlari - bu O'zbekiston Respublikasi valyuta bozori haqidagi ma'lumotlardir. Ularga valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi korxonalarining buxgalteriya, statistik va idoraviy hisobotlari kiradi. Masalan, barcha korxonalar 1-shaklni topshiradilar. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari Davlat statistika qo'mitasiga hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay 1-VED (valyuta) shaklini – eksport-import muomalalari bo'yicha valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni taqdim etadilar.

Hisobot yili boshidan o'sib boruvchi natija bo'yicha to'ldiriladi.

1 VED (valyuta) shaklidagi hisobotda eksport va import (shu jumladan, barter) muomalalarini amalgga oshiruvchi korxona va tashkilotlar tomonidan xorijiy valyutada tushgan tushumni olish va undan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar ming AQSH dollari ekvivalentida qayd etiladi. 1, 2, 4, 5 va 7-ustunlarda, shuningdek, vakolatli banklarga bevosita tushayotgan xorijiy valyutadagi tushum va undan majburiy sotuvni amalgga oshirilishi (majburiy sotuvni amalgga oshirilishi ko'zda tutilmaydigan operatsiyalardan tashqari) to'g'risidagi ma'lumotlar alohida satrlar bilan kiritiladi. Xorijiy valyutadagi tushumning tushishi, u bo'yicha majburiy sotuvni amalgga oshirilishi va valyuta mablag'larini o'tlazilshi, agar AQSH dollarida bo'lmasa operatsiya o'tkazilishi sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha kross-kurs orqali AQSH dollariga qayta hisoblangan holda amalgga oshiriladi. 1 va 2-ustunlarda ro'yxatga olish vaqtida korxona va tashkilotlarning KTUT va STIR xos raqami ko'rsatiladi. 3-ustunda korxonaning ta'sis hujjatlari (nizom, qoida va h.k.)da belgilangan aniq nomi ko'rsatiladi. 4 va 5-ustunlarga korxona va tashkilotlarning tranzit hisob varaqlariga tovarlar eksportidan va ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish eksportidan kelib tushgan xorijiy valyutadagi tushumning tushishi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. 6-ustunga markazlashdirilgan eksport bo'yicha kelib tushgan tushumni korxona va tashkilotlarning valyuta hisob varaqlaridan Markaziy bankka 100 foizlik majburiy sotuvini amalgga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. 7-ustunga korxona va tashkilotlarning valyuta hisob varaqlaridan markazlashmagan eksportidan kelib tushgan tushumni vakolatli banklarga 50 foizlik majburiy sotuvni amalgga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. 8 va 9-ustunlarda import qilingan tovarlar va bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lash uchun korxona va tashkilotlarning hisob varaqlaridan mablag'larni o'tkazilishi (shu jumladan, akkreditivlarni bajarilganidan so'ng akkreditiv hisob varaqlaridan o'tkazilishini kiritgan holda) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. 10-ustunda ichki valyuta bozorida erkin ayrboshlanadigan valyutaga ayrboshlanib, korxona va tashkilotlarning maxsus hisob varaqlaridan import qilingan tovar (bajarilgan ishlar, xizmat)lar haqini to'lash uchun o'tkazilgan mablag'lari (shu

jumladan, akkreditivlar bajarilganidan so'ng akkreditiv hisob varaqalaridan o'tkazilishini kiritgan holda) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Xizmatlar eksporti va importi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari) o'z joydagi tuman, shahar statistika bo'limiga hisobot davridan keyingi oyning 3-sanasidan kechiktirmay 1-VED (xizmatlar) – xizmatlar eksporti-importi to'g'risidagi hisobotni taqdirm etadilar.

Valyutalarning rasmiy kurslari O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan e'lon qilib boriladi va barcha valyuta operatsiyalarining hisob-kitobi rasmiy kurslar asosida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ma'lumotlar esa valyuta birjalaridan olinadi. Valyuta birjalarining informatsiya xizmati o'tgan savdolar bo'yicha valyutalarning kursi, sotilgan hajmi, talab va takliflar va boshqa ma'lumotlarni chop qilib boradi.

Valyuta bozori haqidagi ikqilamchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasining davriy nashrlaridan olinadi.

Chet mamlakatlardagi valyuta bozori haqidagi ma'lumotlarni birja va banklar byulletenlaridan olinadi. Masalan, birja maklerlari kompaniyasi deyarli har kuni valyuta kurslarini chop qiladi. Davriy nashrlarda ma'lumot juda keng beriladi ("Wall Street Journal", "Financial Times") Juhon valyuta operatsiyalari haqida ma'lumotlami "Reyter" informatsion agentligi orqali toplash mumkin yoki har bir davlat bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot to'planadi. Masalan, Rossiya MB manzil varag'ida – <http://www.sbr.ru> – chet el valyutalarini rasmiy kurslari haqida keng spektrli ma'lumotlar beriladi.

Ikqilamchi informatsiya manbai sifatida eng obro'li nashrlardan bo'lmish XVF "International Financial Statistics" va BMT statkomissiyasining oylik va yillik nashrlarini ko'rsatish mumkin. Ularda ma'lumotlar quyidagi bo'limlarda beriladi:

A. SDR o'rtacha (oylik, choraklik, yillik) kurslar; B. Joriy oy uchun milliy valyutaning kunlik kotirovkalarini evro va SDR kurslari; V. Milliy valyutani AQSH dollariga nisbatan bazisli o'zgarish sur'atlari; G. Samarali valyuta kurslarining nominal va real bazisli indekslari.

Valyuta bozori bo'yicha to'plangan boshlang'ich ma'lumotlarni statistik qayta ishlash jarayonida nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlarga ega bo'lamiz. Masalan, valyutaning sotib olish va sotish kurslarini qo'shib ikkiga bo'lsak, o'rtacha valyuta kursi kelib chiqadi.

**Bitta valyutaning ma'lum bir davrdagi (xafta, oy, kvartal) o'rtacha kursi:**

1. Oddiy o'rtacha arifmetik formula bilan:

$$\bar{K} = \frac{\sum K_i}{n}$$

bu yerda  $K_i$  – savdo kunlaridagi valyuta kursi;  $n$  – kunlar soni.

2. O'rtacha geometrik formula bilan:

$$\bar{K} = \sqrt[n]{K_1 \cdot K_2 \cdot \dots \cdot K_n}$$

Valyuta kursining o'zgarishiga o'rtacha arifmetikni sezgirlik darajasi anchaYuqori. O'rtacha geometrik esa kamroq miqdorda o'zgaradi. Bundan tashqari, o'rtacha geometrikning ustunligidan yana biri, u bilan hisoblangan to'g'ri ( $\bar{K}$ ) va

teskari ( $R$ ) kotirovkada hisoblangan o'rtacha valyuta kurslari teskari bog'liqlikda bo'ladi:

$$\bar{K}_{\text{сезон}} = \sqrt{\frac{1}{R_1} \cdot \frac{1}{R_2} \cdots \frac{1}{R_n}} = \frac{1}{\bar{R}_{\text{сезон}}};$$

$$\bar{K}_{\text{ариф}} = \frac{\sum K}{n} = \frac{\sum R}{n} \neq \frac{1}{\bar{K}_{\text{ариф}}}$$

Amaliyotda, odatda o'rtacha valyuta kurslari xafthalik, oylik va kvartallik ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi, yillik ma'lumotlar bo'yicha o'rtachalar deyarli hisoblanmaydi, chunki ular yilning oxirgi sanasiga beriladi.

3. Valyuta bozorini turli shubalaridagi ma'lumotlar bo'yicha ham o'rtacha valyuta kurslari tortkichli arifmetik formula bilan aniqlanadi:

$$\bar{K} = \frac{K_A Q_A + K_B Q_B}{Q_A + Q_B} = \frac{\sum K Q}{\sum Q}$$

bu yerda  $K$  – valyuta kurslari;  $Q$  – savdo xajmi.

9.2-jadval

Savdo xajmi va bozor shubalaridagi valyuta kursi

Bozor shubalari	Dollar kursi (1 dollarga nisbatan)	Savdo xajmi (mln.doll.)
Naqd pul	1480	18,21
Banklararo	1400	24,17
Birja	1350	11,09

Valyutaning o'rtacha kursi teng:

$$\bar{K} = \frac{1480 \cdot 18,21 + 1400 \cdot 24,17 + 1350 \cdot 11,09}{18,21 + 24,17 + 11,09} = \frac{79303,5}{53,47} = 1480 \text{ c}.\text{y}.\text{m}.$$

Valyuta kurslarini vaqt bo'yicha o'zgarish odatda o'rtacha kurslar asosida hisoblanadi:

$$i = \bar{K}_1 : \bar{K}_0$$

Valyuta kurslarini dinamikasini o'rganishda o'rtacha tortgichli kurslarga afzallik beriladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\bar{K}_j = \frac{\sum K_{ij} Q_{ij}}{\sum Q_{ij}}$$

bu yerda  $j$  – mamlakatr valyuta birligiga  $i$  – mamlakat valyuta miqdori (valyuta kursi);  $j$  – mamlakat tomonidan  $i$  – mamlakat tovar oboroti.

Almashtirish kursining pasayishi devalvatsiya, ortishi – revalvatsiya deyiladi. Ushbu jarayonlar dinamikasini o'rganish uchun devalvatsiya va revalvatsiya koeffitsientlarini hisoblashadi.

Devalvatsiya koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{\text{deq.}} = \frac{K_{\text{ном.}} - K_{\text{анч.}}}{K_{\text{ном.}}} \cdot 100 = \frac{\Delta_K}{K_{\text{ном.}}} \cdot 100$$

Revalvatsiya koefitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{\text{пер.}} = \frac{K_{\text{анч.}} - K_{\text{ном.}}}{K_{\text{ном.}}} \cdot 100$$

Faraz qilaylik, dollar kursi sentyabr oyida 1470 soʻmni, oktyabr oyida 1450 soʻmni, noyabr oyida 1480 soʻmni tashkil qildi.

Devalvatsiya koefitsienti teng:

$$K_{\text{дев.}} = \frac{1470 - 1450}{1470} \cdot 100 = 1,36\%$$

Revalvatsiya koefitsienti teng:

$$K_{\text{пер.}} = \frac{1480 - 1450}{1480} \cdot 100 = 2,03\%$$

Iqtisodiy inqirozlar bilan qamrab olingen iqtisodiyot sharoitida, yaʼni bugungi kunda valyuta kursini inflasiyanı hisobga olgan hisoblangan muhim ahamiyat kasb etadi. Baho va valyuta kurslarini taqqoslashda quyidagi koʻrsatkichlar hisoblanadi.

$$1. \quad K_{\text{реал}} = \frac{K_{\text{номинал}}}{J_{\text{ист.базо}}}$$

bu yerda  $K_{\text{реал}}$  – valyutaning inflasiyanı hisobga olgan xolda hisoblangan kursi;  $K_{\text{номинал}}$  – valyutaning inflasiyanı hisobga olmagan holda hisoblangan kursi;  $J_{\text{ист.базо}}$  – isteʼmol baholari indeksi.

2. Valyuta kursi dinamikasini baho dinamikasidan oʼzib ketishi koefitsienti:

$$J_{\text{раб. котиши}} = \frac{J_{\text{зарубежный номинал курси}}}{J_{\text{историч. базо}}}$$

Inflyasiya, valyuta kursi, devalvatsiya va revalvatsiya tushunchalari oʼzarobogʼliq koʼrsatkichlardir. Shu munosabat bilan ulardan bittasini oʼzgarishini oʼrganishda boshqalarini oʼzgarishini hisobga olmasak, olgan natijani amaliyotda ishlatalib boʼlmaydi. Ishlatganda ham, olingen xulosalar haqqoniy xayotdan juda uzoqda boʼladi. Demak, valyuta kursi dinamikasini oʼrganishda inflasiya darajasini hisobga olish kerak, inflasiya darajasini devalvatsiya va revalvatsiyani hisobga olgan holda statistik baholash mumkin.

### Inflyasiya fenomeni

Iqtisodiy otda inflasiyaning namoyon boʼlishi va statistik baholash ikki oʼlchov tizimida amalga oshiriladi. Dastlab inflasiyanı baholarning oʼsishi deb hisoblasak, lekin, har qanday inflasiya ham bahoning oʼsishi boʼlavermaydi.

Boshqa bir oʼlchov tizimida inflasiya – bu, pulning qadrsizlanishi, pul muomalasining boʼrtib ketishi yoki pulga toʼlib ketish, ortiqcha pullar, derivativlar, fiktiv kapital,sovun pufaklari, defolt, umuman pul miqdorining tovar miqdoridan ortib ketishidir.

Inflyasiya – bu, revalvatsiya, ya’ni ishsizlik va byudjet defitsitining o’sishi, iqtisodiyot militarizatsiyasi, monopolianing kuchayishi va takror ishlab chiqarish disproporsiyasi hisoblanadi.

Nazariya va amaliyotda inflyasiya hamda uning omillari, deflyasiya va devalvatsiya hamda ularning omillari, xarajatlar va baho, talab va takliflarning o’sishini inflyasiyan hamda nomonetar sabablari turlicha tushuniladi va talqin qilinadi.

Inflyasiyani turlicha tushunish va turlicha tasavvur qilish hamda yondashish uning o’lchovini unifikatsiya qilishni taqozo qiladi.

Paydo bo’lishi va tabiatiga ko’ra ikki xususiyatga ega ekanligi, belgilari va namoyon bo’lish shakllarining turli-tumanligini hisobga olgan holda, inflyasiya va uning omillarini baholash (o’lchash), uning real amal qilishini yoki realligini tasdiqllovchi, aniq yo’naltirilgan asosnomalar tuzishni talab etadi.


Shu o’rinda bugungi kunda O’zbekistonda inflyasiya qanday kontekstda tushuniladi va o’lchanadi, u mavjud standartlarga qanchalik mos keladi va mos kelmaydi, hayotda va kundalik hayotiy faoliyatda qanchalik to’g’ri va to’liq qo’llaniladi, kabi savollar tug’ilishi tabiiy hol.

O’zbekistonda iste’ mol narxlari indeksi (INI) bo’yicha inflyasiya darajasi 1994 yildan boshlab hisoblanib kelimoqda. Mustaqillikning dastlabki yillari ushbu ko’rsatkich misli ko’rilmagan darajada Yuqori bo’lgan. Masalan, 1994- yilda o’rtacha oylik qo’shimcha o’sish sur’ati 24,5 foizni tashkil qilgan edi.

2019- yilning iyul darajasining pasayishi 0,4 foizni tashkil qildi. Umumiy hisobda bozoridagi tovarlar va 2018 yilning iyul o’rtacha narxlari darajasi O’zbekiston Respublikasi iste’ mol sektoridagi narxlari o’zgarishi 2019- yilning iyul oyida iste’ mol bozorida o’rtacha pasayishi qayd etilib, oy davomidagi deflyatsiya hisobda 2019- yilning yanvar-iyul oylari davomida va xizmatlar narxi 5,2 foizga qimmatlashdi. 2018- yilning iyul oyiga nisbatan respublika iste’ mol darajasi 13,5 foizga ko’tarilgan.

Taqqoslash uchun 2018- yilning iyulida Tovar va xizmatlar narxlari oy davomida o’rtacha 0,3 foiz ga arzonlashib, 2017- yilning dekabr oyiga nisbatan 5,9 foizga, 2017 yilning iyuliga nisbatan esa 16,3 foizga qimmatlashgan.


2018- va 2019- yillarning yanvar-iyul oylari davomida oylik narxlari o’zgarishini tahliliga ko’ra, 2018- yilda bo’lgani kabi, 2019- yilning iyunidan boshlab oy davomida umumiy iste’ mol narxlari darajasining pasayishi qayd etildi. Bu asosan mavsumiy tendentsiyalar va ommaviy ravishda meva-sabzavot mahsulotlari narxlaring pasayishi bilan bog’liq.



O'tgan yilning dekabari oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillar dastlabki yetti oyi davomidagi iste'mol narxlarining taqoslanishi shuni ko'rsatdiki, narxlar eng yuqori ko'tarilishi cho'qqisi may oyida kuzatilgan (2018- yilda 106,6 foiz, 2019- yilda 106,0 foiz).



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlarini indeksi dinamikasi, %




2018- yilning yanvar oyidan 2019- yilning iyul oyiga qadar yillik ko'rinishdagi yig'ma iste'mol narxlar indeksi o'sishi dinamikasi (oy, o'tgan yilning mos oyiga nisbatan) umumiy tendentsiyaning bosqichma-bosqich pasayishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, narxlar ko'tarilishining eng Yuqori darajasi 2018- yilning yanvar oyida qayd etilgan bo'lib (20,1 foiz), 2019- yilning iyul oyigacha bosqichma-bosqich pasayib kelgan (13,5 foiz).

Quyida 2018- yilning yanvaridan yillik ko'rinishdagi yig'ma iste'mol narxlar indeksi oylik dinamikasi ko'rsatkichlari aks ettirilgan:



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlarini indeksi dinamikasi, %

**o'tgan yilning mos oyiga nisbatan**



Umumiylis hisobda, 2018- yilning yanvar oyidan 2019- yilning iyul oyiga qadar yillik iste'mol narxlar indeksining minimal ko'rsatkichi 2019- yilning yanvar oyida (113,0 foiz) qayd etilgan.

Yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishiga ko'ra, 2019- yilning iyul oyini natijalari bo'yicha tovarlar narxlar 0,6 foizga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,3 foizga pasaydi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlar oy davomida 0,4 foiz, xizmatlar esa 0,2 foizga qimmatlashdi.

## 9.11. Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar, ularning tasnifi va statistik tahlili

Eng katta qiyinchilik xalqaro bozorga chiquvchi yoki faqat chet davlatlar bilan ishlovchi kompaniyalar faoliyatining samaradorligini baholashda paydo bo'ladi. Chunki bu kompaniyalar, deyarli har kuni majburiy qaror qabul qilishlariga to'g'ri keladi: qaysi valyutada bitimni amalga oshirish kerakq qaysi kurs bo'yicha va qaysi paytda valyutani, tovarni va kapitalni sotib olish yoki sotish kerak. Bu qarorlari tez va adashmasdan qabul qilish lozim. Sababi bitimni amalga oshirishdan maqsad, faqat o'zi sarflangan mablag'ni qaytarib olish emas, balki natija manfaatlil bo'lish kerak. Agar bitim manfaat keltirmasa, unday biznesni hech kimga keragi yo'q.

Agar kompaniya chet davlatlar bilan ishlasa, u kompaniya boshqa davlatlarda "qiz" (дочерний) korxonalar bo'ladi. Agar bitta davlatda "qiz" korxonasi bo'lsa (oddiy voqe), ikki va undan ortiq mamlakatlarda korxonalar bo'lsa (murakkab voqe), bu korxonalar bo'yicha samaradorlikni o'rganishni va amalga oshirish alohida-alohida olib borilishi taklif qilinadi. Bu ishni qiyin bo'lishiga qaramasdan bir qancha ustunliklari bor. Birinchidan, o'sha mamlakat valyutasida va sharoitida samaradorlikni hisoblash oson, ikkinchidan, qiz korxonalarning natijalarini taqqoslab (bir mamlakatda ikki va undan ortiq bo'lsa) ularning qaysi biri samarali ishlayotganini aniqlash mumkin, uchinchidan, kompaniya bo'yicha umumlashtirilgan samaradorlik ko'rsatkichlari (milliy valyutada) hisoblash imkoniyati tug'iladi; to'rtinchidan, qaysi mamlakatdagi "qiz" korxonasi samaraliroq degan savolga javob olinadi, beshinchidan, kelgusi yil uchun biznes-reja tuzilayotganda kam manfaat keltiradigan korxonalarini yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi (teskari qarorlar ham qabul qilinishi mumkin). Bu kompaniyani siyosiy arenadagi roli, kelgusidagi imidji va boshqa omillar ham albatta ta'sir ko'rsatadi).

Umumi va qismiy ko'rsatkichlarni quyidagicha aniqlash mumkin. Qiz korxonasi foydasini (dollar hisobida) R tovar birligi ko'rinishida Es, ushbu tovarni ishlab chiqarishning o'zgaruvchan xarajatlarini S, doimiy xarajatlarini F (chet el valyutasida f), ishlab chiqarish hajmini (natural shaklda) V va valyutani almashtirish (обменный) kursini R bilan belgilab, qiz korxona foydasini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$E_s = R \{ (R - C_f) V - F_f \}$$

Formuladan ko'rinish turibdiki, almashtirish kursi kompaniyani butun moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiladi. Qiz korxonaning fond summasi o'zgarmas bo'lib, bizning misolimizda faqat uning dollardagi qiymati (bahosi) o'zgaradi xolos.

Kompaniyaning boshqa mamlakatdagi bo'limining investitsiya qilingan kapitali yoki aktivlari daromadiligi (dollar hisobida) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$R01_i = \frac{R \{ (P_f - C_f) V - F_f \}}{R \times A_f} \times \frac{(P_f - C_f) V - F_f}{A_f}$$

bu yerda  $A_f$  - qiz korxonasi aktivlari qiymati.

Yuqorida ko'tib chiqilgan masalalarni quyidagi misol asosida tushintirib beramiz.

Faraz qilaylik dollar kursi so'mga nisbatan 6 so'mdan 4 so'mga pasaydi, ya'ni 33,3foiz. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatib turgan qiz korxonasining ko'rsatkichlariga buni qanday ta'siri bor. Birinchidan, korxona ko'rsatkichlari 33,3foiz ga pasayadi,

chunki u dollar sotib olish kerak, ikkinchidan, agar korxona ish faoliyatini so'mning narxini hisobga olib o'zgartirmasa, uning raqobatililik darajasi yomonlashadi. Agarda, biz keltirgan misolni teskarisi yuz bersa amaliy otta teskar samaraga ham erishish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek valyuta kurslarini o'zgarishi bir qancha omillarga bog'liq.

Valyuta kursini o'zgarishini samaradorlikka va samaradorlikni valyuta kurslarini o'zgarishiga ta'sirini quyidagi raqamlar asosida ko'rib chiqamiz.

### Dollar kursi o'zgarishining qiz korxonaning foydasi va aktivlari daromadliligiga ta'sirni baholash

	O'tgan davr	Hisobot davri		
		Doimiy almashtirish kursi	Dollar o'sdi	Dollar pasaydi
Almashtirish kursi, R doll/so'm)	0,16	0,16	0,11	0,25
Almashtirish kursi, R (so'm/doll)	6,25	6,25	9,00	4,00
Bir birlik bahosi, Pf	70,00	75,00	90,00	60,00
Mahsulot birligining o'zgaruvchan xarakatlari (dollar hisobida), Cf	10,00	10,00	10,00	10,00
Mahsulot birligining o'zgaruvchan xarakatlari (so'm hisobida), Cf	2,00	62,00	80,00	50,00
Sotilgan mahsulot soni, V	1000	1000	750	1100
Kompaniya aktivlari, Af	14700	22700	19000	15000
Sotishdan olingan mablag'	70000	75000	67500	66000
O'zgaruvchan xarakatlari jami	62500	62000	60000	55000
Doimiy xarakatlari	5000	5000	5000	5000
Foya, so'm hisobida	2500	7500	2500	5000
ROI - samaradorlik normasi(foya/aktivlar), foiz	17	33	10	40
Foya, dollar hisobida	400	1200	175	1500

Jadval ma'lumotlari asosida samaradorlikni uch variantda baholash mumkin: almashtirish kursi o'zgarmaydi; almashtirish kursi o'sadi; almashtirish kursi pasayadi.

Birinchi variantda, ya'ni kursning o'zgarmasligi sharoitida chet el bozorida tovari sotish bahosi oshadi. Bahoning 10 foizga o'sishi bilan kompaniyani foydasi ikki baravarga (5000 dan 10000) ko'payadi, shunga proporsional ravishda dollarda hisoblangan foya ham ikki baravarga ortadi. Natijada investitsiya kapitali daromadliligi ikki marta oshadi.

Ikkinci variantda, ya'ni dollarning kursi oshishi bilan mahsulot tannarxi (so'm hisobida) 80 so'mga etadi. Bunday sharoitda, chet el kompaniyasi mahsulot bahosini ko'tarishga harakat qiladi (bahoni ko'tarish yaxshilikka olib kelmaydi). Ko'rinish turibdiki, bahoning ko'tarilishi bilan sotish hajmi 1000 dan 750 ga tushadi. Bunday tashqari, kompaniya aktivlari qiymati oshadi. So'mdag'i foya da summasini 66,5 foiz va foya da normasini (deyarli shu miqdorga) pasayishi, dollarda hisoblangan foya da summasini 77,1 foiz pasayishiga olib keladi.

Uchinchi variantda, ya'ni dollar kursining pasayishida chet el kompaniyalarga, shu mamlakatni resurslaridan foydalanimish manfaatli emas. Ular bunday paytda kerakli

resurslarni o'zidan olib kelishga yoki boshqa mamlakatlardan import qilishga shoshilishadi. Ya'ni qo'shimcha resurslarni olib kirlishi natijasida kompaniya tovar bahosini pasaytirishga erishadi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi (bizni misolda 750 dan 1100 gacha).

Bu variantda birinchisiga nisbatan kompaniyaning sotishdan olgan mablag'i, foyda summasi va normasi kam bo'lsa ham, dollar hisobidan olinadigan foyda Yuqori bo'ladi, shuning uchun ham "ona" kompaniyalar uchun bu variantda ishlash qiziqarli va manfaatlidir. Bunga yorqin misol sifatida, hozirgi kunda Rossiya avtomobil bozoriga "KIA" avtomobillarining kirib (ekspansiya) kelishini keltirish mumkin.

Ushbu paragrafida biz valyuta kurslariga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini o'lichash va baholash bilan bog'liq bo'lgan metodlar bilan qisman tanishtirdik. Hamma omillarning ta'sirini o'lichash va baholash mumkin edi.

Valyuta kurslarini tahil qilishda o'rtacha ko'rsatkichlar bilan bir qatorda dinamika qatorlari, indeks va korrelyasiya-regressiya metodlari keng qo'llaniladi.

Valyuta kursi dinamikasining tahlil qilishdan maqsad – qatomni vaqt bo'yicha o'zgarishini va o'rtacha darajasini baholash; valyuta kurslarining harakatini o'lichash va prognozini tuzishdir.

Valyuta kurslari dinamikasini oddiy ko'rsatkichlari aniqlangandan so'ng umumiy tendensiyalar (guruhash, grafiklar, jadval va h.k. yordamida) aniqlanadi. Lekin bu ishni bajarishdan oldin valyuta kurslari harakatini tasodifiyligi o'rganilishi taklif etiladi. Tasodifylikni o'rganishda statistik metodlar va me'yorlar kompleksi qo'llaniladi: burilish nuqtalarini; fazaning uzunligi taqsimlanishi; ranglar korrelyasiysi.

Qator qiymatlarning burilishi nuqtasi deb bir hadni o'zidan oldingi ikki qo'shni hadlardan Yuqori va pastligiga aytildi. Burilish nuqtasi tendensiyasining o'zgarishi haqida habar beradi. Burilish nuqtasi (BN) va mutloq tasodifiy (MT) sonni taqqoslab bu jarayonni tasodifyligi haqida xulosa qilishadi.

$$G_0: BN = MT \quad qarshi \quad G_1: BN \neq MT$$

Student taqsimoti va t haq bilan t – mezoniga suyanib:

$$t_{\text{yax}} = \frac{BH - MT}{\sigma_{\text{taqsimoti}}^2}$$

bu yerda  $\sigma_{\text{taqsimoti}}^2 = \frac{16n - 29}{90}$ ; n – kuzatishlar soni.

Bu metod faqat tendensiyada burilish bo'lganligi bo'yicha xabar bergani uchun, signalchi usul deb nom olgan.

Faza uzunligi taqsimlanish mezonida ikki qo'shini burilish nuqtalari oralig'ida taqsimlanishni nazariy va haqiqiy qatorlari solishtiriladi.

Ranglar korrelyasiyasida statistik gipoteza ( $G_0 = 0$  qarshi  $G_1 \neq 0$ ) Kendel koefitsient yordamida tekshiriladi:

$$\tau = \frac{4P}{n(n-1)} - 1$$

Kendel koefitsient  $-1 < \tau < 1$  oralig'ida o'zgaradi.  $\tau = -1$  bo'lganda qator hadlari pasayadi;  $\tau = +1$  – ortadi;  $\tau = 0$  – o'zgarishning yo'nalishi yo'q.

Valyuta kurslari harakatini tasodiflyigli o'rganilgandan so'ng ularda mavjud asosiy tendensiya aniqlanadi. Bu ishning mavsumiylik indeksini hisoblash, sirliganchiqli o'rtachani aniqlash, qatorlarni analitik tekislash, avtokorrelasiyani baholash bilan bajariladi.

Valyuta kurslarining darajasi va dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangandan so'ng ularning har birini ta'siri va birqalikdagi ta'sirini statistik baholash zaruriyati tug'iladi. Bu korrelyasion-regression tahlil quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: bog'lanishlarni modellashtirish va omil belgi bilan natijaviy belgi o'rtasidagi bog'liqlikning qalinligini baholanadi. Bu approksimatsiyani nisbiy xatosi, o'rtacha kvadratik xato ( $\sigma_{\text{resid}}^2$ ) yoki korrelyasiya koeffitsienti (R). Qimmatlilikni tekshirish uchun Fisher taqsimoti bilan G' – mezonni qo'llashadi. Bunda maxsus modellar tuziladi. Lekin modellarni tuzishda avtoregressiya a mavjudligini hisobga olish kerak, ya'ni regressiya tenglamasiga  $t$  – omilni ham qo'shish kerak:

$$\bar{y}_t = f_x + f_t$$

bu yerda  $\bar{y}_t$  – valyuta kursi bo'yicha tekislangan ma'lumotlar;  $f_x$  – valyuta kursi va  $x$  – omilni analitik bog'liqligi;  $f_t$  – valyuta kursi va vaqt analitik bog'liqligi.

Valyuta kurslarini darajasi va dinamikasi bo'yicha haqiqiy erishilgan darajani tahlil qilingandan so'ng ularni kelgusidagi darajalarini ham aniqlash mumkin. Bu ish statistikada prognozlash deb yuritiladi va u quyidagi metodlar yordamida amalga oshiriladi: korrelyasion-regression metoddasi ishlataladigan modellar; forward kurslarini aniqlash metodlar; dinamik prognozlash (to'g'ri va moslashtirilgan modellar); ekspert baholash metodlari; ssenariylar metodi; ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha baholash va boshqalar.

Chet el manbalarida valyuta kurslarini prognozlashda ikki yo'naliш ajratib ko'rsatiladi: fundamental va texnik tahlil.

Fundamental tahlil – makrodarajada o'zaro bog'lanishlarni murakkab tadqiqoti va u asosida modellar tuzishdir.

Fundamental tahlilni asosiy instrumentlari xalqaro paritet munosabatlardan kelib chiqadi. Bu "spot" va "forward" valyuta kurslari; daromadlilikni nisbiy stavkalar; infliyasiya stavkasi.

To'lov balansi va moliyaviy risklar ko'rsatkichlari asosida modellar tuzish sharoitidagi fundamental tahlil farqlanadi. Bu yerda iqtisodiy tahlil bilan bir qatorda ekspert baholash, aralash baholash va texnik tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, fundamental tahlil quyidagi turlarga bo'linadi: iqtisodiy; ekspert; iqtisodiy-ekspert; texnik tahlil.

Fundamental metoddasi ham, texnik metoddasi ham bitta muammo echiladi – valyuta kursi harakatini keyingi yo'naliшинi aniqlashdir, lekin ular muammoga turli tomondan yondashishadi. Fundamental tahlilda valyuta kursini harakatga keltiruvchi sabablar o'rganilsa, texnik tahlilda – samara o'rganiladi. Texnik tahlil instrumentlariga – grafiklar xarakteristikasi; chiziqli chartlar (Line Charts), gistogrammalar (Bar Charts); krestiklar – nollar; yapon shamlari; klassik figuralariga (shakllariga) – maqsadli trend, trend chizig'i va kanal chizig'i, asosiy buruluvchan figuralar, taklif

figuralari va boshqalar kiradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Inflyasiya – bu, revalvatsiya, ya’ni ishsizlik va byudjet defitsitining o’sishi, iqtisodiyot militarizatsiyasi, monopolianing kuchayishi va takror ishlab chiqarish disproporsiyasi hisoblanadi.

Valyuta kurslarini darajasi va dinamikasi bo‘yicha haqiqiy erishilgandarajani tahlil qilingandan so‘ng ularni kelgusidagi darajalarini ham aniqlash mumkin. Bu ish statistikada prognozlash deb yuritiladi va u quyidagi metodlar yordamida amalga oshiriladi: korrelyasion-regression metoddha ishlatiladigan modellar; forward kurslarini aniqlash metodlar; dinamik prognozlash (to‘g‘ri va moslashtirilgan modellar); ekspert baholash metodlari; ssenariylar metodi; ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash va boshqalar.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Valyuta, valyuta boyliklari va valyuta operatsiyalari deganda nimalarni tushunasizq
2. Valyuta munosabatlарining tashqi iqtisodiy aloqlarni rivojlantirishdagi o‘mi qandayq
3. Valyuta aylanuvchanligi tushunchasiga ta‘rif bering.
4. Qaysi valyutalar zaxira valyuta sifatida qo‘llaniladi.
5. Valyutaning konvertatsiyalanishi nima va u qanday ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi. O‘zbek so‘mi valyutalar guruhining qaysi turiga kiradi.
6. Valyuta kursi va valyuta kotirovkasi deganda nimalar tushuniladi.
7. Kassa va muddatli valyuta bitami nima?
8. Valyutaning belgilangan kursi va suzuvchi kurs deganda nimalarni tushunasiz?
9. O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi tizimiga ta‘rif bering.
10. O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish sohasidagi islohotlarning asosiy bosqichlarini sanab o‘ting.
11. O‘zbekistonning Xalqaro Valyuta Fondi va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligi uning tashqi iqtisodiy faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. B.I.Bashkatov, B.T.Ryabushkin. Praktikum po natsionalnomu schetovodstvu. Ucheb. posobie – M., 2014 g.
2. Pod red. B.I.Bashkatova. Natsionalnoe schetovodstvo. Uchebnik. 2014 g.
3. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
5. [europa.eu.int/GcommGrelaysGindex\\_en.htm](http://europa.eu.int/GcommGrelaysGindex_en.htm)
6. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
7. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
8. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
9. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

# **X BOB. O'ZBEKISTONGA CHET EL**

## **INVESTITSIYALARINI JALB ETISHNI**

### **STATISTIK O'RGANISH**

#### **10.1. Iqtisodiyoti o'tish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda qo'shma tadbirkorlikni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasining o'tish iqtisodiyoti hozirgi vaqtida boshidan kechirayotgan muammolar hammaga ma'lum Makroiqtisodiy vaziyatning so'nggi yillardagi rivojlanish tamoyillari O'zbekiston milliy iqtisodiyotining bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish jarayonining murakkabligi va uning natijalari bir xil emasligini ko'rsatmoqda. Barqaror iqtisodiy taraqqiyot, inflyasiya darajasining pasayishi, islohotlar me'yoriy asoslarining yaratilishi bir tomonдан, iqtisodiyotning real sektorida va valyuta bozorida moliyaviy barqarorsizlikning o'sishi, ekspordan valyuta tushumlarining qisqarishi, ish bilan band kishilarning daromadlari va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi sohasida o'sish yo'qligi bilan izma-iz kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahon moliyaviy tangligi moliyaviy barqarorsizlik kuchayishida sezilarli rol o'ynadi. Savdo-sotiq sharoitlari yomonlashdi, chet el investitsiyalarini jaib qilish imkoniyatlari qisqardi.

Vaziyatni va iqtisodiyotni hozirgi holatidan olib chiqish istiqbollarini baholashning naqadar xilma-xilligida ham bir narsa ayon — hozir hech qanday, Hatto g'oyat «bozorchil» islohotlar ham o'z-o'zicha ahvolni tuzatishga yordam bermaydi.

Endilikda asosiy muammo ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va o'stirishga erishish hamda takroriy ishlab chiqarish jarayonlari uchun risoladagi shart-sharoitlarni ta'minlash zaruriyatidan iboratdir. Uning hal etilishi esa, agar barcha tarmoqlarda ma'naviy va jismoniy eskrish darajasi Yuqori ekanligini, ayniqsa, sodir etilayotgan tarkibiy qayta tashkil etishlarni hisobga olsak, zarur sarmoya mablag'laringin miqdorlari va manbalariga borib taqaladi.

Ma'lumki, bu — ichki va tashqi manbalar bo'lishi mumkin. Hech qanday ikqilanmasdan aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyoti o'zini o'zi rivojlantirish uchun boy resurslarga ega. Biroq hali jamg'arishning barcha ichki manbalari harakatga keltirilgani yo'q va davlat byudjeti hozircha etishmovchiliklardan qiy'almoqda. Shu bois barcha investitsiya ehtiyojlarini qoplay olmayotir. Ko'p korxonalar va aholining asosiy qismi murakkab ahvolga tushib qolganki, ularga ham ko'lamli investitsiya manbalari sifatida qarash mumkin emas. Buni, jumladan, xususiylashtirish jarayonlarining borishi ham tasdiqlamoqda. Tijorat tarkiblariiga bo'lgan umidlar ham hozircha o'zini oqlamayotir, ular mablag'larni ishlab chiqarish sohasidan ko'ra ko'proq qisqa muddatli va Yuqori foyda keltiruvchi vositachilik operatsiyalariga sarflashni afzal ko'rmoqdalar.

Shu munosabat bilan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirishning tashqi manbalari nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chet el sarmoyasini jaib qilishning jahon amaliyoti ikki asosiy turdan — jahon bozorida raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish uchun qarzlar olish va bu yerda o'z ishini

yo'lga ko'yuvchi yoki qo'shma ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi chet el tadbirkorlari bevosita kirib kelishi uchun bozorni ochishdan iborat.

Birinchi tur biz uchun istiqbolli emas. Ilgari shunday yo'l tutib, tashqi qarzdorlik «o'rasi»ga tushib qolgan mamlakatlarning (Lotin Amerikasi va Sharqiy Yevropaning ko'pgina davlatlari) tajribasini esga olish kifoya. Respublika tomonidan davlat miyosida yangi ko'lamli zayomlarni olish muammolari, tashqi qarzdorlik, zayom mablag'laridan foydalananishning hozircha unchalik Yuqori bo'Imagan samaradorligi va shu kabi omillarni ham hisobga olmoq kerak.

O'z vaqtida «yangi industrial mamlakatlar» (YAIM) deb nom olgan mamlakatlarning ko'pchiligi foydalangan ikkinchi yo'l qoladi. Bu — umuman, tadbirkorlikni har tomonlama rag'batlantrish va iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarida chet el investorlari uchun foydali shart-sharoitlar yaratish yo'lidir. Bu yo'lda hech qanday muammolar uchramaydi, deb o'ylamaslik kerak. Biroq ulardagi iqtisodiy o'sishning muhim va barqaror yuksak sur'atlari bu yo'lning umidbaxshligidan dalolat bermoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida unga chet el tadbirkorlik sarmoyasini bevosita jalb qilish g'oyat dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Umuman, bozor iqtisodiyotni barpo etishning asosiy yo'nalishlari va samaradorligi ko'p jihatdan bu vazifaning muvaffaqiyatli hal qilinishiga bog'liq.

Endi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida qo'shma tadbirkorlikning rivojlanishini bir muncha mufassalroq ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadlarida chet el investitsiyalarini jalb qilishga intilish bu mamlakatlarda ancha ilgari namoyon bo'ldi. Bunga yo'l qo'yuvchi va o'z hududdarida qo'shma korxonalarni barpo etish va ular faoliyatining asosiy qoidalarini belgilab beruvchi dastlabki qonun hujjatlari Yugoslaviyada 1968 yili, Ruminiyada — 1971, Vengriyada — 1972, Polshada — 1970, Xitoyda — 1979, Bolgariyada — 1980, Chexiya va Slovakiyada 1985 yili qabul qilingan edi. Qo'shma korxonalarni iqtisodiyotda alohida sohaga ajratib ta'riflash bu hujjatlarga xos xususiyat edi. Bu ularni barpo etishning yetarlicha murakkab kechgan jarayonlarida namoyon bo'lib, turli ruxsatnomalar olinishi va ko'p vaqt sarflanishini taqozo etdi, xorijiy sheriklarning valyuta dividendlarini chetga o'tkazish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etishga to'g'ri keldi. Odatda, ustav jamg' armasida ularning hissasi cheklanar (49foiz), qo'shma korxonalarni faqat u joylashgan mamlakat fuqarolari boshqara oladigan talablar qo'yildi. Soliq solish tartibi xom ashyo etkazib bergenlik uchun hisob-kitoblar, kreditlash va hokazolar ham milliy korxonalarni qo'shma korxonalardan farqlardi.

Bir tomonдан, bu holatni obyektiv sabablari taqozo etardi — o'sha vaqlarda (70-yillar — 80-yillarning boshlari) Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham bozor iqtisodiyotidan ancha olisda edi, ularda boshqaruvi, asosan, markazlashtirilgan rejalashtirish usullariga asoslanardi. Bunday sharoitlarda qo'shma korxonalar iqtisodiyotida ma'lum darajada birmuncha begona elementlar sifatida namoyon bo'lardi, ularning iqtisodiyotga qo'shilishi esa aralashib ketishning maxsus mexanizmlarini taqozo qilardi.

Boshqa tomondan, xorijiy sheriklar duch keladigan g'ayritabiyy muammolar — kafolatlarning yo'qligi, to'rachilik murakkabligi va g'ovlari, valyuta murakkabligi va hokazolar investitsiyalar oqib kelishiga aslo ko'maklashmasdi. Chunonchi, 1988 yili Sharqiy Yevropa mamlakatlarida 200 ga yaqin qo'shma korxona (Vengriyada — 140, Polshada — 19, Bolgariyada — 10, Chexoslovakiyada — 9, Ruminiyada — 4) barpo etilgan edi. Ularغا chet el sarmoyalari qo'yilmalarining umumiyy hajmi 400-500 mln. AQSH dollarini tashkil etib, ular hal etilishini ko'zlab tuzilgan vazifalar — ishlab chiqarishni, eksportni ko'paytirish, eng yangi texnologiyalarni jaib qilish va hokazo vazifalarning hal etilishida amalda arzimas o'rinn tutardi.

O'sha davrda Xitoyda qo'shma korxonalarini rivojlantirish natijalari birmuncha salmoqli bo'ldi. 1987 yili chet el investitsiyalari hajmi real foydalanishda 6,8 milliard AQSH dollariga etdi. 3200 dan ortiq psychilik, 4390 ta shartnomaviy qo'shma korxonalar, 138 ta sof chet el korxonalarini barpo etildi, 2 mingdan ziyod kompensatsiya ga oid bitimlar tuzildi.

Vaziyat 80-yillarning oxirida o'zgara boshladi. Bu paytga kelib, bu mamlakatlarda salmoqli siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiyotda uning ochiqligi, Yevropa integratsiyasiga qo'shilish, valyutalarining almashinuvchanligiga erishish sari qat'iy yo'l tutildi, bu sohada yangi qonunlar — Vengriyada xorijiy shaxslarning investitsivalari to'g'risida qonun (1988 y.), Polshada chet el sybyektlari ishtirokida xo'jalik faoliyatini to'g'risida qonun (1988 y.). Yugoslaviyada chet el sarmoyalalarini joylashtirish to'g'risidagi qonun (1988 Pi.). Bolgariyada xo'jalik faoliyatini to'g'risidagi 56-sonli farmon (1989 y.), Ruminiyada chet el investitsiyalarini jaib qilish tadbirdari to'g'risidagi qonun (1990 y.) qabul qilinishi asosida chet el investitsiyalari bo'lgan korxonalarini tartibga solish ham tegishlichcha o'zgartirildi. Natijada yangidan barpo etilayotgan qo'shma korxonalar son jihatdan katta o'sishi aniq ko'zga tashlana boshlandi. Chunonchi, ularning miqdori Vengriyada 1991 yili 5000 dan, Polshada — 2500 dan, Chexoslovakiyada — 1200 dan, Ruminiyada — 600 tadan ortib ketdi.

Umuman, bu mamlakatlarda chet el investitsiyalari ishtirokida korxonalarini barpo etish va ular faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini bir qator umumiyy xususiyatlar bilan ifodalash mumkin.

Qo'shma korxonalarini barpo etish tartibi ancha soddalashtirildi. Ustav jamg'armasidagi xorijiy ishtirokchi hissasiga to'g'ri keladigan cheklashlarning eng ko'pi (49foiz) ham, bir qator mamlakatlarda bo'lgan eng kami (Yugoslaviyada kamida 10foiz) ham bekor qilindi. 1991 yildan boshlab Vengriyada chet el sarmoyasi hissasi ko'p bo'lgan qo'shma korxonalarini barpo etish uchun maxsus ruxsat olish talab qilinmaydi. Ilgari bunga uch oy ketardi. Erkinlashtirish qo'shma korxona barpo etishning boshqa jihatlariga ham daxli ko'rsatdi. Endilikda ham yuridik, ham jismoniy shaxslar, ham xorijlik, ham milliy sybyektlar ularning ta'sisichilari bo'lishlari mumkin. Natijada Polshada qo'shma korxonalarining anchagini qismini «poloniyl» deb ataluvchi firmalar tashkil etadi, ular kelib chiqishi polshalik bo'lgan chet el jismoniy shaxslari ishtirokida barpo etilgan.

Qabul qilingan qarorlar iqtisodiyotga xorij sarmoyalalarini joylashtirishning shakllari va tarmoqlarini sezilarli kengaytirish imkonini berdi. To'laligicha xorijiy shaxslarga tegashli bo'lgan ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun bevosita ulushlar

qo'yish imkoni paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtida, masalan, Vengriyada qo'shma korxonalar amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tashkil etilishi mumkin. Boshqa mamlakatlarda bunday mablag'lar uchun faqat tor sohalargina (sug'ortalash, bank ishi) yoki yoki bir qator tarmoqlarda ish olib borish uchun tegishli ruxsatnomalar olinishi kerak, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni yuritish huquqi tevaragida ham muammolar kelib chiqmaydi.

Shuningdek, qo'shma korxonalarda boshqaruv jarayonlarini tartibga solish darajasi ham yengillashmoqda. Joylashish mamlakati fuqarolari tomonidangina rahbarlik qilish talabi bartaraf etildi. Bu sohada ko'pgina boshqa chekllovchi tartiblar (boshqaruv organlarida ishtirokchilar ovozining nisbati — Yugoslaviya, Bolgariya), bir qator muhim masalalar bo'yicha ularning barcha a'zolari o'tasida yakdillikning zarurligi (Yugoslaviya, Ruminiya, bir qator boshqa davlatlar) kabi talablar ham bekor qilindi.

Sarmoya qo'yilmalari sohasiga ham shunday jarayonlar daxl ko'rsatdi. Endilikda ular pul yoki natura ko'rinishida amalga oshirilishi va shartnoma asosida milliy yoki xorij valyutasida baholanishi mumkin. Olib kirilayotgan uskunalarga bojxona to'lovi qo'llanilmaydi (ilgari Yugoslaviyada qo'llanilardi). Bu mamlakatda hozirgacha bo'lgan ayrim talablardan voz kechish kuzatilmoqda. Yugoslaviyaga avvallari faqat mahalliy o'xshashi bo'lмаган taqdirdagina uskunalarni olib kirishga yo'l qo'yildi. Polshada pul mablag'larini qo'shish chog'ida valyutani almashtirganlik to'g'risida ma'lumotnomasi taqqid etish talab qilinardi va hokazo.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sohasida soliq siyosati ham o'zgartirildi. Barcha mulkchilik shakli uchun foydadan soliqning yagona stavkalariga o'tish va qo'shma korxonalarga bir qator imtiyozlar berish umumiyl tamoyil hisoblanadi. Ular orasida muayyan davr mobaynida, bir necha oydan bir necha yilgacha (odatda, qo'shma korxonalarning oyoqqa turish davrida) soliq to'lashdan to'la va qisman ozod qilish, shuningdek, mamlakatda (Bolgariya, Vengriya, Yugoslaviya va Xitoy) foydani reinvestitsiyalash bo'yicha — iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida qo'shma korxonalar tashkil etish chog'ida (Vengriya, Bolgariya, Polsha) va xorijiy sarmoyador hissasi sezilarli bo'lishi kabi engilliklar bor.

Umuman, yangi qonunlar mulkchilikning barcha shakllari faoliyati uchun tent sharoitlarga va chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarga davlat, kooperativ va xususiy korxonalar bilan cheklanmagan raqobat imkoniyatlari berilishiga yo'naltirilgan. Ulgurji savdoning bozor mexanizmlari rivojlanishi munosabati bilan moddiy-tehnika ta'minoti sohasida ulami kamsitishga barham berildi. Qo'shma korxonalar xorijda valyutada hisobvaraqlar ochib (ruxsat bilan) saqlashi, shuningdek, mamlakat va chet el banklarida xorij va milliy valyutada kreditlarni erkin olishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ko'rib chiqilayotgan mamlakatlarga oqib kelishini to'xtatib turgan asosiy omil sarmoya joylashtiruvchilarda kafolatlamining yo'qligida edi. Shuning uchun yangi qonunlarda mumkin bo'lgan milliy lashtirishning mutlaq xususiyati belgilanib, u xorijiy ishtirokchiga uning xissasi tegishli valyutada qoplanishini nazarda tutadi. Shuningdek, bir qator mamlakatlarda foydaning unga tegishli hissasini chet elga o'tkazishga bo'lgan cheklashlar bekor qilindi. Ilgari bu

o'rinda ko'pdan-ko'p turli shartlar — foydadan hissanning faqat 50foizini olib chiqib ketish huquqi (Yugoslaviya), barcha hisob-kitoblarni faqat milliy bank orqali o'tkazish talabi (Vengriya), valyutaning bir qismini davlatga majburiyot sotishdan keyingina olib ketish huquqi (Polsha) va hokazolar mavjud edi. Investitsiyalarni himoyalash va ikki tomonlama soliq undirishni bekor qilish to'g'risida davlatlararo tegishli bitimlar tuzish asosida ikkiyoiqlama soliq undirishdan saqlanish bo'yicha ham chora-tadbirlar ko'nildi.

Shunday qilib, o'tish iqtisodiyotidagi barcha mamlakatlarda umumiy yo'l xorijiy sarmoyali korxonalarga ta'sis etish va ro'yxatga olish, xo'jalik faoliyatini yuritish shartlari bo'yicha milliy korxonalar bilan bir xil sharoitlar yaratishga intilishdan iborat, degan xulosaga kelish mumkin. Ayni paytda ular uchun davlat kafolatları mustahkamlanib, iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal etishga ko'lamli kirishishlari uchun omillar yaratilmoqda.

O'z iqtisodiyotini bozor iqtisodiyotiga o'tkazayotgan davlatlar orasida MDH va Boltiqbo'yini mamlakatlarining qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirish va chet el sarmoyasini jalgan etish jarayonlarini tartibga solish tajribasi O'zbekiston uchun amaliy jihaldan katta qiziqish uygotadi. MDH va Boltiqbo'yini mamlakatlarida qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishning qonunchilik asosları asosan 1991-1992 yillarda, investitsiya faoliyatini to'g'risida bir qator qonunlar, shuningdek, ayrim o'ziga xos «Maxsus (erkin) iqtisodiy mintaqalarni barpo etish va ish olib borishining umumiy qoidalari to'g'risida» (Ukraina), «Konsessiyalar to'g'risida» (Qozog'iston, Qirg'iziston) va boshqa qonunlarning qabul qilinishi bilan barpo etildi.

Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunlari bilan barobar bir qator davlatlarda tadbirkorlik to'g'risida, yer osti boyliklari to'g'risida, yer to'g'risida va boshqa qonun hujjatlari ham qabul qilinib, ularda ham investitsiyalarga taalluqli masalalar tartibga solinadi.

Milliy qonunchilik bir qator o'ziga xos farqlarga ega. Chunonchi, chet el investitsiyalari uchun ustuvor tarmoqlarni belgilash chog'ida Ukrainianing chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonuni chet el investitsiyalarning davlat dasturi qabul qilinishini nazarda tutadi. Imtiyozlarning berilishi investitsiyalar shunday dasturga muvofiq joylashtirilayotganligiga bog'liq bo'ladi. Shu qonunga binoan chet el investitsiyalarni rag'batlantirish davlat siyosatini Ukraina Vazirlar Maxkamasi Ukrainianing Milliy banki bilan birqalikda ishlab chiqdi, dastur Ukraina parlamenta tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Qirg'iziston, Qozog'iston, Moldovaning chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunlari ham shu yo'ldan bordi. Ularda va bu qonularga ilovalarda chet el sarmoyasini jalgan etish uchun ustun darajada belgilangan tarmoqlarning ro'yxati va ishlab chiqarish turlari aks etgan. Qirg'izistonning chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonuniga ilovada yigirma to'rt tarmoqdan iborat eng to'la ro'yxat berilgan.

Qozog'istonda shunday ro'yxatga xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish; qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash; elektron mahsulotlar ishlab chiqarish; biotexnologik mahsulot; tibbiyot uskulalari; dori-darmonlar; mamlakat ichidagi ixtirolar va kashfiyotlardan ishlab chiqarishda foydalilaniladigan mahsulotlar; sanoat, kon-metallurgiya majmui chiqindilarini va ikqilamchi xom ashyolarni qayta ishlash, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish kiradi.

Moldovada xalq iste moli tovarlari ishlab chiqarish, dehqonchilik-sanoat majmui, konversiya tarmoqdari, qurilish, tibbiyot va farmatsevtikaga ustunlik berilgan.

Latviyada quyidagi tarmoqlar va ishlab chiqarishlarda xorijiy investitsiyali korxonalarga xo'jalik faoliyatida eng ko'p qulaylik tartibi beriladi: qog'oz va sellyuloza sanoati; qurilish materiallari sanoati; qishloq xo'jalik mashinalari, traktorlar, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat sanoati uchun uskunalar va ehtiyoj qismilar ishlab chiqarish; kanop va jun ishlab chiqarish; port xujaligini rivojlantirish; oziq-ovqat sanoati; farmatsevtika sanoati; turizm infratuwilmasini rivojlantirish; elektron mahsulot ishlab chiqarish; qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash va saqlash; biotexnologik mahsulot, tibbiyot uskunalar; tabiatdan muhofaza qilish bilan bog'liq uskunalar ishlab chiqarish va inshootlar qurish; sanoat chiqindilari va boshka ikqilamchi xom ashyonni qayta ishlash; mebel ishlab chiqarish; energetika; transport va aloqa.

Milliy rejim masalasi xususida amalda MDHning barcha davlatlari, shuningdek, Boltiqbo'y i mamlakatlari qonunchiligi mulkchilikning, xorijiy mulkchilik ham qushilib, turli shakllari teng huquqliligidan kelib chiqadi. Bu mamlakatlarning hududlarida bu xususdagi qoidalar mulkchilik to'g'risidagi qonunlarda qayd qilingan. Bundan tashqari, bir qator mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belarus, Qirg'iziston, Gruziya, Latviya, Litva)ning qonunlari xorijiy sarmoyaga nisbatan milliy rejimni ko'zda tutadi, ya'ni ulardan o'z hududlarida mamlakat fuqarolari va korxonalar foydalanadigan rejimni belgilaydilar.

Shu bilan birga Latviya qonunchiligidagi chet el investitsiyalari uchun respublikada muayyan cheklashlar joriy etilgan. Chunonchi, chet el investorlari davlatni himoya qilish; narkotik moddalarni tayyorlash va sotish; qimmatli qog'ozlar, pul belgilari, tangalar va pochta markalari tayyorlash; ommaviy axborot vositalari sohasida; davlat ta'limi sohasida; barcha qayta cheklanuvchi va tiklanmaydigan tabiiy boyliklarni, shuningdek, kontinental shelf boyliklarini qazib olish bo'yicha; Latviya Respublikasining yurisdiksiyasi ostida bo'lgan ichki suv havzalarida baliq tutishda; ov xo'jaligida; port xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar ustidan nazorat huquqini ololmaydilar.

Ko'rinib turibdiki, Latviyada chet el investitsiyasini iqtisodiyotga kiritishning nihoyatda qattiq tartibi belgilangan. Boshqa cheklashlar ham ko'zda tutilgan. Xususan, Yuqorida sanab o'tilgan qoidalar buzilgan taqdirda korxonaning ruxsat etilmagan nazorat ostiga olingan qismini uch oydan kechikmagan muddat ichida sotish chet el investorining majburiyati hisoblanadi. Aks holda mulk sud qarori bo'yicha majburiy tartibda sotiladi va qiymatining 25foizi davlat foydasiga chegiriladi.

Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunlarning ko'pchiligi, odatda, kafolatlarning standart ro'yxatini, milliylashtirishni rad etish yoki tez, samarali va teng tovon to'lash sharti bilan milliylashtirish imkoniyati belgilanishi va bir qator boshqa hollarni nazarda tutadi.

Kelajakda qonun o'zgartirilgan taqdirda chet el investorlariga nisbatan qonunning ta'siri o'z kuchini saqlashini ifodalashda jiddiy farqlar mavjud.

Ko'pgina davlatlarning qonunlarida qonun o'z kuchini saqlashi ko'rsatib o'tilgan. Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Latviyaning chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunlariga ko'ra, investitsiyalash sharoitlari

yomonlashgan taqdirda ilgari qabul qilingan huquqiy me'yorlar 10 yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Belarus qonuni bo'yicha bu muddat 5 yil qilib belgilangan. Bu qonunda ko'rib chiqilayotgan shart hech bir tortib olishlarsiz ifodalangan. Biroq Ozarbayjon, Moldova, bir qator boshqa davlatlarning qonunlarida u mudofaza, milliy xavfsizlik, atrof-muhit muhofazasi, sog'liqni saqlash, shuningdek, soliq solish, kreditlar va moliya, Latviyada — yana monopoliyaga qarshi qonunlar, jamaot tartibi, ma'naviyat, fuqarolar salomatligi sohalaridagi qonunchilikka joriy etilmaydi.

Tojikistonda bu ro'yxatga soliq, kreditlar va moliya sohalaridagi qonunlar kiritilmagan.

Qirg'izistonning qonunida umumiy tarzda «Qirg'iziston Respublikasi chet el investorlarining huquqlari barqarorligini va ularning boshqa shakldagi huquqiy himoyasini kafolatlaydi» deyilgan.

Ukrainaning «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni qonunchilikning o'zgarishidan eng erkin va chet el investorlarini qiziqtiruvchi ifodalardan birini aks ettiradi. Bu ifodaning alohida muhimligini hisobga olib, uni so'zma-so'z keltirish mumkin: «Ukrainaning bundan keyingi chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonuni maxsus chet el investitsiyalarini himoyalashning mazkur qonunda ko'rsatilgan shartlarini o'zgartirib yuborsa, xorijiy investor talabi bilan o'n yil mobaynida chet el investitsiyasiga nisbatan shu investitsiyalar ro'yxatga olingan davrda amal qilgan maxsus qonun qo'llaniladi».

Rossiyaning chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunida shunga o'xshash kafolat yo'q.

Estoniyada respublika me'yoriy hujjatida ko'rsatilgan asoslar va tartibdan tashqari hollarda chet el investitsiyalarini milliyashtirish, rekvizitsiyalash yoxud tortib olish taqiqlangan.

Chet el investori milliyashtirish yoxud rekvizitsiyalash orqali etkazilgan moddiy zarar unga dastlabki investitsiya amalga oshirilgan valyutada yoxud chet el investori uchun maqbul bo'lgan boshqa valyutada to'la hajmda qoplanadi. Zararni chet el investitsiyasini milliyashtirish va rekvizitsiyalash to'g'risida qaror chiqargan davlat idorasini qoplaydi. Agar zararni qoplash chog'ida nizo chiqsa, xorijiy investor uni ko'rib chiqish uchun, agar xalqaro shartnomasi bilan boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, sunda kurilishiga binoan, Estoniya Respublikasi sudiga murojaat qilish huquqiga ega.

MDH va Boltiqbo'y'i mamlakatlarda amal qilayotgan qo'shma tadbirkorlikka oid qonunchilik hujjatlarining tahlili ko'rsatadiki, ularni shakkantirish chog'ida amalda barcha mamlakatlarda jahon tajribasidan kelib chiqilgan. Shu bois bu qonunlarda garchi o'ziga xos farq bo'lsa-da, ularda umumiy xususiyatlar ko'p.

Tabiiyki, savol tug'iladi: MDH va Boltiqbo'y'i mamlakatlarda chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunlar qanchalik samarali amal qilmoqda yoki bu mamlakatlarda qo'shma tadbirkorlikni samarali rivojlantirishga qanday sabablar to'g'anoq bo'lmoqda:

**Birinchidan**, bu takomillashtirib borilayottanligiga qaramasdan chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarni tartibga solishning huquqiy tizimida saqlanib qolayotgan qusurlardir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy sheriklar qayta-qayta ko'rsatib o'tishayotganidek, bu tizimda ham, butun xo'jalik mexanizmida ham

bot-bot o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'z-o'zidan qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barqaror vaziyatni yaratishga ko'maklashmaydi. Uni shu mamlakatlarning hammasi uchun xos bo'lgan xususiyat yanada mushkullashtiradi. Bu xususiyat qonunchilik xujjatlarining ko'p miqdordagi idoraviy-me'yoriy hujjatlar bilan to'ldirilishiga bog'liq bo'lib, bu me'yoriy xujjatlar hamisha ham bir-biri bilan muvofiqlashtirilmaydi, gohida esa, Hatto qonunchilik hujjatlariga zid bo'lib tushadi.

Ishlarning bunday ahvoli bu mamlakatlarda xorij sarmoyasini jaib qilishdan iborat davlat siyosatining barqaror va ishonchli ekanligiga ishonchni susaytiradi. Shu bois keyingi vaqtida qo'yilgan qadamlar (milliyashtirishdan kafolatlar, zarami qoplash, ikkiyoqlama soliq undirilishini bekor qilish) ijobjiy bahoga loyiqdir. Ulami bundan buyon hech so'zsiz bajarish shart, zero, ilgarilar ko'pgina qonunlarda bayon qilingan qoidalar hamisha ham amalda bajarilmasdi.

**Ikkinchidan**, QKlarning rivojlanishiga ko'pdan-ko'p amaliy qiyinchiliklar to'sqinlik qiladi. Chet el investorlari kundalik faoliyatda bunday g'ovlarga bot-bot duch keladilar. Bu qiyinchiliklar xorijiy sheriklar uchun ko'pincha g'ayritabiyl bo'lib, ular o'z mamlakatlarda bunday qiyinchiliklarga duch kelmaganlar. Dastlabki qadamlardan muammolar boshlanadi. QKlarni barpo etish chog'ida xorijiy ishtirokchiga joylashish mamlakatida ishlash sharoitlari to'g'risida xilma-xil axborotlar zarur bo'ladi. Milliy sherikning o'zi hamisha ham zarur axborotga ega bo'lmaydi. Kon'yunkturali tadqiqot infratuzilmasi esa g'arbdagidan farqli ravishda bu mamlakatlarda hali faqat shakllanish bosqichida va hozirgi talablarga na miqdor, va ayniqsa, na sifat jihatidan (kompleks bozor tadkiqotlarining malaka darajasi) javob bermaydi.

Agar hozir Yuqorida bayon etilgan beri indeksiga qaytsak, shunga ishonch hosil qilish mumkinki, mamlakatlardagi ahvolni uning ko'pchilik mezonlari bo'yicha eng nomaqbul deb baholash kerak bo'ladi:

– umumiy barqarorlik — agar Hatto Tojikiston va Rossiya yoki Gruziya chiqarib tashlansa ham, hamma yerda ham siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy vaziyatni barqaror deb baholash mumkin emas;

– chet el investorlariga rasman ijobjiy munosabatda bo'lingani holda, hozirgina ta'kidlanganidek, turli cheklashlar va amaliy qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda;

– ko'pli inflyasiya jarayonlari barcha mamlakatlarga xos;

– ayrim mamlakatlardagi muayyan o'zgarishlarga qaramasdan, valyutaning almashtirilmayditan xususiyati mavjudligi;

– ishonarli valyutaning doimiy etishmasligi va tashqi to'lovga qobiligi muammosi;

– ta'minot, transport va aloqa hamda hokazo kanallar rivoji va tezkorligining yetarli emasligi.

Chet el investorlarining nuqtai nazariga ko'ra, bularning hammasi hozircha jiddiy zamонави raqobatbardosh ishlab chiqarishni barpo etish uchun zarur ko'lamli va uzok, muddatli sarmoy a joylashtirishlarni amalga oshirish imkonini bermayotir.

**Uchinchidan**, QK ishtirokchilari maqsadlarining xilma-xilligi munosabati bilan ham murakkabliklar tug'ilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ular bu murakkabliklar bilan QKlarni tashkil etish va uning faoliyatining asosiy masalalari bo'yicha —

texnologiya va sotuv bozori, faqat eng yangi texnologiyalarni sotib olish uchun emas, balki ularni tezroq o'zlashtirish maqsadlarida rivojlangan mamlakatlardagi sheriklariga murojaat qilishda ham duch keladilar. Holbuki, yuqorida ta'kidlanganidek, bular MDH mamlakatlarda QKlar barpo etishning salmoqli omillaridan biri hisoblanadi. Amalda xorijiy ishtirokchilar tomonidan o'z mamlakatlarda zamonaviyroq namunalari bilan almashtirilayotgan eskirgan texnologiyalar va uskunalarini sotish tamoyili aniq kuzatilmoqda. Bu bilan ular barpo etilayotgan korxona o'zlariga raqobatchilik qilishi imkoniyatlaridan o'zlarini kafolatlaydilar. Shunday qilib, MDH mamlakatlarning texnologik sakrashga intilishlari xorijiy sheriklar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanishga sazovor bo'lmayotir.

Xorijiy sheriklar QKga hissa sifatida o'zlarining eng yangi ishlanmalarini berishlari ham mumkin, lekin buning uchun ularga ko'lamli ishlab chiqarishni tez quloch yozdirishga, yana ham muhimrog'i, mahsulotni tegishli samara bilan sotishga kafolatlar zarur. Bu o'rinda ham ishtirokchilar QK mahsulotini sotish bozorlarining kattaligi va uni tanlash, shuningdek, shu mahsulot uchun hisob-kitoblar xususiyati muammosiga duch keladilar.

MDH mamlakatlarda QKlar bo'yicha sheriklar odatda ko'zlaydigan vazifalardan biri joylarda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni yo'lg'a qo'yishga intilish bilan bog'liq. Biroq, odatda bu quyidagi sabablarga ko'ra xorijiy sherikda g'ayrat-shioqat uyg'otmaydi:

— bu bozorlar ko'p hollarda ularning o'zlarini tomonidan o'zlashtirilgan va QK o'xshash mahsulotining paydo bo'lishi ular uchun foydal emas;

— ular mahalliy sheriklar ko'pincha ta'lab qilishganideq, bunday mahsulotni ularning markasi ostida yoki ularning sotuv tarmoqlari orqali sotish, bu maxsulotning sifati yetarli darajada Yuqori bo'lmagan taqdirda, ularning nufuziga zarba bo'lib tushishi mumkinligidan xavotirlanadilar.

Xorijiy sheriklarning QKda ishtirokini rag'batlanti-ruvchi omil, Yuqorida ta'kidlanganidek, shu yo'l bilan bu mamlakatlarning bozorlarida mustahkam o'mashib olishdani iboratki, bu bozorlarga ilgari boshqa usullar bilan kirib borish ular uchun goyat kiyin edi. Ayni shu jihat MDH mamlakatlarning mansaatlari, ularning bozorlarini mahsulotning xilma-xil turlari bilan ta'minlashni yaxshilash nuqtai nazariga mos tushadi. Biroq mansaatlarning mazkur mutanosibligi boshqa muammolar bilan murakkablashadi.

Bu mamlakatlardan ayrimlarining bozorlari o'z miqyoslari va xususiyatlariga ko'ra yirik miqyosdagi ishlab chiqarishni yulga qo'yish uchun yetarli hisoblanmaydi. Holbuki, shunday ishlab chiqarishlarga hissa sifatida eng yangi texnologiyalar olib kelinishi mumkin edi. Lekin bu cheklov QKnini tegishli mintaqaga (MDH yoki Boltiqbo'y) doirasida sotishga yo'naltirish hisobiga bartaraf etilishi mumkin. Biroq bu mamlakatlar valyutasi ayrboshlanmasligi va ularda ishonchli valyutaning o'ta etishmasligi hisobga olinsa, bunday mahsulotni etkazib berish uchun hisob-kitob mexanizmi ishlab chiqilgan hisoblanmaydi. Rossiya va Boltiqbo'y mamlakatlarda ichki aylanishlikka erishish, bir ktdor mamlakatlarda odat tusiga kirgan valyuta auksionlarining rivojlanishi bu muammoning xal etishini engillashtiradi, lekin uni uzil-kesil xal etishga hali ko'p vaqt kerak.

Shunday qilib, MDH va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida hali QKning ish olib borishi muammolari uzil-kesil hal qilingani yo‘q va boshqa qiyinchiliklar bilan qo‘silib, bu qo‘shma tadbirkorlikka takroriy ishlab chiqarish omi-li sifatida sezilarli rol o‘inash imkonini bermayotir. Biroq keyingi vaqtida kuzatilayotgan uning miqdor jihatidan keskin o‘sishi bozor islohotlari muvaffaqiyatlari hal qilina borgani sari QKlar bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga tobora samaraliroq ta’sir ko‘rsatishiga ishonish uchun asos bo‘layotir.

Jahon amaliyotida qo‘shma tadbirkorlikning shakllanishi, tartibga solinishi va natijadorlikning asosiy yakunlari umuman mana shunday. Mamlakatimizda bu sohada to‘plangan tajribani to‘g‘ri baholash va kelgusida uni takomillashtirishning istiqbolli yo‘llarini belgilab olish uchun ularni bilish zarur.

## **10.2. O‘zbekistonga chet el investitsiyalarini jalb etishni statistik o‘rganish**

Investitsiyalar statistikasi ko‘plab tarmoqlar va ishlab chiqarishlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, uning taraqqiyoti hal qiluvchi darajada sanoat taraqqiyotiga bog‘liqdir.

Investitsiyalar statistikasi moddiy ishlab chiqarish tarmogi sifatida alohida ahamiyatga ega. Avvalo mahsulotning o‘ziga xosligi, ya‘ni yaratilgan joydan qo‘zg‘almasligi, hajmi, og‘irligi, har turliligi va murakkabligidir. Investitsiyalar kiritish nafaqat tashkilotlari, balki buyurtmachilar loyihalash tashkilotlari, material va konstruksiyalar etkazib beruvchi korxonalar, rejalashtirish va boshqa muassasalarga bog‘liqdir.

Investitsiyalar statistikasi miqdor ko‘rsatkichlari yordamida tarmoq ishlab chiqarishida namoyon bo‘lgan hodisa va jarayonlarining ichki bog‘lanish hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Investitsiya faoliyatining ko‘rsatkichlari tizimida kapital qo‘yilmalar va kapital investitsiyalar ko‘rsatkichlari markaziy o‘rinni egallaydi.

Investitsiya faoliyatini hajmlari, sur‘atlari, nisbatlari va o‘zaroborligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi asosiy guruh va guruhchalarga bo‘linadi:

### **I. Kapital hosil qiluvechi investitsiyalar**

1. Kapital investitsiyalarning asosiy ko‘rsatkichlari- asosiy fondlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatidagi ob‘ektlar kapital investitsiyalarning asosiy ko‘rsatkichlari -asosiy fondlarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarish investitsiyalariga kapital mablaq qo‘yilmalari, pudrat ishlari hajmi.

### **2. Kapital mablaqlar indekslari**

3. Kapital mablaqlarning iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlaridagi ulushi.

### **4. Kapital mablag‘larni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlash.**

### **5. Kapital mablag‘larning iqtisodiyot va sanoat tarmoqlari bo‘yicha tarkibi.**

6. Kapital mablag‘larning ishlab chiqarish ahamiyatiga molik ob‘ektlar bo‘yicha takror ishlab chiqarish tarkibi.

**7.Yangi korxonalarni qurish, ishlab turganlarni kengaytirish va qayta qurish hisobiga muhim ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solish.**

**II. Investitsiyalar faoliyati:**

1.Investitsiyalar tashkilotlari soni.  
2.Investitsiyalar tashkilotlari tomonidan bajarilgan pudrat ishlarining jami, shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha.

3.Pudrat ishlari hajmi indekslari.

4.Investitsiyalar tashkilotlarining ixtisoslashuvi.

5.Investitsiyalar tashkilotlarda ishlovchilar soni va mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimlanishi.

6.Turli mulkchilik shakllarining investitsiyalar tashkilotlari tomonidan bajarilgan pudrat ishlari tarkibi

8.Investitsiyalar tashkilotlari ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga sarflanadigan kapital mablag'lar.

9.Investitsiyalar tashkilotlaridagi mashinalarni mavjudligi.

**III. Xorijiy investitsiyalar:**

1.Xorijiy mamlakatlar tomonidan, O'zbekistonning viloyatlari va hududlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi.

2.O'zbekiston iqtisodiyoti salmoqli investitsiyaga ega bo'lgan mamlakatlar.

**IV. Moliaviy investitsiyalar:**

1. Birja fond bozorlaridagi fond qadriyati bilan bo'ladigan operatsiyalarning asosiy ko'rsatkichlari (fond qadriyatlaring hamma turi bo'yicha tuzilgan bitimlar soni, sotish aylanmasi, pul resurslari).

2. Qisqa muddatli davlat obligatsiyalari va federal zayom obligatsiyalarning (FZO) ilk bor joylashtirishi asosiy ko'rsatkichlari- chiqarish, joylashtirish sotishdan kelgan daromad hajmlari, byudjetga mablag'larni jaib qilish.

3. Korxona va tashkilotlarning xorijiy mamlakat iqtisodiyotiga moliaviy qo'yilmalar hajmi va tarkibi.

Har bir guruh ko'rsatkichlarga izoh berib o'taylik.

Birinchisi- kapital hosil qiluvchi investitsiyalar- kapital mablag'lar statistikasini ifodalab, u kapital hosil qiluvchi investitsiyalar, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etishda o'ta katta ulushni tashkil etadi.

Kapital hosil qiluvchi investitsiyalar o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlarni oladi, kapital mablag'lar (asosiy kapital investitsiyalar), kapital ta'mirlashga sarflar, yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish ob'ektlarini sotib olishga investitsiyalar, nomoddiy aktivlarga investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturlash mahsulotlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalar, moddiy aylanma mablag'lar zaxiralarini to'ldirish uchun investitsiyalar). Ko'rsatkichlar tizimi ichida asosiy o'rinni kapital hosil qiluvchi investitsiyalarning hajmi va tarkibini xarakterlovchi kapital mablag'lar tashkil qiladi. Kapital mablag'larning hajmiga yangi investitsiyalarga, rekonstruktsiyaga, ishlab turgan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, savdo va boshqa korxonalarini kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflanadigan xarajatlar, uy-joy va madaniy-maishiy investitsiyalar xarajatlari kiradi.

Kapital mablag'lariga hamma turdag'i investitsiyalar ishlariغا, uskunalar montaji, montajni talab qiluvchi va talab qilmaydigan uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarish asboblari va xo'jalik uskunalarini xarid qilish hamda boshqa kapital ishlari qilinadigan xaratjatlar kiradi.

Asosiy fondlarni joriy qilish ko'rsatkichiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan investitsiyalari tugallangan va ishlab chiqarishga kiritilayotgan korxonalar, binolar va qurilmalarning qiymati, ishlab chiqarishga kiritilayotgan uskuna, mashina, hamma turdag'i transport vositalarining qiymati, asosiy fondga kiritiladigan asbob uskunalar va boshqa predmetlarning qiymati, ko'p yillik ko'cxatlar qiymati va boshqalar kiradi.

Investitsiyalar faoliyatini xarekterlovchi ikkinchi guruh ko'rsatkichlar-investitsiyalar tashkilotlari faoliyatini to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning ixtisoslashuvi, pudrat ishlarining hajmi va boshqalardan iborat.

Pudrat ishlari qiymatiga yangi investitsiyalar, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurish ishlari, shuningdek kapital va ta'mirlash bo'yicha ishlar va boshqa pudrat ishlari (ishga tushirishga sozlash, madaniy texnik va boshqalar) kiradi.

Uchinchchi guruhga xorijiy investitsiyalar haqida axborot beruvchi ko'rsatkichlar, ya'ni xorijiy kapital mablag'lar, shuningdek respublika hududdida joylashgan xorijiy korxona filiallariga O'zbekiston yuridik shaxslari tomonidan daromad olish maqsadida qo'yilgan kapital kiradi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlari korxonalarining boshqa korxonalar qimmatli qog'ozlariga qo'ygan uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarni tavsiflaydi.

Investitsiyalash jarayoni har doim kapital qo'yishning qulay variantini tanlash bilan bog'liq. Bunda yo'qotish ehtimolini baholash muhimdir. U yoki bu muqobil variantni tanlash hali investitsiya aniq natijaga erishildi, degani emas. Har qanday variantda ham investor ma'lum darajada tavakkal qiladi. Faraz qilaylik, qarzdor bo'lajak daromadning ustidan ssuda oldi. U yoki bu sabablarga ko'ra bu daromadlar qarzni uzish uchun etarli bo'lmay qolishi mumkin. Shuning uchun investitsiyalash varianti tanlanganda xatarning u yoki bu darajasini tanlashga to'g'ri keladi.

Masalan, bankni oladigan bo'lsak, uning tavakkali ikki guruha bo'linadi:

1. Tashqi omillar yoki ob'ektiv omillar. Ularga: mamlakat yalpi milliy mahsulotining o'zgarishi, inflyatsiya, soliq tizimidagi nobarqarorlik, savdo balansi, ishsizlik darajasi, siyosiy nobarqarorlik va boshqalar kiradi.

Ichki omillar yoki ichki tavakkal, ya'ni bankning o'ziga bog'liq bo'lgan omillar. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) bank aktivlari bog'liq bo'lgan tavakkal- kreditlash, valyutalish, kassa operatsiyalari, lizing operatsiyalari, moliyalashtirish va investitsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarlar;

b) bank passivlari (qo'yilmalari) bilan bog'liq tavakkal- daromad operatsiyalari, jaib etilgan mablag'lar va boshqalar bilan bog'liq xavf-xatar;

v) bankni boshqarish tavakkali- foiz stavkalarini belgilash, likvidlik darajasi bank kapitalining tarkibi va hajmi, kadrlar tayoyrash va tanlash, filiallar ishini tashkil qilish va boshqa xavf-xatarlar;

g) moliya xizmatlariga bog'liq tavakkal-operatsiya, texnologiya, innovatsiya, marketing, strategiya, buxgalteriya hisobi va audit (ichki), mansabni suiste'mol qilish, xavfsizlik va boshqalar bilan bog'liq xavf-xatar.

Shunday qilib, xavf-xatarning turi xilma-xil va juda ko'p. Shu sababli ham ularni o'rganish va oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib, tavakkalchilikni o'rganishning turli usullari yaratilgan. Tavakkalchilikni o'rganishni turli uch guruhg'a bo'lish mumkin:

- ekspert baholash usuli(reyting usuli ham deb yuritiladi);
- analistik o'rganish usuli;
- statistik metodlar;

Birinchi va ikkinchi turkum metodlarning qo'llanishiga to'xtalmay, asosiy e'tiborni statistik metodning mazmunini yoritishga qaratamiz.

Mumkin bo'lgan tavakkal hajmi (masalan, banklar) uchun quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$H = \frac{P_1 + P_2 + P_3 + \dots + P_n * E}{K}$$

Bu yerda: N-mumkin bo'lgan xavf-xatar hajmi; R- asosiy xavf-xatarlar hajmi; K-bankning jami kapitali; E- tashqi xavf-xatarlar korrektivlash koeffitsienti.

Bu ko'rsatkich haqiqiy tavakkal miqdori bilan teng bo'lmaydi va bank ko'rishi mumkin bo'lgan xavf-xatar zarari zaxira jamg'armasi va xavf-xatar uchun ajratma hisobidan qoplanadi.

Hodisaning o'rtacha kutilayotgan qiymati hamma mumkin bo'lgan natijalarning natijalar soni orqali tortib olingan o'rtacha arifmetigini hisoblash orqali amalga oshiriladi:

$$\bar{x} = \frac{\sum xf}{\sum f}$$

Lekin, bu o'rtacha kapital qo'yilishining qandaydir variantini tanlashga imkon bermaydi. Chunki, u umumlashgan miqdoriy xarakteristikani bildiradi va u belgilar majmuining variatsiyasi haqidagi to'liq ma'lumot bermaydi.

Hozirgi paytda tuzilayotgan yangi QK va ularning xorijdag'i filiallarining mamlakatlarga mansubligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish chog'ida shu narsa ayon bo'ldiki, ularning 60-70 foizi «g'arb-g'arb» liniyasi bo'yicha, ya'ni rivojlangan mamlakatlar — AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa firmalari o'rtasidagi hamkorlikka to'g'ri keladi. Tarmoq tarkibi joylashtirilgan sarmoyalarning asosiy qismi sanoat ishlab chiqarishi, shuningdek, sanoat mahsulotining import- eksporti hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Shuni qayd qilish kerakki, bu mamlakatlarga xorijiy sheriklarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarida QK hissasi o'sib boryapti. Qo'shma ishlab chiqarish yordamida sheriklar texnologiyalar bilan jalal almashinish, yangi mahsulotlarni jalal yaratish va ishlab chiqarish, investitsiyalar miqdorlarida tejash, xorijiy firmalar uchun erishilishi qiyin bo'lgan bozorlarga kirib borish muammolarini samarali hal qiladilar.

Natijada qudratli transmilliy korporatsiyalar (TMK) — qarorlar qabul qilinuvchi yagona markazlari va ko'plab mamlakatlarda filiallari bo'lgan ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy majmualar paydo bo'ldi. Bir qator baholarga ko'ra hozirgi vaqtida ular

sanoat ishlab chiqarishining 50 foizini, tashqi savdoning 60 foizdan ko‘prog‘ini, sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologik ishlanmalarning 80 foizga yakinini nazorat qilmoqda. TMKda ishlab chiqarishni keng xalqaro joylashtirish va muvofiqlashdirilgan ta‘minot va sotuv asosida korxonalarining butun yaxlitligi bo‘yicha ichki firma rejalshtiruvi amalga oshiriladi.

Qo‘shma korxonalar TMK doiralarida kooperatsiyalashgan hamkorlikni tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi. TMKlar o‘z raqiblari bo‘lgan QKn tothora ko‘proq barpo eta boshladilar. Bunday korxonalar yangi mahsulotni bozorlarga singdirishning qulay shakliga aylana borib, xona-vayron qiluvchi narxlar urushlarini chetlab o‘tish imkonini beradi. Shu o‘rinda barpo etilayotgan QK ikki eng xususiyatli turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– yangi texnologiyalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlanmalari sohasida barpo etilgan qo‘shma korxonalar, odatda, ular ilg‘or texnologik tajribalarni o‘zarо ayirboshlash va uni yanada rivojlantirish maqsadida rivojlangan mamlakatlardagi sheriklar bilan birga barpo etiladi;

– ishlab chiqarish va sotish sohasidagi an‘anaviy korxonalar, ular ko‘pincha tayyor mahsulotlami sotishning yangi bozorlariga ega bo‘lish imkoniyati bor, ishlab chiqaris-ning ekologik tozaligiga birmuncha bo‘sh talablar qo‘yadigan, ishchi kuchlari birmuncha arzonroq rivojlanayotgan mamlakatlarda barpo etiladi.

Mamlakatlarning bu guruhiга investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ri qo‘yish uchun ularning asosiy qismini yangi industrial mamlakatlar (Y AIM) deb ataluvchi Braziliya, Meksika, Argentina, Gonkong, Tayvan, Malayziya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarga jamlash odat bo‘lib qoldi. Bu mamlakatlarda hozirdanoq zamoni aviy sanoat bazasi va tegishli infratuzilma, hajmli ichki bozor barpo etilgan, tashqi savdo ekspansiysi faol rivojlanmoqda. Ularning ba‘zilarida kattagina xom ashyo resurslari ham mavjud, ko‘pchiligidagi esa xorijiy investitsiyaning ko‘pgina qismi eksport ishlab chiqarish mintaqalari yoki erkin savdo mintaqalariga to‘g‘ri keladi. Hududiy ajratilganlik, to‘g‘ri ko‘rinishida ham (assignatsiyalar, shu jumladan, valyuta ajratmalari, infratuzilmalarni barpo etish), chet el investitsiyalari bo‘lgan korxonalarga turli-tuman moliyaviy va soliq imtiyozlari berish ko‘rinishida ham davlat yordami bu mintaqalar uchun xosdir.

Hozirgi vaqtida bu mintaqalarning yo‘nalgaligida o‘zgarish sodir bo‘ldi. Agar ilgari ular yirik seriyali, ko‘p mehnat talab qilinadigan ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, endilikda mutlaqo yangi texnologiyalar, materiallar va tovarlar ishlab chiqish amalga oshiriladigan, tajriba ishlab chiqarish tashkil etiladigan ilmiy-sanoat parklari barpo etish tamoyili namoyon bo‘lmoqda.

O‘z hajmlari bo‘yicha «soliq gavanlari» deb ataluvchi, ya‘ni soliq rejimi g‘oyat imtiyozli davlatlardagi (Panama, Bagam orollari va boshqalar) investitsiyalar alohida ko‘zga tashlanadi. Bu mablag‘lar ishlab chiqarish maqsadlari uchun atalmagan, balki xolding kompaniyalar, moliyaviy va sug‘urta jamiyatlar barpo etishga sarflanadi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, «shimol-janub» liniyasi bo‘yicha, ya‘ni rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi qo‘shma tadbirkorlik nisbatan yosh harakat hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘z iqtisodiy mustaqilligini himoyalashga intilishi, xorijiy firmalar ustidan nazoratni kuchaytirishi

uning rivojlanishiga turki berdi. Bunday sharoitda sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlardan bo'lgan firmalar umuman bozorda va tegishli bozorlarda o'z mavqelarini saqlash va qo'shimcha imtiyoz va kafolatlar olish uchun istiqbolda muhim xom ashyo manbalarini ta'minlash maqsadlarida mahalliy firmalar bilan QKlar barpo etishlariga to'g'ri keldi. Boshqa bir qator holatlar — QK joylashgan mamlakat iqtisodiyotining holati to'g'risida muntazam axborot berilishi, mahalliy sarmoyani jaib etish, hokimiyatlar bilan aloqalar o'rnatish va hokazolar ham bunga turki bo'ldi.

Boshqa tomonдан, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zлari ham bunday hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordirlar. Ular QKlarni iqtisodiy rivojlanishi tezlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish bazasini barpo etish, o'z kadrlarini tayyorlash maqsadlarida xususiy moliya resurslari va ilg'or texnologik tajribani jaib qilishning qulay shakli sifatida qaramoqdalar. Yangi industrial mamlakatlar (YAIM) tajribasi ham muayyan shart-sharoitlarda bunday umidlar reallikka aylanishini ko'rsatmoqsa.

Biroq bunda rivojlanayotgan mamlakatlarga muayyan kiyin-chiliklar va salbiy oqibatlar bilan to'qnashishga to'g'ri keladi. Ularga alohida e'tibor qaratilmog'i kerak, chunki MDH davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston ham ular bilan turli shakllarda to'qnashishlari mumkin. Agar ular QKlarni barpo etishdan ko'zlayotgan maqsadlari rivojlanayotgan mamlakatlar hal etayotgan shunday vazifalar bilan qiyoslanilsa, ularning qanchalik mos fushishi aniq ko'rinadi. Bu, «sharq-g'arb» hamkorlik liniyasiga «g'arb-g'arb» liniyasiga Karaganda «shimol-janub» liniyasiga ancha yaqin turishini bildiradi.

Bunday salbiy oqibatlar orasidan quyidagilarni qayd etish lozim:

- mahalliy sheriklar qo'shma tadbirdorlik kanallaridan o'z foydalarini va mamlakatning ichida valyuta daromadlarini investitsiyalash uchun foydalanmasdan, balki ularni xorijga chiqqanganlarida mamlakatdan sarmoyalarning chiqib ketishi yuz beradi;

- TMK amaliyotida keng tarqalgan transfert narx hosil qilish tamoyilidan foydalanish yuz berib, korporatsiya ichidagi korxonalar o'tasida o'zaro bir-biriga beriladigan mahsulot narxlari ularning real darajasidan jiddiy farq qilishi mumkin. Bu ayrim bo'g'inalar foydasini sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatish (soliq tartibi bir muncha qatqiq bo'lgan joyda) imkonini yaratadi;

- chekllovchi ishbilarmonlik siyosatini o'tkazish, bunda firmalarning raqobatni cheklash, mustaqil korxonalarning sotuv kanallariga, xom ashyo manbalariga chiqishini qiyinlashtirishga intilishlari tushuniladi. Bir qator hollarda xorijiy ishtiroychilar QKlarga o'z mahsulotlari, butlovchi qismlarini etkazib berishni tikishtiradilar, ularning o'zлari jahon bozorlarini o'zlashtirishga chiqish imkoniyatlarini cheklaydilar.

Shunday qilib, qo'shma tadbirdorlik ham ijobiyligi, ham salbiy oqibatlar va natijalarga olib borishi mumkin. ularning aniq nisbati ko'p jihatdan chet el investitsiyalarini tartibga solish mexanizmi bilan belgilanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda chet el investitsiyalari bo'lgan korxonalarini barpo etish tartibi va faoliyati qonunchilik me'yorlariga binoan sof milliy firmalar barpo etishdagiga aynan o'xhash hisoblanadi. Masalan, Italiyada bu masalalar fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi, 100 foizli chet el ishtiroyi bilan barpo etilgan

korkonalar ham, xorijiy firmalarning filiallari ham umumiy tartibda barpo etilishi mumkin.

XIKlar bu mamlakatlarda qabul qilingan turli shakkarda — aksiyadorlik jamiyatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, kommandit sherikchiligi, xoldinglar ko'rinishida barpo etilishi mumkin. Bu huquqiy shakklar o'tasidagi farqlar hammaga ma'lum bo'lgani, ularning o'zi keng tarqalganligi uchun bu o'rinda bu masalalarga mufassal to'xtolib o'tirishning hojati yo'q. Faqat shuni qayd qilish kerakki, xorijiy huquqshunoslarining fikricha, sheriklar o'zaro hamkorligining dastlabki bosqichida mas'uliyati cheklangan jamiyat eng muvofiq shakl hisoblanadi. Ommaviy hisobotlardan ozod etilishi, jamiyat faoliyatini huquqiy tartibga solish darajasining pasaytirligani, barpo etish va tashkiliy tarkibning birmuncha oddiy tartibi, eng kam ustav sarmoyasining eng katta miqdori uning afzalliklari sirasiga kiradi.

Qo'shma korxonalar amalda barcha tarmoqlarda barpo etiladi. Xorij sarmoyasi kirishi qonun bilan cheklangan sohalar bundan holi. Ko'pincha sug'urtalash shunday soha hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, chet el investitsiyali korxonalar faoliyatini tartibga solishning alohida-alohida qismlarida o'ta xilma-xillik kuzatiladi. Chunonchi, ko'pgina mamlakatlarda, avval ta'kidlanganidek, ularning barpo etilishi umumiy tartibda boradi, maxsus ruxsatnomalar talab qilinmaydi va jiddiy kansituvchi cheklovlar qo'yilmaydi. Boshqa mamlakatlarda esa bu jarayonlarni tartibga solishning katta ro'yxati qo'llaniladi.

Chunonchi, Yangi Zelandyada yirik sarmoya qo'yilmalarini amalga oshirish uchun Zaxira banki huzuridagi Xorijiy sarmoyalar bo'yicha komissiyaning ruxsatnomasini olish kerak. Uni berish chog'ida quyidagi mezonlardan kelib chiqadilar:

- ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi hisobiga mahalliy sanoat uchun qo'shimcha raqobatning vujudga keltirilishi;
- yangi texnologiyaning jalb etilishi;
- to'lov balansiga ta'siri;
- chetga chiqarishga yo'nalganlik;
- atrof-muhitning holatiga ta'siri;
- davlatning iqtisodiy siyosatiga muvofiqdigi va hokazolar.

Muayyan tarmoq cheklovlarini ham belgilangan — radio-eshittirish va televidemyada xorijiy sherikning hissasi 15foiz dan, baliqchilikda — 24,9foiz dan oshmasligi kerak.

Sheriklar hissalarining nisbati masalalari bu mamlakatlarda maxsus tartibga solishlarsiz mustaqil hal qilinadi. Bu o'rinda bir qator variantlar bo'lishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlardan salmog'i bo'yicha teng bo'lgan sheriklar o'tasida, faqat tadbirkorlik mulohazalaridan kelib chiqib, odatda teng asoslardagi QKlar tashkil etiladi. Teng hissallarga teng huquqli hamkorlik va ishtirokchilar teng foyda ko'rishing ramzi sifatida qaratadi. Biroq, bu o'rinda, masalan, QK sarmoyasini ko'paytirish zaruriyati va mahalliy sheriklarda kerakli miqdordagi mablag'ning yo'qligi bilan bog'liq qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Bu holda xorijiy sherik

xissasining ko‘paytirilishi uning darajasining qonun bilan bog‘liq cheklovlariga zid kelishi mumkin.

Xorijiy sherik hissasi kam bunday korxonalar milliy korxonalarga ancha yaqin bo‘lib, bunday mamlakatlarda ular, odatda muayyan imtiyozlardan foydalanadilar. Shuning uchun chet el firmalariga shu yo‘ldan borishlariga to‘g‘ri keladi, lekin ularning vaqillari buni nomaqbul omil deb hisoblaydilar, chunki ular QK faoliyati ustidan nazoratni boy berib qo‘yadilar. Bunday ziddiyatlar boshqaruv to‘g‘risida ta’sis hujjatlariga qo‘shimcha shartnomalar tuzish orqali qal qilinishi mumkinki, unga ko‘ra ustav sarmoyasidagi ularning teng xissasi tufayli boshqaruvda ishtirokchilarning ovozları teng taqsimlanishi ko‘zda tutilishi mumkin.

Ayrim mamlakatlarda moliyalashtirish va xususiy sarmoya joylashtirish masalalarini tartibga soluvchi muayyan me’yoriy ko‘rsatmalar amal qiladi. Misirda investitsiyalarning kamida 50 foizi KJCga uning ta’sischilari beradigan qarzlar yoki xususiy sarmoya hisobiga moliyalashtirishini zarur qilib qo‘ygan tartib amal qiladi. Boshqa mamlakatlarda turli tarmoqlarda tegishli tarmoq idoralarining ruxsatnomalari olinishi zarur bo‘lib, ularda sarmoyaning miqdori, uning tartibi to‘g‘risidagi va hokazo boshqa qoidalar tushuntirib beriladi,

Loyihalar bo‘yicha bunday ruxsatnomalardan tashqari bir qator mamlakatlarda Markaziy bankning valyuta-huquqiy masalalar bo‘yicha maxsus ruxsat talab qilinadi. Bu, odatda, valyuta balansida kamomad bo‘lgan va valyutasi konvertasiyalanmaydigan mamlakatlarda yuz beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq sohasida konkret mexanizmlarning xilma-xilligiga qaramasdan muayyan tamoyil ham kuzatiladi. U soliqlarning umumiy tartibini chet el sarmoyasini jalb qilishni rag‘batlantiruvchi (Germaniyada QK uchun olib qirilayotgan mulknинг soliq solinishidan ozod qilinishi, Italiyada chet el investitsiyalari uchun soliq solishning imtiyozli stavkalari belgilanganligi va hokazo) muayyan imtiyozlar bilan uyg‘unlashtiradi. Ikkiyoqlama soliq solinishing oldini olish uchun davlatlararo soliq shartnomalari tuzilishiga katta e’tibor beriladi, bu xorijiy ishtirokchini QK joylashgan mamlakatda va o‘z uyida turli shakllardagi soliqlar undirilishidan himoyalaydi. Bunday shartnomalar soliq yukini keskin kamaytirishi mumkin. Masalan, Yangi Zelandiyada mahalliy firmalar barcha turdagи daromadlardan 30foiz va bank foizlari bo‘yicha foydadan 15foiz soliq to‘laydilar. Chet el kompaniyalari uchun bu mamlakatda olingan daromadlarga solinadigan soliq stavkasi 50foiz ga teng. Ayni paytda Avstraliya bilan bitimga binoan quyidagi soliqlar belgilangan: dividendlarga 15foiz va bank foizlariga 10foiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda chet el investitsiyalarini tartibga solish o‘z xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar ikki asosiy vazifa — o‘z iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish uchun g‘arb sarmoyasini jalb qilish va milliy ishlab chiqaruvchilar va umuman, butun iqtisodiyotning manfaatlarini himoyalash vazifalarini hal qilish bilan bog‘liq. Ularga erishishning shakl va usullari nihoyatda tabaqalashtirilgan. Chet el sarmoyerlarini davlat tomonidan tartibga solinish darajasi bo‘yicha quyidagi guruhlarni ajratish mumkin:

Mamlakatlarning birinchi guruhi bu sohaga davlat ta’sirining Yuqori darajasi bilan xarakterlanadi (Braziliya, Meksika, Argentina, Hindiston, Tailand). Ularning

qonunchiligidagi chet el sarmoyalari jaib qilish siyosatiga umumiyoq yo'ndashuv shakllantirilgan, xorij sarmoyasi va qo'shma korxona tushunchalari mukammal ifodalab qo'yilgan, chet el investitsiyalarini jaib qilishning aniq shakllari ko'rsatilgan. Bevosita qo'yilmalarning har bir holatini yakka tartibda ko'rib chiqish, texnologiyalarni qo'shma tadbirdorlik kanallini bo'yicha berilishini davlat tomonidan tartibga solish ko'zda tutiladi, xorijiy boshqaruv nazoratiga va foydani chetga chiqarishga cheklar belgilanadi, investitsiyelar kelishmovchiliklarni hal qilish chog'ida maqalliy arbitraj ko'zda tutiladi. Umuman, bu mamlakatlarda chet el investorlariga boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan kam rasmiy imtiyozlar beriladi va ulamni berish mezonlari birmuncha mufassalroq va aniq ishlab chiqilgan.

Mamlakatlarning navbatdag'i guruhiga (Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlari, Nigeriya, Indoneziya, Filippin, Koreya Respublikasi) chet el investitsiyasi aralashgan korxonalarining davlat tomonidan tartibga solinishi c'rtacha rivojlanish darajasi xarakterlidir. Birinchi guruh mamlakatlarga nisbatan ularga xorij sarmoyasining faoliyatini cheklash va tartibga solishning Yuqori darajasi xususiyatlidir. Odatda, uning uchun iqtisodiyotning yopiq sohalari, boshqa tarmoqlarda ishtirokning yo'l qo'yiladigan xissasi, investitsiya buyurtmalarini tasdiqlash mezonlari belgilab qo'yiladi, chet el investorlariga imtiyozlar berish shartlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Biroq amalda bunday perspektiv tartibga solish xayotga noizchil tatbiq etiladi.

Afrikadagi sobiq mustamlakalarning ko'pchiligi, Janubi-Sharqi Osiyo va Markaziy Amerikadagi bir qator davlatlar mansub bo'lgan, rivojlanish va davlat tartiboti darajasi past bo'lgan mamlakatlarda investitsiya qonunchiligi sobiq metropoliyaning tegishli kodekslariga tayanadi. Buning natijasida chet el firmalarining faoliyat uchun cheklar kam. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchsiz mavqelari hisobga olinsa, bu chet el firmalarining ustun holatini bildiradi. Tegishli infratuzilmaning yo'qligi chet el investitsiyalarini kichik hajmlarda kirib kelishiga sabab bo'ladi, bu esa shu mamlakatlar rivojini tezlashtirish uchun yetarli emas.

Iqtisodiyotning chet el investitsiyalarini uchun yoggaq sohalari va boshqa cheklov choralari kamligi bu mamlakatlar uchun xosdir. Texnologiyalarni berishni tartibga solish amalda yo'q. Texnologiya siyosati choralari zaif muvofiqlashtirilgan. Boshqa jihatdan, chet el firmalari anchagina imtiyozlarga ega. Odatda, bu guruh mamlakatlari kelishmovchiliklarni xalqaro arbitraj organlarida hal etish shartini qabul qiladilar, milliyashtirish holatida va boshqa kamtsituvchi choralar quril-ganida tavonlar to'lanishini kafolatlaydilar.

Nihoyat, «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazayotgan, ya'ni xorijiy sarmoyani eng ko'p miyoslarda jaib etishga intilayotgan mamlakatlarni (Gonkong, Tayvan, Singapur, Chili) eng so'nggi guruhga kiritish mumkin. Bu mamlakatlarda chet el investorlariga eng katta qulayliklar beriladi. Davlat ta'siri esa ahamiyasiz bo'lib, asosan moliyaviy va soliq imtiyozlarining xilma-xil shakllariga taalluqli bo'ladi.

Mamlakatlarning bu guruhlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, YAIM deb ataluvchi eng ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning vaqillari turli guruhlarga kirib kelganligini ko'ramiz. Bu shundan dalolat beradiki, davlat tartibga solishining rasmiy choralari ta'sirchan tizimi qanchalik muhimligiga qaramasdan, chet

el investitsiyasining eng ko‘p istiqbolli tarmoqlarga ko‘plab oqib kelishi faqat shunga bog‘liq emas. Bu choralarни umuman tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususan, chet el investitsiyalarini jalb etishdan iborat chuqur o‘ylantan davlat siyosati bilan yaxlit uyg‘unlashtirish kerak.

### 10.3. Qo‘shma tadbirkorlik va chet el investitsiyalarini jalb etishning ahamiyati

Ma‘lumki, xorijda qo‘shma yoki o‘z ishlab chiqarishini tashkil etish tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning eng murakkab shakllaridan hisoblanadi. Lekin boshqa tomonidan, amaliyot bunday faoliyat muttasil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Ham sof miqdor (barpo etilayotgan korxonalar miqdori va sarmoya chiqarish hajming o‘sishi), ham sifat (sarmoyaning ishlab chiqarish eksport ham korporatsiyalar doirasida, ham davlat darajasida integratsiyaning yanada murakkabroq shakllariga o‘tishi) o‘sishlari kuzatilmoqda. Bu hamkorlikning shunday shakllari bo‘yicha sheriklar unda ishtirot etishdan ortiradigan ustunliklar bilan bog‘liq.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi va rivojlanishi hamda shu bilan bog‘liq milliy ishlab chiqarish kuchlarini ayrim davlatlar chegaralari doirasidan tashqarida joylashtirish va foydalanish natijasidir. Juhon bozorida xalqaro tovar ayriboshlash jarayonida ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashitirish va kooperatsiyalash afzalliklaridan foydalanish hisobiga investitsiyalar foydaliligini oshirishning qo‘shimcha imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda.

Aslini olganda bu qoidalar azaldan ma‘lum, jahon savdosini tarixi ming yillarga borib taqaladi. Biroq o‘tgan davrlarning ko‘p qismida turli mamlakatlardan bo‘lgan sheriklarning o‘zaro munosabatlari faqat savdo xususiyatiga ega bo‘lib, ayrim mamlakatlarning o‘z xususiyatiga ko‘ra natura xo‘jaligi almasuvuda o‘z mahsulotining arzimagan qismi bilan ishtirot etardi.

Vaziyat XIX asrga kelib ishlab chiqarishning mashinalashuv bosqichiga o‘tish jarayonida o‘zgara boshladi. O‘z quvvatiga ko‘ra, ichki bozor xajmlaridan ancha ortiq kuchga ega bo‘ltan korxonalarning paydo bo‘lishi jahon savdosining keskin o‘sishi va sotuv bozori uchun kurashga qudratli kuch bo‘lib xizmat qildi. Bu jarayonlarning kuchayib borishi davomida miqdor o‘zgarishlarining asta-sekin jamlanib borishi yangi sifat holatlari — jahon iqtisodiyoti ayrim mamlakatlarning o‘zaro zaif bog‘langan xo‘jaliklari xilma-xilligi o‘mini egallashiga olib kela boshladi. Bu holat uning paydo bo‘lishi uning doirasiga tushib qolgan xo‘jaliklar o‘zaro yanada muhimroq va ko‘lamliroq munosabatlari bilan bog‘langanliklarinigina emas, balki uning rivojlanishida ayrim mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi umumiyoq qonuniyatlar (sikllar)ning paydo bo‘lishini ham anglatardi.

Bu jarayonlar rivojlangan sari bunday o‘zaro aloqalarga xizmat ko‘rsatish uchun sof savdo munosabatlarining o‘zi yetarli emasligi tobora oydinlashib bordi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi tobora aniqroq ko‘zga tashiana boshladi. Bu ilk sanoat sarmoyasini chetga chiqarish keng ko‘lam kasb etgan XIX asr oxirlarida yorqin namoyon bo‘ldi.

Ishlab chiqarish elementlарining ayrim davlatlarning chegaralaridan o'tishi jahon iqtisodiyotining rivojanish xususiyatlariiga muvofiq keladi. Aholi va tabiiy resurslar tarqalishining bir tekis emasligi, fan-tehnika taraqqiyoti, ishchi kuchlarining malaka darajasidagi farqlar turli mamlakatlardagi xo'jalik yurituvchi ayrim sybyektlarga tegishli, bir-birini o'zaro to'ldiruvchi ishlab chiqarish kuchlarini birlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi va buning uchun omillar yaratdi.

Ilgarilari bu imkoniyatlar potensial jihatidan mavjud edi, ishlab chiqarish, aloqa, transportning zamonaviy vositalari ularni reallikka aylantirdi.

Shunday bir sharoitda turli mamlakatlardagi sheriqlarning o'zaro munosabatlari xususiyati tashqi savdo kelishuvlarining an'anaviy doirasidan o'sib chiqib, bevosita ishlab chiqarish hamkorligi bilan bog'liq xilma-xil yangi shakllar paydo bo'ladi, xalqaro savdo munosabatlari o'mini xalqaro ishlab chiqarish aloqalari tobora egallab boradi.

Hozirgi paytda bu jarayonlar yanada faollahib, chuqurlashdi. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashning barqaror, uzoq muddatli, texnologik jihatdan shart bo'lgan va tashkiliy jihatdan ta'minlantan (endi davlatlar-aro darajada) munosabatlari zamonaviy industrial iqtisodiyot uchun xosdir. Korxonalarda mexnatning texnologik taqsimoti qoidalariaga asoslangan qismma -qism va kooperatsion ixtisoslashuvi birinchi o'ringa o'ta boshladi. Ustun darajada tashqi savdo orqali amalga oshirilgan ashyoviy ixtisoslashgan xalqaro mexnat taqsimoti ko'rinishi o'tmish bo'lib qoldi. Mehnat taqsimotining ishlab chiqarish omillari milliy sarhadlar osha faol ko'chib o'tuvchi texnologik turining shakllanishi yuz bermoqda.


Bu jarayonlarning rivojanishi shunchalik faol tus olyaptiki, iqtisodiy holatlardan tashqari u hozirgi zamonning siyosiy holatlariiga ham jiddiy ta'sir ko'rsata boshladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining rivojanishi buning yorqin dalilidir.

Texnologik mehnat taqsimotining alohida korxonalar va mamlakatlar doirasidan chiqib borishi turli mamlakatlar va qittalarda bo'g'lnlari bo'lgan yagona texnologik zanjirlar, ulkan xalqaro ilmiy-ishlab chiqarish, sotish majmuvalari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Chunonchi, bir qator tadqiqlarga ko'ra, xalqaro savdo aylanmasining 1/3 qismiga yaqini alohida-alohida transmilliy korporatsiyalar bo'g'lnlari o'rtafiga muhim, texnologik jihatdan shart bo'lgan va aniq tashkil etilgan tovar oqimlari hissasiga to'g'ri keladi. O'z mazmuniga ko'ra uzoq muddatli pudrat hamda shartnomalar bo'yicha muvofiklashtiriltan texnologik bo'g'lnlarga asoslangan, sarmoya jihatidan mustaqil firmalarning kooperatsiyalashgan aloqalari ularga yaqindir.

Faqat xalqaro ixtisoslashish va kooperatsiyalashish jarayonlarining xususiyatigina emas, balki ularning ishtirokchilari ham o'zgarmoqda. Ilgarilari, o'z mumtoz rivojida mexnat taqsimotining chuqurlashishi tik integratsiyalashuv doiralarida sodir bo'lar, ko'p tarmoqli kooperatsiyaning ayrim bo'g'lnlari tomonidan amalga oshiriluvchi ishlab chiqarish jarayonining ketma-ket bosqichlari bo'g'iniga xizmat qilardi. Endilikda tik integratsiyaning hamisha ham texnologik jihatdan o'zaro bog'lanmagan xilma-xil mahsulot turlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq diversifikatsiyaga aylanishi tobora xarakterli tue olayapti. Boshqa o'ziga xos xususiyat — mustaqil firmalar, kichik va o'rta biznesning kooperativ aloqalariga keng jalb qilinishidan iborat. Bu hozirgi sharoitlarda uning saqlanib qolish va rivojanishi uchun

shart bo'lgan umumiy ustunliklari — o'zgaruvchanligi, tezkorligi, innovatsiyalarga moyilliga va sh.k. bilan bog'liq.

Bulamining hammasi xilma-xil ishlab chiqarish tuzilmalari, ulami rasmiy lashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib kelmoqda. Litsenziyalarni, «nou-xau», butlovchi uzel va detallarni shunchaki sotish o'z o'mini oldindan shartlashib qo'yilgan qoplash shakllari — turli ko'rinishdagi kooperativ va kompensatsiyalash hamkorligiga, bitim ishtirokchilarining birlashtirilgan mulki zamirida ishlab chiqarishni tashkil qilishga bo'sxatib bera boshladi. Bunday shakllar butun «tadqiqot — ishlab chiqarish-sotish-xizmat ko'rsatish» jarayonini qamrab olib, oddiy ishlab chiqarish kooperatsiyasiga Karaganda tobora keng va kompleks tue olib bormoqda (3-chizma).



### **3-chizma. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashishi va kooperatsiyalashishi,**

Bu guruhgan boshqa shakllardan qatiyan farqlanuvchi birlashtirilgan mulk, uni birgalikda boshqarish, korxona foydasi sheriklar o'rtasida bo'linish asosidagi faoliyat bilan bog'langan qo'shma ishlab chiqarish (QI) ajralib turadi. Mazkur shakl uning ishtirokchilariga hamkorlikning boshqa ko'rinishlaridan ko'ra ko'proq ta'minlovchi bir qator ustunliklar shuning oqibatidir, ya'ni:

- ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulotni sotish uchun sheriklarning birgalikdagi manfaatdorligi va masuliyati;
- ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirish, quvvatlarni o'z vaqtida modernizatsiyalash va boshqa har qanday innovatsiyalarni (tashkiliy, boshqaruv va hokazolar) jadal joriy qilish;
- nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki takroriy ishlab chiqarish siklining qolgan barcha bosqichlari — tadqiqot, ITTKI, ishlab chiqarishni tayyorlash, sotish, reklama, servis sohalarida ham birgalikdagi harakatlarga, kuch-g'ayratlarni va resurslarni birlashtirishga intilish;
- sheriklarning eng kuchli o'zaro to'ldiruvchi jihatlarini uzoq muddatli asosda birlashtirish.

Bu qoidalar O'zbekiston, MDHning boshqa davlatlari uchun rivojlangan mamlakatlarga qaraganda texnologik qolqolikni bartaraf etish vazifasini hal qilish-dagi keskinlik va dolzarblik hisobga olinsa, ular uchun alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu muammoni navbatdagi harakatlar — «kreditlar-tehnologiyalarni olib kirish-raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil etish mahsulotni chetga chiqarish qarzlarni qoplash»dan iborat zanjirlarini ro'yobga chiqarish yo'li bilan echish g'oyat murakkabligi ayon bo'ldi. Bir qator Sharqiy Yevropa mamlakatlarida kreditlar ishlatalib bo'lindi, ularni qaytarish uchun esa hech nima qolmadi — buni amaliyot ko'rsatmoqda. Ko'pincha bu mamlakatlarga firmalar eskirgan texnologiyalarni tizqishtirib tashlashdi. Biroq, Hatto alohida zamonaviy texnologiyani sotib olish ham shu asosda raqobatbardosh ishlab chiqarishni avtomatik tarzda barpo etishni aslo bildirmaydi. Ishlab chiquvchi firma bilan amaliy o'zaro foydali hamkorliksiz, odatda, bu maqsadga erishib bo'lmaydi, uni shunchaki sotib olish ta'minlamaydi. Faqatgina umumiylar asosida kuchlarni birlashtirishgina undan Yuqori samara bilan foydalanishdan birgalikdagi uzoq muddatli manfaatdorlikni vujudga keltiradi.

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, bu mexanizm faqat g'arbda sheriklarga uzoq muddatli barqaror daromad beruvchi yoki boshqa afzalliklarga ega bo'lgan katta ko'lamli birgalikdagi loyihamalarni amalga oshirilganidagina harakatga keladi. Boshqacha qilib aytilsa, mayda-chuyda loyihamalarni deb, ular o'zlarining eng yangi texnologik echimlarini oshkor etmaydilar.

Shunday qilib, bir-biridan mustaqil firmalar ishtirok etuvchi xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalish shakllari bilan qiyoslanganda QK bir qator g'oyat muhim afzalliklarga egadir. Garchi yanada yaqinroq hamkorlikning zarurligi masalasi yuzaga kelayotgan hozirgi sharoitda shunday ko'rinishda u keng amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, mulknini birlashtirishda alohida kuch-g'ayratlar talab qilinadi. Bunday masalalar muntazam tug'ilib turadiki, bu o'zgaruvchan bozor vaziyatiga tezkorlik bilan epchil moslashish va tegishli qarorlar qabul qilish mexanizmini barpo etish zaruriyatini bilan bog'liqidir. Ishlab chiqarishni integratsiyalashda mustaqil firmalar ishtirok etgan vaqtida bu jarayonlar qiyinlashib, cho'zilib ketishi mumkin. Bundan tashqari, hech shubhasiz, ishtirokchilar manfaatlari ko'p jihatdan umumiy, yo'qsa firmalar kooperatsiyalashuv hamkorligida ishtirok etmasdilar, lekin bu manfaatlardagi farqlarni ham hisobga olmaslik mumkin emas. Darhaqiqat, ikkinchi tomondan, bu manfaatlarni hamma jihatdan ham mos tushavermasligiga shubha yo'q. Turli vaziyatlar paydo bo'lganida bu farqlar keskinlashishi va zarur qarorlar qabul qilinishini qiyinlashtirishi mumkin.

Garchi bu o'rinda ham ishtirokchilarning manfaatlari hamisha va hamma jihatdan mos tushmasa-da, qo'shma ishlab chiqarishning tashkil etilishi bu qiyinchiliklarni ko'p jihatdan engillashtiradi. Biroq ularning kelishib olinishi asosan QKnini barpo etish jarayonida sodir bo'ladi, uning rahbariyati tezkor qarorlar qabul qilishda zarur mustaqillikka egadir. Shunday qilib, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvidan iborat ilg'or jarayon bilan bog'liq ishlab chiqarish baynalmilallahuvining umumiy tamoyili tobora samarali tus olib borib, mulk munosabati sohasida baynalmilallahuv bilan yonma-yon bormoqda. Bunday shakl ishtirokchilarga ayni bir paytda iqtisodiy vazifalarning butun bir qatorini ilmiy-teknikaviy, ishlab chiqarish va tijorat manfaatlарини hisobga oлган holda kompleks tarzda hal qilish imkonini beradi.

Sheriklarning, ya’ni ularning birgalikdagi ishlab chiqarish samaradorligi muttasil o’sishidan Yuqorida qayd qilingan umumi manfaatdorligi bilan bir qatorda bu o’rinda yana bir qator jihatlarni ham qayd qilish kerak bo’ladi. Uni barpo etish chog’ida xom ashyo manbalari yoki asosiy iste’molchini tejash hisobga olinib, korxonalarni oqilona joylashtirish vazifasi ko’pincha muvaffaqiyatlari hal qilinadi. QK moliyaviy va texnologik ta’minotni kengaytirish, ilg’or texnologiyali raqobat hajmidagi ishlab chiqarishlarni barpo etish, sotish bo’linmalarining ixtisoslashishi va hokazolar bilan bog’liq ishlab chiqarishni ixtisoslashitish muammolarini hal qilishning samarali vositasi hisoblanadi. QK mahsuloti Yuqori sifatli va ishlab chiqarish hajmlari ancha Yuqori bo’lgan taqdirda uning ishtirokchilari muayyan bozorlarda monopol mavqeni egallash bilan bog’liq foydaga ega bo’lishlari mumkin.

Keyingi yillarda mahsulotning yangi turlarini o’zlashtirish va ishlab chiqarish uchun qo’shma korxonalar barpo etishga intilish tobora yaqqolroq namoyon bo’lmoqda, bunda ishtirokchilar yangi mahsulot bilan bozorga chiqish chog’ida taqsimot maqsadi va tijorat xatarini nazarda tutadilar, boshqa afzallik mahsulot shu turini, firmalararo birlashuvda ayni paytda mana shu muassis firmalarda ixtisoslashish darajasini pasaytirmasdan turib, diversifikasiyalash imkoniyati bilan bog’likdir. QK mahsulotlarning turiga qo’shimcha yangi buyumlarni ishlab chiqarish tamoyili asosida barpo etilayotganida shunday bo’ladi.

Nihoyat, tartibga solish mexanizmlaridagi milliy farqlar qo’shma ishlab chiqarishlarni barpo etishga muhim kuch bag’ishlaydi. Xorijda ishlab chiqarishni barpo etish ko’pincha turli-tuman bojxona to’siqlarini bartaraf etish imkonini beradi. Gohida turli mamlakatlarda chet el investitsiyalari uchun vujudga keltiriladigan moliya-soliq tartibi yoki boshqa afzalliklar u yoki bu mamlakatda qo’shma korxonalarni barpo etishda hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Tegishli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, zarur resurslar va xodimlar potensialining mavjudligi nihoyatda muhim hisoblanadi. Mamlakatdagi umumiy iqtisodiy va siyosiy vaziyatning barqarorligi, qonunchilik me’yorlarining mukammalligi va ularning umumiy qabul qilingan standartlarga muvofiqligi va tutashuvchanligi ham katta ahamiyatga ega.

Shuning uchun xorijiy sarmoyalarni mamlakatga jalb qilish borasidagi choratadbirlarni ishlab chiqish chog’ida faqat turli ko’rinishdagi cheklashlar va imtiyozlar bilan ularni tartibga solishning rasmiy mexanizmini ishlab chiqishgagina e’tiborni qaratmaslik kerak. Umuman, iqtisodiyot va mamlakatdagi vaziyat chet el investorlari uchun qanchalik jozibadorligini kompleks tahlil qilish zarur. Germaniyaning BERI axborot xizmati mutaxassislari tomonidan hisoblab chiqilayotgan maxsus indeksdan foydalananish bunda qanday omillarni hisobga olmoq zarurligini ko’rsatadi. O’z tajribalari asosida ular 45 mamlakatdagi investitsiya muhitini 15 mezon bo’yicha baholaydilar (4-chizma).

Bu mezonlarning ahamiyatligi to’g’risidagi tasavvurni ularning qavslar ichida keltirilgan salmoqdari hosil qiladi. Har bir mezonga 1 (nomaqbudan) dan 4 (nihoyatda qulay) gacha bo’lgan baho beriladi. Mutlaqo ayonki, mamlakat tomonidan to’plangan ballar miqdori qanchalik past bo’lsa, xorijiy investorlar uchun alohida foydali shart-sharoitlar barpo etish masalalariga shunchalik katta e’tibor qaratilishi kerak. Bu shart-

sharoitlar xorijiy sarmoyadorlarga Yuqori foydali yakk istiqbolli loyihalarda ishtirok etishni taklif qilishdan, maxsus mintaqalar barpo etish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, xulosa chiqarish mumkinki, umuman xususiy tadbirkorlik katta istiqbollarga ega, zero:

- ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi shakllaridan biri hisoblanib, uning rivojlanishi va chuqurlashuvini ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning obyektiv extiyojlari taqozo qiladi;

- tashqi iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllariga qaraganda ishtirokchilarga bir qator o'zaro foydali afzalliklar beradi.



**4-chizma.** Omillar (1 dan (nomaqbtl) 4 gacha (nihoyatda qulay)) bo'yicha ekspert baholari.

Bu fikrlar barcha qo'shma tadbirkorlikka taalluqlidir. Biroq, shu bilan birga uning ishtirokchilar qaysi mamlakatga bog'liq ekanligiga taalluqli xususiyatlarni ham hisobga olmoq lozim. Buni «g'arb-sharq» turidagi QK barpo etish misolida yaqqol namoyish etish mumkin. Ya'ni bunday korxonalar g'arb mamlakatlari va ko'pchiligi tartibga solishning bozor shakllariga o'tish holatida turgan o'tish iqtisodiy davlatlaridan (Sharqiy Yevropa va MDH) bo'lgan sheriklar o'tasida tuzilgan. Namoyon bo'lishning turlicha darajasida bu mamlakatlarning hammasi uchun xos bo'lgan xususiyatlarni quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotning bozor munosabatlari to'la tartibga solinmaganligi, to'laqonli, aniq ishlovchi bozor infratuzilmalari va qonunchilik meyorlarining yo'qligi, inflyasiya jarayonlari bilan bog'liq nobarqaror holati;

- texnologik daraja bo'yicha rivojlangan mamlakatlardan orqada qolginganligi, shuning oqibatida bu mamlakatlar tayyor mahsulot turlarining ko'pchiligi jahon bozorida raqobatga bardosh bera olmasligi;

- milliy valyutalarning konvertatsiyasi yo'qligi va eksport quvvatining qisqarishi bilan bog'liq holda extiyojning kattaligiga qaramasdan moliyalashtirishning tashqi manbalari cheklanganiligi.

Tabiiyki, bu mamlakatlarda mavjud muammolarni hal etishda bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga katta umid bog'lamoqdalar. Agar bunday yondashuvlarning asoslanganligini tahlil qilsak, u holda amalga oshirilishiga o'zlarini ko'maklashuvi mumkin bo'lgan quy'idagi vazifalarni alohida ajratish mumkin:

- QKda ishlab chiqarishni yo'lda ko'yish hisobiga ichki bozorni qarab mahsulot turlari bilan to'ldirishni yaxshilash;

- chetdan olib kelinadigan mahsulotlar o'mini bosadigan ishlab chiqarishni tashkil etish;

- xorijiy ishtirokchilarning badallari hisobiga manbalarni, shu jumladan, valyuta manbalarini, xo'jalik rivojini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish;

- xorijiy sheriklarning eng yangi texnologiyalariga etishish hisobiga ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish;

- boshqaruvning ilg'or tajribasi bilan bevosita tanishish, sherikning korxonalarida ish o'rghanish va xokazolar asosida xodimlar malakasini oshirishga ko'maklashish;

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, jahon bozorida marketing sohasida xorijiy sheriklarning tajribasi hisobiga eksport salohiyatini kengaytirish;

- QK timsolida ichki yirik ishlab chiqaruvchilarga raqobatchilarni tashkil etish yo'li bilan qo'shma korxonalarda yakkahokimliklarga qarshi kurash.

Quyida bu potensial imkoniyatlar amalda qanday amalga oshirilganligi tahlil qilinadi. Biroq ularning ro'yxati, bu ro'yxat davom ettirilishi mumkin, shu mamlakatlardan chiqqan sheriklarning xorijiy firmalar bilan birgalikdagi tadbirkorlikni rivojlantrishdan katta manfaatdorligiga ishonarli dalildir. Aftidan, bu shakl tashqi savdo aylanmasining an'anaviy vositalari bilan qiyoslaganda mazkur maqsadlarga erishishning ancha samarali vositasi hisoblanadi. Chunonchi, bozorni chetdan mahsulot olib kelish hisobiga ham to'ldirish mumkin, lekin uni moliyalashtirish to'g'risidagi masala kelib chiqadi. Ko'pincha esa, xorijiy sherik yordami bilan mamlakatda bo'limgan texnologiyalar asosida, masalan, ilgari qayta ishlanmagan chiqindilardan foydalanib, kamyo mahsulot ishlab chiqarishni yo'lda qo'yish muvaffaq bo'linadi.

Bozor rivoji yo'li va bu mamlakatlar xo'jaliklarining ochiqligi ularning hammasi uchun xosdir. Juhon iqtisodiyoti va bu mamlakatlarning iqtisodiyotlari bir-birlariga yaqinlashib kelmoqla, xorijiy firmalar endi bu yerda o'zlariga sheriklarni bevosita tanlab olishlari va o'zlarining mustaqil faoliyatlarini avj oldirishlari mumkin. Bu bozorlarda o'mashib qolish va o'z mavqelarini kengaytirishdan manfaatdorlik xorijiy firmalar uchun bu maqsadlarga erishishning eng samarali vositalarini izlash nuqtai nazaridan quratlari omil hisoblanadi. «Sotsialistik tuzumdan keyingi» mamlakatlar bozorlarining jozibadorligi ularning to'ydirilmagani va katta hajm salohiyati,

malakali va nisbatan arzon ishchi kuchi, xom ashyo resurslari, qulay geografik o'mi bilan bog'liqdir.

Albatta, potensial imkoniyatlar hamisha ham reallikka aylanavermaydi. Bu to'la hajmda qo'shma tadbirkorlikka ham taalluqlidir. Bu sohadagi reallik va imkoniyatlarning moslik darajasi, uning sabablari haqida quyida so'z yuritiladi. Biroq, hozir shuni ta'kidlash mumkinki, sobiq sotsialistik (endilikda o'tish iqtisodiyoti) mamlakatlarning bozorlari xorijiy sarmoya uchun bir qator shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash chog'ida salohiyat jihatidan g'oyat istiqbolli hisoblanadi, QKn barpo etish ko'p hollarda o'z sarmoyasi bilan bu mamlakatlarga o'rashib olishning eng samarali shakli bo'lib qolishi mumkin.

Hammaga ma'lumki, yangi bozorlarda o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yish chog'ida xorijiy firmalar ularda ishlashning amaliy tajribasi yo'qligi, ular xususiyatini bilmaslik bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu o'rinda mahalliy korxonalar va ularning kadrлari bilan hamkorlikdan samarali foydalanilishi mumkin. Xorijiy firmalar vaqillarining so'rov ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, QK barpo etish va sherikni tanlab olish to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida ular sherikning bu bozordagi mavqeい, unda ish olib borishning turli tomonlarini bilishni oldindi o'rnlardan biriga qo'yadilar.

Jahon amaliyotida keng yoyilgan ushbu mezonning ahamiyati hozirgi paytda O'zbekiston bozoriga chiqish chog'ida yanada kattaroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Hozir xorijiy firmalar unda mustaqil ish yuritishlari mumkin. Biroq, bunda ular o'zlar uchun mutlaqo notanish va g'ayritabiyy bo'lgan muammolarga duch keladilar, zero, ko'plar hali faqat dastlabki qadamlarni qo'ymoqdalar. O'zbekiston iqtisodiyoti hozircha xorijiy firmalar ko'nikma hosil qilgan bozor muhitidan jiddiy farq qiladi. Buning ustiga, markazlashtirilgan rejalashtirish tizimini yo'lga qo'yilgan bozor mexanizmi bilan almashtirish jarayonida iqtisodiyotning boshqaruvchanligi ma'lum darajada bo'shashtirib qo'yildi. Bu muammo xususida umumiy ma'noda gapiriladigan bo'lsa, butun sobiq sovet bozori avvallari umga xos bo'lgan barqaqorlik, to'lov larning kafolatlanganligi, davlat tashkilotlari bilan ishlarni yurish tartibining ma'lumligi jihatlarini yo'qtdi. Bunday sharoitlarda, ayniqsa, ilgari SSSRlik sheriklari bilan aloqaga ega bo'lmagan xorijiy firmalarga O'zbekistonda o'z tadbirkorlik faoliyatini mustaqil amalga oshirish oson bo'lmaydi. Shuning uchun mahalliy shart-sharoitlar bilan yaxshi tanish bo'lgan «rezident» sheriklarning doimiy yordami ular bilan QK barpo etish foydasiga salmoqli asos hisoblanadi. Agar respublika Adliya vazirligida ro'yxatga olingan xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar to'g'risidagi axborotlarga qarab xulosa chiqariladigan bo'lsa, har oydagи o'rtacha yigirma-o'ttiz korxonaga faqat bir-ikkita to'la xorij sarmoyadorlariga tegishli korxona to'g'ri keladi.

Nihoyat, «sharq-sharq» liniyasi, ya ni sobiq sotsialistik mamlakatlardan bo'lgan sheriklar o'rtaida qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishning bir xususiyatini ta'kidlash lozim. Sobiq SSSRda QK barpo etishning dastlabki dav-rida, hali O'YOK anal qilib turganida, ishtirokchi mamlakatlар korxonalarining bu shakldagi o'zarо hamkorlikka qiziqish yo'qligi aniq kuzatilardi. «Bevosita aloqalar» deb nomlanuvchi liniyalar va QK yo'li bilan hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligi haqidagi ko'pdan-ko'p bayonotlarga qaralmasdan, bu shakllar rasmiy xususiyatga ega edi, ya'ni, eng avvalo, o'zlarini qiziqgarayotgan narsalar — ilg or texnologiyalarni va almashiniladigan

valyutani sherikdan olish va bir-biriga berish imkoniyati yo‘q edi. Shuning uchun sotsialistik integratsiyani chuqurlashtirish to‘g‘risidagi bayonotlarga qaramasdan bu mamlakatlarning hammasida QK asosan kapitalistik mamlakatlardagi firmalar bilan tuzildi.

Endilikda, O‘IYOK tarqalib ketgan va erkin almashiniladigan valyutada hisob-kitobga o‘tilgan bir paytda vaziyat o‘zgardi. Bu mamlakatlar iqtisodiyotini bog‘lab turgan ko‘p yillik munosabatlarni uzib tashlab, ular hosil bo‘lgan bo‘sliqni g‘arbiy sheriklar bilan yangi aloqalar orqali to‘ldira olishmadi. Buning sabablaridan biri — shu mamlakatlar tayyor mahsulotlari ko‘pgina turlarining jahon bozorlaridagi raqobatga bardosh bera olmasligida edi. Natijada ikki tomon — MDH va Sharqiylar Yevropa mamlakatlari chuv tushishdi. Shu bois uzib tashlangan aloqalarni tiklash bu mamlakatlar uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Uning QK shaklida, lekin yangi asoslarda yangilanishi siyosiy yo‘l-yo‘riqlar natijasi emas, balki qabul qilingan jahon amaliyoti qoidalariga binoan, teng huquqli va o‘zaro foydali qoidalarning amal qilishidir. Shuning uchun mazkur masala g‘oyat istiqbolli jarayon hisoblanadi.

Shunday qilib, xulosa chiqarish mumkinki, O‘zbekistonda qo‘shma tadbirkorlikning rivojlanishi umuman:

- tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning umumjahon tamoyillariga muvofiq keladi;
- ham O‘zbekistonning alohida korxonalari, ham umuman butun iqtisodiyot manfaatlariga javob beradi;
- ham G‘arbdagi mamlakatlardan, ham Sharqiylar Yevropa mamlakatlaridan bo‘lgan xorijiy sheriklarning manfaatlariga javob beradi.

Bu imkoniyatlarni ro‘yboga chiqarishning borishi va erishilgan natijalarni tahlil qilish muhim vazifa hisoblanadi. Biroq bundan avval, Yuqorida qayd qilinganidek, bir muncha ilgari qo‘shma tadbirkorlik rivojlangan chet elda bu shaklini tartibga solish tajribasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

#### **10.4. O‘zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etishni statistik o‘rganish**

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan uning tashqi iqtisodiy faoliyati sharoitlari tubdan o‘zgardi. Bozor iqtisodiyoti yo‘lida yuzaga kelayotgan muammolarni g‘oyat murakkab sharoitlarda bartaraf etishga va ularni hal etishning oqilona variantlarini topishga to‘g‘ri keldi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosda keng e‘tirof etilishiga olib kelgan izchil va chuqur o‘ylangan chora-tadbirlar mamlakat jahon hamjamiatiga jadal kirib borishi, uning xo‘jalik sybyektlari jahon bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bozor qayta qurilishi ko‘lamlarining kengayishi, iqtisodiy dastaklar rolining keskin oshishi, raqobat muhitining yaratilishi, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari davlat tomonidan tanlab qo‘llab-quvvatlanishi va aholini ijtimoiy himoyalashni manzilliligi bu bosqich uchun xosdir.

Islohotlar dasturi resurslar, Yuqori malakali mutaxassislar va eng yangi texnologiyalarga g‘oyat katta ehtiyoj sezmoqda. Tub yangilanish, yirik investitsiyalar

talab qilinmaydigan tarmoqning o'zi yo'q. Mamlakatimiz oldida bugun ishlab chiqarishning zamonaviy texnika bazasini barpo etish, zamonaviy aloqa vositalari va ommaviy komp'yuterlashtirishni amalga oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash vazifasi turibdi. Yangi energiya manbalari va boshqa shoshilinch muammolar echimini kutmoqda. Respublika rahbariyatining mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, xorijiy investorlarni jaib etishga g'oyat katta e'tibori, kuch-g'ayrati ayni shu holat bilan izohlanadi.

Vujudga kelgan sharoitlarda bu hol vaqt jihatidan g'oyat zarur yutuq berishi mumkin edi. Bu o'rinda Rossiyaning 20-yillardagi konseptsiyalar tajribasi, shuningdek, jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi transmilliy biznes, xorijiy tadbirdorlikning hozirgi amaliyoti qo'l kelishi mumkin.

Garchi shuning o'zi mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti yo'lidagi harakatini jadallashtirishi mumkin bo'sha ham, ish faqat yetishmaydigan resurslar va texnologiyalarni tashqaridan olish bilangina cheklanmaydi. Bu harakatlarda xo'jalikni yuritishning jahondagi ilg'or tajribasini bosqichma-bosqich o'rganib borish, buning uchun monopoliyaga qarshi mexanizmnинг, istiqbolda esa ochiq samarali iqtisodiyotning zarur raqobatchi asosini yaratishdan iborat qiyin jarayonni engillashtiruvchi omillardan biri ko'zga tashlanmoqda.

Sarmoya joylashtirishning samarali bozori hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasi mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga bosqichma-bosqich integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirmoqda. Ayni paytda, boshqalar qatorida tashqi iqtisodiy aloqalarga katta e'tibor berilyapti. Tarkibiy tuzilish omiliga ham muhim o'rinn berilayotir. Bu, shubhasiz, tub islohotlarni amalga oshirishni, eksport ishlab chiqarishi tarkibini diversifikatsiyalashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha shakllari va ko'rinishlarini sifat jihatidan rivojlantirishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyalarini jaib qilish sohasidagi qonunchilikini faol shakllantirish va takomillashtirish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan, shu jumladan, chet el investorlarini jaib qilish va himoyalash, valyuta jihatidan tartibga solish, soliq, chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarni barpo etish va ro'yxatga olish masalalariga doir bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xorij investorlari faoliyatining ishonchli kafolatlanishini ta'minlash uchun huquqiy me'yorlar yana ham rivojlantirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi chet el investitsiyalarini himoyalashni nazarda tutuvchi va bu masalalar bo'yicha bahslarni ko'rib chiqish tartibini belgilab beruvchi xalqaro huquqiy shartnomalar va bitimlarga qo'shildi.

Investitsiyalarning jaib etilishida savdo-iqtisodiy rejimning umumiyligi qoidalarni ham, investitsion hamkorlikni ham tartibga soluvchi xalqaro va davlatlararo shartnomalarning shakllanib borayotgan tizimi katta ta'sirga ega.

O'zbekiston Respublikasi AQSH, Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalariga davlat-huquqiy himoya ta'minlanadi. Chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim O'zbekiston Respublikasining o'xshash yuridik va jismoniy shaxslari uchun tegishli bo'lgan rejimga qaraganda kamroq qulaylikka ega bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining ustun tarmoqdariga yo'naltiriladigan chet el investitsiyalarini uchun qo'shimcha imtiyozlar belgilanadi.

Xorijiy investor o'z investitsiyalarining obyektlari va natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqiga ega. U xalqaro huquq me'yori va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Chet el investorlari va ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sheriklariga ishlab chiqarish xonalarini, binolarni, uskunalar va uy-joylarni tanlov asosida sotib olish, shuningdek, yer uchastkalarini uzoq muddatga ijara olish huquqi beriladi, chet el investorlarining xususiylashtirish jarayonlarida ishtirokini kengaytirish dasturi ham ishlab chiqilmoqda.

Chet el investorlari xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini ularga ajratilgan yer uchastkalari bilan birga xususiy mulk qilib sotib olishlari mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunlari investitsiyalashni yomonlashtiruvchi shart-sharoitlarni vujudga keltirsaga, u holda chet el investitsiyalariga nisbatan o'n yil mobaynida investitsiyani amalga oshirish davrida amalda bo'lgan qonun qo'llaniladi.

Davlat organlari va ularning mansabdon shaxslari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirayotgan chet el investorlarining faoliyatiga aralashish huquqiga ega emaslar. Agar respublika davlat organlari chet el investorlarining huquqlarini kansituvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilsalar, u holda etkazilgan zarar bu organlar tomonidan sudlov tartibida qoplanishi kerak.

Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorij sarmoyasi ishtirokidagi sug'urta kompaniyalarini valyuta qadriyatlarning bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'ortalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalarini ishtirokidagi qo'shma sug'urta kompaniyalarini orqali ta'minlanadi.

Chet el investitsiyalarini sug'ortalash tizimi chet el investorlarini, xususan:

- mamlakat tomonidan iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadlarida kiritilgan boshqa chorallardan tashqari, mulkni ekspropriatsiyalash, mulkni tortib olishni, uning ustidan nazorat yo'qotilishini nazarda tutuvchi qonunchilik va ma'muriy chorallardan;

- urushlar va fuqarolar g'alayonlaridan, mahalliy hokimiyatlarning sug'urta tashkiloti va chet el investorining shartnomaga munosabatlarga aralashuvidan;

– mahalliy hokimiyatlar tomonidan maishiy valyutaning boshqa valyutalarga erkin almashtirilishi va valyutaning chet el davlatlariga o'tkazilishita nisbatan cheklovlar kiritishdan;

– investorlarning alohida guruhlariga nisbatan kamshituvchi xususiyatga ega bo'lgan yangi qonun-qoidalarning kiritilishidan sug'urtalanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini milliylashtirilmaydi.

Chet el investorlarining mulki va vositalari rekvizitsiya qilinmaydi. Tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar kabi fors-major holatlari bundan mustasnodir.

Chet el investitsiyalarini rekvizitsiyalash to'g'risidagi qaror faqat respublika hukumati (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) tomonidan qabul qilinadi. Chet el investoriga to'lanadigan tovon tortib olinay otgan mulk-ka tengma-teng bo'lishi qonunda nazarda tutilgan.

Chet el investitsiyalarini bo'lgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, hozirdanoq davlat organlari tomonidan ro'yxatga olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar ko'rib chiqilishining qisqartirilgan muddatlarini belgilangan.

Chet el investorlari uchun maqbul soliq muhitining yaratilganligi ularning faoliyatini rag'batlantiruvchi muhim omildir.

Korxona ustav sarmovasida chet el investorining hissasi 30 foizdan oshadigan chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarga soliq undirilishi sohasida imtiyozlar beriladi.

Amaldagi qonunchilik chet el investorlariga ularga tegishli korxonalarni fonda olina boshlangan davrdan boshlab dastlabki ikki yil mobaynida daromad solig'ini to'lashdan ozod qilish ko'rinishidagi imtiyozlarni beradi.

Xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarni daromad-ning ishlab chiqarishni kengaytirishga, texnologik moder-nizatsiyalash va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga surʼlangan qismiga soliqto'lashdan ozod qilish ko'zda tutilgan. Ustav jamg'armasida xorij sarmoyasining hissasi 50 foiz-ni tashkil etuvchi chet el investitsiyasi bulgan korxona, faoliyati xalq iste'mol buyumlari ishlab chikdrishga yo'naltirilgan takdirda, korxona davlat ro'ixatidan o'tkazilgan vaqtidan boshlab besh yil muddatga olinay otgan valyuta tushumlarining bir qismini respublika Markaziy bankiga majburiyotli sortishdan ozod kllinadi.

Chet el investorlariga qonuniy faoliyat natijasida ular olnan foydalar va boshqa daromadlarni hamda so'mlarni bi-ror-bir cheklovlar siz istalgan chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi.

Xorijiy investorlar respublika banklarida biror-bir cheklovlar siz istalgan valyutada hisobraqamiga ega bo'lish-lari mumkin.

Chet el investitsiyalarini bo'lgan korxona amaldagi qonun-larga binoan o'zi ishlab chiqqagan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va uz ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur maxsulotlar importini amalga oshirish huquqiga ega-dir. O'z ishlab chiqarishining eksportga chiqarilayotgan maxsulotlar va o'z ehtiyojlari uchun korxonalar tomonidan import qilinay otgan maqsulotlarning ro'yxati hukumat (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) tomonidan belgilanadi. Chet el investitsiyasi

bo'lgan korxonaning mulki-dan zayom vositalarini ta'minlovchi sifatida foydalaniishi mumkin. Uning binolar, inshootlar, uskunalarga bo'lgan mulkiy huquqlari, shuningdek, er va boshqa tabiiy boyliklarga egalik qilish hamda ulardan foydalinish huquqidan tashqari boshqa mulkiy huquqlar majburiyat-larni ta'minlovchi sifatida harakatga kirishishi mumkin.

Chet el investorlariga tabiiy boyliklarni kidirish, ishlab chiqish va foydalinish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vaqil qilingan organlari o'rtaida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasiga barpo etilayotgan korxonaning ustav sarmoyasiga chet el investorining hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bojxona to'lovidan ozod qilinadi va import soliga undirilmaydi.

Chet el investorlari O'zbekiston Respublikasining mavjud gyurxonalaridan aksiyalar, hissalar va paylarni, shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin.

Chet el investitsiyasi bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilishi hollarda chet el inver-tori shu korxona mulkidan o'zingiz hissasini chet el in-vertori korxonadan chiqish vaqtida korxona mulki bilan qiyamatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tarikasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Turli birlashmalar, uyushmalar, konsernlar, konsorsiumlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarni ixtiyoriy asoslarda barpo etishlari mumkin.

O'zbekistonda chet el investitsiyalarini to'g'risidagi dast-labki qonun 1991-yil iyunidayoq qabul qilindi. Keyingi yilning iyulida esa mamlakat parlamenta bu qonunning yangi tahririni qabul qildi.

1994-yilning 5-mayida konun chiqaruvchilar O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalarini va chet el investorlari faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi yangi Qonunini tasdiqdashdi. Bu qonun chet el investitsiyalarini himoyalashning ilgarigi qonunda ko'zda tutilgan kafolatla-rini faqtgina mustahkamlamasdan, balki bir qator hol-larda ularni kuchaytirdi.

1996-yilning o'rtaida qabul qilingan «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Qonun» shu toifadagi zonalarga inver-titsiyalashning asosiy huquqiy doirasini shakllantirdi. «Kon-sessiyalar to'g'risidagi Qonun» esa O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik sybyektlari, shu jumladan, xorijiy xo'ja-lik sybyektlari konsessiya faoliyatining huquqiy asosini belgilab berdi. Bu qonunlar qo'shma tadbirkorlikni va xorijiy sarmoyani mamlakatimizga jaib etish jarayonlarini tar-tibga solishda olg'a tomon qo'yilgan yangi kadam buldi.

1996-yil noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo'shimcha omillar va imtiyozlar to'g'risidagi Farmonida» «chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini» deb nomlanib, preferensial rejim berilgan korxonalamining maxsus toifasi belgilandi.

Prezidentning 1998-yil 27-martdagisi Farmoniga muvo-fiq, quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, sho'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini sirasiga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi

miqdori 150 ming AQSH dollaridan kam bo'lmagan korxonalar; korxona ishtirokchilaridan biri, albatta, chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi va (yoki) ishlab chi-qarilayotgan mahsulotning servis xizmat hissasiga xo'ja-lik faoliyatidan tushumlar umumiylaj hajmining 60foiz dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.

Farmon chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalar ta'-rifiga kirmay krlgan va mazkur Farmon qabul qilingu-nicha ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarga berilgan soliq imtiyozlari amal qilish muddati o'tgunicha saklanib qolishini nazarda tutadi.

1997- yil 1- yanvardan boshlab respublika investitsion das-turiga kiritilgan loyihalarni investitsiyalovchi chet el in-ves-titsiyasi bo'lgan korxonalarning hammasi etgi yilga korxona foydasidan olinadigan soliqlarni to'lashdan ozod qili-nadi. Ustav jamg'armasida xorij sarmoyasining xissasi 50 foiz va undan ko'proqni tashkil etuvchi chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalardan ustav jamg'armasining miqdoriga qarab pasay-tirilgan stavkalar bo'yicha soliqundiriladi: ustav sarmoyasi 300 mingdan 1 milliongacha AQSH dollariga teng bo'lganida — 20 foiz va 1 million va undan ortiq AQSH dollariga teng bo'lganida — 16 foiz; xorijiy sarmoya xissasi ustav jamg'armasining 50 foiz va undan ko'proqni tashkil etuvchi chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarning ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga sarflanayottan foydasi foydadan olinadigan soliqdan ozod qilinadi. Eksport uchun, ishlab chiqarish-tex-nika maxsulotlari va ichki bozor extiyojlarini qondirish uchun tovarlar ishlab chiqarayottan chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalar ham:

- chet el sarmoyasining ustav jamg'armasidagi hissasi 50foiz va undan ko'proqni tashkil esa, ishlab chiqarish bosh-langanidan keyin ikki yil muddatda;
- ishlab chiqarish xajmida 25 foiz dan ko'proqni bolalarga atalgan tovarlar tashkil esa, ishlab chiqarish boshlanganidan keyin besh yil muddatga foydadan undiriladigan soliq-dan ozod qilinadi. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga Karaganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi.

1998- yili Oliy Majlis investitsiya faoliyati sohasi-dagi munosabatlarni tartibga soluvchi uchta qonunni — 1998- yil 30- aprelda O'zbekiston Respublikasining «Chet el in-vestitsiyalari to'g'risida» va «Chet el investorlarining ka-folatlari va ularning huquqlarini himoya qilish choralar to'g'risida»gi hamda 1998- yil 24- dekabrda «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunlarni bityo'la qabul qildi. Bu qonunlar mamlakatim izda investitsiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotiga sarmoya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan edi.

Yuqorida keltirilganlar O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyalarini ja'b qilish sohasidagi qonunchi-ligining shakllanish va takomillashish jarayonlaridagi favqulodda murakkabliklar, vujudga kelayotgan vaziyatga muvofiq uning doimiy tadrijiy rivojanishi va tezkor rivoji xususida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatining umumiylaj huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari qonun jihatidan belgilangan. Ular investitsiya faoliyatining mil-liy va xorijiy sybyektlari uchun qulay sharoitlarni yara-tish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini samarali rivojlantirish

maqsadlarida investitsiya faoliyati sybyektlarining huquqiy manfaatlari, mol-mulki va sanoat-intellektual mulki davlat tomonidan himoyalanishini ta'minlashga qaratilgandir.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijasida respublika iqtisodiyoti kun sayin rivojlanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, iqtisodiyotga investitsiyani jalb qil-may turib, uni yyetarlicha rivojlantirib bo'lmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zga-rishlar olib borish uchun xorijiy investitsiyalar muhim rol uinaydi, negaki, respublikadagi ishlab chiqarish kuchlari modernizatsiyalash va rekonstruksiya ishlari uchun yi-rik kapital qo'yilmalarga muhtojdir, lekin ichki inves-titsiyalarni mbliyalash manbalari yetarli emas. Shu bois xorijiy sarmoyalarni keng kulamlarda jalb qilish strategik maksadni tashkil etadi va xukumat siyosatining asosiy yo'na-lishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodietiga asosan beshta manba orqali investitsiya kiritiladi. Quyida keltirilgan jadvallarni tahlil qilar ekanmiz, sarmoyalarning O'zbekistondagi tendensiyasini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

**Moliyalashirish manbalari bo'yicha asosiy vositalarga investitsiyalar tarkibi (fami foizida))**

	ulardan:	da'vlat	Qabil qilimgan	Ko'rsomalar va	ahollardan va	da'vlat	byudjeti	bankalarning	bankalarning	ulardan:	da'vlat	byudjeti	bankalarning	bankalarning	ulardan:	da'vlat	byudjeti	bankalarning	bankalarning
O'rzbekiston Respublikasi	54,4	45,6	4,3	10,8	20,7	47,3	52,7	4,8	12,6	23,8	42,0	58,0	4,5	17,8	24,3				
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35,2	64,8	2,5	6,1	44,6	62,8	37,2	7,4	12,2	10,0	37,9	62,1	3,0	14,1	23,7				
wiloyatlar:																			
Andijon	67,6	32,4	3,2	17,4	4,9	65,6	34,4	4,0	18,1	7,2	47,8	52,2	4,1	25,7	14,8				
Buxoro	39,5	60,5	1,1	4,1	52,4	20,6	79,4	0,9	3,8	71,0	35,5	64,5	2,4	13,9	44,0				
Jizzax	62,9	37,1	4,3	16,6	7,3	55,4	44,6	6,7	18,6	10,8	44,3	55,7	9,4	26,8	8,7				
Qashqadaryo	53,5	46,5	1,4	4,3	27,5	39,1	60,9	1,5	5,6	18,0	33,6	66,4	1,9	6,3	51,1				
Navoiy	50,0	50,0	4,9	6,3	5,1	46,5	53,5	5,1	10,9	24,2	37,1	62,9	0,7	6,0	34,0				
Namangan	50,9	49,1	2,5	17,3	22,6	49,9	50,1	3,6	11,6	31,6	29,7	70,3	2,8	15,7	33,5				
Samarqand	76,3	23,7	4,5	9,9	2,2	68,4	31,6	5,5	18,6	2,8	57,5	42,5	2,7	27,1	4,7				
Surkondaryo	58,7	41,3	7,8	14,2	9,8	50,0	50,0	7,1	14,3	11,5	34,9	65,1	3,2	28,9	21,4				
Sirdaryo	41,2	58,8	22,9	17,8	7,7	38,7	61,3	18,7	30,2	4,6	34,9	65,1	9,6	36,1	9,6				
Toshkent	58,6	41,4	5,1	18,5	13,7	51,4	48,6	4,3	21,3	12,0	51,0	49,0	3,4	20,7	9,6				
Farg'onha	61,8	38,2	10,3	13,2	8,2	67,9	32,1	8,2	14,7	5,8	46,1	53,2	3,6	22,9	12,4				
Xorazm	70,5	29,5	4,9	13,1	5,8	64,5	35,5	6,9	13,3	6,8	49,1	50,9	5,0	25,0	8,5				
Toshkent sh.	56,1	43,9	4,4	13,0	16,4	52,8	47,2	7,2	16,2	18,1	49,7	50,3	6,0	20,3	13,1				

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 8,7 foiz punktiga kamayib, 70,9 foizni yoki 50 411,8 mlrd. so‘nni tashkil etdi. O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag‘I ulushi salmoqli bo‘ldi – 22 119,2 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 31,1 foizi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,6 foizi yoki 8 956,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi. Joriy davrda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi jadal o‘sib 10 434,0 mlrd. so‘nni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-sentyabr davridagi jami asosiy kapitaldagি ulushiga nisbatan 10,3 foiz punktiga ko‘payib 14,7 foizni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 11 999,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,9 foizini tashkil etib, o‘tgan chorakdagи ko‘rsatkichga nisbatan 1,9 foiz punktiga kamayish kuzatildi), to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 7 336,6 mlrd. so‘m (10,3 foiz va 1,8 foiz punktiga kamayish), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘ armasi 4 598,1 (6,5 foiz va 1 foiz punktiga kamayish), Respublika byudjeti 2 500,5 mlrd. so‘m (3,5 foiz va 0,1 foiz punktiga ko‘payish), Davlat maqsadli jamg‘ armalari 3001,0 (4,2 foiz va 1,1 foiz punktiga ko‘payish) va Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘ armasi hisobidan esa 122,7 mlrd. so‘m (0,2 foiz) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish suratlarini moliyalastirish mabalari bo‘yicha eng Yuqori ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan o‘zlastirilgan investitsiyalarda kuzatildi – o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 martta o‘sish. Bu MChJ shaklidagi “O‘zbekiston GTL” qo‘sma korhonasi tomonidan Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg‘I ishlab chiqarishni tashkil etish, To‘raqo‘rg‘ on IESda umumiyl quvvati 900 MVT bo‘lgan ikki 450 MVT quvvatli bug‘gaz qurilmali blokdan iborat yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi, Taxiatosh IESda 230-280 MVT quvvatlari ikki bug‘gaz qurilmasi qurilishi, Navoiy IESda 450 MVT quvvatli ikkinchi bug‘gaz qurilmasini qurish orqali kengaytirish, “O‘zelektarmoq” UK tomonidan energetizim podstansiyalarida eskirgan asbob-uskunalarini almashtirish va modernizatsiya qilish, “Navoiyazot” AJda polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va methanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalaringin jadal olib borilayotgani bilan bog‘liq.

Demak, 2012-2018- yillar mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, chet el investitsiyalari va kreditlarining oqimi ko‘payganini kuzatishimiz mumkin. Tendensiyani kuzatar ekanmiz, avvalo, markazlashgan investitsiyalar salmog‘ining kamayganini ijobjiy hol deb ifodalash mumkin. Davlat tomonidan moliyalashtirish kamayganiga yarasha, korxona va aholi mablag‘lari tomonidan moliyalash ortdi. Eng ko‘p investitsiyalar korxona va aholi mablag‘laridan kiritilgan. Agar o‘sish yoki kamayish tendensiyasi qaysi birida sezilarli ekanligini bilmochi bo‘lsak, u holda eng ko‘p va barqaror o‘sish, korxona va aholi mablag‘lari fondlaridan kapital oqimi oxirgi yillarda kuzatilgan. Bu, o‘z navbatida, korxonalar faoliyatining yil sayin yaxshilanib borishi va mamlakat iqtisodiyotining erkinlashuvni jarayonining jadallashganidan dalolatdir.

Yuqoridagi jadval davomi sifatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimotini kuzataylik.

*6-jadval*

**Asosiy vositalarga investitsiyalar\***

(joriy narxlarda, m'lrd. so'm)

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>24455,3</b>	<b>30490,1</b>	<b>37646,2</b>	<b>44810,4</b>	<b>51232,0</b>	<b>72155,2</b>	<b>124231,3</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1242,1	2415,0	3990,6	6021,2	3778,3	2822,0	6757,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1379,9	1462,3	1645,0	1956,5	2188,5	2986,0	4711,9
Buxoro	2405,8	2998,7	3583,2	4075,9	5922,9	11613,4	9610,9
Jizzax	792,5	1128,5	1200,9	1304,9	1449,7	1788,2	3606,3
Qashqadaryo	3072,2	3667,8	4721,8	5894,7	7304,4	11175,3	16518,5
Navoiy	1688,0	1696,9	1754,1	1809,1	2963,2	3977,9	10579,5
Namangan	917,3	1205,1	1807,5	2227,5	2824,5	3586,7	8158,1
Samarqand	1586,0	2127,6	2540,4	3237,2	3623,5	4384,2	7061,4
Surxondarvo	980,3	1371,0	1509,1	1843,6	2142,4	3551,0	7240,6
Sirdaryo	663,1	852,8	992,3	1083,3	1322,9	1628,0	2699,3
Toshkent	2005,8	3195,2	4021,7	4428,1	4238,7	5938,4	11226,9
Farg'on'a	1505,8	2130,0	2295,3	2542,3	2643,6	2954,5	5539,1
Xorazm	783,4	1256,9	1614,8	1531,5	1560,5	2175,9	3013,8
Toshkent sh.	5433,1	4977,1	5969,5	6854,6	9268,9	13573,7	26435,7

Jadvalni tahlil qilar ekanmiz, 2012-2018 yillar mobaynida investitsiyalarning asosiy kapitalga bo'lgan oqimi davlat sektoriga regressiv rivojlandi, ya'ni 2012-yilda 25 foizni tashkil eta turib, 2018- yilga kelib deyarli 66 foiz ga ko'paygan. Nodavlat sektori umumiy investitsiyalarining ulushi esa 2012-2018- yillar mobaynida ijobiy tendensiyaga ega bo'ldi.

**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar†**

(ming so'm)

	2013	2014	2015	2016	2017	2018
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>1008,2</b>	<b>1224,0</b>	<b>1431,7</b>	<b>1608,6</b>	<b>2227,8</b>	<b>3769,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1400,7	2280,6	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	525,8	581,0	678,4	745,3	959,6	1550,3
Buxoro	1720,3	2023,4	2264,0	3237,6	6254,2	5105,4
Jizzax	928,1	969,6	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9
Qashqadarvo	1281,0	1613,1	1969,9	2389,3	3583,4	5193,4
Navoiy	1896,4	1933,5	1965,1	3168,1	4185,4	10920,2
Namangan	485,6	714,7	863,8	1074,8	1340,3	2992,5

\* O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika kumi-tasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining asosiy kursatkichlari. Toshkent 2012-2018 i.

† O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasи. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ku'rsatkichlari. Toshkent 2019 y.

<b>Samarqand</b>	<b>623,3</b>	<b>730,0</b>	<b>912,0</b>	<b>1001,6</b>	<b>1189,4</b>	<b>1878,3</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>600,1</b>	<b>646,8</b>	<b>773,0</b>	<b>879,1</b>	<b>1427,1</b>	<b>2848,3</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>1126,4</b>	<b>1288,1</b>	<b>1382,2</b>	<b>1660,3</b>	<b>2011,1</b>	<b>3280,2</b>
<b>Toshkent</b>	<b>1178,7</b>	<b>1466,6</b>	<b>1595,0</b>	<b>1507,5</b>	<b>2087,2</b>	<b>3898,4</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>634,3</b>	<b>672,0</b>	<b>731,6</b>	<b>747,8</b>	<b>822,4</b>	<b>1516,8</b>
<b>Xorazm</b>	<b>753,1</b>	<b>950,0</b>	<b>884,7</b>	<b>885,8</b>	<b>1215,1</b>	<b>1655,6</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>2120,7</b>	<b>2527,2</b>	<b>2877,4</b>	<b>3848,1</b>	<b>5552,7</b>	<b>10627,8</b>

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018- yilda O'zbekiston Respublikasiga 3769,6 ming.so'm investitsiya kiritilgan, ulardan Toshkent shahri hududi va Navoiy viloyatida aholi jon boshiga nisbatan yuqori ko'rsatkishni tashkil qilmoqda. Eng kam ko'rsatkichni ko'rsatayotgan viloyatlar Andijon va Farg'ona viloyatidir.

7-jadval

#### Chet el investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish\*

	O'zlashgirildi mlrd. so'm	Kuyidagilarga nisbatan chet el investitsiya va kreditlari, foiz hisobida		
	Jami	Hu jumladan, kreditlar	Yakunga	Asosiy kapital ga kiritilgan investitsiyalarga
O'zbekiston Respublikasi	294,9	221,9	100,0	20,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7,8	7,8	2,6	10,7
Andijon viloyati	12,1	7,1	4,1	21,3
Buxoro viloyati	8,2	6,1	2,8	9,2
Jizzax viloyati	0,5	0,2	0,2	0,7
Kashkadaryo viloyati	52,0	48,4	17,6	24,8
Navoiy viloyati	10,9	1,1	3,7	11,3
Namangan viloyati	10,2	2,5	3,4	18,7
Samarqand viloyati	5,8	2,6	2,0	9,1
Surxondaryo viloyati	0,5	0,5	0,2	1,1
Sirdare viloyati	1,2	0,7	0,4	4,6
Toshkeng viloyati	26,0	10,6	8,8	21,2
Argona viloyati	69,9	59,2	23,7	47,9
Xoram viloyati	29,2	26,8	9,9	43,7
Toshkent shahri	54,3	42,0	18,4	21,0

Jadvaddan ko'rinish turibdiki, 2002 yilda xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishining hududiy tarqalishi quyidagicha bo'lgan: investitsiyalarning 23,7 foizi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelib, 69,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. Toshkent shahriga umumiy chet investitsiyalari va kreditlari-ning 18,4 foizi yoki 54,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi. 17,6 foiz yoki 52,0 mlrd.so'mlik sarmoya Qashqadaryo viloyatida o'zlashtirildi.

\* O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent 2019- y.

**Respublikada qulay investitsion ikdim yaratish borasida chora-tadbirlar olib borilar ekan, ijobiy natijalarga eri-shildi. 2019-yil 14- avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki delegatsiyasini qabul qildi**

Bank mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy isloholarni faol qo'llab-quvvatlamoqda. Bugungi kunda Buxoro viloyatida suv ta'minoti va suvoqova tizimlarini rivojlantirish, avtomobil yo'llarmi rekonstruktsiya qilish bo'yicha umumiy qiymati 1,3 milliard dollardan ziyod bo'lgan ilk investitsiya loyihalarini tayyorlash ishlari yakuniga yetmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarda ijtimoiy, kommunal va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sanoat korxonalarini va kichik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, mintaqaviy savdoni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 1,6 milliard dollardan ortiq istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Amaliy hamkorlikni kengaytirish va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining moliyaviy resurslarini jaib qilgan holda yangi dasturlarni ilgari surish masalalariga bag'ishlangan bugungi davra suhbati muvaffaqiyatli bo'lgani alohida qayd etildi.

Samarali hamkorlik bo'yicha o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan "yo'l xaritas"ni ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, sheriklik salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ikki tomonlama tadbirlar o'lkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Eng ko'p qo'shma korxonalar AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Koreya, Xitoy, Turkiya, Pokiston, Rossiya, Ukraina va boshka davlatlar investorlari ishtirotkida bar-po etildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ustav fondidagi xorijiy kapitalning deyarli hammasi bevosita investatsiyalaradir. Aitib o'tish kerakki, ko'p hollarda chet el investorining ustav fondidagi ulushi asbob - uskunalar va texnologiya-lar shaklidadir.

2002-yilda O'zbekiston iqtisodiga jaib qilingan xorijiy investitsiya umumiy hajmi 294,9 mlrd.so'mni tash-qil etdi. Ulardan 50 foiz ga yaqini engil sanoat, gaz, kimyo va neft-kimyo tarmoqlariga XIK orqali yo'naltirildi. Shuning uchun 9-jadvalni taxidlil qiladigan bo'lsak, quyi-dagi holatni ko'rishimiz mumkin:

Tashqi savdodagi ulushi ham 1996-yildan keskin orta bordi va eng katta ko'rsatkich 1997-yilda 24 foiz ni tashkil etdi. 2002-yildagi XIKlarning umumiy tashqi savdodagi ulushi 2001 yillardagina nisbatan 2,2 foiz kam buldi, bunga respublika umumiy tashqi savdo oborotining kamayganligi sababdir.

*9-jadval*

### **Xorijiy investitsiyali korxonalarining O'zbekiston iqtisodidagi urni (foizlarda)**

XIK lar ulushining ko'rsatkichlari	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
YAJM hajmi dagi ulushi	2,63	2,05	7,4	12,5	13	13,01	12,1	12,5	14
Tashqi savdodagi ulushi	3,1	7,5	20,9	24,4	21,3	22	19,5	22,2	20,2

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika kumi-tasi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy - hisisiy rivoj-lanishining asosiy kursatkichlari. Toshkent*

Xorijiy investitsiya kirtilgan korxonalar eksport ulushi o'sish tendensiyasi 2002-yilda ham saklanib qoldi va umumiy eksportning 13,8foiz ini tashkil etdi.

Quyida keltirilgan jadvalni kuzatar ekanmiz, 2002- yilda chet el investitsiyali korxonalar mahsulot, ish va xizmatlar hajmi 1044,2 mlrd.so‘mga (amaddagi narxlarda) etgan va o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. XIKlar ishlab chiqarish hajmi 2001 yilga nisbatan 1,7 marta, 2000 yilga nisbatan esa 2,2 martaga (amaddagi) narxlarda oshdi. Ushbu ma‘lumotlar XIKlarning O‘zbekiston iqtisodida roli oshayotganidan dalolat beradi.

Aytib o‘tish kerakki, ishlab chiqarishning asosiy hajmi Toshkent shahriga — 38,1foiz, Andijon viloyatiga — 21,3foiz, Toshkent viloyatiga -10,75foiz va Navoiy viloyatiga — 12,6foizga to‘g‘ri keldi.

10-jadval

**Xorijiy investitsiyali korxonalarining mahsuloti, ish va xizmatlar hajmi  
(amaldagi narxlarda, mlrd.so‘m)**

	2017	2018	2017 yilga nisbatan foiz hisobida
O‘zbekiston Respublikasi	610,2	1044,2	171,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,5	2,2	146,7
Andijon viloyati	154,4	222,4	144,0
Buxoro viloyati	3,2	6,2	193,8
Jizzax viloyati	1,3	2,7	207,7
Qashqadarvo viloyati	5,2	14,9	286,5
Navoiy viloyati	54,5	132	242,2
Namangan viloyati	16,4	26,5	161,6
Samarqand viloyati	24,3	38	156,4
Surxondaryo viloyati	3,9	5	128,2
Sirdaryo viloyati	2,1	6	285,7
Toshkent viloyati	59,3	112,3	189,4
Farg‘ona viloyati	31,1	72	231,5
Xorazm viloyati	1,7	5,6	329,4
Toshkent shahri	251,3	398,4	158,5

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy rivojanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Toshkent y.*

Qishloq joylarda kushma korxonalar tuzishga davlat to-monidan katta e’tibor berilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasi 2001- yilning 23- noyabrida 459-sonli «Respublika mintakalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarни tashkil etish dasturiga o‘zgartirishlar kiritish to‘brisida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorning 1-bandiga muvofiq, yangi tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar import bo‘yicha keltiriladi-gan va o‘zi ishlab chiqarishda foydalananidan asbob-uskuna-lar, extiyot kismlar va butlovchi jihozlar uchun bojxona to‘lov-lari tulashdan ozod qilingan (bojxona rasmiy lashtiruvi uchun yig‘imlar bundan mustasno).

Umuman, faoliyat kursatay otgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 200- yiddagiga nisbatan 6,5 foiz ga oshdi va 2002- yidda 2087 korxonani tashkil etdi. 2002- yilda ular tomonidan 1044,2 mlrd.so‘mlikmahsulot ishlab chiqarildi.

**Xorijiy investitsiyali korxonalar tashqi savdo  
ko'rsatkichlarining dinamikasi (mln.AOSH doll.)**

	<b>2014</b>	<b>2015</b>	<b>2016</b>	<b>2017</b>	<b>2018</b>
<b>Xorijiy investitsiyali korxonalar mahsulot, ish va xizmatlarining eksport hajmi</b>	<b>342,9</b>	<b>371,5</b>	<b>451,6</b>	<b>416,9</b>	<b>443,0</b>
<b>Xorijiy investitsiyali korxonalar mahsulot, ish va xizmatlarining import hajmi</b>	<b>1116,8</b>	<b>1027,8</b>	<b>760,5</b>	<b>937,2</b>	<b>704,8</b>
<b>Saldo</b>	<b>-773,9</b>	<b>-656,3</b>	<b>-308,9</b>	<b>-520,3</b>	<b>-261,8</b>

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiyriyo-vojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent 1998-2003-y.*


Jadvaldan kurinib turganidek, qo'shma korxonalar asosiy ko'rsatkichlarining o'sishi ularning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'mining oshib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, qo'shma korxonalarining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Chunki ushbu korxonalarining mahsulot, ish va xizmatlar eksporti hajmi 1998-2002- yillar mobaynida ijobiy tendensiyaga ega bo'lib, yilingao'rtacha 10 foiz o'sgan. Shuningdek, qo'shma korxonalarining import xejmi kamayganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni oxirgi 5 yilda korxonalarining xorijdan olib kiriladigan tovarlar va xizmatlar xajmi 1998- yilga nisbatan o'rtacha 23 foizga kamaygan. Albatta, xorijiy sarmoyali korxonalar umumiyligi tashqi savdo faoliyatida salbiy saldo saqlanib kelmoqsa, lekin ijobiy tarafi salbiy saldoning yil sayin pasayib borishidir.

Iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabi, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag'larning etishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag'iidan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish mumkindir.

Xalqaro kapital harakatning iqtisodiy samarasini ko'rsatish uchun, kapital qo'yilmalardan olinadigan foyda turli mamlakatlarda turlicha degan tasavvurdan kelib chiqish zarur. Jahonda ikki mamlakat mavjud deb hisoblaylik. I mamlakat AK miqdorda, II mamlakat AK' miqdorda kapitalga ega. Ikkala mamlakatning umumiy kapitali KK' ga teng.  $S_1$  va  $S_2$  to'g'ri chiziqlar I va II mamlakatlarda qo'yilgan kapital xajmiga bog'liq ravishda ishlab chiqarish xajmini o'sishini aks ettiradi. Agar xalqaro kapital harakati mavjud emas deb faraz qilinsa I va II mamlakatlar o'z kapital mablag'larni mamlakat ichkarisida sarflab daromad oladi (I mamlakat KS xajmida, II mamlakat K'D hajmda). I mamlakatning o'z kapitali yordamida ishlab chiqarish hajmi  $a+b+c+d+e+f$  segmentlarining yig'indisiga teng bo'lib, bulardan kapital egalarining foydasini  $a+f$  ga teng buladi, qolgani esa er va mehnat kabi boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. II mamlakatning ishlab chiqarish xajmi  $i+j+k$  ga teng bo'lib, bundan kapital egalarining foy dasi  $j+k$ , qolgani esa boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. KC<K'D ekanligi I mamlakatda kapital qo'yishdan olinadigan foyda II mamlakatnikidan kam ekanligini anglatadi(10.1.1-chizma)

“I” мамлакат

“II” мамлакат



#### 10.1.1-chizma

Agar ikkala mamlakat kapitalning xalqaro harakatini taqiqlovchi cheklovlarni olib tashlasa I mamlakatdagi kapitalning bir qismi ( $AV$ ) II mamlakatga ko‘chadi, chunki investitsiyalardan keladigan foyda ikkala mamlakatda turlichadir. Shundan so‘ng investitsiyalardan keladigan foyda  $BR$  darajasida balanslashadi. Buning natijasida I mamlakatning uz kapitali yordamidagi ishlab chiqarish xajmi  $a+b+c+d+e+f+h$  segmentlarining yigindisiga teng bo‘lib,  $a+b+c+d$  mahsulotlar ichki investitsiyalar hisobiga,  $h+e+f$  - II mamlakatga qilingan xorijiy investitsiyalar hisobga olingandir. Kapitalni bir qismini II mamlakatga investitsiyalash hisobiga yalpi ishlab chiqarish (yalpi kapital xajmi o‘zgarmagan holda) ma’lum bir hajmiga ( $h$  segment hajmiga) o‘sadi. Bunda kapitaldan olingan daromad ham KS dan KE darajagacha oshadi. Kapital egalarining daromadi  $a+b+d+e+f+h$  hajmgacha o‘sib, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi  $c$  segment hajmida bo‘ladi, xolos.

Boshka tomondan, kapitalni I mamlakatdan II mamlakatga oqib kelishi unda kapitaldan olinadigan foydani  $K'D$  xajmidan  $K'F$  xajmgacha qisqarishiga olib keladi. Shu vaqtning uzida I mamlakatdan jalb qilingan va o‘zining ichki kapitalini ishlatalish natijasida II mamlakatda ishlab chiqarish hajmi  $i+j+k$  dan  $i+j+k+g+h+e+f$  gacha kengayadi. Albatta,  $h+e+f$  segmentlar xorijiy kapital hisobiga ishlab chiqarilgan bo‘lib, oxir natijada I mamlakat investorlariga foyda tariqasida berilish zarur. Shunday qilib II mamlakatda ichki ishlab chiqarishning sof usishi  $g$  segmentga teng buladi. II mamlakatda kapital qo‘yilishidan olinadigan foyda pasayishi natijasida kapital egalarining daromadi  $j+k$  xajmdan  $k$  xajmgacha qisqaradi, boshka ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi esa  $i$  dan  $i+g+j$  xajmgacha o‘sadi.

Jahon xo‘jaligi mikyosida karalganda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o‘tishi natijasida yalpi ishlab chiqarish xajmi  $[a+b+c+d+e+f]+[k+j+i]$  dan  $[a+b+c+d]+[e+f+g+h+i+j+k]$  hajmgacha, ya ni

$g+h$  hajmgacha o'sadi. Bunda  $h$  I mamlakatning kapitalini II mamlakatga investitsiyalab samaralirok foydalanish natijasida yuzaga keladi,  $g$  esa II mamlakatga tegishli bo'lib, shu mamlakatda investitsiyalanadigan kapital hajmini o'sganligi natijasida vujudga keladi.

Shunday qilib, kapitalning xalqaro harakati (tovarlarning xalqaro harakati kabi) ishlab chiqarish omillarini samaralirok qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga yalpi umumjahon ishlab chiqarishini o'sishiga olib keladi. Bunda, kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagagi kapital egalarining daromadi o'sadi va boshqa omillar (ayniqsa mehnat va er) egalari daromadi esa qisqaradi. Kapitalni import qiluvchi mamlakatdagagi kapital egalarining daromadlari qisqaradi va ishlab chiqarishning boshqa omillari egalarining daromadlari esa o'sadi.

Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi bir qator ko'rsatkichlar orqali namoyon buladi. Bulariga kapital eksporti (importi) hajmi, kapital eksporti-importi saldosи, mamlakatdagи xorijiy kapitali korxonalar soni, ularda band bo'lganlar soni va boshqalar kiradi. Saldodan kelib chiqib, jahon xo'jaligi mamlakatlarini kuyidagicha guruhlash mumkin:

- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar (Yaponiya, SHveysariya);
- kapitalni import qiluvchi mamlakatlar (AKSH, Buyuk Britaniya);
- taxminiy muvozanatdagи mamlakatlar (Germaniya, Fransiya).

Boshka guruh ko'rsatkichlar esa kapitalni eksport-import qilish darajasiga bog'liq holda mamlakatlarning XKM dagi taksimlanishini aks ettiradi. Ular quyidagilardir:

1) Kapital importi koeffitsienti ( $K_{IK}$ ) - xorijiy kapital (XK)ning mamlakat YAIMdagi ulushini aks ettiradi:

$$K_{IK} = \frac{XK}{YAIM} \times 100\% \quad (10.1.1.)$$

Yevropa mamlakatlari ichida eng yukori ko'rsatkich Belgiya va Lyuksemburga tegishli.

2) Kapital eksporti koeffitsienti ( $K_{ek}$ ) - eksport qilinadigan kapitalni (EK) mamlakat YAIMga nisbatini aks ettiradi:

$$K_{ek} = \frac{EK}{YAIM} \times 100\% \quad (10.1.2)$$

Yevropa mamlakatlari ichida maksimal ko'rsatkich Niderlandiyaga tegishli.

3) Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalni ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkich:

$$K_{xk} = \frac{XK}{D(K)} \times 100\% \quad (10.1.3)$$

bu yerda:  $K_{ex}$  – ehtiyoj koeffitsienti, XK – xorijiy kapital, D(K) – mamlakatda kapitalga bo'lgan talab.

AQSHning kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarining 33foiz xorijiy kapital hisobiga qondiriladi.

4) Boshka nisbiy ko'rsatkichlar – milliy ishlab chiqarishda xorijiy yoki aralash kompaniyalarning ulushi, o'tgan davrga nisbatan kapital eksporti (importi)ni o'sish

sur'atlari, mamlakat aholisining har biriga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi va boshqalar.

Iqtisodiy samaradorlik - investitsiya uchun qo'yilgan kapitaldan foydalanilganligi uchun olingen foya, daromad tushunilsa, ijtimoiy-iqtisodiy samara esa investitsiyani ishlashidan olingen foydadan tashqari, kishilarning hayoti yaxshilanishi, tabiatni saqlash, ilmiy texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi ham tushuniladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baxolashda «iqtisodiy samara» va «iqtisodiy samaradorlik» atamalariga e'tibor berish lozimdir.

Iqtisodiy samara - qo'yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingen natijasi bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik esa olingen iqtisodiy samara eki investitsiya natijasida olingen foya bilan investitsiya miqdori o'rtaqidagi munosabatni bildiradi.

Iqtisodiy samara bu qo'yilma hisobiga olingen daromaddan qo'yilgan kapital summasi ayirilib topiladi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\mathcal{E} = \Pi - K \quad (10.2.1.)$$

bu yerda:

$E$  - iqtisodiy samara;

$\Pi$ - qo'yilgan kapitaldan daromad;

$K$ - qo'yilgan kapital summasi.

Iqtisodiy samaradorlik qo'yilgan investitsiyadan olingen foya, daromadni qo'yilgan kapital summasiga bo'lish orqali topiladi:

$$\mathcal{E}_1 = \frac{\Pi\phi}{K} \quad (10.2.2.)$$

bu yerda:

$E_1$  - iqtisodiy samaradorlik;

$\Pi$ - investitsiyadan foya;

$K$  - qo'yilgan kapital.

Mamalakat iqtisodiyoti miqyosida investitsiyaning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi mamalaktda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdorini mamalakt miqyosida kiritilgan investitsi miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

$$\mathcal{E} = \frac{YAMM}{K} \quad (10.2.3)$$

bu yerda:

$E$  - iqtisodiy samaradorlik;

$YAMM$ -yalpi milliy daromad;

$K$ - YAMMni yaratish uchun qo'yilgan kapitalning summasi.

Iqtisodiy samara vaqt funksiyasi hisoblanib, boshlanishida u salbiy ko'rinishda bo'ladi, chunki qo'yilgan kapitaldan hali daromad olinmagan bo'ladi. Vaqt utishi bilan

kapital kaytими bulgan sari daromad orta boradi va bu ijobiy natijaga erishiladi, ya'ni qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt o'tgan sari qo'yilgan kapital miqdoridan orta boradi.

Qo'yilgan kapitaldan olingan daromad vaqt utgan sari qo'yilgan kapitalga tenglashadi. Bu davr investitsiyani koplash davri deb ataladi. Bu ko'rsatkich iqtisodning ishlab chiqarish sohasiga qo'yilgan kapital qo'yilmaning samaradorligini kursatadi. Investitsiyani koplash davri kichik biznes sohasida 2-3 yil, uzoq muddatli qo'yilmalar esa 10-15 yilgacha davom etadi. Kapital qo'yilmalarini qoplash davrinining normativlari degan tushuncha mavjud bulib, bu iqtisodiyot tarmoqlarida qo'yilgan kapital qo'yilmalarning qoplash davrinining o'rtaча miqdori deb tushuniladi. O'rta hisobda investitsiyani qoplash davri qilib iqtisodiyotda 6-8 yil deb qabul qilingan.

Investitsiyaning milliy daromaddagi hissasi investitsiya normasi deb ataladi. Bu kuyidagi formula asosida hisoblanadi;

$$\text{ИИИ} = \frac{\text{ЯИС}}{\text{ЯММ}} \times 100\% \quad (1)$$

0.2.4.)

bu yerda:

*ЯИС*- yalpi investitsiya normasi;

*ЯММ*- yalpi investitsiya summasi;

*ЯММ*- yalpi milliy daromad.

Investitsiyaviy loyihaning (IL) tijorat (moliyaviy) samaradorligi - bu, ushbu IL-ni yuzaga keltiruvchi loyihami, uning ishtiroychilar maqsadlari va manfaatlariga muvofiqligini aks ettiruvchi kategoriyalidir.

Samaradorlik quyidagicha bo'lishi mumkin:

- loyihaning umumiy samaradorligi;
- loyihadagi ishtiroy samaradorligi.

Loyihaning umumiy samaradorligi ishtiroychilar uchun ularning manfaatdorligini aniqlash va moliyalashtirish manbalarini izlash maqsadida baholanadi. Samaradorlikning ushbu turi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi;
- loyihaning tijorat samaradorligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari IL amalga oshirilishining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini hisobga oladi.

Tijorat samaradorligi ko'rsatkichlari esa, ushbu loyihami amalga oshirayotgan ishtiroychi uchun moliyaviy natijalarini hisobga oladi. Bunda ushbu ishtiroychi loyihami amalga oshirish uchun lozim bo'lgan barcha xarajatlarni ko'tarishi va loyiha natijalaridan to'la foydalanishi ko'zda tutiladi.

Umuman olganda, loyiha samaradorligi ko'rsatkichlari texnik, texnologik va tashkiliy loyiha qarorlarini iqtisodiy nuqtai-nazardan tavsiflaydi.

Loyihadagi ishtiroy samaradorligi IL-ni amalga oshirilishi va barcha ishtiroychilar manfaatdorligini aniqlash maqsadida aniqlanadi.

Loyihadagi ishtiroy samaradorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning loyihadagi ishtiroki samaradorligi (ishtirokchi-korxonalar uchun IL samaradorligi);

- korxona aksiyalariga investitsiyalar qo'yish samaradorligi (ishtirokchi-aksiyadorlik korxonalar aksiyadorlari uchun IL samaradorligi);

- iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari, moliya-sanoat guruhlari, uyushmalar va xolding tuzilmlari uchun – tarmoq samaradorligi;

- IL-ning byudjet samaradorligi (barcha darajadagi byudjetlar xarajat va daromadlari nuqtai-nazaridan, loyiada davlat ishtiroki samaradorligi).

IL samaradorligini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda umuman loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu bosqichning maqsadi – loyiaviy qarolarning umumlashtirilgan tarzda iqtisodiy baholash va investor izlash uchun zarur bo'lgan qulay sharoitlarni yaratishdir. Lokal loyihalarga nisbatan faqatgina ularning tijorat samaradorligini baholanadi, va u qulay bo'lgan taqdirdagina, baholashning ikkinchi bosqichiga o'tish tavsiya qilinadi.

Sof diskontlangan daromad (SDD) va daromadlilikning ichki me'yori (DIM)ni hisoblash uchun investitsiyalardan olinadigan daromadni bilish lozim. Bu daromadni topish uchun esa, mahsulot (xizmat) narxini yoki boshqacha qilib aytganda investitsiyaviy qo'yilmalar natijalarining qiymat bahosini bilish lozim. Bundan kelib chiqqan holda, natijaning qiymat bahosi bo'limgan taqdirda, SDD va DIM ko'rsatkichlari yordamida loyihaning absolyut samaradorligini aniqlab bo'lmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, masala bunday qo'yulganda ham, SDD va DIM ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin. Gap shundaki, bunda ikki xil variant ko'rib chiqiladi: birinchi (loyiha) va ikkinchi (nollik muqobil) variantlar. Bunday yondashuvda daromad obyektni ekspluatatsiya qilish xarajatlarini tejash bilan almashtiriladi, nollik variant bo'yicha investitsiyaviy qo'yilmalar esa, nolga teng bo'lgandagina bunday yondashuv to'g'ri bo'ladi. Nollik variantdagi masala echimini ko'rib chiqaylik. Taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichidan foydalanamiz:

$$C_T = \frac{T_1 - T_2}{K_2 - K_1} \quad (10.2.5)$$

bu yerda:  $T_1$  va  $T_2$  – taqqoslanayotgan variantlar bo'yicha yillik mahsulot tannarxi.

$K_1=0$  ekan, unda taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichi  $E$ , absolyut samaradorlik ko'rsatkichiga aylanadi va uni rentabellik ( $R$ ) orqali belgilash mumkin, ya'ni:

$$R = \frac{X_1 - T_2}{K_2} \quad (10.2.6)$$

Haqiqatdan ham,  $K_1=0$  bo'lsa birinchi variant bo'yicha amortizatsiya ham nolga teng,  $T_2$  esa,  $X_1$ ga teng bo'ladi ( $T_1=X_1$ ). (X-xarajatlar).

Shunday qilib,  $(X_1-T_2)$  yillik tejashga olib kelayotgan  $K$  ( $K_2$ ,  $K_1=0$  da) kapital qo'yilmalari amalga oshirilmoqda. Kapital qo'yilmalar samaralimi yoki yo'qmi degan savolga quyidagi ko'rsatkich yordamida javob berish mumkin:

$$X_1 - T_2 > CK \text{ yoki } X_1 - T_2 - CK > 0 \quad (10.2.7.)$$

Haqiqatdan ham, agarda rentabellik kattaligini  $S$  bilan taqqoslansa, unda  $K_2$  samaradorligining sharti bo'lib  $R = \frac{(X_1 - T_2)}{K_2} > E$  xizmat qiladi.

Agarda obyektning xizmat muddati ( $T$ ) dagi joriy xarajatlar tejamini hisobga olsak, unda loyiha samaradorligi quyidagi tengsizlik bilan aniqlanadi:

$$\frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K > 0$$

$$\text{Obyekt xizmat ko'rsatish muddatidagi SDD: } CDD^T = \frac{(1+C)^T - 1}{(1+C)^T \cdot C} \cdot (X_1 - X_2) - K$$

Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlash uchun o'rtacha yillik sof daromad (annuitet) dan ham foydalanish mumkin. Annuitet yillik tejam kattaligidan kichik bo'lmasa, kapital qo'yilmalar varianti samarali hisoblanadi.

$$(X_1 - X_2) - K > K \frac{C(1+C)^T}{(1+E)^T - 1} \quad (10.2.8.)$$

Loyiha samaradorligi darajasini esa, DIM ko'rsatkichi yordamida aniqlash mumkin.  $SDD^T=0$  dagi daromadlilik – bu DIMdir.

Pul oqimi unsurlarining har xil vaqtida paydo bo'lishi munosabati bilan ularni o'zaro taqqoslash muammosi tug'iladi. Chunki, har xil vaqtida olingan bir xil pul summalarini teng qiyamatli deb bo'lmaydi. Biznesning "oltin" qoidasiga muvofiq: bugungi pullar ertaga olinadigan pullardan qimmatliroqdir.

Moliyaviy tahlillarda vaqt omilini hisobga olishga bo'lgan turli yondashuvlar qo'llaniladi. Eng tarqalgan uslub bu kelajakdag'i ne'matlardan hozirgisi afzalliroq ekanligining nisbiy darajasini aks ettiruvchi va taqqoslovchi funksiya uslubidir. Amaliyotda, ko'p hollarda ushbu maqsad bilan murakkab foizlar ko'rinishidagi funksiya qo'llaniladi. Bunday yondashuvda pullarning joriy va kelajakdag'i qiyamatlari murakkab foiz formulasini bilan o'zaro bog'langan:

$$S_n = S_0 - (1 + r)^n \quad (10.2.9.)$$

bu yerda:

$S_n$  – pul mablag'larining joriy summasi;

$S_0$  – n ta bir xil vaqt oraliqlaridan keyingi pul mablag'larini summasi (pullarning qo'shilgan summasi);

$r$  – bir vaqt oralig'idagi daromadlilik stavkasi (foiz stavkasi).

Buning ma'nosi shundaki, agarda  $r$  yillik daromadlilik stavkasiga ega bo'lgan ishga  $S_n$  so'm pul qo'yilsa, unda  $n$ -yildan so'ng biz  $S_n$  so'm pulga egalik qilishimiz mumkin bo'ladi. Va aksincha, joriy vaqtga keltirilgan,  $S_n$  kelajakdag'i pul summasining real qiyamti, quyidagi formula bo'yicha baholanadi:

$$S_n = S_n \cdot dm_n \quad (10.2.10.)$$

bu yerda:

$d m_n$  – diskont ko'paytiruvchisi;

$r$  – stavkasi bo'yicha,  $n$  davriga tegishli bo'lgan diskont ko'paytiruvchi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$dm_n = 1/(1+r)^n$$

(10.2.11.)

Demak, kelajakdag'i daromadlarni joriy vaqt davriga olib kelish jarayoni diskontlash deyiladi, ya'ni, bugungi olingen bir so'm, bir yildan so'ng olinadigan bir so'mdan yanada Yuqoriroq baholanishini aks ettiradi. Buning sababi faqatgina inflasiya ermas, balki daromadlarni ko'paytirishning turli imkoniyatlari mayjudligi va ulardan voz kechish kelajakdag'i muayyan pul summasini yo'qotish bilan tengdir. Diskont me'yorini tanlash investitsiyaviy tahlilning murakkab muammosidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida diskont me'yori birinchi navbatda korxona pul resurslarini ishlatalish bo'yicha alternativ investitsiyaviy imkoniyatlarni aks ettirishi lozim.

Diskontlash operatsiyasi investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholashda keng qo'llaniladi, chunki u vaqtning turli davrlariga tegishli daromad va xarajatlarni taqqoslash imkonini beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xulosa qilib shumi ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston-da kiska vaqt ichida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yutukdarga erishildi, ammo ushbu ijobjiy tendensiyani yanada jadallashtirish, xorijiy investitsiyalar xajmi va kula-mini kengaytirish kabi vazifalar islohotlarning pirovard maqsadi ekan, ularga to'sqinlik qilayotgan muammo-larni bartaraf etish lozim bo'ladi. Shubha yo'qliki, O'zbe-kis-ton Respublikasi nihoyatda ulkan iqtisodiy salohi-yatga egadir va undan unumli foydalananish bozor islohotla-rini chuqurlashtirish yo'lidagi eng muhim vazifalardan bo'lib qolishi kerak.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Chet el investitsiyalarini jalb etishning maqsadi nimadaq Ularni jalb etishning salbiy va ijobjiy tomon-lariga baho bering.
2. Xorijiy invesphiyalarning qanday turlarini bilasizq
3. Qushma tadbirdorlik nima va u milliy iqtisodiyot-ning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadiq
4. Juhon amaliyotida chet el investitsiyalarini jalb etish qanday usullar bilan rag'batlantiriladiq
5. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz va uning baholash mezonlari qandayq
6. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashishi va koo-peratsiyalashishining shakllarini tushuntirib bering.
7. Chet el investitsiyalarini jalb etishning rivojlan-gan, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi xususiyatlarini yoritib bering.
8. Juhon tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatda qo'shma tadbirdorlikni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladiq
9. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish mexanizmi va tashkiliy-xukukiy asoslariiga tavsif bering.
- 10 O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kura kaisi korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalar maqo-mini olishi mumkinq

**11. Mamlakatimizda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qanday imtiyozlar mavjud va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimadaq**

**Asosiy adabiyotlar**

1. B.I.Bashkatov, B.T.Ryabushkin. Praktikum po natsionalnomu schetovodstvu. Ucheb. posobie – M., 2014 g.
2. Pod red. B.I.Bashkatova. Natsionalnoe schetovodstvo. Uchebnik. 2014 g.
3. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. europa.eu.int
5. europa.eu.intG'commG'relaysG'index\_en.htm
6. www.euireland.ie
7. www.cec.org.uk
8. www.eurunion.org
9. www.europarl.ie

## **XI bob. BMTning XALQARO TURIZM STATISTIKASI BO‘YICHA TAVSIYALARI**

### **11.1. Xalqaro turizmni statistik o‘rganishning iqtisodiy mohiyati va mazmuni**

Xalqaro turizm xizmatlari xalqaro ayirboshlash qismi hisoblanadi. Davlatlararo muloqotlarning rivojanishi bilan xizmatlar sohasi alohida mamlakatlar doirasidan chikdi va tashqi iqtisodiy aloqalarning eng muhim shakl-laridan biriga aylandi. Uning moliyaviy natijalari alo-hida mamlakatlarning tulov balanslari yakuniga borgan sari ko‘proqta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon savdosining deyarli 1/4 qismini uning ko‘rin-mas deb nomlanadigan moddalari tashkil etadi va ular to-varlar bilan xalqaro savdoga qaraganda ancha tez usadi, bu-ning ustiga o‘sish sur’atlari tezlashmoqda. Ko‘rinmas rnoddalar bo‘yicha savdoning o‘sishi shu jihat bilan qiziqarlik, u Hatto jahon iqtisodiyotidagi buhron hredisalari kuchayishi munosabati bilan jahon tovar oborotining o‘sish ko‘lam-lari pasaygan davrda ham sodir bo‘lgan.

Xalqaro xizmatlar sohasi tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonida shakli bo‘yicha ham, o‘zining ijtimoiy-iqtiso-diy mazmuni bo‘yicha ham tovar almashishga xizmat ko‘rsat-shi, sarmoya harakatlanishi va mazkur mamlakat xorijiy valyutada tushum va to‘lovlarga ega bo‘lgan boshqa faoliyat turlari bo‘yicha eng xilma-xil joriy operatsiyalarni birlash-tiradi. Bunga, birinchi navbatda, xalqaro turizm, transporta tashishlar, sug‘urta operatsiyalari, bank faoliyati va xorijiga kapital qo‘yish bilan bog‘langan xizmatlar hamda ko‘p sonli boshqa operatsiyalar madaniyat sohasida almashish, axborot, ekspert va boshka xizmatlar kiradi.

Xalqaro xizmatlarning eng salmoqli tarkibiy qismla-ridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatning o‘suvchan sohasini taqdim etuvchi, jahonning ko‘plab mamlakatlarida kat-ta biznesning gurkirab o‘suvchi jabhasiga aylangan **xalqaro turizm** hisoblanadi. Turistik biznes ulushiga jahon yalpi milliy mahsulotining saltam 6foizi, summar sarmoya qo‘yilmalarining 7 foizi, jahon iste’mol xarajatlarining 11 foizi va barcha soliq tushumlarining 5 foizi to‘g‘ri keladi. 1995 yilda jahondagi har bir 16-ish o‘mi turizmga to‘g‘ri kelar edi. Xalqaro turizmnning ulushi jahon eksportining saltam 7 foizini tashkil etadi, bu esa eksportdan tushgan daromadlar summasida turizm neft va neft mahsulotlarini eksport qilishdan va avtomobilarni eksport qilishdan daromadlardan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi demak-dir (13-jadvalga qarang).

2000- yilda Umumjaxrn turistik tashkiloti tomonidan 696,7 mln. turistik tashriflar kayd etildi, ulardan olinadigan daromad bir yilda 4 foiz ko‘payib, 474,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa turizmnning jahm xo‘jaligining yetakchi jabxalaridan biri aylanishi yo‘lida qo‘yilgan katta kadamni anglatadi. U hatto ayrim noqulay siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga karamay, jadal rivojlanishini davom ettirmoqda (14-jadvalga qarang). Umumjahon turistik tashkilotining prognozlariga Karaganda, jahon yalpi milliy maxsulotini yaratishda turizmning salmog‘i 2005- yilda 12-14 foizga yetadi.

Turistik biznes tadbirdorlarni ozginagina boshlang'ich investitsiyalar, ularning tez qoplanish muldatlari, turizm xizmatlariga doimiy talab, ishlab chiqarish xarajatlari ren-tabelligining yuqori darajasi bilan jalb etadi. Iqtisodiyot rivojlanishining muayyan bosqichnda sayohat qilishga ehtiyoj keskin oshganda, ana shunday sayohatlar uchun xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar ham paydo bo'lishdi. Bu alohida turdag'i tovar — turizmning shakllanishiga olib keldi.

Shunday qilib, avval turizm iste'molchilar bozorida sotib olish va sotish mumkin bo'lgan tovar sifatida vujudga keldi. Turizm tovar sifatida xizmatlar (moddiy va nomoddiy) shaklida sotiladi. Turistlarga (sayohat qilayotgan kishilarga) xizmat ko'rsatish uchun mo'ljalangan xizmatlarni ishlab chiqaruvchnlar «turizm» sohasiga birlashishdi. Turizm birinchi hayotiy zarur tovar hisoblanmaydi, shuning uchun insonning faqat uning daromadlari muayyan darajada va jamiyatning boyligi muayyan da-rajada bo'lganda zaruriy extiyoji bo'ladi.

13-jadval

### Mintaqalar bo'yicha xalqaro turizmdan kelib tushgan daromadlar

Mintaqalar	AQSH dollarini hisobida		yevro hisobida		Bozordagi ulushi(foiz)	
	Milliard		Bitga turistdan kelgan daromad	Milliard		
	2017	2018				
Jahon bo'yicha	474,4	462,2	670	513,8	516,1	750
Afrika	10,9	11,7	420	11,8	13,1	460
Shimoliy Afrika	3,7	4,2	400	4,0	4,7	450
G'arbiy Afrika	1,1			1,2		0,9
Markaziy Afrika	0,1			0,1		
Sharqiy Afrika	2,6	2,7		2,8	3,0	
Janubiy Afrika	3,4			3,7		0,6
Amerika	132,8	122,4	1,010	143,7	136,7	1,130
Shimoliy Amerika	101,0	91,3	1,070	109,4	101,9	1,200
Karib mintakasi	16,8	16,9	1,000	18,2	18,9	1,120
Markaziy Amerika	3,1	3,2	720	3,3	3,6	810
Janubiy Amerika	11,8	11,0	760	12,8	12,3	850
Sharqi Osiyo va Tinch okeani	81,4	82,0	710	88,1	91,6	800
SHimoli-SHarkiy Osiyo	41,1	43,1	660	44,5	48,1	730
Janubi-Sharqiy Osiyo	26,5	25,6	640	28,7	28,6	7/10
Okeaniya	13,8	13,3	1,410	14,9	14,9	1,580
Yevropa	233,0	230,1	570	252,2	257,0	640
Shimoliy Yevropa	34,6	30,4	720	37,4	34,0	810
G'arbiy Yevropa	80,7	80,1	570	87,4	89,4	640
Markaziy/Sharqiy Yevropa	26,1	27,2	360	28,3	30,4	400
Janubiy Yevropa	78,2	79,3	620	84,7	88,6	690
						17,2

Yevropaning Sharqiy O'rta Er dengizini mintakasi	13,3	13,1	890	14,5	14,6	1,000	2,8
YAqin Sharq	11,5	11,2	500	12,5	12,6	560	2,4
Janubiy Osiyo	4,9	4,7	820	5,3	5,2	910	1,0

*Manba: Umumjahon Turistik Tashkiloti (WTO).*

**Turizm odamlarning turli turistik yo'nalishlar bo'yicha harakatlanishi natijasidir:**

- turizm har doim ikki elementni o'z ichiga oladi: ta-yinlangan joyga sayohat va u yerda to'xtash;
- turizm — turistning turistik yo'nalish bo'yicha vaqtinchalik harakati, ya'ni turist qanchadir vaqtidan keyin o'zi-ning doimiy yashash joyiga qaytadi;
- turizm — fonda olish bo'yicha faoliyatni o'ziga olma-gan sayohatdir.

Turizm aholining bir mintaqadan (tuman, shahar, mam-lakat) boshqasiga, agar u yashash joyi yoki ishi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmasa, vaqtinchalik ko'chishi bilan tavsifla-nadi. Turizm — dam olish, davolalish, madaniy, ilmiy yoki amaliy uchrashuvlarda ishtirok etish maqsadida sayohat qilish bilan bog'liq halovatdir.

Turizmda ehtiyojni tug'diradigan omillar uchta aso-siy guruhga kiritilishi mumkin: ma'rifiy, mintakaviy, iqtisodiy.

*14-jadval*

**Turistlar ogimining mintaqalar bo'iicha taqsimlanishi**

Mintaqalar	2017 yil			2018 yil			
	Mln. kishi	O'sish (foiz)		Mln. kishi	O'sish (foiz)		O'tgan yilning shu davri bilan taq-koslaganda
		2000/ 1999	O'rtacha 1990-2000 yillarda		2001/ 2000	Yanvar- avgust	
Jahon bo'yicha	696,7	6,8	4,3	692,7	-0,6	2,9	-8,6
Afrika	27,2	3,4	6,1	28,2	3,8	6,1	-1,4
Shimoliy Afrika	10,1	6,8	1,8	10,6	4,8	11,2	-10,0
G'arbiy Afrika	2,7	6,4	7,0	2,8	6,9		
Markaziy Afrika	0,5	7,9	3,8	0,6	9,9		
Sharqiy Afrika	5,8	-1,1	7,3	6,0	3,8		
Janubiy Afrika	8,1	1,7	15,0	8,2	1,2		
Amerika	128,4	5,0	3,3	120,8	-5,9	0,3	-20,4
Shimoliy Amerika	91,2	4,9	2,4	85,0	-6,8	-0,1	-22,6
Karib mintaqasi	17,4	6,9	4,3	16,9	-3,0	2,0	-14,5
Markaziy Amerika	4,3	8,9	9,0	4,4	1,8	8,8	-14,6
Janubiy Amerika	15,5	2,3	7,0	14,5	-6,2	-2,2	-15,6
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	109,1	12,7	7,2	115,1	5,5	9,6	-4,2
Shimoli-Sharqiy Osiyo	62,5	13,2	8,4	65,6	5,0	6,7	0,9
Janubi-Sharkiy Osiyo	37,0	13,0	5,6	40,1	8,3	15,4	-8,2
Okeaniya	9,6	8,9	6,7	9,4	-2,1	6,4	-22,0

Yevropa	402,7	5,8	3,6	400,3	-0,6	1,8	-6,2
Shimoliy Yevropa	44,2	1,2	4,3	42,0	-4,8	-3,8	-7,3
G'arbiy Yevropa	141,2	4,0	2,2	140,2	-0,7	2,3	-7,7
Markaziy/Sharqiylig Yevropa	76,1	4,0	5,7	75,8	-0,3	2,8	-7,6
Janubiy Yevropa	126,6	8,8	3,6	127,6	0,8	2,0	-1,9
Yevropaning Sharqiylig O'rta Yer dengizi mintaqasi	14,7	26,2	7,1	14,7	-0,1	7,2	-17,2
Yaqin Sharq	23,2	13,2	10,0	22,5	-3,1	0,4	-11,4
Janubiy Osiyo	6,1	5,4	6,8	5,7	-6,3	1,4	-24,4

*Manba: Umumjahon Turistik Tashkilotining 18.06.2019-yildagi ma'ruzasi  
(www. WTO.org).*

Tarixiy-madaniy diqqatga sazovor joylarga tarixiy va arxeologik yodgorliklar, muzeylear, badiiy galereyalar, te-attrilar va boshqa obyektlarni kiritish lozim.

Aloxida qiziqishni etnofafik jihatdan diqqatga sazovor sifatida tavsiflanadigan urf-odatlar, kiyim-kechak, taomlar va xalq ijodining boshqa ko'rinishlari uyg'otadi.

Xo'jalik yuritishdag'i diqqatga sazovor narsalarga xo'jalikni yuritishning o'ziga xos shakllarini kiritish lozim.

Mintaqaviy omillar guruhiga mintakaga turistlarning ke-lishlari uchun sabab bo'la oladigan mazkur mintaqadagi voqealar, masalan, teatr va musika festivallari, kinofestivallar, turli turdagi sport musobaqalari (olimpiyadalar, ezgu xohish o'yinlari, spartakiadalar, sport kurashlari va hokazo), yarmarkalar, karnavallar, ko'rgazmalar va hokazolar kiradi.

Turizm ichki va xalqaro bo'ladi. Xalqaro turizm ishtirokchisi xorijlik turist deb ataladi.

«Xorijlik turist» atamasi (xalqaro shartnomalarda — oddiygina «turist») hozirgi vaqtgacha tugamagan uzoq evolyusiyani bosib o'tdi.

BMT bir necha bor xorijlik turist ta'rifini ko'rib chikdi. BMTning 1963 yildagi Xalqaro turizm va sayohatlar bo'yicha Rim konferensiysi tomonidan ifodalangan ta'rifga ko'ra, xorijda bo'lgan talabalar va o'quvchilar ham turist hisoblanishadi.

Turistlarning quyidagi asosiy guruhpasi belgilangan edi:

— yig'ilishlar, qurultoylarga (ilmiy, ma'muriy, sport va boshqa) boradigan fuqarolar;

— xizmat ishlari bo'yicha boradigan fuqarolar.

Quyidagilar:

— mamlakatga ishga joylashish uchun shartnoma tuzib yoki

— shartnomasiz keladigan fuqarolar;

— mamlakatda doimiy yashash uchun qoladigan fuqarolar;

— chegaraning bir tomonida yashaydigan, ikkinchi tomonida esa ishlaydigan chegara tumanlari ahrilisi turist deb hisoblanmaydi.

Biroq ko'plab davlatlar xalqaro darajada «turist» atamasining aniq va bir turdagi izohini ishlab chiqmagan va shu bilan xalqaro turizm sohasida o'zlarining hamkorligi to'g'risida xalqaro shartnomalar va bitimlar mavzuini aniklashmagan.

Turizm xizmati umuman xizmat kabi foydali samarada ifodalananadigan muayyan iste'molchilik harakatidir, u, odatda, namoyon bo'lganda insonning u yoki bu

ehтиojini qondiradi. Bunda xizmat buyum, ya'ni buyum (tovar) yordamida yoxud jonli mehnatning o'zining faoliyat ko'rsatishi jarayonida ko'rsatilishi mungkin.

Xizmatlar ishlab chiqarishining ko'rsatilgan ikki usuli xizmatlarning o'zining ham ikki turini shartlaydi. Bi-rinchи xizmat turi — bu shunday xizmatlarki, buyumda bevo-sita ifodalanib, iste'mol tovarlari bilan daxldordir. Bu turdagи xizmatlarni ko'rsatish o'zining mazmuniga ko'ra moddiy ishlab chiqarishdagi mehnat jarayonidan farqqilmay-di, unga aynan o'xhash, sababi bu yerda mehnat jarayonining barcha beshta element yaqqol: mehnat vositalari, mehnat pred-metlari, mehnatning o'zi (ya'ni insонning maqsadga yo'naltirilgan faoliyat), texnologiya va tashkil etish. Bu birinchi turdagи xizmatlarni moddiy (ishlab chiqarishga doyr) deb atashga asos beradi. Turist uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar xizmatning ushbu turiga misol bo'lib hisoblanadi.

Iste'mol qiymati sifatida mexnat odamlarning aniq ehgi-yojini qondiradi. Bunday xizmatni iste'mol qilish boshkashunday tovar kabi shu mehnat beradigan alohida iste'mol qiymatini anglatadi. Ushbu mehnatning mazkur iste'mol qiymati xizmat deb ataladi, chunki mehnat xizmatni buyum sifatida emas, balki faoliyat sifatida ko'rsatadi.

Nomoddiy xizmatlar ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lган jamoat mehnati xarajatlariga ekvivalent qiymatga ham eta.

Nomoddiy xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida ham aniq mehnat, ham mavhum mehnat sarflanadiki, u bilan ularning ham iste'mol qiymati, ham qiymati yaratiladi.

Turistik xo'jalik yurituvchi sybyektning butun faoli-yati turistlarga turli xil xizmatlarni taqdim etish bilan bog'liq. Turistlar turizm xizmatlarini ishlab chiqarish va ushbu xizmatlarni sotishni amalga oshiruvchi xujalik yurituvchi sybyektlar ishlab chiqaradigan xizmatlar iste'molchilari bo'lib maydonga chiqadi.

Xizmatlarni iste'mol qilishni sotish va tashkil etish jarayonida turistlarga xizmat ko'rsatish sodir bo'ladi, chunki iste'molni sotish va tashkil etish bo'yicha faoliyat — xizmat ko'rsatish jarayonidir. Ushbu uchta funksiyaning mavjudligi xo'jalik yurituvchi barcha turistik sybyektlarni yagona soha — turizmga birlashtirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtgacha xalqxo'jaligi sohalarining amaldagi tasniifa turizm aniq ishlab chiqarish va ijtimoiy-istsidiy maqomga ega emas. Bu hozirgi zamonda bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishi sharoitlarga jamoat ishlab chiqarishi tasnifiy chizma qurilishining sohaviy tamoyi-lı nomuvofigidagi natijasidir.

Jamoat ishlab chiqarishining diversifikatsiyasi o'sishida sohaning jamoat ehtiyojlarini kmdirishdagi funksional roli uning mezoni bo'ladi. Shuning uchun aholining iste'mol vositalariga (birga olingan tovarlar va xizmatlar) ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy sohalar tarkibida turizm kiradigan ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning sohaviy majmui ajratiladi. Sohaning mezoni mahsulotning predmetligi emas, uning ahamiyati bo'ladi. Shuning uchun ham iste'mol predmetlari (oziq-ovqat, yodgorliklar va hokazo), ham xizmatlar (mehmonxonada joyla-shish, xizmat ko'rsatish va hokazo) ishlab chiqariladigan turizm bu ma'noda yagona funksional mezonga ega.

Turizmning xalq xo'jaligi majmui sohalari tarkibidagi o'mini quyidagi pozitsiyalardan baholash kerak:

Turizm yangi moddiy qiymat yaratadi va uni xizmatlar shaklida sotadi hamda turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha nomoddiy xizmatlarni bajaradi va sotadi, shuning uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funksiyalariga ega.

Turizm sohasida sodir bo'ladigan xo'jalik jarayoni ishlab chiqarish-xizmat ko'rsatish jarayoni hisoblanadi.

## 11.2. Turistik eksport, import va turistik bozor tushunchasi va mazmuni


Turizmni tovar singari mamlakatga import qilish va undan eksport qilish mumkin.

Jahon turistik tashkiloti tomonidan kuyidagi ta'riflar qabul qilingan: turistlarni etkazib beruvchi mamlakatlar va turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar.

Turizm xizmatlarini sotish uchun to'lovlardan, ya'n pul oqimlari qabul qiluvchi mamlakatga tushtanda, bu turizmni eksport qilishni anglatadi. Xorijlik turist bu mamlakatga kelar ekan, qabul qilayotgan taraf unta taqdim etadigan o'zining pullarini o'z turistik extyojlarini krndirishga sarflaydi. Demak, turistlarni qabul qilayotgan mamlakat turistik maxsulotlarni eksport qiladi va turistning pullari uning hududida qolib ketadi. Bir vaqtning o'zida bu turist pul olib chiqadigan mamlakat uchun turistik importni anglatadi.

Bu turistik eksportning muxim xususiyati va uning tovarlarni eksport qilishdan farqidir, chunki tovarlarni eksport qilganda pul oqimi qarama-qarshi yo'nalishda harakat qiladi (5-chizma).

5-chizma



Xizmatlar savdosi to'g'risidagi bosh bitimiing (GATS) 1-moddasida «xizmatlar savdosi» tushunchasi bor, unda bir mamlakatning hududida iste'molchiga savdo vositasida ikkinchi mamlakat xizmatlarini taqdim etish (ya'ni turizmga nisbatan qo'l lani I ganda — mamlakatga kelayotgan xorijlik turistlarga xizmatlar) tashqi iqtisodiy eksport deb tan olinadi devilgan, chunki ushbu holda oluvchi mamlakat fuqarolari tomonidan xizmatlarni yetkazib beruvchi mamlakat hududida xizmatlarni iste'mol qilish o'mni bor.

Bunda shu narsani nazarda tutish kerakki, ko'rsatilgan bitimlar har doim ham bir joyning o'zida bo'lmaydi, masalalar, mehmonxonada turistlarni qabul qilish joyida yoki turoperatorlar bitimlari sodir bo'ladigan joyda. Bitim turizm xizmatlari sotuvchisi va xaridorini bevosita jalb etmay tuzilishi mumkin. Masalan, teleks, telegramma, faks

orkali, telefon qo'ng'irog'i yordamida yoki chek bo'iiicha. Buning sababi bo'lib turistik bozor maxsus joy yoki geografik zona bilan cheklanmagani hisoblanadi.

**Turistik bozor** — bu turizm xizmatlarini (turlar, turistik mahsulot) sotishning ijtimoiy-iqtisodiy sharo-itlaridir. Turistik bozorda turizm xizmatlariga turist taqdim etadigan talab va turistik firma tomonidan turizm xizmatlari taklifi to'qnash keladi.

Turizm xizmatlari ishlab chiqaruvchilari — bu turistik firmalardir (turopertatorlar, turagentlar), ular fonda olish maqsadida va turistlarning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydi.

Turistik industriya o'zida mehmonxonalar va joylashishning o'zga vositalari, transport vositalari, umumiy ovqat-lanish obyektlari, ko'ngil ochish obyekt va vositalari, ma'rifiy, amaliy, sog'lomlashtirish, sport va o'zga ahamiyatda-gi obyektlar, turopertatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hamda ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatlarini taqdim etadigan tashkilotlarni jamlaydi.



#### 6-chitma. Turistik bozoming ikki siklliligi.

Turizmga bo'lgan talab turistlarning talab ko'rsatuvchi sifatida muayyan shart-sharoitlari bilan shartlangan: turistik ehtiyojli va sayohat qilish xohishi bor odamlar; talabi eng nufuzli turlarga, original sayohatlarga, turistik xizmat kursatishning yuqori darajasiga qaratilgan (komfort, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning alohida e'tibori, individual gid-tarjimon va avtotransportning be-rilishi va hokazo) yuqori xarid qobiliyatiga eta odamlar; xarid qilish xulqi xos bo'lgan odamlar. Turist — bu turizm xizmatlari xaridori. Turistning xarid qilish xulqi uni reklamaga muayyan tarzda

munosabat bildirishga maj-bur etadigan barcha tabiiy, ruhiy, ijtimoiy va boshqa sabablarga tegishli. Bu turistik bozorming samarali faoliyat ko'rsatishi juda muhim omildir. U turistik bozorni alohida sektorlarga bo'lishni talab etadi, ularni o'rganish turizm xizmatlariga taklif va talabni eng maqbul qo'shish-ga erishishda yordam beradi.

Turistik bozor istalgan mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan ikki siklliligi bilan tavsiflanadi (6-chizma). Bu shu narsa-da ifodalananadi, Yuqori darajada rivojlantaran turistik bozor davlatni boyitishga olib boradi va aksincha.

Turizmning rivojlanayotgan iqtisodiyoti turistlarning barcha ehtiyoj va xohishlarini qondirish imkoniyatlariga ega emas. Turistik resurslarning nulligi turizmning ancha murakkab va ko'p qirrali moddiy-texnik bazasini yaratish-ni nazarda tutadi. Turistik industriyadan iqtisodiy samarani oshirishda daromadning bir qismidan yangi turistik ehtiyojlarni qondirish uchun foydalaniadi, ikkinchi kis-mi esa iqtisodiyotning boshqa sohalari, jumladan, sanoat-ni ham rivojlantirish uchun yo'naltirilishi mumkin.

Turizmning iqtisodiy faolligi uning tarkibiy soha-lari rivojlanishi bilan bevosita bog'langan. Turizm ri-vojlanishining muhim omili ijtimoiy barqarorlik hisoblanadi, chunki turizm butun iqtisodiyotning rivojlanishi va mamlakatdagi siyosiy ahvolga bog'liq. Bundan tashqari, turizm shakllaridan ko'pchiligi turistik xizmatlarga mavsumiy talab bilan bog'langan.

Turizmni bir tomonlama rivojlantirish mumkin emas. Turizmning tez kjsaltirilishi uchun mamlakat iqtisodiyoti barcha tarmoqdarining uyg'un rivojlanishi va bir vaqtda ular iqtisodiy faolligining ko'payishi talab etiladi.

### **11.3. Turizmning shakllari va turlari statistic o'rganish**

Turizm faoliyat ko'rsatishining iqtisodiy samaradorligi ko'p tomonidan uning shakllari tasnifi bilan belgilanadi.

**Turizm shakllari tasnifi** deganda, ularning muayyan amaliy maqsadlarga bog'liq bo'lgan bir turdag'i guruhlarini tushunish lozim.

Turizm shakllaridan har biri turistlarning o'ziga xos ehtiyojlari bilan tavsiflanadi va bu ehtiyojlarni qondiruvchi tegishli xizmatlar to'plamini nazarda tutadi.

Turizm shakli turist o'z mamlakatinining davlat chegarasini bosib utishi bilan bog'langan, ya'ni turizmni shakllarga bo'lish asosida mamlakatga oid alomat yotadi.

Ushbu alomatiga kura, turizmning ikki shaklini ajratishadi: ichki va tashqi.

**Ichki turizm** — o'z mamlakatinining ichida mahalliy turizm, shu yerda doimiy istiqomat qilayotgan shaxslarning o'z mamlakati chegaralaridagi sayohati.

**Xalqaro turizm** — bu boshka mamlakatga turizm, ya'ni xorijiy turizm. U kirish va chiqishli bo'ladi. Chiqish turizmi — bir mamlakatda doimiy yashovchi fukarolarning ikkinchi mamlakatga sayohati. Kirish turizmi — muayyan mamlakat chegaralarida bu yerda doimiy yashamaydigan shaxslarning sayohati. Xalqaro turizm ko'plab omillar ta'sirida rivojlanadi, ularni uch guruhga kiritish mumkin: demofafik, iqtisodiy, ijtimoiy.

**Demografik omillarga** jahon aholisining o'sishi, aholining to'planishi va hayotning harakatchan stereotipiga olib keladigan urbanizatsiya jarayoni kiradi. Yirik shaharlar aholisi jismoniy va ma'naviy kuchlar sarflarini tiklash uchun muhitni

o‘zgartirish zaruriyatini keskin his etishadi. Umumiy qardosh tilga ega turli mamlakatlar xalqlarining bir-birlariga qiziqishi oshadi, bu, avvalambor, til to‘sig‘ining yo‘qligi, tarix va madaniyat-ning umumiyligi bilan bog‘langan.

**Iqtisodiy omillar** jahon iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog‘langan bo‘lib, bu yerda tovarlar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda xizmatlarni ishlab chiqarish ko‘payishi tamoyili va buning natijasi sifatida aholining umumiy iste’moldida xizmatlarni (shu jumladan, turizm xiz-matlarini) iste’mol qilish ulushining ko‘payishi kuzatilmoqda. Iqtisodiy omillarga turizm tarmog‘ida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallahishi, aholi daromadlarining ko‘payishi kiradi. Xorijiy turizm moddiy-texnik bazasi-ning rivojlanishi, turistlarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatishning yangi shakllarini yaratish turistik harakat-larni intensivlashga, yangi joylarning rekreatsion sohasi-ga jal b etishga ko‘mak beradi.

**Ijtimoiy omillar** — insонning hayot sharoitlari va faoliyati bilan bog‘langan omillar. Xalqaro turizmnning rivojlanishiga haq to‘lanadigan ta’til davomiiligining ko‘payishi hamda yil davomila ikki marta sayohat (yozda va qishda) qilish imkonini beradigan ta’tilni ikkiga bo‘lish bevosita ta’sir qiladi. Turizmning rivojlanishiga pensiyaga chiqish yoshini kamaytirish ham ko‘maklashadi, bu esa umrning oshishi hisobiga uchinchı yoshda deb nomlanmish turistlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Turizm turi mamlakat yoki uning mintaqasi byudjetida moliyaviy natijalarni aks ettirish spetsifikasi bilan bog‘langan. Mazkur alomatga ko‘ra turizm shakllarida uning ikki turi ajratiladi: faol va passiv.

Mamlaka turi xorijiy turistlari yoki mazkur mintaqaga mahalliy turistlarning kelishi faol turizm hisoblanadi. Faol turizm mazkur mamlakat yoki mintaqaga pul (valyuta) olib kirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bir mamlakat fuqarolarining boshqa davlatlarga sayohat qilishi yoki turistlarning mazkur mamlakat mintakasidan chiqishi passiv turizm hisoblanadi. Passiv turizm mazkur mamlakat yoki mintakadan pul (valyuta)ni olib chiqish omili hisoblanadi.

Sayohatning asosiy maksadidan kelib chiqib, turizmning kuyidagi turlari ajratiladi: rekreatsion, ma’rifiy, ilmiy, amaliy.

Rekreatsion turizm — dam olish, sog‘lomlashtirish va davolanish maqsadidagi turizm. Bunda fuqarolarning sana-toriylarda bo‘lishi (kasallik varaqasi bo‘lgan va bo‘lmagan taqdirda ham) turizmga kirmaydi, chunki mazkur holda sanatoriylar — kasalxonaning bir turidir. Odamlarning dam olish kunlari hordiqchiqarish, xursandchilik qilish, sport bilan shug‘ullanish maqsadida harakat qilishi «hafta oxi-ri» turizmi deb ataladi.

Ma’rifiy yoki madaniy turizm — muayyan dasturga ko‘ra tarixiy-madaniy diqqatga sazovor joylar va noyob tabiyi obyektlar bilan tanishish maqsadida sayohat qilishdir.

Ilmiy turizmda kongresslar, simpoziumlar va hokazolarga tashrif buyurish ustun bo‘lib, bunda u odatda ekskursion safarlar bilan tugaydi.

Sayohatni tashkil etish tavsifiga ko‘ra individual, gu-ruhli, uyushgan va tashabbuskor (uyushmagan), statsionar va ko‘chma turizmga ajratishadi.

Bir kishining tumanlarni ko‘rish, to‘xtashlar davomiyligi, yotoq sharoitlari va hokazolar ta’rifini o‘z ichiga olgan shaxsiy rejaga ko‘ra sayohati individual sayohat

deb ataladi, xuddi o'sha sharoitlarda yoki turistik xo'jalik yurituvchi sybyekt rejasiga ko'ra odamlar guruhi (shu jum-ladan, oilaning ham) saexati guruhli turizm deb ataladi.

Bir turist yoki turistlar guruhining turistik xo'jalik yurituvchi sybyekt belgilagan aniq yo'nalish va reglamentga ko'ra sayoqati uyushgan turizm deb ataladi. Mazkur turistlar va turistik xo'jalik yurituvchi sybyekt o'zaro bir-biriga nisbatan talab va majburiyatlar bilan boglangan.

Uyushgan turistlar muayyan muddatga oldindan sotib olingan yo'llanma bo'yicha turistik xizmatlar majmui bilan ta'minlanadi (turbazalarda, sanatoriylarda, dam olish uyla-rida, kursovkalari bo'yicha dam olayotganlar). Uyushgan turist-larga turistik xizmatlarning bir qisminigina muayyan muddatga sotib olganlar ham kiradi (misol uchun, faqat ovqatlanish uchun kursovka).

Turistik xujalik yurituvchi sybyekt bilan o'zaro hech qanday majburiyatlar bilan bog'lanmagan aloqida turist yoki turistlar guruhining sayohati tashabbuskor (uyushmagan) turizm deb ataladi.

Tashabbuskor turizm — harakatlanishning faol usullarini qo'llash bilan turistlar tomonidan tashkil etiladigan saexatdir.

Statsionar turizm turistni turistik yo'llanmaning butun amal qilish muddatida doimiy joylashtirish o'mi bilan bog'langan. Kuchma turizm — sayohat bilan boglangan turizmdir (kruizlar, turlar).

Ijtimoiy turizm — bu davlat tomonidan ijtimoiy extiyojlarga ajratiladigan mablaglar hisobidan ta'minla-nadigan sayohatlardir.

Turistik yo'llanmalarning intensivligi bo'yicha doimiy va mavsumiy turizm farklanadi. Turistik mintakalar-ga yil bo'yvi va nisbatan bir maromda borilishi doimiy turizm deb ataladi. Bu, avvalambor, mashhur sivilizatsiya, madaniyat, sog'lomlashtirish markazlari uchun xosdir: jahoning mashhur shaharlari, kurortlar, noyob mineral suv va balchiqdarga ega bo'lgan joylar.

Ayrim mintaqalar turistlarni ko'proqyilning muayyan vaqtida jaib etadi. Bunday turizm mavsumiy turizm hisoblanadi. Yilning faqat muayyan vaqtida borib ko'rildigan turistik mintaqalar (misol uchun, ezda yoki qishda) bir mavsumli turistik mintakalar sifatida tavsiflanadi. Yilning istalgan vaqtida (qishda ham, yozda ham) borib ko'rildigan mintaqalar ikki mavsumli deb ataladi. Mazkur turistik mintaqani turistlarning kelib kurish muntazamligiga qarab mavsumlar Yuqori darajada (ya'ni tulib ketgan), sokin (o'rtacha darajada) va jumjut (sokin, turistlar deyarli kel-maydigan) mavsumlarga bo'linadi.

Turistlarning sayohatda bo'lish davomishtigiga qarab qisqa muddatli va davomiy turizm ajratiladi. Qisqa muddatli turizm — sayohat uch sutkadan ko'p davom etmaydigan turizmdir.

Davomiy turizm — sayohat muddati uch sutkadan oshadigan turizmdir. Sayohatda bo'lish muddatidan kelib chiqib turizm-ning ehtiyojlari jiddiy ravishda o'zgaradi.

Sayohat vaqtini muayyan (doimiy) yo'nalishda qiskar-tirish turistning transport tarkibiyligi ulushi (ya'ni uning transportga sarflari) xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Turistlarning yoshidan kelib chiqib bolalar, yoshlar, katta yoshlar turizmi ajratiladi.

Hamkorlik qilish shakliga qarab turistik guruhlar bi-lan valyutasiz va valyutali almashishni ajratish mumkin. Va-lyutasiz almashish muayyan kunlar davomida ko'rsatiladi-gan xizmatlarning tengligi asosida turistik guruhlarning o'zaro borib kelishilaridan iborat. Valyuta asosida sherikchi-lik turistik xo'jalik yurituvchi sybyektlar bilan hamkorlik qilish, ko'rsatiladigan xizmatlar uchun sheriklar kelishib olgan valyutadagi to'lovlarni nazarda tutadi: qoidaga ko'ra ikki taraflama bitimlarda bir kunlik kompleks xizmat ko'rsatishning valyuta qiymati belgilanadi.

Xalqaro turizmnинг urushdan keyingi amaliyotida tez ko'lamlarda paradores va taymsher rivojlana boshladи.

**Paradores** (ingl. *parade* — tomoshaga chiqarib qo'yish) mamlakatning milliy arxitektura merosini saqlab qolish uchun qadimga qal'a va saroylardan turistik mehmonxonalar va ekskursiya maqsadlarida foydalanishdan iboratdir.

**Taymsher** (ingl. *time share* — vaqtini bo'lish) turistik biznesda ko'chmas mulkdan, undan muayyan vaqt davomida pul badaliga mutanosib ravishda foydalanish imkonи bilan birqalikda egalik qilishdir. Foydalanish vaqt uch rangga (qizil — eng qimmat; oq va ko'k) jamlangan haftalarda o'lcha-nadi va mavsumlar bo'yicha talab o'sishini aks ettiradi.

1971-yilda RCI (*Recort Condominiums International*) global tizimi yaratildi, ya'ni bu deyarli butun jahondagi (2400 otel va kuortlar) mashhur kuortlarning kottejlarini uzoq vaqtga ijara olish (25-30 yilga) va almashtirish tizimidir.

#### **11.4. Turizm rivojlantirishini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi**

Turizm sohasini rivojlantirish ko'rsatkichlari turistik xizmatlarni sotishning miqdoriy hajmi va ularning sifat tomonini hamda turistik xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish-xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi (agentliklar, byurolar, firmalar, majmualar, kooperativlar va hokazo).

Turizmn rivojlantirish ko'rsatkichlari tizimi:

- turizmnинг moddiy-texnik bazasi holati va rivojlanishi;
- turistik firmanint moliya-iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Turistik oqim — turistlarning mamlakatga yoki mazkur mintaqaga doimiy kelishidir. Turistik oqimni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga: turistlarning umumiy soni, shu jumla-dan, uyushgan va tashabbuskor turistlar; tur kunlari miqdori (tunash joylari, yotoq-kunlar miqdori); turistlarning mamlakat, mintaqada (bir joyda yoki aholi yashaydigan punktda) bo'lishining o'rta-cha davomiyligi (o'rta-cha vaqt) kiradi.

Tur kunlari miqdori turistlarning umumiy sonini bir turistning mamlakat yoki mintaqada bo'lish kunlarining o'rta-cha davomiyligiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$D \cdot q \cdot g \cdot t,$$

bu yerda, D — tur kundari, kishi-kunlar miqdori;

g — turistlar soni, kishi;

t — bir turistning mazkur mintaqada bo'lishining o'rta-cha davomiyligi, kunlar.

Turistik oqim — tekis bo'lmaydigan hodisa. Turistik oqimning notejisligi tavsifi uchun notejislik koeffitsienti qo'llaniladi. Turistik oqimning o'sishi tahilining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, notejislik koeffitsientini hisoblashning uch usulidan foydalaniladi:

*Birinchi usul:*

$$K_n q = (D_{max}/D_{min}) \times 100,$$

bu yerda,  $K_n$  — turistik oqimning notejisligi koeffitsienta, foiz;

$D_{max}$  - eng ko'p turistik oqim oyida tur kunlari miqdori, kishi-kunlar;

$D_{min}$  - eng kam turistik oqim oyida tur kunlari miqdori, kishi-kunlar.

*Ikkinni usul:*

$$K_n q = (D_{max}/D_{yil}) \times 100,$$

bu yerda,  $K_n$  — turistik oqimining notejisligi koeffitsienta, foiz;

$D_{max}$  - eng ko'p turistik oqim oyida tur kunlari miqdori, kishi-kunlar;

$D_{yil}$  - yillik tur kunlari miqdori, kishi-kunlar.

$$K_n q = (D_{max}/D_{oy}) \times 100,$$

bu yerda,  $K_n$  — turistik oqimining notejisligi koeffitsienta, foiz;

$D_{max}$  - eng ko'p turistik oqim oyida tur kunlari miqdori, kishi-kunlar;

$D_{oy}$  - tur kunlari oylik o'rtacha miqdori, kishi-kunlar.

Tur kunlarining o'rtacha oylik miqdori yillik tur kunlari miqdorini 12 oyga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$D_{oy}, q D_{yil}/12.$$

Turizmning moddiy-texnik bazasi holati va rivojlanishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar uning mazkur mamlakat yoki mintaqadagi quvvatini aniqlaydi.

Ularga dam olish uylari, pansionatlar, turbazalar, meh-monxonalar, sanatoriylar va hokazolarning yotoqjoy fond-lari, shuningdek, mahalliy aholi taqdim etadigan yotoqjoylar soni; turistlar uchun ovqatlanish korxonalarining savdo zallaridagi o'rinalar soni kiradi.

Yotoqjoy fondining quvvati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$M \geq K x 365 + t,$$

bu yerda,  $M$  — yotoqjoy o'rinalining umumiy miqdori, birlik;

$K$  — yil davomida foydalaniladigan yotoqjoy o'rinalining soni, birlik;

$t$  — mavsumiy foydalanish kunlari soni, kunlar.

Turistik firmaning moliya-iqtisodiy ko'rsatkichlari: turistik xizmatlarni sotish hajmlari yoki turizm xizmatlarini sotishdan tushgan tushumlar, ishchi kuchidan foydalanish ko'rsatkichlari (mehnatning unumдорлигi, mehnatga haq to'lash xarajatlari va hokazolar); ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlari (fond samaradorligi, oborot mablag'laring aylanishi va boshqa); turizm xizmatlarining tannarxi; fonda; rentabellik; turistik firmaning moliyaviy holati ko'rsatkichi (to'lovga layoqatlilik, likvidlilik, moliyaviy barqarorlik, valyutaviy o'zini o'zi qoplash va boshqa)larni o'z ichiga oladi.

Xalqaro turizmning holati va rivojlanishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar alohida ajaratiladi. Ularga quy'idagilar kiradi:

- xorijiy mamlakatlarni borib ko'rgan turistlar miqdori. U davlat chegarasini bosib o'gishlar soniga qarab aniqlanadi;
- xorijiy turistlar bo'yicha tur kunlari miqdori;
- xorijiy safarlar vaqtida xorijiy turistlar tomo-nidan amalga oshirilgan jami pul sarflari.

Turizmning rivojlanishi va turizm xizmatlari hajm-larini ko'paytirish puxta o'ylab yondashishni talab qiladi, chunki qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy oqibat-lari juda Yuqorida.

Har bir mamlakat yoki mintaka uchun turizm ustuvorlik-lar bilan birga kamchiliklarga ham ega.

Ustuvorliklar:

- mintaqaga pul, shu jumladan, xorijiy valyuta oqimi-ning ko'payishi;
- yalpi milliy mahsulotning o'sishi;
- turistlar bilan bir qatorda mahalliy aholi uchun ham foydalinish mumkin bo'lgan dam olish tuzilmasi-ning yaratilishi;
- sarmoyani, shu jumladan, xorijiy sarmoyani jalb etish. Turizm rivojlanishini int kamchiliklari quy'idagilardir:
- tovar va xizmatlarning maxdgshiy bozorida, er va boshka tabiiy resurslarga, ko'chmas mulkka va hokazolarga narxlar oshadi;
- turistik importda chet elga pul ketishi usadi;
- salbiy ekologik va ijtimoiy muammolar vujudga keladi.

Turizmning nazoratsiz rivojlanishi mamlakatning ekologik balansini yomonlashtirishi, tub aholi hayoti tarzi va sifatini o'zgartirishi mumkin.

## **11.5. O'zbekistonda xalqaro turizm rivojlanishining statistik tahlili**

O'zbekiston Respublikasida turizmni va turistik fao-liyatni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Xalqaro turizmning tashkil etilishiga tashqi iqtisodiy faoliyatning eng muxim yo'nalishlaridan biri, eksportning ren-tabel shakli va binobarin, konvertatsiyalanadigan valyuta kelishining tezlashishi hamda iqtisodiy o'sishning jiddiy omili sifatida qaraladi.

O'zbekiston ham xalqaro, ham ichki turizmni keng ko'lam-da rivojlantirish uchun ancha katta salohiyatga ega (15-jadvalga karang). Ushbu salohiyatni samarali ro'yogba chiqarish xalqaro turizm bo'yicha Manila deklaratsiyasi, turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasi, Turizm xartiyasi va Turist kodeksida bayon etilgan tamoyillardan kelib chiqib, respublikada turizmni rivojlantirish ning hakiqiy milliy siyosati va davlat das-turini ishlab chiqish va amalga oshirishni shartlaydi. Huku-mat darajasida turistik sohani isloh etish bo'yicha tub ahami-yatli qarorlar hamda xalqaro va ichki turizmning zamonavii infratuzilmasini yaratishga qaratilgan tegishli qonun va qarorlar qabul qilinmoqda, ya'ni rivojlanishning yuridik va tashkiliy asosi yaratilmoqsa. CHunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti IA.Karimovning 1992- yil 27- iyuldaggi Farmoni bilan turli idoraviy tuzilmalar bazasida

**O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning muhim omillari**

Mezon	Musbat	Manfiy
Geografik joylashish	O'rta Osiyo markazi	Dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqib bo'lmaydi
Siyosiy ahvol	Barqarorlik	Qo'shni Tojikiston va Afg'onistonidagi beqarorlik
Iqtisodiy holat	Iqtisodiyot tizimining qayta qurilishi	
Ijtimoiy ahvol	Aholidagi mehmondo'stik, odamshavandalik	
Joylashish shartlari (xona va xizmatlar)	Aksariyat mehmonxonalarining kapital ta'mirlanib, jahon standartlari darajasiga etkazilganligi va ishga tushirilganligi (Grand Mir Hotel va boshkalar)	Mehmonxonalarda kichik xodimlar masalasi yo'lga qo'yilmagan
Restoranlar (oziq-ovqat va ichimliklar)	Spirtili ichimliklar iste'mol qilishga qarshilik yo'q	Yetarli daraja, import mahsulotlarining yo'qligi
Infratuzilma (aeroport, ko'cha, aloqa, transport)	To'g'ri charter reyslari mavjud	Umumiy daraja Yuqori emas
Diqqatga sazovor joylarning infratuzilmasi	Qoniqarli	Yetarli miqdorda emas
Tarixiy joylar	Samarqand, Buxoro, Buyuk ipak vo'li, Xiva	Qayta ta'mirlash va tiklash zarur
Xalq amaliy ijodiyoti	Bebaq, o'narsalar (shoh asarlar, haykal - badiiy manzara uslublar)	Xususiy suvenir do'konlari kam
Iqlim sharoitlari	Turizm bilan yil bo'yи shug'ullanish imkoniyati	Quruq, issiqyoq
Tabiat	Tog'lar, cho'llar, kengliklilar	Dengizlar yo'qligi
Sport o'sinlari	Tennis kortlari, futbol maydonlari	Jiddiy rivoj zarur

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tashkil etildi, unga 150 dan ortiq xo'jalik yurituvchi sybyektlar kirdi. Shu paytdan boshlab turizm respublikada nafaqat miqdoran, balki sifat jihatidan ham rivojlana boshladi. Turistik obyektlarni dav-lat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayoni sodir bo'ldi, ko'plab obyektlar mulkchilik va xo'jalik yuri-tish shaklini o'zgartirdi. O'zbekistonning turistik sohasi bugun mulkchilikning turli shaklidagi saltak 400 ta ixtisoslashgan tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ular orasidagi raqobat respublikadagi ichki va xalqaro turizm rivojlanishining kafolati hisoblanadi.

O'zbekistonning Umumjahon turistik tashkilotiga kirishi (1993-y.) bu yo'lida muhim qadam bo'ldi. Umumjahon turistik tashkiloti (UTT) Yevropa komissiyasining UTT, YUNESKO va «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi homiyli-gida bo'lib o'tgan XX asrdagi so'ngti ko'chma yig'ilishi biz-ning mamlakatimizda bo'lgani nafaqat O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merofiga hurmatni baho keltirish, balki jahon hamjamiyati tomonidan jamiyatimizning barcha soha-lari, shu jumladan, turizm jabhasida ham sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tan olinishi bo'lib ham hisoblanadi.

1999 yil aprelining o'rталарida O'zbekiston Prezidenta O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning Davlat dastu-rini tasdiqlagan Farmonni imzoladi. Uning asosiy

maqsa-di mamlakatda turizmning milliy modelini shakllanti-rish hisoblanib, u o‘zida zamonaviy jahon xizmat ko‘rsatish standartlarini sharqona mehmondo‘stlik elementlari bilan birga mujassam etadi. U respublikaga xorijiy turistlarni jalb etishga, turistik biznesni mamlakat byudjetining eng daromadli moddalaridan biriga aylantirishga, barcha zamonaviy turizm turlarini rivojlantirishga va ushbu sohada-gi xizmat ko‘rsatish standartini jahon darajasiga ko‘tarishga qaratilgan.

Turizm muammolariga keng ko‘lamda yondashish zaruriyati respublikada turizmga oid tegishli me‘yoriy-qonun chiqa-ruvchi bazani yaratishni talab etdi. 1999 yilning avgustida mamlakat parlamenti qabul qilgan «Turizm to‘g‘risida»gi Qonun muhim voqeasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni turistik faoliyatda mavjud bo‘lgan ma‘naviy xilma-xilliklarga chek qo‘ydi hamda turizm sohasida davlat siyo-satining asosiy yo‘nalishlarini, davlat hokimiyati organ-larining turizmni rivojlantrish va turistik faoliyatni tashkil etishdagi rolini aniq belgilab berdi.

Mazkur qonunda turizm sohasidagi asosiy tushunchalar belgilab berildi (3-modda). CHunonchi, **turizm** — jismoniy shaxs-ning doimiy istiqomatjoyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshkod maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muldatga jo‘nab ketishi (sayohat qilish). **Turist** — O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi jismoniy shaxe.

**Turistik faoliyat** — sayohatlarni va ular bilan bog‘liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat. **Turistik resurslar** — tegishli hududning tabiiy-iklim, sog‘lomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma‘rifiy va ijtimoiy-ma-ishiy obyektlari majmui. **Turistik faoliyat sybyektlari** yoki turoperatorlar — belgilangan tartibda ro‘yxatga olin-gan va turistik xizmatlar qo‘rsatish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo‘lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar.

Shunday qilib, turoperator — xo‘jalik yurituvchi sybyekt yoki yakka tadbirkor bo‘lib, turistik yo‘nalishlar-ni ishlab chiqish bilan mashg‘ul bo‘ladi, ularning faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi, reklamani tashkil qiladi, ular bo‘yicha yullanmalar chiqarish va ushbu yullanmalarni sotish uchun turagentlarga turlar narxini belgilaydi.

Turoperatorlar turistik industriyada maxsus rolin bajaradilar. Ular turistik mahsulotlarni (samoletlarda o‘rinlar, mehmonxonalarda xonalar va boshka xizmatlarni) xarid qiladilar, turizm xizmatlari majmuuni shakllantiradilar va ularni bevosita yoki bilvosita turli turist-foydalananuvchilarga foyda olish maqsadida sotadilar. Turoperator turizm xizmatlarini alohida-alohida sotishi mumkin. Bu yoxud fonda olish, yoxud boshqa ehtiyojlar uchum amalga oshiriladi.

Birinchi holda, turoperator majmuani shakllantirganda, u turistik mahsulot ishlab chiqaruvchi rolida chiqadi. Inklyuziv turlar deb tanilgan turistik majmualar bir-biridan tarkibiy elementlari bilan farqqiladi.

Ikkinci holda, turoperator turizm xizmatlarini alo-xida sotganda, u turistik xizmatlarning tajribali dileri sisatida chiqadi. Buning imkonini turoperator ishlab chiqaruvdan turistik majmuani shakllantirish uchun zarur bo‘lgandan ko‘proq turistik mahsulotni sotib olganda mumkin bo‘ladi. Ba’zida shunday hollar bo‘ladiki, turoperatorlar alohida turizm xizmatlarini uz individual majmua-sini shakllanti-rishni xoxdagan odamlarga ulgurji narx-lar bilan sotadilar.

Turoperatoring qiymati uning narxlarning pasayishini sug'urtalash qobiliyatida, turist uchun iqtisodiy imkonni bo'lgan turistik majmualarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan turizm xizmatlarini katga miqdorlarda sotib olishidadir.

Turagentlik faoliyati deganda litsenziya asosida yuri-dik shaxe yoki yakka tadbirkor tomonidan amalga oshirila-digan turistik mahsulotni o'tkazish va realizatsiya qilishga doyr faoliyat tushuniladi. Binobarin, turagent — tur-ope-ratorlar ishlab chiqqan turistik yo'nalishlar bo'yicha turlarni sotib oladigan, ularga binoan yo'llanmalarni chiqaradigan va ushbu yo'llanmalarni sotadigan xo'jalik yurituvchi sybyekt yoki yakka tadbirkordir.

Turoperator va turagent tur va turistik mahsulot bilan ish ko'rishadi.

Tur turistlarni joylashtirish, tashish, ovqatlantirish, sayohat maqsadlariga qarab taqdim etiladigan ekskursiya xiz-matlari bo'yicha xizmatlar majmuidan iborat.

Uyushgan turizmda tur — turizmni tovar sifatida dastlab-ki sotish birligidir. Tur turizm xizmatlari majmuini bir butun sifatida sotishdir. Mohiyatan u turizm xizmatlariga haq to'lashning abonement shakli hisoblanadi. Turistik mahsulot — turistga realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan turga hukuqidir. Turizm iqtisodiyotida turistik mahsulotning boshqa tushunchasi ham kullaniladi, unga binoan turistik mahsulot o'ziga quyi-dagilarni olgan iqtisodiy toifa:

- 1) o'zlarining maqsadga yo'naltirilganligi bilan birlash-tiriltan turlar (ma'rifiy, sog'lomlashtirish va hokazo);
- 2) turli turdag'i turistik-ekskursiya xizmatlari (joylashtirish, ovqatlantirish, transport va boshqa);
- 3) turistik-suvenir ahamiyatdagi tovarlar (xaritalar, ot-kritikalar, suvenirlar, turistik asbob-anjomlar va hokazo).

Turistik mahsulotni shakllantirish va realizatsiya qilish o'z xususiyatlari ega.

Turoperator alovida xizmatlarni taqdim etadigan shax-slar yoki turga kiradigan barcha xizmat turlari taqdim eti-lishini ta'minlovchi turistlarni qabul qilish bo'yicha turoperator bilan shartnomaga muvofiq turga kiradigan xiz-matlarga xukukni sotib oladi. Turistik mahsulotni o'tka-zishda turoperator va turagent turistik mahsulot to'g'risi-dagi axborot anidigiga javobgardir.

Turistik maxsulotni realizatsiya qilish shartnomaga aso-san amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shartnomaga ko'rsatiladi-gan xizmatlarning ko'lami va sifatini, taraflarning hukukdari va majburiyatlarini, haq to'lash va hisob-kitob-lar tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini va uni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilaydi. SHartnoma yozma shaklda tuziladi. SHartnomaning jiddiy shartlariga kuy'idagilar kiradi:

- turoperator yoki turagent (sotuvchi) to'g'risida axborot, jumladan, turistik faoliyatni amalga oshirishga litsenziya to'g'risida ma'lumotlar, uning yuridik manzili va bank rekvizitlari;
- turist (xaridor) to'g'risida turistik maxsulotni realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ko'lama ma'lumotlar;
- turoperator to'g'risida axborot, jumladan, turistik faoliyatni amalga oshirishga litsenziysi to'g'risida ma'lumotlar, uning yuridik manzili va bank rekvizitlari;

- turistik mahsulotning iste'molchilik xususiyatlari to'g'risida aniq axborot, jumladan, bo'lish dasturi va sayohat yo'nalishi to'g'risida, turistlar xavfeizligi, turistik maxsulotni sertifikatshtirish natijalari to'g'risidagi axborot;
- sayohatning boshlanish va tugash sanasi va vaqt, uning davomiyligi;
- turistlarni kutib olish, kuzatish va kuzatib yurish tartibi;
- taraflarning xukukdari, majburiyatlar va javobgarligi;
- guruhda turistlarning eng kam miqdori, turistni guruh to'limganligi sababiga ko'ra sayohat bo'imasligi haqida xabardor qilish muddati;
- shartnomani o'zgartirish va bekor qilish shartlari, shu munosabat bilan taraflarda vujudga kelgan nizolarni tartibga solish va zararlarni qoplash;
- turist tomonidan e'tiroz qilish tartibi va muddati. SHartnomaga taraflarining har biri shartnomani tuzishda taraflar kelib chiqqan vaziyatlarning jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish-ni talab etish huquqiga ega.

**Vaziyatlarning bunday jiddiy o'zgarishlariga quyidagi-lar kiradi:**

- saexat sharoitlarining yomonlashishi, sayohatni sodir etish muddatlarining o'zgarishi;
- transport tariflarining kutilmagan o'sishi;
- soliq va yig'imlarning yangilari kiritilishi yoki amaldagilarining oshishi;
- milliy valyuta kurslarining keskin o'zgarishi. Turistik mahsulotni berish faktini tasdiqlaydigan hujjat bo'lib **turistik yo'llanma** hisoblanadi.

Turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday huquqlar ko'rsatilganligi-ni tasdiqlovchi hujjat turistik vaucher buladi.

**Vaucher** (ingl. voucher — tilxat) turistik faoliyat sybyekta tomonidan turistga (turistik guruhga) berilgan huj-jat, unga asosan unga (ularga) xizmat ko'rsatish taqdim eti-ladi va turistik firma bilan hisob-kitoblar amalga oshi-riladi. U O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy tu-rislarga taqdim etiladigan xizmailar qiymati turistik firma tomonidan to'lanishining kafolati hisoblanadi. Vaucher quyidagi rekvizitlarga ega: turistik firmaning nomi va manzili, guruh raqami, guruhdagi turistlar miqdori, mamlakatda bo'lish muddatları, yurishlar yo'nalishlari, guruh rahbarining ismi-sharifi, vaucher yozilish sanasi, turistik firmaning imzosi va turtburchak muhri. Vaucher turist (turistlar guruhi) butun O'zbekiston Resggublikasi hududi-da bo'lganda amal qiladi. Vauchyerde belgilanmagan xizmatlar naqd hisob-kitob evaziga ko'rsatiladi. Vaucherga asosan xorijiy firmaga to'lash uchun hisob beriladi.

Ko'plab mamlakatlarga borish uchun vizaga ega bo'lish talab etiladi.

**Viza** — xorijiy passport egasiga mazkur mamlakatga kirish va undan chiqib ketish xukuqini beradigan pasportda qo'yilgali rasmiy belgi (muassasa yoki konsullik to'rtburchak muhri). Viza bir martalik va ko'p martalik bo'lishi mumkin.

Bir martalik viza davlatga bir marta kirish uchun vaqtiG ning muayyan davriga beriladi.

Ko'p martalik viza chegarani vaqning muayyan davrida (yil-uch yil va hokazo) cheklanmagan marta o'tish huquqini beradi.

Maqsad turlariga qarab vizalar xizmat (amaliy, xusu'siy), mehmon bo'lish, ishlash huquqi bilan, muhojirlik turistik bo'ladi. Turistik viza vaqting muayyan davrid

muayyan muddat — sayohat yoki tur muddatiga turistik maqsad lar bilan mamlakatni kurishga ruxsatdir.

Shu viza bilan mamlakatga kelgan turist haqto'laniqiga ish bilan mashg'ul bo'lish huquqiga ega emas va ko'rsatilgan muddatda mamlakatdan chiqib ketishga majbur.

Vizalarni berish bilan, odatda elchixonalarining konsullik bo'limlari yoki mintaqalar bo'yicha bosh konsulli lar shugullanadi. Viza berganlik uchun yig'im olinadi.

Turistlarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish maq sadida turoperatorlik va turagentlik faoliyati va turistik industriya obyektlarini litsenziyalash va standartlash hamda turistik mahsulotni sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'grisida» Qonuniga muvofiq, litsenziya uning egasining turistik faoliyatni amalga oshirish huquqini tasdiqlovchi maxsus ruhsatnoma bo'lib, muayyan muddatga beriladi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi.

Kuyidagilar litsenziya berishni rad etish uchunacos hisoblanadi:

- ariza beruvchi taqdim etgan hujjalarda noaniq yoki noto'g'ri axborot bo'lishi;
- xalqaro turistik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarga va xavfsizlik sharoitlariga nomuvofikliq topilgan salbiy ekspertlik xulosasi.

**Sertifikat** — turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mu'vafiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Turistik faoliyat sybyektining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bulishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyanint amal qilishimi to'xtatib qo'yishga yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo'ladi (10-modda).

O'zbekiston xalqaro turizmni rivojlantirishning yaxshi rakrbatliliklariga ega. O'zbekiston hududida tarix, arkitektura va arxeologiyaning noyob yodgorliklari bor, ular Markaziy Osiyoda eng mashhur hisoblanadi. 1996-yilda YUNESKO qarori bilan 21 ta tarixiy obyekt jahon taraqqiyotining boyligi ro'yxatiga kiritildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning rekreatsion resurslari turli xil turistik yo'naliishlarni tashkil etish va turistlarni yil davomida qabul qilish imkonini beradi. CHunonchi, O'zbekiston ekologik turizmni, shu jumladan, uning sargu-zasht turlari — rafting, «tour off road» deb nomlanadigan turizmni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatga ega. Turizm-nint ushbu turlari ommaviyligi o'shining jahon tamoyili turistik industriyaning ayni shu sohasini rivojlantirishga e'tibor berishga undaydi. Shu bilan birga, turizmning tari-xiy-arkitektura, ilmiy-amaliy, etnik-madaniy turlarini rivojlantirish ham muhim bo'lib qolmoqda.

### **Qisqacha xulosa**

Hozirgi paytda turizm O'zbekistonda davlat xazinasi-ga ko'plab valyuta tushumlari manbai hisoblanadi. Bu soha (agar faqat «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi doiralari olinadigan bo'lsa) bugun mamlakat YAMining salkam 0,4

foizini bermoqsa. Bu, ayniqsa, agar ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich YAIMning 25 foiziga etayotgani hisobga olinadigan bo'lsa, albatta kam.

O'zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishining zamonaviy holati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozircha tur-agentlarning ko'proq soni qabul qilishga qaraganda, xo'tijga jo'natishga ixtisoslashmoqsa. Oxirgi 5 yilda respublikaga turistik oqimning o'sishi 1,6 marta, shu jumladan, xorijiy mexmonlar 2,9 marta o'sdi. Ichki turizm ham ko'paydi, shu davrning o'zida u 120 foizni tashkil etdi. 1998-yilda O'zbekistonda 731,2 ming turistga xizmat ko'rsatildi, jumladan, 271,1 ming xorijlik mehmonlar qabul qilindi. 1998 yilda turistik xizmatlar hajmi 3653,3 mln. so'mni, umumiy foyda 544,3 mln. so'mni, valyuta tushumlari 20,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

BMT TD (GTROON) ekspertlarining baholariga kara-ganda, 2005-yilda respublikaga 1,2 mln. kishi kelishi, da-romad esa 1 mld. AQSH dollari bo'lishi kutilmoqda. Bir vaqtning o'zida Umumjaxrn turistik tashkiloti mamlakati-mizga tur oqimning 15 foizga ko'payishini prognoz qilmoq-da, bu esa Osiyo qit'asining boshka mamlakatlariga qaraganda 2 marta yuqori bo'lib, yana bir bor O'zbekistonning yangi mintaqaviy turistik markaz sifatida xalqaro miqyosda tan olinishini isbot qiladi.

#### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Turizm tushunchasiga ta'rif bering.
2. Turistlarning qanday toifalarini bilasizq
3. Turistik eksport, turistik import va turistik bozor tushunchalariga ta'rif bering.
4. Turistik bozorning ikki siklliligi deganda nimalar tushuniladiq
5. Turizmning asosiy shakllari, turlari va xillarini tasniflang.
6. Xalqaro turizm nima va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri qandayq
7. Xalqaro turizmnning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadiq
8. Avtotransport vositalarining mas'uliyatini sug'urtalash qanday amalga oshiriladiq
9. Ekologik xatarlarni sugurtalash deganda nimalarni tushunasiqz
10. Xalqaro sug'urta operatsiyalari va ularning tashkiliy-huquqiy belgilariiga tavsif bering.
11. Qayta sug'urtalash yeki fronting nima va uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi roli qandayq
12. Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalashning O'zbekiston bozorida taklif qilinayotgan turlariga tavsif bering.

#### *Asosiy adabiyotlar*

1. B.I.Bashkatov, B.T.Ryabushkin. Praktikum po natsionalnomu schetovodstvu. Ucheb. posobie – M., 2014 g.
2. Pod red. B.I.Bashkatova. Natsionalnoe schetovodstvo. Uchebnik. 2014 g.
3. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
5. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
6. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)

## XII BOB. TO'LOV BALANSI STATISTIKASI

### 12.1. Mamlakat to'lov balansining iqtisodiy mohiyati va shamiyati

Har qanday davlat xalqaro mehnat taqsimoti qatnashchisi, zamonaviy jahon xo'jaligining a'zosi sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlardan tizimi doirasida tashqi iqtisodiy alo-kalarni amalga oshirmsandan iqtisodiy rivojlanishni ta'min-lay olmaydi. Mamlakatning o'z hamkorlari bilan bo'lgan tashqi iqtisodiy alokalari milliy iqtisodiyotni jahon xo'jali-gi bilan uzviy bog'lab turadi. Shu sababli ham "tashqi iqtisodiy alokalari", "tashqi iqtisodiy operatsiyalar" va "jaxm xo'jaligi aloqalarini" atamalarini sinonim sifatida qabul qilish mumkin. Jahon xo'jaligi alokalari o'z rivoji davomi-da ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tgan holda rivojlanib, mazmun va mohiyatan boyib boradi: savdo va xizmatlar ko'rsa-tishdan — kapital olib chiqish va xalqaro ishlab chiqarishni yo'nga qo'yish, keyinchalik esa valyuta, kredit, kimmatlari qogoz-lar bozori yagona jahon bozori darajasiga ko'tarilmoqsa.

Mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy aloqalardan tashqa-ri siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa turdagidan aloqalar mavjud bo'lib, ular natijasida pulli to'lovlar hamda hisob-kitoblar yuzaga keladi. Davlatning ko'p qirrali alo-qalarining yig'indisini uning xalqaro operatsiyalari bo'yicha balans hisobvarag'iда ko'rish mumkin. Bu hujjat to'lov balansi deb nomlanadi.

Xalqaro hisob-kitoblar turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o'rtaida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chikuvchi pul talablari va majburiyat-lari bo'yicha to'lovlarini tashkil etish va tartibga solish ja-raenini aks ettirgan holda tovar ishlab chiqarish va muomala sohasini globallashtirish yo'lida vujudga keladi. Ular ishlab chiqarish va iste'mol sohasidan deyarli alohida bo'lgan tovarlar, xizmatlar va kapitallar xalqaro aylanmasida kiy-matlar harakatini aks etgaradi. Xalqaro hisob-kitoblar asr-lar davomida sinovdan o'tgan va ham huquqiy hujjatlar, ham oddiy qoida me'yordagi bilan mustahkamlangan to'lovlarini amalga oshirish shartlari va mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblar asosan naqdsiz to'lov vositasida bank-lar va ularning xorijiy shoxobchalari o'rtaida korrespondent, ya'ni shartnomalarini o'matish orqali amalga oshiriladi.

**To'lov balansi** — mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalari-rining hisobvarag'i, ya'ni bu - davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish hamda olib chiqish kursatkichla-rining nisbati ko'rinishidagi barcha xalqaro alokalari maj-muining puldagi ifodasi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalar-ning balans hisobvarag'i o'z mohiyati jihatdan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini ko'lami, tarkibi va shakli ji-xatdan miqdoriy va sifat ko'rinishini hamda uning xalqaro hamjamiyatidagi o'mini belgilaydi. Jahon amaliyotida "to'lov balansi" deb ataluvchi atamadan foydalanishta ko'nikma hosil qilingan bo'lib, barcha tashqi iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha valyuta oqimlariga kiruvchi va chiquvchi ko'rinishlarda farq-lash kelishib olingan.

Nashri qilinadigan to'lov balanslaridagi ma'lumotlar faqat to'langan va ma'lum muddatga to'lanishi shart bo'lgan qismidan iborat bo'libgina qolmay, balki xalqaro darajada-gi talablar va majburiyatlar to'g'risidagi ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa ko'plab tashqi iqtisodiy aloqalar kredit asosida amalga oshirilganligi natijasida yuz beradi.

So'ntgi paytlarda to'lov balansiga qo'shimcha ravishda mamlakatning xalqaro aktivlari va passivlari to'g'risida balans ham nashr etilmoqda. Bu esa mamlakatning jahon hamjamoya-tiga integratsiyasi qanday darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu hujjatda mamlakatning bergen va olgan kreditlari, investitsiyalari va boshqa moliyaviy aktivlarining ko'rsat-kichlari nisbiy ko'rinishlarda ifoda etiladi. Bu borada ma'lum bir mamlakatlar olgan mablag'lar yuzasidan ustunlikka ega bo'lsa, boshqa birlari esa berilgan mablag'lar yuzasidan ustunlik qiladi. Ayrim mamlakatlarda esa har ikkala ko'rsat-kich ham bir xilda Yuqori darajada. Bu borada AQSH xorij moliyaviy resurslarini netgo-import qiluvchi sifatida Yuqori o'rinnlarda turadi. Xalqaro moliyaviy xrlat va to'lov balansi ko'rsatkichlari o'zaro aloqador bo'ladi. O'z iqtisodiy mazmunga ko'ra ma'lum bir vaqtga nisbatan va ma'lum davr davomida tuzilgan to'lov balanslari farklanadi. To'lov balansini ma'lum bir vaqtga nisbatan muhim xrlida aks ettirish qiyin, chunki undagi holat vaqt sayin, to'lovlari va olinadigan tu-shumlar bo'yicha o'zgarib turadi.

Buxgalteriya nuktai nazaridan to'lov balansi doimo teng-lashgan ko'rinishda bo'lishi lozim. Ammo haqiqatda esa uning asosiy elementlari, bo'limlari, bo'limlari bo'yicha tushumlar to'lovlardan ortiq — aktiv qoldiq; to'lovlarining tushum-lardan ortiq bo'lishi - passiv qoldiq hrlatlar ko'proq yuzaga chiqadi. Shu sababli ham to'lov balansini tuzish hamda krldiqlarni aniklash alohida ahamiyat kasb etadi. To'lov balansini tuzish nazariyasini amaliyoti jahon xo'jaligi-dagi o'zgarishlarga bog'liq holda o'zgarib bormoqda.

To'lov balansini tuzish amaliyoti tarixi bir necha asr-larga borib takaladi. Uning ibtidosi Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya qirolliklari, keyinchalik Rossiya imperiyasi va AQSH da g'aznaga bojxona va soliq tushumlari ree-stri (ro'yxati)ni tayyorlashdan boshlangan.

To'lov balansi negizida barcha bitam turlarini ularning xususiyatlariiga bog'liqoavishda buxgalteriyadagi standart kredit-debet yozuvidan foydalangan hoddha guruhlash tamoyili yota-di. To'lov balansining standart tuzilmasi uchta hisobni o'z ichiga oladi: joriy operatsiyalar, kapital va moliyaviy vosi-talar bilan operatsiyalar, rasmiy zaxiralar.

To'lov balansining standart tuzilmasiga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, uning bir qator xususiyatlarini qayd etib o'tishimiz mumkin. Joriy operatsiyalar balansiga kelsak, mamlakat uchun shunday holat vujudga kelishi mumkin, ya'n uning aktiv yoki passivlari hajmi boyliklarni ayirbosh-lash amalga oshirilmasdan o'zgaradi. Bunga misol sifatida milliy korporatsiyalarning daromadlarini xorijiy fir-malarga qayta investitsiya qilinishi oqibatida o'z vatani-ga qaytmasligini ko'rsatish mumkin. Bu holatda xalqaro bitim amalga oshmagan hisoblanadi va daromadlar mamlakat to'lov balansi moddalaridan chiqarib tashlanadi.

Davlat import bo'iicha daromadlar eksport bo'yicha xara-jatlardan Yuqoriligidini bildiruvchi joriy operatsiyalar kamomadiga duch kelganda, kamomadni moliyalashtirish xorijiy qarzlar yoki aktivlarning bir qismini rezident bo'limganlarga solish orqali amalga oshiriladi (bu operatsiyalar kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida o'tkaziladi). Oxirgi hisobga kelsak, uning ijo-biy qoldig'i mamlakatga norezidentlarga kredit berish va xorijiy aktivlarni to'plash imkoniyatini beradi.

Milliy statistika tizimining mukammal ermasligi yoki operatsiyalarining yashirin tabiatini bilan bog'liq holda vujudga keluvchi "tushirib qoldirish va xatolar" moddasiga ham e'tibor berish kerak. Bu modda aktivlar va passivlar orasida farqni nolga tenglashtirish imkoniyatini beradi. Rasmiy hisob-kitoblar balansi kamomadga uchraganda qarz-ni yopish Markaziy bank tomonidan milliy valyuta zaxira-larini kisqartirish (bozorda sotish) hisobiga amalga oshiriladi. Zaxiralari oltin (monetar oltin, odatda quyma xolila), xorijiy valyutalar (boshqa mamlakatlarning naqd pul-lari, depozitlari, qimmatbaho qogozlari), SDR, XVFda-gi zaxira pozitsiya (XVF a'zosiga tegishli kvotaning bir qismi)lardan tarkib topgan.

Xalqaro hisob-kitoblar amaliyotida xorijiy qarzlar-ni qoplash saloxiyatini baholash imkoniyatini beruvchi sof rasmiy valyuta zaxiralari deb ataluvchi ko'rsatkich qo'llaniladi:

#### *Sof valyuta zaxiralari : Umumiy import hajmi x 12.*

Ushbu formula yordamida importni to'lash uchun valyuta zaxiralaring yeterliliqi darajasini hisoblash mumkin.

Bu formula mavjud valyuta zaxiralari hisobiga davlatning importni to'lashga qodir bo'lgan davr davomiyligini aks ettiradi va uning agentliklardagi kredit reytingiga ta'sir qiladi. Agar bu ko'rsatkich bo'yicha importni qoplash davri uch oydan kam bo'lsa, vaziyat noxush hisoblanadi va yangi kreditlar olish imkoniyati kamayadi.

### TO'LOV BALANSINING TAHLILIY KO'RINISHI

KREDIT	DEBET
I-Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovarlar eksporti	2. Tovarlar importa
Tashqi savdo balansi qoldig'i (tashqi savdo balansi)	4. Xizmatlar importa (tarkibiga ko'ra eksportdag'i kabi)
Z.Xizmatlar eksporti (fraxt, turizm va boshqalar, omilli xizmatlaridan tashkari)	b.Mamlakatdagi xorijiy investitsiyalar bo'yicha xarajatlar (kapital quyilmalari bo'yicha dividendlar, foizlar), mamlakatdagi norezidentlar uchun tulovlar, ya'ni omilli xizmatlar bo'yicha to'lovlar
5.Investitsiyadan daromadlar, dividendlar, foizlar, xorijidagi rezidentlarning maoshlari, va ni omilli xizmatlaridan daromadlar 7.Joriv ichki transfertlar (nafakalar, sovg'alar, mamlakatta pul o'tkazmalari, mamlakatta xorijdan beg' araz yordamlar)	8.Joriv tashqi transfertlar (na-faqalar, sovg'alar, chet elga pul o'tkazmalari, xorijiy mamlakatlarga beg' araz yordamlar)
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi	
9. Kapital transfertlar (mamlakatta berilgan qarzlardan voz kechilishi)	10. Kapital transfertlar (mamlakat bergen qarzlaridan voz kechishi 12.Moliyaviy hisob (mamlakatdan chiqib ketgan bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va boshqa investitsiyalar)
11.Moliyaviy hisob (mamlakatta kirib kelgan bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va boshqa investitsiyalar)	
Kapital operatsiyalarini qoldig'i	
13.Tushirib qoldirish va xatolar	14.Tushirib qoldirish va xatolar
SH.Rasmiy hisoblar bo'yicha balans qoldig'i	
Rasmiy zaxiralarni hisobi	
15. Valyuta zaxiralaring kamayishi (oltin, EV, XVFdag'i zaxira pozitsiya va xorijiy valyuta)	16.Valyuta zaxiralaring ko'pavishi (oltin, EV, XVFdag'i zaxira pozitsiya va xorijiy valyuta'
Umumiy balans	

To'lov balansi taxdilining nihoyasida asosiy va ba-lanslovchi moddalar mayjudligini qayd etib o'tish joiz. Mohiyati jihatdan asosiy (avtonom) moddalarga tovarlar yoki kapitalning odatiy aylanmasini aks ettiruvchi moddalar kirdi. Balanslovchi (kompensatsiyalovchi) moddalar esa tovarlar va kapital harakatini ta'minlash maqsadi-dagi moliyaviy resurslar transfertini ko'rsatadi. Boshqa-cha qilib aytganda, asosiy moddalar tovar va xizmatlar eksport-importi, ishlab chiqarish filiallarini tashkil etish uchun investitsiyalar, ya'ni joriy operatsiyalar va uzoq muddatli kapital harakatini o'z ichiga oladi. Balanslovchi moddalar valyuta zaxiralarining harakati, qisqa muddatli aktivlar hajmining o'zgarishi, davlat qarzları va kreditlari, ikki tomonlama bitimlar hamda xalqaro tashkilotlar liniyasi bo'yicha moliyaviy yordamlardan tar-kib toptan. Amaliyotda asosiy va balanslovchi moddalarga ajratish shartli sanaladi. Quyidagi jadvalda jahondagi ayrim mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston to'lov ba-lansining tahlili ko'rinishi keltiriladi:

16-jadval

### Ayrim mamlakatlarning to'lov balanslari

(2017 y. mlrd. dollar hisobida)

Balans moddalarli	Germaniya	Buyuk Britaniya	AQSH	Rossiya <sup>61</sup>	O'zbekiston <sup>62</sup>
A.Joriy hisob	-2,9	10,83	-14U.54	24,647	-0,608
Eksport	510,71	281,31	681,65	75,666	3,695
Import	-439,90	-380	-876,37	-39,537	-3,767
Savdo balansi	70,81	-19,49	-194,72	36,129	-0,072
Xizmatlar	-41,92	20,33	88,78	-4,368	-0,366
Daromallar	-1,43	18,25	6,19	-7,716	-0,199
Joriy transferlar	-30,37	-8,26	-40,80	0,601	0,029
V.Kapital hisobi	-	1,32	0,35	-0,328	-0,127
S.Moliyaviy hisob	0,5	-25,49	269,03	-17,403	0,289
Chet elga bevosita investitsiya lar	-41,68	-63,50	-105,02	-1,9693	0
Mamlakatga bevosita investitsiyalar	11,66	37,00	106,04	3,309	0,605
Portfel investitsiyalari	0,78	-40,68	266,61	-0,945	0
Moliyaviy derivativlar	-8,82	-	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	38,56	41,68	1,40	-15,849	-0,316
D.Tushirib qoldirish va xatolar	-1,35	9,45	-127,83	-6,916	-0,034
Umumiy balans	-3,75	-3,89	1,01	-1,778	-0,480
E.Zaxiralar	3,75	3,89	-1,01	1,778	0,480
Zaxira aktivlari	3,75	3,89	-1,01	1,778	0,480
XVF kreditlidan foydalanish	-	-	-	-	-
Favqulodda moliyalashtirish	-	-	-	-	-
Ayriboshlash kursi	1,7341	0.61084	1.0000		66,4

Manba: Balance of Payments Statistics Yearbook. Wash., 2019. P. 334.

Yuqoridagi sxemadan tashqari alohida mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatida xalqaro investitsion qarzlar balansidan foydalaniladi, unda majburiyailar va mablag'larning ko'payishi yoki kamayishi kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar bo'limida oldingi debet va kredit hisoblari summasi ko'rinishida qayd eti-ladi. O'zbekistonning shunga o'xshash balansi uch kichik bo'lim: davlat boshqaruvi tarmog'i, banklar va boshka tar-moqdarni o'z ichiga oladi.

## 12.2. To'lov balansini shakllantirish tamoyillari

Mamlakat iqtisodiy otining jahon xo'jaligiga uzviy kirishi mustaqil O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning strategik maqsadlaridan biridir. Hozirgi iqtisodiy ri-vojlanishda tashqi iqtisodiy jihatni, uning jahon fan-tehnika taraqqiyotining milliy iqtisodiyotga ta'sir ko'rsa-tuvchi muhim omil sifatidagi ahamiyatini ko'p darajada respublika iqtisodiyotining jahon xujaligi tarkibiga jadal kirishiga, xo'jalik faoliyatining ko'p sohalari xorij tajribasini o'zlashtirishga imkon beruvchi tashqi iqtiso-diy aloqalar ilg'o shakllarining ustuvor rivojlanishi belgilab boradi.

O'zbekiston xalqaro mehnat taqsimotida o'zining tabiiy-iqtisodiy, transport-geografik va madaniy-tarixiy shart-sharoitlari va imkoniyatlari bilan ishtiroy etmoqda. Bu hol respublikaning tashqi iqtisodiy fao-liyatini rivojlantirish va uni jahon xo'jaligiga in-tegratsiyalash muammolari bilan bog'liq tadqiqotlari o'tkazish zaruriyatini shartlaydi. To'lov balansini tuzish va tahlil qilishning ba'zi jihatlari ushbu jarayonda eng muhim va zarur element hisoblanadi.

Turli mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liq-ligi kuchayayotgan bir sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyatning to'lov oqimlari balanslanmaganligi, to'lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasida aks etadigan chet el sarmoya qo'yilmalarining kelishi va ketishi singari jihatlari, shubhasiz, mamlakatning tashqi va ichki iqtiso-diy siyosatini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Bu ma'-lu-motlar tahliliy tadqiqotlar uchun ham muhim, ular mamlakatning to'lovga qobilligi holatining yomonlashish sa-bablarini belgilash va uni yaxshilashga doir zarur choralar ko'rish; tovar va xizmatlar tashqi savdosining bevosita chet el investitsiyalari bilan o'zaro bog'likdigini tadqiq etish; xalqaro bank tizimi doirasida moliyaviy mablag'lar oqimlari va zaxiralari ko'rib chiqish; tashqi qarz, daromad to'lash va iqtisodiy o'sish muammolarini, shuningdek, valyuta kurslari bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalar oqimlari o'rtasidagi alokalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

**To'lov balansi** muayyan mamlakat rezidentlarining norezidentlar bilan ma'lum vaqt davri ichida tuzgan barcha xalqaro bitimlari to'g'risidagi statistik hisobotdir. U mamlakat xorijdan olgan va xorijga taqsim etgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o'rtasidagi nisbatni, shuningdek, dumyodagi boshqa mamlakatlarga nisbatan uning moliyaviy pozitsiyasidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Shu sa-babli mamlakat to'lov balansining dinamikasini tad-qiq etish tashqi iqtisodiy muvozanat muammolarini tahlil etish uchun ayniqsa muhimdir.

Shuni ta'kidlash joizki, to'lov balansi zaxiralar bilan emas, balki oqimlar bilan, qandaydir aniq vaqt mo-baynida mavjud bo'lgan mamlakat iqtisodiy aktiv va passivlarining umumiyligi summalarini bilan emas, balki bazis davrida yuz beradigan haqiqiy va moliyaviy aktivlar hamda passivlardagi o'zgarishlar bilan ish ko'radi.

To'lov balansini tuzish uchun asosiy usul xalqaro bitim-lami ikkiyoqlama yozish usuli hisoblanadi. Buning ma'nosi huki, har bir operatsiya bir xil qiymatdagi ikkita yozuv bilan kayd etiladi. Ulardan biri «kredit» sifatida kayd etila-di va musbat belgiga ega, boshqasi «debet» bo'lib, manfiy belgiga ega, ularning summasi esa nolga teng bo'lishi kerak.

Shunday qilib, mamlakat to'lov balansida foydalani-ladigan hisob tizimi qoidalariغا muvofiq, kredit ustu-niga tovar va xizmatlar eksporta, olinadigan daromad, mamlakatga tegishli chet el aktivlari qisqarishi yoki uning tashqi majburiyatlar ko'payishi yoziladi. Debet ustuniga esa tovar va xizmatlar importa, tulanadigan daromad, mamlakat chet el aktivlарining ko'payishi yoki uning tashqi majburiyatlar kamayishi yoziladi. Boshqacha qilib ayt-ganda, moddiy yoki moliyaviy aktivlar uchun musbat son (kredit) ular zaxirasining kamayishini, manfiy sonlar (debet) esa ularning o'sishini anglatadi. Tegishlichka, maj-buriyatlar uchun musbat miqdor ularning ko'payishini, manfiy miqdor esa kamayishini anglatadi. Quyida to'lov balansida tashqi iqtisodiy operatsiyalarning debit yoki kredit ustunlarida aks etish qoidalari ko'rsatilgan.

To'lov balansini tuzishning yana bir muhim qoidasi barcha savdo-iqtisodiy va moliyaviy bitimlarni hisobga olishda rezidentlar va norezidentlar o'rtafigidagi tafovutni belgilashdir. Muayyan iqtisodiyot sektoriga tegishli bo'lgan xo'jalik birligining rezidentligini belgilash chog'ida asosiy mezon iqtisodiy manfaat markazi hisoblanadi. Umumqabul qilingan yondashuvlarga muvofiq, rezident-larga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'lgan jismoniy shaxslar, uning qonun hujjalariغا muvofiq barpo etilgan, uning hududida joylashgan korxo-na va tashkilotlar kiritiladi. Bundan tashqari, mamlakatning xorijdagи diplomatik va boshqa rasmiy vakolat-xonalari, shuningdek, rezident korxona va tashkilotlarning xorijdagи vakolatxonalari rezident hisoblanadi.

### **Debet va kredit bo'yicha tashqi iqtisodiy operatsiyalarning gulov balansida aks etish qoidalari**

Operatsiyalar	Kredit, musbat (+)	Debet, manfiy (-)
A. Tovarlar va xizmatlar	Tovarlar eksporta va xizmatlar eksporta (norezidentlarga xizmat ko'rsatish)	Tovarlar importa va xizmatlar importa (norezidentlar tomonidan xizmat kursatish)
B. Investitsiya lardan olinigan daromadlar va mehnatga haq to'lash	Rezidentlar tomonidan norezidentlardan olinigan	Rezidentlar tomonidan norezidentlarga to'langan
V. Transferlar (jeriy va kapital)	Mablag'larga ega bulish	Mablag'larni utkazish
G. Moliyaviy aktivlar yoki majburiyatlar bilan operatsiyalar	Moliyaviy aktivlar-ning kamayishi (masalan, importga to'lov-lar), norezidentlarga nisbatan majburiyatlarning oshishi (masalan, norezidentlar tomonidan milliy valyutalarning totib olinishi, xo'nijiy kreditlar jaib qilinishi) yoki norezidentlarga bo'lgan talablarning kamayishi (masalan, norezident banklarilari rezidentlar hisobvrag'i dagi qoldiq-larning kamayishi)	Moliyaviy aktivlar-ning oshishi (masalan, mahsulot eksportidan olinigan vulyuta tushu-mi), norezidentlarga bo'lgan talablarning oshishi (masalan, norezidentlarga kreditlar berish) yoki norezidentlarga nisbatan majburiyatlarning kamayishi (masalan, norezidentlar tomonidan xarid qilingan qimmatli qog'ozlarning rezidentlar tomonidan qoplanishi, olinigan qarzlarining qaytarishi)

Xalqaro qiyoslashlarga doyr bazani ta'minlash uchun tashqi iqtisodiy faoliyat hisobvaraqlarida beriladigan, mam-lakatning haqiqatdagi resurslari, moliyaviy aktivlari va majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalarini, shuningdek, uning tashqi aktivlari va majburiyatlar «zaxira»larini baholash imkonini beradigan miqdorlarni baholashning bir xildagi usullari zarur. Tashqi operatsiya-lar va zaxiralar-ning qiymat hajmlarini baholash uchun to'lov balansida bozor narxlardidan foydalilanadi. CHunonchi, operatsiyalar hajmi, odatda, bitim ishtirokchilar o'rtaida amalda keshilgan narxlarda, zaxiralar (aktivlar va majburiyatlar) esa buxgalteriya balansini tuzish paytida arnal qiladigan bozor narxlarda baholanadi. To'lov balansi statistikasida operatsiyalar ni baholash uchun foydalilanadigan bozor narxi xaridor unga bu tovari sotgan sotuvchidan xarid qiladigan tovar uchun to'lashga tayyor bo'lgan pullar summasi sifatida belgilanadi; ayrboshlash mustaqil ta-raflar o'rtaida faqat tijorat maqsadidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tijorat tusida bo'Imagan xalqaro operatsiyalarning muhim turlariga, xususan, iqtisodiy boyliklarni bir tarafla berish — transfert kiradi. Bunday operatsiyalar natijasida ishtirokchi taraflardan biri real yoki moliyaviy aktivlarni boshka tarafga topshirib, evaziga biron-bir qiyamat ekvivalentini olmadi. Bevosita sovg'a qilishlardan tashqari, ushbu toifaga resurslarni shartli narxlarda berish bilan bog'liq operatsiyalar kiradi, bunday narxlarga sovg'a qilish elementlari yoki sotishning imtivozli shartlari kiritilishi ham mumkin. Davlat organlari va faoliyati sof tijorat tusida bo'Imagan, fonda olmaydigan xususiy tashkilotlar amalga oshiradigan transfert opera-siyalari ham notijorat operatsiyalari sifatida hisobga olinadi. Bunday operatsiyalar ikkala mamlakat to'lov balanslarida bir xil summalar bilan qayd etilishi kerak. Xalqaro qoidalarga binoan resurslar qiymatini baholash berilgan vositalar bozorda sotilishi mumkin bulgan bozor narxlarda belgilanishi kerak.

Moliyaviy resurslar bilan operatsiyalar to'lov balansida ular xarid qilingan eki sotilgan narxlarda belgilanishi kerak. Bozorda muomalaga kiritilmagan moliyaviy vositalarning, avvalo, u yoki bu shakldagi qarz va ssuda-larning bozor narxi bo'lib ularning nominal qiymati hisoblanadi. Agar ko'rsatilgan majburiyatlar savdosi yuz beradigan ikqilamchi bozor shakllanadigan bo'lsa, mazkur majburiyatlar muomalaga kiritiladigan majburiyatlar raz-ryadiga kiritiladi va hisob ikqilamchi bozor narxlarda yuritilishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, to'lov balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarning qiymati o'z ichiga xizmatlar uchun haq, turli yig'implar, vosi-tachilik haklari yoki daromadlarni olmasligi kerak. Bu miqdorlar joriy operatsiyalar hisobvarag'ining tegishli moddalari bo'yicha qayd etiladi.

To'lov balansny tuzishda foydalilanadigan ikkiyokdama yozuv tizimiga binoan, hisobga olinadigan xar bir operatsiya bir vaqgda bir xil qiyamat miqdoridagi ikkita yozuv bilan ko'rsatilishi kerak. Operatsiyani bir vaqgda kayd etish ikkala yozuvning bitga sana bilan kursatilishini kafolatlaydi. Biroq amaliyotda shunday ham bo'ladiki, ikkala ishtirokchi tomoni-dan qayd etilgan biror-bir operatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pincha turli mustaqil axborot manbalaridan olinadi, buning oqibatida ishtirokchi taraflarning operatsiyani qayd etish vaqqi farq qilishi mumkin.

Shuning uchun amaliyotda tashqi savdo operatsiyalari ko'pincha tovar oqimlari mamlakatning davlat yoki bojxona chegarasini «jisman» kesib o'tishini aks ettiruvchi bojxona hujatlari asosida yuritiladi. Bunda tovarlarning chega-rani haqiqatda kesib

o'tishi payti bilan ushbu tovarlarga egalik huquqining o'tishi vaqt bo'yicha mos tushmasligi mumkin, shuning uchun sherik mamlakatlar taqdim etadigan hiso-botlarda qayd etish vaqt bilan bog'liq tafovutlar yuzaga keladi. Tovarga egalik huquqini berish paytini belgilash imkonini beradigan statistik ma'lumotlar bo'limgan taq-dirda tovarlarning mamlakatning davlat yoki bojxona chegarasini jisman kesib o'tishini aks ettiruvchi va bu bilan tovarlar egasining o'zgarishini ko'rsatuvchi bojxona hujjalari asosida tuzilgan tashqi savdo statistikasidan foydalanish mumkin.

Haqiqatdagi resurslarni topshirish kredit berilishi bilan birga boradigan hollarda ikkala operatsiyaning hisobi to'lov balansida ularning har biri amalda bajarilishi paytida amalga oshirilishi kerak.

To'lov balansidan iqtisodiy siyosat, prognozlar, tahliliy tadqiqotlar, operatsiyalarining tarkibiy kismlari, butun hajmi bo'yicha, ayrim mamlakatlar va mintaqalari, jahon iqtisodiyotiga doyr ma'lumotlar tahlili, umumlashtirilishi bo'yicha qiyoslashlarni ishlab chiqishda foydalanish uchun uning ma'lumotlari muayyan tarzda guruhlarga taqsimlanishi kerak.

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan hisobvaraqlarning standart tasnifi va to'lov balansi tarkibiy qismlarining ro'yxati ham nazariy qoidalarni, ham amaliy tusdagi mulohazalarni aks ettiradi, bu sohadagi milliy mutaxassislarining fikrlarini hisobga oladi va umuman olganda, milliy hisobvaraqlar tizimining qoidalariغا muvofiq keladi.

Odatda, tanlangan standart tarkibiy qismlarining ro'yxati unchalik keng bo'lmasligi kerak, chunki mamlakatlarning aksariyati o'zlarining tashqi iqtisodiy operatsiyalarini yagona namuna bo'yicha taqdim etishlari kerak. Lekin qo'shimcha axborotga zarurat tug'ilganda standart tarkibiy kismlarga o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

To'lov balansining namunaviy moddalari yoki standart tarkibiy kismlari hisobvaraqlarning ikki asosiy guru-higa birlashtiriladi: joriy operatsiyalar «joriy operatsiyalar» hisobvarag'ida, sarmoya operatsiyalari esa «sarmoya va moliyaviy vositalari bilan operatsiyalar» hisobvarag'ida aks ettiriladi. Tovarlar, xizmatlar va daromadlar bilan operatsiyalar joriy operatsiyalar hisoblanadi (joriy transferlar daromadlarni qayta taqsimlash deb qaraladi). Sarmoya operatsiyalari investitsiya faoliyati bilan bog'langan va mamlakatning aktivlari va majburiyatları bilan operatsiyalardan iborat bo'ladi.

#### To'lov balansi: standart tarkibiy qismlar

	Kredit	Debet
A. Joriy operatsiyalar hisobi		
1. Tovarlar va xizmatlar		
A. Tovarlar		
1. Tovarlar eks porti-importa		
2. Qayta ishshab uchun mo'ljallangan tovarlar		
Z. Tovarlarni ta'mirlash		
4. Tashuvchilar tomonidan portga etkazib berilgan tovarlar		
5. Nomonejar oltin		
V. Xizmatlar		
1. Transport xizmatlari		
2. Sofarlar		
2.1. Xu.zmat yuzasidan		
2.2. SHaxisiv		

Z.Aloqa xizmatlari		
4.Kurilish xizmatlari		
5 Sug' urta xizmatlari		
6 Moliyaviy xizmatlar		
7.Kompyuter va axborot xizmatlari		
8.Royalti va litsenziya mukofotlari		
9 Boshqa ishbilarmonlik xizmatlari		
YU.Madaniyat va dam olish sohasidagi xizmatlar		
11.Boshqa davlat xizmatlari		
2.Daromadlar		
A.Mehnatga haqto'lash		
V.Investitsiyalardan olingan daromadlar		
1. Bevosita investitsiyalar		
1.1. Kapitalda ishtirok etishdan olingan daromadlar		
1.1.1.Dividendlar va taqsimlangan fonda		
1.1.2.Reinvestitsiya qilingan daromadlar va taqsimlanmagan fonda		
1.2.Qarz majburiyatları buiicha daromadlar (foizlar)		
2. Portfel investitsiyalar i		
2.1.Kapitaldan olingan daromadlar (dividendlar)		
2.2.Kdrz majburiyatları buiicha daromadlar (foizlar)		
2.2.1.Obligatsiyalar va boshkd qarzdorlik majburiyatları		
2.2.2.Pul bozori vositalari va moliyaviy derishtivlar		
Z.Boshqa investitsiyalar		
Z.Joriy transferlar		
A.Davlat boshqaruvi sektori		
V.Boshqa sektorlar		
1.Ishchi-xizmatchilarning pul o'tkazmalari		
2.Boshkr utkazmalar		
V. Kapital bilan va moliyaviy operaiiyalar hisobi		
1. Kapital bilan operatsiyalar hisobi		
A. Kapital transferlar		
1. Davlat boshkaruv sektori		
1.1. Kreditoming qarzidan voz kechishi		
1.2.Boshkdlar		
2.Boshka sektorlar		
2.1. Aksiyadorlik kapitali		
2. Reinvestitsiya qilingan daromadlar		
2.3.Boshka kapigal		
V. Portfel investitsiyalari		
1. Aktivlar		
1.1. Kapital kimmatlri qogozlari		
1.2.Kdrzdorlikqimmatli qog'ozlari		
1.2.1.Obligatsiyalar va boshka qarzdorlik majburiyatları		
1.2.2.Pul bozori vositalari		
2. Majburiyatlar		
2.1. Kapital kimmatlri qog'ozlari		
2.1.1.Banklar		
2.1.2.Boshka sektorlar		
2.2.Qarzdorlik qimmatli qog'ozlari		
2.2.1.Obligatsiyalar va boshka qarzdorlik majburiyatları		
2.2.2.Pul bozori vositalari		

S. Moliyaviy derivativlar		
1. Aktivlar		
2. Majburiyatlar		
D. Boshka investitsiyalar		
1. Aktivlar		
1.1 Tijorat (savdo) kreditlari		
1.2. Ssudalar		
1.3. Naqd pullar va depozitlar		
1.4. Boshka aktivlar		
2. Majburiyatlar		
2.1. Tijorat (savdo) kreditlari		
2.2. Ssudalar		
2.3. Naqd pullar va depozitlar		
2.4. Boshka aktivlar		
EZaxira (rezerv) aktivlar		
Monetaroltin		
2Maxsus qarzolishkukuqi		
Z. XVFdag'i zaxira mavkei		
4. Xorijiy valyuta		
4. 1. Naqd pullar va depozitlar		
4.1.1. Pul ni tartibga solish organlaridagi		
4.1.2. Banklardagi		
4.2. Qimmatli qog'ozlar		
4.2.1. Aksiyalar		
4.2.2. Obligatsiyalar va boshqa qarzdorlik majburiyatlar		
4.2.3. Pul bozori vositalari va moliyaviy derivativlar		
5. Boshqa talablar		
S. Tushirib qoldirish va xatolar		

Joriy operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha saldo mutlaq miqdor bo'yicha sarmoya hamda moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha saldoga teng va belgisiga ko'ra qarama-qarshi bo'lishi kerak.

Tovarlar, xizmatlar va daromadlarni qamrab oladigan joriy operatsiyalar hisobvarag'ining standart tarkibiy qismlari mamlakatning qolgan dunyo xo'jalik yurituvchi sybyektlari bilan operatsiyalari borishida to'lov balansini tuzuvchi mamlakat tomonidan haqiqiy resurslarni taqdim etishi yoki xarid qilishini aks ettirish uchun xizmat qila-di. Kredit bo'yicha qayd etilgan oqimlar mazkur iqtisodiyot ichki mahsulotining boshqa iqtisodiyotlarga tovar va xizmatlar eksporti ko'rinishida beriladigan qismini, shuning-dek, dumyodagi qolgan mamlakatlar o'z ishlab chiqarish jara-yonlarida foydalanadigan, rezident xodimlarga ish haqi va milliy investitsiyalardan daromallar ko'rinishida u tomonidan taqdim etilgan ishlab chiqarish omillari xizmat haqini aks ettiradi. Debet bo'yicha esa tovarlar va xizmatlar importi, shuningdek, norezident xodimlarning mehnat haqi va xorijiy investitsiyalarga daromad ko'rinishida taqdim etilgan ishlab chiqarish omillari xizmat haqini qayd etiladi. Shuni ta'kidlash joizki, joriy operatsiyalar hisobvarag'ida debet va kredit yozuvlari yalpi asosda, ya'ni aloxida amalga oshiriladi.

To'lov balansining Yuqorida sanalgan tarkibiy qismi-ri operatsiyalarning uch turini qamrab oladi: egalik huquqining tovarlarga o'tishi; xizmatlar taqdim etilishi;

daromadni hisoblab yozish. Shunday qilib, joriy operatsiyalar hisobvarag'i rezidentlar bilan norezidentlar o'rta-sida sodir etiladigan iqtisodiy boyliklarga doyr barcha operatsiyalarni kamrab oladi (moliyaviy akgivlar bilan operatsiyalardan tashkari). Joriy foydalanish uchun mo'ljallan-gan boyliklarni beg'araz (tekinga) taqdim etish yoki olish bilan bog'liq operatsiyalar ham unda hisobga olinadi.

Sarmoya va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisob-kitobi tashqi moliyaviy akgivlar va iqtisodiyot majburiyatlar bilan bog'liq barcha operatsiyalarni kamrab oladi. Akgivlar norezidentlarga doyr moliyaviy talablardan hosil bo'ladi. Majburiyatlar esa norezidentlardan kdrzni xarakterlaydi.

Sarmoya bilan operatsiyalar hisobvarag'i ikki tarkibiy kismidan iborat: sarmoya transfertlari va noishlab chiqarish nomoliyaviy aktivlarini xarid qilish (sotish). Sarmoya transfertlari donor va oluvchining akgivlari yoki majburiyatlar hajminating o'zgarishiga, ya'ni ular taqdim etadigan iktiso-dietlar milliy boyligi darajasida o'zgarishga olib keladi. Sarmoya transfertlari misoli asosiy fondlarga egalik huquqlarini beg'araz berish, qarzlardan kechishni ko'rsatadi. Agar ushbu mablag'lar asosiy fondlarni xarid qilish yoki kapital kurlish uchun mo'ljallansagina, pul mablag'larini beg'araz berish kapital transfert sifatida qaraladi. Noishlab chiqarish nomoliyaviy aktivlari xarid qilishlar (sotish) asosan patentlar, ijara shartnomalari yoki boshkalarga beri-lishi mumkin bo'lgan boshqa shartnomalar singari nomoddiy boyliklarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobvaraqa hisobot davrida yuz bergan ak-tivlar va rezidentlar ning norezidentlarga nisbatan maj-buriyatlari doyr operatsiyalar aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobvaraq bo'iicha manfiy saldo operatsiyalar natijasida rezidentlar chet el aktivlarining sof ko'pay-ishini va (yoki) ular chet el majburiyatlar ning sof kamayishini ko'rsatadi. Aksincha, musbat saldo rezidentlar chet el aktivlarining sof pasayishini yoki ular chet el maj-buriyatlarning o'sishini anglatadi.

Moliyaviy hisobvaraqa akgivlar va majburiyatlarni funksional belgiga qarab to'rt guruhga tasniflanadi: be-vosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar, boshqa investitsiyalar va zaxira akgivlar.

Ushbu guruhlar urtasidagi chegaralar ancha shartlidir. Be-vosita investitsiyalar korxonani boshkarish jarayoniga ta'sir ko'rsatish uchun amalga oshiriladi, bunga esa uning sarmoyasida ishtiroy etish vositasida erishiladi. Bevosita investor bilan bevosita investitsiyalash korxonasi o'rtasida ushbu korxonaning o'z sarmoyasida ishtiroy etishdan farq-li shaklda yuz beradigan barcha operatsiyalar ham, masalan, kreditlarni taqdim etish, bevosita investitsiyalar sifatida tasniflanadi.

Portfel investitsiyalar asosan daromad olish uchun xa-rid qilinadigan qarzga oid qimmaли qog'ozlar, aksiyalar va hokazolardan iboradir. Kdrz majburiyatlar obligatsiyalar va boshqa uzoq muddatli qarz majburiyatlar, pul bozori vo-sitalari va hosila moliyaviy vositalarga bo'linadi.

Bevosita va portfel investitsiyalar ni chegaralash uchun amaliyotda quyidagi mezondan foydalaniladi: agar investor korxona oddiy aksiyalarining 10 foizi va undan or-tig'iga egalik qilsa, quyilgan mablag'lar bevosita investitsiyalar tusida bo'ladi deb hisoblanadi.

Mamlakatning pul-kreditni tartibga solish organlari to'lov balansi va byudjetni tartibga solish maqsadida foyda-lanadigan aktivlar zaxira aktivlar deb hisoblanadi.

Amadda bunday aktivlardan foydalanish imkoniyati bioror-bir ras-miy mezonlar, masalan, bu aktivlar kimga tegishliligi yoki ular qanday valyutada ifodalanganliga bilan kat’iy tarzda bog’lanmaydi. Zaxira aktivlarga: monetar oltin, qarz olish-ning maxsus huquqdari (SDR), XVFdagи zaxira pozitsiya, chet el valyutasidagi aktivlar (naqd pullar va depozitlar, qimmatli qog’ozlar) va boshqa moliyaviy talablar kiradi. Zaxira aktivlarga kiritilishi kerak bo’lgan tarkibiy kis-mlarni qamrab olish va belgilash mamlakat to’lov balansini tuzishning umumiy qoidalariga bog’likdir.

Bevosita, portfel investitsiyalari va zaxira aktivlar bilan operatsiyalar sifatida karalmaydigan barcha operatsiyalar «bo-shka investitsiyalar» moddasi bo'yicha aks ettiriladi.

Boshqa investitsiyalar ham, portfel investitsiyalari singari, moliyaviy vosita rezidentlarning aktivi yoki majburiyati hisoblanishiga qarab tasniflanadi.

«Boshka investitsiyalar» moddasi bo'yicha aktivlar va maj-buriyatlar moliyaviy vosita turiga qarab tasniflanadi, ya’ni naqd valyuta va depozitlar, savdo kreditilar, ssuda va qarzlar, kechiktirilgan qarz, boshqa aktivlar va majburiyatlar. Keyin ko’p hollarda debitor-rezident (majburiyatlar uchun) yoki kreditor-rezident (aktivlar uchun) sektori kursatiladi.

Shu tariqa to’lov balansini tuzish o’zaro chambarchas bog’langan hisob va taxdil vazifalarini bajarish uchun mo’ljal-langan. To’lov balansining tahlili mamlakat o’zining tashqi iqtisodiy faoliyatini kanchalik samarali boshkara olishi va, tegishlichcha, tashqi iqtisodiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun asos bo’lib xizmat qila olishi to’g’risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

### **12.3. To’lov balansini tasniflash va uning MHT ko’rsatkichlari bilan bog’liqligi**

To’lov balansini tuzish qoidasig’a ko’ra u har doim ba-lanslangan bo’ladi. Manfiy yoki musbat saldo tushunchasi-ni faqat uning ayrim qismlariga qo’llash mumkin. Bunda shuni ta’kidlash zarurki, balans saldosining o’zi o’z holicha, uning milliy iqtisodietga ta’siri nuqtai nazaridan olganda, bir ma’noda talkin qilinishi mumkin emas. Iqtisodiy siyosat maqsadlariga bog’liqholda ayrim moddalar bo’yi-cha ham manfiy, ham musbat saldoni ham ijobji, ham sal-biy jihatdan baholash mumkin.

Ma’lumki, joriy operatsiyalar hisobvarag’i saldosi (CAB) ichki jamg’armalar yalpi summasi (S) bilan investitsiyalar umumiy hajmi (I) o’tasidagi ayirmaga teng:

$$\text{CAB} \times \text{X-M+NY+NCTqS-I}, \quad (1)$$

bu yerda, X — tovar va xizmatlar eksporta; M — tovar va xizmatlar importa; NY — xorijda olingan sof daromad; NCT — sof joriy transferlari.

Shunday qilib, joriy operatsiyalar hisobvarag’i saldosi mamlakat ichida jamg’armalar va investitsiyalar hara-katini aks ettiradi. Shuning uchum ushu hisobvaraqla-tini taxdil qilganda qanday qilib uning harakati dina-mikasi ko’rsatilgan o’zgarishlarga bog’liq bo’lishini tushu-nish muhimdir. Agar ancha umumiy xususiyatlar to’g’risida so’zlasak, (1) tenglamadan kelib chiqadiki, joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi saldosini aktiv saldoni ko'paytirish yoki kamomadni qisqartirish tarafiga har qan-day o'zgartirish, albatta, ichki iqtisodiyotga investitsiyalar hajmiga nisbatan ichki jamg’armalarning o’sishi bilan birga boradi.

Bunday bog'liklik to'lov balansi joriy hisobvarag'ining saldofiga tarif stavkalari, kvotalar va valyuta kurslarini o'zgartirish vositasida bevosita ta'sir ko'rsatish, ichki jamgarmalar va investitsiyalar dinamikasini iqtisodiyotning tashqi sekToriga nisbatan qo'yilgan vazifa-larni ro'yobga chiqarishga imkon yaratuvchi yo'nalishda o'zgartirishini baholash qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur mamlakatning ichki sektorlari va tashqi ikti-sodiy sektori o'rtasidagi alokani boshqacha tasarrufdag'i milliy daromadning yalpi summasi (GNDY) bilan rezidentlarning tovarlar va xizmatlarga doyr xarajatlari (A) o'rtasidagi ayirma sifatida tasavvur etish mumkin. Ta'rifga ko'ra, ko'rsatilgan o'zgaruvchan miqdorlar tengdir:

$$GNDY = C + I + G$$
 (2)

A q C+I+G ichki yutilish (absorbsiya) yoki ichki xarajatlari. (3)

bu yerda, S — xususiy sektor iste'moliga doyr xarajatlari; G — davlat boshqaruvi sektorining iste'moliga doyr xarajatlari.

Ushbu tenglamalardan ko'rindan, tovarlar va xizmatlar bilan tashqi savdo operatsiyalari saldosiga, sof daromad va sof joriy transferlari summasi bu daromadning rezidentlar sarflagan qismini chegirgan holda tasarrufdag'i yalpi daromad miqdoriga teng:

$$G = GNDY - A$$
 (4)

To'lov balansining taxdilida olingen bog'likdik ilgari ko'rib chiqilgan o'zar nisbat singari rol o'ynaydi: joriy hisob-kitoblar holatini yaxshilash uchun mamlakat daromadlar darajasiga nisbatan xarajatlarni qisqartirish hisobiga resurslarning qandaydir qismini bo'sxatib olish zarur. Xarajatlarni tegishlichka ko'paytirish bilan bormagan milliy daromadni o'stirish natijasida ham shunday samaraga eri-shish mumkin. Mavjud normutanosibliklarni silliklashga va iqtisodiyot faoliyatining samaradorligini oshirishga kara-tilgan tarkibiy qayta qurish ko'rsatilgan maqsadga erishish-ning ehtimoliy yollaridan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan tenglamalar ayniyatlardir, ular xo'jalik yurituvchi sybyektlarning harakatlarini emas, balki iqtisodiy o'zgaruvchan miqdorlar o'rtasidagi bog'liklikni tavsiflaydi. Shu sababli, faqat ulardan foydalanib, joriy operatsiyalar hisobvarag'i saldosining o'zgarishini belgilaydigan omillarni xar tomonloma baholab bo'lmaydi. Chunonchi, rezidentlarning tovar va xizmatlarga doyr xarajatlari summasi (A) ko'rinishicha, kisman ularning da-romadlari (GNDY) bilan belgilanadi. Shuning uchun GNDYHHr o'zgarishi tovarlar va xizmatlar bilan tashqi savdo operatsiyalari saldofiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinganda, agar ushbu o'zgarishlarning xarajatlari miqdoriga (A) ta'siri hisobga olinmasa, (4) tenglamadan foydalanish xato natijalarga olib kelishi mumkin. Xususan, agar daromad-larning o'sishi mamlakat rezidentlarning ko'shimcha tovarlar va xizmatlarni (ham xorijda, ham mamlakatda ishlab chiqarilgan) xarid qilishga doyr oshgan xarajatlari bilan to'liq kom-pensatsiyalanganda edi, daromadlarning ko'payishi joriy operatsiyalar hisobvarag'i saldofiga ta'sir ko'rsatmagan bo'lar edi. Mazkur misol mamlakatning to'lov balansini tahlil qilish chog'ida uning rezidentlarning xarajatlarga moyilligi singari tafsifni e'tiborga olish zarurligidan dalolat beradi.

Agar xususiy sektor bilan davlat boshqaruvi sektori o'rtasiga chegara ko'yilsa, iqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlari o'rtasidagi aloqadorlik yanada aniq ko'zga

tashlana-di. Xususiy sektorning jamg'arma va investitsiyalari (Sp va lr) davlat jamg'armasi va investitsiyalari (Sg va Ig) bilan quyidagi nisbatda bog'langan:

$$S-I \ q \ Sp+Sg+Ip+Ig. \quad (5)$$

Ifodani (1) tenglamadan joriy operatsiyalar hisobvarag'i saldosи uchun qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$CAB \ q \ (Sp+Ip) + (Sg+Ig) \ q \ S-I. \quad (6)$$

Bunday ko'rindaniki, davlat boshqaruvi sektorining man-fiy «jamg'armalari» sof xususiy jamg'armalar bilan kom-pensatsiyalarnas ekan, joriy operatsiyalar hisobvarag'ining kamomadi yuzaga keladi. Aniqooq qilib aysak, tenglamaning ko'rsatishicha, ko'rib chiqilayotgan hisobvaraqaning saldosи ko'p darajada davlat byudjeti bilan birgalikdagi va-ziyatga bog'liqsiр (Sg-Ig). Xususan, joriy balansining bar-qaror kamomadi hukumatning xarajatlari byudjetiga tushum-lardan doimo oshib ketayotganidan dalolat berishi mumkin, shuning uchun byudjetga soliqlar undirish siyosatini qattiqlashtirish yuzaga kelgan vaziyatni tuzatishga doyr mumkin bo'lgan choraldan biri sifatida karalkshi mumkin.

Yana bir karra ta'kidlaymizki, xususiy va davlat in-vestitsiyalari va jamg'armalari nuktai nazaridan tashqi ikti-sodiy sektordagi vaziyatning taxdili (6) tenglama yordamida alovida amalga oshirilishi mumkin emas, chunki uning o'ng kismidagi o'zgaruvchi miqdorlar o'zaro bog'langan. Masalan, davlat boshqaruvi sektorida jamg'armalarning o'sishi (yoki manfiy «jamg'armalar» qisqarishi) va mamlakat joriy operatsiyalar balansining yaxshilanishiga, misol uchun, soliqlarni oshirish hisobiga erishish mumkin. Shu bilan birga, bunday choranning natijalarini tahlil qilib, xususiy sektorda yuz beradigan jarayonlarni hisobga olish kerak. Soliqlarni oshirish xususiy investitsiyalar miqdoriga ham ijobjiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natija qisman qanday soliqlar — iste'molga doyr soliqlar (bu esa ichki resurslarni bo'shatib olishga va buning oqibatida sarmoyaning ichki jamg'arilishi o'sishiga olib kelgan bo'lur edi) yoki qo'yilgan sarmoyadan oli-nadigan daromadga doyr soliqlar oshirilganiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, iste'molga doyr soliqlar natijasida tasarrufdag'i daromad darajasining pasayishi, bizningcha, xususiy jamg'armalar summasining qisqarishiga olib keladi. Aytilganlarni hisobga olganda, shu narsa tushunarli bo'ladiki, (6) tenglama milliy jamg'armalar va investitsiyalar harakati bilan iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy sektoridagi vaziyat o'rtafiga bog'liklikni taxdil etish uchun foydalilanildigan fa-kat asosdir; ko'rsatilgan tenglama ikkala sektorming harakatini belgilaydigan omillar to'g'risidagi aniq axborot bilan to'ldirilgandagina, joriy operatsiyalar hisobvarag'iga iqtisodiy siyosat ta'sirining natijalarini xar tomonlama baholash mumkin bo'ladi.

To'lov balansini tuzishning ikkiyoqlama yozuv qoidasiga muvofiq, barcha tashqi iqtisodiy operatsiyalarga doyr (joriy operatsiyalar, sarmoya bilan va molivaviy operatsiyalar, shu jumladan, zaxira aktivlar bilan operatsiyalar) yozuvlar summasi idealda nolga teng bo'lishi kerak. Biroq tegishli ma'lumotlar mustaqil manbalardan kelib tushishi sababli amaliyotda ikkiyokdama yozuv tizimi sof kredit yoki debet saldosining paydo bo'lishiga olib keladi, ya'ni hisobvarakdarda sof xatolar va tushirib qoldirishlar paydo bo'ladi. Hisobda xato va tushirib qoldirishlarga yo'l qo'yilmagan, joriy operatsiyalar hisobvarag'i va sarmoya bilan operatsiyalar hamda molivaviy operatsiyalar (shu jumladan, zaxira aktivlar bilan) hisobvarag'i bo'yicha barcha

yozuvlar summasi nolga teng deylik. Ko'rsatilgan xossa to'lov balansining ayniyati deb ataladi va quyidagi tenglama bilan tavsiflanadi:

CAB q NKA + RT, (7)

bu yerda, NKA — sarmoya bilan operatsiyalar va moliyaviy operatsiyalar hisobvarag'i (zaxira aktivlar bilan operatsiyalar bundan mustasno) bo'yicha to'lov balansi saldoasi; RT — zaxira aktivlar bilan operatsiyalar saldoasi.

(7) tenglamadan ko'rinish turibdiki, joriy operatsiyalar hisobvarag'i saldoasi har doim teskari belgi bilan sarmoyaga doyr operatsiyalar va moliyaviy operatsiyalar hisob-varag'i saldoasi va zaxira aktivlar bilan operatsiyalar saldoasi summasiga teng bo'ladi. Bu bog'likdikdan mazkur mamlakat taqdim etган yoki u xorijdan olgan, joriy operatsiya-lar hisobvarag'ining saldoasi sifatida o'changan resurs-larmin g sof hajmi ta'rifga ko'ra ushbu mamlakatning qolgan dunyo-ga nisbatan sof daromadlari miqdori o'zgarishi bilan birga borishi kerakligi kelib chiqadi. Masalan, joriy operatsiyalar hisobvarag'ining musbat saldoasi rasmiy organlar yoki xususiy sektor tomonidan norezidentlarga mamlakat sof talablarining o'sishida yoki mamlakat pul-kreditni tartib-ga solish organlari tomonidan zaxira aktivlar xarid qili-nishida o'z ifodasini topali. Va aksincha, kamomadi resurs-larning sof xaridi mamlakatning chet el aktivlarini sarflash hisobiga yoki norezidentlar oldida majburiyatlarning o'sishi hisobiga to'lanishi kerakligini ko'zlaydi. unday holatda tulov balansining ayniyati umuman olganda iktiso-diyotning byudjet bilan cheklanganini tavsiflaydi.

Odatda, umumiy to'lov balansi ichida savdo balansi, jo-riy operatsiyalar balansi, sarmoyalar harakati balansi va rasmiy hisob-kitoblar (zaxiralar) balansi saldolari ajratib ko'rsatiladi.

Savdo balansi saldoasi xizmatlarni hisobga olmagan holda, faqat tovarlar eksporta va importa o'rasisidagi farq sifatida shakllanadi. Savdo balansini o'zgartirishga sharxlar qanday omil-lar mazkur o'zgarishni shartlaganiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar manfiy saldo eksportni qiskartirish natajasida hosil bo'lgan bo'lsa, bu hol milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshli-gi pasayganidan guvoxlik berishi va salbiy hodisa sifatida karalishi mumkin. Lekin, agar bunday holat mamlakatga bevo-sita investitsiyalar oqimi natijasida importning o'sishi na-tijasi bo'lsa, bu hech ham milliy iqtisodiyotning zaiflashuvi deb karalishi mumkin emas.

Joriy operatsiyalar bo'iicha balans saldoasi, odatda to'lov balansining ma'lumot berish saldoasi sifatida qaraladi, chunki mamlakatning moliyalashga extiyojini belgilab, ayni vaqtida ichki iqtisodiy siyosatda tashqi iktasodiy cheklov-lar omili hisoblanadi.

Joriy tulov balansining musbat saldoasi mamlakat boshqa davlatlarga nisbatan netto investor ekanligini anglatadi va aksincha, joriy operatsiyalar bo'yicha kamomad mamlakatning xorijdagi barcha shakllar bo'yicha chet el in-vestitsiyalari qiskaray ottanini va u tovarlar, xizmatlar importa uchun to'lash hamda o'tkazmalarni moliyalash uchun sof qarzdorga aylanganini bildiradi; haqiqatda joriy to'lov balansining musbat saldofiga ega bo'lgan mamlakat sarmoyaning ichki jamg'arishini o'stirish o'miga milliy jamg'armalar bir qismini xorija investitsiyalaydi.

Sarmoyalar harakati saldoasi amalda joriy saldo hola-tining ko'zgudagi aksi hisoblanadi, chunki real resurslar oqimini moliyalashni ko'rsatadi, ya'ni joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansining kamomadi asosan sarmoyalar harakati hisobvarag'iga sarmoyaning sof oqimi bilan moliya-lanadi va aksincha, joriy

hisobvaraq aktivи sarmoyaning sarmoyalar harakati balansi bo'yicha sof oqimi bilan birga boradi. So'nggi holda joriy balansning ortiqcha mablag'lарidan ko'chmas mulkni xarid qilish yoki dunyodagi boshqa mamlakatlarga qarz berish uchun foydalaniladi.

Rasmiy hisob-kitoblar balansi saldosini to'lov balansi umumiy saldosining eng ko'p tarqalgan ta'rif hisobla-nadi va norezidentlar tomonidan mamlakatga doyrlikvid talablarining ko'paygani yoki kamayganidan, yoki mamlakatning chet el likvid aktivlaridagi rasmiy zaxiralari ko'paygani yoki kamayganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, iqtisodiyot uchun va har bir sektor uchun moliyalash manbalari bilan va sarmoyani sof jamg'arish va noishlab chiqarish nomoliyaviy aktivlarni sof xarid qilish summasi o'tasidagi balanslash moddasi sof kreditlashlar sof qarz olish miqdorini tashkil etadi. To'lov balansi statistika kasida iqtisodiyot uchun sof kreditlashlar sof qarz olish miqdori, umuman olganda joriy operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha saldo va sarmoya bilan operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha saldo summasiga to'g'ri keladi Shu bilan birga ushbu ko'rsatkich mazkur iqtisodiyotning xorijdagi yoki chet ellik investorlarning mazkur mamlakatdagi moliyaviy sarmoya qo'yilmalarining sof hajmiga tengdir.

Sarmoya bilan moliyaviy resurslar operatsiyalari hisob-varag'i sof chet el investitsiyalarini yoki mazkur mamlakatning dunyodagi qolgan mamlakatlarga nisbatan sof kreditlashi sof qarz olishini kayd etadi. Ushbu hisobvaraq mamlakat ichki jamg'armalarini investitsiyalash usullaridan birini tavsiflaydi; mamlakat ichida sarmoya jamg'arish (asosan moddiy aktivlar shaklida) boshqa usul hisoblanadi. Agar joriy operatsiyalar hisobvarag'i saldosini yalpi ichki jamg'-armalar va investitsiyalar o'tasidagi ayirmaga tengligini esga olsak, ko'rsatilgan hisobvaraqqqa aks ettiriladigan boylikni jamg'arish jarayonini yanada aniqoq tasavvur etish mumkin. Shundan kelib chiqib, (7) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

S-I q NKA+RT. (8)

Shu tariqa ichki jamg'armalarining sarmoyani ichki jamg'a-rishni o'stirishga yo'naltirilmaydigan qismi xususiy sektorga yoki mazkur mamlakatning rasmiy organlariga teplili xorijdagi aktivlarga qo'yiladi.

(8) tenglama resurslar va sarmoyalarning vaqtidagi hara-katini tavsiflaydi. Mamlakat jamgarmalarining biror-bir davr uchun umumiy summasi u tomonidan jamg'arilgan boy-likning jami zaxiralari haqida tasavvur beradi.

Moliyaviy hisobvaraq bilan joriy operatsiyalar hisobvarag'i o'tasida yana bir bog'likdik bor. Moliyaviy okim-lar mamlakat tashqi talablari va majburiyatlarining o'zga-rishini yuzaga keltiradi. Deyarli hamma hollarda moliyaviy aktivlar joriy operatsiyalar hisobvarag'i bo'yicha inves-titsiyadan olinadigan daromadlar toifasida aks ettiriladi-gan daromadlar (foizdan, dividendlar va fonda ko'rinishi-da) keltiradi. Hisobvaraklar o'tasidagi bunday aloqa joriy operatsiyalar hisobvarag'ining manfiy saldosiga ega bo'lgan mamlakat uchun ayniqsa muhimdir, chunki hozirgi ka-momad bilan keyingi davrdagi saldo qiymati o'tasida mu-him dinamik aloqa mavjud. Ko'rsatilgan kamomadni moliya-lash bir vaqtida ikki shartni bajarmasdan — norezidentlar oldidagi majburiyatlar summasini ko'paytirish va norezi-dentlarga doyr talablarni, yani mamlakat sof chet el aktiv-larini kamaytirish hisobiga qisqartirishsiz amalga oshi-rib bo'lmaydi. Bu esa, o'z navbatida, sof investitsiya daro-madtarini qisqartirishga (u qo'yilgan sarmoyag'a doyr daromadlar me'yorini tegishli oshirish

bilan muvozanatlashtirilmasligi sharti bilan) olib keladi, bu esa joriy operatsiyalarga doyr to'lov balansi kamomadini yanada chukurlashti-radi. Hisobvaraklar o'rtasida teskari aloqaning mavjudligi nobarqaror vaziyatning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, bunda joriy tulov balansining holati voqealarning noxush rivojlanishini to'xtatish imkonini beradigan zarur iqtisodiy choralar ko'rilmuniga yoki muayyan makroiqtisodiy o'zgaruvchan miqdorlar (masalan, valyuta kurslari) tuzatilguniga qadar yomonlashaveradi.

Xorijdag'i foiz stavkalari bilan qiyoslaganda ichki foiz stavkalaringin o'sishi bilan sharflangan moliyaviy mablag'larning sof oqimi hisobiga joriy operatsiyalar hisobvarag'i kamomadini moliyalash turli usullar bilan amalga oshiriladi. Mamlakatga moliyaviy resurslarni jalb etish bevosita investitsiyalar, chet el banklaridan ssudalar olish yoki xalqaro bozorlarda muomalada yuradigan obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bank ssudalarini yoki mamlakat ichida aksiya va obligatsiyalar chiqarish hisobiga mab-lag'larni safarbar qilish ko'shimcha sarmoya mablag'larini moliyalashning boshqa bir usulidir. Bunday vaziyatda ichki xarajatlarning o'sishi va tashqi moliyalash o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bog'langan emas. Shunday bo'lsa-da, investitsiyalar o'sishi tufayli ichki foiz stavkalaringin xorijdag'i stavkalarga nisbatan oshishi pul mablag'lari oqimini rag'batlantiradi. Barqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyatning mavjudligi (xususan, foiz stavkalaringin o'sishini milliy valyuta kur-sining tushishi davom etaettanligi baravarlashtirib qo'yishi kutilmayotgan bo'lsa) mamlakatga moliyaviy resurslarning ketma-ket oqib kelishiga imkon yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamg' armalarni yig'ishga kara-ganda sarmoyani ichki jamg'arish ancha tezroqo'sishi natija-sida moliyaviy vositalar oqimi mamlakat xorijiy aktiv-lari qisqarishiga va binobarin, mamlakat olayotgan investitsiya daromadlari miqdorining o'zgarishiga olib keladi. Qo'yilgan sarmoya mamlakat iqtisodiyotiningunumdonorligini jiddiy tarzda oshirgan taqsirdagina bunday moliyalash mumkin bo'ladi. Bu holda unumdonorlikni oshirish ikki yo'li bilan namoyon bo'lishi mumkin: **birinchidan**, investor roilda may-donga chiqayotgan xususiy yoki davlat korxonasi ushbu investi-siyalarni moliyalash uchun zarur pul mabalag'lari okimini yuzaga keltiradigan, qo'yilgan sarmoyaga daromadlarning tegishli me'yorini ta'minlash uchun yetarlicha fonda oladigan bo'lishi kerak; **ikkinchidan**, qo'shimcha qo'yilmalar o'zining tashqi qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha mamlakat imkoniyatlari kengaytirishi kerak. Xorijdan olingan moliyaviy resurslardan ichki iqtisodiyot ehtiyojlarida foydalanish samarali bo'lganda, tashqi manbalar hisobiga joriy operatsiyalarga doyr kamomadni moliyalash uzoq muddatli tusda bo'ladi, deb taxmin qilish mumkin. Bunday vaziyatda sarmoya importchisi bo'lgan mamlakat joriy operatsiyalari hisobvarag'ining kamomadi ushbu resurslarning samarali joy lashtirilganidan dalolat beradi.

Boshqa tomondan, shunday vaziyat paydo bo'lib qolishi mumkinki, bunda investitsiyalar hajmi o'zgarmaydi, ichki jamg' armalar darajasi esa soliqlarni oshirish va davlat-ning boshka daromadlari ko'payishi bilan birga bormagan davlat xarajatlarning o'sishi natijasida yoki davlat jamg' armalarining tegishli o'zgarishlari bilan kompensatsiyalan-magan xususiy sektor iste'molining o'sishi oqibatida qis-qaradi. Bu holda mamlakat ichidagi foiz stavkalari ham o'sa boshlaydi. Biroq avvalgi

ssenariydan farq qilib, joriy operatsiyalar hisobvarag'iga doir kamomadning chuqurlashuvi mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi bilan birga bormaydi. Agar chet ellik investorlar joriy operatsiyalar hisobvarag'i holatining yomonlashuviga mamlakat hukumatining noto'g'ri va noizchil siyosati sabab bo'lgan leb hisoblashsa, unga xorijdan moliyaviy resurslarning ketma-ket oqib kelishi ancha kamayadi. Masalan, ichki jamg'armalarning qiska-rishi davlat sektorining o'sib borayottan kamomadini aks et-tirishi mumkin, biroqu sarmoyani jang'arish bilan hech ham bog'lanmagan. Yoki yutish darajasidagi sakrash «ekspansionistik», ya'ni kreditni kengaytirishga yo'naltirilgan pul-kredit siyosatiga javoban xususiy sektor xaraajatlarining ancha yuqori darajasini anglatishi mumkin. Bunday hollarda investorlar mamlakatga doir sof'talablari summasini ko'paytirishni xoxdamasliklari mumkin.

Xorijiy moliyalash yo'q bo'lganida mamlakatga xususiy sektorning moliyaviy resurslarini jalb etishga qaratilgan iqtisodiy choralarни ko'rishga, to'lov balansi kamomadini qoplash uchun o'zining zaxira aktivlaridan foydalanishga yokii to'lov balansining holatini yaxshilashga yo'naltirilgan tuzatuvchi tadbirlarni ko'rishga to'g'ri keladi. To'lov balansi ayniyatining tahlili ((7) tenglama) shuni ko'rsatadi, agar mamlakat joriy operatsiyalar hisobvarag'i kamomadini his esa, ushbu muammoni hal etishning ehtimoliy variantlari xalqaro zaxiralarni qisqartirishga yokii xususiy investorlarga ko'shimcha rag'batlar berishga olib keladi. Xususiy investorlarga qo'shimcha rag'batlar berilishi mamlakat ichida uzoq muddatli qo'yilmalarga imkon yaratuvchi qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratish hisobiga amalga oshiriladi. Mamlakatga chet el investitsiyalarining barqaror oqib kelishi puxta o'ylangan, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlaydigan va turli shakllarda sarmoya qo'yilishini rag'batlantiradigan pul-kredit va byudjet-soliq siyosatini o'tkazish yo'li bilan ham ta'minlanadi. Xorijdan molivaviy resurslarni jalb etish ichki foiz stavkalarini oshirish orqali tashkil etilishi mumkin. Joriy operatsiyalar hisobvarag'iga doir kamomad yalpi talabning o'sishi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, bunday chora o'zini to'liq qoplaydi; bunday vaziyatda pul-kredit sohasida ushlab turish siyosatini o'tkazib, bu bilan kamomadni qisqa muddatli moliyalashni ta'minlash yo'li bilan talabning ortib ketishiga erishsa bo'ladi. Biroquzoq muldatli istiqbolda moliyalashning bunday mexanizmini barqaror mexanizm deb bo'lmaydi, chunki, misol uchun, xo-rijda moliya-kredit vaziyatining o'zgarishi shunga olib kelishi mumkinki, likvid aktivlar shaklidagi mamlakat iggi-sodiyotiga investitsiyalar o'z jozibadorligini yo'qotadi. Shu tariqa, to'lov balansini tuzatishga doir tub choralar ishlab chiqish uchun joriy operatsiyalar hisobvarag'iga doir kamomad paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablarni har tomonlama taxlil qilish zarurati paydo bo'ladi, chunki moliyaviy resurslarning barqaror oqimi hisobiga kamomadni moliyalash mumkin bo'lmay qoladi.

Mamlakatning zaxira aktivlari cheklanganda joriy operatsiyalar hisobvarag'iga doir kamomadni ushbu zaxiralardan moliyalash ushbu vaziyatning vaqtincha va kaytuvchan tusdaligida amalga oshirilishi kerak. Masalan, tashqi iqtisodiy to'lovlar va tushumlarning mavsumiy o'zgarishlarini moliyalaganda. Lekin joriy to'lov balansining yomonlashish tamoy-ili mayjud bo'lganida tashqi to'lovlarining balanslanmaganligini tugatishga doir yanada chuqur tuzatuvchi choralar ko'riliishi zarur.

Mamlakat xususiy sektori va rasmiy zaxiralari mab’lag’lari hisobiga moliyalash imkoniyatlari o’zaro bog’langan va u cheksiz emas. Balans kamomadining hajmi bilan qiyoslaganda zaxiralar nisbatan kichik zaxiralarda bo’lganida milliy valyuta kursining pasayishi yokii boshqa tuzatuvchi choralarini joriy etish ehtimoli oshadi. Bu narsa investorlar kutayotgan daromad me’yorlarining pasayishiga olib kelishi sababli xususiy investitsiyalar oqimi o’mini tezda sarmoyaning mamlakatdan oqib ketishi olishi mumkin. (8) tenglama tahlilidan ravshanki, bir vaqtning o’zida joriy operatsiyalar hisobvarag’iga doir kamomadni pasaytirishga va mablag’lar oqib ketishini (moliyaviy hisobvaraqa aks ettirillagan) to’xtatishga qaratilgan tuzatuvchi choralar ko’rilmasa, ichki investitsiyalar va jamg’armalar o’tasidagi musbat farq va norezidentlarga doir sof talablarining o’sishi zaxira aktivlar hisobiga moliyalanishi kerak bo’ladi. Bunday ahvol mazkur mamlakat valyutasiga ishonchni yo’qqa chiqaradi, moliyaviy sarmoyaning xorija oqib ketishini kuchaytiradi va mamlakat zaxiralarining kamayi-shini tezlashdiradi.

Joriy operatsiyalar hisobvarag’iga doir kamomadni xu-susiy sarmoyalar va rasmiy zaxiralar vositasida barqaror moliyalashni har doim ham ta’minlash mumkin bo’lmaydi. Shuning uchun to’lov balansini tahlil qilganda, tashqi to’lovlar balanslanmaganligini bartaraf etish uchun nimalar qilish mum-kinligini, ya’ni tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi natijasida hosil bo’lgan kamomadni xususiy va rasmiy transfertlar, xususiy sarmoyaning oqib kelishi va zaxira aktivlardan faqat kisman foydalanish hisobiga qoplash mumkinligaga qanday qilib erishishni ko’rib chiqish muhimdir.

Tahlil maqsadida (8) tenglamani quyidagi ko’rinishda yozib chiqamiz:

S-1 q CAB q TB+SIB+TRANBqNKA+RT, (9)

buyerda, TV — savdo balansi; SIB — xizmatlar va daromadlar balansi; TRANB — joriy transfertlar balansi.

Zarur tadbirlar miqyosi qandaydir darajada joriy operatsiyalarga doir to’lov balansi saldosini belgilaydigan tarkibiy qismlar tavsiflariga bog’liq bo’ladi. Mamlakat qandaydir vaqt mobaynida savdo balansining barqaror ka-momadini boshdan kechirgan va uni qisman moliyalash maqsa-dida xususiy va rasmiy manbalarga qarz olish uchun muroja-at etgan vaziyatni ko’rib chiqamiz. Bunday vaziyatda mamlaka-katda ushbu qarzga xizmat ko’rsatishga doir operatsiyalarni tavsiflaydigan xizmatlar va daromadlar balansi kamomadi ham ko’zdan kechiriladi. Tovarlar, xizmatlar va daromadlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalar shartlagan kamomadning bir kismi rasmiy hamda xususiy joriy transfertlar-ning musbat salvdosi hisobiga qoplanishi mumkin. Agar ushbu transfertlarning mamlakatga oqib kelishi uzok, muddati tusda bo’lishi kutilsa va unga joriy operatsiyalar hisobvarag’ining boshka tarkibiy qismlari bo’yicha kamomadni moliya-lashning yagona yokii qisman manbai sifatida yondashilsa, to’lov balansiga doir vaziyat arzimagan aralashuv bilan tuzatilishi mumkin. Lekin bu holatda mamlakat kelgusida o’zining tashqi majburiyatlar o’zi to’lashi lozimligini unut-maslik kerak bo’ladi. Xususan, yuzaga kelgan vaziyat kanchalik barqarorligini tahlil qilib turib, tashqi qarzni so’ndirish jadvalini hisobga olish zarur. Asosiy qarz bo’yicha to’lov muddati yaqinlashgan, to’lanadigan summa ancha katta bo’lib, kutilayotgan moliyaviy daromadlar bo’lg’usi to’lovlarni qoplasmaydigan hollarda oxir-oqibatda to’lov balansining krizisli holatini tugatish maqsadida ancha

qattiq choralarga murojaat qilmaslik uchun oldindan tadbirlar ko'rib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'lov balansiga doir vaziyatni nafaqat xususiy sarmoyalar va rasmiy zaxiralarni jahb etish vositasida, balki valyuta kurslarini tartibga solish va byudjet-soliq va pul-kredit siyosati sohasida choralar ko'rish yordamida ham tuzatish mumkin.

Milliy valyutani konvertatsiyalash muammolari bozor islohotining muvaffaqiyati uchun mulk tarkibidagi o'zgarishlar yokii ishlab chiqarish sektorini tubdan o'zgartirish-dan qolishmaydigan darajada ahamiyatga egadir. Xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining tahlili milliy pul birligining barqarot konvertatsiyalishi uchta bazaviy element: jahon iqtisodiyotiga ancha chuqur integratsiyalangan xalq xo'jaligining bozor shakli; ishlab chiqarish va ayrboshlash ichki va tashqi omillarining balanslanganligi va barqarorligini faol rivojlantirish va muayyan darajaga yetkazish; markazlashtirilmagan valyuta bozori orqali tashqi iqtisodiy aloqalarga valyuta xizmati ko'rsatishning yuridik va tashkiliy-texnik infratuzilmasi mavjudligining birikuvi va o'zaro uyg'un harakati bilan ta'minlanishini ko'rsatmoqda.

Kamomad muammosini hal etish usuillardan biri milliy valyuta kursini pasaytirishdir. Milliy valyutani devalvatsiyalash importni mamlakat tovarlari bilan siqib chiqarish va xorijda o'zi ishlab chiqargan mahsulotga talabning ko'payishi vositasida tashqi savdo tovarlari ga ichki narxlarni o'stirishni kompensatsiyalash imkonini beradi. Boshka tomondan esa, milliy valyuta kursining tushishi ichki narxlarning o'sishiga olib keladi, bu esa mamlakat eksportiga talabning o'sishini qisman yokii to'liq ravishda neytrallaydi. Tavsiflangan voqealar rivoji valyuta kursini tartibga solish, albatta, tiyib turuvchi moliya-kredit va byudjet-soliq siyosati bilan to'ldirilishi kerakligini ta'kidlayapti, toki kursning pasayishi yuzaga keltirgan nisbiy narxlarning o'zgarishiga javoban resurslarni qayta taqsimlash oson bo'lsin. Shu tariqa, milliy valyuta kursini pasaytirish orqali xarajatlar tarkibini o'zgartirish, odatda, xarajatlarni qisqartirishga doyr cho-ralar bilan birga olib borilishi kerak: mamlakat ishga tushirilmagan ishlab chiqarish quvvatlariiga ega bo'lmagan sharoitda bu narsa ayniksa dolzarbdir.

Ko'rsatilgan choralarning zarurligi (9) tenglamadan ko'rinish turibdi. Uning tahlili joriy operatsiyalar hisobvarag'i holatinining yaxshilanishi ichki jamg'armalar bilan ichki investitsiyalar o'rtasidagi nisbatlarni ijobjiy o'zgartishlarga olib kelishi kerakligini ko'rsatmoqda. Valyuta kursini pasaytirish o'z holicha maqbul yo'nalishda siljishlarga olib kela olmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, valyuta kursini tartibga solish, albatta, tegishli moliya-kredit va byudjet-soliq siyosati bilan birga olib borilishi kerak. Xususan, o'zgarmas pul-kredit siyosatida kursning tushishi natijasida talabning ko'payishi pulning doimiy hajmida pulga talabning o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, bu narsa ichki bozorda foizning nominal va haqiqiy stavkalari oshishini rag'battanadiradi. Foiz stavkalarning o'zgarishiga sezgir xarajatlarining keyinroq qisqartirilishi ichki jamg'armalarning o'sishiga tutki beradi. Lekin shu bilan birga jamg'armalar bilan investitsiyalar o'rtasida maqbul nisbatlarni saklab qolish, ayniqsa, ishlab chiqarish omillaridan to'liq foydalanish holatida, joriy to'lovlarining balanslanmaganligini bar-taraf etish uchun hali yetarli emas. Shuning uchun valyutani tartibga solish bilan bir qatorda, moliya-kredit va byudjet-soliqsiyosatini

kattikdashtirish vositasida ichki xarajatlarni kisqartirish maqsadga muvofiq bo'lardi, bu esa eksportga yo'naltirilgan va import o'mini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish miyqoslarni ko'paytirish uchun resurslarni bo'sxatib olish imkonini beradi.

(6) tenglamani ko'rib chiqayotganda tashqi to'lovlarining balanslanmaganligi ehtimoliy sabablaridan biri byudjet kamomadi ekanligi ta'kidlandi. Shu sababli valyutani devalvatsiyalash jami jamg' armalar bilan investitsiyalar o'ttasidagi zarur nisbatga erishish uchun yetarlicha ta'sirchan bo'lмаган hollarda ko'rsatilgan o'zgaruvchi miqdor-larning o'rtasidagi farqni qisqartirishga davlat xara-jatlari tarkibi va byudjet-soliq (fiskal) siyosatini o'zgartirish hisobiga erishish mumkin bo'lar, balki. Bunda murosaga borishga to'g'ri keladi, toki byudjet-soliq siyo-satidagi tegishli choralar to'lov balansini tuzatish muam-molarini chuuqurlashtirmas. Masalan, mamlakat infratu-zilmasiga sarmoya qo'yilmalarini qisqartirish tashqi to'lovlar muammosini qisqa vaqtga hal etishi mumkin. Agar xarajatlarni bunday qisqartirish transport tarmog'ita daxl-dor bo'lsa, uzoq muddatli istiqbolda bunday chora ta'mindoda uzilishlarga sabab bo'lishi va iqtisodiyotdagi tang joylarni tugatishga qaratilgan energiya ishlab chiqarish va uni yetkazib berishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning ustiga soliqlarning eng yuqori stavkalari bilan bog'langan yokii sarmoyali operatsiyalar daromadlarini soliqqa tortishga tanlab yo'naltirilgan soliq siyosati ham nomaqbul oqibatlarga ega bo'lishi mumkin — xususiy jamg'arma-larning bunga javoban qisqarishi va mamlakat ichki iqtisodiyotiga mablag'larni investitsiyalash rag'batlarining pasayishi bunday choralarning qo'shimcha samarasini bo'lishi mumkin. Byudjet-soliq siyosati sohasida choralarning ko'rsatilgan oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun zarar ko'rib ishlaydigan davlat korxonalari va xususiy sektorga subsi-diyalar qisman yokii to'liq tugatilishini, shuningdek, davlat sektori faoliyatining xususiy sektor samarali ish-lay olmaydigan turlari miyqoslarni qisqartirishni na-zarda tutish kerak.

To'lov balansini tuzatish chog'ida o'tkazilayotgan moliya-kredit siyosatini e'tiborga olish lozim. Tashqi to'lovlar balanslanmaganligi ichki iqtisodiyotga investitsiyalar milliy jamg' armalar summasidan oshib ketganligi faktini aks ettirishi mumkin (bu esa mamlakatning ichki xara-jatlari uning daromadlaridan oshib ketishiga teng); bunday vaziyat ortiqcha ekspansionistik moliyaviy siyosat tu-fayli yuzaga kelishi mumkin. Uni o'zgartirish, birinchi navbatda, real foiz stavkalari umuman olganda musbat bo'lib, jamg' armalarni to'plashni rag'batlantirishiga, shu-ningdek, investitsiyalar oqimini ta'minlaydigan barqa-pop makroiqtisodiy vaziyatni barpo etishga yo'naltirilishi kerak. (4) tenglama to'lov balansi tahlili nuqtai nazaridan olganda, kredit-moliya va byudjet-soliq siyosatining maqsadi ichki xarajatlarni shunday darajada cheklashdan iborat bo'lishi lozimki, toki u ichki zaxiralar va tashqi moliyalash hisobiga ta'minlana olein.

To'lov balansini tartibga solishga karatilgan moliya-kredit siyosatining muhim jihatlaridan biri pul-kredit sohasidagi ahvol bilan zaxira aktivlarga doyr operatsiyalar o'ttasidagi aloqa hisoblanadi. Zaxira aktivlarni qisqartirish joriy operatsiyalar hisobvarag'iga doyr kamomad va (yokii) ekspansionistik moliya-kredit siyosati shartlashi moliyaviy mablag'larning sof oqib ketishi bilan bog'langan bo'lishi mumkin.

Zaxiralarning tugashi pul bazasini qisqartirishga va buning oqibatida valyuta choralarini qattiqlashtirishga olib keladi. Ko'proq jilovlab turuvchi siyosat foiz stavkalarini oshirish hisobiga tashqi to'lovlarning ko'proq muvozanatlashuviga imkon yaratadi, chunki ular ichki talabning qisqa-rishiga olib keladi va mazkur mamlakat aktivlарини чеt el investorлari uchun yanada jozibali qiladi. Shu bilan birga, agar zaxira aktivlарни qisqartirishga javoban pul bazasi-ning hajmini qisqartirishga yo'l qo'ymaslikka intilib, valyuta organлari ushbu bazarining ichki tarkibiy qismini kengaytirsalar (masalan, tutib turuvchisi bank tizimi bo'lgan qimmatli qog'ozлarni ochiqbozorda sotish yo'li bilan), tu-zatishning bunday mexanizmi ishlamasligi mumkin. Bunday neytrallashtiruvchi chora, taxminimizcha, ichki foiz stavkalari o'sishining oldini oladi va bu bilan busiz ham barqaror tusdagи kamomadni chuqurlashtiradi.

### *Qisqacha xulosalar*

Mamlakatning zaxira aktivlari cheklanganda joriy operatsiyalar hisobvarag'iiga doir kamomadni ushbu zaxiralardan moliyalash ushbu vaziyatning vaqtincha va kaytuvchan tusdaligida amalga oshirilishi kerak. Masalan, tashqi iqtisodiy to'lovlар va tushumlarning mavsumiy o'zgarishlarini moliya-laganda. Lekin joriy to'lov balansining yomonlashish tamoyili mavjud bo'lganida tashqi to'lovlarning balanslanmaganligini tugatishga doir yanada chuqur tuzatuvchi choralar ko'riliши zarur.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. To'lov balansi nima va u qanday tuzilishga etaq
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning shakllari to'lov ba-lansida qanday aks ettiriladiq
3. Joriy operatsiyalar hisobvarag'i hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobvarag'i bir-biri bilan qanday bog'langanq
4. To'lov balansini taxdil etishning uslubiy yo'nalish-lari qandayq
5. To'lov balansi taqchilligini bartaraf etish maqsadida davlat qanday choratadbirlari amalga oshirishi mumkinq

### *Asosiy adabiyotlar*

1. B.I.Bashkatov, B.T.Ryabushkin. Praktikum po natsionalnomu schetovodstvu. Ucheb. posobie – M., 2014 g.
2. Pod red. B.I.Bashkatova. Natsionalnoe schetovodstvo. Uchebnik. 2014 g.
3. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
4. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
5. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
6. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)

## «XALQARO STATISTIKASI» FANI BO‘YICHA TESTLAR

### 1. Birinchi xalqaro statistika kongressi nechanchi yili bo‘lgan

- 1) 1906
- 2) 1903
- 3) 1853
- 4) 1849
- 5) 1861

### 2. BMT ning statistik organlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) YUNESKO, FAO, MOT;
- 2) Statistik komissiya, statistik byuro;
- 3) YUNESKO, statistik komissiya va statistik byuro;  
FAO va MOT;
- 1 va 2.

### 3. Xalqaro statistika instituti nechanchi yili tuzilgan

- 1) 1880
- 2) 1900
- 3) 1885
- 4) 1891
- 5) 1875

### 4. Iste’mol baholari indeksi nimani ifodalaydiq

- 1) xayot qiymatini
- 2) turmush darajasini
- 3) inflasiyani
- 4) 1 va 2
- 5) 2 va 3

### 5. Tashqi savdo baho indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

- 1)  $I_P = \frac{\sum P_1}{\sum P_0}$  ;      4)  $i_P = \frac{P_1}{P_0}$
- 2)  $I_P = \frac{\sum P_1 q_1}{\sum P_0 q_1}$  ;      5)  $I_P = \frac{\sum P_1 q_0}{\sum P_0 q_0}$
- 3)  $I_P = \sqrt{\frac{\sum P_1 q_1}{\sum P_0 q_1}}$  ;

### 7. Tug‘ilish koefitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

- 1)  $K_T = \frac{T * 1000}{\bar{A}}$  ;      4)  $K_T = \frac{T * 1000}{\bar{y}}$
- 2)  $K_T = \frac{T_1 + T_n}{2}$  ;      5)  $K_T = \frac{T * 100}{\bar{A}}$
- 3)  $K_T = \sqrt[4]{TK}$  ;

### 8. Tashqi savdo fizik hajmi indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

- 1)  $I_q = \frac{\sum q_1}{\sum q_0}$  ;      3)  $I_q = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum p_0 q_0}$  ;

$$2) I_q = \frac{\sum p_0 q_1}{\sum p_0 q_0}; \quad 4) i_q = \frac{q_1}{q_0};$$

$$5) I_q = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum p_0 q_1}$$

**9. Aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishning quyidagicha manbalari mavjud:**

- 1) aholi ro‘yxati, joriy uchyot
- 2) aholi ro‘yxati joriy uchyot va prognoz
- 3) aholi ro‘yxati, hisobot
- 4) hisobot va joriy uchyot
- 5) maxsus uyushtirilgan tekshirishlar va aholi ro‘yxatlari

**10. Aholining vafot etish koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:**

$$1) K_B = \frac{B * 100}{\bar{A}}; \quad 3) K_B = \frac{B * 1000}{\bar{A}};$$

$$K_B = \frac{(T - B) * 1000}{\bar{A}}; \quad 4) K_B = \frac{\Sigma Bt}{\Sigma t};$$

$$5) K_B = \frac{\frac{1}{2} B_0 + \frac{1}{2} B_n}{\bar{A}}$$

**11. Maxsus tashkil etilgan statistik kuzatishga quyidagilar kiradi:**

1. ro‘yxatlar.
2. bir yo‘lakay uchyotlar va maxsus statistik tekshirishlar.
3. har yilgi koramollar ro‘yxati.
4. ko‘p yillik daraxtlar ro‘yxati.
5. yil boshidagi aholi sonini aniqlash.

**12. Vazirlikka qarashli avtoxo‘jaliklarda avtomashinalarning bir yo‘lakay uchyoti o‘tkazilayapti bunda kuzatish obyekti quyidagilar hisoblanadi:**

1. avtomashinalar;
2. har bir avtomashina;
3. avtoxo‘jalik;
4. avtoxo‘jaliklar;
5. xaydovchilar.

**13. Quyidagilar bir yo‘lakay kuzatish hisoblanadi:**

1. talabalarning vaqt byudjetini tekshirish;
2. aholining joriy uchyoti;
3. pasajerlarning shahar transportidan foydalanishini o‘rganish;
4. ko‘p yillik daraxtlar ro‘yxati.
5. yil boshidagi aholi sonini aniqlash.

**14. Kuzatish maqsadidan kelib chiqib, guruhashning quyidagi turlari mavjud:**

1. oddiy va kombinatsion;
2. birlamchi va ikqilamchi;

3. tipologik, analitik, strukturaviy (tuzilma);

4. atributiv, miqdoriy;

5. atributiv va tipologik.

**15. Atributiv belgilarga quyidagilar kiradi:**

1. mamlakat shaharlari bo'yicha aholi soni;

2. viloyat tumani laridagi do'konlar soni;

3. talabalar soni;

4. millatlar;

5. mehnat resurslari soni.

**16. Jadvallar eganing tuzilishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. strukturaviy;

2. analitik;

3. tipologik;

4. oddiy, guruh, kombinatsion;

5. analitik va oddiy.

**17. Guruh o'rtachalaridan (guruhlarning salmog'i bir xil emas) umumiy o'rtachani aniqlash uchun quyidagi o'rtacha qo'llaniladi:**

1. oddiy arifmetik;

2. tortilgan arifmetik;

3. oddiy garmonik;

4. tortilgan garmonik;

5. geometrik o'rtacha.

**18. Agar belgining barcha individual qiymatlarini besh birlikka oshirsak, u holda o'rtacha qanday o'zgaradiq**

1. besh marotaba oshadi;

2. besh birlikka oshadi;

3. o'zgarmaydi;

4. o'rtacha o'zgarishini aytish mumkin emas;

5. besh marotaba kamayadi.

**19. Agar belgining barcha qiymatlari vaznlarini etti marotaba ko'paytirsak, u holda o'rtacha qanday o'zgaradiq**

1. ko'payadi;

2. kamayadi;

3. o'zgarmaydi;

4. o'rtachani qzgarishini aniq aytib bo'lmaydi;

5. etti marotaba ko'payadi.

**20. Kuzatish dasturi deganda nima tushiniladiq**

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;

2. aholi ro'yxati;

3. kuzatilayotgan to'plamning bitta birligini;

4. qoganilayotgan xodisa va jarayonlar to'plami;

5. bir yo'lakay kuzatishlar.

**21. Kuzatish birligi deganda nima tushuniladiq**

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;

2. aholi ro'yxati;

3. kuzatilayotgan to'plamning bitta birligini;
4. qogani layotgan xodisa va jaray'onlar to'plami;
5. bir yo'lakay kuzatishlar;

**22. Statistikada moda deganda nima tushuniladiq**

1. to'plamda eng katta songa yokii salmoqqa ega bo'lgan ko'rsatkich;
2. to'plamni teng ikkiga bqluvchi ko'rsatkich;
3. to'plam birliklarini qzgaruvchangligi;
4. qator o'rtacha darajasi;
5. eng katta belgi qiymati.

**23. Statistikada mediana deganda nima tushuniladiq**

1. to'plamda eng katta songa yokii salmoqqa ega bo'lgan ko'rsatkich;
2. to'plamni teng ikkiga bqluvchi ko'rsatkich;
3. to'plam birliklarini qzgaruvchangligi;
4. qator o'rtacha darajasi;
5. eng katta belgi qiymati.

**24. Variatsiya koefitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:**

$$1) \bar{x} = \frac{\frac{1}{2}x_1 + x_2 + \dots + \frac{1}{2}x_n}{n-1}; \quad 2) V = \frac{\delta \cdot 100}{\bar{x}}$$

$$3) K = \sqrt[n]{nK}; \quad 4) \bar{x} = \frac{\sum x^2}{n}; \quad 5) R = x_{\max} - x_{\min}$$

**25. Tanlanma kuzatish quyidagi maqsadlar uchun o'tkaziladi:**

1. vaqt va mablag'ni tejash;
2. kuzatish obyektini tahlil qilish;
3. ma'lumotlarni guruhlash uchun;
4. yoppasiga kuzatish ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish;
5. to'plamdagi qzgaruvchanlikni tekshirish.

**26. Repräsentativlik xatolari quyidagi turga bo'linadi:**

1. tasodify va muntazam xatolar;
2. muntazam va kuzatish xatolar;
3. kuzatish va tasodify xatolari;
4. variatsion va o'rtacha xato;
5. o'rtacha va kuzatish xatosi.

**27. Bosh to'plamdan birliklar ma'lum interval bo'yicha olinib, tanlanmaga kiritilsa, bunday tanlash ... deb ataladi.**

1. tasodify tanlash;
2. mexanik tanlash;
3. seriyalab tanlash;
4. tipologik tanlash;
5. variatsion tanlash.

**28. Belgilar qotasidagi bog'lanishlar xarakteriga qarab, ular quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. funksional va korrelatsion bog'lanish;
2. korrelyasion va kombinatsion bog'lanish;

3. kombinatsion va variatsion bog'lanish;
4. variatsion va kombinatsion bog'lanish;
5. tipik va variatsion bog'lanish.

**29. Regression va korrelyasion tahlil quyidagi bosqichlardan iborat**

**bo'linadi:**

1. ikki bosqichdan;
2. uch bosqichdan;
3. to'rt bosqichdan;
4. besh bosqichdan;
5. olti bosqichdan.

**30. Mustaqil O'zbekistonning yangi «Davlat Statistikasi to'g'risida»gi qonun nechanchi yili qabul qilindiq**

1. 2000 yil;
2. 1999 yil;
3. 2001 yil;
4. 2002 yil;
5. 2003 yil.

**31. Statistik kuzatishning quyidagi usullari mavjud:**

1. bevosita kuzatish, xujjatli, savol-javob va korrespondensiya;
2. bilvosita kuzatish va korrelyasion;
3. regression va korelyasion;
4. regression va funksional;
5. funksional va tipologik;

**32. Kuzatish obyekti deganda nimani tushunasizq**

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;
2. aholi ro'yxati;
3. kuzatilayotgan to'plamning bitta birligini;
4. o'rganilayotgan xodisa va jarayonlar to'plami;
5. bir yo'lakay kuzatishlar.

**33. Svodkalash tashkil etilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. markazlashgan, markazlashmagan, kombinatsiyalashgan;
2. atributiv, tipologik;
3. markazlashgan, markazlashmagan;
4. oddiy va murakkab;
5. tor va keng.

**34. Belgilar ifodalananishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. Miqdoriy, atributiv va alternativ;
2. Muhim va muhim bo'lmagan;
3. Miqdoriy va niqdorsiz;
4. Omil va natijaviy;
5. Omil va miqdoriy.

**35. O‘rtacha arifmetik miqdor quyidagi formula yordamida aniqlanadi:**

$$1) \bar{x} = \frac{\frac{1}{2}x_1 + x_2 + \dots + \frac{1}{2}x_n}{n-1}; \quad 2) \bar{x} = \frac{\sum x}{n}; \quad \bar{x} = \frac{\sum xf}{\sum f};$$

$$3) K = \sqrt[n]{\prod K_i}; \quad 4) \bar{x} = \frac{\sum x^2}{n}; \quad 5) \bar{x} = x_{\max} - x_{\min}$$

**36. Dinamika qatorlarini tahlil qilish quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi:**

1. Mutloq qo‘shimcha o‘sish, o‘sish sur’ati, qo‘shimcha o‘sish sur’ati, 1 foiz qo‘shimcha o‘sishning absolyut mohiyati;
2. Variatsion kenglik, o‘sish sur’ati;
3. O‘sish sur’ati, korrelyasiya koeffitsienti;
4. Qo‘shimcha o‘sish sur’ati, o‘rtacha xatolik;
5. 1 foiz qqshimcha o‘sishning absolyut mohiyati, variatsiya koeffitsienti, nisbiy miqdor.

**37. Dinamika qatorlarida qator o‘rtacha darajasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:**

$$1) i_g = \frac{\sum q_1}{\sum q_0}; \quad i_g = \frac{P_1}{P_0} \quad 2) R = x_{\max} - x_{\min} \quad \bar{y} = \frac{\sum y_t}{t};$$

$$3) K = \sqrt[n]{\prod K_i} \quad 4) I_p = \frac{\sum P_i T \cdot 1000}{A_{15-49 \text{ yil a'zom}}} \quad$$

$$5) \bar{y} = \frac{\sum y}{n}; \quad \bar{y} = \frac{\frac{1}{2}y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1} + \frac{1}{2}}{n-1}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y_t}{t};$$

**38. Dyuto nechanchi yili umumiy baho indeksini  $\sum r_i G^i \sum r_0$  shaklida hisoblashni taklif qilganganq**

1. 1738 yil;
2. 1740 yil;
3. 1880 yil;
4. 1842 yil;
5. 1735 yil.

**39. Laspeyres agregat baho indeksiga qachon asos soldiq**

1. 1871 yil;
2. 1870 yil;
3. 1800 yil;
4. 1850 yil;
5. 1861 yil.

**40. Paashe quyidagi indeksga asos soldi:**

$$1) I_P = \frac{\Sigma P_1}{\Sigma P_0};$$

$$4) i_P = \frac{P_1}{P_0}$$

$$2) I_P = \frac{\Sigma P_1 q_1}{\Sigma P_0 q_1};$$

$$5) I_P = \frac{\Sigma P_1 q_0}{\Sigma P_0 q_0}$$

$$3) I_P = \sqrt{\frac{\Sigma P_1 q_1}{\Sigma P_0 q_1}};$$

**41. Aholining harakati quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. Muntazam va o'zgaruvchan;
2. Turg'un va o'zgaruvchan;
3. Tabiiy va mexanik;
4. Davriy va mavjud;
5. Ichki va tashqi.

**42. Maxsus tug'ilish koefitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:**

$$1) l_{x+1} = l_x \cdot P_x \quad 2) \bar{y} = a_0 + a_1 x \quad 3) R = x_{\max} - x_{\min}$$

$$4) K = \sqrt[4]{PIK} \quad 5) K_r = \frac{T \cdot 1000}{A_{15-19 \text{ ён ажнип}}}$$

**43. MHTda quyidagi jamlanma hisoblamalar tizimi mavjud:**

1. 2 ta;
2. 3 ta;
3. 4 ta;
4. 5 ta;
5. 7 ta.

**44. Aholining bandlik ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:**

Mehnat yoshidagi aholi soni

$$1. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{band bo'lgan aholi soni}}$$

$$2. K = \frac{\text{band bo'lgan aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$3. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}$$

$$4. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Band bo'lgan aholi soni}}$$

$$5. K = \frac{\text{Band aholi}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi}}$$

**45. Mehnat yoshidagi aholi salmog'i quyidagicha hisoblanadi:**

$$1. K = \frac{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$2. K = \frac{\text{band bo'lgan aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$3. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}$$

$$4. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Band bo'lgan aholi soni}}$$

$$5. K = \frac{\text{Band aholi}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi}}$$

**46. MXT tarmoqlararo balansi asosan... kvadrantlardan iborat.**

1. 2 ta;
2. 3 ta;
3. 4 ta;
4. 5 ta;
5. 6 ta.

**47. Mahsulot tannarxi 4 foiz ga oshdi, mahsulot hajmi esa 5 foiz ga oshdi, mahsulot xarajatlari qanday o'zgaradi:**

1. 20 foiz ga oshdi;
2. 20 foiz ga kamaydi;
3. 1 foiz ga oshdi;
4. 9,2 foiz ga oshdi;
5. 15 foiz ga oshdi.

**48. Yoshni siljitim usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:**

$$1) l_{x+1} = l_x \cdot P_x$$

$$2) \bar{y} = a_0 + a_1 x \quad 3) R = x_{\max} - x_{\min}$$

$$4) K = \sqrt[4]{IK} \quad 5) \bar{y} = \frac{\sum xt}{\sum t}$$

**49. Joriy davrda baho 5 foiz ga oshdi, mahsulot fizik hajmi esa 3 foiz ga oshsa, mahsulot qiymati qanday o'zgaradiq**

1. 15 foiz ga oshdi;
2. 8,15 foiz ga oshdi;
3. 8 foiz ga oshdi;
4. 2 foiz ga oshdi;
5. 0,6 foiz ga oshdi.

**50. Mahsulot qiymati 20 foiz ga oshib, fizik hajmi esa 10 foiz ga kamaysa, mahsulot bahosi qanday o'zgarganq**

1. 20 foiz ga o'sadi;
2. 20 foiz ga kamaydi;
3. 10 foiz ga kamaydi;
4. 10 foiz ga o'sdi;
5. 9 foiz ga o'sdi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat statistikasi to'g'risida Qonuni. – T., 2002 yil 12 dekabr, №441-II.
2. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
3. Sidenko A.V., Bashkatov B.I., Matveeva V.M. Mejdunarodnaya statistika. Uchebnik. Izdatelstvo «Delo i Servis». M., 2003.
4. Ivanov YU.M. i dr. Ekonomicheskaya statistika. M., 2002g.
5. Peter fon Der Lippe. Ekonomicheskaya statistika. SHtutgart. 2003g.
6. Peter fon Der Lippe. Statistika predpriyatiy. Izdatel Federalnoe statisticheskoe upravlenie Germanii. Visbaden. 2003g.
7. Grigoruk N.E. Statistika vnesheekonomiceskix svyazey. Uchebnoe posobie. – M.: Izdatelstvo «Delo i servis», 2004
8. Pod red. I.I.Eliseevoy. Sotsialnaya statistika. Uchebnik. – M., 2003 g.
9. Selsovskiy V.A. Sovershenstvovanie analiza effektivnosti vneshney torgovli. Vestnik statistiki. 2001. №3.
10. B.Maxmudov Milliy hsobchilik asoslari. O'quv qo'llanma. – T., «Akademiya», 2003 y.
11. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizmi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
12. V.N.Salin, I.V.Dobashina. Birjevaya statistika. Ucheb. posobie. – M., 2003 g.
13. V.P.Komeva. CHelovecheskoe razvitiye: novoe izmenenie sotsialno – ekonomiceskogo progressa: Ucheb. Posobie. – M., 2000.
14. B.T.Ryabushkin, E.YU.CHurilova. Metody otsenki tenevogo i neformalnogo sektorov ekonomiki. – M., 2003 g.
15. I.I.Elisseva, M.M.YUzbashov. Obhaya teoriya statistiki. Uchebnik. – M., 2003 g.
16. Doklad o mirovom razvitiy 2000G'2001. Borba s bednostyu. Vsemirnyy bank. Vashington, okrug Kolumbiya. 2000.
17. Doklad o razvitiy chelovecheskogo potensiala v stranax Yevropa i SNG – M., PROON, 2002 g.

18. A.YU.Shevakov, A.YA.Kirute. Izmenenie ekonomicheskogo neravenstva i bednosti. – M.: SSEI, 2001 g.
19. S.L.Postnikov, S.A.Popov. Mirovaya ekonomika i ekonomicheskoe polojenie Rossii. Sbornik statisticheskix materialov. – M., 2001.
20. A.E.Surinov. Doходы населения: опыт количественных измерений. – M., 2000 g.
21. SHaripov U.A. O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoati mahsulotlari eksportini iqtisodiy-statistik o'rganish. Magistrlik dissertatsiyasi. TDIU, 2005.
22. Nosirov R.X. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy salohiyatini iqtisodiy-statistik o'rganish. Magistrlik dissertatsiyasi. TDIU, 2005.
23. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
24. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
25. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
26. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
27. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
28. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)
29. [www.europarl.org.uk](http://www.europarl.org.uk)

A.H. Ayubjonov, B.Sh. Akbarova

# XALQARO STATISTIKA

*O'quv qo'llanma*

*“IQTISODIYOT” – 2019*

*Muharrir:  
D.M. Mirhidoyatova*

*Musahhib:  
A.O. Matxo'jayev*

Litsenziya raqami: №10-4286 14.02.2019. Bosishga 09.09.2019 da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozи. Tayms garniturasi. Sharqli bosma tabog'i: 17,0.  
Adadi 20 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZARAFSHON FOTO» XK matbaa bo'limida chop etildi, 100066.  
Toshkent sh. Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.